O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UO‘K:378.036

A’zam ABDULLAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: abdullayeva’zam@2023

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIALEKTIK ZARURIYATINI O‘RGANISHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq tanqidiy muammolar ko‘rib chiqilgan. Unda jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy tarkibiy qismi sifatida huquqiy bilimlarni shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Prezident Sh. Mirziyoyev qonun ustuvorligini ta’minlashda va huquqiy tamoyillarni hurmat qiladigan fuqarolarni tarbiyalashda huquqiy madaniyatning muhim ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, yoshlar, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot, huquqiy islohotlar, huquqiy ong, akademik tahlil, mustaqillik, demokratik islohotlar, huquqiy ta’lim, jamiyat taraqqiyoti, falsafiy o‘lchovlar.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ДИАЛЕКТИЧЕСКОЙ НЕОБХОДИМОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены критические проблемы, связанные с повышением правовой культуры молодежи в условиях развития гражданского общества в современном Узбекистане. В ней подчеркивается необходимость формирования правовых знаний как основной составной части развития и стабильности общества. Президент Ш. Мирзиёев подчеркивает важность правовой культуры в обеспечении верховенства закона и воспитании граждан, уважающих правовые принципы.

Ключевые слова: Узбекистан, молодежь, правовая культура, гражданское общество, социальное развитие, правовые реформы, правосознание, академический анализ, независимость, демократические реформы, юридическое образование, социальное развитие, философское измерение.

SOME ISSUES OF STUDYING THE DIALECTIC NECESSITY OF FORMING CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines critical concerns related to the improvement of legal culture among young in the context of civil society development in modern Uzbekistan. It underscores the need of fostering legal knowledge as a fundamental component for societal advancement and stability. President Sh. Mirziyoyev emphasizes the essential importance of legal culture in upholding the rule of law and fostering a citizenry that respects legal principles.

Key words: Uzbekistan, youth, legal culture, civil society, social development, legal reforms, legal consciousness, academic analysis, independence, democratic reforms, legal education, societal advancement, philosophical dimensions.

Kirish. Zaruriyat bu–hodisa va hodisalarlar o‘rtasidagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi dialektik kategoriyadir. Zaruriyat tevarak-atrofimizdagi barcha voqelikga daxldor tushuncha hamdir. Demak, fuqarolik jamiyati rivojlanishida ham zaruriyatning aloqadorligi bor. Chunki, fuqarolik jamiyati boshqa jamiyatlardan farq qilib, insoniyat tarixidagi taraqqiyotning yuqori boqichidir. XX asrning 90-yillariga kelib fuqarolik jamiyatiga talab osha boshladi. U jozibador mavqega aylana boshladi. Dunyodagi ko‘pgina mamlakat vakillari chex, venger, polyak, nemis, ingliz faylasuf-olimlari fuqarolik jamiyati masalasiga ongli ravishda yondasha boshladilar. Aniqrog‘i yangi jamiyat haqida tez-tez fikrlar o‘rtaga tashlandi. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so‘ng Amerika, G‘arbiy Yevropada bunday holat keng tus oldi. Sababi inson qadrini e’zozlaydigan va unga munosib sharoit yaratadigan jamiyat muhim zaruriyatga aylana boshladi. Ijtimoiy faoliyatni o‘zgartirish uchun harakat boshlandi. Bularga ta’sir qiluvchi sharoit paydo bo‘la boshladi. Bular quyidagilarda ko‘zga tashlandi.

Birinchidan ijtimoiy faoliyatni aks ettiradigan jamoat tashkilotlarni ko‘plab paydo bo‘lishi;

Ikkinchidan davlat hokimiyati bilan parlamentlarning o‘zaro munosabatlari;

Uchinchidan, davlat tuzilmalari va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zgaruvchan dinamika murakkab dialektik jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi va bu yangi davrda yangicha tahlilni talab qiladi.

Ijtimoiy landshaft qonunlarga rioya qilishni, boshqaruv tizimini davlat budjetlaridan samarali foydalanishga, resurslarni adolatli taqsimlashga va huquqiy chegaralardan tashqarida munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan paradigmani talab qiladi. Jamiyat farovonligi uchun zarur bo‘lgan bunday urinishlar byurokratik me’yorlardan voz kechishni anglatadi.

Bu davr fuqarolik jamiyatini zamonaviy nuqtai nazardan qayta baholashni, davlat boshqaruvidagi demokratik jarayonlarning imperativini ochib berishni talab qiladi. Bunga jamiyat tuzilmalari bilan hamkorlikda qarorlar qabul qilish, davlat institutlarining muvozanatli asosni yaratish vakolatlarini cheklash va vakolatlarni nodavlat tashkilotlarga berish kiradi. Davlat boshqaruvi funksiyalarini democrat-lashtirish muhim ehtiyoj sifatida namoyon bo‘lib, islohotlarning fuqarolik jamiyati institutlarini barpo etish va rivojlantirishga qaratilganini ta’minlash – respublikamizda kun tartibiga kiritilgan.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan 755 ta respondentning “Fuqarolik jamiyati taraqqiy etdirishda davlat bevosita ta’sir ko‘rsatadimi?” deganda nimalarni tushunasiz?, degan savolga respondentlarning 70.9% foizi “Ta’sir ko‘rsatadi”, 10.6 foizi “Yaxshi ishlar amalga oshirilmoqda” degan bo‘lsa, 9.7 foizi “Turli partiyalar”, 8.9 foizi “Nodavlat jamoat tashkilotlari” deb izohlagan.

Jumladan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishida o‘z ifodasini topgan salmoqli yutuqlarga erishildi. Ushbu qonunchilik choralari kasaba uyushmalaridan tortib nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va diniy erkinliklargacha bo‘lgan turli jihatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, jamiyat ishtiroki va boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qat’iy majburiyatni bildiradi.

Ushbu paradigma o‘zgarishining markazida fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi keng ishtiroki, demokratiyaning ko‘p qirrali tabiatining ramzi hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, fuqarolarning huquqlari va davlat qurilishidagi faol ishtiroki demokratiyaning ko‘p qirrali jihatlarini ta’kidlab, fuqarolarning qarorlar qabul qilish, saylovlar va konstruktiv bahs-munozaralardagi ishtirokini qamrab oladi.

Jamiyatda demokratiyaning hayotiyligini baholash nozik mezonlarni o‘z ichiga oladi: aholining qonunlardan xabardorligi, ularning ijrosi ustidan nazorat va fuqarolarning davlat ishlariga aralashish darajasi. Buni tushunish shunchaki siyosiy ritorikadan tashqari haqiqiy demokratik nutqning asosini tashkil qiladi.

Mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda 755 ta respondentning “Sizning yoshlar muammolarini hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari(nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, mahalla va h.k.)ning o‘rni bormi?, degan savolga respondentlarning 69.7% foizi “Ha, albatta” deb fikr bildirgan bo‘lsa, 15.4% foizi “Yo‘q, sezilmaydi” degan fikrga to‘xtalishgan. Respondentlarning ko‘rsatib o‘tilgan ushbu fikrlaridan kelib chiqib, yoshlar muammolarini hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, mahalla va h.k.)ning o‘rni haqidagi g‘oyalarni bo‘yicha ko‘proq targ‘ibot ishlarini olib borsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Eng muhimi, bu sohalarda sezilarli yutuqlarga erishilmasa, demokratiya haqidagi munozaralar shunchaki siyosiy teatrga aylanib qolish xavfi bor. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati evolyutsiyasi uchun qulay muhitni yaratish teskari amaliyotlardan voz kechishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda davlat va boshqaruv organlarining asosiy vazifasi rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zaruriyat imkoniyati yaratilmaydi. Zaruriyatga qarshi faoliyat davom etaveradi. Hozirgi davrda davlatning, davlat hokimiyatining hamda boshqaruv organlarining asosiy vazifasi mamlakatdagi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy guruhlar fuqarolik jamiyatining endigina tashkil topib rivojlanayotgan turli institutlari bilan hamkorlikda ishlash va o‘zaro hamkorlik qilish munosabatlarni ilg‘or variantlarini izlash ham zaruriyatga aylanib bormoqda. “Nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa jamoat tuzilmalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning maqsadi – respublikamizda tuzilmalarga oid ijtimoiy siyosat yuritishning yangi modelini yaratish, bu tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni echishga jalb etish, ularga axborot, maslahat, uslubiy, tashkiliy-texnik jihatdan ko‘maklashish, shuningdek, davlat ijtimoiy buyurtmalari orqali bu tuzilmalar faoliyatini jadallashtirishdan iborat”[1].

Fuqarolik jamiyatining yashovchanligini ta’minlash asosan xalq manfaatlaridan kelib chiqib, uning bardavomligiga e’tiborni qaratishdir. Ya’ni umumxalq fikri bilan hisoblashish xalqni o‘zaro munosatbatlariga jiddiy e’tibor berish davlat organlarinig diqqat markazida turishi lozim, o‘z navbatida muammoga bunday yondashish fuqarolik jamiyatini tushungan holda unga intilishni kuchaytiradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishni asosiy vazifalardan bir qismi bu – davlat hokimiyati faoliyatini, mansabdor shaxslar bilan fuqaro orasidagi munosabatlarni, ularni bir-birlariga nisbatan mas’uliyatli bo‘lgan holda amalga oshishini talab etish xususiyatidir. Bu jarayonlar muhayyo bo‘lgandagina fuqarolarni jamiyatni siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy strukturasi isloh etiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi davrida nafaqat siyosiy tashkilotlar, balki nosiyosiy birlashmalar, institutlar ham siyosiy hayotga o‘zlarining nazariy va amaliy fikr, takliflari bilan o‘z ta’sriini o‘tkazib borishi kerak.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zaruriyati yana shunda ko‘rinadiki, ularsiz fuqarolik jamiyati yashay olmaydi. Jumladan, hokimiyatni xalq tomonidan ifoda etilishi, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, odil sud hokimiyatini bo‘lishi, fikrlar va mafkuralarning turlicha, ya’ni xilma-xil bo‘lishi, ijtimoiy guruhlar huquqlarini kafolatlanishida erkin saylov bo‘lishi, siyosiy institutlarning erkin faoliyatlarigi rioya qilishi kabilardir.

Ma’lumki, sinergetika doirasida ham ijtimoiy munosabatlar o‘rganilmoqda. Bular qatorida I.Prigojin, I.Sengers, G.Xaken, V.I. Arshinov, Ye.N. Knyazova, S.P. Qurdoshevlarni tadqiqotlarini olish mumkin. Ushbu olim va faylasuflar ijtioiy-siyosiy hayotdagi bifurkatsion bo‘linishlar hamda fluktatsion o‘zgarishlarga alohida diqqatni tortmoqdalar. Boshqa olim A.P. Nazaretyaning fikricha fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy o‘zgarishlar nafaqat murakkab xarakterga ega bo‘ladi, u ko‘p ma’noli tasodiflarni ham qamrab oladi. Bu soha o‘zida klassik, noklassik, postnoklassik, ratsionallik elementlarini ham aks ettiradi[2].

Demoqchimizki, fuqarolik jamiyatini kelajagi haqida o‘ylash uning ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olish, dialektik, sinergetik yondashuvlar orqali mushohada qilishni unutmaslik lozim. Zero, hayot umuman taraqqiyot zaruriyati bilan birga tasodiflardan ham xoli emas.

Aynan zaruriyat va tasodif kategoriyalari orqali yangi erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning samarali yanada yangi konsepsiyalarni yaratishda foydalanish mumkin. Jamiyat ham tasodiflardan xoli bo‘lmaydi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’lum bir davrda respublikamizda kutilmagan tahlikali voqealar sodir bo‘lgan edi. Xalqqa murojaat qilingandan so‘ng xalqimiz yanada birlashib faoliyat yurita boshlagan edi. Aks holda qo‘shni mamlakatlardagi fuqarolar jangi kabi O‘zbekistonda ham avj olishi mumkin edi, ochig‘ini aytganda fuqarolik jamiyatida ham tasodiflar bo‘lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Shu bois hozirdanoq fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish davrida u jamiyatning asosiy poydevorini mustahkamlash davr talabi.

Ma’lumki, hozirgi davr o‘ta murakkab vaziyatni boshidan kechirmoqda. Shunday bo‘lsa-da mamlakatimiz “O‘z taraqqiyotining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga qadam qo‘yayotgan hozirgi murakkab va mas’uliyatli davrda o‘z oldimizga aniq strategik maqsadlar qo‘yib” olg‘a qadam tashlamoqda. Bu qadamlardan biri fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ushbu harakat mamlakatimizni barcha sohalarida namoyon bo‘lib, yildan-yilga xalqimiz farovonligini oshirishga ham qaratilgan. Zero, mamlakatlararo munosabatlar ikki qutbli olamdan ko‘p qutbli olamga o‘tish, fuqarolarning ongi va qalbi uchun kurash jarayoni hech qanday mafkuraviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik zaruriyatini ham o‘rtaga qo‘ymoqda. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlanidek: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz, ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”[4].

Xulosa. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dialektik zaruriyatini va uning yoshlar orasida huquqiy madaniyatni yaxshilashdagi dolzarb masalalarni o‘rganadi. Shuningdek, maqola O‘zbekistondagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar va to‘siqlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Bizning fikrimizcha, yoshlar orasida huquqiy ongni rivojlantirish, mustaqillik va demokratik islohotlarga erishish uchun zarurdir.

Umuman olganda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va uning huquqiy madaniyatni yaxshilashdagi ahamiyatini ta'kidlash mumkin. Bu jarayonlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash va yoshlarni demokratik qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Кадиров М. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг объектив ва субъектив омиллари: Фал. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. – Т., 2019. – 127 б.
2. Агрессия, мораль и кризиса в развития мировой культуры. Синергетика исторического прогресса. – М., 1996. – С. 184.

3. Янги Ўзбекистон – инсон қадри устувор бўлган жамият ва халқпарвар давлатдир. Ш.Мирзиёевнинг сайлов олди дастуридан (https://uzlidep.uz/news-of-party/10002)
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 125 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9.072

Diyora AG‘AYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi
E-mail: dioraaayeva@gmail.com

QarDU professori A.Jabborov taqrizi asosida

TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISHISHDA MOTIVATSIYA VA PSIXOLOGIK TAYYORLIK

Annotatsiya

Ushbu maqolada, talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatga kirishish, nafaqat bilim olish, balki o‘z-o‘zini anglash, maqsadlarni aniqlash va ularga erishish uchun psixologik va ichki kuchlarni shakllantirishni ham talab etadi. Maqolada motivatsiyaning turli shakllari va ularning talabalarning pedagogik faoliyatga qiziqishi va qatnashishiga ta’siri, shuningdek, psixologik tayyorgarlikning ahamiyati va uning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Psixologik tayyorgarlik, talabalar uchun o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy-emosional qobiliyatlarni rivojlantirish, stressni boshqarish va ta’lim jarayonida o‘zlarining potentsialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: Kasb, mahorat, motiv, o‘quv jarayoni, o‘quv faoliyat, o‘qituvchi faoliyati, muloqot, pedagogik qobiliyatlar psixologiyasi, talaba, jamoa, psixologik tayyorlik, o‘z-o‘zini boshqarish, bilim, psixologik tayyorgarlik.

MOTIVATION AND PSYCHOLOGICAL READINESS OF STUDENTS TO ENGAGE IN PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Annotation

In this article, the role of motivation and psychological training in the process of entering students into pedagogical activity is analyzed. Entering pedagogical activities requires not only gaining knowledge, but also self-awareness, identifying goals and forming psychological and internal forces to achieve them. The article examines different forms of motivation and their influence on students' interest and participation in pedagogical activities, as well as the importance of psychological training and its role in ensuring success in the educational process. Psychological preparation is necessary for students to develop self-awareness and social-emotional skills, manage stress and realize their full potential in the learning process.

Key words: Profession, skill, motive, educational process, educational activity, teacher activity, communication, psychology of pedagogical abilities, student, team, psychological readiness, self-management, knowledge, psychological training.

МОТИВАЦИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ К ЗАНЯТИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Аннотация

В данной статье анализируется роль мотивации и психологической подготовки в процессе вхождения студентов в педагогическую деятельность. Вхождение в педагогическую деятельность требует не только получения знаний, но и самосознания, определения целей и формирования психологических и внутренних сил для их достижения. В статье рассматриваются различные формы мотивации и их влияние на интерес и участие студентов в педагогической деятельности, а также значение психологического тренинга и его роль в обеспечении успеха в образовательном процессе. Психологическая подготовка необходима студентам для развития самосознания и социально-эмоциональных навыков, управления стрессом и полной реализации своего потенциала в процессе обучения.

Ключевые слова: Профессия, умение, мотив, процесс обучения, учебная деятельность, деятельность учителя, общение, психология педагогических способностей, ученик, коллектив, психологическая готовность, самоконтроль, познание, психологическая готовность.

Kirish. Pedagogik faoliyat, nafaqat ma’lum bir kasbni egallash, balki shaxsiy va professional jihatdan rivojlanishni talab qiladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Talabalarning pedagogik faoliyatga kirishishi, ular uchun faqat bilim olish jarayoni emas, balki o‘z-o‘zini anglash, maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun psixologik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga oladi. Faollikka undash majmuyi va psixik tayorlik ta’lim jarayoniga kirishga asosiy omil sifatida ta’sir qiladi. Motivatsiya, talabalarni o‘qishga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, pedagogik ishda faol ishtirok etishga undaydi. Psixologik tayyorgarlik esa, talabalarni pedagogik jarayonda yuzaga keladigan stresslar, qiyinchiliklar va ijtimoiy-emosional vaziyatlarga tayyorlaydi. Ular o‘zlarining ichki resurslarini boshqarish va o‘z ustida ishlash orqali pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli kirishlari mumkin. Davlatimizda ilm fanni rivojlantirish maqsadida ta’limga qo’shimcha va o’zgarishtirish kiritilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda “ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, talabalarning o‘quv jarayoniga moslashishi ularning o‘quv faoliyati davomida samarali natijalarga erishishi va ijtimoiy faollashishida amaldagi pedagogik shart-sharoitlar va mavjud metodikalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda “ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[1] O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” asari mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi.[2] Pedagogik faoliyatda ta’lim jarayoniga talabalarning moslashuvi, dars mashg‘ulotlarida samarali natijalarga, yaxshi muvafaqqiyatlarga erishishda ta’lim jarayonidagi yaratilgan pedagogik qulay shart -sharoitlar va interfaol metodikalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tilgan.



(1-rasm)

P.F. Kapterev ta’lim jarayonini samarali amalga oshirish pedagog shaxsiga xos bo‘lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi (1-rasm). O‘qituvchi xususiyati maxsus va shaxsiy holatda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy xususiyatga hissiy-irodaviy holatlar kiradi. Maxsus xususiyatlarga esa obyektivlik (o‘qituvchining ilmiy tayyorgarligi) va subyektivlik (shaxsiy o‘qituvchilik sifatlar) kiradi.[3] L.Ya.Kolominskiy izlanishlarida pedagogning talabalarga munosabati uning mehnati samarasi natijasida tashkil etilish muhimligini ta’kidlagan edi. Uning fikricha, bu ta’lim jarayonida, faoliyatda pedagogik mahoratning asosiy qismi bo‘lib, o‘qituvchi bilan talabalarning o‘zaro munosabati ko‘p jihatdan aynan mana shu jarayonga bog‘liqdir[4]. Psixolog olim V. A. Kan-Kalik pedagogik muloqot va muomalani tadqiq qilqib shunday fikr bildirgan edi. Pedagoglik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning jarayonida, pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o‘quv faoliyatining subyekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikni o‘rganishdir. Shu bilan birga, bu jarayonda talabalarni yuqori natijalarga erishish uchun qanday omillar ta’sir etishini aniqlash hamda pedagogik faoliyatga kirishishda zarur bo‘lgan psixologik va motivatsion omillarni aniqlash tadqiqotning vazifalari sifatida belgilanishi kerak.

V.G. Leontievning fikriga ko‘ra, motiv - bu shaxsning hozirgi ehtiyojlarini affektiv va ongli ravishda qayta ishlash, odamlarning maqsadlariga erishish uchun qo‘llanadigan ichki va tashqi kuchlarning birlashmasi bo‘lib, uni o‘rganishda, ishlashda, ijtimoiy faoliyatda yoki boshqa turli sohalarda o‘zini qanday tutishiga ta’sir qiluvchi motivatsiyaning turidir yoki shaxsiy shakllanish. Shunday qilib, motiv - bu shaxs uchun muhim bo‘lgan, uni ma’no bilan to‘ldiradigan va hissiy tajribalar qabul qilingan qarorlarning ahamiyatini anglash bilan birga keladigan faoliyatning asosi deb hisoblash mumkin. V.G. Leontiev, shuningdek, motiv inson faoliyatining ichki manbai ekanligini ta’kidlaydi. Pedagogik faoliyatga kirishishda motivatsiya talabalarning o‘qishga, o‘qituvchilik faoliyatini boshlashga qiziqishlarini oshiradi va ularni rag‘batlantiradi:

Tahlil va natijalar. Yaqin yillarda olingan natijalarga asoslanib, biz motivatsion tayyorgarlik, psixologik tayyorlik holati boshlang‘ich darajada bo‘lishi mumkin emas degan xulosaga kelishimiz mumkin.Ta’lim jarayonini faol o‘rganishda, talabalar pedagogik faoliyatga kirishishda, kasbiy faoliyatini yaxshi o‘zlashtirishda ularda psixologik tayyorlik tushunchasi shakllangan bo‘lishi kerak. Talabalarning pedagogik faoliyatga kirishishdagi motivatsiyasi va psixologik tayyorgarliklarining yaxshiligi o‘qituvchilarnig kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishda turtki vazifasini bajaradi. O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, talabalar bilan ta’lim va tarbiyaviy munosabatlarini shuncha yaxshi yo‘lga qo‘ya oladi. Bu jarayonni bevosita talabalar kuzatib borishadi va o‘zlarining pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida unumli foydalanishadi.

Yangi tahlil va tadqiqotlar asosida motivatsiya va psixologik tayyorlikning quyidagi xususiyatlari aniqlangan:

1. Maqsadga erishishga intilish: Talabalar o‘z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishadi. Masalan, pedagogik faoliyatga kirishishdagi maqsadlar — talabalarga ta’lim berish, o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish kabi aniq va o‘lchab bo‘ladigan maqsadlarga qaratilgan.

2. Natija uchun rag‘batlantirish: Motivatsiya natijalarga erishishga bog‘liq bo‘lgan rag‘batlarni yaratadi. Bu motivatsiya, asosan, tashqi (muvaffaqiyatga erishish, mukofotlar, ijtimoiy ma’qullash) yoki ichki (o‘zini o‘zi rozi qilish, o‘rganish va o‘sish istagi) rag‘batlarga asoslanishi mumkin.

3. Muammolarni hal qilishga tayyorlik: Motivatsiya talabalarni muammolarni hal qilishga va qiyinchiliklarga duch kelganda ularni yengish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni ishlab chiqishga undaydi. Pedagogik faoliyatda bu o‘qituvchilikdagi qiyinchiliklarni, talabalarning turli holatlarda qanday muvaffaqiyatli ishlashini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘qituvchilik faoliyatini boshlashda kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirish va talabalar bilan samarali ishlashni maqsad qilishadi. O‘qituvchiga xos bo‘lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlar umumiy ko‘rinishda quyidagicha bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik faoliyatga kirishishda muloqot eng murakkab tuzilmadir. Chunki muloqot orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi pedagogning talabaga ta’siri amalga oshiriladi. Talaba dars jarayonida shuni anglab yetadiki demak pedagogik faoliyatda pedagoglik muloqotiga ega bo‘lish bu shaxslararo munosabatni yo‘lga qo‘yib olish demakdir. Olingan natijalarga asoslanib, biz motivatsion tayyorgarlik, psixologik tayyorlik holati boshlang‘ich darajada mumkin emas degan xulosaga kelishimiz mumkin. Talabalarni pedagogik faoliyatga kirishishda motivatsiya va psixologik tayyorgarlik bir-birini mustahkamlovchi omillardir.

Motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning to‘g‘ri yo‘naltirilishi va integratsiyasi talabalar uchun pedagogik faoliyatga kirishishda samarali va muvaffaqiyatli natijalar keltiradi. Ushbu natijalar, talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning o‘rnini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Takliflar. Talabalarning psixologik holatini baholash va ularni mos ravishda yo‘naltirish uchun qanday diagnostik vositalardan foydalanish

Pedagogik jamoa sifatida ijtimoiy qo’llab quvvatlash va ularning faoliyatini mustahkamlash.

O‘qituvchilarni talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning ruhiy holatini tushunish va motivatsiyasini oshirishda metodikalardan foydalanish.

Motivatsiya va psixologik tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni va psixologik barqarorlikni yaratish talabalarni tashkil etish va mustahkamlash.

Xalqimizning kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqboli albatta bilimli tajribali pedagogga muhtojdir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni albatta shu mehri daryo o‘qituvchilarimiz tarbiyalaydi va bilim beradi. Hozirgi kunda o‘qituvchi shaxsining jamiyatda tutgan o‘rnini qancha ta’riflasak ham ozlik qiladi, o‘qituvchiga bo‘lgan hurmat, o‘qituvchiga bo‘lgan e’tibor juda ham yaxshi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev Sh. M.. “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” O‘zbekiston – 2017.
3. Каптерев П.Ф., Столбун В.Д. Психология воспитания. М.-1999 г. - 640 с.
4. Kolominskiy L.Ya.. “Shaxs rivojlanishining ijtimoiy psixologiyasi “ Nashr qilingan yili: 2009 yil Nashriyot: Oliy maktab Подробнее на livelib.ru: https://www.livelib.ru/author/306620/top-yakov-kolominskij
5. Kan Kalik V.A. Учителей о педагогическом общении.М.: Просвещение. 1987 г. 92 с.
6. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
7. Nishonova Z.T., Dustmuhammedova Sh. A., Tulyaganova Sh. T.“Pedagogik psixologiya”. Toshkent -2011
8. V. Karimova. “Psixologiya”. — Toshkent.: Sharq. 2000.
9. Davletshin M.G.. To‘ychiyeva Sh.A. Movlonov S.M. M. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
10. Ag‘ayeva, D. Z. Talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi: Ijtimoiy-psixologik omillar. // Golden brain, 2024. 2(21), 119-125.
11. Sa’dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 7.0:008

Bibi-Sanem ARZIEVA,
PhD, associate professor of Nukus State Pedagogical Institute
E-mail:arzievabibisanem@gmail.com

Based on the review of Karakalpak State University Named after Berdakh, PhD. U.Khodjaniyazova

MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi globallashgan dunyoda muhim ko‘nikma bo‘lgan madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish modellari va yondashuvlarini o‘rganadi. Aralash usullar tadqiqot dizaynidan foydalangan holda, maqolada madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli (DMIS) va madaniy intellekt modelining madaniyatlararo kompetensiyaning kognitiv, ta’sirchan va xulq-atvor jihatlarini oshirishdagi samaradorligi o‘rganilgan. So‘rovnomalar, intervyular va hujjatlarni tahlil qilish orqali 150 nafar ishtirokchidan ma’lumotlar to‘plandi. Miqdoriy natijalar shuni ko‘rsatdiki, tuzilgan madaniyatlararo trening dasturlari empatiya va muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilagan, sifatli natijalar esa immersiv tajribalar va refleksiv amaliyotlarning ahamiyatini ta’kidlagan. Maqola takomillashtirilgan o‘quv dasturlari, institutsional qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalarni integratsiyalash, doimiy baholash va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlari: Madaniyatlararo kompetensiya, madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli, madaniy intellekt modeli, aralash metodlar tadqiqoti, madaniy moslashuvchanlik, madaniyatlararo muloqot, madaniy onglilik, xilma-xillikka o‘rgatish.

МОДЕЛИ И ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В этой статье рассматриваются модели и подходы к развитию межкультурной компетентности - важнейшего навыка в современном глобализированном мире. Используя смешанный метод исследования, в статье рассматривается эффективность модели развития межкультурной чувствительности (DMIS) и модели культурного интеллекта в повышении когнитивных, аффективных и поведенческих аспектов межкультурной компетентности. Данные были собраны у 150 участников с помощью опросов, интервью и анализа документов. Количественные результаты показали, что структурированные программы межкультурного тренинга значительно улучшают навыки эмпатии и коммуникации, а качественные результаты подчеркивают важность иммерсивного опыта и рефлексивной практики. В заключение статьи приводятся рекомендации по совершенствованию программ обучения, институциональной поддержке, интеграции технологий, непрерывной оценке и сотрудничеству для развития межкультурной компетенции.

Ключевые слова: Межкультурная компетенция, модель развития межкультурной чувствительности, модель культурного интеллекта, исследование смешанными методами, культурная адаптивность, межкультурная коммуникация, культурная осведомленность, тренинг разнообразия.

MODELS AND APPROACHES TO DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE

Annotation

This article explores models and approaches for developing intercultural competence, a critical skill in today’s globalized world. Using a mixed-methods research design, the article examines the effectiveness of the Developmental Model of Intercultural Sensitivity (DMIS) and the Cultural Intelligence Model in enhancing the cognitive, affective, and behavioral dimensions of intercultural competence. Data were collected from 150 participants through surveys, interviews, and document analysis. Quantitative findings revealed that structured intercultural training programs significantly improved empathy and communication skills, while qualitative findings highlighted the importance of immersive experiences and reflective practices. The article concludes with recommendations for improved training programs, institutional support, technology integration, continuous assessment, and collaboration to promote intercultural competence.

Key words: Intercultural competence, developmental model of intercultural sensitivity, cultural intelligence model, mixed-methods research, cultural adaptability, cross-cultural communication, cultural awareness, diversity training.

Introduction. In an increasingly globalized world, the development of intercultural competence has become essential for fostering effective communication and collaboration across cultural boundaries. New generation learning English as a foreign language is tech and social media lovers; however, the notions of interaction, literature, language, and culture are often perceived differently[2]. Intercultural competence refers to the ability to understand, communicate, and interact effectively with individuals from diverse cultural backgrounds. This competence is particularly vital in educational settings, international business environments, and multicultural societies. Various models and approaches have been proposed to enhance intercultural competence, including the Developmental Model of Intercultural Sensitivity (DMIS) and the Cultural Intelligence Model. This study aims to examine these models and identify effective strategies for developing intercultural competence.

Recognizing the importance of fostering intercultural competence at a national level, Uzbekistan has implemented policies to promote linguistic and cultural inclusivity. A key initiative in this regard is the Decree on the Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy, signed by President Shavkat Mirziyoyev on October 20, 2020. This decree outlines a comprehensive plan to enhance the status and usage of the Uzbek language across various sectors, improve language education, and promote the language internationally. Additionally, it emphasizes the importance of creating opportunities for ethnic minorities in Uzbekistan to develop their native languages while simultaneously facilitating their learning of Uzbek. By strengthening linguistic inclusivity, the decree contributes to the development of intercultural competence within the nation, ensuring effective communication and social integration among diverse communities [1].

By studying both global models and national initiatives, this study seeks to explore effective strategies for fostering intercultural competence, bridging theoretical frameworks with practical policy implementations.

Literature Review. Intercultural competence encompasses cognitive, affective, and behavioral dimensions.

Scholars such as Byram (1997) and Deardorff (2006) have emphasized the importance of cultural knowledge, empathy, and adaptability in achieving effective intercultural interactions. Several theoretical models provide frameworks for understanding and developing intercultural competence. The Developmental Model of Intercultural Sensitivity (DMIS), introduced by Bennett, outlines a continuum from ethnocentrism to ethno relativism, helping individuals progress through stages of cultural awareness [3]. The Cultural Intelligence (CQ) Model, proposed by Earley and Ang, highlights four key components: cognitive, metacognitive, motivational, and behavioral intelligence [6]. Additionally, the Intercultural Development Inventory (IDI), a psychometric assessment tool based on the DMIS framework, measures an individual's intercultural competence [8].

Empirical research demonstrates that immersive experiences, cross-cultural training, and reflective practices effectively enhance intercultural competence. For instance, study-abroad programs and international internships have been found to improve empathy and cultural adaptability [8]. Furthermore, technology-driven solutions, such as virtual exchange programs and online cultural simulations, are emerging as innovative tools for fostering intercultural learning [9]. These approaches collectively contribute to the development of cognitive understanding, emotional intelligence, and adaptable behaviors necessary for successful intercultural interactions.

Research Methodology. This study adopts a mixed-methods research design, integrating both qualitative and quantitative approaches. The rationale for this design is to achieve a comprehensive understanding of the models and approaches to developing intercultural competence by leveraging the strengths of both data types (table 1).

Table 1

Category	Details
Research Design	Mixed-methods approach integrating qualitative and quantitative data
Participants	150 total (100 survey respondents, 50 interview participants)
Participant Groups	Teachers, trainers, students from Nukus State Pedagogical Institute
Data Collection Methods	- Structured survey for quantitative data - Semi-structured interviews for qualitative insights - Document analysis (curricula, training programs, policy documents)
Data Analysis Techniques	- Descriptive statistics and inferential analysis (t-tests, ANOVA) - Thematic analysis for qualitative data - Triangulation for cross-validation
Key Quantitative Findings	- 60% of respondents had prior multicultural experience - DMIS rated as the most effective model (4.5/5) - Significant skill improvements in empathy and communication ($p < 0.05$)
Key Qualitative Findings	- Challenges: Language barriers, stereotypes, institutional support issues - Effective Strategies: Immersive experiences, reflective practices, mentorship - Emerging Trends: Technology-based learning (virtual exchange, online simulations)

Participants were selected using purposive sampling to ensure representation from diverse cultural backgrounds. The sample included teachers, trainers, and students from Nukus State Pedagogical Institute. A total of 150 participants were involved, with 100 responding to the survey and 50 participating in in-depth interviews. This approach allowed for the collection of both quantitative and qualitative data, ensuring a comprehensive understanding of the development of intercultural competence.

Data collection methods included a structured survey instrument to gather quantitative data on participants' experiences and perceptions regarding intercultural competence development. Semi-structured interviews provided qualitative insights into the challenges and best practices in developing intercultural competence. Additionally, document analysis of curricula, training programs, and policy documents supplemented the primary data, adding depth and context to the findings.

The data analysis process involved both quantitative and qualitative techniques. Descriptive statistics and inferential analyses, such as t-tests and ANOVA, were used to identify significant differences and correlations within the quantitative data. Thematic analysis was employed to identify patterns and themes from interview transcripts and documents. Furthermore, triangulation was conducted to cross-validate findings from multiple sources, thereby enhancing the reliability and validity of the results.

Analysis and Results. The quantitative findings of this article highlight key trends in intercultural competence development.

Demographic Insights: The majority of respondents (60%) had prior experience in multicultural environments, while 40% had limited exposure.

Perception of Intercultural Competence Models: Respondents rated the Developmental Model of Intercultural Sensitivity (DMIS) as the most effective framework (mean score of 4.5/5), followed by the Cultural Intelligence Model (4.3/5).

Skill Acquisition: Significant improvements in empathy and communication skills were observed among participants who underwent structured intercultural training programs ($p < 0.05$).

The qualitative insights reveal key challenges, effective strategies, and emerging trends in fostering intercultural competence. Participants identified language barriers, cultural stereotypes, and insufficient institutional support as major obstacles.

Challenges Identified: Participants highlighted language barriers, cultural stereotypes, and lack of institutional support as primary obstacles.

Effective Approaches: Immersive experiences, reflective practices, and mentorship programs were cited as effective strategies for enhancing intercultural competence [7].

Emerging Trends: The integration of technology, such as virtual exchange programs and online cultural simulations, emerged as innovative tools for intercultural learning [10].

A synthesis of these findings highlights the importance of structured models such as DMIS and experiential learning in improving intercultural competence. However, addressing systemic barriers and using technology remain critical for long-term success.

Conclusion and Recommendations. This article highlights the importance of structured models and experiential learning in developing intercultural competence. The findings reveal that models like DMIS and the Cultural Intelligence Model are effective in fostering empathy, communication skills, and cultural adaptability. However, the study also identifies significant challenges, such as language barriers and institutional support gaps, that hinder progress.

In order to enhance intercultural competence, it is recommended that a number of key strategies be implemented.

Enhanced Training Programs: Implement comprehensive intercultural training programs that incorporate experiential learning and reflective practices.

Institutional Support: Establish policies and resources to support intercultural initiatives and reduce systemic barriers.

Technology Integration: Leverage virtual exchange programs and online cultural simulations to enhance learning opportunities.

Continuous Assessment: Utilize tools like the Intercultural Development Inventory (IDI) to regularly assess and improve intercultural competence.

Collaboration and Networking: Foster partnerships between educational institutions, corporations, and cultural organizations to create diverse learning environments.

REFERENCES

1. President of the Republic of Uzbekistan SH. MIRZIYOYEV, Decree No. DP-6084 “On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in the country”, October 20, 2020
2. Arzieva, B. A. (2025). Using authentic materials and real-life scenarios to develop the intercultural competence of B2 level students. Prospects of teaching english for professional purposes in non–philological higher education institutions: problems and solutions, 681-686.
3. Bennett, M. J., A developmental approach to training for intercultural sensitivity. International Journal of Intercultural Relations, 10(2), 1986 – pp.179-196
4. Byram, M., Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters, 1997
5. Deardorff, D. K., Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3), 2006 – pp. 241-266
6. Earley, P. C., & Ang, S., Cultural intelligence: Individual interactions across cultures. Stanford University Press, 2003
7. Fantini, A. E. (2009). Assessing intercultural competence: Issues and tools. In D. K. Deardorff (Ed.), The SAGE handbook of intercultural competence. SAGE Publications, 2009 - pp. 456-476
8. Paige, R. M., Fry, G. W., Stallman, E. C., Josic, J., & Jon, J. E., Study abroad for global engagement: The longterm impact of mobility experiences. Intercultural Education, 20(S1), 2009
9. Spitzberg, B. H., & Changnon, G., Conceptualizing intercultural competence. In D. K. Deardorff (Ed.), The SAGE handbook of intercultural competence. SAGE Publications, 2009 - pp. 2-52
10. Ting-Toomey, S., & Dorjee, T., Communicating across cultures. Guilford Press, 2018.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 371.126:54:371.3

Gulnoza ASADULLAYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail:gulnoza.asadullayeva41@gmail.com

TDPU dotsenti, p.f.d I.Shernazarov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SCIENCE LITERACY IN PREPARING FUTURE CHEMISTRY TEACHERS FOR THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT STUDY

Annotation

This article improves the methodology for preparing future chemistry teachers for international assessment studies. Within the framework of TIMSS, the content of graphic tasks for the development of natural science literacy was introduced at an individual level of complexity. The methodological system was aimed at the formation of natural science literacy competencies (knowledge, application, reasoning). Also, methods for developing scientific competence and optimizing creative tasks based on graphic design were developed.
Key words: Knowledge, application, reasoning, cognitive level, non-traditional approach, scientific competence, correlation.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ К ИЗУЧЕНИЮ TIMSS МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

Аннотация

В данной статье усовершенствована методика подготовки будущих учителей химии к международным оценочным исследованиям. В рамках ТИМСС содержание графических задач внедрялось на уровне индивидуальной сложности для развития естественнонаучной грамотности. Методическая система была направлена на формирование естественнонаучных компетенций грамотности (знание, применение, рассуждение). Также были разработаны методы развития научной компетентности и оптимизации творческих заданий на основе графического дизайна.
Ключевые слова: Знание, применение, рассуждение, когнитивный уровень, нетрадиционное общение, научная компетентность, корреляция.

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH TIMSS TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi takomillashtirildi. TIMSS doirasida tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish uchun grafik masalalar mazmuni individual murakkablik darajasida singdirildi. Metodik tizim tabiiy fanlar savodxonligi kompetensiyalarini (bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish) shakllantirishga yo‘naltirildi. Shuningdek, ilmiy kompetentlikni rivojlantirish va kreativ topshiriqlarni grafik-dizayn asosida optimallashtirish usullari ishlab chiqildi.
Kalit so‘zlar: Bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish, kognitiv daraja, noan’anaviy yondashuv, ilmiy kompetentlik, korrelyatsiya.

Kirish. Jahonda sodir bo‘layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, xalqaro baholash tadqiqotlariga o‘quvchi va o‘qituvchilarni tayyorgarligini oshirishda tabiiy fanlar savodxonligiga alohida e’tibor qaratilgan. Bunda o‘qituvchilar o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha turli zamonaviy yondashuvlarni jamlash, talabalarning tabiiy fanlar savodxonligi va kreativ fikrlashlarini amaliyotga yo‘naltirilgan, ta’lim tizimida talabalar uchun funksional savodxonlikni rivojlantirishga imkon beruvchi integrativ faoliyatni amalga oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlarida bugungi kunda ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, ta’lim tizimida o‘zgarishlar kiritish zarurligi ta’kidlangan.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarning ta’limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e’tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o‘quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan. Ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlari xalqaro ta’lim talablarga mosligi, talabalarning o‘qish, matematik, tabiiy fanlar savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib, ijobiy natijaga erishishi bo‘yicha samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ta’lim oluvchilarning kompetensiyalardan foydalanish, o‘z qobiliyatlari, ijodkorligi, tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta’lim muhitini joriy qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni bilan Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish maqsadida ta’lim sifatini tubdan oshirish va pedagog kadrlarning bilim va malakalarini xalqaro darajaga ko‘tarish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, milliy taraqqiyot istiqbollari ko‘rib chiqilmoqda1.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son2, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqarishning yangi prinsiplarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori3, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonlari4, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori5, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil

etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-son6 qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rish va seminar mashg‘ulotlarini tayyorlash, o‘tkazish va sifatini baholash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi qoshida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil qilindi va uning asosiy vazifalari, faoliyati, yo‘nalishlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro baholash tadqiqotidagi ishtirokiga tayyorgarlik ko‘rish holati va o‘quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonliklarini rivojlantirishga oid topshiriqlar ishlab chiqish va seminarlar tashkil qilish hamda bir qancha7 ekspertlar A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, N.A.Karimov, G.O.Tog‘ayeva, Q.K.Karimberdiyev, Z.A.Kosimova, G.A.Pirimov, D. Asqarova, S.R.Akbarova, D. Norboeva, D. Manapova, M. Uralova, B.Q. Haydarov, X.P. Ahmedov, M. Maxsudov, E. Tursunov, M. Boymuratovalarga topshirildi. Ular tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma va seminar mashg‘ulotlari o‘quvchilarni xalqaro baholash tadqqiqotlaridagi savodxonliklarini shakllantirish o‘z aksini topgan. Bo‘lajak pedagoglarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash jarayonlari bo‘yicha D.M. Maxmudova, I.E. Shernazarov, L.M. Qoraxonova, E.B. Xujanov, M.T. Ergasheva, A.Yu. Iskandarov, S.G‘. Xasanovalar ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin.

MDH mamlakatlarida ta’lim sifatini yaxshilash hamda xalqaro baholash tizimlariga tayyorlash maqsadida bir qancha olimlar tajriba va tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Masalan: xalqaro baholash tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish bo‘yicha G.S. Kovaleva, L.O. Roslova, A. Sidorova, A.Yu. Pentin; talabalarning kreativ va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning asosiy mazmuni bo‘yicha B.Ye. Mixaylovich, Ye.M. Bugakova, L.S. Baytimerova, V.M. Grebennikova, K.B. Belikov; o‘quvchi va bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini shakllantirish T.P. Payudis, E.V. Sivak, D.M. Mirzanurova, T.S. Skilevaya, G.Yu. Semyonova, Ye.A. Nikishova, K.P. Vergeles, N.A. Zagranichnaya, G.G. Nikiforovlar tomonidan o‘quv qo‘llanma va topshiriqlar to‘plami yaratilgan; matematik savodxonlikni shakllantirishda O.A. Rudze, Ye.S. Kvitko, K.A. Krasnyanskaya, L.O. Denisheva, I.I. Karamovalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Xorijlik olimlar tomonidan ta’lim oluvchilarning kimyoviy savodxonligi va xalqaro baholash tadqiqoti natijalarini tahlil qilish, o‘qish, matematik, tabiiy fanlar savodxonligi hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot N.E.Vorobyov, I.S. Bessarabova, E.N. Sugrobova, O.I. Uzoq, S. Banach, E. Yuhani Tuovinen, P. Kansanen, R. Laukkanen, A. Mikkola, G. Shenslok, T. Hamalainen, M.G. Minin, N.S. Mixaylova, B.S. Bloom, J.S. Ning, T. Xostingi, G.F. Madaus, S. A. Gerusa, G.N. Fomitskaya, E.B. Lisova, G.N. Fomitskaya, J. Brennan, L.J.K. Gdegebure, T. Shan, D.F. Vesterxeyden va P.J. Vestxof, L. Demayi, M.Duru-Bella, J.P. Yaruss, Frank Raymen, Frensis Terlinks, Maykl Melders, J.M. Dirk. Smits, Katalin Balaj, R. Yakku-Sihvonen, M. K. Yeniseev, P. Foy, K. Rust, A. Shleyxer, M.O. Martin, D.L.Kelli, I.W.S. Mtillis ishlarini keltirish mumkin.

Tadqiqotning vazifalari. Uzluksiz ta’lim tizimida xalqaro tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik mazmunini takomillashtirish;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi ta’limning interaktiv muhitga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo‘nalganlik tamoyillari asosida ishlab chiqish;

noananaviy yondashuv asosida xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda talabalarning tabiiy fanlar savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlar asosida rivojlantirishning ilmiy – metodik ta’minotini kreativ topshiriqlarni tuzishga o‘rgatuvchi grafik-dizaynli vazifalarni qo‘llash orqali amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar, meyoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, pedagogik kuzatish, anketa, topshiriqlar, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativlikni aniqlash metodikalari, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minoti xalqaro baholash TIMSS tadqiqotidagi (kreativ faoliyatli, matematik, tabiiy fanlar) savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan grafikli masalalar mazmuniga individual murakkablikda singdirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasi samaradorligini tabiiy fanlar savodxonlik kompetensiyalarini (bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish) yaxlit tarzda shakillantirish kabi metodik shart sharoitlari topshiriqlarni kognitiv darajalar bo‘yicha korrelyatsiyasini ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi ta’limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo‘nalganlik tamoyillarini talabalarning mustaqil faoliyati mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash TIMSS tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan’anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligi (bilish, tushunish, amalda qo‘llash, tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo‘llash)ni rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta’minlash, ilmiy-metodik ta’minotining didaktik tizimi kreativ topshriqlarni tuzishga o‘rgatuvchi usullarni kasbiy yo‘nalgan grafik-dizaynli topshiriqlar bilan maqbul kombinasiyalarda optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan.

Tahlil va natijalar. talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli-izlanishli-kreativ topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Kimyo fanini o‘qitishda xalqaro baholash usullaridan foydalanish” nomli darslik yaratilgan va amalda foydalanilmoqda;

muammoli yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini xalqaro baholash TIMSS tadqiqotlari asosida rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatma va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik yondashuv va tamoyillarga asoslanganilgani, tadqiqiy kimyoning mantiqiy asoslariga tayanilgani, tadqiqot usullarining validligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va natijalarining identivligini ta’minlangani, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning aprobatsiyadan o‘tkazilgani, tajriba-sinov ishlari ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida amalga oshirilgani, olingan natijalarning ahamiyatlilik darajasi sifat jihatdan tahlil qilingani olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchi va bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning matematik, tabiiy fanlar savodxonligi va kreativ faoliyatini rivojlantirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirilgan, kimyo ta’limining rivojlantirishga doir edukologik imkoniyatlari ochib berilgan. Asinxron va sinxron topshiriqlar asosida ta’lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda integratsiyalashgan ta’lim

muhitini tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik, metodik va ergonomik talablar ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muammaoli-izlanishli-kreativ vaziyatlarni intensiv qo‘llashga doir topshiriqlar ishlab chiqilgani, xalqaro baholash tadqiqotlariga oid kontekst topshiriqlar tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyasi muhitini yaratishning tashkiliy-metodik, baholashning diagnostik tizimlari takomillashtirilgani hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarni TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda tabiiy fanlar savodxonligini baholash metodikasini rivojlantirish metodikasi asosida:

uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minoti xalqaro baholash TIMSS tadqiqotidagi (kreativ faoliyatli, matematik, tabiiy fanlar) savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan grafikli masalalar mazmuniga individual murakkablikda singdirish asosida takomillashtirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 485–sonli qaroriga asosan 224528-sonli guvohnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasa talabalariga “Kimyo fanlarini o‘qitishda xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanish” darsligi yordamida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligi rivojlantirilgan;[7]

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasi samaradorligini tabiiy fanlar savodxonlik kompetensiyalarini (bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish) yaxlit tarzda shakllantirish kabi metodik shart sharoitlari topshiriqlarni kognitiv darajalar bo‘yicha korrelyatsiyasini ta’minlash orqali takomillashtirilgan.

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi ta’limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo‘nalganlik tamoyillarini talabalarning mustaqil faoliyati mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish asosida takomillashtirilgan [8].

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash TIMSS tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan’anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligi (bilish, tushunish, amalda qo‘llash, tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo‘llash)ni rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta’minlash, ilmiy-metodik ta’minotining didaktik tizimi kreativ topshriqlarni tuzishga o‘rgatuvchi usullarni kasbiy yo‘nalgan grafik-dizaynli topshiriqlar bilan maqbul kombinasiyalarda optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.[9]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini TIMSS tadqiqotiga tayyorlashda pedagogik va psixologik jihatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kompleks yondashuv talab etiladi. Interfaol ta'lim metodlari, eksperimentlar, motivatsion yondashuvlar hamda psixologik tayyorgarlik orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar xalqaro baholash tizimida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Tabiiy fanlar savodxonligi zamonaviy kimyo o‘qituvchisining muhim kompetensiyalaridan biridir. Bu kompetensiyalarni shakllantirish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimlariga, ilmiy tadqiqotlarga va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni murakkab psixologik va pedagogik omillarga asoslanadi. Samarali o‘qitish uchun motivatsiya, xotira, diqqat va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Interfaol ta’lim metodlari, amaliy mashg‘ulotlar va psixologik yondashuvlar bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Tabiiy fanlar savodxonligi pedagogik va psixologik jihatlardan kelib chiqib shakllanadi. Pedagogik yondashuvlar ta’lim metodikasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, psixologik omillar talabalar fikrlash jarayonlari, motivatsiyasi va ilmiy tafakkurining shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu sababli, tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlar savodxonligini shakllantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Samarali ta’lim metodlari, motivatsiya va o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish orqali tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish va bilimlarni amaliy hayotga tatbiq etishga o‘rgatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi https://lex.uz/docs/http://lex.uz/ru/docs/5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-3893445
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy этish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/uz/docs/-3893416
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-4312785
5. 2020 yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillash-tirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5085887
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil этish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4097073
7. Shernazarov I.E., M.U. Tilyabov, G.A. Asadullayeva, N.A. Yusupova. Kimyo fanini o‘qitishda xalqaro baholash usullaridan foydalanish. – Toshkent.: “IMPRESS MEDIA” MChJ. 2025.375-b
8. Kovaleva, G.S. The main results of the international study of эducational achievements of PISA-2003 students. quality assessment center of IOSO RAO, 2004
9. Ковалева Г.С., Пентин А.Ю., Семёнова Г.Ю., Никишова Е.А., Вергелес К.П., Заграничная Н.А. Естественно-научная грамотность//Сборник эталонных заданий. Выпуск 2. 2022.08.24

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UO‘K: 75.041-055.2(575.1)(09)

Zilolaxon ASQAROVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi, PhD, Sharq miniatyura san’ati muzeyi ilmiy xodimi
E-mail: asqarova88@bk.ru

Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, PhD N.Kultasheva taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON ZAMONAVIY SAN’ATIDA O‘RTA ASR SHARQ MINIATYURA SAN’ATI MAVZULARINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya
Ushbu maqola O‘zbekiston zamonaviy san’atida o‘rta asr Sharq miniatyura san’ati mavzularining badiiy talqini masalalariga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy o‘zbek rassomlarining miniatyura merosiga murojaati, uning sabablari va badiiy xususiyatlari tahlil etilgan. Maqolada miniatyura an’analarining zamonaviy san’at asarlarida qanday aks etishi, rassomlarning ushbu an’analarni qay darajada saqlab qolganligi va qanday yangi badiiy yechimlar taklif etayotganligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek zamonaviy san’atida miniatyura mavzularining badiiy ahamiyatini baxolash imkonini beradi.
Kalit so‘zlar: Zamonaviy san’at, O‘zbekiston, miniatyura, Sharq, badiiy talqin, an’ana, meros, rassom, miniatyura, tasavvuf, ilohiy ishq, Majnun, darvesh, so‘fizm, Sharq, kolorit, Layli, hirqa.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЮЖЕТОВ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ВОСТОЧНОЙ МИНИАТЮРЫ В СОВРЕМЕННОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация
Данная статья посвящена вопросам художественной интерпретации тем средневековой восточной миниатюры в современном искусстве Узбекистана. В ней анализируется обращение современных узбекских художников к наследию миниатюры, его причины и художественные особенности. В статье показано, как традиции миниатюры воплощаются в произведениях современного искусства, в какой степени художники сохранили эти традиции и какие новые художественные решения они предлагают. Результаты исследования позволяют оценить художественное значение тем миниатюры в современном узбекском искусстве.
Ключевые слова: Современное искусство, Узбекистан, миниатюра, Восток, художественная интерпретация, традиция, наследие, художник, миниатюра, мистика, Божественная любовь, Меджнун, дервиш, суфизм, Восток, колорит, хирга.

ARTISTIC INTERPRETATION OF MEDIEVAL EASTERN MINIATURE ART THEMES IN MODERN UZBEK ART

Annotation
This article explores the artistic interpretation of medieval Eastern miniature art themes in contemporary Uzbek art. It analyzes the reasons behind modern Uzbek artists' engagement with the miniature heritage and examines the artistic characteristics of this approach. The article demonstrates how miniature traditions are reflected in contemporary artworks, the extent to which artists have preserved these traditions, and the novel artistic solutions they are proposing. The research findings enable an assessment of the artistic significance of miniature themes in modern Uzbek art.
Key words: Contemporary Art, Uzbekistan, miniature, East, artistic interpretation, tradition, heritage, artist, miniature, mysticism, divine love, Majnun, dervish, Sufism, East, color, hymn.

Kirish. O‘zbekiston zamonaviy san’ati jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan holda rivojlanib kelmoqda. Ushbu jarayonda o‘tmish merosiga murojaat qilish, an’anaviy san’at turlarini qayta anglash va ularni yangicha badiiy talqin etish muhim o‘rin tutadi. Xususan, o‘rta asr Sharq miniatyura san’ati o‘zining yuksak badiiy saviyasi, falsafiy chuqurligi va estetik jozibasi bilan zamonaviy o‘zbek rassomlari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. 1920 – 1970 yillarda miniatyura rangtasviri san’at turi sifatida deyarli yo‘q edi. Ammo undagi badiiy an’analar rangtasvirchi rassomlar: Usta Mo‘min, Oganes Tatevosyan, Chingiz Axmarov rahbarligidagi rassomlar va xalq ustalaridan iborat ijodiy guruh turdi. O‘zbek lokli miniatyurasining tiklanish jarayoni asosiy muammolari va trayektoriyasini shunday ta’riflash mumkin: Rossiyaning Palex lokli miniatyurasining ijodiy va texnologik tajribalarini o‘zlashtirgan o‘zbek rassomlari tarixiy Sharq miniatyurasini hozirgi zamonda rivojlantirish yo‘llarini topishlari lozim edi.

Asrimizning yetmishinchi yillari oxirrog‘ida O‘zbekiston madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, bu davrda tasviriy san’atning toshqog‘ozga chiziladigan lokli rangtasvir turi – miniatyura san’ati paydo bo‘ldi. Aynan o‘sha davrda xalq san’atining barcha turlarini saqlab qolish, rivojlantirish va qayta tiklash maqsadida nafis naqshu nigor tajriba ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. Ustaxonaga O‘zbekiston rassomlar uyushmasining badiiy fondi tasarrufidagi “Usto” xalq san’ati Birlashmasi asos soldi. Unga taniqli rassom Chingiz Axmarov mutasaddi etib tayinlandi. Izlanishlar natijasida o‘zbek lokli mo‘jaz san’at ishqibozlari va boshlovchilarining dastlabki asarlari dunyoga keldi. O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarov rahbarligi ostida Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abdubosit Qambarov, Natalya Choy, Munira Sotiboldiyeva, G‘ayrat Kamolov, Abdug‘ani Aldashevlar qunt bilan mehnat qildilar. Mustaqillik davrida miniatyura san’ati O‘zbekistonda shunchaki an’ana yoki san’atning bir turi emas, balki lokli miniatyura, devoriy surat, qog‘oz, mato va charmdagi miniatyurani o‘zida mujassam etgan ixcham badiiy-uslubiy yo‘nalishga aylandi.

Zamonaviy o‘zbek miniatrasining qayta tiklanishi va rivojlanishida Shomahmud Muhammedjonovning ijodi bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. U miniatyura san’atini taqlid qilib, takror qilib yaratgan. U boshqa ijodkorlarga o‘xshab miniatyura asarlariga yangilik kiritishni hohlamagan. Rassom faqatgina Buxoro, Samarqand maktablari miniatyurasiga taqlid qilgan. Uning fikricha, Buxoro, Samarqand maktablarida o‘ziga xos uslub bor. Eron uslubida figuralarni to‘liqligi, fikrlar, naqshlar, ranglar o‘yini juda ko‘p uchraydi. Buxoro, Samarqand miniatyurasida esa kam figurali, ranglari aniq, yorqin, bir-biriga zid tarzda emas deb aytadi. Shuning uchun ham rassom aynan Buxoro, Samarqand miniatyurasiga taqlid qilib yaratadi. Taqlid qilganda ham san’at asarlari o‘ta mohirlik bilan yaratilgan. Taqlid qilib yaratgan ba’zi asarlari haqiqiysidan-da chiroyliroq chizilgan. U asarlarida

miniatyurani boricha yaratadi. Uning asarlarini chet davlatlari muzeylarining kolleksiyalarida uchratish mumkin.

Shomahmud Muhammadjonovning 2004 yilda yaratilgan “Farhod va Shirin” asarida Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin”dagi Farhodning tilsimli ko‘zguni ko‘rib ko‘zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga borgani tasvirlangan. Kompozitsiyada g‘orda suhbatlashib o‘tirgan uch nafar insonlar ya’ni Suqrot, Farhod va Suhaylo ismli hakim (donishmand) ko‘rsatilgan. Suhaylo Farhodning tariqat yo‘lidagi birinchi piri. U Farhod yengib o‘tishi kerak bo‘lgan to‘siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. G‘ordan tashqarida o‘ng tomonda oq otning tizginini ushlab, ular tomonga qarab turgan yigit turibdi. Pastda, gullar va o‘simliklar o‘sib yotgan joyda bir guruh kishilar otlarning yonida turishibdi. Kompozitsiyaning tepa qismida ikkita yashil daraxt va bitta ohu ko‘rinadi. Atrof toshlar va o‘simliklar bilan to‘la.

Monumental naqshlar va zargarlik buyumlarini yaratish sohasidagi ijodni miniatyura san’ati bilan birga qo‘shib olib borgan iste’dodli musavvir Niyozali Xolmatovning ham O‘zbekiston miniatyurasi rivojiga qo‘shgan xissasi salmoqlidir. Badiiy hunarmandchilikning bir necha turlari bilan shug‘ullanishi rassomning miniatyura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlarini yanada boyitdi. Xususan, uning miniatyuralaridagi yorqin bezakli bo‘yoqlar qabarib turgan sirli halqachalarni eslatadi. N.Xolmatovning asarlari suratning mutanosibligi, kompozitsiyaning lo‘ndaligi, xatning sipoligi bilan farqlanib turadi. N.Xolmatov O‘zbekistondagi rassomlar orasida birinchilardan bo‘lib asarlarida tasavvufona g‘oyalarni ifodalagan. Bu diniy ta’limot O‘rta asrlarda badiiy ijodga, kishilarning ma’naviy-axloqiy qarashlariga samarali ta’sir ko‘rsatgan. N.Xolmatov ushbu ulkan hodisani chuqur his qilgan va buni Zamonaviy O‘zbekiston san’atida ko‘rsatish zururligini anglagan ijodkordir. O‘zbekiston xalq ustasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Niyozali Xolmatov zamonaviy miniatyura san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Zamonaviy lokli miniatyura san’atida qadimgi musavvirlarning rassomlik an’analari davomchilaridan biri bo‘lgan. Rassomning nafis ishlangan lok buyumlari yuqori professionalligi bilan ajralib turadi. Niyozali Xolmatovning ko‘p qirrali iste’dodi nafaqat lokli miniatyura san’atida, balki dastgohli rangtasvirning moybo‘yoq va tempera texnikalari, kitob illyustratsiyasi, emal va zargarlik san’atida ham namoyon bo‘lgan. Ustaning barcha asarlari muallifning o‘ziga xos individualligi bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, uni boshqa rassomlarning asarlari bilan almashtirib bo‘lmaydi – mumtoz jihatdan jiddiy kompozitsiya, ifoda vositalaridan ixcham va nozik foydalanish va yuqori texnik mahorat egasi. Niyozali Xolmatovning 2013 yilda yaratilgan “Rustam va Suhrobning jangi” miniatyurasi Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi “Rustamning So‘hrob ila jang qilgani” dostoni asosida chizilgan. Dostonda Rustam So‘hrob bilan ota va o‘g‘il ekanligini ikkisi ham bilmasdan jangga kiradilar. Asarda Rustam farzandi So‘hrobni ko‘ksiga xanjar urgandan so‘ng o‘g‘li ekanligini bilib afsus nadomat chekayotgani tasvirlangan. Kompozitsiyada Rustam va So‘hrob qizg‘ish-sariq bargli daraxt tagida tasvirlangan. Suhrob ko‘zi yumuq, yerda yotgan, Rustam esa unga engashgan holati ko‘rsatilgan. Atrof turli gullar, o‘simliklar bilan to‘la, o‘ng tomonda qush iniga qo‘yilgan tuxum bilan yashil bargli daraxt ko‘rsatilgan. Orqa fonda och jigarrang qirlar va ko‘k osmon tasvirlangan.

Bundan tashqari 2006-yilda yaratilgan Kamoliddin Behzodning “Sulton Husayn Mirzo saroyidagi ziyofat” miniatyurasi Kamoliddin Behzodning 1488 yil Hirotda Sa’diyning “Bo‘ston” dostoniga ishlangan “Sulton Xusayn Mirzo saroyidagi ziyofat” nomli asaridan nusxa hisoblanadi. Sa’diyning “Bo‘ston” qo‘lyozmasi sulton Husayn Mirzo Boyqaro uchun kitobxonaning eng yaxshi kitobat ustalari tomonidan yaratilgan. Asar xattoti Sulton Ali Mashhadiy.

Nusxa Niyozali Xolmatov tomonidan to‘liqligicha ko‘chirilmagan, chap tomon sahifasi o‘ng va pastki qismlari ko‘rsatilmagan. Asarning asl nusxasi diptix bo‘lib, Kamoliddin Behzod tomonidan dastxat qo‘yilgan miniatyuralardan biri hisoblanadi. Mazkur qo‘sh miniatyura shohlar, sultonlar va eng oliy darajadagi ayonlarning hayoti va o‘yin-kulgilarining turli qirralari aks etgan saroy janrida yaratilgan. Saroylardagi ziyofatlarni maddohlik uslubida tasvirlaydigan o‘zidan avvalgi rassomlardan farqli o‘laroq, Behzod Sulton Husayn saroyida kechgan shoh hayotining xarakterli tafsilotlarini ikir-chikirigacha tavsiflab, qahramonlarning xatti-harakatlarini, atrof-muhitni diqqat bilan qalamga tushirgan holda haqiqiy turmush manzaralari aks ettirilgan asarlarni yaratadi.

Niyozali Xolmatov nusxa uchun Behzod diptixining chap qismini tanladi, unda olti nafar erkak figurasi kichkina ayvonda tasvirlangan. Kompozitsiyaning chap tomonida gilamchada o‘tirgan yigitning egnida ko‘k libos va so‘fiylik tariqatiga kirishning ramziy belgisi sifatida belidan o‘tkazilgan kamar futa ko‘rsatilgan. Yonida chinniqop – chinni idish uchun g‘ilof, pastroqda uch dona ko‘za turibdi. Kompozitsiya pastki qismining markazidagi xizmatchi yashil-kulrang tusli kiyimda o‘ng oyog‘i bilan cho‘kkalagancha, chap oyog‘i ustidagi ko‘zani tutib turibdi. Uning tepasidagi sariq libosli yigit esa qora ko‘zadagi mayni naychali idish orqali uning ko‘zasiga quymoqda. Ularning yonidagi ikki yigit ham sharobni ko‘zadan shisha idishga quyish bilan ovora. Bu jarayon, balki, ilohiy sevgi, tasavvufiy bilimlar va “ruhiy tajriba”larning bir so‘fiydan boshqasiga uzatilishining ramziy belgisidir.

Tasavvufiy shoirlar va ustalarning ijodida tez-tez tilga olinadigan sharob ruhiy jazava va Xudoni anglashning timsolidir. Sharob sifati pishish va bijg‘ish jarayonida yaxshilangani kabi, so‘fiy ham Alloh bilan birlashish yo‘lida botiniy o‘zgarish orqali o‘zini o‘zi takomillashtirish bosqichlaridan o‘tadi. Qo‘lida ko‘k rangli ko‘zani tutgan yashil libosdagi yigit kompozitsiyaning chap tarafida gilamcha ustida o‘tirgan mehmonga qarab turibdi. O‘ng taraf chekkada me’moriy binoning oz qismi ko‘rsatilgan. Orqa tomonda turli xil gullagan daraxtlar, gullar va qushlar bilan bog‘ tasvirlangan. Osmon tillarangda bo‘lib, bu kunduzni bildiradi.

Niyozali Xolmatovning ushbu asari Behzod miniatyurasining aniq nusxasi emas, chunki muallif original asarning iliq koloritini sovuq tuslarga o‘zgartiradi, Behzod qahramonlarining qiyofasiga o‘zgartirishlar kiritib, kompozitsiyaga o‘z uslubini kiritadi. N.Xolmatov foydalangan qo‘shimchalaridan yana bittasi – “abru-bahor” texnikasini qo‘llaganidir, bu esa miniatyuraga o‘zgacha ohang baxsh etgan. Shunday qilib, ustoz ijodkor N.Xolmatovning ishi mustaqil tugallangan asar bo‘lib, unda O‘rta asr Sharq miniatyura san’ati an’analariga ehtiyotkor munosabati va rassomning individual yondashuvi mujassamlangan.

Bugun e’tirof etilgan, tan olingan o‘zbek miniatyurachi musavvirlari orasida buxorolik musavvir Davron Toshev ijodi alohida ajralib turadi. Uning ijodida o‘rta asr Sharq miniatyurasi an’analariga xos xususiyatlar ko‘rinadi. Davron Toshev o‘rta asrlar buxorolik musavvirlar singari an’anaviy material – qog‘ozdan foydalanib, alohida sahifalarga miniatyuralar chizadi. Uning asarlari mavzusi ham an’anaviy Buxoro maktabiga mos bo‘lib, ularda sevishganlarning bahor chog‘ida bog‘dagi uchrashuvi va bir-biri bilan xayrlashishi, she’rxonlik va sharobxo‘rlik, musiqiy anjuman, donishmandlar suhbati tasvirlangan. Alisher Navoiy she’riyati, ulug‘ shoir qahramonlarining iztiroblari Davron Toshev asarlari uchun asosiy mavzuga aylangan.

An’analarni davom ettirgan ikki iste’dodli miniatyurachi rassom Qahramon Shoislomov (1972-2022) va Shorasul Shoahmedov (1970-yilda tug‘ilgan) larning 2005 yilda yaratilgan “Sevishganlar” ijodiy loyihasi ham zamonaviy miniatyuraning go‘zal namunasidir. O‘rta asrlar miniatyura san’ati maktablarining o‘ziga xos xususiyatlaridan bo‘lgan, qo‘lyozma uchun illyuminatsiyalar tayyorlashda saroy kutubxonalarida xizmat qilgan miniatyurachi rassomlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash an’analarini davom ettirgan holda ushbu asar mualliflari ham miniatyuradagi portret (SH.Shoahmedov) va naqshinkor bezaklar (Q.Shoislomov) yaratish bosqichlarini o‘zaro bo‘lishib olishgan. Miniatyura qadimiy shoyi qog‘oz ustiga portret janrida ishlangan. Simmetrik kompozitsiya shartli ravishda uch qismga bo‘lingan: markaziy qismdagi oshiqlarning ikki kishilik portreti hamda ikki yon tomondagi yakka erkak va ayol tasvirlaridan iborat. Sevishganlarning tasviri o‘rta asr Sharq kitobat san’atiga xos “unvon” hamda “zarvaraq” uslubidagi yorqin o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan hoshiya ichiga joylashtirilgan.

Asar markazida bahor faslida tabiat qo‘ynida gullagan daraxt yonida o‘tirgan ikki sevishganning visol onlari aks ettirilgan. Kompozitsiyada zumradrang ko‘ylak ustidan jigarrang kaba va boshiga oq salla kiyib olgan yigit, egniga to‘q sariq ko‘ylak ustidan qizil kiyim kiygan, boshiga ro‘mol va tillaqosh taqib olgan sevgilisini bag‘riga bosib o‘tiribdi. Tevarak atrofda turli xil ochilgan gullar va to‘q ko‘k rangda oqayotgan buloq atrofida toshlar bilan ifodalangan. Asarning orqa fondagi ufq chizig‘ining past joylashuvi kompozitsiyaga yengillik va havodorlik bergan holda tomoshabin e’tiborini miniatyuraning asosiy qahramonlariga qaratadi.

Miniatyura kompozitsion markazining o‘ng va chap tomonlarida, medalyonlarda qahramonlarning yakka tasvirlari joylashtirilgan – o‘ng medalyonda qo‘lida gul ushlagan qiz portreti, chapda esa ramziy qizil olma tutgan yigit portreti ko‘rsatilgan. Asar kompozitsion qurilishi o‘ziga xos bo‘lib, yakka portretlarda tasvirlangan oshiqlar bir-biriga qarab turibdi, ular birga o‘tirgan markaziy qo‘sh tasvirda esa ularning nigohlari bir tomonga qaratilgan. Miniatyuradagi har uchala portret ham ko‘k, feruzarang, qizil, yashil, qora va zarxal ranglardagi nozik “islimiy” naqshlar bilan bezatilgan. Asardagi yorqin kolorit, naqsh chiziqlarining nozikligi va nafisligi miniatyuraga bayramona kayfiyat bag‘ishlaydi.

Ulug‘bek Orifjonov – mashhur xattot, uning asarlari nafisligi va mahorati bilan e’tirof etilgan. Muallif turli ko‘rgazmalar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etadi. Uning asarlari islom dini bilan bog‘liq motivlardan tashkil topgan bo‘lib, yuqori darajadagi detallashtirilishi va badiiy ifodasi bilan ajralib turadi.

Asar arab yozuvining eng qadimgi turlaridan biri (VII asr o‘rtalari) Kufiy yozuvi asosida paydo bo‘lgan Kufiy murabba xatida yozilgan. Bosib olingan mamlakatlardagi devonlarni (islom jamiyatlarida davlat ro‘yxati) arablashtirish va tizimlashtirishdan oldin arablar bo‘ysundirilgan hududlar musulmonlari uchun oson o‘qiladigan va tushunarli bo‘ladigan yozuvni tanlash ustida uzoq bosh qotirganlar. Natijada, Arab xalifaligining boshqa shaharlarida mavjud bo‘lgan shriftlardan nafisligi jihatidan ustun bo‘lgan aniq va qat’iy kufiy yozuvi tanlandi. Shunday qilib, kufiy yozuvi yirik davlatning barcha hududlarida tarqaldi. Yozuvning bu turi diakritik belgilar (unlilarni ifoda qilish uchun harflarning ost-ustiga qo‘yiladigan harakatlardan foydalaniladi) ning yo‘qligi, uslubining soddaligi va qat’iyligi, shuningdek, geometrik mutanosibligi bilan ajralib turadi. Kufiy uslubi asosida uning ko‘plab turlari paydo bo‘lgan, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va turli kontekstlarda qo‘llaniladi. Kufi murabba, yoki to‘rtburchak kufiy o‘zining geometrik qat’iyligi va simmetriyasi bilan ajralib turadi, me’morchilik va bezak san’atida ko‘p qo‘llaniladi.

Oltinrang fon ustiga ko‘k rangda bitilgan Oyat al-Kursiy Baqara surasining 255-oyatidir. Baqara surasining fazilati shuki, uning ichida Oyat al- Kursiy bor. Oyat al-Kursiy Qur’oni karimdagi eng ulug‘ oyat ekanligi ta’kidlangan. Chunki, bu oyat Alloh taoloning go‘zal ismlari, oliy sifatlari zikri kelgan eng ulug‘ va sharafli so‘zlardan tarkib topgandir. Unda Alloh taoloning Vahdoniyat, Ilm, Molik, Qudrat va Iroda kabi ism sifatlari zikri kelgan. Hatto, ba’zi mufassirlar bu oyatda Alloh taoloning o‘n yettita eng ulug‘ ismlari jamlangan, deganlar. Ritmik kompozitsiya tillarang oxra fonida ko‘k tush bilan ishlangan va masjid shaklidagi jigarrang hoshiyaga joylangan. Shriftning pastki qismi oltinrang tagzaminda jigarrang tush bilan ishlangan, harflarning xarakatlari esa ko‘k rangda berilgan. Muallif tomonidan tanlangan ko‘k, oltin va jigarranglarning mutanosibligi yorqinlik effektini yaratib, asardan yon-atrofga “nur” taralayotgandek kayfiyatini beradi. Kompozitsiyaning pastki o‘ng qismida muallif imzosi “Ulug‘bek” arabcha harf bilan yozilgan.

Qudrat Isroilovning 2004 yilda yaratilgan “Navfal va Layli qabilalari lashkarlari o‘rtasidagi jang” miniatyurasida ham O‘rta asrlar miniatyura san’ati maktablarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. «Layli va Majnun» Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni bo‘lib, 1484 yilda yozilgan. Dostonning kirish boblaridan birida Navoiy an’anani davom ettirib, bu mavzuda asar yozgan salaflarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Ulardan farqli o‘laroq asarini turkiyda yozganini alohida ta’kidlaydi. 10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Majnun sahroda ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko‘rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

Navfal dag‘i ishq ko‘rgan edi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo‘lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko‘tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma’lum bir bosqichga yetgandan keyin to‘xtab qolganligini ko‘ramiz. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o‘ylayli va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo‘lmagach, urush ochadi. Asarda tuyalar ustida ikki qabilaning jang qilayotgani tasvirlangan. Jangchilar bir-birlariga qilich va nayzalar bilan hujum qilmoqdalar. Asarning tepa qismida tepalikda yashil daraxt ostida oq kiyimda Majnun (Qays)ning qarab turgani tasvirlangan. Osmon moviy rangda va unda oq bulut tasviri bor.

Xulosa. O‘zbekiston zamonaviy san’atida o‘rta asr Sharq miniatyura san’ati mavzularining badiiy talqini – bu an’ana va zamonaviylikning o‘ziga xos sintezidir. Izlanish natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy o‘zbek rassomlari miniatyura san’atiga murojaat qilib, uning yuksak badiiy va falsafiy qadriyatlarini e’tirof etadilar. Aniqlanishicha, zamonaviy rassomlar miniatyura an’analarini saqlab qolish bilan birga, ularni yangicha badiiy yechimlar bilan boyitmoqdalar. Ular an’anaviy kompozitsiya, ranglar uyg‘unligi va tasvirlash usullaridan foydalangan holda, zamonaviy mavzular va g‘oyalarni ifoda etadilar. O‘rta asr Sharq miniatyura san’ati mavzularining zamonaviy talqini O‘zbekiston san’atining badiiy va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. U nafaqat o‘tmish merosiga hurmatni, balki zamonaviy dunyoqarashni ham aks ettiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek san’atining jahon madaniyatiga integratsiyalashuvida muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Акилова К. “Жаҳон бадиий маданиятида Камолиддин Беҳзод ижодининг ўрни”. // «SAN’AT». 2020. – №3.
2. Шоёкубов Ш. Ўзбекистоннинг бугунги миниатюра рангтасвири. – Тошкент, “Шарқ”. 1994.
3. Раҳимова З. “Даврон Тошев ижодида Бухоро миниатюра мактаби анъаналарининг тикланиши”. // «SAN’AT», 2017. – №2.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 81’25:81-13

Anorxon AXMEDOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi, PhD
E-mail: anorxonimomaliyeva@mail.ru

O‘zMU professori H.Xudaykulov taqrizi asosida

YOZMA TARJIMA KO‘NIKMASINI TURLI TIL KORPUSLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

So‘nggi yillarda til korpuslaridan til instrumenti sifatida foydalanishga bo‘lgan talab yildan-yilga o‘sib bormoqda. Til korpuslaridan fodalanish uchun birinchi navbatda o‘qituvchi kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni puxta egallagan bo‘lishi lozim. Korpus lingvistikasi kontekstida “tabiiy ravishda yuzaga kelgan matnlar” iborasi ko‘p ishlatiladi. Tabiiy ravishda yuzaga kelgan matnlar o‘zi nima degan savol tug‘iladi. Tabiiy ravishda yuzaga kelgan matnlar bu – o‘rganish maqsadida sun’iy yaratilmagan, tabiiy kommunikatsion sharoitlarda hosil bo‘lgan matnlar tushuniladi. Bu matnlar kundalik muloqotlar, gazeta maqolalari, kitoblar, elektron pochta xabarlari, ijtimoiy tarmoqlar yozishmalari va boshqa ko‘plab narsalarni o‘z ichiga oladi. Ular turli sharoitlarda tilning haqiqiy qo‘llanilishini aks ettiradi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОГО ПЕРЕВОДА НА ОСНОВЕ РАЗЛИЧНЫХ ЯЗЫКОВЫХ КОРПУСОВ

Аннотация

В последние годы наблюдается постоянно возрастающий интерес к использованию языковых корпусов как инструмента языковедения. Первоначально, для использования языковых корпусов, необходимо, чтобы преподаватель в совершенстве овладел компьютерными технологиями. В контексте корпусной лингвистики часто используется фраза “естественно возникшие тексты”. Возникает вопрос: что такое естественно возникшие тексты? Под естественно возникшими текстами понимаются тексты, которые не созданы искусственно в учебных целях, а сформированы в естественных коммуникативных условиях. Эти тексты включают в себя повседневные разговоры, статьи в газетах, книги, сообщения в электронной почте, записи в социальных сетях и многие другие виды материалов. Они отражают реальное использование языка в различных условиях.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING WRITTEN TRANSLATION SKILLS BASED ON VARIOUS LANGUAGE CORPORA

Annotation

In recent years, the demand for using language corpora as a tool for linguistic analysis has been steadily increasing. Initially, to utilize language corpora effectively, educators must master computer technologies. Within the context of corpus linguistics, the phrase "naturally occurring texts" is frequently employed. This raises the question: what are naturally occurring texts? Naturally occurring texts are understood to be those that are not artificially created for study purposes but are formed in natural communicative settings. These texts include everyday conversations, newspaper articles, books, email messages, social network posts, and many other items. They reflect the actual use of language in various conditions.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilining ta’limiy korpusida til korpuslarini ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi fikrlar berilgan: “Ta’limiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni o‘rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o‘rgatishda lug‘at boyligining kattaligini ko‘rsata olish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko‘rsatishda korpus juda qo‘l keladi. Til ta’limi uchun muhim bo‘lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O‘qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo‘yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi.

Ta’limda korpusdan foydalanish quyidagi jarayonlar uchun zamonaviy instrumentariy vazifasini bajaradi;

Tilni o‘rganuvchi, uning tashuvchisi bo‘lgan kishi nutqini qiyoslash;

Til uslublarini kitob, darslik, nashr materiali bo‘yicha qiyoslash, farqini aniqlash;

Gaplarda so‘z tartibini aniqlash;

Adabiy og‘zaki/yozma tilni chog‘ishtirish”[1].

Korpuslar turli xil tuzilish va maqsadlar asosida bir necha turlarga bo‘linadi. Asosiy korpus turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Umumiy yoki referens korpuslar. Bu turdagi korpuslar keng ko‘lamli til materiallarini o‘z ichiga oladi va tilning umumiy foydalanishini aks ettiradi. Umumiy korpuslar turli mavzularni o‘z ichiga oladi va maxsus sohalarga cheklov qo‘ymaydi. Ular tahlil uchun keng qamrovli material sifatida ishlatiladi. Masalan,

British National Corpus (BNC) [2] Ingliz tilidagi 100 milliondan ortiq so‘zlar, jumladan, akademik maqolalar, gazeta maqolalari, asarlar va suhbatlarni o‘z ichiga olgan korpus.

O‘zbek tili korpusi [3] o‘zbek tilidagi adabiy, ilmiy va ommaviy matnlarni o‘z ichiga oluvchi korpus.

Corpus of Contemporary American English [4] (COCA) 1 milliarddan ortiq so‘zlarni o‘z ichiga olgan zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi.

2) Ixtisoslashgan yoki sohaviy korpuslar. Bu korpuslar ma’lum bir soha yoki mavzuga oid matnlarni o‘z ichiga oladi. Ixtisoslashgan korpus va sohaviy korpus ko‘pincha bir-biriga o‘xshash ko‘rinsa-da, ular orasida ba’zi farqlar mavjud. Quyida jadvalda ularning farqlari va o‘xshash jihatlari keltirilgan:

1-jadval. Ixtisoslashgan va sohaviy korpuslarning me’zonlaridagi farqlari

Mezonlar	Ixtisoslashgan korpus	Sohaviy korpus
Maqsad	Tilning maxsus xususiyatlarini o‘rganish	Muayyan sohadagi tilni o‘rganish
Tarkib	Tilga oid har xil mavzulardagi matnlar	Ma’lum bir sohadagi matnlar
Qamrov	Tilning tor bir aspektiga qaratilgan	Sohaga oid matnlarning keng doirasi
Misol	Frazeologizmlar korpusi	Iqtisodiy matnlar korpusi

Ixtisoslashgan korpuslar biror tilning muayyan jihatini chuqur tahlil qilish uchun yaratiladi. Tilshunoslik, grammatika, uslub yoki boshqa bir til xususiyatini o‘rganishga mo‘ljallangan korpuslar. Masalan, frazeologizmlar, murakkab sintaksis yoki dialektlarni o‘rganish uchun maxsus yig‘ilgan matnlarni o‘z ichiga oladi. Har xil janrlar va mavzulardan iborat bo‘lishi mumkin, lekin bitta xususiyatga moslashtirilgan bo‘ladi.

Bu turdagi korpuslar akademik tadqiqotlar, til xususiyatlarini aniqlash yoki qiyosiy tahlil uchun ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi shevalarni o‘rganish uchun maxsus shevalar korpusi.

Child Language Data Exchange System [5] (CHILDES) bolalar tilini o‘rganish uchun maxsus yaratilgan korpus bo‘lib, bolalar tilini o‘rganish bo‘yicha eng yirik ochiq ma’lumotlar bazalaridan biri bo‘lib, u bolalar tilini rivojlantirishni ilmiy tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Mazkur korpusning tarkibida 26 tildagi 230 dan ortiq korpuslar, jumladan, 1960-yildan beri yig‘ilgan transkriptlar, audio va video materiallar mavjud. CHILDES tizimida transkripsiyalarni standartlashtirish uchun CHAT (Codes for the Human Analysis of Transcripts) formati qo‘llaniladi. Bu format fonologik va morfologik tahlil uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Bolalar va kattalar nutqini transkripsiya qilish, shuningdek, ikkinchi til o‘rganish jarayonini tahlil qilish imkoniyatini beradi. CLAN (Computerized Language Analysis) – CHILDES uchun maxsus ishlab chiqilgan dastur bo‘lib, u transkripsiyalarni tahlil qilish, so‘z chastotasi va grammatik tuzilmani o‘rganish uchun ishlatiladi. CLAN nafaqat transkripsiyalarni ko‘rish, balki tahlil va statistik ma’lumotlar tuzishga ham imkon beradi. O‘z tarkibiga quyidagi ma’lumot turlarini qamrab oladi:

Bolalar nutqi (yakka tartibda yoki guruhlarda).

Kattalar tomonidan bolalarga yo‘naltirilgan nutq.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirishga oid ma’lumotlar.

Maxsus ehtiyojli bolalar (afaziya (nutqdagi kamchiliklar), nutq buzilishlari va boshqalar) bilan bog‘liq materiallar.

CHILDES korpusi quyidagi tadqiqotlar uchun moslashgan:

Lingvistik tadqiqotlar.

Pedagogik tadqiqotlar.

Psixologik va kognitiv rivojlanish tahlillari.

CHILDES quyidagi amaliy tadqiqotlarda qo‘llaniladi:

1. Tilni rivojlantirish tadqiqotlarida. Bolalar qanday qilib o‘z ona tillarini o‘zlashtirishini kuzatish va tahlil qilish.

2. Ikkinchi tilni o‘rganish uchun. Ikkinchi tilni o‘rganuvchilar uchun qiyinchiliklarni aniqlash va ularni yengib o‘tish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqish.

3. Nutq buzilishlarini o‘rganishda. Nutq va til bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, jumladan, maxsus ehtiyojli bolalar uchun strategiyalar yaratish maqsadida.

4. Lingvistik qiyosiy tahlil. Turli tillardagi grammatik va semantik xususiyatlarni solishtirishda ishlatiladi.

Shakespeare Corpus [6] – bu Uilyam Shekspirning asarlarini tahlil qilish va o‘rganish uchun yaratilgan lingvistik korpus bo‘lib, ushbu korpus Shekspir tilining boyligini, uslubini va grammatik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. U adabiyotshunoslik, lingvistika va tarjimonlik sohalarida keng qo‘llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohaviy korpuslar ma’lum bir soha yoki kasbga oid matnlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosan, terminologiya, uslub va tilni kasbiy kontekstda o‘rganish uchun ishlatiladi. Masalan, tibbiyot, huquq, muhandislik yoki iqtisodiyot sohalaridagi matnlar korpusi. Bu kabi korpuslar amaliy maqsadlarda ishlatiladi. Masalan, kasbiy tilni o‘rgatish (huquqshunoslik, diplomatik so‘zlashuvlari). Sohaviy korpuslar maxsus soha uchun lug‘atlar tuzish, soha tilidagi tarjimonlarni tayyorlash maqsadida yaratiladi.

English Medical Corpus [7] tibbiyotdagi matnlarni qamrab oluvchi korpus.

English Medical Corpus (EMC) – ingliz tibbiyot sohasidagi matnlarni o‘z ichiga oluvchi maxsus til korpusi bo‘lib, u tibbiyot sohasidagi tilni o‘rganish, tarjima qilish va tadqiqotlar olib borishda qo‘llaniladi. Ushbu korpus tibbiy terminologiyani, nutq uslublarini va ilmiy yozish odatlarining tahlilini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan.

EMCning tarkibi quyidagialrdan iborat; tibbiy ilmiy maqolalar, tadqiqot maqolalari, jurnal nashrlari, klinik hujjatlar, bemor kartalari, tibbiy hisobotlar, retseptlarni o‘quv materiallari, tibbiy darsliklar va qo‘llanmalar, ijtimoiy axborot matnlari, sog‘liqni saqlash bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning rasmiy e’lonlari va ma’lumotlari, bemorlarning fikr-mulohazalari, klinik tadqiqotlarga asoslangan yozma sharhlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur korpus orqali o‘quvchilar terminlarni qidirish, chastotasini o‘rganish va matnlarda ularning qo‘llanilishini tahlil qilish imkoniyatiga ega. EMC tibbiy terminlarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

Masalan: “diagnosis” yoki “prognosis” kabi atamalarning turli ilmiy va amaliy qo‘llanilishini tahlil qilish, tibbiy yozishmalardagi qisqartmalarni va terminologiyani tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradilar. EMC tarjimonlar uchun muhim vositadir. U tibbiyot matnlarini bir tilga tarjima qilishda kontekstual ma’lumot beradi.

EMC so‘z chastotasi va kollokatsiyalarni o‘rganishda foydalidir.

English Medical Corpus tibbiyot sohasidagi tilni o‘rganish, tahlil qilish va targ‘ib qilish uchun noyob resurs hisoblanadi. U tilshunoslik, tarjimonlik va tibbiy ta’limda samarali foydalaniladi. EMC orqali tibbiyot sohasida aniq va mazmunli kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Tahlil va natijalar. 3) Parallel yoki tarjima korpuslari: Bu turdagi korpuslar ikki yoki undan ortiq tillardagi matnlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa bir til matnining boshqa tilga qanday tarjima qilinganini tahlil qilish imkonini beradi. Parallel korpuslar tarjimonlar va lingvistlar uchun til tuzilmalarini solishtirish va tarjima strategiyalarini o‘rganish imkonini beradi.

Parallel korpusga misol tariqasida biz ish olib borayotgan o‘zbek tili korpusini aytishimiz mumkin. Mazkur korpusga https://uzbekcorpus.uz/ linki orqali kiriladi. Bizning korpusimizda o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha; o‘zbekcha-turkcha, turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-loreyscha, koreyscha-o‘zbekcha parallel matnlardan tashkil topgan.

UM-Corpus (Michigan Universiteti Korpusi) – bu ingliz-xitoy tilidagi statistik mashina tarjimasi tadqiqotlari uchun mo‘ljallangan katta hajmdagi parallel korpusdir. Ushbu korpus kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasi sohasida ishlayotganlar uchun juda qimmatli, chunki u ingliz va xitoy tillari o‘rtasidagi tarjima algoritmlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish uchun katta ma’lumotlar to‘plamini taqdim etadi.

English-Spanish Europarl Corpus – bu korpus Yevropa Parlamenti sessiyalarining ingliz va ispan tillaridagi yozuvlaridan iborat. Bu korpus siyosiy matnlar tarjimasini tahlil qilish va ikki til o‘rtasidagi uslubiy va terminologik mosliklarni o‘rganish uchun juda qimmatli [8].

JRC-Acquis Multilingual Parallel Corpus [9] – mazkur korpus Yevropa Ittifoqi rasmiy hujjatlarining 22 tilda tarjimasini o‘z ichiga oladi. Ushbu korpus, yuridik matnlar tarjimasida qo‘llaniladigan uslublar va terminologiyalarni o‘rganishda foydali hisoblanadi.

Parallel korpuslar turli tillar o‘rtasidagi lingvistik va tarjima tadqiqotlarida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular turli tildagi matnlarning qiyosiy tahlilini ta’minlaydi va tilshunoslar hamda tarjimonlar uchun zarur ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

4) Dinamik yoki yangilanib turadigan korpuslar vaqt o‘tishi bilan yangilanib turadi va zamonaviy til foydalanish tendentsiyalarini kuzatish imkonini beradi.

Dinamik yoki yangilanib turadigan korpuslar, vaqt o‘tishi bilan muntazam ravishda yangilanadigan va kengaytiriladigan til materiallari to‘plamidir. Bu turdagi korpuslar tilning o‘zgaruvchanligi va rivojlanishini kuzatish maqsadida foydalaniladi, ayniqsa zamonaviy so‘zlarning paydo bo‘lishi, tilning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlariga moslashuvi kabi jarayonlarni tahlil qilishda foydali manba sifatida xizmat qiladi.

Corpus of Contemporary American English (COCA) – bu Amerika ingliz tilida 1990-yillardan boshlab ishlatilayotgan so‘zlar va iboralarni o‘z ichiga olgan korpusdir. COCA har yili

yangilanib turiladi va 560 milliondan ortiq so‘zni o‘z ichiga oladi, bu esa tilshunoslar va tadqiqotchilarga Amerika ingliz tilidagi so‘nggi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

British National Corpus (BNC) – aslida BNC yaratilish jarayonida dinamik korpus sifatida rejalashtirilmagan bo‘lsa-da, u vaqt o‘tishi bilan yangilanib turilgan korpuslarni yaratish g‘oyasiga zamin yaratgan. BNCning yangi formati – BNC2014, Britaniya ingliz tilidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun ishlatiladi.

The Hansard Corpus – bu Buyuk Britaniya Parlamentining yozuvlari korpusi bo‘lib, 1800-yillardan to hozirgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Hansard muntazam ravishda yangilanib turadi va siyosiy tilning o‘zgarishlarini kuzatishda qimmatli manba hisoblanadi.

5) Multimodal korpuslar: Ushbu korpuslar faqat yozma matnlar emas, balki audio, video va boshqa multimodal materiallarni ham o‘z ichiga oladi. Ular tilni kengroq kontekstda, masalan, nutqiy kommunikatsiya yoki noverbal elementlar bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.

TalkBank – bu multimodal korpus nutqiy kommunikatsiyani tadqiq qilish uchun yaratilgan bo‘lib, turli yoshdagi va turli tillarni so‘zlovchi shaxslarning audio va video yozuvlarini o‘z ichiga oladi. Bu korpus, o‘z ichiga olgan ma'lumotlar orqali nutqiy rivojlanish, til o‘rganish jarayonlari va tilning ijtimoiy foydalanishini tahlil qilish imkonini beradi.

TalkBank – bu o‘z ichiga turli tillardagi til ma’lumotlarini qamrab olgan, dunyoning eng yirik ochiq kirishli integratsiya qilingan til ma’lumotlar bazasidir. TalkBank, tilshunoslik, psixologiya, ta’lim, kompyuter fanlari va nutq patologiyasi sohalaridagi tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun til korpuslari va boshqa audio resurslarni taqdim etadi.

TalkBankning yana bir muhim jihati, CHAT transkriptsiya formatidan foydalanishi va CLAN dasturini til tahlili uchun ishlatilishi hisoblanadi. Bu dastur tilni tahlil qilishda turli xil foydalanish xususiyatiga ko‘ra avtomatik hisoblab chiqarish imkonini beradi.

AMI Meeting Corpus [10] – bu korpus ishbilarmonlik uchrashuvlarining audio va video yozuvlaridan iborat bo‘lib, ishtirokchilarning muloqotlarini, imo-ishoralarini va mimikalarini qamrab oladi. Tadqiqotchilar bu ma’lumotlardan jamoaviy ish jarayonlarini va kommunikativ strategiyalarni o‘rganish uchun foydalanadilar.

HCRC Map Task Corpus: Bu korpus ikki shaxs o‘rtasidagi muloqotni audio va video formatlarda yozib oladi, ular bir-biriga xarita orqali yo‘nalish ko‘rsatish vazifasini bajarishadi. Ushbu korpus, tilning interaktiv ishlatilishini va kommunikativ vazifalarni bajarishdagi rolını tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, multimodal korpuslar, nutqiy va yozma tilni tahlil qilish bilan bir qatorda, non-verbal kommunikatsiya elementlarini (masalan, imo-ishoralar, yuz ifodalari va ko‘z harakatlari) ham qamrab oladi. Bu korpuslar, tilshunoslik, psixologiya, antropologiya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi va tilni kengroq madaniy va ijtimoiy kontekstlarda o‘rganish imkonini beradi.

Har bir korpus turining o‘ziga xos xususiyatlari va tadqiqot maqsadlari uchun alohida ahamiyati bor. Tilshunoslikda korpuslardan foydalanish, tilni chuqurroq tushunish va turli lingvistik fenomenlarni aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Korpus lingvistikasida og‘zaki nutqdan tashkil topgan korpusga tilning yozma asarlari to‘planib, haqiqiy hayotiy suhbatlar, nutqlar va boshqa og‘zaki faoliyatlarning audio yozuvlari tahlil qilinadi. Bu yozuvlar transkriptsiya qilinadi va ko‘pincha og‘zaki tilning qo‘llanilishini tushunishga yordam beradigan belgilarni o‘z ichiga oladi[11].

Korpus lingvistikasida “a principled collection” atamasi ishlatilib mazkur ibora “Prinsipga asoslangan to‘plam” degan ma’noni ifodalaydi[12]. Ya’ni aniq bir til shaklini o‘rganish maqsadida qurilgan korpusni ma’lum mezonlar va maqsadlar asosida tuzilganini anglatadi. Bu, korpus hajmi, turli matn turlari (masalan, rasmiy va norasmiy) kiritilishi, so‘zlashuvchilar yoki yozuvchilarning metama’lumoti va boshqa omillar kabi, tilni muvozanatli va maqsadli tarzda ifodalashga yordam beradigan asoslar tushuniladi.

ADABIYOTLAR

1. https://uzschoolcorpara.uz/
2. https://www.english-corpora.org/bnc/
3. https://uzschoolcorpara.uz/
4. https://www.english-corpora.org/coca/
5. https://childes.talkbank.org/
6. https://www.opensourceshakespeare.org/
7. https://www.sketchengine.eu/english-medical-corpus/
8. https://www.statmt.org/europarl/
9. https://joint-research-centre.ec.europa.eu/language-technology-resources/jrc-acquis_en
10. https://groups.inf.ed.ac.uk/ami/corpus/
11. Abduraxmonova N.Z. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti (sodda gaplar misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD)…disc. –Toshkent, 2018. – 165 b.
12. Abdurakhmonova N. Linguistic Issues of Creating Parallel Corpora for Uzbek Multilingual Machine Translation System // BuxDU ilmiy axborotnomasi №6, 2020. – P. 60-68

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9(575.1)

Namuna BAZARBOEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: namuna@mail.ru

ADPI professori,DSc M.Xalimova taqrizi asosida

MECHANISMS OF TOLERANCE IN FAMILY RELATIONS

Annotation

This paper examines the mechanisms of tolerance in family relations. The family as the basic unit of society forms social, psychological and cultural relations between people. Creating an atmosphere of tolerance and mutual respect among family members is one of the important factors in ensuring a stable and healthy family. The paper analyzes the essence of the concept of tolerance, its role in family relations, as well as problems and ways to overcome them. The role of national traditions and values, modern psychological approaches, education in the formation of tolerance is emphasized. The main attention is paid to communicative, educational and legal mechanisms for the prevention of family conflicts and the creation of a positive environment.

Key words: Family tolerance, family relations, tolerance, social, psychological environment, mutual respect, conflictology, national values, education, communication, legal mechanisms.

МЕХАНИЗМЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В данной работе рассматриваются механизмы обеспечения толерантности в семейных отношениях. Семья как основная ячейка общества формирует социальные, психологические и культурные отношения между людьми. Создание атмосферы толерантности и взаимного уважения среди членов семьи является одним из важных факторов обеспечения стабильной и здоровой семьи. В работе анализируется сущность понятия толерантности, ее роль в семейных отношениях, а также проблемы и пути их преодоления. Подчеркивается роль национальных традиций и ценностей, современных психологических подходов, образования в формировании толерантности. Основное внимание уделяется коммуникативным, образовательным и правовым механизмам профилактики семейных конфликтов и создания позитивной среды.

Ключевые слова: Семейная толерантность, семейные отношения, толерантность, социальная, психологическая среда, взаимоуважение, конфликтология, национальные ценности, воспитание, коммуникация, правовые механизмы,

OILAVIY MUNOSABATLARDA TOLERANTLIKNI TA’MINLOVCHI MEXANIZMLAR

Annotatsiya

Mazkur ishda oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash mexanizmlari yoritib berilgan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida insonlar orasidagi ijtimoiy, psixologik va madaniy munosabatlarni shakllantiradi. Oila a’zolari o‘rtasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish – barqaror va sog‘lom oilani ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Ishda tolerantlik tushunchasining mohiyati, uning oilaviy munosabatlardagi o‘rni, shuningdek, muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Tolerantlikni shakllantirishda milliy an’ana va qadriyatlarning, zamonaviy psixologik yondashuvlar va ta’lim-tarbiyaning o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Oilaviy nizolarni oldini olish va ijobiy muhitni yaratish uchun kommunikativ, tarbiyaviy va huquqiy mexanizmlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Oila Tolerantlik, oilaviy munosabatlar, bag‘rikenglikIjtimoiy, psixologik muhit, o‘zaro hurmat, konfliktologiya, milliy qadriyatlar, tarbiya, kommunikatsiya, huquqiy mexanizmlar.

Kirish. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikning mavjudligi mustahkam va barqaror oila qurishda katta ahamiyatga ega. Tolerantlik turli qarashlar, manfaatlar va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni ta’minlashga yordam beradi. Tolerantlik faqatgina sabr-toqat emas, balki boshqalarning qadr-qimmatini tan olish va hurmat qilish madaniyati hamdir. Bu tushuncha ijtimoiy-psixologik va madaniy aspektlarga ega bo‘lib, inson faoliyati va munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinadi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar inson shaxsiyatining shakllanishiga, uning ijtimoiy ko‘nikmalari va qadriyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi globalizatsiya jarayonida turli madaniyatlar va dunyoqarashlarning o‘zaro ta’siri ortib borayotgan bir sharoitda oilada tolerantlikni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Tolerantlik – bu faqat sabr-toqat emas, balki har bir shaxsning qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatidir[2]. Oilada tolerantlikning mavjudligi oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlik muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ota-ona va farzandlar, turmush o‘rtoqlar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarda tolerantlik tamoyillariga rioya qilish orqali ziddiyatlar va kelishmovchiliklarning oldini olish mumkin. Tolerantlik muhitida o‘sgan bolalar keyinchalik jamiyatda muvaffaqiyatli va bag‘rikeng shaxslar bo‘lib voyaga yetadilar. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinib, uning jamiyat taraqqiyoti va mustahkamligi uchun ahamiyati yoritiladi [4]. Tadqiqotda ijtimoiy ta’lim nazariyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi, ijtimoiy aloqalar nazariyasi va emotsional intellekt nazariyasi kabi nazariy yondashuvlar asosida oilada tolerantlikning shakllanishi va uning mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni shakllantirish va ta’minlash bir necha nazariy yondashuvlar mavjud.

Oilaviy munosabatlarda tolerantlik oilaning har bir a’zosining huquq va qadr-qimmatini tan olish, farqli fikr va qadriyatlarni hurmat qilish orqali barqaror va uyg‘un muhit yaratishga xizmat qiladi. Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, undagi munosabatlar tizimi inson shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oila doirasida tolerantlik prinsiplari amalda bo‘lgan hollarda nizolar kamayadi, o‘zaro tushunish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash kuchayadi [3].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada tolerantlik muhitining mavjudligi psixologik sog‘lomlikni ta’minlaydi, oilaning ijtimoiy funksiyalarini samarali bajarishiga yordam beradi va bolalarda ijobiy ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantiradi.

Tolerantlikni ta’minlovchi mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

Psixologik mexanizmlar: o‘zaro empatiya, tinglash madaniyati, stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni saqlash.

Tarbiyaviy mexanizmlar: ota-onaning namunali xulqi, farzandlarga bag‘rikenglik va hurmat ruhida tarbiya berish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.

Kommunikativ mexanizmlar: ochiq va to‘g‘ri muloqot, nizolarni muzokara orqali hal etish, fikr almashish va murosaga erishish.

Huquqiy mexanizmlar: O‘zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" va boshqa normativ hujjatlar orqali oilaviy nizolarni oldini olish va hal etish tartiblarini belgilash [2].

Zamonaviy jamiyatda oilada tolerantlik madaniyatini shakllantirish nafaqat oilaning ichki muhitini sog‘lomlashtiradi, balki jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazarga ko‘ra quyidagi nazariy yondoshuvlarga tayanadi.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasi (A. Bandura, 1977) – ushbu nazariyaga ko‘ra, bolalar va oila a’zolari tolerantlikni uzatish va o‘rganish jarayonida ota-ona va atrofdagi insonlarning xulq-atvoriga asoslanib shakllantiradi. Agar bola tolerantlikka asoslangan muhitda ulg‘aysa, u kelajakda boshqalarga nisbatan sabrli va hurmatli munosabatda bo‘ladi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi (J. Piaget, 1952) – insonning tafakkur rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, bolalar va kattalarda tolerantlik darajasi tajriba va ta’lim jarayonida shakllanadi. Oilada ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligiga bo‘lgan hurmat tolerantlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy aloqalar nazariyasi (E. Goffman, 1959) – insonning ijtimoiy munosabatlari va ularning tashqi muhitga moslashuvchanligi tolerantlik darajasini belgilaydi. Oilada muloqot madaniyati va o‘zaro hurmat qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda tolerantlik shu qadar mustahkam bo‘ladi [5].

Emotsional intellekt nazariyasi (D. Goleman, 1995) – ushbu nazariyaga ko‘ra, tolerantlik shaxsning emotsional intellekt darajasi bilan uzviy bog‘liq. Oilada bir-birini tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash tolerantlikni mustahkamlashga yordam beradi. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqilishi mumkin:

1. Tarbiya va ta’lim mexanizmlari

Bolalikdan oilada o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirish.

Inson huquqlari va etik normalarga asoslangan ta’lim berish.

Bolalar va kattalarga ijtimoiy tanqidiy fikrlashni o‘rgatish.

2. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish.

Oilaviy muammolarni hal qilishda ochiq muloqotni qo‘llash.

Konfliktdan olishlardan qochish emas, balki ularni to‘g‘ri hal qilish madaniyatini shakllantirish.

3. Kommunikativ mexanizmlar

Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil qilish.

Bir-birining fikriga hurmat bilan yondashish.

Noto‘g‘ri tushunishlardan qochish uchun aniq va ochiq fikr bildirish.

4. Ijtimoiy-madaniy mexanizmlar

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish va qo‘llash.

Turli madaniyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Oilaviy an’analar va bayramlarning tolerantlikni shakllantirishdagi o‘rnini e’tirof etish.

5. Huquqiy va institutsional mexanizmlar

Oila huquqiy meyorlar va normalar asosida barqaror munosabatlar qurishi kerak.

Davlat va jamoat tashkilotlarining tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash [6].

Tadqiqot metodologiyasi:

1.Insonparvarlik (gumanistik) yondashuv

Bu yondashuv inson qadr-qimmati, huquqlari va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Oilaviy munosabatlarda har bir a’zo ehtiyojlarini hurmat qilish, ularni qabul qilish va tushunishni ta’minlash orqali tolerantlik muhitini yaratishni nazarda tutadi. Karl Rojers va A. Maslou kabi gumanistik psixologiya namoyondalari tomonidan ushbu yo‘nalish ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy- yondashuv (sotsial-psixologik)

Bu yondashuv oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy rollar, maqomlar va munosabatlar tizimini o‘rganishga asoslanadi. Tolerantlikni shakllantirishda fuqarolik madaniyati, ijtimoiy normalar, qoidalar va oiladagi muomala standartlariga ahamiyat qaratiladi. Oila – bu ijtimoiy institut sifatida qaralib, fuqarolik ongi va muloqot madaniyati orqali tolerantlik tarbiyalanadi.

Ilmiy-psixologik yondashuv

Bu yondashuv tolerantlikni psixologik mexanizm sifatida ko‘radi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy) omillarni o‘rganadi. Shaxslararo munosabatlardagi kommunikativ kompetentlik, emotsional barqarorlik va psixologik moslashuvchanlikni rivojlantirish tolerantlikni ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi.

Taraqqiyot psixologiyasi Oilada tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish shaxs o‘sishining turli bosqichlariga qarab baholanadi. Bu metodologik yondashuv bola va kattalar psixologiyasining rivojlanish jarayonlarini hisobga oladi va oilada muvozanatli hamkorlik muhitini ta’minlashga qaratilgan.

Taxlil va natijalar

№	Mexanizmlar	Tadqiqot ishtirokchilarining baho (%)
1	Emotsional yaqinlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash	85%
2	Muloqot madaniyati va konstruktiv munosabatlar	78%
3	Oilaviy qadriyatlar va milliy an’analarga rioya qilish	73%
4	Teng huquqlilik va adolat tamoyillari	70%
5	Farzandlarga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish	65%

1. Emotsional yaqinlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash – 85%

Bu ko‘rsatkich oilangizda juda yuqori darajada ekan. Demak, oila a’zolari bir-biriga hissiy jihatdan yaqin va doimo bir-birini qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Bunday muhitda oila a’zolari o‘zlarini xavfsiz va ishonchli his qilishadi, bu esa oilaviy mustahkamlik va barqarorlik uchun asosiy omil hisoblanadi.

2. Muloqot madaniyati va konstruktiv munosabatlar – 78%

Bu natija ham yaxshi darajada, ya’ni oilangizda umumiy muloqot madaniyati shakllangan va ko‘pincha konstruktiv, ya’ni muammolarni hal etishga qaratilgan munosabatlar mavjud. Biroq, ba’zi vaziyatlarda muloqotda tushunmovchiliklar yoki bahslar paydo bo‘lishi mumkin. Shu jihatga biroz e’tibor berib, bu ko‘rsatkichni yanada yaxshilash mumkin.

3. Oilaviy qadriyatlar va milliy an’analarga rioya qilish – 73%

Bu ko‘rsatkich o‘rtacha yuqori. Oilangiz milliy an’analar va qadriyatlarga asosan hayot kechiradi, lekin ba’zi hollarda zamonaviylik va an’analar o‘rtasida muvozanat izlanishi mumkin. Demak, ayrim an’analarga rioya qilishda erkinlik ham borligi ehtimoli bor.

4. Teng huquqlilik va adolat tamoyillari – 70%

Bu ham yaxshi natija. Oilada teng huquqlilik va adolatga intilish bor, lekin ba’zan ayrim qarorlar yoki munosabatlarda bir oz noaniqlik yoki adolatsizlik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Buni teng huquqlilikni yanada kuchaytirish orqali yaxshilash mumkin.

5. Farzandlarga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish – 65%

Bu ko‘rsatkich nisbatan pastroq. Demak, farzandlar qaror qabul qilishda mustaqillikka ega, lekin ba’zi masalalarda ularga hali ham kattalar tomonidan ko‘proq nazorat yoki yo‘l-yo‘riq berilayotgan bo‘lishi mumkin. Bu esa bolalarning shaxsiy rivojlanishi va mas’uliyat hissini shakllantirishda to‘sqinlik qilishi ehtimolini anglatadi.

Oilangizda emotsional yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash juda yaxshi rivojlangan, muloqot madaniyati va milliy an’analarga ham yetarli darajada rioya qilinadi. Ammo farzandlar mustaqilligini oshirish va teng huquqlilik masalalariga yanada e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, muloqot va adolatli munosabatlarni yanada mustahkamlash orqali oilaviy muhit yanada sog‘lom va barqaror bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun ta’lim, ijtimoiy-psixologik va madaniy mexanizmlar o‘zaro bog‘liq holda ishlashi kerak. Tolerantlik oilada shakllanib, jamiyatda namoyon bo‘ladi. Oilaviy bag‘rikenglik mustahkam va totuv jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Shuning uchun, oilaviy tarbiya jarayonida tolerantlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Zamonaviy jamiyatda sog‘lom va barqaror oilani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Oila a’zolari o‘rtasida bag‘rikenglik, sabr-toqat, o‘zaro hurmat va tushunish muhitini yaratish orqali ko‘plab nizolar va muammolar oldi olinadi. Tolerantlikni shakllantirishda milliy an’ana va qadriyatlar, zamonaviy psixologik yondashuvlar, ta’lim-tarbiya va huquqiy normalarning o‘rni beqiyosdir. Oila a’zolarining ijtimoiy-psixologik savodxonligini oshirish, to‘g‘ri muloqot va murosaga intilish, bir-birini tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali oilada ijobiy muhit qaror topadi. Tolerantlik oilaviy barqarorlik va farovonlikni mustahkamlovchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi va bu yo‘lda kompleks yondashuv – tarbiyaviy, kommunikativ va huquqiy mexanizmlarni uyg‘un qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. va boshqalar. Oilaviy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
2. Jo‘raqulova Z.B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Xudoyberganov M. Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo‘llari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. G‘ofurov K. Sotsiologiya. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Tohirov S. Tolerantlik va o‘zaro munosabatlar madaniyati. – Samarqand, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi". – Toshkent: Adolat, 2022.
7. UNESCO. Tolerance: The Threshold of Peace. – Paris: UNESCO Publishing, 1997.
8. Абдуллаева Н.К. Толерантность в семье и обществе. – Ташкент: Фан, 2020.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:612: 796.10

Parvozbek BEKNAZAROV,
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: parvoz00@gmail.com

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINING SAMARADORLIGI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada asosan boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri, qiziqarli tashkil etishning yosh bolalarni jismonan baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati, maktabda o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya darslari hamda ularni samaradorligini oshirish usullari va vositalari haqida fikr bildirilgan.
Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, vosita, jismoniy sifatlar, maktab, usul, tadqiqot, boshlang‘ich sinf, dars.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется значению науки физического воспитания в правильной и интересной организации уроков физкультуры в начальных классах, в воспитании детей раннего возраста физически крепкими, здоровыми, волевыми и умственно свежими детьми, уроки физкультуры, проводимые с учащимися школе и были высказаны мнения о методах и средствах повышения их эффективности.
Ключевые слова: Физическое воспитание, инструмент, физические качества, школа, метод, исследование, начальный класс, урок.

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation

The article focuses mainly on the importance of physical education science in the proper and interesting organization of physical education lessons in elementary grades in raising young children to be physically strong, healthy, strong-willed and mentally fresh children, physical education lessons conducted with students at school and Opinions were expressed about methods and means of increasing their effectiveness.
Key words: Physical education, tool, physical qualities, school, method, research, primary class, lesson.

Kirish. Respublikamizda zamonaviy ta’lim tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko‘zlamoqdalar. Mamlakatimizda ta’lim sohasida butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o‘tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 sonli Qarori takomillashgan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, davlat talablari, yangi o‘quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan o‘quv muassasalarida, zamonaviy o‘quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi [1].

Jismoniy tarbiya, badan tarbiya – sog‘liqni mustahkamlashga, yosh bolalarning organizmini umumiy rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatimizdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiya vositasi haqida vosita so‘zi “o‘rta” degan ma’noni anglatadi. Vosita insonlar tomonidan muayyan maqsadlarga erishish uchun foydalanadi. Jismoniy madaniyat vositasilari deganda odamlar jismoniy yetuklikga erishish maqsadida foydalanadigan predmetlar, sharoitlar, faoliyat turlariga va shakllarining yig‘indisi tushuniladi. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashqlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi, maxsus tayyorlangan anjomlar, texnik vosita va fitnes jihozlari va bundan tashqari ideomotor, psixogen va autogen vositalar. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo‘shib olib boriladi.

Barcha sinflar va o‘quv guruhlarida dars jadvali asosida majburiy, maktab “Jismoniy tarbiya” darsi shaklida, maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxasis tomonidan o‘tkaziladi va jismoniy tarbiya davlat dasturi o‘quv materialini o‘qitish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi.

Shuning uchun ham jismoniy tarbiya darsining samaradorligini oshirish muammosi dolzarb va uni takomillashtirish shu kunning zarauriyatidir. Dars tushunchasini ta’riflanishiga to‘xtalib o‘tamiz.

Vazifalar:

a) samaradorlik tushunchasi va uni jismoniy tarbiya darsida yuzaga keltirilishi.

b) jismoniy tarbiya darsi samaradorligida jismoniy tarbiya nazariyasining nazariy va uslubiy tamoyilarini qo‘llashning hozirgi holatini o‘rganish.

v) jismoniy tarbiya darsi va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Buyuk olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida yuzdan ziyod xalq o‘yinlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va boshqa asarlarda jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahs-munozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillariga kelib Jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1992-yilda (2000 - 2015-yilda esa yangi tahrirda) “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, 1993 -yilda Sog‘lom avlod davlat dasturining ishlab chiqilishi, Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlarini rivojlantirishga oid va nihoyat 1999 - yilda “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori jismoniy tarbiyaning huquqiy asoslarini yaratdi.

Jismonan yetuk-baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan mustahkamlangan farzandlarni voyaga yetkazishda jismoniy

tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Jismoniy tarbiya dars jarayonidagi nazariy bilimlar boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma’nan chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibini aniq qilib rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarining foydasi haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Demak, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchi yanada mas’uliyatli, ijodkor va yangilikka intiluvchan, yangi metodlarni qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qituvchilarimizning zamonaviy innovatsiya va metodlarni qo‘llagan holda yangi o‘quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi.

Ishning maqsadi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya darslarining sifat samaradorligini oshirish usullari aniqlash.

Tahlil va natijalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishdagi muammolarni o‘rganish. Jismoniy tarbiya darsining vazifalarini hal etishga oid ta’limning metodlarini o‘rganish. Boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va shu yo‘nalishdagi o‘quvchi-talabalarning pedagogik mahoratlarini shakllantirish va nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishning muhim vazifalaridan biridir.

Jismoniy sifatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) tarbiyalash uslubiyatini quyidagicha amalga oshiriladi.

Bular:

1. Kuch va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
2. Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini va namoyon bo‘lishini belgilovchi omillar;
3. Tezlik – kuch qobiliyatlari;
4. Portlash kuchi;
5. Kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyati;
6. Tezkorlik va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
7. Tezkorlik qobiliyati haqida tushuncha;
8. Tezkorlik qobiliyati darajasini rivojlantirish omillari va tezlik qobiliyatlarining paydo bo‘lishi;
9. Tezkorlik harakatini sezishni rivojlantirish;
10. Yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish usuliyati;
11. Tezkorlik qobiliyatining paydo bo‘lishida majmuaviy shakllarning rivojlanish usuliyati.
12. Egiluvchanlikni va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
13. Egiluvchanlik haqida tushuncha berish;
14. Egiluvchanlikning turlari va ulchov mezoni;
15. Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlovchi omllar. [4].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sport zallari va maydonchalari, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bog‘liqdir. Shuningdek, Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya fanidan ko‘zlangan maqsadga erishishning asosiy omili - jismoniy tarbiya darsni to‘g‘ri tashkil etish bilan ham bog‘liq. Buning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak. Jismoniy tarbiya darslari uch qismga bo‘linadi.

Tayyorlov qismi - (10 -12 daqiqa) o‘quvchilarni saflash, sog‘lig‘ini bilish jarayoni. Bu vaqtda navbatchining axboroti tinglanadi. O‘quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilib, saf mashqlari, safda yurish navbat bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar va maxsus rivojlantiruvchi mashqlar boshlang‘ich sinflarda asosiy mazmuni hisoblanadi. Birinchi sinf o‘quvchilarida gimnastika dars mashg‘ulotlarii so‘nggi yillarda darslarni tashkil qilish usullari, pedagogik mahoratini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilish natijalariga ko‘ra quydagilarni e’tirof etish mumkin. Yosh bolalarning bo‘yiga ko‘ra safda turishining da’vat etish, kichik yoshdagi bolalar eng avvalo o‘zaro tanish-yaqinlari bilan yonma–yon turishi ma’qul bo‘ladi. Safda yomna-yon qator oldinma-keyin mashqlarning bajarishga o‘rgatish; “Saflan”, “bir qatorga tur” kabi ibora buyruqlari bajartirish zarur. O‘quv yilining 2-chorakida o‘quvchilarning qatorga o‘rgatish mumkin. “Saflan”, “qatordan tarqal”, buyurugini ham tarqal iborasi bilan tushuntirish va amalda takrorlash lozim.

Ikki qator safga turish va tarqalib ya’ni saflanish; vazifalarini eng avvalo aholida bajartirishni ma’lum ko‘nikmalarni hosil qilinadigan keyingina boshqa o‘yin mashq va sport turlarida yengil atletika harakatli o‘yinlar va boshqalardan ham qo‘llanish lozim. Safda, qatorda yurish umumrivojlanturuvchi jismoniy mashqlarni gimnastika mashqlarni bajarish uslubiga e’tiborni jalb etish maqsadida jismoniy tarbiya o‘qituvchi sergak va xushyor bo‘lishi to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish lozim.

Jismoniy tarbiya darsining asosiy qismi (25–28 daqiqa)da rejadagi mavzu bo‘yicha sport turining rivojlantiruvchi mashqlari bajariladi. Bu vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshqa mavzu yoki o‘yinlar bilan chalg‘ishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim [5].

Yakuniy qism - (3–5 daqiqa) dars tugashi jarayonidagi saflanish davri. Bu vaqtda o‘quvchilar nafas rostlovchi mashqlar, diqqatni jamlashiga e’tibor qaratiladi. Shu asnoda mashqlarni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantirilsa, darsda faolligi sezilmagan bolalarning kamchiliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotida o‘quvchilarning jarohat olmagani tekshiradi. Keyin uyga vazifa beriladi.

Jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lgani uchun o‘qitishda “Musobaqa”, “Ko‘rsatmali”, “O‘yin” kabi innovatsion pedagogic texnologiya va metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan, “Musobaqa” usuli. Ushbu usulda sinfdagi o‘quvchilarni jamoalarga bo‘lib, ular o‘rtasida musobaqalar (quvnoq startlar, harakatli, milliy va sport o‘yinlari ko‘rinishida) tashkil etiladi. Bu usul o‘quvchilarning harakat tizimlarini rivojlantirib, g‘oliblik uchun kurashish ishtiyoqini oshiradi.

Xulosa. Dars samaradorlikning yyetakchi, asosiy tamoyillar omillaridan biri o‘qituvchining faoliyati dars mazmunining navbatdagi komponenti bo‘lib, uni dars davomidagi barcha kasbiy faoliyati: uyga vazifa berish va uni tushuntirish, darsning aniq vazifasini bayon qila bilish va uni hal qilishni tashkillash, shug‘ullanuvchilarni doimiy nazoratda ushlash, ularni faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, shug‘ullanuvchilarning faoliyatini lozim bo‘lgan yo‘lga burish, ular orasidagi munosabatlarni o‘zining diqqat markazida ushlash va o‘quvchilarning faoliyatlarini dars vazifalarini samarali hal qilish uchun yo‘naltirish, boshqarish, nazorat qilish, o‘zlashtirishni baholashdek ta’lim – tarbiya jarayoning nazariy, amaliy tomonlarini va asosiy holatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda shuni aytish mumkinki, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari bo‘lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo‘yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo‘yicha kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish haqida nazariy ma’lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdir.

Shuningdek bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilariga o‘quv muassasalari umumta’lim maktab o‘quvchilarini jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish hamda sinfdan tashqari to‘garaklarni tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishi haqida nazariy ma’lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son http://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2015-yil 5-sentabr. 174-son “Xalq so‘zi” gazetasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 sonli Qarori. http://lex.uz
4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent 2005-yil.
5. Livisskiy A.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995-yil.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 378

Nargiza BERDIQULOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: nargizainformatik@gmail.com

PhD L.Isroilova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL MODEL OF ORGANIZATION OF CLUBS IN INFORMATION TECHNOLOGY SUBJECTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Annotation

This article analyzes the pedagogical model of organization of student circles in information technology subjects in higher educational institutions. The role of student circles in the development of scientific and research activities, their impact on the process of professional training and pedagogical aspects are discussed. The effective organization of scientific circles serves to improve students' skills in applying theoretical knowledge in practice, develop their creative and innovative potential, as well as form leadership skills. The article analyzes the existing literature on the organization of scientific circles and studies best practices, and makes proposals based on the pedagogical model.

Key words: Information technologies, higher education, scientific circle, pedagogical model, student activities, innovative education, research, professional training, leadership, creative potential.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ КЛУБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ПРЕДМЕТАМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье анализируется педагогическая модель организации студенческих клубов по дисциплинам, связанным с информационными технологиями, в высших учебных заведениях. Обсуждается роль студенческих клубов в развитии научно-исследовательской деятельности, их влияние на процесс профессиональной подготовки, педагогические аспекты. Эффективная организация научных кружков способствует совершенствованию у студентов навыков применения теоретических знаний на практике, развитию их творческого и инновационного потенциала, а также формированию лидерских качеств. В статье анализируется существующая литература и передовой опыт по организации научных кружков, а также вносятся предложения на основе педагогической модели.

Ключевые слова: Информационные технологии, высшее образование, научный кружок, педагогическая модель, студенческая деятельность, инновационное образование, научные исследования, профессиональная подготовка, лидерство, творческий потенциал.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID FANLARDAN TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODELI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlardan talabalar to‘garaklarini tashkil etishning pedagogik modeli tahlil etilgan. Talabalar to‘garaklarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishdagi roli, ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’siri va pedagogik jihatlari muhokama qilinadi. Ilmiy to‘garaklarning samarali tashkil etilishi talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini oshirish, ularning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada ilmiy to‘garaklarni tashkil etish bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili hamda ilg‘or tajribalar o‘rganilgan bo‘lib, pedagogik model asosida takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, oliy ta’lim, ilmiy to‘garak, pedagogik model, talabalar faoliyati, innovatsion ta’lim, ilmiy-tadqiqot, kasbiy tayyorgarlik, yetakchilik, ijodiy salohiyat.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish masalalarini o‘rganish, shubhasiz, keng doiradagi olimlar – o‘qituvchilar, psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar, iqtisodchilar va boshqalarning dolzarb tadqiqotlarining asosi hisoblanadi [2].

To‘garaklarda muntazam ishtirok etish talabalarni kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishlarini yozishga jiddiyroq yondashishga tayyorlaydi. Ushbu ishlardan olingan oraliq natijalar har yili turli darajadagi ilmiy konferensiyalar, oliy ta’limdagi “davra suhbatlari”, seminarlar va boshqa tadbirlarda taqdim etiladi.

Shu sababli, to‘garak rahbarining ijodiy va innovatsion yondashuvi uning a’zolarini kelajakdagi kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich jalb etishni ta’minlaydi, talabalar orasida yetakchilik qobiliyatlari va ijodiy tashabbuslarni rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuning uchun talabalar to‘garaklarga, shu jumladan axborot texnologiyalariga oid to‘garaklarni tashkil etishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim sanaladi. Buning uchun dastlab to‘garaklarni tashkil etishga oid olimlarning ishlarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’lim tizimida to‘garaklarni tashkil qilish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar G. Darxonova [1], I.V.Tolstoyxova va A.A. Shiryayev [2], A.T. Korjumbayeva [3], D.A. Murzayeva [4] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Oliy ta’limda ilmiy to‘garaklar tashkil etish va rivojlantirishning muammolari bo‘yicha D.E. Andronov va R.V. Vlasov [5], S.I. Kolodeznikova [6], Sh. G. Romanovna [7] lar izlanishlar olib borgan.

Ushbu olimlarning ishlari to‘garaklarni tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga qaratilgan bo‘lib, biroq axborot texnologiyalariga oid fanlardan to‘garaklarni tashkil etish bo‘yicha yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Chunki, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda axborot texnologiyalariga oid fanlar ham yetarlicha o‘zgarib, zamonaviylashib, yangilanib bormoqda.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal sur’atlarda isloh qilinmoqda, yangi loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda, innovatsion jarayonlar kengaymoqda. Shunday sharoitda faol, ijodiy fikrlovchi, murakkab vaziyatlarda mustaqil ravishda turli noodatiy masalalarni ilgari surib, ularni yechishga qodir insonlarga ehtiyoj tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu

munosabat bilan talabalarning tadqiqot vazifalarini hal qilishga tayyorgarlik sifati muammosiga alohida e’tibor qaratilishi zarur [4]. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida talabalar fan to‘garaklari faoliyat yuritadi.

To‘garaklar faoliyati talabalar ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. To‘garaklarda ta’lim olish va faoliyat olib borish davomida talaba ilmiy sohada katta yutuqlarga erishishi va kelgusida o‘z faoliyatini IT sohasida davom ettirishi mumkin. Shu bois, har bir oliy ta’lim muassasasi uchun talabalar ilmiy jamiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa talabalarga kasbiy faoliyatga yaxshiroq moslashish, professional mahoratni oshirish, shuningdek, kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga doimiy ehtiyojni his qilish imkonini beradi [2].

Kelajakdagi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga yordam beruvchi muhim omillardan biri talabalar uchun eng yaxshi professorlar va o‘qituvchilar bilan yaqinroq va norasmiy muloqot qilish imkoniyatidir [10]. Aynan o‘qituvchi zimmasiga talabalar bilimlarining borligi uchun emas, balki bu bilimlarni mustaqil ravishda qo‘llash, tahlil qilish va turli murakkab vaziyatlarda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini shakllantirish mas’uliyati yuklatiladi. Bu esa klinik fikrlashni rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalar to‘garagining asosiy vazifasi bu – o‘z ishining professionali bo‘lishga intilayotgan, umumiy maqsadga ega bo‘lgan hamfikrlarni birlashtirishdir. To‘garak qatnashchilari amaliyotda kasbning barcha “nozik jihatlari” va “ko‘zdan uzoq tomonlari” ni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, chunki o‘quv mashg‘ulotlarida bu uchun ko‘pincha vaqt yetarli bo‘lmaydi.

Bugungi kunda fan to‘garaklar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, kasbiy kompitentlikni shakllantirishda samarali vositalaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchilarning talabalar bilan bunday shaklda ishlashni afzal ko‘rishi to‘garak a’zolarining umumiy manfaatlari, shaxslararo muloqotning ustunligi va talabalar, xususan, to‘garak ishtirokchilarining ilmiy izlanishlarga bo‘lgan yuqori motivatsiyasi bilan izohlanadi.

Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida fanlardan, shu jumladan axborot texnologiyalariga oid fanlardan to‘garaklar tashkil etish muhim sanaladi.

Shu bois tadqiqot doirasida axborot texnologiyalariga oida fanlardan to‘garaklarni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha model ishlab chiqildi (1-chizma).



1-chizma. To‘garaklarni tashkil etish modeli.

Tahlil va natijalar. Axborot texnologiyalari bo‘yicha to‘garaklarni samarali tashkil etish va ularni takomillashtirish jarayonini tahlil qilish natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

Birinchidan, to‘garak mashg‘ulotlarining mazmuni dasturlash, kompyuter savodxonligi, kompyuter grafikasi va web dasturlash yo‘nalishlarini o‘z ichiga olishi lozim. Bu yo‘nalishlar axborot texnologiyalari sohasining asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchidan, pedagogik vositalar va ta’lim muhiti muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish, amaliy dasturlar bilan ishlash va interaktiv ta’lim uslublarini joriy etish natijasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari samarali rivojlanadi.

Uchinchidan, metodlar tanlovi ta’lim jarayonining natijadorligini oshirishda hal qiluvchi omildir. Amaliy mashg‘ulotlar, onlayn va offlayn kurslar hamda jamoaviy loyihalar orqali o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlash va real loyihalar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tahlil natijalariga ko‘ra, axborot texnologiyalari bo‘yicha to‘garaklarni rivojlantirish talabalar va ishtirokchilar axborot texnologiyalari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi, mustaqil loyihalar yaratish imkoniyati kengayadi, bu esa ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantiradi, axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardosh kadrlar yetishtiriladi, bu esa mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanidan to‘garaklarni tashkil etishning takomillashtirilgan modeli zamonaviy talablarga javob beradi va talabalarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modeldan foydalanish taklif etiladi. Ushbu modelda zamonaviy, kognitiv yondashuv asosida talabalarning mustaqil izlanishiga va mustaqil qarorlar qabul qilishga yo‘naltirish bilan samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Darxanova G., “To‘garak mashg’ulotlarni tashkil etish”, "Science and Education" Scientific Journal // www.openscience.uz June 2023 // Volume 4 Issue 6.
2. Толстойхова И.В. и Ширяйев А.А., “Студенческие клубы как форма внеучебной деятельности в вузе” // Modern Research of Social Problems. -№11(55), 2015.
3. Коржумбаева А.Т. Студенческий научный кружок по анатомии как первая ступень в формировании исследовательской компетентности студентов-медиков. / А.Т. Коржумбаева, А.А. Болатбекова // Вестник науки и образования. – 2018. – №7 (43), Т. 1. – С. 100-102.
4. Д.А. Мурзаева [и др.] , Междисциплинарные исследования электронный сборник статей по материалам XIII студенческой международной научно-практической конференции. //Ассоциация научных сотрудников «Сибирская академическая книга» – Новосибирск – 2017. – С. 146-151
5. Андронов, Д.Е., Власов Р.В. Влияние научных кружков на студентов в образовательном процессе.// Научное сообщество студентов XXI столетия. Общественные науки : сб. ст. по материалам VI междунар. студ. науч.-практ. конф. – Новосибирск : Сибирская академическая книга, 2017. – № 6. – URL : sibac.info/archive/social/6.pdf (дата обращения: 19.10.2018).

6. Колодезникова С. И., “К проблеме организации деятельности студенческого научного кружка в современных условиях” Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2018. – № 11 (165).
7. Шпиталевская Г.Р, “Студенческий научный кружок как вид научно-исследовательской работы студентовбудущих педагогов”. //Балтийский гуманитарный журнал. 2021. Т. 10. –№ 2(35)
8. Аппакова, Э.Г. Научно-исследовательская деятельность студентов как фактор повышения конкурентоспособности (социально-философский анализ) / Э.Г. Аппакова, О.С. Фёдоров // Вестник Казанского технологического университета. – 2013. – № 12. – URL : https://cyberleninka.ru/article/n/nauchno-issledovatelskaya-deyatelnost-studentov-kak-faktor-povysheniya-konkurentosposobnostisotsialno-filosofskiy-analiz (дата обращения: 02.11.2018).
9. Латенкова Н.Ю. [и др.] //Студенческие научные общества в самореализации студентов Медицинская наука и образование Урала. – 2006. – С. 48
10. Narzullayev Sh.Sh., Ravshanova M.Z., “ Prospects for the involvement of modern student youth in scientific research activities” "Science and Education" Scientific Journal //www.openscience.uz January 2025 //Volume 6 Issue 1.
11. Buronova G.Y., Turayeva G.H, Narzullayeva F., “Universal methods of organizing "robototechnics" circles in the primary classes of the school with the help of virtual didactic means”. Asian Journal of Research № 7-9, 2021 ISSN 2433-202x

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:30 428

Nazokat DAVLETYAROVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail: nano_sn55@mail.ru

O‘zDJTU dotsenti, PhD A. Yuldashev taqrizi asosida

ALOQA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN XOLDA TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI.

Annotatsiya

O‘quv jarayonidagi zamonaviy tendentsiyalar tibbiyot universitetlarini ham chetlab o‘tmaydi, bu yerda xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o‘rganish o‘quv dasturining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu, ayniqsa, fan va tibbiyotning xalqaro tili bo‘lgan ingliz tiliga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashga katta ahamiyat berilmoqda, bu esa tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Tibbiyot talabalari uchun ingliz tili muhim rol o'ynaydi. Ilmiy maqolalarni o‘qish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish, xorijdagi hamkasblar bilan muloqot qilish, shuningdek, ixtisoslashgan tibbiyot terminologiyasini o‘zlashtirish uchun zarur. Bundan tashqari, zamonaviy tibbiy tadqiqotlar va innovatsiyalar ingliz tilida faol ravishda nashr etilmoqda va bu bilimlarni samarali o'rganish uchun zarur qiladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy, loyiha asosidagi, takomillashtirilgan, o‘qituvchi, axborot texnologiyalari, nutq, talaffuz, muammo, qoida, mexanik, trening, samaradorlik, mutaxassis, chet tillari.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

Современные тенденции в образовательном процессе не обходят стороной медицинские вузы, где изучение иностранных языков, в том числе английского, становится неотъемлемой частью учебной программы. Особенно это касается английского языка, который является международным языком науки и медицины. В последние годы все большее значение придается интеграции коммуникационных технологий в учебный процесс, что открывает новые возможности для преподавания английского языка в медицинских вузах. Английский язык играет жизненно важную роль для студентов медицинских вузов. Он необходим для чтения научных статей, участия в международных конференциях, общения с коллегами за рубежом, а также для овладения специализированной медицинской терминологией. Кроме того, современные медицинские исследования и инновации активно публикуются на английском языке, что делает его знание обязательным для эффективного освоения

Ключевые слова: Современный, проектный, усовершенствованный, педагог, информационные технологии, речь, говорение, произношение, проблема, правило, механический, тренинг, эффективность, специалист, иностранные языки.

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH IN MEDICAL UNIVERSITIES USING COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Annotation

Modern trends in the educational process do not bypass medical universities, where the study of foreign languages, including English, is becoming an integral part of the curriculum. This is especially true for English, which is the international language of science and medicine. In recent years, more and more importance has been attached to the integration of communication technologies into the learning process, which opens up new opportunities for teaching English in medical universities. English plays a vital role for students of medical universities. It is necessary for reading scientific articles, participating in international conferences, communicating with colleagues abroad, as well as for mastering specialized medical terminology. In addition, modern medical research and innovations are actively published in English, which makes its knowledge mandatory for effective mastering of the profession.

Key words: Modern, project, improved, pedagogue, information technology, speech, speaking, pronunciation, problem, rule, mechanical, training, efficiency, specialist, foreign languages.

Technologies are radically changing the ways of teaching, creating new opportunities to improve the quality of education. The use of information and communication technologies (ICT) in teaching English gives teachers a wide range of tools to improve the effectiveness of learning. Key aspects of ICT implementation in English language teaching in medical schools include the following: Today, many medical schools use online platforms such as Moodle, Blackboard or Canvas to create virtual classrooms where students can access educational materials, take tests and ask questions to the teacher. Virtual classrooms allow training to be organized at a convenient time and place, which is especially important for students who often travel for internships and clinical classes. Webinars and video conferences are becoming an integral part of the educational process. Using platforms such as Zoom, Skype or Microsoft Teams, teachers can organize interactive classes with participants from different parts of the world. This creates unique conditions for communicating with native speakers, discussing current medical topics and exchanging experiences with foreign specialists.

Using multimedia resources such as videos, podcasts, online courses and mobile applications makes the learning process more interactive and engaging. For example, with the help of specialized applications for studying medical terminology in English, students can learn new words and phrases, as well as test their knowledge in a game form. With the development of artificial intelligence in the educational process, adaptive learning systems have begun to appear that can adjust to the individual needs of students. Such systems can analyze the level of students' knowledge and offer them appropriate tasks, which allows for work that is more effective with groups with different levels of training.

1. Accessibility. Students can study at any time and in any place, which is important for people combining study with practice.

2. Motivation. Interactive forms of training, such as games, competitions, quizzes, help increase students' interest in learning a language.

3. Personalization. With the help of technology, it is possible to organize individual work with each student.

4. The need for technical training. Effective use of technology requires both technical equipment and training of teachers to use new teaching methods.

5. Lack of personal communication. Despite all the advantages of virtual platforms, they cannot always replace live communication between a teacher and students, which is especially important for language learning.

Many medical schools around the world are already successfully implementing communication technologies in teaching English. For example, some universities are creating online courses in medical English, which are available to both students and practicing doctors seeking to improve their level of English. Such courses actively use virtual simulations and interactive tasks that help develop not only language but also professional skills. Another successful example is the use of mobile applications for medical English. Applications such as Medictionary help student’s quickly master professional vocabulary and terminology available in various fields of medicine. The use of communication technologies in teaching English at a medical university opens up new horizons for teachers and students. Combining traditional teaching methods with innovative technologies can significantly improve the quality of education and train specialists who will confidently use English in their professional activities. At the same time, it is important to take into account the challenges associated with the introduction of new methods and strive to create a balanced approach that combines the advantages of both technology and personal communication in the educational process.

Teaching English at medical universities using modern communication technologies continues to develop and adapt to new educational realities. In recent years, there has been an active introduction of innovative methods and technologies that make learning more flexible, accessible and effective. Let's look at some of the new methods that are actively used in teaching medical English: Mobile apps such as Me dictionary, Anki (for creating medical vocabulary flashcards) or specialized apps for learning medical English are becoming an important tool in the educational process. These apps allow students to improve their medical terminology skills anytime and anywhere, and adaptive technologies help to customize the learning process depending on the student's level of knowledge. Online courses and virtual simulations are becoming popular in medical education. Virtual simulations allow students to immerse themselves in real medical situations in which they must use English for communication, which helps develop not only linguistic but also professional skills.

Video conferencing technologies such as Zoom, Microsoft Teams, and Google Meet allow for virtual lectures and seminars with international experts. Teachers can organize meetings with native speakers, which helps students not only learn medical English but also practice speaking skills. Using game elements in teaching, such as quizzes, competitions, role-playing games, and simulations, is becoming an important part of the educational process. Kahoot!, Quizlet, and other platforms allow teachers to create quizzes and games that not only test knowledge but also make learning more interactive and fun.

Artificial intelligence (AI) and chatbots help students practice English offline. AI can analyze students’ speech, help them with pronunciation, offer customized tasks, and explain mistakes. Chatbots such as Babbel or Duolingo already use adaptive algorithms to make learning as personalized as possible. Multimedia resources such as videos, animations, infographics, and interactive tutorials are used to explain complex medical terms and concepts. Interactive platforms such as Articulate Storyline or Camtasia allow teachers to create their own courses with multimedia elements, which helps students, perceive and remember information more easily. Using social networks and online forums for communication between students, teachers, and experts helps create a learning community. In groups on Telegram, Facebook, WhatsApp, students can discuss current topics in English, share experiences, and ask questions. Forums and discussion platforms such as Reddit also provide an opportunity to communicate with medical professionals in English. Benefits: Creating a community and developing communication skills in an informal setting. Sharing knowledge and experience with colleagues. Developing written communication skills in English. When students do not know English or have poor knowledge, this can significantly hinder the learning process. In such cases, several problems associated with insufficient language proficiency may arise in the classroom. Here are some of the things that may be lacking:

Without knowledge of basic medical and general English terms, students will not be able to understand assignments, lectures, scientific articles, and instructions. In such cases, the teacher needs to actively introduce new terms with explanations in their native language and pay attention to visualization (e.g. through pictures or videos). Students who are not confident in their language skills may avoid communicating in English, which limits their participation in discussions, role-plays, and other forms of active learning. Create a comfortable atmosphere where mistakes are accepted as part of the learning process and encourage students to speak through simple phrases, confidence-building exercises. In medicine, it is important to know specialized English to communicate with colleagues, patients, and to work with medical documentation. If students do not know the language, they will not be able to fully participate in clinical cases, simulations, and other practical exercises. Use adapted materials based on students' knowledge level, gradually introduce medical vocabulary through context, and engage in collaborative discussions in their native language. Students who do not speak English will not be able to read and analyze educational materials, scientific articles, and research, which will limit their knowledge of medicine. Use translation dictionaries, create parallel texts (e.g. with a translation into their native language), introduce multimedia materials (video, infographics, audio) so that students can understand the content. Without English language proficiency, students find it difficult to use many online educational resources that are predominantly in English (e.g. online courses, research papers, videos). The instructor can offer additional resources with translations and explanations, and encourage students to work with these materials with the instructor’s support.

The teacher provides additional materials, explains the meaning of words, uses more visual cues and examples, and provides an opportunity to review vocabulary during individual consultations. Not all students are confident when it comes to speaking. The teacher creates a comfortable atmosphere in which students can make mistakes without fear. Additional lessons can also be organized to practice spoken English. Students were actively engaged in the process, and the successful use of multimedia resources made the lesson more visual and understandable. It is important that students learned to use medical terms in context. It could be useful to conduct more practical exercises and role-plays where students have to communicate with “patients” to improve their English communication skills in medical situations. Regular role-plays with a focus on medical communication will help develop students’ confidence.

LITERATURE

1. Volkova, T. N. (2020). Information and communication technologies in teaching foreign languages in universities. Moscow: Prosveshchenie.
2. Buranova D.D. Communicative medical english as an effective methodology in Qualitative language teaching НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ, 2023, p.241-243
3. Davletyarova N.I. - Difficulties in teaching English spelling. Using Innovative Technologies In Improving The Efficiency Of Education: Problems And Solution (2022) p.69.

4. Golubeva, N. I., & Grin, I. A. (2019). Modern trends in teaching English in medical universities. Journal "Medical University", 12(4), 56–60.
5. Zakharova, T. M. (2021). Using digital technologies in teaching English in a medical university. Scientific research in education, 14(2), 102–108.
6. Kuznetsova, M. V. (2018). English for medical workers: a textbook for students of medical universities. St. Petersburg: Lan.
7. Ryabova, N. V. (2022). Methods and means of distance learning of foreign languages in higher education. Moscow: Academichesky proekt.
8. Schreier, S., & Phipps, M. (2017). Medical English: Teaching English to Medical Students. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Hutchinson, T., & Waters, A. (2013). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Berman, R. A. (2020). Technology in English Language Teaching and Learning: Connecting Theory and Practice. New York: Routledge.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

Oygul DULANBAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail:d.oygul@nuu.uz

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, f.f.d A.Tolipov taqrizi asosida

MODERN CONCEPTS OF INTERPRETING THE PHENOMENON OF READING

Annotation

This article analyzes the views put forward by modern concepts of interpreting the phenomenon of reading. In particular, attention is paid to the comparative analysis of the main ideas of experimental, psychological-cognitive, existential concepts. In addition, modern perspectives for solving philosophical and sociological problems such as reading and attitude to the text, as well as the solutions they offer, are presented. At the same time, the article also shows the advantages and disadvantages of modern concepts in explaining the phenomenon of reading.

Key words: Reading, reader, text, human essence, existence, social consciousness, society, macro-social, social function.

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ФЕНОМЕНА ЧТЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды, выдвигаемые современными концепциями интерпретации феномена чтения. Особое внимание уделено сравнительному анализу основных идей экспериментальной, психолого-когнитивной, экзистенциальной концепций. Кроме того, упоминается современный взгляд на решение философских и социологических проблем, таких как чтение, отношение к тексту а также предлагаемые ими решения. В то же время в статье показаны преимущества и недостатки современных концепций объяснения феномена чтения.

Ключевые слова: Чтение, читатель, текст, человеческая природа, существование, существование, общественное сознание, общество, макросоциальное, социальная функция.

MUTOLAA FENOMENINI TALQIN ETISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mutolaa fenomenini talqin etishning zamonaviy konsepsiyalari ilgari surilgan qarashlar tahlil etilgan. Ayniqsa, eksperimental, psixologik-kognitiv, ekzistensional konsepsiyalarning asosiy g‘oyalarining qiyosiy tahliliga diqqat qaratilgan. Qolaversa, mutolaa, matnga munosabat kabi falsafiy, sotsiologik muammolarni hal etishning zamonaviy istiqbolari, ular taklif qilayotgan yechimlar ham, keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, maqolada mutolaa fenomenini tushuntirishdagi zamonaviy konsepsiyalarning yutuq va kamchilik tomonlari ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Mutolaa, kitobxon, matn, inson mohiyati, mavjudlik, ekzistensiya, ijtimoiy ong, jamiyat, makroijtimoiy, sotsial funksiya.

Kirish. Ma’lumki, mutolaa inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, u muayyan bilim, axborot, ma’lumotga ega bo‘lishni ko‘zda tutadi. Insoniyat tafakkur taraqqiyoti davomida mutolaaga nisbatan turli davrlarda turlicha qarashlar ilgari surilgan. Bu ma’noda ayniqsa, XX asrda shakllangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mutolaani talqin etish, uni tushunishdagi zamonaviy konsepsiyalarining shakllanishi ayni davrda yuzaga kelgan. Ushbu maqola doirasida mutolaaning zamonaviy konsepsiyalari, xususan, postmodernizm, eksperimental, psixologik- kognitiv hamda ekzistensial yondashuvlarning tahliliga diqqat qaratiladi. Zotan sanab o‘tilgan ushbu yondashuvlar mutolaa jarayoniga an’anaviy qarashlardan butunlay o‘zgacha, zamonaviy reallik sharoitidan kelib chiqqan holda tarif berishni, uni tushunishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi umumilmiy va falsafiy metodlardan foydalanilgan. Shu bilan birga, maqolaning nazariy metodologik asosini M.Blansho, B.Valdenfels, F.Gvattari, J.Delez, R.Jirar, P.Klossovski, J.X.Miller va boshqa olimlarning ilmiy-nazariy xulosalari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Mutolaa fenomenini tushunishda eksperimental paradigma o‘ziga xos yo‘nalish bo‘lib, uning ildizlari Z. Freydning qarashlariga borib taqaladi. Freydizm nuqtai nazariga ko‘ra, mutolaa “anglanmaganlik” chegarasini toraytirishga urunish harakati sifatida tushuntiriladi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari uchun, birlashtiruvchi g‘oya insonning barcha faoliyatini, jumladan mutolaani ham harakatlantiruvchi kuch bo‘lgan qandaydir meta-asos - "istak"ning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Bunda inson faoliyatining yagona maqbul maqsadi sifatida dunyo bilan munosabatlarini uzluksiz boyitib boruvchi subyektivlikni yaratish ko‘rsatiladi [1]. Qolaversa, bu harakatlanish kuchi individual ruhiyatda mujassam bo‘lib, undan tashqarida emas, bu esa mazkur paradigmani makroijtimoiy paradigmaga zid qo‘yadi. Shu tariqa, bu yerda mutolaa har doim oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan natijaga ega psixologik tajriba hisoblanadi.

Eksperimental konsepsiyaning asosiy qoidalari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- insondagi mutolaa qobiliyati tug‘ma bo‘lib, u azaldan insonda mavjud hisoblanadi;
- mutolaa muloqotga intilish harakati sifatida inson mohiyatiga daxldor sanaladi;
- mutolaa qobiliyatining amalga oshirilishi insoning ongli faoliyati va ruhiyatida mavjud bo‘lib, shaxsga nisbatan tashqi istaklarning ta’siri uni o‘zgartirib yuboradi.

Eksperimental konsepsiyaning asosini J. Delez va F. Gvattarining shizoanaliz konsepsiyasi tashkil etadi deb hisoblash mumkin. Bu konsepsiya doirasida o‘qish tabiatining kelib chiqishi “ongsizlikning ishlab chiqaruvchi kuchi”ga asoslanadi.

Ushbu mulohazaga ko‘ra, inson ongidagi tasavvurlarni shakllantirishda yaratuvchanlik va ko‘r ko‘rona taqlid usullari muhim rol bajaradi. Mazkur usullar ongda turli obrazlar, so‘zlar va istaklarni yaratish va qayta ishlab chiqarishga undaydi. Bu ma’noda jamiyatdagi madaniy ishlab chiqarish va insoning xohish- istaklarini ishlab chiqarish mohiyatan bir xil sanaladi.

Dunyoning modelini qurishdan butunlay voz kechgan postmodernizmdan farqli o‘laroq, eksperimental konsepsiya jamiyatning yaxlit tizimini shakllantirishga intiladi. Unga ko‘ra, madaniyatning barcha tushunchalari ikki qutb – hissiyot va ratsionallik o‘rtasida taqsimlanadi. Bu ikki qutb bir-biriga zid bo‘lgan fikrlash usullarini hosil qiladi. Bunda birinchisi (hissiy emotsionallik) so‘zsiz ijobiy deb baholanadi, ikkinchisi (ratsionallik) esa, aksincha, madaniyatning barcha salbiy jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy tuzilmalarning makrodunyosi ratsionallikka asoslangan bo‘lib, "davlat" tafakkuriga tayanadi. Uning negizida aynanlik, o‘xshashlik, haqiqat, adolat va inkor tushunchalari yotadi. Bu esa alohida shaxsning fikrlashi va intilishlarini ierarxik tarzda shakllantirish, ularga yagona yo‘nalishlar belgilash, ya’ni ularni “hududlashtirish” imkonini beradi. “Molekulyar” mikroolam esa hissiy emotsional farqlilik va har qanday markazlashgan tartibni buzuvchi kuchlarning erkin o‘yiniga asoslangan “ko‘chmanchi” fikrlash tamoyillari asosida quriladi [2].

Mutolaa fenomenini tushuntirishda zamonaviy konsepsiyalardan yana biri bu psixologik-kognitiv yondashuvi sanaladi. Mazkur konsepsiya mualliflari jamiyatning me’yorlashtiruvchi tuzilmalaridan ozod bo‘lgan shaxsning xulq-atvorini “dekonstruksiyalangan subyekt” yoki “shizoid” sifatida talqin qiladilar. Bu tushuncha ruhiy kasal odamning xatti-harakatlarini emas, balki jamiyat qonun-qoidalarini ongli ravishda rad etib, o‘zining tabiiy “istak ishlab chiqaruvchi” kuchiga, ya’ni ongsizligiga bo‘ysunuvchi shaxsning xatti-harakatlarini ifodalaydi. O‘z “shizo”si (ya’ni insonning asosini tashkil etuvchi emotsional ovoziga quloq solish talabi ruhiy hayotdan madaniyat tomonidan singdirilgan me’yoriy tuzilmalarni chiqarib tashlash zaruriyatiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, matnni yagona belgilangan qoidalar asosida to‘g‘ri talqin qilish amaliyoti sifatidagi o‘qish rad etiladi va u oldindan belgilanmagan hisoblanadi. Mutolaa – bu tanib olish emas, balki tovar dunyosi ramzlarini erkin yaratish, kodlarni yechish, qayta kodlash va matn kodlarini “istak ishlab chiqarish”ning ichki jarayonlariga muvofiq qayta tashkillashni anglatadi [3].

Soddaroq qilib aytganda, psixologik – kognitiv konsepsiyaga ko‘ra, matn qotib qolgan jonsiz organizmdan ko‘ra yorqin va turfa xil o‘zgarishlarga ochiq fikr maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda mutolaa jarayoni matn doirasida ixtiyoriy erkin tafakkur bilan uni markazlashgan boshqarish yoki nazorat qilishga urunish o‘rtasidagi kurash maydoni sifatida qabul qilinadi. Markazlashmagan matn chuqur ma’no va aksiologik jihatdan ajralib turadigan talqinni nazarda tutadi. R.Bart ta’biri bilan aytganda, til orqali belgilangan matn faqatgina shakl nuqtai nazaridan muayyan qolibga tushadi, aslida esa uning mazmuni hech qanday qolip yoki shaklga tushmaydi [4]

Mutolaaning mohiyati tushunchalarni erkin yaratish va ularni keyinchalik qo‘llashni ko‘zda tutadi. Bu tushunchalar “oldindan berilgan” yoki “azaldan” mavjud bo‘lgan emas, balki inson uchun hali dunyoning obyektiv tuzilishiga kirmagan, ammo endi “tashqi olam”ning bir qismi bo‘lishi mumkin narsalarni ifodalaydi.

Psixologik-kognitiv konsepsiyasi e’tiborni natijadan jarayonning o‘ziga, mutolaa uslubiga qaratadi. F.Gvattarining ta’kidlashicha, “ifodalovchi va ifodalanuvchining majburiy va mutlaq ziddiyati yozuv mashinasi paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan ifodalovchi imperializmi ta’siriga duchor bo‘lgan. Bunday holda barcha narsa qonuniy ravishda belgilarga keltiriladi. Bu mustabid qayta kodlash qonunidir”. F.Gvattari ifodalovchini “buyuk mustabid (yozuv davri) belgisi” va “buyuk imperiyalarga olib boruvchi ulkan arxaizm” sifatida tushunish to‘g‘ri deb hisoblaydi. Bunday modelning maqsadi “madaniyatga qarshi turuvchi mavhum qayta kodlash yo‘nalishlarini” izlashni anglatadi [5].

Bir so‘z bilan aytganda, mutolaa – bu subyektivlashuv, mustaqillikka erishish jarayonlaridan biri bo‘lib, uning xususiyati insonning ko‘plab niqoblarni sinab ko‘rishiga imkon beradi [6]. Bu ma’noda, mutolaa muayyan matn usullari orqali muallifni obyektivlashtirish va u bilan bog‘liq bo‘lgan shaxssiz shakllanish yoki o‘zining “Man-shakllanish” jarayonlarini ozod qilishni nazarda tutadi. O‘qish faoliyatining mohiyati xabarlarni uzatish va o‘zlashtirishda emas, balki shaxsga zamonaviy ommaviy axborot vositalari tartibsizligi ostida barqarorlikka erishish imkonini beruvchi ekzistensial operatorlarni faollashtirishda namoyon bo‘ladi. Bu poetik-ekzistensial katalizator semiotik jihatdan tuzilgan ma’noli va ma’no beruvchi to‘qimalar ichidagi faol jarayonli uzilishlarni amalga oshirish orqali o‘quvchini “qayta kristallash”ni ishga tushiradi, shu asosda u yangi referensial olamlarni harakatga keltiradi [7]. Boshqacha qilib aytganda, o‘qish - bu doimo matnning qotib qolgan, shakllantiruvchi ma’nosidan qochish, yangi munosabatlar maydonini yaratish uchun uning chegaralarini buzish, uzluksiz ma’no o‘zgarishi jarayonidir.

M.Blanshoning fikriga ko‘ra, mutolaa erkinlikning bir shakli hisoblanadi [8]. Mutolaa jarayoni “tushunish harakatidan oldin yoki undan tashqarida” markazlashgan. Bunday o‘qish talqin qilish usullaridan butunlay farq qiladi, chunki asar, uning fikricha, obyektiv maqomga ega emas. M.Blanshoning taklifi shundan iboratki, biz “asarni o‘z holicha qabul qilishimiz va shu yo‘l bilan uni muallif tasiridan ozod etishimiz kerak”.

M.Blansho o‘qish harakati hech narsani o‘zgartirmaydi va qo‘shmaydi, balki narsalarning o‘z holida bo‘lishiga imkon beradi, degan fikrdan kelib chiqib, mutolaani o‘zini aslida qanday bo‘lsa shunday ko‘rish imkoniyati, ya’ni “o‘zini o‘qish” sifatida talqin etadi. Boshqacha aytganda, mutolaa jarayonida ong o‘z-o‘ziga qaratiladi, ammo u borliqning hech qachon to‘liq anglab bo‘lmaydigan shakli tomon intilmaydi. Olim bu jarayonni “mohiyatli mutolaa” deb ataydi. “...O‘quvchiga o‘zi uchun yozilgan asar kerak emas - u aynan asarning g‘ayrioddiy bo‘lishini istaydi, undan noma’lum narsani, boshqa voqelikni, uni o‘zgartira oladigan va unga aylana oladigan o‘zga ruhni topishni xohlaydi” [9].

Mutolaa jarayoni, asar haqiqiy o‘lchovlarini ochib berishi mumkin bo‘lsa-da, muallif o‘z asari haqida hech qachon bunday amal qila olmaydi. M.Blanshoning ta’kidlashicha, “yozuvchi hech qachon o‘z asarini o‘qiy olmaydi. Bu uning uchun erishib bo‘lmas narsa, u yaratgan sir uning nazaridan chetda qoladi. O‘zini o‘qishning imkonsizligi shuni anglatadiki, endi asar ochgan makonda boshqa ijod uchun joy yo‘q, shu bois yagona imkoniyat, bu asarni qayta-qayta yozishda namoyon bo‘ladi”.

Zamonaviy jamiyat sharoitida mutolaaning mohiyatiga diqqat qaratgan yana bir konsepsiyalardan biri bu, ekzistensial yondashuv bo‘lib, u ekzistensializm g‘oyalariga asoslangan va individual inson mavjudligi muammosi atrofida markazlashgan konsepsiyalarni o‘z ichiga oladi

Shuni ta’kidlash joizki, ekzistensialistlar uchun o‘qish falsafiy mulohazaning asosiy mavzusi bo‘lmagan. Ularning asarlarida o‘qishning to‘liq rivojlangan modeli uchramaydi. Bu masala asosan mualliflarning asosiy g‘oyalarini tasvirlash yoki tasdiqlash uchun qo‘shimcha mavzu sifatida yoritilgan. Shu sababli, mutolaa hodisasini tahlil qilishga u yoki bu tarzda aloqador bo‘lgan va mutolaaning mualliflik modelini ishlab chiqishda samarali asos bo‘lib xizmat qilgan g‘oyalarni ajratib ko‘rsatamiz.

Eksperimental konsepsiyadan farqli o‘laroq, ekzistensial yondashuvda mutolaa shaxsning o‘zini mukammallashtirishi, mutlaq haqiqatga yaqinlashishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, mutolaa masalasiga ekzistensial yondashuv o‘qishni tushunishda maksimal xolislikni talab etadi, bu esa uni talqin qilishning har qanday nazariy tamoyillarini majburlab singdirishga yo‘l qo‘ymaydi. Mutolaa - bu fikr yuritish emas, balki boshdan kechiriladigan jarayondir. Ushbu yondashuv tarafdorlari mutolaani bilish yoki rivojlanish vositasi sifatida emas, mavhum texnologiya sifatida ham emas, balki insonning mavjudlik usuli sifatida ko‘rib chiqadilar. O‘qish hayotiy ssenariylarga, insonning dunyoda o‘zini namoyon qilish shakllariga singib ketgan bo‘lib, unda shaxsning “o‘zini shakllantirishi” sodir bo‘ladi. U inson mavjudligining asosiy “kayfiyati” bo‘lmish borliqning dahshati oldidagi ochiq zaiflikdan qo‘rquv va o‘zining g‘oyat nochor ekanligini anglashdan kelib chiqadi. Inson mutolaa orqali borliq dahshatidan boshpana topishga, qo‘rquvdan o‘zini himoyalashga intiladi. “Bu qo‘rquv oddiy – inson vaqtni yo‘qotishdan qo‘rqib yozadi va o‘qiydi, so‘zga quloq tutadi va o‘zini ishontiradiki, bu so‘z bilan qo‘llab-quvvatlanadigan e’tibor uning haqiqiy borlig‘idir. Yozish va o‘qish sirlari umr vaqtini xotirada metafizik tarzda saqlanadigan vaqt bo‘lagiga aylantirish orqali qo‘rquvdan himoyalanishni va’da qiladi, bu insonning muallif-o‘quvchi sifatidagi o‘zligini anglash yaxlitligidir [10]. Shunday qilib, o‘qish insonning o‘zini yaratishi sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni inson mutolaada boshqalar tajribasi orqali o‘zini shakllantiradi.

Ekzistensial konsepsiya tarafdorlari o‘qishning yagona munosib maqsadi deb faqat o‘zini “dunyodagi mavjudlik” sifatida anglash, o‘z mohiyatining chuqur tuzilishini ochish, o‘z

haqiqiyligiga yetishish va ekzistensialga yaqinlashishga intilishni tan oladilar. Chunki mazkur konsepsiya vakillarining fikriga ko‘ra, insonlar ongli faoliyatining barcha ko‘rinishlari asosida ekzistensiyaning anglanmagan ijodi yotadi [10].

Xulosa va takliflar. Mutolaa fenomenini tahlil etishda qo‘llaniladigan zamonaviy konsepsiyalarning biz taqdim etgan tasnifiy, yakuniy emas, balki markaziy tadqiqot vazifalarini hal qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va mutolaaning zamonaviy nazariy tushunchalarining o‘ziga xos yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.

Keltirilgan konsepsiyalarni ajratib ko‘rsatish, bizning fikrimizcha, ijtimoiy fanlardagi mutolaa muammolari tadqiqot maydonining barcha asosiy qismlarini to‘g‘ri taqdim etish imkonini beradi. Bu maydon umumjamiyat miqyosida makroijtimoiy hamda obyektiv-predmetli subyektiv-qadriyatli yagona koordinatalar tizimi bilan belgilanadi. Ta’kidlash joizki, ilmiy bilimning ushbu sohasida yangi g‘oyalarni ishlab chiqish asosan mavjud konsepsiyalarni keskin o‘zgartirish va rad etish yo‘li bilan emas, balki ularni batafsil o‘rganish, chuqurlashtirish, rivojlantirish va bu g‘oyalarni umumiy tadqiqot maydoniga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Bunda u yoki bu konsepsiyasining ommaviyligi ko‘p jihatdan nafaqat uning paydo bo‘lish vaqtiga, balki jamiyatning madaniy an’analariga ham bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. Бауман Философские связи и влечения постмодернистской 1 Антология мировой философии. В 4 т.- М.: Мысль, 1968.
2. Социологии чтение// Вопросы социологии. - 1992. - Т. 1, № 2. - С. 11 -22.
3. Бланшо М. От Кафки к Кафке И Всемирная философия XX век: сб. текстов. - Минск, 2004.-С. 161-178.
4. Бланшо М. Произведение и коммуникация // Пространство литературы / М.Бланшо. - М., 2002. - С. 180-213.
5. Больнов О. Философия экзистенциализма: философия существования / Отто Фридрих Больнов. - СПб.: Лань,2004. - 222 с.
6. Бурдье П. Начала : пер. с фр. / Пьер Бурдье; пер. Шматко Н.А. - М.: SocioLogos, 2008.-287 с
7. Бурдье П. Правила искусства. Генезис и структура поля литературы =Les regies de Parts: Genese et structure du champ litteraire I П.Бурдье. - Paris: Seuil, 1992.-138 с.
8. Бурдье П. Чтение, читатели, ученые, литература // Бурдье П. Начала / Пьер Бурдье; пер. Шматко Н.А. - М.,2006. - С. 167-177.
9. Бутенко И.А. Постмодернизм как реальность, данная нам в ощущениях И Социс. - 2000. - № 4- С.3-11.
10. Гадамер Г.Г. Введение к «Истоку художественного творения» // Хайдеггер М. Работы и размышления разных лет. - М.,2011. - С. 117-132.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:612: 796.10

Jasurbek JAMMATOV,
Ma’mun universiteti dotsenti, PhD
E-mail: jammatov_jasurbek@mamunedu.uz

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

UMUMTA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI MONITORINGINI AMALGA OSHIRISH DASTURI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikning zamonaviy nazorat usullari, bu jarayonda qo‘llaniladigan texnologiyalar va ularning afzalliklari hamda monitoringning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, monitoring dasturi natijalari asosida o‘quvchilarning individual jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularga jismoniy mashqlarni bajarishda yuklamalarni meyorlashga qaratilgan tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Maktab o‘quvchilari, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, monitoring, dastur, metodika, yuklama, tadqiqot, dars.

PROGRAM FOR IMPLEMENTING MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING OF GENERAL SCHOOL STUDENTS

Annotation

The article provides detailed information on modern methods of monitoring physical development and physical fitness, the technologies used in this process and their advantages, as well as scientific approaches aimed at increasing the effectiveness of monitoring. Also, based on the results of the monitoring program, recommendations are made to determine the level of individual physical fitness of students and normalize the loads on them when performing physical exercises.

Key words: Schoolchildren, physical development, physical training, monitoring, program, methodology, workload, research, lesson.

ПРОГРАММА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ МОНИТОРИНГА ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация

В статье представлена подробная информация о современных методах контроля физического развития и физической подготовленности, используемых в этом процессе технологиях и их преимуществах, а также научных подходах, направленных на повышение эффективности контроля. Также на основании результатов программы мониторинга даются рекомендации по определению индивидуального уровня физической подготовленности школьников и нормированию нагрузок, которым они подвергаются при выполнении физических упражнений.

Ключевые слова: Школьники, физическое развитие, физическое воспитание, мониторинг, программа, методика, нагрузка, исследование, урок.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim innovatsion rejimda, ma’lumotlar hajmi muntazam ortib bormoqda, bu esa ta’limning haddan tashqari yuklanishiga, stressga olib keladi va o‘quvchilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bolalarning sog‘liq ko‘rsatkichlari o‘quv yil boshida qanday bo‘lishini va ularni innovatsiyalar natijasida o‘quv yili oxirida qanday natijaga ega bo‘lishini nazorat qilish monitoringini olib borish vazifasi, xozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [5]. Respublikamizda maktab o‘quvchilarini jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayd qilishning yagona elektron tizimi joriy qilinmagan, bu esa monitoringni amalga oshirish jarayonini ancha qiyinlashtiradi va uning sifatini pasaytiradi. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi maktablarda ixtiyoriy shaklda yoziladi va ularning ko‘rsatkichlari turli hujjatlarda takrorlanadi, ma’lumotlarni statistik qayta ishlash va taxlil qilish qog‘ozda amalga oshiriladi. Natijada maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishining mavjud monitoring tizimi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishini ta’minlamaydi. Bugungi kunda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini monitoring qilish har qachongidan ko‘ra muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18-dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4063 son qarorida aholi salomatligi holatini monitoring qilishning yagona tizimini yaratish, zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga umrni uzaytirish va salomatlikni mustaxkamlashga oid aniq chora-tadbilar ishlab chiqish va tavsiyalarni tadbiq etish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2019 yil 13-fevraldagi “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi №118 son qarorida aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilangan [1,2,3,4]. Ushbu qarorlarni amalda qo‘llash uchun, birinchi navbatda, ta’lim muassasalariga tegishli bo‘lgan monitoring quyi tizimini yaratish imkoniyatlariga e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqotni va natijalar. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilish dasturi Ma’mun universiteti “Sportni rivojlantirish departamenti” tomonidan amalga oshiriladi.

Maktab o‘quvchilarnining (7 yoshdan 17 yoshgacha) jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish darajasini monitoring qilish umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- Birinchi bosqich (1 sentabrdan 15 sentabrga qadar);
- Ikkinchi bosqich (1 maydan 15 mayga qadar).

Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilish dasturining qo‘llanilish sohasi:

Tadqiqod ob’yekti: Umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Tadqiqot predmeti: 7-17 yoshli maktab o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi

Tadqiqotni tashkil qilish: - o‘quv seminarlari, konsultatsiyalar, yig‘ilishlar o‘tkazish; - tadqiqot bosqichida amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligi (o‘lchash - dastlabki axborotni dastlabki bayonnomalarga kiritish - ma’lumotlar bankini yaratish - ko‘rsatkichlarni hisoblash - ko‘rsatkichlarni son va sifat jihatdan baholash);

Test metodikasi

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari (tik turganda tana uzunligi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, bo‘y-vazn ko‘rsatkichlari (Ketle testi), gavda tuzilishi (Pine testi))	Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (kuch, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya, tezlik-kuch, egiluvchanlik)

Yurak-qon tomir tizimi ko‘rsatkichlari (Rufye testi, ortostatik sinov (tiklanish koeffitsenti))	Nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari (Shtange sinovi, Genche sinovi)

Test natijalari: tuman, shahar, viloyat uchun reyting ko‘rsatkichlarini aniqlash

Uslubiy tavsiyalar: kompleks monitoring natijalari asosida turli xil daraja va bosqichdagi jismoniy tarbiya – sog‘lomlashtirish ishlari va pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritish.

Umumta’lim maktabi direktori buyrug‘i asosida test o‘tkazishga mas’ullar va ularning vazifalari quyidagicha belgilanadi:

1. Jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilari testni o‘tkazishga mas’ul qilib belgilanadi. Ularning vazifalari quyidagicha:

- test kartasi va metodikasi bilan tanishish;
- test mashqlari va o‘lchovlarni bajarish:
- o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

2. Informatika fani o‘qituvchilariga olingan barcha natijalarni kompyuterga kiritish asosida elektron ma’lumotlar bazasini yaratish va olingan natijalar asosida yakuniy ilovalarni imzolash uchun chop qilish vazifalari yuklatiladi.

3. Sinf rahbarlariga esa o‘quvchilarni testda 100% qatnashishlarini ta’minlash vazifasi yuklatiladi (jismoniy madaniyat darslaridan ozod qilinganlarni ham).

Testlar o‘quv yili boshida va oxirida (sentabr va may oylarining birinchi yarmida) ochiq sport maydonchalari, stadionlar, sport zallarida o‘tkaziladi. Testlar jismoniy tarbiya darslarida va qo‘shimcha tarzda ommaviy-sport sog‘lomlashtirish tadbirlari vaqtida o‘tkaziladi. Testlarning iloji boricha ertalab organizm charchamagan paytda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘lchash (tana uzunligi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi), yurak-tomir tizimi ko‘rsatkichlari (Rufe testi, ortostatik sinov) va nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari (Shtange va Genche sinovlari) tinch holatda bajariladi. Yuklamali mashqlar va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (3x10 m. mokisimon yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, 6 daqiqa yugurish, 30 metrga yugurish, o‘tirgan holatda oldinga engashish, turnikda tortilish) jismoniy tarbiya darsidan ozod qilinganlar uchun ham shifokor tavsiyasi asosida o‘tkaziladi. Yuklamali mashqlar yengil chigal – yozdi mashqlaridan keyin amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich. Amaliy o‘lchovlar. Birinchi bosqichda o‘lchangan qiymatlar to‘rt qismdan iborat umumiy o‘lchovlar xaritasiga kiritiladi.

Amaliy o‘lchovlar natijalari kiritilgan qaydnomalar maktab direktori va boshqa mas’ul shaxslar tomonidan imzolanadi. Keyin barcha ma’lumotlar Microsoft Office Excel formatida kompyuterda ishlash uchun Ma’mun universiteti “Sportni rivojlantirish departamenti”ga yuboriladi.

Ikinchi bosqich. Natijalarni hisoblash. Amaliy o‘lchov natijalariga ko‘ra, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikning individual va guruh ko‘rsatkichlari o‘nlab formulalar yordamida hisoblanadi. Masalan, vazn-bo‘y ko‘rsatkichi (Ketle sinovi) tana vaznining bolaning o‘sishiga mos kelishi. Tana vazni yetishmasligi yoki ortiqcha bo‘lgan bolalarni aniqlaydi. Jismoniy rivojlanishning boshqa ko‘rsatkichlari sentil jadvallari yordamida hisoblab chiqiladi va bolaning jismoniy rivojlanish guruhi (sog‘lom bolalar, havf ostida bo‘lgan bolalar, sezilarli og‘ishlar bo‘lgan bolalar) aniqlanadi.

Uchinchi bosqich. Baholash. Ikkinchi bosqichda hisoblangan amaliy o‘lchovlar, indeks va sinovlar tibbiyot fanlarida belgilangan yosh va jins meyorlari hamda o‘quv dasturining talablari bilan taqqoslanadi. Masalan, jismoniy tayyorgarlikning hisoblangan darajasi meyordan yuqori, meyordan past, meyorga to‘g‘ri keladi. Yoki funksional tayyorgarlik darajasi nafas olish yoki yurak-qon tomir tizimlarining ishida meyordan og‘ishni aniqlaydi.

Metodikaning imkoniyatlari. Ma’mun universiteti “Sportni rivojlantirish departamenti” professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha o‘tkazilgan salomatlik ko‘rsatkichlarining monitoringi bizga quyidagilarga imkon beradi:

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning jismoniy sog‘lomligini va asosiy jismoniy ko‘rsatkichlar dinamikasini kuzatib borish:
- o‘quvchilardagi jismoniy rivojlanish, jismoniy va funksional tayyorgarlikdagi og‘ishlarni tashxislash, ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rish;
- sog‘lomlashtirish bo‘yicha innovatsion dasturlar va texnologiyalarni joriy etish samaradorligini monitoring qilish;
- bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining va butun ta’lim tizimining ishini baholash;
- yoshlar orasida salbiy hodisalarning oldini olish yo‘llarini izlab topish;
- ta’lim sifatini baholash tizimini yaratishda muhim tarkibiy qism bo‘lish, chunki ta’lim hizmatlari o‘quvchilar sog‘ligini hisobga olmagan holda amalga oshirilsa, ularni sifatli deb tan olish mumkin emas.

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi. Monitoring jarayonida aniqlangan jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishdagi farqlarni korreksion ta’sirini aniqlash faqat ta’lim muassasalarida ommaviy ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Avvalom bor biz monitoring qilishni “Kuzatish, baholash va bashorat qilish” sifatida emas, balki olingan ishonchli ma’lumotlar asoslangan xolda jismoniy tarbiya jarayoniga faol aralashish sifatida ham ko‘rib chiqamiz.

Talab meyorlarini bajarmagan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunday bolalar soni katta ekanligini hisobga olgan holda, ular bilan korreksion ishlarni olib borish kerak. Buni amalga oshirish uchun, avvalo, kam rivojlangan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashq majmualarini ishlab chiqish kerak. Shaxsiy kamchiliklarni hisobga olgan holda va har bir o‘quvchi uchun mavjud bo‘lgan jismoniy mashqlar to‘plamlari va ularni meyorlarini tuzatish uchun maxsus tavsiyalarni belgilashi kerak. Maktab o‘quvchilari orasidan u yoki bu jismoniy sifatlarning kam rivojlanishidan kelib chiqqan holda, ta’lim muassasalarida turli xil korreksion ishlarni shakllarini tashkil etish zarur. Bularga quyidagilar kiradi: maxsus korreksion mashg‘ulotlar (jismoniy madaniyatda sinfdan tashqari ishlarning bir turi sifatida); Darsning korreksion qismini qo‘shgan holda asosiy jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari (tayyorlov, asosiy va yakuniy qismlar), uy vazifasi va bosh. Monitoring nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasi past bo‘lgan o‘quvchilarni, balki jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarni ham aniqlaydi.

Shubhasiz, bu toifadagi o‘quvchilar uchun ham darsda va darsdan tashqari vaqtlarda mashg‘ulotlarni yangi shakllarni izlash

va tashkil qilish talab qilinadi. Ushbu o‘quvchilarni sport bilan shug‘ullanishlariga yo‘naltirish uchun bolalar va o‘smirlar sport maktablari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash talab etiladi.

Maktabda o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi holatini monitoring qilish tizimi mavjud bo‘lganda jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv dasturlarining mazmunini o‘zgartirishga, umuman, o‘quvchilarning jismoniy salomatligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Dasturda umumta’lim maktablarining 7-17 yoshdagi o‘quvchilarini jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanish darajasini monitoring qilishni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Xulosa. Monitoring murakkab axborot-tahliliy tizim hisoblanadi va uning asosi axborotdir. Monitoring natijalari bo‘yicha olingan ma’lumotlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni sog‘ligini mustahkamlashga oid aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir. Uzoq muddatli qo‘shma faoliyat uchun monitoringni, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirish taklif etiladi. Bundan tashqari, monitoring bo‘limi natijalarni qayta ishlashni amalga oshiradi va bolalarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishini mustahkamlash uchun boshqaruv qarorlari qabul qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 sentyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-394-son Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3031-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18-dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4063-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”gi 65-son Qarori.
5. Лях В.И. Двигательные способности школьников. Основы теории и методики развития / В.И. Лях. - М.: Терра - Спорт, 2000. - 192 с.
6. Ланда Б.Х. Методика комплексной оценки физического развития и физической подготовленности: учебное пособие / Б.Х. Ланда. 5-е изд., испр. и доп. - М. : Советский спорт, 2011. - 348 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.072(575.1)

Mahmuda JAMOLOVA,
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tayanch doktoranti
E-mail: mahmudajamolova9297@gmail.com

Nordik xalaqaro unversiteti dotsenti psix. f.n. N. Lutfullayeva taqrizi asosida

EMOTSIONAL VA IJTIMOIY INTELLEKTNING O‘QITUVCHILAR KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHDA ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada emotsional va ijtimoiy intellektning o‘qituvchilar kasbiy o‘zligini anglashdagi o‘rni tahlil etiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi emotsional va ijtimoiy intellekt talab etilishi va bu intellekt aqliy intellektga nisbatan kasbiy samaradorlikka ko‘proq ta’sir qilishi ta’kidlanadi. Olimlarning tadqiqotlari asosida o‘qituvchilarda ijtimoiy va emotsional intellektni rivojlantirishning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri bayon etiladi. Shuningdek, maqolada o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsiy va kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni hamda hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy metodlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt, kasbiy o‘zlikni anglash, o‘qituvchilik, ta’lim sifati, shaxslararo munosabat.

THE ROLE OF EMOTIONAL AND SOCIAL INTELLIGENCE IN TEACHERS' PROFESSIONAL IDENTITY

Annotation

This article analyzes the role of emotional and social intelligence in the professional self-awareness of teachers. It is also emphasized that a high level of emotional and social intelligence is required in the professional activity of teachers, and this intelligence has a greater influence on professional effectiveness than mental intelligence. Based on the research of scientists, the positive influence of the development of social and emotional intelligence in teachers on the quality of education is described. The article also discusses the process of personal and professional self-awareness of teachers in the socio-cultural environment and modern methods of developing emotional intelligence.

Key words: Emotional intelligence, social intelligence, professional self-awareness, teaching, quality of education, interpersonal relations.

РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО И СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье анализируется роль эмоционального и социального интеллекта в профессиональном самосознании учителей. Также подчеркивается, что профессиональная деятельность учителей требует высокого уровня эмоционального и социального интеллекта, и этот интеллект влияет на профессиональную эффективность больше, чем умственный интеллект. На основе исследований ученых описывается положительное влияние развития социального и эмоционального интеллекта у учителей на качество образования. Также в статье обсуждается процесс личностного и профессионального самосознания учителей в социокультурной среде и современные методы развития эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, социальный интеллект, профессиональное самосознание, преподавание, качество образования, межличностные отношения.

Kirish. Inson o‘zligini anglashi nafaqat subyektiv, balki shaxslararo muloqot, ijtimoiylashish jarayonida obyektib xarakterga ham egadir. Ayniqsa bu kasbiy faoliyatda yaqol namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilik kasbida talabalar, rahbariyat, hamkasblar, ota-onalar bilan doimiy muloqot pedagoglarning kasbiy o‘zligini anglashga ta’sir etadi. Kasbiy o‘zlikni anglash va shaxslararo munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchilarda yuqori emotsional va ijtimoiy intelleakt talab etiladi. Emotsional va ijtimoiy intellektning rivojlanganligi aqliy intellektning rivojlanganligiga qaraganda inson kasbiy faoliyatiga samarali ta’sir o‘kazadi. Bu ikki intellektni nevrologik, psixologik jihatdan tadqiq etgan R. Bar-on va boshqalar. ilmiy asoslarini keltirishgan. M.O‘zdemir Jihan va boshqalar, ta’limda asosan bilim berishga asoslanib qolganligi, emotsional va ijtimoiy rivojlantirish chetda qolayotganini ta’kidlagan. Xuddi shuningdek, O‘zbekistonda ham o‘quv dasturlari asosan talabalar aqliy qobilyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Endigina oliy ta’limni bitirgan yosh o‘qituvchilar real hayot va oliy ta’limda olgan bilimlarni integratsiya qilishda qiyinchilikka duch kelishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbda o‘qituvchilar kasbiy o‘zligini anglashi va bunda emotsional-ijtimoiy intellektning ahamiyati borasida bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Bunga AQSH, Gollandiya, Isroil, Xitoy, Turkiya, Rossiyada olib borilgan tadqiqotlarni misol keltirish mumkin. Olimlarda E. Amdurer va boshqalar, emotsional va ijtimoiy intellektning kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatga ta’sirini tahlil qilishgan. Mualliflar emotsional intellektning rahbarlik qobiliyatida, samarali muloqot va stressni boshqarishda muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydilar [1]. R. Bar-On modeli esa emotsional-ijtimoiy intellektni shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali insonning hissiy holatini boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatiga urg‘u beradi. Ushbu model o‘qituvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun muhim nazariy asosdir [2]. AQSH va Yevropada o‘qituvchilar emotsional intellektini baholashda asosan Bar-On modelidan foydalanilgan tadqiqotlar mavjud. Bastian va boshqalar emotsional intellektning hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta’sirini o‘rganishgan. Biroq, mualliflar shaxsiy fazilatlar va kognitiv qobiliyatlar emotsional intellektdan ko‘ra ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini aniqlashgan [3]. M. Brackett, S. Rivers va P. Salovey emotsional intellektning shaxsiy, ijtimoiy, akademik va ish muhitidagi muvaffaqiyatga ta’sirini tahlil qilishgan. Ular emotsional intellektning o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki va o‘zlashtirish natijalarini yaxshilashdagi rolini ta’kidlashadi [4]. S. Day va boshqalar, o‘qituvchilarning shaxsiy tajribalari va kasbiy o‘zlikni anglashi ularning ta’lim sifati va samaradorligiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatishgan. Bunda o‘qituvchilarning emotsional intellekti ularning o‘quvchilar bilan munosabatlarini yaxshilashga yordam berishini kuzatishgan [5]. Meijer o‘qituvchining kasbiy o‘zlikni anglashi va tajribasi ularning shaxsiy rivojlanishi va ta’lim sifati bilan qanday bog‘liqligini o‘rgangan. U

o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitda o‘zini anglash jarayonini tahlil qilgan [11]. Mortiboys hissiy intellektning dars jarayonidagi samaradorlikka ta’sirini tahlil qilgan [10]. M. O‘zdemir Jihan va Dilekman emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlarining o‘qituvchilarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini tahlil qilishgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va emotsional intellektni rivojlantirish ta’lim jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi [14]. Susar Kirmizi va Yurdakal emotsional intellektga ega o‘qituvchilarning sinfda ijobiy muhit yaratishi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishini tahlil qilishgan [13].

Tahlil va natijalar. Kasbiy o‘zlikni anglash. O‘zlikni anglashga ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan yondashiladi. Bu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar o‘zligini anglash “yakka holda” emas, balki ijtimoiy va madaniy kuchlar ta’sirida rivojlanadi. O‘qituvchilarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni atrofdagilar ularning kasbiga bo‘lgan “umumiy munosabati” asosida shakllanib, doimiy ravishda yaxshilab boriladi. O‘qituvchi shaxsiyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, u izlanish, noaniqlik va ziddiyatli davrlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu jarayon pirovardida shaxsiy va kasbiy o‘zlikni anglashning uyg‘unlashuviga olib keladi [11].

O‘qituvchilarning o‘zligini anglashi ularning kasbiy hayotini tushunish va karera qarorlarini qabul qilishda birlamchi omil hisoblanadi. O‘qituvchilarning kasbiy o‘zlikgini anglashi ularning motivatsiyasi, samaradorligi va eng muhimi, ijtimoiy va hissiy farovonligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy-hissiy o‘rganishga oid tadqiqotlar kattalarning akademik, ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uning ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

Emotsional intellektining o‘qituvchilar faoliyatida ahamiyati. Bugungi kunda insonlarning aqliy qobilaytlarini baholaydigan IQ bilan birga EQ yoki EI (Emotsional intelekt) termini akademik doiralarda birday qo‘llnilmoqda. 1930-yillardayoq psixolog E.Torndayk “ijtimoiy intellekt” tushunchasini boshqa odamlar bilan til topisha olish qobiliyati deb ta’riflagan edi. Emotsional intelekt tushunchasi amerikalik psixolog Abraham Maslou tomonidan “Hissiy kuchi” kuch sifatida fanda ilgari surilgan. Shundan so‘ng ko‘plab olimlar emotsional intelekt borasida izlanishlar olib borib, turli ta’riflar berishgan. Garchi hissiy intellektning bir nechta ta’riflari bo‘lsa-da, eng keng qamrovli va ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan ta’rifni J. Mayer va P. Salovey taklif qilgan. Ularga ko‘ra, hissiy intellekt - bu o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini kuzatish, ular o‘rtasidagi farqni ajrata olish hamda bu ma’lumotlardan o‘z fikrlari va harakatlarida foydalanish qobiliyatidir [9]. Emotsional intelektning o‘lchov birliklarini ishlab chiqqan Bar-On ta’kidlashicha “Emotsional intellekt - bu o‘zaro bog‘liq hissiy va ijtimoiy kompetensiyalar, ko‘nikmalar va vositalarning kesishmasidir. Bu o‘zimizni qanchalik samarali tushunishimiz va ifoda etishimizni hamda kundalik talablarga qanday munosabatda bo‘lishimizni belgilovchi omildir”[2]. YA’ni emotsional intelekti yuqori shaxs nafaqat o‘zning boshqalarning ham hissiyotlarini yaxshi tushunib, baholay oladi.

Yuqori hissiy intellektga ega odamlar o‘z his-tuyg‘ularidan samarali foydalana oladilar. EI past bo‘lgan odamlar ularga e’tibor bermasliklari, noto‘g‘ri talqin qilishlari yoki bu signallardan foydalanmasdan ularga to‘liq bo‘ysunishlari mumkin. Ikkinchidan, EQdan foydalanganda ko‘pincha aql va his-tuyg‘ular o‘rtasida noto‘g‘ri kontrast mavjud va hatto hissiy intellekt oddiy aqldan muhimroq bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Darhaqiqat, EI ong va his-tuyg‘ular ajralmas bir butun bo‘lib, inson xatti-harakatlariga birgalikda hissa qo‘shishini anglatadi [12]. Bunda hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari va pedagog mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish jarayonida yuqori darajadagi hissiy intellektni rivojlantirishga intiladigan o‘qituvchining yaxlit o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi shaxs degan fikrga kelish mumkin [7].

Shuningdek, o‘qituvchi har qancha o‘z fanining bilimdoni bo‘lmasin, u talabalari nimani his qilayotganini tushunmasa, ularning qiziqishlari, yoshga doir xususiyatlarini hisoblabga olmasa, shaxslararo munosabatda no‘noq bo‘lsa, fanini talabaga zo‘raki singdirishga urinsa albatta bunday o‘qituvchida ish jarayonida doimiy ijtimoiy-ruhiy muammolar bo‘ladi.

Garchi hissiy intellekt ko‘nikmalari hayotning har bir bosqichida zarur bo‘lsa-da, bu ko‘nikmalarni shaxs va qobiliyatlar rivojlanishining muhim davri bo‘lgan boshlang‘ich maktab ta’limi davrida shakllantirish juda muhimdir. Buning uchun, avvalo, bolalar bilan bunday muhim rivojlanish davrlarida yaqindan shug‘ullanadigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional intellekti yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Buni aynan O‘zdemiz Jihan va Dilekman o‘rganib, metod va trening dasturlar tuzishgan [1]. Hamda muammolarni yaxshiroq hal qilish, qiyinchiliklarni yengish va xavotirga qarshi kurashish kabi turli xil kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi [3]. Shuningdek, olimlarning kuzatishlari shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich ta’limdan to oliy ta’limgacha barcha o‘quv dasturlari o‘quvchilarning kognativ bilimlarini rivojlantirishga qaratilinmoqda va emotsioanal intellektni rivojlantirish hisobga olinmayapti. Xususan, A.Mortiboysning ta’kidlashicha, o‘qitishda his-tuyg‘ularning rolini tan olish va oliy ta’limda o‘qitish allaqachon kechiktirilgan [10]. Day va boshqalarning izlanishlari natijasida, ta’limda faqat bilim berishga urg‘u berish ijtimoiy-emotsional va xulq-atvor tomonlarni e’tiborsiz qoldirishligiga olib kelishi aniqlashgan [5]. Natijada endigina oliy ta’limni bitirib, kasbiy faoliyatini boshlagan ayrim yosh o‘qituvchilarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni sustlashib, kasbdagi stress va bosimlarga bardosh bermaslik holati kuzatilgan. Natijada yosh o‘qituvchilar kasblarini o‘zgartirish, yoki interaktiva dars berish o‘rniga konservativ o‘qitish uslubiga o‘tishgan.

Ijtimoiy va hissiy intellekt. Aqliy salohiyat va emotsional rivojlanganlikni ifodolovchi intellektlardan tashqari ijtimoiy intellekt ham mavjuddir. Ijtimoiy intellekt (SI), ba’zan ijtimoiy intellekt koeffitsiyenti yoki (SQ) deb ham ataladi. Bu o‘zining va boshqalarning harakatlarini tushunish qobiliyatidir. Ijtimoiy intellekt odamlar bilan tajriba va ijtimoiy muhitdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklardan o‘rganiladi va rivojlanadi. Bu muhim shaxslararo ko‘nikma bo‘lib, odamlarga hayotining barcha jabhalarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Ijtimoiy intellekt aqliy va hissiy intellekt bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy intellekt va ijtimoiy neyropsixologiyani o‘rganayotgan tadqiqotchi psixologlar insonning ijtimoiy aqli qanday ishlashi haqida ko‘plab tamoyillarni aniqlashgan. Psixologlar Nensi Kantor va Jon Kilstrom odamlar o‘z ijtimoiy munosabatlarini tushunish uchun qo‘llaydigan tushunchalarni (masalan, “Men qanday vaziyatdaman?”, “Bu qanday odam?”, “Men bilan kim gaplashyapti?”), xulosa chiqarish uchun foydalaniladigan qoidalarni (“U buni aytib nimani nazarda tutdi?”) va harakatlarni rejalashtirish uchun (“Men bu haqda nima qilmoqchiman?”) batafsil ta’riflab berishgan [8]. Ijtimoiy va emotsioanal intellektini rivojlantirish birgalikda rivojlantirish nafaqat o‘qituvchi talabalar uchun zarur, balki ta’limdagi islohotlarda yuqori natijaga erishush uchun ham muhimdir [4]. Boshqacha aytganda, bu bolalar va kattalar sog‘lom shaxsiyatni shakllantirish, his-tuyg‘ularni tushunish va boshqarish, ijobiy maqsadlar qo‘yish va ularga erishish, hamdardlik bildirish hamda ijobiy munosabatlar o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarni o‘zlashtirish va samarali qo‘llash jarayonidir (Kress va Elias, 2006). Ijtimoiy-emotsional rivojlanish ta’lim va inson rivojlanishining ajralmas qismi sifatida belgilanadi. Uning asosini o‘rganish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan beshta o‘zaro bog‘liq ijtimoiy va hissiy kompetensiyalar tashkil etadi [14].

o‘z-o‘zini anglash
o‘z-o‘zini boshqarish
ijtimoiy xabardorlik
munosabat o‘rnatish ko‘nikmalari
mas’uliyatli qaror qabul qilish.

Ushbu ko‘nikmalarni egallagan o‘qituvchi ta’lim muhitidan muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va hissiy jihatdan kompetentli o‘qituvchilar sinfda ijobiy muhit yaratadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga tegishli verbal va noverbal ifodalar orqali javob beradigan o‘qituvchi nojo‘ya xatti-harakatlarning oldini olishi va darsni samarali boshqarishi mumkin. D. Goleman ta’kidlashicha, salbiy hissiyotlarni rivojlantirgan o‘quvchida o‘rganish jarayoni sodir bo‘lmaydi. Shu sababli, nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar ham to‘liq rivojlangan ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur .

Xulosa va takliflar. O‘qituvchilarning emotsional va ijtimoiy intellekti ularning kasbiy o‘zligini anglash, ta’lim jarayonidagi samaradorlik va o‘quvchilarning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun muhim omildir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini anglash va shaxslararo munosabatlarni samarali yuritish qobiliyatlari ularning kasbiy rivojlanishi va ta’lim sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar stress va bosimlarga bardosh berish, o‘quvchilar bilan iliq munosabat o‘rnatish, nizolarni hal qilish va o‘quv jarayonini samarali boshqarishda ustunlikka ega bo‘ladilar. Shu sababli, ta’lim tizimida emotsional va ijtimoiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish, o‘qituvchilarning hissiy ko‘nikmalarini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish zarur. Bu nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki va natijalarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Amdurer, E., Boyatzis, R. E., Saatcioglu, A., Smith, M. L., & Taylor, S. N. (2014). Emotional and Social Intelligence Competencies as a Factor in Career and Life Success. Journal of Management Development.
2. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema. 18, 13–25.
3. Bastian, V. A., Burns, N. R., & Nettelbeck, T. (2005). Emotional Intelligence Predicts Life Skills, but Not as Well as Personality and Cognitive Abilities. Personality and Individual Differences.
4. Brackett, M. A., Rivers, S. E., & Salovey, P. (2011). Emotional Intelligence: Implications for Personal, Social, Academic, and Workplace Success. Social and Personality Psychology Compass.
5. Day, C., Sammons, P., Stobart, G., Kington, A., & Gu, Q. (2007). Teachers Matter: Connecting Lives, Work and Effectiveness. Open University Press
6. Goleman, D. (1997). Emotional intelligence: why it can matter more than IQ. New York, NY: Bantam Books.
7. Iskandarov , N. (2024). Emotsional intellekt bo’lajak pedagog shaxsining motivatsion sohasini boshqaruv omili sifatida. Евразийский журнал академических исследований, 4(12 Special Issue), 567–569.
8. Kihlstron, John F.; Cantor, Nancy. "Social Intelligence". John F. Kihlstrom. Archived from the original on 2015-12-22. Retrieved 2015-12-20.
9. Mayer, J. D., and Salovey, P. (1997). “What is emotional intelligence?” in Emotional development and emotional intelligence: educational implications. eds. P. Salovey and D. J. Sluyter (New York: Basic Books), 3–34.
10. Mortiboys, A. (2005). Teaching with Emotional Intelligence: A Step-by-Step Guide for Higher and Further Education Professionals. Routledge
11. Meijer, P. C. (2011). The Role of Experience in Teacher Identity Development. Cambridge Journal of Education
12. Sharofitdinov, A. (2023). Emotsional intellekt tushunchasining psixologik tavsifi. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1)
13. Susar Kırmızı, F., & Yurdakal, İ. H. (2020). Emotional Intelligence and Teacher Leadership: An Examination of Teacher Perceptions. International Journal of Leadership in Education.
14. Özdemir Cihan M and Dilekmen M (2024) Emotional intelligence training for pre-service primary school teachers: a mixed methods research. Front. Psychol. 15:1326082. doi: 10.3389/fpsyg.2024.1326082

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 372.800.2

Doniyor JONIBEKOV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: doniyorjonibekov1995@gmail.com

GulDPI dotsenti, PhD M.B.Niyozov taqrizi asosida

USING DIGITAL DIDACTIC TOOLS IN COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY LESSONS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE LEARNINGAPPS.ORG PLATFORM)

Annotation

This article analyzes the pedagogical opportunities and effectiveness of using digital didactic tools in teaching computer science and information technology. Using the LearningApps.org platform as an example, the integration of these tools into the educational process, their role in enhancing students' cognitive activity, and their alignment with modern educational requirements are examined. The study presents the platform's functional capabilities, its advantages for teachers, its impact on students' learning motivation, and statistical data based on international experiences.

Key words: Digital didactic tools, computer science, information technology, LearningApps.org, interactive teaching, digitalization in education, learning motivation.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ НА УРОКАХ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ LEARNINGAPPS.ORG)

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические возможности и эффективность использования цифровых дидактических инструментов в обучении информатике и информационным технологиям. На примере платформы LearningApps.org рассматривается интеграция этих инструментов в учебный процесс, их роль в повышении когнитивной активности учащихся и соответствие современным требованиям образования. В исследовании представлены функциональные возможности платформы, преимущества для учителей, влияние на учебную мотивацию учащихся и статистические данные на основе международного опыта.

Ключевые слова: Цифровые дидактические инструменты, информатика, информационные технологии, LearningApps.org, интерактивное обучение, цифровизация образования, учебная мотивация.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI DARSLARIDA RAQAMLI DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH (LEARNINGAPPS.ORG PLATFORMASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda raqamli didaktik vositalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi. LearningApps.org platformasi misolida ushbu vositalarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini oshirishdagi o‘rni va zamonaviy ta’lim talablariga mosligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda platformaning funksional imkoniyatlari, o‘qituvchilar uchun afzalliklari, o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri va xalqaro tajribalar asosida statistik ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli didaktik vositalar, informatika, axborot texnologiyalari, LearningApps.org, interaktiv o‘qitish, ta’limda raqamlashtirish, o‘quv motivatsiyasi.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli ta’lim texnologiyalari (RTT) va raqamli vositalar o‘quv jarayonini transformatsiya qilishda asosiy omil sifatida qaralmoqda. UNESCO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo mamlakatlarining 85% dan ortig‘i ta’limda raqamlashtirish strategiyalarini joriy etgan. Informatika va axborot texnologiyalari fanlari esa o‘z tabiatiga ko‘ra zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish va ulardan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli, raqamli didaktik vositalar ushbu fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

LearningApps.org platformasi dunyoda keng tarqalgan raqamli didaktik vositalardan biri bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Ushbu maqola platformaning informatika darslarida qo‘llanilishi, uning afzalliklari va o‘zbek ta’lim tizimiga moslashuvi imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli didaktik vositalarning ta’limdagi o‘rni bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Siemens (2005) o‘zining “Konnektivizm” nazariyasida raqamli vositalarning bilim almashinuvini osonlashtirishdagi rolini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Bates (2019) “Ta’limda texnologiyalarni integratsiyalash” asarida interaktiv platformalarning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligini isbotlaydi. Mahalliy tadqiqotlarda esa raqamli vositalarning o‘zbek ta’lim tizimida qo‘llanilishi masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan (M.Abdullayeva, 2022). LearningApps.org platformasi bo‘yicha xalqaro tajribada Germaniya va Polsha kabi davlatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar uning samaradorligini tasdiqlaydi (Schmidt, 2021).

Tadqiqod metodologiyasi. Raqamli didaktik vositalarning ta’limdagi o‘rni. Raqamli didaktik vositalar o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ular o‘quv materiallarini vizual, audio va interaktiv shaklda taqdim etib, o‘quvchilarning turli xil o‘quv uslublariga moslashadi (Fleming, 2001). Informatika fanida bunday vositalar algoritmik fikrlash, dasturlash asoslari va axborot tizimlari bilan ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda qo‘llaniladi.

Masalan, LearningApps.org yordamida o‘quvchilar “Ma’lumotlar tuzilmalari” mavzusini o‘rganishda moslashtirish mashqlari orqali ma’lumotlarni tartiblash usullarini vizual tarzda ko‘rishi mumkin. Bu esa an’anaviy kitob va doskaga asoslangan usullarga nisbatan o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

LearningApps.org platformasining xususiyatlari va qo‘llanilishi. LearningApps.org – Germaniyada ishlab chiqilgan ochiq manbali platforma bo‘lib, 20 dan ortiq turdagi interaktiv mashqlarni taklif etadi. Platformaning asosiy xususiyatlari:

Foydalanish qulayligi – o‘qituvchilar maxsus texnik bilimlarsiz mashqlar yaratishi mumkin.

Ko‘p tillilik – platforma o‘zbek tilida ham qisman ishlatilishi mumkin, ammo mahalliy kontent yaratish talab etiladi.

Integratsiya – moodle, Google Classroom kabi ta’lim platformalari bilan birlashishi mumkin.

Mobil moslashuvchanlik – smartfon va planshetlarda qulay ishlaydi.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida platformadan foydalanish misollari: “Algoritmlarni tuzish” mavzusida o‘quvchilar algoritm qadamlarni ketma-ketlikka joylashtirish mashqi bilan ishlaydi; “Operatsion tizimlar” mavzusida terminlarni moslashtirish orqali tushunchalarni o‘rganadi; “Dasturlash asoslari” mavzusida bo‘sh joylarni to‘ldirish mashqi yordamida kod sintaksisini mustahkamlaydi.

Xalqaro tajribada, masalan, Polshada o‘tkazilgan tadqiqotda (Kowalski, 2020) LearningApps.org darslarda qo‘llanilganda o‘quvchilarning o‘rtacha bahosi 12% ga oshgani qayd etilgan.

LearningApps.org platformasidagi mashq turlari va ularning qo‘llanilishi. LearningApps.org platformasi turli xil interaktiv mashq turlarini taklif etadi, ularning har biri informatika va axborot texnologiyalari fanining muayyan mavzularida qo‘llanilishi mumkin. Quyida asosiy mashq turlari va ulardan foydalanish misollari keltiriladi (1-jadval).

1-jadval.

№	Mashq turlari	Mavzu	Qo‘llanilishi	Afzalligi
1	Test (Ko‘p tanlovli savollar)	Operatsion tizimlar	O‘quvchilar Windows yoki Linux tizimlarining funksiyalari bo‘yicha savollarga javob beradi (masalan, “Fayl boshqaruvi uchun qaysi buyruq ishlatiladi?”)	Bilimni tezkor tekshirish va o‘quvchilarning diqqatini jamlash
2	Moslashtirish (Matching)	Ma’lumotlar tuzilmalari	Ma’lumot turlari (massiv, ro‘yxat, daraxt) va ularning xususiyatlarini moslashtirish.	O‘quvchilarning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.
3	Ketma-ketlik (Ordering)	Algoritmlarni tuzish	Algoritm qadamlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish (masalan, “Bir sonni ikkiga ko‘paytirish” algoritmi).	Algoritmik fikrlashni mustahkamlash.
4	Bo‘sh joylarni to‘ldirish (Cloze)	Dasturlash asoslari	Python yoki C++ kodidagi bo‘sh joylarni to‘ldirish (masalan, “print(___)” qatorini to‘ldirish).	Sintaksis va kod yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5	Krossvord (Crossword)	Axborot texnologiyalari terminlari	“Server”, “Brauzer”, “Fayl” kabi atamalarni krossvord shaklida o‘rganish.	Lug‘atni boyitish va qiziqishni oshirish.
6	Guruhlash (Grouping)	Fayl turlari	Fayl kengaytmalarini (.txt, .jpg, .exe) guruhlarga ajratish.	Tasniflash qobiliyatini rivojlantirish.
7	O‘yinli viktorina (Quiz)	Internet va tarmoqlar	IP-manzil, URL va domen tushunchalari bo‘yicha savollar bilan viktorina o‘tkazish.	Guruhlarda raqobat ruhini oshirish.

Ushbu mashq turlari o‘qituvchilarga darsni diversifikatsiya qilish va o‘quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Masalan, yuqori sinf o‘quvchilari uchun murakkab algoritmlarni o‘z ichiga olgan “Ketma-ketlik” mashqlari, kichik sinflar uchun esa oddiy “Krossvord” yoki “Moslashtirish” mashqlari mos keladi.

Tahlil va natijalari. Tadqiqotda LearningApps.org platformasining informatika va axborot texnologiyalari darslarida qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim darajasiga, o‘quv motivatsiyasiga va kognitiv faoliyatiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Eksperiment Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 17-umumta’lim maktabida 7-8-sinf o‘quvchilari (jami 60 nafar) ishtirokida o‘tkazildi. O‘quvchilar uch guruhga bo‘lingan edi: Tajriba guruhi 1 (20 o‘quvchi, LearningApps.org bilan o‘qitildi), Tajriba guruhi 2 (20 o‘quvchi, Kahoot bilan o‘qitildi) va Nazorat guruhi (20 o‘quvchi, an’anaviy usullar bilan o‘qitildi). Tanlangan mavzu – “Fayllarni boshqarish va ma’lumotlarni saqlash” – informatika darslarida asosiy tushunchalarni shakllantirish va real hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Test natijalari va statistik ko‘rsatkichlar. Tajriba 4 hafta davomida davom etdi, har bir guruhning bilim darajasi diagnostik (boshlang‘ich) va yakuniy testlar orqali baholandi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi:

Tajriba guruhi 1 (LearningApps.org): o‘rtacha ball – 89% (standart og‘ish ±4.2). Diagnostik testda o‘rtacha ball 65% bo‘lsa, yakuniy testda 24% o‘sish kuzatildi.

Tajriba guruhi 2 (Kahoot): o‘rtacha ball – 84% (standart og‘ish ±5.1). Diagnostik testdan keyin 19% o‘sish qayd etildi.

Nazorat guruhi: o‘rtacha ball – 71% (standart og‘ish ±6.3). O‘sish atigi 8% ni tashkil etdi.

LearningApps.org platformasi orqali birinchi tajriba guruhidagi o‘quvchilarning yuqori natijasi platformaning interaktiv mashqlari (masalan, “Fayl turlarini moslashtirish” yoki “Ma’lumotlarni saqlash jarayonini ketma-ketlikka joylashtirish”) tufayli o‘quv materialini vizual va amaliy tarzda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Masalan, “Fayl turlari” mavzusida o‘quvchilar .txt, .jpg, .exe kabi kengaytmalarni guruhlarga ajratish mashqini bajarish orqali nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgandi, balki ularni kundalik hayotda (masalan, kompyuterda fayllarni boshqarishda) qo‘llashni ham tushundi.

Motivatsiya va qiziqish darajasi. O‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, LearningApps.org guruhidagi o‘quvchilarning 92% darslardan zavqlangani va mavzuni o‘rganishga qiziqishi oshganini bildirdi. Bu ko‘rsatkich Kahoot guruhida 85%, nazorat guruhida esa atigi 60% ni tashkil etdi. O‘quvchilarning fikrlaridan biri shunday edi: “Mashqlar o‘yin kabi edi, lekin men fayllar haqida ko‘p narsani o‘rgandim va endi kompyuterda hujjatlarni tezroq topaman”. Bu esa platformaning gamifikatsiya elementlari (masalan, viktorina va moslashtirish o‘yinlari) o‘quvchilarni fanga jalb qilishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

O‘qituvchilarning so‘rovnomasi ham ijobiy natijalarni tasdiqladi: 80% o‘qituvchilar LearningApps.org platformasi dars tayyorgarlik jarayonini 30% ga qisqartirganini va o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqani kuchaytirganini ta’kidladilar.

Ilmiy dalillar. Natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, Kowalski (2020) Polshada o‘tkazilgan tadqiqotida LearningApps.org platformasi qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning o‘rtacha bahosi 12% ga oshganini qayd etgan. Shu bilan birga, Bates (2019) interaktiv vositalar o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini 20-25% ga oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi. O‘zbekistondagi tajribamizda esa bu o‘sish 24% ni tashkil etdi, bu mahalliy sharoitda platformaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Qo‘shimchalar. LearningApps.org platformasi o‘quvchilarga xatolarini mustaqil ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Masalan, “Ma’lumotlarni saqlash” mavzusidagi ketma-ketlik mashqida noto‘g‘ri javob bergan o‘quvchi darhol tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi va xato qayerda yuz berganini vizual tarzda ko‘rdi. Bu xususiyat o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirdi va o‘qituvchining doimiy nazoratisiz ham o‘quv jarayonini davom ettirishga yordam berdi.

Muhokama. LearningApps.org platformasi informatika va axborot texnologiyalari darslarida raqamli didaktik vosita sifatida qo‘llanilganda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini, ijodiy yondashuvini va real hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, platforma nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o‘quvchilarni fanga qiziqtirish va o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashga undaydi. Biroq, uning O‘zbekiston ta’lim tizimida kengroq joriy etilishi uchun bir qator muammolar va imkoniyatlarni muhokama qilish zarur.

Platformaning afzalliklari. LearningApps.org o‘quv jarayonini interaktiv va multimedia vositalariga asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi. Masalan, “Algoritmlarni tuzish” mavzusida o‘quvchilar ketma-ketlik mashqi orqali oddiy algoritmni (masalan, “Choy damlash”) kompyuter tilida qadamlar sifatida joylashtirishni o‘rgandi. Bu jarayon o‘quvchilarga algoritmik fikrlashni nafaqat darslik doirasida, balki kundalik hayotda ham qo‘llashni ko‘rsatdi – masalan, bir o‘quvchi “Uy vazifasini rejalashtirishda ham shunday ketma-ketlik qo‘llash mumkinligini tushundim” dedi.

Platformaning multimedia xususiyatlari (vizual tasvirlar, audio elementlar va interaktivlik) o‘quvchilarning turli o‘quv uslublariga moslashdi. Flemingning VARK modeliga (2001) ko‘ra, o‘quvchilarning 65% ga yaqini vizual yoki kinestetik

uslubda yaxshi o‘rganadi. LearningApps.org esa bu ehtiyojni qondirdi: “Fayl turlari” mavzusidagi moslashtirish mashqida o‘quvchilar fayl kengaytmalarini suratlar bilan bog‘lash orqali vizual tarzda o‘rgandi, bu esa an’anaviy matnli darsliklarga qaraganda samaraliroq bo‘ldi.

Ilmiy dalillar bilan taqqoslash. Siemensning “Konnektivizm” nazariyasiga (2005) asoslanib, LearningApps.org bilim almashinuvini raqamli muhitda osonlashtirdi. Platformada o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan mashqlarni bajarish bilan birga, o‘zlari ham yangi mashqlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Masalan, bir guruh o‘quvchisi “Internet tarmoqlari” mavzusida krossvord tuzdi va uni sinfdoshlari bilan baham ko‘rdi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirdi va ularni bilim yaratuvchisi sifatida ishtirok etishga undadi.

Xalqaro tajribalarda ham shunga o‘xshash natijalar qayd etilgan. Schmidt (2021) Germaniyada o‘tkazilgan tadqiqotida LearningApps.org platformasining STEM fanlarida o‘quvchilarning muammoni hal qilish qobiliyatini 18% ga oshirganini ta’kidlaydi. O‘zbekistondagi tajribamizda esa “Fayllarni boshqarish” mavzusida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari (masalan, kompyuterda fayl tizimini tartibga solish) 20% ga yaxshilandi.

Mahalliy muammolar va yechimlar. O‘zbekiston ta’lim tizimida platformani joriy etishda quyidagi muammolar aniqlandi:

Internet aloqasining barqaror emasligi: Tadqiqot davomida bir nechta darslarda internet uzilishi mashqlarni yuklashda qiyinchilik tug‘dirdi. Masalan, ba’zi vaqtlarda maktabda internet tezligi 2-3 Mbps dan oshmasligi mobil qurilmalarda platformadan foydalanishni qiyinlashtirdi.

O‘qituvchilarning raqamli savodxonligi: so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 40% platformadan foydalanishni o‘rganishda dastlabki qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Masalan, bir o‘qituvchi “Mashq yaratishni o‘rganish uchun qo‘shimcha vaqt kerak bo‘ldi” dedi.

Mahalliy tillarda kontent yetishmasligi: platformada o‘zbek tilidagi tayyor mashqlar kam, bu esa o‘qituvchilarga qo‘shimcha kontent yaratish yukini yukladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun xalqaro tajribaga asoslangan yechimlar taklif etiladi. Masalan, Polshada (Kowalski, 2020) LearningApps.org mahalliy ta’lim dasturlari bilan integratsiyalashgan va o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etilgan. O‘zbekistonda ham shunday yondashuv qo‘llanilishi mumkin: platformani o‘zbek tiliga to‘liq moslashtirish, informatika darsliklari asosida mashqlar to‘plamini ishlab chiqish va o‘qituvchilar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etish.

Shu bilan birga, platforma o‘qituvchilarga darsni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Dasturlash asoslari” mavzusida Python kodidagi bo‘sh joylarni to‘ldirish mashqi yaratildi, bu esa ularning kod yozish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu ko‘nikma kelajakda IT sohasida ishlashni rejalashtirgan o‘quvchilar uchun muhimdir.

Kelajakda yuqorida keltirilgan muammolar o‘z yechimini topsa, LearningApps.org platformasining multimedia va interfaol xususiyatlari zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq javob berganligi bois, platforma O‘zbekiston ta’lim tizimida kengroq qo‘llanilsa, u o‘quvchilarni nafaqat informatika faniga qiziqtiradi, balki ularni raqamli dunyoda faol ishtirokchilarga aylantiradi. Masalan, kelajakda platformada virtual reallik (VR) elementlari qo‘shilsa, o‘quvchilar “Operatsion tizimlar” mavzusini 3D muhitda o‘rganishi mumkin, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Xulosa va takliflar. LearningApps.org platformasi informatika va axborot texnologiyalari darslarida raqamli didaktik vosita sifatida o‘quv jarayonini optimallashtirish va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim vosita ekanligi tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, platforma o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o‘qituvchilarga dars tayyorlashda qulaylik yaratadi va zamonaviy ta’lim talablariga javob beradi.

Takliflar:

O‘qituvchilar uchun “Raqamli didaktik vositalardan foydalanish” bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish;

LearningApps.org platformasini o‘zbek tiliga to‘liq moslashtirish va mahalliy o‘quv dasturlari bilan bog‘lash;

Maktablarda yuqori tezlikdagi internet infratuzilmasini rivojlantirish;

Platformada informatika faniga oid maxsus mashqlar to‘plamini ishlab chiqish.

Raqamli didaktik vositalar ta’limning kelajagini shakllantirishda davom etadi va ularni o‘zbek ta’lim tizimida kengroq joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar zarur.

ADABIYOTLAR

1. Kowalski, P. (2020). Interactive Learning Tools in Polish Schools. Educational Research Journal, 15, 2, 34-45.
2. Schmidt, J. (2021). Digital Didactic Tools in STEM Education. Berlin: Springer.
3. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2, 1, 3-10.
4. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing.
5. Abdullayeva, M. (2022). O‘zbekistonda ta’limda raqamlashtirish: muammolar va yechimlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age. Vancouver: BCcampus.
7. Fleming, N. D. (2001). Teaching and Learning Styles: VARK Strategies. Christchurch: N.D. Fleming.
8. Mayer, R. E. (Ed.). (2014). The Cambridge Handbook of Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Hazzan, O., Lapidot, T., & Ragonis, N. (2011). Guide to Teaching Computer Science: An Activity-Based Approach. London: Springer.
10. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9, 5, 1-
11. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco: Pfeiffer.
12. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108, 6, 1017-1054.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9

Yunus JUMANIYOZOV,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:yunus@urdu.uz

UrDU dotsenti X.Bekchanov taqrizi asosida

FEATURES OF THE ROLE OF FATHERHOOD IN THE UPBRINGING OF CHILDREN IN PSYCHOLOGY

Annotation

In this article, we have attempted to examine the changes occurring in family culture and society in order to better understand the characteristics of modern fathers. Recently, issues related to the role of the father in the context of traditional and modern concepts have been increasingly discussed in journalism and the media.

Key words: Fatherhood model, father’s role, role inversion, paternal authoritarianism, maternal authoritarianism, sense of fatherhood, feminization.

ОСОБЕННОСТИ РОЛИ ОТЦОВСТВА В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье мы попытались рассмотреть изменения, происходящие в культуре семьи и обществе, чтобы лучше понять особенности современных отцов. В последнее время в журналистике и средствах массовой информации все чаще обсуждаются проблемы, связанные с ролью отца в контексте традиционных и современных представлений.

Ключевые слова: Модель отцовства, роль отца, инверсия ролей, отцовский авторитаризм, материнский авторитаризм, чувство отцовства, феминизация.

PSIXOLOGIYADA FARZAND TARBIYASIDA OTALIK ROLINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi otalarning xususiyatlarini tushunish uchun oilada madaniyat va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ko‘rib chiqishga harakat qildik. So‘nggi paytlarda jurnalistika va ommaviy axborot vositalarida otaning rolini an’anaviy va zamonaviy tushunchalar bilan bog‘liq muammolar tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: Otalik modeli, ota roli, rollar inversiyasi, ota avtoritarizmi, ona avtoritarizmi, otalik tuyg‘usi, feminizatsiya.

Kirish. Tarixiy jihatdan otalik institutining shakllanishi xususiy mulkning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘g‘illardan birining merosxo‘rligiga tabiiy ehtiyoj paydo bo‘ladi. Erkak – an’analar saqlovchisi - ayollar va bolalarni ta’minlash vazifasi yuklangan. Erkaklarning ota-onalarning xatti-harakatlari tabiatan ijtimoiy bo‘lganligi sababli, u o‘rganishga bog‘liq va tegishli ijtimoiy sharoitlarsiz osongina yo‘qolishi mumkin. Bundan tashqari, otalik rolining psixologik mazmuni ko‘p jihatdan erkakning ota-ona oilasida ijtimoiylashuv tajribasiga va otasi oilada ko‘rsatgan otalik modeliga bog‘liq.Yaqin vaqtgacha otalikning eng keng tarqalgan modeli an’anaviy edi. Ushbu modelda ota boquvchi, hokimiyat timsoli va eng yuqori intizomli hokimiyat, oiladan tashqari, ijtimoiy hayotda namuna va bevosita murabbiydir. Otalik roliga, birinchi navbatda, o‘g‘lini tarbiyalash mas’uliyati kiradi. An’anaviy jamiyatda otalarning ishi doimo ko‘rinib turardi, bu otalik hokimiyatining asosi edi. Ota oila boshlig‘i, muhim qarorlar qabul qiluvchi, maslahat beruvchi, rahbarlik qiluvchi shaxs bo‘lgan, oila a’zolari tufayli u eng malakali, tajribali va bilimdondir. Otalikning bu modeli u yoki bu shaklda an’anaviy iqtisodiy faoliyat saqlanib qolgan jamiyatlarda uchraydi.Oila bilan bog‘liq o‘zgarishlar 1960-yillarda, ayollarning kasbiy bandligi keskin oshgan paytda paydo bo‘la boshladi. Bu ularning hayot strategiyalari va oiladagi mavqeini o‘zgartirishga olib keldi. Agar ilgari ayol ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan turmush o‘rtog‘iga – oila boshlig‘i va boquvchisiga qaram bo‘lgan bo‘lsa, hozir ko‘p oilalarda oilani moddiy ta’minlash mas’uliyatini ayollar o‘z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, ayollar ko‘proq vaqtlarini oiladan tashqarida o‘tkazadilar va turmush o‘rtoqlar nafaqat uy vazifalarini, balki tarbiyaviy funksiyalarni ham taqsimlash masalasiga duch kelishadi. Feminizatsiya o‘sishi bilan gender rollariga yangi nuqtai nazar otalik institutiga ta'sir qilmay qolmadi. An’anaviy modelda bola hayotining birinchi yillarida otaning roli birinchi navbatda qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ko‘rilgan. Biroq, allaqachon 80-yillarda. Yevropa mamlakatlari va AQShda sotsiologlar va psixologlar ko‘p jihatdan an’anaviyga qarama-qarshi bo‘lgan "insonning yangi qiyofasini" aniqladilar. Farqlar, birinchi navbatda, kichik bolalarga bo‘lgan munosabatda: otalikning yangi modeli g‘amxo‘rlikda ishtirok etishni, tashvishlanishni va bola bilan hissiy aloqa o'rnatish qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy otalik modelining paydo bo‘lishi jamiyatdagi demokratik tendentsiyalar, oilada huquq va majburiyatlarni taqsimlashda er-xotinlarning tengligi bilan bog‘liq. Amerikalik psixologlar nuqtai nazaridan, muvaffaqiyatli otalik bolalarni tarbiyalashda faol ishtirok etish, bolaning muvaffaqiyatlariga qiziqish va u bilan tez-tez muloqot qilish bilan tavsiflanadi. Odatda, bunday otalar kamroq qo‘pol va o‘z farzandlarini "sof erkak" fazilatlarini namoyon etadigan otalarga qaraganda yaxshiroq tushunadilar. Ikkinchisi ko‘pincha talabchan va qattiqqo‘l ota-onalardir, lekin ular kundalik yumushlarni xotinlariga topshirishlari mumkin.

Otalik sevgisi tug‘ma emas, balki bolaning hayotining birinchi yillarida shakllanadi. Otaning mehrini qozonish uchun bola ma’lum ijtimoiy talablarga va otaning qobiliyatlari, yutuqlari va muvaffaqiyatlariga oid umidlariga javob berishi kerak. Otaning sevgisi muvaffaqiyat va yaxshi xulq-atvor uchun o‘ziga xos mukofot bo‘lib xizmat qiladi. Ota uchun bola oilani davom ettirish imkoniyatini o‘zida mujassam etadi, chunki an’anaviy me’yorlarga muvofiq, erkak merosxo‘rni oilaning davomchisi, an’analar va oila xotirasi saqlovchisi sifatida tarbiyalashi kerak. Shunday qilib, ota ijtimoiy nazorat funksiyasini bajaradi va talablar, intizom va jazolarning tashuvchisi hisoblanadi.

Darhaqiqat, zamonaviy ota ko‘pincha o‘z farzandi uchun afsonaviy va erishib bo‘lmaydigan narsaga aylanadi. U erta tongda jo‘naydi, kun bo‘yi qayerdadir "ishda" muhim ish bilan o‘tkazadi va kechqurun charchagan holda qaytib keladi. Bu faqat gazeta va televizor, ba’zan esa kompyuter uchun yetarli. Aslini olganda, otaning ishi, sevimli mashg‘ulotlari va hayoti bolaning e’tiboridan o‘tadi. Ota sherik emas, do‘st emas, balki jazolovchi hokimiyatning bir turi. "Otamga aytaman, u sizga qanday bo‘ysunmaslik kerakligini ko‘rsatadi", deb tez-tez tahdid qiladi onam. Bu begonalashish, bola tarbiyasidan chekinish bizning “otalik madaniyatimiz”ning stereotipidek tuyuladi.Psixologlar

hayotning birinchi yilida bolali oilalardagi yosh otalar orasida so‘rov o‘tkazdilar: “Siz chaqalog‘ingiz bilan muloqot qilishni xohlaysizmi? U bilan qancha vaqt o‘tkazasiz? Siz u bilan o‘ynaysizmi? Qanday o‘yinlar? Aksariyat otalar shunday javob berishdi: "U nimani biladi!" U katta bo‘lganda, biz u bilan futbol o‘ynaymiz, xokkeyga boramiz, ammo hozircha onasi va buvisi unga qarashlariga ruxsat bering.Shu kabi fikrlar bilan otalar farzandlari haqida o‘zqarashlarini bildirishdi.

Ajralish munosabati ko'pincha o‘smirlik va yoshlik davridan keyingi yillarda tushunmovchilik, ishonchsizlik va nizolar manbai bo‘lib qoladi. Chaqaloq bilan birinchi aloqalar erta bolalikdanoq o‘tkazib yuborilgan. Bularning barchasi keyinchalik otalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishda qiyinchiliklarga, bolaning otaga bo‘lgan ishonchi va mehrining yetishmasligiga olib keladi.Chaqaloq va uning otasi o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish muammosi hayotning birinchi kunlaridan boshlab xorijiy psixologlar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Onalarda bo‘lgani kabi, otalarning bola bilan erta aloqasi keyingi o‘zaro munosabatlarga ta’sir qildi: bunday otalar o‘z farzandlarining ehtiyojlarini ko‘proq tushunishlarini ko‘rsatdilar va bolalari bilan muloqotda ko‘proq ijobiy his-tuyg‘ularni boshdan kechirdilar.Bola tug‘ilishdan hozir bo‘lgan otalarning aytishicha, ular bolaga deyarli darhol bog‘lanib qolishgan, hissiy yuksalish, mag‘rurlik va o‘z ko‘zlarida o‘sgan. Tug‘ilishda hozir bo‘lish va uni birga boshdan kechirish ham erning xotiniga bo‘lgan bog‘liqligini, er va xotin o‘rtasidagi jamoa tuyg‘usini kuchaytiradi, yangi tug‘ilgan chaqaloq onaning manfaatlari markaziga aylanganda ko‘pincha zaiflashadi.Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, otalari hayotining birinchi kunlaridanoq ularga g‘amxo‘rlik qilgan chaqaloqlar aqliy va jismoniy rivojlanishning yuqori darajasini ko‘rsatadi va hissiy jihatdan sezgir bo‘lib o‘sadi[3]. Biroq, psixologlar, shuningdek, bolaga g‘amxo‘rlik qilishda faol ishtirok etishga intilayotgan otalarning munosabati onalarnikidan farq qilishini ta’kidladilar. Otalar asosan chaqaloq bilan o‘ynashadi, onalar esa bolani asosan ehtiyojlari bilan shug‘ullanadilar, yuvadilar va ovqatlantiradilar. Shu bilan birga, otalar bolalar bilan onalarga qaraganda boshqacha o‘ynaydi. Otalar, birinchi navbatda, bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan baquvvat o‘yinlarga ko‘proq moyil bo‘lishadi: ular chaqaloqlarni tashlaydilar, qo‘llarini va oyoqlarini harakatga keltiradilar Onalar chaqalog‘iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishadi, ular bilan mehr bilan gaplashadilar, silaydilar va ehtiyotkorlik bilan qo‘llarida ko‘taradilar.Farzandlari bilan go‘daklik davrida kuchli hissiy aloqalar o‘rnatgan otalar o‘z farzandlarining yoshi ulg‘aygan sari o‘zgaruvchan ehtiyojlari va qiziqishlariga nisbatan sezgirroq bo‘lishadi. Umuman olganda, bunday otalar farzandiga ko‘proq ta’sir qiladi. Bolalar ularni ko‘proq tinglashadi, o‘z fikrlarini boshqaradilar, o‘g‘illar otalariga o‘xshashni xohlashadi, ular bilan iliq, ko‘p qirrali munosabatlar mavjud.

AQSh, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda "dadalar uchun maktablar" muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, ularda ular kichik bolaga qanday g‘amxo‘rlik qilishni, muloqot qilishni, u bilan o‘ynashni, uni tushunishni va uni rivojlanayotgan shaxs sifatida ko‘rishni o‘rgatadi.Madaniy va tarixiy xususiyatlari bilan O‘zbekistonda vaziyat G‘arbdagidan biroz farq qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlari 90-yillar, garchi ular rus erkaklari orasida oilaning ustuvorligi o‘sib borayotganini ta’kidlasalar ham, hali ham ota imidjining jamoatchilik ongidagi o‘zgarishini ochib bera olmaydi. Shunday qilib, rus erkaklari asosan ota-onaning an’anaviy qiyofasini saqlab qoladilar va oldingi ota rolini amalga oshiradilar, kichik bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni birinchi navbatda ayol kasbi deb hisoblashda davom etadilar. Biroq, olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat G‘arbda, balki O‘zbekistonda ham otalar tobora ko‘proq chaqaloqlarni parvarish qilish va ularni tarbiyalashda ishtirok etishmoqda, oilalarda oldingi avlodlar bilmagan hamkorlik paydo bo‘lmoqda. Shunday qilib, oilada otaning funktsiyalari nisbatan tez o‘zgaradi, bolaga nisbatan hissiy munosabatning ikki shaklini - shartli otalik va so‘zsiz qabul qiluvchi onalik mehrini birlashtirgan yangi otalik modeli paydo bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari. Otalik tuyg‘ularining rivojlanishi va ota-ona shaxsining yetuklik darajasi o‘rtasida psixologik bog‘liqlik mavjud. Shuning uchun otalikni kech farzand ko‘rganlar ko‘proq his qilishadi. Aytgancha, yosh onalarga ham xos bo‘lgan "balog‘atga yetmagan" otalarning asosiy psixologik qiyinchiliklari bola bilan muloqot qilishdan zavq va quvonch ololmasligidir. Otalik tuyg‘ularining yetukligi mehribon, qabul qiluvchi ota-ona tarzida ifodalanadi. Bunday otalarda empatiya rivojlangan, ular bolaga g‘amxo‘rlik qilishga moyil bo‘lib, otalik bola hayotining birinchi yillaridayoq ularni butun kuchi bilan egallab oladi. Voyaga yetgan otalarning otalik mehrini tavsiflab, aytishimiz mumkinki, ular o‘qitish, o‘zlariga o‘tish, bolani eng yuqori madaniy ma’noda merosxo‘r qilish, ya’ni kelajakka o‘zlari ega bo‘lgan eng yaxshi narsalarni berish zarurligini his qiladilar. Bu otalar yosh va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot qilishda samaraliroq. Bola bilan muloqotda chinakam erkaklik fazilatlari yetuk bo'ladi - himoya qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ichki energiya va kuchga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyat kuchayadi.Otalik tuyg‘ulari yoki otaning oiladagi o‘rni etarli darajada ifodalanmasa nima bo‘ladi, bu bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir qiladi?Psixologlar otalikdan mahrum bo'lish holatlarini o‘rganib chiqdilar, bu yerda ota, garchi jismonan mavjud bo‘lsa ham, faol emas yoki ta’lim nuqtai nazaridan buzilgan. Bunday oilalarda odatda rollarning inversiyasi mavjud - bu yerda qattiq hokimiyat ko‘pincha ona tomonidan ifodalanadi. Onaning hukmronligi va otaning begonalashuvi natijasida bolaning ota-ona modellari bilan ijobiy identifikatsiyasi buziladi.Oddiy sharoitlarda ota bolaning jinsi o‘ziga xosligiga sezilarli ta’sir ko'rsatadi. O‘g‘il uchun, allaqachon erta yoshda, u o‘ziga xos namunadir va shuning uchun uning gender kimligini shakllantirishga ta'sir qiladi. Otalar o‘g‘illarida erkaklik xususiyatlarining shakllanishiga kam ta’sir qiladi. Ota bilan muloqot tajribasining yetarli emasligi o‘g‘il va yigitda otalik tuyg‘ularining shakllanishini susaytiradi va ko‘pincha o‘z farzandlarining kelajakdagi tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. E. Fromm nuqtai nazaridan, onalik muhabbati bilan solishtirganda, otalik sevgisi, bola olishi kerak bo‘lgan "talabkor" va shartli sevgidir[1].

A.Adlerning fikricha, tarbiyada otaning roli ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi faoliyatdan iborat. Agar ona bolaga insoniy mehr-muhabbatning yaqinligini his qilish imkoniyatini bersa, ota bolaga insoniyat jamiyatiga yo‘l ochib beradi. Ota bolalar uchun dunyo, mehnat, texnologiya haqidagi bilim manbai bo‘lib, ijtimoiy foydali maqsad va ideallarni, kasbiy yo‘nalishni shakllantirishga hissa qo‘shadi. A.Adler ta’kidlaganidek: “Ona g‘amxo‘rligi qabul qilish imkoniyatini beradi, otalik g‘amxo‘rligi esa berishni rag‘batlantiradi. Har ikkisi ham shaxs rivojlanishi uchun zarurdir”[2].

Margaret Rodholmning tadqiqotida otalarga chaqaloqlar bilan qariyb 15 daqiqa muloqot qilish imkoniyati berildi, bu vaqt davomida ulardan chaqaloqni ushlab turish, chaqaloq bilan gaplashish, yangi tug‘ilgan chaqaloqning boshi, qo‘llari va oyoqlarini silash so‘ralgan. Psixiatr R. Kempbellning ta’kidlashicha, otaning qiz bolaning jinsi o‘ziga xosligiga ta’siri o‘smirlik davrida eng katta ahamiyatga ega. Qizning gender o‘ziga xosligi uning o‘zini ayol jinsining munosib vakili sifatida ma’qullashidir. Aynan shu yoshda, 13-15 yoshda, u kelajakdagi ayol sifatidagi ahamiyatini, asosan, otasidan tan olishi kerak. Ota qizining xatti-harakatlari, qobiliyatlari va tashqi ko‘rinishini ma’qullash orqali uning o‘zini ijobiy baholashiga yordam beradi. Otasiz o‘sgan qizlar, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning haqiqiy modeli yo‘qligi sababli, erkaklarga nisbatan haqiqiy bo‘lmagan munosabatni rivojlantirishi mumkin. Hissiy rivojlanish sohasida otalik yetakchiligining yo‘qligi yoki zaifligi va o‘g‘il bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar o‘rtasida bog‘liqlik aniqlandi. Boshqalarga nisbatan haddan tashqari dushmanlik ularda hayotning birinchi yillarida onaga haddan tashqari qaramlikka qarshi isyon sifatida paydo bo‘ladi. Shunday qilib, tajovuzkorlik insonning "men" ni izlash ifodasidir.Onalariga haddan tashqari bog‘langan o‘g‘il bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin[4].

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, otaning roli farzand tarbiyasida alohida ahamiyatga ega.Shu bois zamonaviy ota- har tamonlama farzandini qo‘llab-quvvatlaydigan,uni hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam beradigan inson sifatida qarashimiz mumkin.

1. Ona hayotning birinchi kunlaridan boshlab otaga bola bilan muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etishi kerak.Ota chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilishda ishtirok etishi mumkin: taglikni almashtirish, cho‘milishga yordam berish, sayr qilish, shishadan ovqatlantirish va hokazo. Shu bilan birga, harakatlaringizga bolaga qaratilgan mehrli so‘zlar, tabassum bilan hamroh bo‘lish foydalidir.

2. O‘yin ota va o‘sib borayotgan bolaning o‘zaro munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Onalardan farqli o‘laroq, otalar baquvvat, oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘yinlar bilan shug‘ullanishadi, ular bolalarga ayniqsa yoqadi. Ona ota bilan o‘ynash ona bilan o‘ynashga o‘xshamaydi, deb bunday o‘yinlarni taqiqlamasligi kerak.

3. Otalar bolalari bilan ko‘proq jamoat joylarida, masalan, hayvonot bog‘i yoki istirohat bog‘ida muloqot qilishadi. Ota va bola o‘rtasida bunday qo‘shma yurishlarni tashkil qilish foydalidir.

4. Kichkina farzandlari bilan tez-tez muloqot qiladigan otalar bola dunyosida muhim shaxslarga aylanadi. Avvalo, ular bola amal qila boshlagan xatti-harakatlar modeliga aylanadi. Ota o‘z farzandi bilan qanchalik ko‘p muloqot va muloqotda bo‘lsa, bolaning aqliy rivojlanishi uchun shunchalik yaxshi bo‘ladi.

5. Bolaga g‘amxo‘rlik qilayotgan kattalar uning xatti-harakatlarini ma’lum chegaralarda saqlashga harakat qilishlari kerak. Ba’zan ota-onalar farzandining xatti-harakatlarini nazorat qilish uning ijodkorligi va mustaqilligiga halaqit beradi deb o‘ylashadi va shuning uchun ular bolaning o‘zi xohlagan narsani qilishini bemalol kuzatib turishadi. Boshqa ota-onalar, kichik bola kattalar kabi, hamma narsada ongli ravishda o‘zini tutishi kerakligiga amin. Ular bolaning xatti-harakatlarini nazorat qiladi va cheklaydi va unga mustaqillik bermaydi. Ota-onalar tomonidan berilgan har qanday ko‘rsatmalar sog‘lom fikrdan tashqariga chiqmasligi va bolalarning xavfsizlik, mustaqillik va ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olishi kerak.

6. Bolalarga oqilona talablar qo‘ying va ularning bajarilishini talab qiling, bolaga undan nima kutilayotganini tushuntiring va izchil bo‘ling. Sa’y-harakatlar nomaqbul xatti-harakatlarni yo‘q qilishdan ko‘ra, kerakli xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerak.

7. Bolalar xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun keraksiz kuch ishlatish va tahdidlardan saqlaning. Ulardan foydalanish bolalarda xuddi shunday xatti-harakatni shakllantiradi va ularning fe’l-atvorida yomon niyat, shafqatsizlik va o‘rlik kabi noxush xususiyatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

8. Tanbeh va taqiqlarni juda ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Tanbehlar va taqiqlar yumshoq va muloyimlik bilan ifodalanishi kerak, ular faqat individual harakatlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin; Shunday qilib, siz "yomonsiz" demasligingiz kerak, balki "yomon ish qildingiz". Har qanday harakatni taqiqlash yoki tanbeh qilishdan keyin bolaga ijobiy o‘rnak ko‘rsatish kerak.

9. Farzandingizni muvaffaqiyatlari uchun maqtang. Farzandingiz biror narsa qila olmasa, unga qiyinchiliklarni engishga yordam bering, uni qo‘llab-quvvatlang va muvaffaqiyatga erishing. Muvaffaqiyatsiz harakatlar uchun maqtash kerak emas. Bu o‘z-o‘zini hurmat qilishni buzishi mumkin. Bolalarning yutuqlarini baholash erishilgan natijaga adekvat bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Фромм, Э. О неповиновении и другие эссе: АСТ: Астрель; Москва; 2012
2. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии – М., 1995.
3. Margaretha Rödholm.The behavior of human male adults at their first contact with a newborn vailable online 14 September 2005.
4. Росс Кэмпбелл.Как любить своего подростка: АСТ: Астрель; Москва; 2011

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:37.1174

Gulbaxor ISHMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n
Email:gulbaxorishmuradova@qmail.com
Elnur MIRZAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Qarshi davlat universiteti professori N.Oripova taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR IMPROVING THE CONSTRUCTIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

Annotation

This article will talk about improving constructive competencies, which are important in the activities of teachers of future technological education. To do this, the concepts of competence and competence are analyzed by the content of definitions given by researchers and the content of design and design competencies and ways to improve them are indicated.

Key words: Competencies, competence, technology, logic, graphics, design competencies.

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ КОНСТРУКТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье речь пойдет о совершенствовании конструктивных компетенций, имеющих важное значение в деятельности будущих педагогов технологического образования. Для этого анализируется содержание определений, данных исследователями понятиям компетенции и компетентности, а также указывается содержание проектных и конструкторских компетенций и пути их совершенствования.

Ключевые слова: Компетенции, компетентность, технологии, логика, графика, конструкторские компетенции.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KONSTRUKTIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotasiya

Mazkur maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konstruktiv kompetensiyalarni takomillashtirish haqida so‘z boradi. Buning uchun kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga ilmiy-tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta’riflar mazmuni tahlil qilib berilgan hamda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarining mazmuni va ularni takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kommpetensiya, kompetentlik, texnologiya, loyihalash, grafik, konstruktorlik kompetensiya.

Kirish. Keyingi yillarda ta’limni isloh qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida Oliy ta’lim tizimi muassasalarida bakalavrlar tayyorlash tizimida o‘zgarishlar kiritildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash to‘rt yildan uch yilga qisqartirildi. Kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalaming malakaviy amaliyot o’tkazish tartibiga ham o’zgartirishlar qilindi. Bunda 4+2 tartibdagi rnalakaviy amaliyoti 3-6 semesflarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va 2 kuni amaliy shaklda umumiy va o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkaziladi.

Texnologik ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlashning malaka talablarida ta’lim samaradorligini ta’minlashda pedagogik vazifa sivatida quyidagilar belgilangan: dars maqsadlariga ko‘ra o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to‘g‘ri rejalashtirish, ta’lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra darsni tashkit yetish va ta’lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o‘quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o‘qitishning faol usullaridan foydalanish, o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, o‘quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil yetish, o’z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalaridan foydalanish, o‘quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, o‘quvchilarni mustaqil ishlash imkoniyatini yaratish, darsda rnotivatsiyaga yerishish, sinfda samarali muloqotga yerishish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisidan yangi dars loyihalarini ishlab chiqish uchun konstruktorlik kompetensiyalar talab yetiladi.

XIX-asrda mutaxassislarning malakasini tahlil qilish, ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, uning integral va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslanishi kerak. Ijtimoiy rivojlanish dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, insonning kasbiy faoliyati uning kasbiy mavqeyining butun davri uchun oldindan belgilanmagan va uning kasbiy mahoratini uzluksiz va doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot davomida muammo bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish asosida dunyoda sodir bo‘layotgan doimiy o‘zgarishlar bilan shartlangan va “kattalarning muvaffaqiyati”ga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan kompetensiyaning muhim belgilari aniqlandi:

1. Kompetensiya muayyan aniq bir sohadagi fanga oid bilim va ko‘nikmalar bilan birlashtirilgan va umumlashtirilgan malakalarning faoliyatga asoslangan xususiyatiga yega.

2. Kompetensiya muayyan vaziyatda o‘zini adekvat baholash asosida tanlov qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Agar biz kasbiy tayyorgarlikni kasbiy rivojlanish jarayoni, kelajakdagi kasbiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirish deb tushunsak, unda kompetensiyali mutaxassis kelajakka qaraydi, o‘zgarishlarni kutadi va kelajakka qaratilgan deb aytishimiz mumkin [1].

Ta’limni modernizatsiya qilish ta’lim mazmunini yangilashning yeng muhim konseptual yo‘nalishlaridan biri sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, jahon ta’lim amaliyotiga murojaat qilib, “asosiy kompetensiyalar” tushunchasi markaziy, o‘ziga xos “tugun” toifasi sifatida ishlaydi, chunki u

integrativ xususiyatga yega, bilim, mahorat va ta’limning intellektual tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, modernizatsiya strategiyasi “natijadan” (“chiqish standarti”) shakllangan ta’lim mazmuni uchun asos bo‘lgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Shu bilan birga, ta’lim mazmunini yangilash uchun asosiy (asosiy) bo‘lgan kompetensiyalar ko‘rib chiqiladi. Kompetensiya yondashuvi muammosi bo‘yicha xorijiy va mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda “kompetenlik” va “kompetensiya” tushunchalarini aniq tavsiflovchi yagona talqin mavjud yemas, shuningdek ularning asosiy konstruksiyalarining umumiy qabul qilingan ta’riflari mavjud yemas, ular asosiy ko‘nikmalar, kompetensiyalar, asosiy malakalar, asosiy ko‘nikmalardir. Biz pedagogik tezaurusga kompetensiya paradigmasi (kompetenlik, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuvi) tomonidan kiritilgan tushunchalar bo‘yicha mutaxassislarning fikrlarining qutblanishini kuzatamiz.

Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks yetadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini aks yettira olishi zarur? mazmundagi savollarga N. A. Muslimov o‘z tadqiqotlari natijasida quyidagicha ta’rif bergan: “Kompetentlik” (ingl. “competence” –“qobiliyat”) –faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon yeta olishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning yegallanishini yemas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. MDX mamlakatlari psixologiya va pedagogika fanida kompetension yondashuv muammolari V. I. Baydenko, G. I. Ibragimov, V. A. Kalney, A. M. Novikov, YYE. L. Kogan, V. V. Laptev, YYE. A. Lenskaya, I. D. Frumin, B. D. Yyelkonin, V. A. Bolotov, V. V. asarlarida ko‘rib chiqilgan. Serikov, N. Xomskiy, R. J. Ravenna, N. V. Kuzmina, A. K. Markova, V. N. Kunitsina, I. A. Zimnaya, D. A. Ivanov, V. G. Belitskiy, G. S. Selevko, Y.G. Tatura, A. V. Xutorskiy, N. A. Grishanova, O. YE. Lebedeva, T. N. Lobanova va boshqalarning ilmiy-tadqiqoi ishlarida tahlil qilingan unda yyetakchi g‘oya umumlashtirilgan bilim, ko‘nikma va faoliyat usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Ular “kompetenlik” va “kompetensiya”tushunchalarini farqlaydilar.

Kompetensiya yondashuvi L.S.Vigotskogo, A.N.Leontyyeva, D.B.Yelkonina, P.Y.Galperinaning nazariy tushunchalariga asoslanadi. Galperin va boshqalar, bu ta’lim va tarbiya jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlarini, ontogenetik yoshga bog‘liq shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim faoliyatining tuzilishini ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Kompetentlik -bu ma’lum bir sohada muvaffaqiyat qozonish uchun bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni qo‘llash qobiliyati. Kompetensiya-bu umuman yoki ma’lum bir faoliyat sohasidagi mutaxassisning professionallik tizimini tashkil yetuvchi shakllangan kompetensiyalar to‘plami [2]. Kompetensiyalar:

1) maqsadlarni belgilashning yangi turi;

2) kompetensiyalar ta’limning maqsadi va natijasi sifatida;

3)“talabalarga yo‘naltirilgan” ta’limga o‘tish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv jarayonida biz talabalarni hayotda faol bo‘lishga o‘rgatishimiz kerak.

Bizga ma’lumki, kompetensiyalar - bu shaxsning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlari, ishni samarali bajarish va yuqori natijalarga yerishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir[3].

N. V. Kuzminaning fikricha, pedagogik faoliyat beshta komponentni o‘z ichiga oladi: gnostik, bu pedagogik tizimning qonuniyatlari va mexanizmlari to‘g‘risida yangi bilimlarni to‘plash va olish muammosini hal qiladi; loyihalash-o‘qitiladigan kursning maqsadlari va ularga yerishish yo‘llarini loyihalash bilan bog‘liq; konstruktorlik- shu jumladan kurs mazmunini tanlash va kompozitsion qurish bo‘yicha harakatlar., darslarni o‘tkazish shakllari va usullari; tashkiliy- rejalashtirilganlarni amalga oshirish vazifasini hal qilish; kommunikativ- shu jumladan pedagogik jarayonning predmeti va obyyekti o‘rtasida pedagogik jihatdan tegishli munosabatlarni o‘rnatish bilan bog‘liq harakatlar [4].

Biz o’z tahlillarimizda bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilaridan ttalab qilinadigan loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarga ko’proq yetibor beramiz. Loyihalash - kompetensiyasi ko‘nikmalarni nazarda tutadi, uning mohiyati kasbiy faoliyat talablarini hisobga olgan holda o‘quv kursining aniq maqsadlarini shakllantirishdan iborat; belgilangan maqsadlarni hisobga olgan holda o‘quv kursini rejalashtirish; aqliy harakatlarning shakllanish bosqichlarini hisobga olgan holda; ushbu kursni o‘zlashtirishda talabalarning mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarini oldindan bilish va ularni bartaraf yetish yo‘llari; muvaffaqiyatli mahorat bilim, ko‘nikma va malakalarga hissa qo‘shadigan tinglovchilarning yeng oqilona faoliyat turlarini aniqlash; talabalarning o‘z faoliyatiga munosabati va ularni tuzatish qobiliyatini hisobga olgan holda; kursning fanlararo aloqalarini o‘rnatish; kurs davomida illyustrativ materialni tanlash; o‘rganishga tabaqalashtirilgan yondashuvda ko’rinadi.

Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarini tayyorlashda konstruktiv kompetensiya quyidagilardan iborat: axborot mazmunini tarkibini tanlash va rivojlantirish; ushbu ma’lumotni o‘rganish mumkin bo‘lgan talabalar faoliyatini loyihalash; talabalar bilan samarali hamkorlik qilish uchun o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini loyihalashdir. Shu munosabat bilan o‘qituvchi quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak: bitta dars uchun materialni tanlash; undagi asosiy tushunchalar va mazmunni aniqlash; darsda faktik va nazariy o‘quv materialining to‘g‘ri muvozanatini topish., darslarning bir bosqichidan ikkinchisiga mantiqiy o‘tishni rejalashtirish; nazariy materialni oddiydan murakkabgacha tartibga solish; belgilangan maqsadlar asosida vazifalar tizimini tanlash va ishlab chiqish; maqsadlariga qarab oqilona dars tuzilishini tanlash; mustaqil ish uchun vazifalarni ishlab chiqish.

Konstruktiv kompetensiya deyilganda talabaning yoshi va individual qobiliyatlari bilan bog‘liq holdda o‘quv materiallarini loyihalash, tanlash va to‘plash imkoniyati tushuniladi. Konstruktiv pedagogik kompetensiyaning funksional ahamiyati shundaki, uning shakllanishi texnologiya o‘qituvchisining turli vaziyatlarni oqilona baholash, vujudga keladigan muammolarni konstruktiv hal qilish, pedagogik maqsad va vazifalarni belgilash, talaba shaxsining pozitsiyasini ko‘rish ko‘nikmalarini yegallashini nazarda tutadi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining konstruktiv kompetensiyasini rivojlantirishda Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o’rni kattadir. Mazkur fanni o’rganish jarayonida quyidagi yelementlar: sxemalar, chizmalar, jadvallar, multimedia taqdimotlari va fanni o‘zlashtirish jarayonida foydalaniladigan multimedia texnologiyalari muhim ahamiyatga yega. Multimedia talabalar tomonidan turli ilmiy loyihalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi talabalarning kompetensiya tizimini sifat jihatidan takomillashtirish va ular orasida zarur grafik madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini belgilaydi. Agar o‘quv jarayoni turli xil chizmalar ko‘rinishidagi grafik ma’lumotlarning o‘zgaruvchan o‘zgarishiga asoslangan bo‘lsa, talabalarning dastlabki grafik mashg‘ulotlariga alohida ahamiyat beriladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar berilgan chizma va jadvallar, rasm orqali grafik tuzilmani tushunishadi, muayyan qonunlar va qoidalarga muvofiq obyyektning kattaligi va fazoviy joylashuviga muvofiq qat’iy ravishda amalga oshiriladi. Bo‘yalgan obyyektning shakli va o‘lchamlarini aniq takrorlash kerak. Grafika qonunlarini bilish talabalarga texnik ijodkorlikning asosi bo‘lgan fazoviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi [5].

Konstruksiyalash darslarida talabalarda mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur, badiiy did va nozik vosita mahorati rivojlanadi. Konstruksiyalash samarali faoliyatdir, chunki u ma’lum bir mahsulotni olishga qaratilgan. Qurilishning ikki turi mavjud: texnik va badiiy. Konstruktiv pedagogik kompetensiyalar rejalashtirilgan yakuniy natijaga yerishish uchun darsni, uchrashuvni, mashg‘ulotni makon va zamonda qanday tashkil yetishga alohida psixologik yondashuvni talab yetadi: qayyerdan boshlash kerak, qanday vazifalar tizimini ishlab chiqish kerak, ularni amalga oshirishni qanday tashkil qilish va o‘tkazish kerak. Konstruktiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida turli xil vazifalar: psixologik, kognitiv faoliyat rivojlantiriladi. Shu bilan

fazilatlar va qiziqish rivojlantiriladi, mazmunli, qiziqarli o‘quv materiali osongina va doimiy ravishda o‘zlashtiriladi.

Texnologiya darslarida buyumni konstruksiyalash -bu ma’lum bir maqsadga yega bo‘lgan har xil turdagi mahsulotlarni yaratish jarayoni. Konstruksiyalash jarayonida turli xil grafik tasvirlar, 3D modellar va texnik hisob-kitoblardan iborat bo‘lishi mumkin bo‘lgan mahsulot loyihasi tuziladi.

Talabalarga konstruktiv kompetensiyalarni o‘rgatishning ba’zi usullari quyidagicha: o‘qituvchining qurilish texnikasini namoyish qilishi; namunani namoyish qilishi; vazifani tushuntirish; shaxsiy qurilish texnikasini ko‘rsatish; berilgan mavzu bo‘yicha qurilish va h.k.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida konstruktorlik kompetensiyalarni takomillashtirish ikki yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi:

-birinchi yo‘nalish bevosita darsni tashkil qilish va o‘tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda mashg‘ulotning orginal tuzilmasini ishlab chiqish;

-ikkinchi yo‘nalish yangi buyumlarni konstruksiyalarini ishlab chiqishdagi faoliyatini takomillashtirish orqali yerishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Компетентностный подход в педагогическом образовании: коллективная монография / под ред. В.А. Козырева, проф. Н.Ф. Радионовой и проф. А.П. Тряпицыной. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. – 392 с.
2. Муслимов Н.А. Муслимов Н.А., Усманбаева М, Сайфуров Д, Тўраев Д. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. –Т.: ПКҚТМО,2015.
3. Ishmuradova G. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda kompetentsiyalarning ta’rifi va ularning turlari . O’zMU xabarlari 2024 y.4 1/5/1 123-126 bet.
4. Кузьмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. – Л., 1985.
5. Зимняя, И.А. Педагогическая психология. / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2000. С. 68-75..
6. Лобанова Т.Н. Построение модели ключевых компетенций // Стратегия управления персоналом. – 2002. – № 11.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:378:37.013.75

Gulayim KALIQNAZAROVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulayim-2025@gmail.com

Qoraqalpoq davlat universiteti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent G.A.Aldjanova taqrizi asosida

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING AND THEIR CHARACTERISTICS

Annotation

This article analyzes modern pedagogical technologies in teaching by the teacher during the lesson and their features, and discusses the significant aspects and effectiveness of applying a number of pedagogical technologies in the lesson.

Key words: Pedagogical technology, creative, creative activity, universal specialist, Pitch-show technology, Quiz technology, Collaborative technology, Design technology, Information and communication technology, concept justification, critical thinking.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье проанализированы современные педагогические технологии в обучении учителя в процессе урока и их особенности, а также обсуждаются значимые аспекты и эффективность применения ряда педагогических технологий в процессе урока.

Ключевые слова: Педагогическая технология, креативная, творческая активность, универсальный специалист, технология Pitch-show, технология Quiz, технология сотрудничества, технология проектирования, информационно-коммуникационная технология, обоснование концепции, критическое мышление.

O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dars jarayonida o‘qituvchining o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning hususiyatlari tahlil qilangan va bir qator pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llanishning ahamiyatli jihatlari, samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, kreativ, ijodiy faollik, universal mutahassis, Pitch-shau texnologiyasi, Quiz texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, axborot kommunikatsiya texnologiyasi, tushunchani asoslash, tanqidiy fikrlash.

Kirish. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ va ijodiy faolligini oshirish, dars jarayonida vaqtdan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning reproduktiv faoliyati ulushini kamaytirish imkonini beruvchi pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanib ta’lim sifatini oshirish imkoniyati kengaytiriladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o‘z nutqlaridan birida «Bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi va doimo izlanishda bo‘lishi zarur» [1] deb kelajak avlodlarni bilim va ko‘nikmalar bilan to‘yintirishda, jahon andozalariga mos keluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni izlash, topish va milliy qadiriyatlarimizga moslashtirilgan xolda takomillashtirish zarurligini nazarda tutib, yuksak ishonch bildirganligini alohida ta’kidlash joiz bo‘ladi.

Bunda jahon ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarining keng doirasi mavjud. Sababi, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va bir-birini taqozo etadi. Bularning barchasi o‘quvchilarga bilim berishda ochiqlik, halollik, o‘zaro ishonch va bir-biriga o‘zaro yordam kabi milliy qadriyatlarimizni ongiga siңdirish orqali ma’naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilganligi xarakterli hisoblanadi. Shuningdek o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashuvchan ta’lim ehtiyojlarini ta’minlovchi muayyan didaktik tizim tashkil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barchaga ma’lum "Pedagogik texnologiya" tushunchasi fanga XX asrning 60 yillarida kirib kelgan va o‘qitishda dasturlashtirilgan o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq degan tushunchalar shakllangan edi. 1970-yillarda mazkur tushuncha kengroq talqin qilinib, o‘quv jarayonini takomillashtirishga oid turli fikrlar bilan ta’rif berila boshladi va bu orqali pedagogik texnologiya nazariyalari kengayib boshladi.

Jumladan T.N.Ballo «Pedagogik texnologiya»ni o‘qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondashuv sifatida baholagan bo‘lsa, P.Mitchel «Pedagogik texnologiya barcha jihatlariga ko‘ra o‘ziga xos va samarali natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog‘liq, ta’lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog‘idir» [2]-deb bildirgan fikrlarini manbalarda ko‘rishimiz mumkin. Bizningcha pedagogik texnologiyalar – o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishida ko‘makdosh bo‘la oladigan va ma’lumotlarni esta saqlab amaliyotda qo‘llanish imkoniyatinii kengaytiradigan o‘qitish usullari to‘plami hisoblanadi.

Bu esa ta’lim jarayonida quyidagi ta’lim maslalarni hal qilishga sharoit yaratadi va turtki bo‘ladi. Jumladan, o‘quv mashg‘ulotlarining mazmunini yoritish; o‘quvchilarning shaxsiy fikrlarini yuzaga chiqarish; o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi do‘stlik munosabatlarini shakllantirish orqali faoliyat ko‘nikmalarini takomillashtirish; o‘quvchilar shaxsiy fikri va pozitsiyalarini himoya qila olishi; kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘zaro muloqot madaniyatini takomillashtirish [3] va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu boistan bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o‘ziga xos jihatlari haqidagi mavjud g‘oyalarga va pedagogik bilimlarga tayangan xolda bir necha pedagogik texnologiyalarni tahlil qilishga harakat qildik.

Pitch-shou texnologiyasi – qandayda bir muammoning nostandart yechimini qisqacha taqdim etish texnologiyasi hisoblanadi. Masalan, o‘qituvchi texnologiya darslarida predmetning tuzilishi va shakli bo‘yicha muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi [4]. O‘quvchining javobi qisqa, aniq, asosli bo‘lishi, nima uchun uning fikri boshqalardan yaxshiroq ekanligini va o‘z fikrlarini dalillar orqali asoslab berishi kerak bo‘ladi.

Quiz – texnologiyasi - Kviz (inglizcha quiz) –musobaqa, so‘rov, test degan ma’noni bildirib, o‘quvchilar bilimini sinash va bilimlarini baholash maqsadida qo‘llaniladi. Quiz texnologiyasi savol-javob va test savollari bilan o‘zaro bog‘liqlikka ega. Masalan test - bu qisqa muddatli o‘yin shaklida o‘tkaziladi, unda ishtirokchilar ma’lum bir fanni emas, balki har qanday fan

sohasini teran o‘rganish va tushunishga qaratilgan savollarga javob berib bellashadi. Test murakkab fan bo‘yicha bilimlarini tekshirish va mustahkamlashga qaratilgan nazariy va amaliy savollarni o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun ham Quiz texnologiyasi orqali o‘quvchilar orasida ma’lum bir mavzu bo‘yicha yoki turli geografik savollar bilan raqobat muhitini yaratish mumkin [5]. Ulardan ta’lim jarayonida foydalanishda, mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlardan so‘ng, mazkur material bo‘yicha bellashuv o‘tkazish samarali hisoblanadi.

Hamkorlik texnologiyasi - jahon pedagogikasida an’anaviy metodlarni qo‘llashda muvaffaqiyatli muqobil omil sifatida qaralmoqda. Mazkur texnologiyadagi faoliyatga izlanish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning har tomonlama hamkorligi faoliyat usullari inobatga olinadi. Ushbu texnologiyaning asosiy g‘oyasi turli o‘quv jarayonlarida o‘quvchilarning faol hamkorlikdagi faoliyati uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ta’limni tashkil etish variantlarining katta bloki hisoblangan hamkorlik texnologiyasining maqsadi o‘zaro muloqot o‘rnatishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, matnni abzaslar bo‘yicha o‘qish, matematik masalalarni yechish, mavzular bo‘yicha krossvord tuzish, ma’lum bir turdagi muammolarning yechimini topishda tayanch sxemalarni tayyorlash, yangi mavzu bo‘yicha savollarga javob tayyorlash va boshqalar uzluksiz topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiradi.

Loyihalash texnologiyasi - bu muammoni vaziatni batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usuli hisoblanadi va aniq amaliy natija talab etiladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy elementlaridan biri loyiha munozarasi bo‘lib, ma’lum bir mavzu bo‘yicha loyiha tayyorlanishi va o‘quvchilar tomonidan pozitsiyalar himoya qilishiga asoslanadi [6].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va undan foydalanish manfaatlari yo‘lida bilimni o‘zlashtirish maqsadida birlashtirilgan usullar va ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar majmuidir [3].

Ushbu texnologiyani qo‘llashda ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadiga erishishga, ta’lim sifatini yaxshilashga, axborot makoniga yo‘naltirilgan, zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan xabardor va axborot madaniyatiga ega shaxsning uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga, shuningdek, mazkur tajribani taqdim etish bilan birgalikda uning samaradorligini aniqlashga ham yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi – o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish vazifasini qo‘yib, muammolarni tahlil qilish, baholash, aniqlash va muammo yechimini topish imkoniyatini beradi [2]. O‘qitishda muammoli ta’limni shakllantirishning bir turi sifatida qaralishi mumkin. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga interfaol jalb qilish orqali kreativ fikrlashini rivojlantirishni ta’minlashdan iborat.

Masalan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida matematika darslarida “To‘g‘ri va noto‘g‘ri fikrlar” yoki “Siz ishonasizmi” usuli aytish o‘rinli bo‘ladi. Bu matematika mashg‘ulotlarining boshlanishi bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan «to‘g‘ri tasdiqlar»ni tanlab, berilgan topshiriqni tavsiflaydi. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, bergan javoblarini asoslab berishlari kerak bo‘ladi.

Masalan, To‘g‘ri to‘rtburchak shaklini ko‘rsatamiz va uni o‘quvchilar og‘zaki ta’riflab, tushunchasini tasniflab berishlari kerak.

To‘g‘ri to‘rtburchak to‘g‘ri burchakka ega bo‘lgan to‘rtburchakga aytiladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning qo‘shni tomonlari uning uzunligi va kengligi bo‘ladi.

Perimetr to‘g‘ri to‘rtburchak tomonlarining ko‘paytmasi hisoblanadi.

Diagonal to‘g‘ri to‘rtburchakning ikki uchini birlashtiruvchi kesishmaga aytiladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi uning barcha tomonlarining ko‘paytmasiga teng bo‘ladi va boshqalar.

O‘quvchilar bu kabi tushunchalarini aytganda matematik hisoblar orqali fikrlarini dalillashi lozim.

«Klaster tuzish» texnologiyasi – o‘quv materialini chizmalar yoki rasm ko‘rinishida taqdim etish usuli bo‘lib, bunda matn mazmunan birliklarga ajratiladi. Klaster tuzish qoidalari juda oddiy hisoblanib, quyosh tizimining modeli asnosida yulduzlar, sayyoralar va ularning yo‘ldoshlari chiziladi [7]. Kuyosh va uning atrofidagi sayyoralarni kalit so‘zlar sifatida qo‘llaniladi va to‘g‘ri chiziq orqali yulduzlar bilan tutashtiramiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash joi klaster tuzish tizimi katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bundan chaqiriq bosqichida ham, refleksiya bosqichida ham foydalansa bo‘ladi. Bu degani mavzuni o‘rganishdan oldin fikrlashga undovchi va ma’lumotlarni tizimlashtirishda qulay bo‘lishi mumkin. O‘qitishning maqsadi asnosida o‘quvchilarning individual, kognitiv ijodkorligi natijasi muhokama o‘zaro muhokama qilinadi.

TRIZ texnologiyasi (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) mohiyati muammoning nostandart va optimal yechimini kam kuch sarflab topishdan iborat. Texnologiyaning asosiy maqsadi g‘oya va moslashuvchan fikrlashni takomillashtirish, muammolarning yechimini samarali usullar bilan hal qilishga tayyorlash va ijodkor shaxsni shakllantirishdan iborat.

Barcha o‘quv mashg‘ulotlari va o‘yinlar o‘quvchilarning mavzuga oid manbalar va kognitiv ijodiy faoliyatni turini mustaqil tanlash hususiyatlarini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar muammoning kelib chiqish xususiyatlarini terang anglashi, aniqlashi va hal qilishga oid g‘oyalarini ilgari surish talab yetiladi. Masalan, kundalik hayotda foydalanish mumkin bo‘lgan bir qator TRIZ-texnologiyalariga asoslangan misollar [8]. Jumladan, bolg‘a bo‘lmasa, mixni nima bilan qoqish mumkin? Uyda elektr toki o‘chib qolsa, qanday qilib televizor qo‘rish mumkin? Internetga kirish imkoni bo‘lmasa, undan qanday foydalanish mumkin? va boshqalar.

Triz texnologiyasi asosida o‘qitishni tashkil qilish tizimlari ma’lum qonun-qoidalar asosida rivojlanib takomillashib boradi va ixtirochilik muammolarini hal qilish algoritmi (ARIZ) ni yaratish uchun foydalanish mumkin degan tushunchaga asoslanadi. Shunday qilib, o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi va ularni tavsiflovchi asosiy omil bu o‘quv jarayonining noodatiy asoslari, ta’lim maqsadlarni qo‘yishning o‘ziga xos hususiyatlari bo‘lib, ular o‘quvchilardagi kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatining taxminiy natijasi asosida belgilangan aniq ko‘nikmalar bilan shakllantiriladi.

Tahlil va natijalar. O‘yin texnologiyalari – bu mavzuni o‘zlashtirishda turli pedagogik o‘yinlar shaklida dars jarayonini tashkil etish usullari va metodlari bo‘lib, o‘quvchilarning bilish va o‘zlashtirish faolligini orttiradi, o‘zlarida paydo bo‘lgan mavzuga oid savollarga mustaqil ravishda javob izlashga undaydi, hayotiy tajribasidan ma’lum bir ma’lumot haqidagi odatiy tasavvurlaridan foydalanishga imkon beradi [4]. Ushbu texnologiya didaktik, rolli va ishbilarmonlik o‘yin turlari mavjud.

Didaktik o‘yinlarga o‘yin mashqlari, sayohat o‘yinlari va musobaqa o‘yinlari kiradi.

O‘yin-mashqlar - o‘quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirib, o‘quv materialini mustahkamlashga yordam beradi va turli sharoitlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi [5]. O‘yin-mashqlariga krossvordlar, rebuslar, bellashuvlar kiradi.

Sayohat o‘yinlari - o‘quv materialini tushunish va mustahkamlash, o‘quvchilarning faolligini orttirish hikoya, munozara, ijodiy topshiriqlar, farazlarni ifodalash shaklida ko‘rinishi mumkin.

Musobaqa o‘yinlariga didaktik o‘yinlarning barcha turlari kiradi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib o‘zaro musobaqalashadi.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilardagi amaliy faoliyat ko‘nikmalariga o‘rgatishning samarali usuli hisoblanadi. Bunda yangi mavzuni o‘zlashtirishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, shuningdek, bilim ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kompleks vazifalarni bajarishda qo‘llaniladi.

Ushbu rolli o‘yinda o‘quvchilarga o‘z qaxramoni rolini o‘ynab sinab ko‘rish yoki ma’lum bir muammoli vaziyatni roli orqali yuzaga keltirish imkoniyati taklif etiladi. Bu kabi metodikani qo‘llanish uchun o‘xshash nomlardan foydalansa bo‘ladi. Shuningdek rolli o‘yinlar tanqidiy fikrlash

ko‘nikmalarini, muloqot madaniyati ko‘nikmalarini, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini takomillashtirishga, turli hil vaziyatlarda o‘zini tutish usullarini ishlab chiqishda, atrofidagi odamlarning holatini, fikrini tushunishi qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi [9]. Ishbilarmonlik o‘yini - bu o‘yin texnologiyalarining keng ko‘lamli takomillashgan turi bo‘lib, sinf o‘quvchilarning samarali birgalikdagi faoliyatini, ishbilarmonlik muloqotini, intellektual raqobati bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar. O‘quv-mashg‘ulot jarayonini hayotiy vaziyatga moslashtirib, ijtimoiy muhitda talab qilinadigan jamoada faoliyat yuritish, o‘zaro hamkorlik, shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish kabi ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda ishbilarmonlik o‘yini samarali hisoblanadi [10]. Qolaberdi mazkur o‘yinni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilarni jamiyatda mustaqil hayotga tayyorlashning muhim omili vazifasini bajaradi.

O‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va uni tavsiflovchi asosiy komponent dars jarayonining pedagogik maqsadlarni qo‘yish orqali foydalaniladigan o‘ziga xos usuli bo‘lib xizmat qiladi. Bu maqsadlar o‘quvchilar faoliyatining natijasini tahmin qilishda aniq ko‘nikmalar shaklida ifodalanadi. Har bir o‘qituvchi faoliyati davomida to‘plagan pedagogik tajribasidan kelib chiqqan xolda pedagogik texnologiyalarni ijodiy yondashuvlar asosida takomillashtirishi zarur deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning «O‘qituvchi va murabbiylar» kuniga bag‘ishlab yo‘llagan tabrigi. 28.09.2019. president.uz
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent. - 2006. /15-бет./
3. Ibraimov Kh. I. Creativity is one of the characteristics of a budushchego pedagogue //Science, education and culture. – 2018. – no. 3 (27). - S. 44-46.
4. Pazilov M.A. “Pedagogical-psychological approaches to the development of musical abilities of specialized schoolchildren” // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. Volume – 2. Issue – 5. May – Portugal, 2023. /page 31/
5. Запорожская К.В. «Применение современных педагогических технологий в обучении» Современные педагогические технологии и инновации: сборник статей областных педагогических чтений. Омск, 25 октября 2023 г. – Омск: БПОУ «ОПК №1», 2023. – 170 с. /стр 34-35/
6. Сайгушева Л.И., Стряпухина И.С. Игровые технологии как средство приобщения младших дошкольников к самообслуживанию //Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 7-2. – С. 39-41;
7. Веденеева О. А, Савва Л.И, Сайгушев Н.Я. «Педагогические технологии в современном образовательном процессе». Учебное пособие- М.: Мир науки, 2016. /Стр 22, 60/
8. Олешков М.Ю. «Педагогическая технология: проблема классификации и реализации //Профессионально-педагогические технологии в теории и практике обучения: Сборник научных трудов. — Екатеринбург: РГППУ, 2005. — /с. 4-19/.
9. Гузеев В.В. Методы и организационные формы обучения. – М., 2009.
10. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении. – М., 2017

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 378.048.2

Salamatdin KASIMOV,
Nukus davlat pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi
E-mail: salamatdinkasimov82@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti E.Kalandarov taqrizi asosida

TALABALARNING FIZIKADAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar uchun fizika bo‘yicha mustaqil ishni tashkil etishning metodologik, tashkiliy, psixologik jihatlari, shuningdek motivatsiya muammolari ko‘rib chiqilgan. Mustaqil ishning nazariy materialni chuqur o‘zlashtirish va talabalar praktika ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ish, motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, loyihaga asoslangan o‘qish, metodologik muammolar, tashkiliy muammolar, psixologik qulaylik, interdisiplinar vazifalar.

ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПО ФИЗИКЕ.

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы организации самостоятельной работы студентов по физике, включая методологические, организационные, психологические аспекты, а также вопросы мотивации. Основное внимание уделяется важности самостоятельной работы для углубленного освоения теоретического материала и развития практических навыков у студентов.

Ключевые слова: Самостоятельная работа, мотивация, инновационные технологии, проектная деятельность, методологические проблемы, организационные проблемы, психологический комфорт, междисциплинарные задачи.

PROBLEMS OF ORGANIZING STUDENT INDEPENDENT WORK IN PHYSICS.

Annotation

This article discusses the problems of organizing students' independent work in physics, including methodological, organizational, psychological aspects, and motivation issues. The focus is on the importance of independent work for deep mastering of theoretical material and developing practical skills.

Key words: Independent work, motivation, innovative technologies, project-based learning, methodological problems, organizational problems, psychological comfort, interdisciplinary tasks.

Kirish. Talabalarning mustaqil ishlari (TMI) ularning kognitiv, analitik va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariyani chuqurroq tushunish va amaliy bilimlarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarur bo‘lgan fizika kabi sohalarda ishning bu shakli alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar nafaqat nazariy materiallarni o‘zlashtirishi, balki bu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi muhim bo‘lib, bunga mustaqil ishlarni tashkil etish orqali erishiladi.

Talabalarning mustaqil ishi - bu talabalarning bilimlarni olish, o‘zlashtirish va takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, zarur kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish maqsadida turli xil topshiriqlarni bajarish bo‘yicha har tomonlama faoliyatidir. Ma’lumki, inson xotirasida o‘zi mustaqil bajaradigan ishlarning taxminan 90 foizi, ko‘rganlarining 50 foizi va eshitganlarining atigi 10 foizi saqlanadi. Shuning uchun TMIga o‘quv jarayonining sifat tavsifi sifatida qarash kerak [1].

Biroq, o‘zining muhimligiga qaramay, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin bo‘lgan bir qator muammolarga duch keladi [5-7]. Ushbu muammolar metodologik, tashkiliy, psixologik va texnik jihatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu borada talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etish muammolari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishning dolzarbligi yuqori bo‘lib, uni hal etishda kompleks yondashuvni taqozo etadi [8].

Talabalarning fizikadan mustaqil ishlari nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish vositasi, balki axborot bilan ishlash, tahliliy fikrlash, o‘z-o‘zini tashkillashtirish va nazorat qilish kabi sifatlarni shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Biroq, mustaqil ishning ahamiyatiga qaramay, ko‘plab hollarda talabalar yetarli motivatsiyaga ega emasligi, o‘qituvchilarning yangi texnologiya va usullarga tayyor emasligi hamda vazifalarni to‘liq bajarish uchun vaqt yetishmasligi kuzatiladi. Bu omillar o‘quv jarayonining yakuniy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqola fizika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalar va o‘qituvchilar duch keladigan muammolar tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida metodik xarakterdagi muammolar hamda o‘quv jarayonining psixologik va tashkiliy jihatlari bilan bog‘liq umumiy masalalar ko‘rib chiqiladi. Ishning birinchi qismida talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning ehtimoliy sabablari tahlil qilinadi. Maqolaning ikkinchi qismida esa aniqlangan muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv, jumladan yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘qitishga yondashuvlarni o‘zgartirish va mustaqil ish natijalarini baholash taklif etiladi. Yakunda, tadqiqot natijalari umumlashtirilib, talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Asosiy qismi. Maqolaning asosiy qismi talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etishda yuzaga keladigan muammolarning batafsil tahliliga hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflarga bag‘ishlanadi.

Uslubiy xarakterdagi muammolar. Fizikadan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o‘qituvchilar duch keladigan asosiy muammolardan biri bu jarayonni samarali amalga oshirishni ta’minlashga qodir bo‘lgan aniq tuzilgan metodikalar va tavsiyalarning mavjud emasligidir. Fizikani o‘qitish, ayniqsa, birinchi kurslarda, asosan, standart masalalarni yechish va nazariy ma’ruzalar kabi an’anaviy usullarga asoslanadi, bu har doim ham zamonaviy ta’lim talablari va ta’lim standartlariga javob bermaydi. Ko‘pincha talabalarga beriladigan topshiriqlar chuqur tahlil va kreativ yondashuvga imkon bermaydigan darsliklardan olingan namunaviy misollardir.

Ushbu muammolarni hal qilishning bir necha turlarini ko‘rib chiqamiz.

Nazariya va amaliyot integratsiyasi.

Uslubiy muammolarni hal qilish yondashuvlaridan biri bu nazariya va amaliyotning yanada yaqin integratsiyasidir. Talabalar ko‘pincha fizikani nazariy o‘rganishdan uni amalda qo‘llashga o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa motivatsiyaning pastligi va fanga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Amaliy ish va ilmiy loyihalarda ishtirok etish talabalarga fizik qonuniyatlarning real jarayonlarda qanday namoyon bo‘lishini va ulardan aniq muammolarni hal qilishda qanday foydalanish mumkinligini amaliy tushunishga imkon yaratadi. Fizik jarayonlarni modellashtirish yoki qurilmalarning prototiplarini yaratish kabi loyihalar nafaqat nazariy tayyorgarlikni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham talab qiladi, bu esa ijodkorlik va muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarga real tajriba ma’lumotlari bilan mustaqil ishlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatini beruvchi laboratoriya ishlarini olib borish muhimdir. Bu nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ilmiy uskunalar bilan ishlash ko‘nikmalarini va eksperimental ma’lumotlarni talqin qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta’limda innovatsion usullar.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirishda ta’lim texnologiyalarining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Fizik masalalarni yechish uchun raqamli platformalar, interaktiv simulyatorlar va dasturiy ta’minotlardan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bunday texnologiyalar talabalarga nafaqat nazariy jihatlarni o‘rganish, balki real vaqt rejimida natijalarni kuzatish orqali muammolarni hal qilishda mashq qilish imkonini beradi, bu esa materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Masalan, talabalar fizik tajribalarni modellashtirishlari mumkin bo‘lgan virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali nazariy tushunchalarni tasavvur qilishlari va odatiy sharoitlarda bajarish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan tajribalarni o‘tkazishlari mumkin. Bunday vositalar ularga qulay sharoitda ishlash, parametrlar bilan tajriba o‘tkazish, gipotezalarni sinab ko‘rish va natijalarni kuzatish imkoniyatini beradi, bu esa ularning jalb etilishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Elektron kurslar va onlayn platformalar mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z vaqtini va o‘quv jarayonini boshqarish, topshiriqlar bo‘yicha tezkor fikr-mulohazalar olishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga har bir ta’lim oluvchiga individual yondashuvni ta’minlab, rivojlanishni nazorat qilish va zarurat tug‘ilganda tez aralashish imkonini beradi.

Talabalarning motivatsiyasini oshirish.

Fizika o‘qituvchilarining duch keladigan eng dolzarb muammolaridan biri – talabalarning mustaqil ishlashga bo‘lgan motivatsiyasining pastligi hisoblanadi. Ayniqsa, ko‘plab talabalar nazariy bilimlar bilan ularni amaliyotda qo‘llash o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni sezmaydilar. Natijada, fizika o‘rganish jarayonida talabalar ko‘pincha real hayotdan uzilib qolgan, mavhum vazifalar va masalalarga duch kelishadi, bu esa ularning o‘quv jarayonini o‘rganilayotgan materialda ma’no topolmasdan, mexanik yodlash va formal topshiriqlarni bajarish shaklida qabul qilishiga olib keladi.

Motivatsiya mustaqil ish muvaffaqiyatining asosiy omili hisoblanadi, chunki u o‘quv jarayonini harakatlantiradi. Agar talabalar o‘z sa’y-harakatlaridan real foyda ko‘rmasa, fanga bo‘lgan qiziqish, ish sifati va ta’lim natijalari pasayadi. Talabalar ko‘pincha fizikani murakkab formulalar va nazariyalar majmuasi sifatida qabul qilib, fanni chuqur tushunishga intilish kamayadi.

Talabalarning mustaqil ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun tashkiliy va metodik o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv zarur. O‘quv jarayonini real vazifalar bilan bog‘lash va loyihaviy faoliyat elementlarini integratsiyalash orqali, talabalarni kelajakdagi kasbiy hayotga yanada maqsadli tayyorlash mumkin.

Tashkiliy muammolar. Tashkiliy darajada talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etishda eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri talabalarning ortiqcha yuklanishidir. Zamonaviy ta’lim muassasalarida dasturlar ko‘pincha nazariy materiallar bilan to‘lib ketgan, bu esa mustaqil ishlash va fanni chuqur o‘zlashtirish uchun kam vaqt qoldiradi. Bu, ayniqsa, materialni sifatli o‘zlashtirish uchun nafaqat nazariy asoslarni tushunish, balki bu bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rganish kerak bo‘lgan fizikada yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq, ortiqcha akademik yuklama tufayli talabalar ko‘plab nazariy masalalarga e’tibor berishga majbur bo‘lsalar-da, masalalarni yechish, misollarni tahlil qilish va fanning amaliy jihatlarini o‘rganish uchun vaqt cheklanganligicha qolmoqda.

Talabalarning ortiqcha yuklanishi stress va mahsuldorlikning pasayishiga sabab bo‘lib, ayniqsa imtihonlar va kurslarni yakunlash davrida sezilarli bo‘ladi. Bu holatda, material va ko‘nikmalarni chuqur o‘rganish o‘rniga, ular vazifalarni shunchaki bajarishga majbur bo‘ladilar, natijada bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi kamayadi. Bundan tashqari, bunday yondashuv charchoq va fanga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin.

Mustaqil ishni rejalashtirish va tashkil etish.

Yana bir muhim tashkiliy muammo mustaqil ishning aniq tuzilmasi va rejalashtirilishining mavjud emasligidir. Mustaqil ishlarni to‘g‘ri tashkil etmasdan talabalar ko‘pincha ustuvorliklarni belgilashda qiyinchiliklarga duch keladilar, vaqtni yetarlicha samarali taqsimlamaydilar va o‘quv jarayonining eng muhim va qiyin jihatlariga e’tibor bera olmaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ish sifati va material o‘zlashtirishining pasayishiga olib keladi.

Birinchi kurs talabalar ko‘pincha nazariyani o‘rganish, masalalarni yechish va laboratoriya ishlarini bajarish o‘rtasida vaqtni qanday to‘g‘ri taqsimlash haqida aniq tasavvurga ega emaslar. Bu talabaning materialning muhim bo‘limlarini yakunlay olmasligi yoki murakkabroq masalalarni hal qila olmaslik holatiga olib kelishi mumkin, bu ularning yakuniy natijalariga ta’sir qiladi.

Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari ko‘pincha maqsadlar va natijalarga aniq yo‘naltirilmaganligi bilan bog‘liq. Talabalar o‘qituvchilardan oladigan topshiriqlar har doim ham yetarlicha batafsil yoki aniq bo‘lmasligi mumkin, bu ularning motivatsiyasini pasaytiradi va ularni bajarishda muvaffaqiyatga erishishni qiyinlashtiradi. Aniq tizim va qanday natijaga erishish kerakligini tushunmasdan turib, talabalar o‘z ishlarini qanday qilib yaxshiroq tashkil etishni bilmasligi mumkin.

Tashkiliy xarakterdagi muammolarni hal etish.

Ushbu muammolarni samarali hal etish uchun o‘quv dasturlarining mutanosibligini ta’minlash va talabalarni mustaqil ishlash jarayonida qo‘llab-quvvatlash uchun o‘quv jarayonini tashkil etishga o‘zgartirishlar kiritish zarur.

1. Mustaqil ishni aniq rejalashtirishni joriy etish: O‘qituvchilar talabalarga mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha aniqroq tavsiyalar berishlari kerak. Talabalar qanday vazifalar ular uchun eng muhimligini va ularni muvaffaqiyatli hal qilish uchun nima qilish kerakligini tushunishlari kerak.

2. Individual yondashuvda talabalarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va maqsadlari hisobga olinadi. Barcha talabalar bir xil bilimga ega emasligi sababli, mustaqil ish moslashuvchan yondashuvni talab qiladi: chuqur o‘rganmoqchi bo‘lganlarga qo‘shimcha topshiriqlar, qiyinchiliklarga duch kelganlarga esa yengillashtirilgan topshiriqlar taklif etilishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonining qiziqishi va mahsuldorligini oshiradi.

3. Ishni tashkil etish uchun texnologiyalardan foydalanish: Mustaqil ishni tashkil etish va nazorat qilish uchun raqamli platformalar va onlayn tizimlarni joriy etish bu jarayonni sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. Bunday texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar talabalarning taraqqiyotini kuzatish, ularga topshiriqlar berish, shuningdek, ishni bajarish bo‘yicha fikr-mulohazalarni olishlari mumkin. Bu nafaqat ish jarayonlarini optimallashtirish, balki talabalarning o‘quv jarayoniga jalb qilish darajasini oshirish imkonini beradi.

Psixologik muammolar. Talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etishning psixologik jihatlari ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha talabalar kuchli stress va xavotirga duch kelishadi, ayniqsa, agar ular o‘z bilim va ko‘nikmalariga ishonmasalar, bu ularning o‘quv faolligi va muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday muammolar, ayniqsa, fizika kabi murakkab fanlarni o‘rganishda keskinlashadi, chunki birinchi kurslarda material ko‘pincha idrok qilish uchun murakkab va chuqur tahliliy ishlarni talab qiladi.

Psixologik muammolarning asosiy sabablaridan biri o‘z bilimlariga ishonchsizlikdir. Nazariy materialni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladigan talabalar ko‘pincha fizikani muvaffaqiyatli o‘rganish qobiliyatiga shubha qila boshlaydilar. Vazifalarning murakkabligi va ularni hal qilishda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish xavotirlanishni shakllantiradi va motivatsiyani pasaytiradi. Muammolar, shuningdek, o‘qituvchilarning yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamasligi va teskari aloqaning yetishmasligi tufayli ham yuzaga keladi.

Bu, o‘z navbatida, to‘laqonli o‘quv jarayoniga to‘sqinlik qiladi, motivatsiyani pasaytiradi va erishilgan natijalardan qoniqmaslik hissini kuchaytiradi.

Bu muammolarni hal etishda quyidagilarga e’tibor qaratishimiz lozim:

O‘ziga ishonchni rivojlantirish.

Muvaffaqiyatli ta’limning eng muhim omillaridan biri talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishdir. O‘z kuchiga ishongan talabalar stress va xavotirga kamroq duchor bo‘ladilar, murakkab topshiriqlarni osonroq qabul qiladilar va ta’limda yanada muvaffaqiyatli bo‘ladilar. Buning uchun o‘qituvchilar talabalarning kayfiyati bilan faol ishlashi, ularga ishonchsizlik va qiyinchiliklardan qo‘rqishni yengishga yordam berishi kerak.

Masalan, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash uchun talabalarga amaliy topshiriqlarni berish foydali bo‘lib, ular talabalarga murakkablikni asta-sekin oshirishga yordam beradi. Vazifalar murakkabligining asta-sekin o‘sishi talabalarga taraqqiyotni his qilish imkonini beradi, bu esa ularning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

Guruhda ishlash va qo‘llab-quvvatlash.

Psixologik stressni kamaytirishning samarali usuli – guruh bo‘lib ishlash. Kichik guruhlardagi talabalar bilim va tajriba almashib, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni his qiladilar, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Hamkasblarning yordami nostandart yechimlarni topish va fizikada masalalarni turli jihatdan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Stress, xavotir va ishonchsizlik talabalar uchun jiddiy to‘siq bo‘lib, ularni yengish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, rag‘batlantirish va fikr-mulohaza taqdim etish zarur. Psixologik qulaylik stressni kamaytirib, motivatsiya va o‘quv natijalarini yaxshilaydi. Talabaning psixoemotsional holatini inobatga olmasdan samarali ta’limni ta’minlash mumkin emas.

Xulosa. Talabalarning fizikadan mustaqil ishlarini tashkil etish ta’lim jarayonining muhim elementi bo‘lib, u e’tiborli yondashuvni va ko‘plab muammolarni hal qilishni talab qiladi. Tahlillar davomida biz uslubiy qiyinchiliklar, talabalarning motivatsiyasining pastligi, tashkiliy va psixologik jihatlari kabi bir nechta asosiy muammolarni aniqladik. Ushbu muammolarning har biri o‘ziga xos yondashuv va yechish strategiyasini talab qiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishni takomillashtirishning eng muhim qadamlari fanlararo vazifalarni joriy etish, loyiha faoliyati orqali talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘quv jarayonini tashkil etishni takomillashtirish, shuningdek, axborot texnologiyalaridan faol foydalanishdir. Talabalarni nafaqat zarur resurslar va bilimlar bilan ta’minlash, balki ularni yanada rivojlantirish va fizikani chuqur o‘zlashtirishga rag‘batlantiradigan muhitni yaratish muhimdir.

Ushbu muammolarni hal qilish o‘qituvchilar, talabalar va ta’lim muassasalaridan muvofiqlashtirilgan harakatlar va o‘zgarishlarga tayyorlikni talab qiladi. Mustaqil ishning puxta tashkil etilgan jarayoni talabalarga nafaqat materialni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi, bu esa oliy ta’limning eng muhim maqsadi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Голенков Андрей Васильевич. "Пути совершенствования самостоятельной работы студентов-медиков в вузе" Вестник Чувашского университета, no. 1, 2006, С. 306-315.
2. Жураковский В., Сазонова З., Чечеткина Н., Ткачева Т., Курбатов С. Управление самостоятельной работой: Мировой опыт // Высшее образование в России. 2003. №2. С. 45-49.,
3. Плотникова О., Суханова В. Самостоятельная работа студентов: деятельностный аспект // Высшее образование в России. 2005. №1. С. 178-179. 13.
4. Рубаник А., Большакова Г., Тельных Н. Самостоятельная работа студентов // Высшее образование в России. 2005. №6. С. 120-124.
5. Хакунова Ф. П. Проблема организации самостоятельной работы студентов и школьников на современном этапе образования //Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. – 2012. – №. 1. – С. 153-158.
6. Харьков Е. И., Давыдов Е. Л. Проблемы организации самостоятельной работы студентов //Инновационные педагогические технологии в медицинском образовании. – 2010. – С. 386-388.
7. Терин Д. В., Клинаев Ю. В., Монахова О. А. Проблемы организации самостоятельной работы студентов в рамках преподавания естественно-научных дисциплин в техническом вузе //Инженерное образование. – 2012. – №. 11. – С. 133-135.
8. Антонова Дарья Андреевна, Оспенникова Елена Васильевна. "Организация самостоятельной работы студентов педагогического вуза в условиях применения технологии продуктивного обучения" Педагогическое образование в России, no. 10, 2016, С. 43-52.
9. Истомина Л.С.. «Самостоятельная работа студентов по дисциплине «Теория и методика обучения физике» как средство подготовки к проектированию учебного процесса по предмету» Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании, no. 7, 2011, С. 70-74.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 631.53.04:633.511

Nasiba MAVLANOVA,
TTA Urganch filiali akademik litseyi o‘qituvchisi
E-mail: ismoil_nur84@mail.ru

UrDU professori, p.f.d M.Xajiyeva taqrizi asosida

THE ROLE OF CRITICAL THINKING IN MODERN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Annotation

The article is dedicated to the historical and scientific establishment of the concept of critical thinking, the desire to deeply study the possibilities of human thinking, the process of cognition, independent reasoning. In recent years, the concept of critical thinking has been enriched by studies in the fields of cognitive psychology, neuroscience and pedagogy. Today, the methods of developing critical thinking in the educational system are gradually being perfected and integrated with various innovative methods, including neuropedagogical technologies.

Key words: Greece, Socrates, Aflatun and Aristotle, Phorobius, Ibn Sino and Imam Ghazli, Cognitive activity, analysis, synthesis, evaluation, reflection.

МЕСТО КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

Статья посвящена историко-научному становлению понятия критического мышления, стремлению глубже изучить возможности человеческого мышления, процесс познания, самостоятельного рассуждения. В последние годы концепция критического мышления обогатилась исследованиями в области когнитивной психологии, нейронауки и педагогики. Сегодня методы развития критического мышления в системе образования постепенно совершенствуются и интегрируются с различными инновационными методами, в том числе и с нейропедагогическими технологиями.

Ключевые слова: Греция, Сукрот, Афлатун и Аристотель, Форобий, Ибн Сино и Имам Газлий, Познавательная деятельность, анализ, синтез, оценка, размышление.

TANQIDIY FIKRLASHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasining tarixiy-ilmiy shakllanishi, inson tafakkuri, bilish jarayoni va mustaqil mulohaza yuritish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga intilishiga bag‘ishlangan. Tanqidiy fikrlash tushunchasi keyingi yillarda kognitiv psixologiya, neyrobilim va pedagogika sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyib bordi. Bugungi kunda ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari tobora takomillashib, turli innovatsion usullar, jumladan, neyropedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: Yunoniston, Suqrot, Aflotun va Aristotel, Forobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy, Kognitiv faoliyat, analiz, sintez, baholash, mulohaza yuritish.

Kirish.Tanqidiy fikrlash tushunchasining tarixiy-ilmiy shakllanishi ko‘p asrlik falsafiy va pedagogik an’analarga tayanadi. Bu tushunchaga bo‘lgan qiziqish inson tafakkuri, bilish jarayoni va mustaqil mulohaza yuritish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga intilish bilan bog‘lanadi. Tanqidiy fikrlashning ildizlari qadimgi davrlardanoq yuksak bilim manbaasi sifatida qaralgan falsafiy an’analarda namoyon bo‘lgan. Xususan, qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aflotun va Aristotel kabi mutafakkirlar inson tafakkurining mantiqiylik, tahlil va mulohaza qilish qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Suqrotning “Suqrotcha suhbat” usuli tanqidiy fikrlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaralgan. U savol-javob orqali insonlarni mustaqil fikrlashga va o‘z nuqtai nazarini asoslashga o‘rgatishni ma’qullagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘rta asrlarda tanqidiy fikrlash tushunchasi asosan diniy tafakkur bilan bog‘langan bo‘lsa-da, ayrim mutafakkirlar mantiqiy tahlil va dalillarga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga harakat qilganlar. Sharq falsafasida Forobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy inson bilimini shakllantirishda fikrlash tartibi va mantiqiy mulohaza yuritish usullarini muhim deb bilganlar[1].

Uyg‘onish davrida ratsional fikrlash va mantiqiy mulohaza yuritishga bo‘lgan e’tibor yanada ortib, tanqidiy fikrlash konsepsiyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Dekart, Lokk, Russo va Kant kabi G‘arb mutafakkirlari inson tafakkurining mustaqilligi, tajriba va mantiqiy tahlil asosida bilim olish jarayoni borasida o‘z qarashlarini ilgari surganlar. Xususan, I.Kant fikrlash erkinligi va aqliy tanqid inson bilim olish jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bilimni haqiqiy anglash jarayoni faqatgina faktlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish va tushunish asosida shakllanadi[2].

Bugungi davrga kelib tanqidiy fikrlash ta’lim-tarbiya jarayoni vauning mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. XX asrda Jon Dyui ta’limda tanqidiy fikrlashning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan edi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni faqat yodlab olish emas, balki tahlil qilish, mantiqiy mulohaza yuritish va mustaqil qaror qabul qilish orqali egallashlari lozim. Dyui tanqidiy fikrlashni amaliy masalalarni hal qilish vositasi sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlaydi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Mamlakatda ta’lim sifatini baholash va xalqaro reytinglarda ishtirok etish doirasida PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlariga qo‘shilish jarayonlari amalga oshirilmoqda, bu esa o‘quvchilarning tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va argumentatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlari doirasida innovatsion pedagogik metodlar, shu jumladan, kognitiv va neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilayapti. Maktab ta’limi tizimi oldiga qo‘yilgan “2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kiritishga erishish”[4] vazifasi pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim mazmunini shu vazifaga moslab qayta ko‘rib chiqish lozimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va yangi avlod

o‘quvchilarining bilish faoliyatini samarali yo‘naltirish zarurati mavjud. Shu bois, mamlakatda neyropedagogika va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy fikrlash tushunchasi keyingi yillarda kognitiv psixologiya, neyrobilim va pedagogika sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyib bordi. Bugungi kunda ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari tobora takomillashib, turli innovatsion usullar, jumladan, neyropedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu jarayonlar inson ongining murakkabligini, bilish jarayonidagi individual xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi va ta’limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Inson kognitiv faoliyati va tanqidiy fikrlash jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bilish, tushunish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Kognitiv faoliyat insonning atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ular asosida muayyan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu jarayon xotira, diqqat, tafakkur va mulohaza yuritish kabi kognitiv funksiyalarga asoslanadi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kognitiv faoliyatning yuqori bosqichi bo‘lib, ularga ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularni mantiqiy jihatdan baholash va obyektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni “Faol va puxta o‘ylangan refleksiv fikrlash” deb ta’riflaydi va uning mohiyatini shunday izohlaydi: “Biz har qanday g‘oyani shubha bilan qarab, uning asosliligini sinab ko‘rishga intilamiz va shu asosda fikrimizni shakllantiramiz”[3].

Kognitiv faoliyatning asosiy xususiyatlaridan biri ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida yuz beradigan kognitiv mexanizmlardir. Inson miyasi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmaydi, balki ularni turli kognitiv sxemalar orqali shakllantiradi va tushunadi. Bu jarayonda xotira va tajriba muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yangi bilimlar oldingi tajribalar bilan bog‘lanib, mantiqiy tarzda shakllanadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida inson ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning mosligini baholash, dalillar va xulosalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va soxta ma’lumotlarni ajrata olish qobiliyatini ishga soladi. Bu jarayon kognitiv faoliyatning yuqori bosqichi hisoblanib, inson ongidagi turli kognitiv strategiyalarni talab qiladi. I.Kant tanqidiy fikrlash jarayonida aqliy tanqid va mantiqiy tahlilning muhimligini ta’kidlab, “Aql tanqidsiz bilim olganida, u ko‘r, tanqid esa aqlsiz qolganda, u nochor bo‘ladi” deb yozgan[2].

Shuningdek, neyrobilimlar sohasidagi tadqiqotlar inson miyasining tanqidiy fikrlash jarayonida qanday ishlashi haqida yangi bilimlar beradi. Zamanaviy neyropedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, tanqidiy fikrlash jarayonida asosan prefrontal qobiq faoliyat ko‘rsatadi, bu esa xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va refleksiv mulohaza yuritish uchun mas’uldir. Ayniqsa, o‘quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun miyaning ushbu qismini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Sharq va G‘arb pedagogikasida tanqidiy fikrlashga yondashuvlar bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy maqsadi – insonning mustaqil fikrlashi va bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam berishdir. G‘arb pedagogikasida tanqidiy fikrlash ko‘proq mantiqiy tahlil, ratsional yondashuv va empirik usullarga asoslangan bo‘lsa, Sharq pedagogikasida esa tafakkur axloqiy tarbiya bilan uyg‘un holda qaralgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida esa har ikki yondashuv birgalikda qo‘llanilib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish uchun innovatsion usullar bilan boyitilmoqda.

Umuman, o‘quvchilar kognitiv faoliyati tanqidiy fikrlash jarayonining asosiy mexanizmi bo‘lib, ma’lumotlarni anglash, tahlil qilish va mantiqiy baholash imkoniyatini yaratadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchining bilim olish jarayonida faktlarni anglash va shubha bilan yondashish orqali xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan intellektual qobiliyatini namoyon etadi. Bu jarayon nafaqat bilim olish, balki kundalik hayotda ham murakkab masalalarni yechish va oqilona qarorlar qabul qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada keng o‘rganilgan bo‘lib, unga turli tadqiqotchilar tomonidan bir nechat ta’rif berilgan. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni “refleksiv fikrlash” sifatida tavsiflab, uning mohiyatini “Ishonchli va asosli dalillarga tayanib, fikrlarni shubha ostiga qo‘yish va ularni tanqidiy baholash” sifatida ta’riflaydi. Ennis tanqidiy fikrlashni “Fikrlash jarayonini aniq va mantiqiy tahlil qilish, baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish” sifatida izohlaydi[5].

Fasion esa tanqidiy fikrlashni “Insonning xulosa chiqarishda mantiqiy dalillarga tayanishi, obyektiv yondashishi va murakkab masalalarni tahlil qilish qobiliyati” deb ta’riflaydi. Ushbu tariflar tanqidiy fikrlash tushunchasining asosiy konsepsiyalarini ifodalaydi. Ayni paytda ularni mukammal ham deb bo‘lmaydi. Masalan, Dyuining ta’rifida tanqidiy fikrlash jarayonidagi ijodiy yondashuv va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish komponenti kam yoritilgan. Tanqidiy fikrlash faqat mavjud g‘oyalarni baholash emas, balki yangi g‘oyalar ishlab chiqish va mavjud ma’lumotlar asosida xulosa qilish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Ennisning ta’rifida esa tanqidiy fikrlashning ijtimoiy muloqot bilan bog‘liq tomoni hisobga olinmagan. Holbuki, tanqidiy fikrlash nafaqat shaxsiy mulohaza jarayoni, balki muloqot, bahs va fikr almashinuv jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Fasion ta’rifida shaxsning tanqidiy fikrlash jarayonidagi psixologik jihatlari, ya’ni shaxsiy qarashlar, empatiya va subyektiv omillarni hisobga olish masalasi yo‘q. Zero, tanqidiy fikrlash nafaqat mantiqiy tahlil, balki insonning tajribasi, his-tuyg‘ulari va muloqot jarayonini ham qamrab oladi[6].

Umuman, ushu ta’riflar tanqidiy fikrlashning turli jihatlarini yoritadi, biroq ularni mukammal deb bo‘lmaydi. Chunki tanqidiy fikrlash faqat dalillar va tahlildan iborat bo‘lib qolmay, ijodiy yondashuv, ijtimoiy muloqot va shaxsiy tajriba kabi muhim omillarni ham o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, tanqidiy fikrlashni mukammal tushunish uchun uning mantiqiy, ijodiy, muloqot va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Ushbu tariflarga tayangan holda tanqidiy fikrlash tushunchasiga biz quyidagi ta’rifni berishni lozim topdik: tanqidiy fikrlash – bu shaxsning mavjud ma’lumot va g‘oyalarni tahlil qilish, dalillarga tayanib baholash, muloqot jarayonida turli nuqtai nazarlarni obyektiv yondoshuv bilan baholash, ijodiy yondashuv asosida yangi xulosalar ishlab chiqish va shaxsiy qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Tanqidiy fikrlash jarayoni mantiqiy izchillik, tahlil va refleksiya, ijtimoiy muloqot va subyektiv tajribani o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda shakllanadi. Tanqidiy fikrlash insondan shoshma-shoshar qaror chiqarmasdan, ma’lumotlarni turli nuqtai nazarlardan baholashni talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda. Chunki bu ko‘nikma o‘quvchilarga faqatgina bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ularni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan shaxslar murakkab muammolarni hal qilish, turli nuqtai nazarlarni baholash va o‘z nuqtai nazarini dalillar asosida himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli metod va texnologiyalar qo‘llaniladi. Masalan, keys-stadi usuli, debatlar, tadqiqot faoliyati, muammoli ta’lim va kognitiv treninglar bu ko‘nikmani shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy neyropedagogik yondashuvlar esa tanqidiy fikrlash jarayonini kognitiv faollik bilan bog‘lab, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Umuman, tanqidiy fikrlash zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, balki hayotda mustaqil va mantiqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy faollikni oshirish uchun ham zarurdir. Shu boisdan, ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash – inson tafakkurining yuqori bosqichi bo‘lib, bilimlarni tahlil qilish, mantiqiy izchillikda baholash va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini o‘z ichiga oladi. U faqat ma’lumotlarni qabul qilish emas, balki ularni shubha ostiga olish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va

asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Tanqidiy fikrlashning samarali amalga oshishi uchun uning asosiy komponentlari va funksiyalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar shaxsning bilish faoliyatidagi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘lib, tanqidiy yondashuvning to‘laqonli shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning funksiyalari uning ta’lim jarayoni va kundalik hayotdagi ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqotimizda tanqidiy fikrlash jarayonining asosiy kognitiv mexanizmlari aniqlashtirildi. Bizningcha, u quyidagilardan iborat: 1) analiz; 2) sintez; 3) baholash; 4) mulohaza yuritishdir. Tanqidiy fikrlash jarayonining mexanizmlari sifatida ushbu jarayonlar insonning ma’lumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi va ulardan asosli xulosa chiqarishida muhim o‘rin tutadi.

Analiz – bu ma’lumot yoki g‘oyani uning tarkibiy qismlariga ajratish, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash va umumiy mantiqiy tuzilmani anglash jarayonidir. Analiz jarayonida shaxs ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish o‘rniga ularning asoslarini o‘rganadi, dalillarni tekshiradi va yolg‘on yoki noto‘g‘ri manbalarni aniqlashga harakat qiladi. Tanqidiy fikrlashda analiz muhim rol o‘ynaydi, chunki u insonga mavjud bilim va ma’lumotlarni mantiqiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Sintez esa analizdan keyingi bosqich bo‘lib, har xil ma’lumotlar va g‘oyalarni birlashtirib, yangi bilim yoki konsepsiyani shakllantirish jarayonidir. Sintez jarayonida shaxs turli manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘laydi, yangi nuqtai nazarlar ishlab chiqadi va mavjud bilim doiralarini kengaytiradi. Sintez tanqidiy fikrlashning ijodiy tomonini aks ettirib, insonga yangi muammolarni yechishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Baholash jarayoni insonga ma’lumotlarni obyektiv mezonlar asosida tahlil qilish va ularning ishonchliligini aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayonida shaxs dalillarning aniqligi, manbalarning ishonchliligi va faktlarning to‘g‘ri ekanligini tekshiradi. Shu bilan birga, baholash tanqidiy fikrlashning muhim mexanizmi bo‘lib, insonga noto‘g‘ri yoki bir tomonlama ma’lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Baholash jarayonida shaxs o‘z bilimlarini mustahkamlash, yangi nuqtai nazarlarni qabul qilish yoki mavjud fikrlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi.

Mulohaza yuritish jarayoni tanqidiy fikrlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda shaxs o‘z fikrlarini asoslash, dalillar orqali qo‘llab-quvvatlash va xulosalarini oqilona tushuntirishga harakat qiladi. Mulohaza yuritish insonning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynab, uni mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiradi. Mulohaza jarayoni tanqidiy fikrlashni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi va insonning fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi[7].

Demak, analiz, sintez, baholash va mulohaza yuritish jarayonlari tanqidiy fikrlashning asosiy mexanizmlaridir. Ularning har biri ma’lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va yangi bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar inson tafakkurini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirish uchun zarurdir.

Tanqidiy fikrlash muloqot va dalillash madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonning o‘zaro muloqot jarayonida o‘z fikrini asoslash, dalillar orqali himoya qilish va boshqalarning nuqtai nazarini tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Har qanday muloqot jarayonida fikrlar va g‘oyalar o‘zaro baham ko‘riladi, ular asosida turli bahs va munozaralar yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlash aynan shu jarayonlarda insonga mulohazali va dalillarga tayangan tarzda qatnashish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash dalillash madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Dalillash insonning fikrini boshqalarga tushunarli va ishonchli tarzda yetkazish qobiliyatidir. Bu jarayonda inson ma’lumotlarni analiz qiladi, mantiqiy dalillar asosida o‘z fikrini himoya qiladi va qarshi nuqtai nazarlarni baholaydi. Tanqidiy fikrlash dalillash jarayonida subyektiv yondashuvdan qochish, dalillarga tayanish va xulosalarni asoslash imkonini yaratadi. Masalan, Jon Dyui tanqidiy fikrlashni faol refleksiv fikrlash deb ta’riflab, uning muloqot jarayonida shaxsning fikrlarini to‘g‘ri va mantiqiy ifodalashiga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Muloqot jarayonida tanqidiy fikrlash nafaqat o‘z nuqtai nazarini ifoda etish, balki boshqalarning fikrini tahlil qilish va tushunishga ham yordam beradi. Inson boshqa shaxslarning fikrlarini qabul qilish, ularning mantiqiyligi va ishonchliligini baholash orqali o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishi yoki mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon bahs-munozaralarda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash muloqotda hurmat va konstruktiv yondashuvni rivojlantiradi. Har qanday bahs jarayonida shaxslar o‘z fikrini ifoda etishda ehtiroslarga berilmay, dalillarga asoslangan mulohaza yuritishi kerak. Tanqidiy yondashuv haddan tashqari emotsiyalarga berilmasdan, mantiqiy va asosli fikrlashni ta’minlaydi.

Tanqidiy fikrlash jarayoni inson miyasining murakkab neyrofiziologik mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq. Prefrontal qobiq tahlil qilish, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarsa, gippokamp xotirani mustahkamlashda ishtirok etadi. Neyrobilimlar bu jarayonlarni o‘rganish orqali ta’lim metodologiyasini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Saidova Z. Neyropedagogik texnologiyalar // Fan va innovatsiya. 2021. №4. – B.112-119.
2. Kant I. Kritik der reinen Vernunft. – Riga: Johann Friedrich Hartknoch, 1984. – p.356.
3. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co, 1978. – p.125.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasqiqlash to`g`risida”gi 5712-son farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.
5. Ennis R. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – p.12.
6. Facione P. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae: Insight Assessment, 1990. – p.14.
7. Djanxodjayev N. Neyropedagogikada neyron tarmoqlarini rivojlantirish / “Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya” mavzusida respublikada ilmiy-amaliy konferensiyasi. Berdaq nomidagi Qoraqalpog`iston davlat universiteti https://doi.org/10.5281/zenodo.11090547

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:130.2

Alisher MADRAXIMOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti xodimi
E-mail: aliyusufjonovich@gmail.com

NamMQI PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY TARMOQLAR TA’SIRIDAGI MANZARALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, siyosat, ma’naviyat va madaniyatga ta’sirini turli tomondan o‘rganishga harakat qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri natijasida dunyoning geosiyosiy, geomafkuraviy, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy aloqalar va madaniy manzaralari shu bilan bir qatorda axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va global munosabatlarga ta’siridagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoq, geomafkura, geosiyosat, axborot, ma’naviyat, madaniyat, heartland, yoshlar, virtual borliq, dezinformatsiya.

СЦЕНЫ СОВРЕМЕННОГО МИРА ПОД ВЛИЯНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация

Данная статья посвящена многостороннему изучению влияния социальных сетей на общество, политику, духовность и культуру в современном мире. В исследовании анализируется влияние социальных сетей на геополитические, геоидеологические, информационно-коммуникационные, социальные связи и культурные ландшафты мира, а также их роль в распространении информации, формировании общественного мнения и воздействии на глобальные отношения.

Ключевые слова: Социальные сети, геоидеология, геополитика, информация, духовность, культура, хартленд, молодежь, виртуальная реальность, дезинформация.

LANDSCAPES OF THE MODERN WORLD INFLUENCED BY SOCIAL NETWORKS

Annotation

This article undertakes a multifaceted study of the impact of social networks on society, politics, spirituality and culture in the modern world. The research analyses the influence of social networks on the geopolitical, geo-ideological, information communication, social connectivity and cultural landscapes of the world, as well as their role in disseminating information, shaping public opinion and influencing global relations.

Key words: Social networks, geo-ideology, geopolitics, information, spirituality, culture, heartland, youth, virtual reality, disinformation.

Kirish. Zamon va makonlarning o‘zgarishi, taraqqiy etishi natijasida dunyoning turli manzaralari shakllandi va shakllanmoqda. Bu jarayon biologik, geografik, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy va ma’naviy sohalarda o‘ziga xos o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, shu bilan birga, bugungi kunda yangi manzaralar sifatida geomafkuraviy va axborot-kommunikatsion sohalarni ham qamrab olmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bu o‘zgarishlar nafaqat moddiy dunyoda, balki inson ongida va jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy asoslarida chuqur iz qoldirmoqda. Zamonaviy davr, ayniqsa, g‘oyaviy qarama-qarshiliklarning murakkab tus olgan davri sifatida alohida e’tiborga molik. Mafkura poligonlari bugungi kunda yadro poligonlaridan ham kuchliroq ta’sirga ega bo‘lib bormoqda, chunki ular nafaqat davlatlar o‘rtasidagi chegaralarni, balki odamlarning qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok va Telegram kabi platformalar insoniyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini tubdan o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki global tendensiyalarni shakllantiruvchi, jamiyatlarning dunyoqarashini o‘zgartiruvchi va yangi ijtimoiy manzaralar yaratuvchi kuchga aylandi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy dunyo manzaralariga ta’siri ko‘rib chiqiladi va uning asosiy ko‘rinishlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi va insoniyatga ta’sir natijasida XX asrning 80-yillarida jahonning “bipolyar” geosiyosiy tuzilishining inqirozga yuz tutishi hamda taraqqiyotning “ko‘p vektorlik” tendensiyasining yaqqol namoyon bo‘lishi tamoman yangicha geosiyosiy va geomafkuraviy yondashuvlarning paydo bo‘lishi hamda shakllanishiga hamda axborot-kommunikatsion manzarasini taraqqiyotiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, P.Galluaning “Geosiyosat qudrat manbalari” asarida davlatning imkoniyatlari, kuch-qudrati, uning hududi, aholisi, geografik holati, chegaralari va zahiralariga (shu jumladan, eng yangi ommaviy qirg‘in qurollariga ega ekani) bog‘liqligi e’tirof etiladi [1].

Dunyoning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida geomafkura degan tushuncha paydo bo‘ldi. Yana shuni aytish mumkinki, kuchli siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan mafkuralar milliylik qobig‘idan geomafkuraviy jarayonlarni vujudga keltirmoqda. Geomafkura xalqaro munosabatlar nazariyasida nisbatan yangi va endi o‘rganilayotgan tushuncha bo‘lsada, jamiyat taraqqiyotida kuch markazlari tushunchasi paydo bo‘lgan davrda yuzaga keldi. Xalqaro munosabatlarda ishtirok etuvchi faylasuflar, siyosiy arboblar yoki mazkur masalalar bilan shug‘ullanuvchi ko‘pchilik tadqiqotchilar muayyan maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘z qarashlarini ilgari sursada, mulohazalarida geosiyosiy, geoiqtisodiy omillarga kengroq e’tibor qaratishgan. Yurtimiz olimlaridan R.Jumaev va Sh.Yovqochevlar geomafkuraga “Xalqaro munosabatlar nazariyasiga oid kategoriya bo‘lib, u har tomonlama xususiyatlarga hamda muayyan qonuniyatlar va mezonlarga asoslanuvchi geosiyosat va mafko‘ra o‘rtasidagi ham o‘zaro bog‘lanish, ham o‘zaro ta’sir etuvchi amaliy harakatlar yig‘indisidan iboratdir” [2] deya ta’rif beradi.

Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi deganda zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va ularning global miqyosda axborot almashinuviga, ijtimoiy munosabatlarga, iqtisodiyotga va madaniyatga ta’siri tushuniladi. Bu manzara internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va boshqa raqamli vositalar asosida shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, siyosat, iqtisodiyot va madaniyatga ta’sirini falsafiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan mazkur tadqiqot ishi turli tadqiqot

metodlaridan foydalanadi. Adabiyotlar tahlili, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent tahlili hamda real voqealarga asoslangan case study usullari qo‘llaniladi. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlash, global va mahalliy farqlarni ko‘rsatish hamda kelajak tendensiyalarini bashorat qilishni maqsad qiladi.

Natijalar va muhokama. Internet xususan ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishi mafkuraviy, g‘oyaviy, siyosiy ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos jihati sifatida katta mablag‘ talab qilmagan holda yuqori samara berishidadir. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatga turli tuman axborot va ma’lumotlarni tarqatilishi dunyoning an’anaviy falsafiy manzaralari bilan bir qatorda virtual olmada yangicha manzaralari vujudga keltirmoqda.

Shu jihatda uni quyidagi turlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Dunyoning geosiyosiy manzarasi. Geosiyosat nuqtayi nazardan davlat yoki mintaqaning quruqlik yoki dengizga nisbatan qanday geografik hududda joylashganligi muhim sanaladi. Bu fundamental dualizmga asoslanadi. Fundamental dualizm bir-biriga geografik jihatdan mos kelmaydigan tellurokratiya – “quruqlik ustidan hokimiyat” va talassokratiya – “dengizlar ustidan hokimiyat”dan iborat [3]. Demakki, tellurokratiya va talassokratiyani geosiyosatning asosiy qonuniyatlari deb izohlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy o‘rni klassik siyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevroosiyoning ichki kontinental qismi, ya’ni Heartland (ingl. Heartland – dunyoning yuragi), hamda Yevroosiyoning janubi-g‘arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland – ichki yarim oy)ning o‘zaro tutashgan hududida joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo‘lga kiritishni rejalashtirayotgan ko‘plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda [4]. Dunyodagi geosiyosiy jarayonlarning o‘zgarishi va takomili davlatimizga yangi-yangi strategik maqsadlarni belgilashga va uni amalga oshirishga turtki bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni V. “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”ning 5.2-bandida chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi [5].

Ijtimoiy tarmoqlar geosiyosiy jarayonlarda axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir qilishda muhim vositaga aylandi. Uning asosiy jihatlari sifatida quidagi holatlarda namoyon bo‘lmoqda:

– axborot urushi va dezinformatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar orqali soxta yangiliklar va manipulyativ xabarlar tezkor tarqaladi va natijada davlatlar yoki manfatdor kuchlar o‘z geosiyosiy maqsadlari ro‘yobga chiqarish uchun ichki barqarorlikni buzishga intiladi.

– jamoatchilikni safarbar qilish: Mankur jihatni asoslash uchun birgina “Arab bahori” nomi bilan tarixda qolgan voqealarni keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar bu voqealarda odamlarni birlashtirish va siyosiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishdagi kuchini ko‘rsatdi.

– davlatlarning imidji: Ijtimoiy tarmoqlar davlatlarning xalqaro maydondagi obro‘sini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, Twitter (X) yoki boshqa platformalarda tarqalgan ijobiy yoki salbiy tasvirlar bir mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasiga ta’sir qilishi ehtimoli yuqori.

2. Dunyoning geomafkuraviy manzarasi. Bugun duyoda yuz berayotgan voqealar geosiyosatda geomafkura tushunchasini farqlashni talab etmoqda. Shu bilan birgalikda bu ikki tushuncha bir biri bilan o‘zaro bog‘likni kasb etmoqda. Geosiyosatdagi geosiyosiy maydon tushunchasi geomafkuraning milliy-etnik turini anglashga ko‘mak beradi, ya’ni:

– endemik maydon – uzoq vaqtdan beri ma’lum bir milliy jamo tomonidan nazorat qilinib kelinayotgan borliq (masalan, Sharqiy Turkistondagi uyg‘urlar).

– chegaraviy maydon – davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo‘lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo‘ladi (masalan, Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbeklar).

– chorrahaviy yoki tutashgan maydon – qanday milliy jamoalar yashashidan qat’iy nazar, ikki yoki undan ko‘proq davlatlar da’vogar bo‘lgan geosiyosiy maydon (masalan, Turkiya, Eron, Iroq va Suriya hududlarida yashovchi kurdlar).

– hadsiz-hududsiz maydon – bu keng geografik maydon bo‘lib, u yerda istiqomat qilayotgan yuzlab milliy jamoalar turmush tarzi ma’lum bir geosiyosiy kuch yoki millat vakillari tomonidan nazoratga olinishini nazarda tutadi [6]. Umuman olganda geomafkuraviy masalalarni milliy-etnik jihatdan tadqiq etish birmuncha chigal va murakkab ish sanaladi.

Geomafkuraviy jarayonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirish natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda deyish mumkin:

– dunyodagi zo‘ravonlik. Geomafkuraviy maqsadlar natijasida unga manfaatdor bo‘lgan kimsalar tomonidan topilayotgan muammolar turli davlatlarning ichki va tashqi munosabatlarni izdan chiqarmoqda. 2025-yilning bugungi holatiga ko‘ra, dunyoda bir nechta faol qurolli mojarolar mavjud, masalan, Ukraina-Rossiya mojarosi yoki Yaqin Sharqdagi vaziyatlar.

– yetakchilikka intilish. Bu jarayon bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarini qamrab olgan. Unga ko‘ra, muayyan davlatlar o‘z muammolarini hal etish, iqtisodiy farovonlikka erishish uchun qo‘shni davlatlar va o‘zga xalqlarning manfaatlarini hisobga olmayotir. Mazkur jarayon aslida “bo‘lib tashla – hukmronlik qil” illatining hosilasi ekani anglab yetilinmayapti.

– ma’naviy zaiflik. Mazkur hodisa eng tashvishlisidir. Chunki inson ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida dunyoqarash, axloq va faoliyat jihatidan zaiflashib bormoqda. Terrorizm, ekstremizm va “demokratiyani olg‘a siljitish” harakatlari shuning natijasidir. Bu harakatlar milliy birlik, birodarlik va hamkorlikka rahna solmoqda.

– geomafkuraviy beqarorlik. Mazkur tushunchani “mafkuraviy beqarorlik” tushunchasining aynan o‘zi deb atash mumkin. Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri. Mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmagani, doimiy bo‘lmagani, muqim bo‘lmagani kabi ma’nolarni anglatadi.

3. Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi. Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi axborot-texnologiyalari va internetning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. AKT sohasi butun dunyo mamlakatlarining infratuzulmalariga – siyosat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, telekommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, biznes va savdo, infratuzilma va boshqa shu kabi tarmoqlarga kirib bordi. Bu davrda axborotning 2 xususiyatini farqlash lozim, ya’ni ijobiy va salbiy (1-jadval).

1-jadval. Axborotning ijobiy va salbiy jihatlari

№	Sohalar	Ijobiy jihatlar	Salbiy jihatlar
1.	Bilm va ta’lim olish	Ma’lumotlarga tez ega bo‘lsh, onlayn kutubxonalar, ta’lim platformalari, global blim almashinuvi, inklyuziv ta’lim	Ma’lumot sifatiga ishonchsizlik, ta’limdagi tengsizlik, tanqidiy fikrlashning susayishi, mustaqil fikrlashni yo‘qolishi
2.	Aloqa va ijtimoiy munosabatlar	Virtual tez muloqotga kirishish, onlayn jamiyatlar shakllanishi, turli madaniyatlar o‘rtasidagi integratsiyalashuv	Ijtimoiy izolyatsiya, kiberbuling, madaniy eroziya, kiberjinoyatchilik
3.	Iqtisodiyot va biznes	Yangi onlayn bozorlar, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, masofadan ishlash, virtual kriptovalyutalar, ijtimoiy tarmoqlarda reklamalar, shaxsiy biznes	Ishsizlik xavfi, raqobatning kuchayishi, iqtisodiy tengsizlik, maxsulotlarga ishonchsizlik
4.	Ma’naviy va axloqiy soha	Ommaviy xabardorlik, dunyoqarashning kengayishi, hayriya va ehsonlar (Crowdfunding)	Ma’naviy qadriyatlarga tahdid, axloqsiz kontentlar, ma’naviy buzilish, axloqiy nisbiylik
5.	Siyosiy va ijtimoiy ta’sir	Demokratiyaning rivojlanishi, ochiqlik va shaffoflik, ijtimoiy adolat, davlat va jamiyat boshqaruvining elektoronlashuvi	Propaganda va manipulyatsiya, siyosiy noustuvorlik, total nazorat, olomon madaniyatini rivojlanishi

6.	Psixologik va shaxsiylik	O‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodkorlikni rivojlantirish, emotsional qo‘llab-quvvatlash	Ongni ortiqcha yuklash, stres va depressiyalar, ijtimoiy qiyoslash, onlayn qaramlik
7.	Ekologiya va atrof-muhit	Ekologik xabardorlik, texnologik yechimlar, ommaviy faollik	Elektron chiqindilar, energiya iste’moli, ekologik muammolarni yetarlicha yoritmaslik

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, axborotning ta’siri ko‘p qirrali va murakkab. U bir tomondan insonning rivojlanishi, aloqa va global muammolarni hal qilishda ulkan imkoniyatlar yaratsa, boshqa tomondan, noto‘g‘ri yoki mas’uliyatsiz ishlatilsa, jamiyat, ma’naviy qadriyatlar va shaxsiy hayotga jiddiy xavf tug‘diradi.

4. Dunyoning ijtimoiy aloqalar manzarasi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy dunyoda odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy yuzma-yuz muloqot o‘rnini virtual chatlar, videoqo‘ng‘iroqlar va postlar almashinuvi egalladi. Bu jarayon ijobiy jihatlarga ega: masofa va vaqt chegaralarini yo‘qotib, global miqyosda aloqa o‘rnatish imkonini berdi. Masalan, bir O‘zbekiston fuqarosi bir zumda AQSH yoki Yevropadagi do‘sti bilan muloqot qilishi mumkin. Ammo, bu o‘zgarishlar “ijtimoiy yolg‘izlik” kabi yangi muammolarni keltirib chiqardi. Tadqiqotlardan ma’lumki, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazadigan odamlar real hayotda o‘zini ko‘proq yolg‘iz his qiladi [7].

5. Dunyoning madaniy manzarasi. Ijtimoiy tarmoqlar global madaniyatning tarqalishini tezlashtirdi va mahalliy madaniyatlarning o‘ziga xosligiga ta’sir qildi. Masalan, TikTokda virusli raqslar yoki Instagram’da mashhur bo‘lgan moda trendlari yoshlar orasida bir xil madaniy odatlarni shakllantirdi. Bu jarayon global birlashuvni kuchaytirsa-da, milliy o‘ziga xoslik va an’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishi xavfini ham oshiradi. O‘zbekistonda yoshlar orasida G‘arbcha turmush tarzi va iste’molchilik madaniyatining ommalashishi bunga misol bo‘la oladi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kundagi zamonaviy dunyoning manzarasiga etayotgan ta’siri uni tadqiq etishi taqazo etmoqda. Shu o‘rinda xulosa qilib, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu boradagi fikrlariga e’tibor qaratish o‘rinlidir: “Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz. Ijtimoiy tarmoqlarda buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tizimli ish olib borishimiz kerak”[8]. Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda umuman axborotlashuv davrida yoshlarni asrab-avaylash, uning salbiy illatlaridan himoya qishi oldinda turgan eng muhim vazifa ekanligini anglamog‘imiz lozim. Bunday konseptual fikrlar:

– bugungi kunda axborot, yoki axborot almashinuv omilining yetakchi o‘ringa chiqqanligini;

– insoniyat ushbu omilning ta’siriga beparvo bo‘lmasligi lozimligini;

– axborot omilining kuchiga loqaydlik bilan qarash milliy taraqqiyotda zararli oqibatlarni keltirib chiqarishini;

– jahon taraqqiyotidan orqada qolish fuqarolar kelajagiga soya soluvchi tahdid ekanini;

– davlatning bugungi shiddatli taraqqiyoti sharoitida hech kim beparvolik kayfiyatiga berilmasligi, ilgarigi intilish va hushyorlik bugun har qachongidan ham muhim ekanini bildiradi [9].

ADABIYOTLAR

1. Pierre M. Gallois. Géopolitique. Les voies de la puissance. https://www.persee.fr/doc/polit_0032-342x_1991_num_56_1_4025_t1_0318_0000_3
2. Jumayev R., Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDShI, 2018. – B. 218.
3. Дугин А. Основы геополитики. -М.: изд-во “Арктагея”. 1997. -С.15-17.
4. Samadov A.R. Geosiyosat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2021. – B.232.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармони. https://lex.uz/acts/3107036
6. Хўжанов Б.А. Геомафкуравий ўзгаришлар шароитида миллий-этник муносабатлар (Марказий Осиё минтақаси мисолида): сиёс. фан. ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2002. – Б.76-77.
7. Primack B.A., et al. (2017). Social Media Use and Perceived Social Isolation Among Young Adults. American Journal of Preventive Medicine.
8. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati – Gazeta.uz, 2016-yil 7-dekabr. https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech/
9. Ражабов Ҳ.И. Глобаллашув шароитида давлатнинг ахборот сиёсати (Ўзбекистон Республикаси мисолида): сиёс. фан. ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2018. – Б.53-54.
10. Crowdfunding https://www.crowdfunding.com/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

УДК:373.2.

Мадина МАЖИДОВА,
Базовый докторант Национальный университет Узбекистана
E-mail: madinaxon.aa@gmail.com

На основе рецензии PhD, доцента ” Ташкентского международного университета Киме, М.Н.Агзамовой

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NARRATIV KOMPETENTLIKNI O‘RGANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning narrativ kompetentligini ularning kognitiv va nutqiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi sifatida o‘rganish istiqbollari tahlil qilinadi. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi narrativ kompetentlig kreaktiv tafakkur, tasavvur hamda o‘z-o‘zini boshqarish va ishchi xotira kabi ijro etuvchi funksiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tadqiqotda narrativ ko‘nikmalarni diagnostika qilish va shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi, jumladan, bolalar nutqining lingvistik tahlili, o‘yin faoliyatini kuzatish, eksperimental usullar va o‘qituvchilar hamda ota-onalar bilan so‘rovlar o‘tkazish. Narrativ kompetentligini rivojlantirishning samarali strategiyalari, jumladan, syujetli-rolli o‘yinlar, teatrlashtirish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va interaktiv ta’lim dasturlarini integratsiya qilish muhokama qilinadi. Pedagoglar, ota-onalar va zamonaviy raqamli vositalarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvning zarurligiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada keltirilgan xulosalar va tavsiyalar bog‘langan nutqni rivojlantirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar, psixologlar va tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Narrativ kompetentlig, maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish, nutqiy rivojlanish, syujetli-rolli o‘yin, diagnostika, raqamli texnologiyalar, kreaktiv tafakkur.

PERSPEKTIVES ON THE STUDY OF NARRATIVE COMPETENCE IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article explores the research prospects of narrative competence in preschool children as a crucial indicator of their cognitive and speech development. An analysis of contemporary studies reveals that a high level of narrative competence is associated with the development of creative thinking, imagination, and executive functions such as self-regulation and working memory. The study identifies key areas for diagnosing and developing narrative skills, including linguistic analysis of children's speech, observation in play activities, experimental methods, and surveys of teachers and parents. Effective strategies for enhancing narrative competence are examined, including role-playing games, dramatization, the use of digital technologies, and the integration of interactive educational programs. Special attention is given to the necessity of a comprehensive approach that involves the interaction of educators, parents, and modern digital tools. The conclusions and recommendations presented in the article may be valuable for educators, psychologists, and researchers focused on the development of coherent speech in preschool children.

Key words: Narrative competence, preschool age, cognitive development, language development, role-playing games, diagnostics, digital technologies, creative thinking.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ НАРРАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются перспективы исследования нарративной компетентности дошкольников как важного показателя их когнитивного и речевого развития. Анализ современных исследований показывает, что высокий уровень нарративной компетентности связан с развитием креативного мышления, воображения и исполнительных функций, таких как саморегуляция и рабочая память. В работе выделены основные направления диагностики и формирования нарративных навыков, включая лингвистический анализ детской речи, наблюдение в игровой деятельности, экспериментальные методики и анкетирование педагогов и родителей. Рассмотрены эффективные стратегии развития нарративной компетентности, среди которых сюжетно-ролевые игры, театрализация, использование цифровых технологий и интеграция интерактивных образовательных программ. Особое внимание уделено необходимости комплексного подхода, включающего взаимодействие педагогов, родителей и современных цифровых инструментов. Представленные в статье выводы и рекомендации могут быть полезны для педагогов, психологов и исследователей, занимающихся проблемами развития связной речи у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Нарративная компетентность, дошкольный возраст, когнитивное развитие, языковое развитие, сюжетно-ролевая игра, диагностика, цифровые технологии, креативное мышление.

Введение. Дошкольный возраст – это важный период в жизни ребенка, который характеризуется интенсивным когнитивным, социальным и эмоциональным развитием. В этот период закладываются основы речевой деятельности, формируются коммуникативные навыки, развивается воображение, память и мышление. Согласно международным документам, таким как «Всемирный доклад о раннем детстве» ЮНЕСКО (2021) и «Международный стандарт классификации образования» (ISCED-2011), качественное дошкольное образование является критически важным этапом, обеспечивающим успешную адаптацию ребенка к школьному обучению и дальнейшему личностному развитию [15].

Одним из ключевых аспектов развития ребенка в дошкольном возрасте является формирование нарративной компетентности – способности создавать связные, логически организованные рассказы. Нарративная компетентность играет важную роль в когнитивном и языковом развитии, способствуя формированию причинно-следственного мышления, развитию эмпатии и коммуникативных навыков. Исследования показывают, что дети с развитой нарративной компетентностью демонстрируют более высокий уровень социальной адаптации, лучше понимают структуру повествования и успешнее овладевают письменной речью в будущем [13].

Основной задачей развития нарративной компетентности является создание условий для активного использования речи в различных контекстах. В образовательной практике широко применяются методы, направленные на стимулирование речевой активности:

рассказывание историй, пересказы, драматизация, сюжетно-ролевая игра и взаимодействие со взрослыми.

Таким образом, изучение нарративной компетентности в дошкольном возрасте является актуальной задачей современной науки и практики. Оно позволяет не только оценить уровень речевого развития детей, но и определить эффективные стратегии его формирования, что в конечном итоге способствует всестороннему развитию личности ребенка и его успешной адаптации в социуме.

Целью настоящей статьи выступает анализ актуальных исследований в области нарративной компетентности дошкольников, также рассмотрены ключевые аспекты ее диагностики и развития, и предложены перспективные направления дальнейших исследований.

Литературный обзор. Проблема определения нарративной компетентности занимает центральное место в исследованиях детского развития. В научной литературе нарративная компетентность рассматривается как способность ребенка создавать последовательные, логически организованные рассказы, отражающие его когнитивное, языковое и социальное развитие [13]. Однако до сих пор отсутствует единое определение этого понятия. Одни исследователи акцентируют внимание на структуре и когерентности повествования, другие – на умении передавать причинно-следственные связи и эмоциональное содержание, третьи – на развитии коммуникативных и когнитивных навыков, включая способность к рефлексии, интерпретации и адаптации нарратива в зависимости от контекста [5].

Развитие нарративной компетентности связано с когнитивными, социальными и языковыми аспектами. В частности, исследования подтверждают, что дети с более высоким уровнем нарративных навыков обладают лучшей способностью к саморегуляции, демонстрируют развитое воображение и успешно осваивают сложные речевые конструкции [2]. Кроме того, существуют различные подходы к изучению данного феномена, включая анализ спонтанных высказываний, метод пересказа, когнитивное тестирование и наблюдение за игровой деятельностью [7].

Важным направлением исследований является также изучение факторов, влияющих на развитие нарративной компетентности. Одним из наиболее значимых факторов является речевая среда ребенка. Дети, которым предоставляются возможности для активного рассказывания историй и взаимодействия со взрослыми, демонстрируют более высокие результаты в развитии повествовательных навыков [8]. При этом игровые методики, такие как сюжетно-ролевые игры и театрализация, оказывают положительное влияние на формирование связного повествования и понимание логики нарратива [4].

Таким образом, анализ литературы показывает, что нарративная компетентность является многогранным феноменом, включающим когнитивные, языковые и социальные компоненты. Ее развитие зависит от множества факторов, включая среду общения, образовательные методики и индивидуальные особенности ребенка.

Методология исследования. В качестве методов исследования выступил анализ литературы. На основании анализа проведенных исследований можно выделить основные методы, применяемые различными исследователями:

1. Культурно-исторический подход – изучает детские нарративы как средство диагностики творческих способностей, уделяя внимание взаимодействию речи и мышления в процессе повествования [13]. Культурно-исторический подход подчеркивает, что развитие ребенка происходит в процессе взаимодействия с окружающей средой, культурными нормами и социальными практиками. С точки зрения данного подхода, нарративная компетентность формируется в процессе активного общения со взрослыми и сверстниками, посредством совместной деятельности, рассказывания историй, пересказов и драматизации. Важную роль играет использование знаково-символических средств, таких как язык и культурные нарративы, которые опосредуют развитие мышления и речи ребенка [3].

Культурно-исторический подход акцентирует внимание на значимости социальной среды, а также на ведущей роли взрослого в организации образовательного процесса, направленного на развитие нарративных способностей.

2. Диалектический подход – рассматривает нарратив как инструмент развития диалектического мышления, анализируя причинно-следственные связи и логическую целостность детских историй [11]. Диалектический подход рассматривает развитие нарративной компетентности как процесс разрешения противоречий между уровнем актуального и потенциального развития ребенка. В данном контексте, формирование нарративных способностей включает в себя последовательное усложнение речевых конструкций, освоение новых способов организации повествования и переход от ситуативного к контекстуальному мышлению [14].

Диалектический подход позволяет учитывать индивидуальные различия в развитии детей и подчеркивает значимость создания образовательной среды, которая стимулирует активное взаимодействие, экспериментирование с языком и развитие смысловой структуры речи. Он также обращает внимание на внутренние противоречия в развитии речи, возникающие в процессе освоения новых языковых конструкций, и подчеркивает необходимость адаптации образовательных методик в зависимости от уровня развития ребенка.

Таким образом, использование культурно-исторического и диалектического подходов в исследовании нарративной компетентности дошкольников позволяет не только выявить механизмы ее формирования, но и определить эффективные педагогические стратегии для ее развития в условиях дошкольного образования. Применение этих подходов способствует пониманию взаимосвязи между когнитивным и социальным развитием ребенка, а также созданию условий для формирования у дошкольников способности к самостоятельному рассказыванию, анализу повествовательных структур и осмыслению собственного опыта через речь.

Анализ и результаты. В результате выбранных методологических подходов литературный анализ показал, что можно выделить две основные проблемы в изучении нарративной компетентности: проблему диагностики и проблему развития. Для проблемы диагностики выделили следующие направления:

1) лингвистический анализ детской речи – изучение грамматической сложности, частотности употребления различных частей речи, использование временных и причинно-следственных связей в рассказах детей [5];

2) анализ спонтанных нарративов – изучение детских рассказов, создаваемых без предварительных инструкций, что позволяет оценить естественную способность ребенка к построению связного текста [13];

3) экспериментальные методики – использование заданий на пересказ, завершение истории или сочинение рассказов по картинкам с целью выявления уровня развития повествовательных способностей [7];

4) наблюдение в игровой деятельности – анализ повествовательных элементов в спонтанных и структурированных сюжетно-ролевых играх [8];

5) анкетирование педагогов и родителей – оценка уровня нарративных умений ребенка на основе наблюдений значимых взрослых [6];

6) когнитивное тестирование – выявление связи между нарративной компетентностью и другими когнитивными функциями, такими как память, внимание, воображение и регуляция речи [2];

Для проблемы развития выделили следующие направления:

1) интерактивные методы обучения – включение в образовательный процесс пересказов, сочинения историй,

обсуждения литературных произведений для обогащения языкового опыта детей [12];

2) игровые методики – активное использование сюжетно-ролевых игр, театрализации и драматизации как инструментов формирования навыков построения связного повествования [8];

3) обучение педагогов и родителей – разработка рекомендаций и обучающих программ для взрослых, направленных на поддержку нарративного развития детей через диалог, вопросы и совместное рассказывание [2];

4) развитие эмоционального интеллекта через нарратив – использование историй и сказок для формирования у детей способности к эмпатии, рефлексии и пониманию эмоциональных состояний [15];

5) интеграция цифровых технологий – использование интерактивных образовательных платформ, приложений для создания историй, цифровых книг и мультимедийных инструментов для развития связной речи [4];

6) индивидуализация образовательного процесса – учет возрастных и индивидуальных особенностей детей, подбор методов обучения в зависимости от уровня их речевого развития [5];

Выводы и рекомендации. Результаты анализа исследования подтверждают, что нарративная компетентность дошкольников является важным показателем их когнитивного, языкового и коммуникативного развития. Ее высокий уровень способствует формированию креативного мышления, воображения и исполнительных функций, таких как саморегуляция и рабочая память. Разнообразие методологических подходов к изучению данной компетенции включает анализ спонтанных высказываний, экспериментальные задания, лингвистический анализ и наблюдение в игровой деятельности. Для эффективного развития нарративных навыков в дошкольном возрасте необходим комплексный подход, включающий следующие ключевые направления:

1) внедрение образовательных программ, ориентированных на развитие связной речи через рассказывание историй, пересказы и анализ литературных произведений.

2) использование сюжетно-ролевых игр и театрализации как эффективных инструментов формирования нарративных умений, а также развития причинно-следственного мышления и эмоционального интеллекта.

3) интеграция цифровых технологий в образовательный процесс при соблюдении педагогического баланса между интерактивными средствами и живым речевым взаимодействием.

4) повышение компетентности педагогов и родителей в вопросах поддержки нарративного развития детей, их вовлечение в совместные повествовательные практики.

Комплексное применение этих методов обеспечит эффективное развитие нарративной компетентности дошкольников, что, в свою очередь, будет способствовать успешной социализации и подготовке к дальнейшему обучению.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бобкова И.К., Кулямзина О.В., Евстигнеева Е.В. Особенности развития творчества старших дошкольников на основе сочинения историй, сказок по методике Джанни Родари // Психологическая наука и образование. 2011. № 5. С. 1–9.
2. Веракса А.Н., Ощепкова Е.С., Бухаленкова Д.А., Картушина Н.А. Связь регуляторных функций и производства речи у старших дошкольников: рабочая память и составление нарративов // Клиническая и специальная психология. 2019. Том 8. № 3. С. 56–84.
3. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1934.
4. Кизина Е.А. Развитие цифровых концепций в дошкольном возрасте // Цифровая гуманитаристика и технологии в образовании (DHTE 2024). 2024. С. 127–134.
5. Корнев А.Н., Балчюниене И. Формирование устного дискурса у детей 4-5 лет: функционально-динамический анализ влияния жанра и регистра на грамматический частотный профиль // Экспериментальная психология. 2022. Том 15. № 1. С. 160–176.
6. Кючуков Х. С. Международный опыт изучения нарративов у детей дошкольного возраста // Современное дошкольное образование. 2021. №5(107). С. 4–5.
7. Лубовский Д.В. Диагностика креативности дошкольников: современное состояние и перспективы развития // Психологическая наука и образование. 2004. Том 9. № 3. С. 82–87.
8. Ощепкова Е.С., Бухаленкова Д.А., Якупова В.А. Развитие связной устной речи в старшем дошкольном возрасте // Современное дошкольное образование. 2020. №3(99). С. 32–39.
9. Рябкова И.А., Тимохина Ю.И., Мястковская Е.Ю. Связь игровой деятельности и понимания эмоций у старших // Психолого-педагогические исследования. 2023. Том 15. № 4. С. 77–96.
10. Смирнова Е.О., Солдатова Ю.С. Особенности проявления инициативы современных дошкольников // Психолого-педагогические исследования. 2019. Том 11. № 1. С. 12–26.
11. Турушева Ю.Б. Нарратив как культурный медиатор развития личности: взгляд сквозь призму культурно-исторической психологии // Культурно-историческая психология. 2016. Т. 12. № 2. С. 24–32.
12. Шиян О.А. Детские нарративы как возможный ресурс развития диалектического мышления старших дошкольников // Психологическая наука и образование. 2024. Том 29. № 2. С. 82–95.
13. Шиян О.А., Баранова А.А. Детские нарративы как пространство проявления и способ диагностики творческих способностей дошкольников // Культурно-историческая психология. 2022. Том 18. № 1. С. 89–99.
14. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Развитие учебной деятельности и проблемы формирования теоретического мышления // Вопросы психологии. 1966. № 6. С. 13–23.
15. ЮНЕСКО. Международная стандартная классификация образования: МСКО 2011. – Монреаль: Институт статистики ЮНЕСКО, 2013.
16. ЮНЕСКО. 2021. Резюме Всемирного доклада по мониторингу образования за 2021/2022 года: Негосударственные субъекты в сфере образования: Кто выбирает? Кто проигрывает? Париж, ЮНЕСКО.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 371.13

Robiya MANNOPOVA,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta’lim kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
E-mail: rmannopova1998@gmail.com

O‘zMU professori H.Xudaykulov taqrizi asosida

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE SKILLS (IN THE EXAMPLE OF LISTENING AND READING SKILLS)

Annotation

This scientific article focuses on researching the use of artificial intelligence in teaching foreign language skills. It outlines the didactic opportunities of artificial intelligence in developing foreign language skills and proposes an authorial approach to using AI chatbots for enhancing listening and reading skills.

Key words: Artificial intelligence, teaching foreign language skills, listening, reading, creativity, motivation, chatbots.

XORIJIY TIL KO‘NIKMALARINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI (TINGLASH VA O‘QISH KO‘NIKMALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ilmiy maqola xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishni tadqiq etish masalalariga bag’ishlangan bo’lib, unda sun’iy intellektning xorijiy til ko’nikmalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari bayon etilgan va II-chat-botlarni tinglab tushunish hamda o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘llash bo‘yicha mualliflik yondashuvi taklif etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitish, tinglab tushunish, o‘qish, ijodkorlik, motivatsiya, chatbotlar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ НАВЫКАМ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ И ЧТЕНИЯ)

Аннотация

Научная статья посвящена вопросам исследования использования искусственного интеллекта в обучении навыкам иностранного языка, излагается дидактические возможности искусственного интеллекта в развитии навыков иностранного языка и предлагается авторский подход по применению ИИ-чат-ботов для развития навыков аудирования и чтения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, обучение навыкам иностранного языка, аудирование, чтение, творчество, мотивация, чат-боты.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishining navbatdagi bosqichida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasida ham keng qo‘llanila boshlandi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari - bu kompyuter tizimlari tomonidan inson bajaradigan vazifalarni amalga oshirishga asoslangan texnologiyalar majmuasidir. Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator hujjatlari ushbu sohaga bo‘lgan e’tiborning yaqqol namunasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi PQ-4996-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] va “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli qarorlari shular jumlasidandir [2]. Bugungi kunda SI texnologiyalari xorijiy til o‘qitish sohasida keng qo‘llanilmoqda, chunki ular individual ehtiyojlarga mos ravishda ta’limni yanada samarali va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etishga imkon beradi [3]. Sun’iy intellekt (SI) inson ehtiyojlariga moslasha oladigan shaxsga yo‘naltirilgan va samarali ta’lim tajribalarini yaratishga imkon beradigan didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’limda sun’iy intellekt (AIEd) bu o‘qitish va bilim olish jarayonlarini yangilash hamda takomillashtirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘z ichiga olgan, rivojlanib borayotgan fanlararo sohadir [4]. Sun’iy intellektning ta’limdagi dolzarbligi, birinchi navbatda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlash bilan bog‘liq. Sun’iy intellekt talabalarning o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilib, har bir talaba uchun individual ta’lim olish trayektoriyasini yaratishi, avtomatlashtirilgan baholash tizimi va talabalarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishi bilan o‘qituvchilar uchun yordamchi vositaga aylanmoqda. Oliy ta’limga sun’iy intellektning ta’siri ham qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. H.Crompton va D.Burke tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra sun’iy intellekt texnologiyalari oliy ta’limda asosan quyidagi 5 ta maqsadda foydalaniladi: baholash, bashorat qilish, sun’iy intellekt o‘qituvchiga yordamchi vosita sifatida, intellektual o‘qitish tizimi (ITS) va talabalar ta’limini boshqarish maqsadida [5]. XI asr yangi jahon tartiboti oldiga ko‘plab muammolarni qo‘ydi. Sun’iy intellektning oliy ta’limga ta’siri va oliy ta’limning sun’iy intellektga ta’siri - o‘rganishga arzigulik ikki muhim yo‘nalish hisoblanadi [6].

Hozirgi zamonaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-sonli qarorida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish - sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalardan biri etib belgilangan. Shuningdek, sun’iy intellekt masofaviy ta’limni samarali tashkil etish va ta’limda innovatsion usullarni joriy etishda ham muhim o‘rin egallamoqda va kelajakda uning ahamiyati yanada oshadi. Shu sababli ham, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘rganish va qo‘llash yangi avlodni kelajakka tayyorlashning muhim qismiga aylanmoqda.

Mavzu dolzarbligini inobatga olgan holda ushbu maqolamizda xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga doir tadqiqotlarni tahlili asosida mavjud kamchilik va muammolarni o‘rgangan holda, tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sun’iy intellektning didaktik imkoniyatlari taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularning

o‘qitish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish va o‘quvchilarning til o‘rganishdagi samaradorligini oshirish uchun samarali metodlarni taklif qilishdan iborat. Buning uchun qator vazifalar amalga oshirildi, jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarining xorijiy til o‘qitishdagi qo‘llanilishi o‘rganildi, xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda sun’iy intellekt texnologiyalarining moslashtirilgan didaktik imkoniyatlar tahlil qilindi.

Mavzuga doir tadqiqotlar tahlili. Tadqiqotlarimizda nazariy tahlil metodidan foydalanilgan holda, xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etishga doir tadqiqotlar tahlil qilindi. H.Crompton, A.Edmett, N.Ichaporia tomonidan tayyorlangan "Sun’iy intellekt va ingliz tilini o‘qitish: tizimli adabiyotlar sharhi" [7], F. Karatash, F.Y. Abedi, F.O. Gunel, D.Karadeniz, Y. Kuzgun tomonidan olib borilgan "Xorijiy til o‘qitishda sun’iy intellektni joriy etish: ChatGPTning xorijiy til o‘rganuvchilarga ta’sirini o‘rganish" [8] va C.Song va Y.Songning "Akademik yozish ko‘nikmalari va motivatsiyani oshirish: EFL talabalari uchun sun’iy intellekt yordamida til o‘rganishda ChatGPT samaradorligini baholash"[9] mavzusidagi tadqiqot ishlari o‘rganilindi. Tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt yordamida dars jarayonini yanada samarali qilish, til o‘rganishda, ayniqsa akademik yozish, gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda individual ehtiyojlarni inobatga olish va talabalarda xorijiy til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish bilan bir qatorda, sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi muammo va kamchiliklari ham o‘rganilgan.

H.Crompton, A.Edmett, N.Ichaporia o‘zlarining tadqiqotlarida sun’iy intellektning ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishdagi integratsiyasini keng qamrovli joriy qilish masalalarini tadqiq etishgan. Ular ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellektning qo‘llanilishini tushunish uchun mavjud ilmiy tadqiqotlarni chuqur tahlil qilishgan va quyidagi eng ahamiyatli natijalarni ajratib ko‘rsatishgan:

1. Geografik tarqalishi

Ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishga doir ko‘plab tadqiqotlar asosan Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikada o‘tkazilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda nashrlar soni sezilarli darajada oshgan, bu esa ingliz tili o‘qitish doirasida sun’iy intellekt ilovalariga qiziqish ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2. Ta’lim darajalari

Aksariyat tadqiqotlar oliy ta’lim miqyosiga qaratilgan bo‘lib, kichik yoshdagi o‘quvchilar ta’limidagi tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagani ta’kidlangan.

3. Til ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi sun’iy intellekt ilovalari

Tadqiqot shuni ko‘rsatadi-ki, xorijiy til o‘qituvchilari va talabalar til ko‘nikmalaridan asosan gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalananib kelishmoqda. Tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini yaxshilash uchun sun’iy intellektga asoslangan ilovalardan foydalanilgan, ammo ularning ta’sir darajasi qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi.

Tadqiqotlar sun’iy intellektni ingliz tilini o‘qitishga integratsiyalashda bir qator qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Bularga, texnologik muammolar, ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi yetarli shakllanmaganligini kiritish mumkin. Ba’zi sun’iy intellekt ilovalari kutilganidek ishlamaydi, bu esa ularning samaradorligini cheklaydi. Shuningdek, talabalarning bir qismi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga nisbatan qo‘rquvni namoyon etishdi, bu esa o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilgan.

Dr. W.Praphan va K.Praphanlar sun’iy intellektning ESL/EFL darslaridagi ta’sirini salbiy yoki ijobiy ekanligini tadqiq qilar ekanlar, shuni ta’kidlaydilar: “Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha muassasa yagona nizomi mavjud bo‘lmagani sababli, har bir o‘qituvchi darsi uchun sun’iy intellektdan foydalanishga doir alohida yondashuvlar ishlab chiqishimiz zarur. Talabalar sun’iy intellektga tayanish o‘rniga o‘z fikrlarini ifodalashga harakat qilishlari, biz o‘qituvchilar esa sun’iy intellekt vositalarini samarali tarzda qo‘llash orqali amaliyotimizni moslashtirish va shu yo‘l bilan talabalarga xorijiy til yozish ko‘nikmasida o‘z salohiyatlarini oshirishga yordam berishga intilishimiz zarur” [10].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib mualliflar quyidagilar zarurligini ta’kidlaydilar:

- o‘qituvchilarni tayyorlash: O‘qituvchilar sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘zining o‘qitish amaliyotiga samarali joriy etish uchun sun’iy intellekt savodxonligini rivojlantirishlari lozim;

- etika meyorlarnini ishlab chiqish: xorijiy til o‘qitish sharoitlarida ma’lumotlar xavfsizligi va sun’iy intellektdan axloqiy foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni belgilash juda muhim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turli geografik hududlar va ta’lim darajalari bo‘yicha ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazishni, ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilar va tinglash kabi retseptiv til ko‘nikmalariga e’tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz. Ushbu tadqiqot sun’iy intellektning til ko‘nikmalarini oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali ingliz tili o‘qitish jarayonini didaktik ta’minotini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Biroq, xorijiy til o‘qitishda sun’iy intellektning afzalliklarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun texnologik, axloqiy va pedagogik muammolarni hal qilishning muhimligi ham aniqlandi.

F. Karatash, F.Y. Abedi, F.O. Gunel, D.Karadeniz, Y. Kuzgun tomonidan olib borilgan "Xorijiy til o‘qitishda sun’iy intellektni joriy etish: ChatGPTning xorijiy til o‘rganuvchilarga ta’sirini o‘rganish" mavzusidagi tadqiqotlarda ChatGPTning xorijiy tillarni o‘rganishda ta’lim vositasi sifatidagi ta’siri o‘rganilgan. “Qualitative Case study” metodi asosida o‘tkazilgan tadqiqotda Turkiyadagi universitetlardan birining 13 nafar talabalari ishtirok etgan. To‘rt hafta davomida talabalar xorijiy til o‘qituvchisi rahbarligida turli xil o‘quv mashg‘ulotlarida ChatGPT bilan shug‘ullanishdi.

Natijalar ChatGPT ta’lim oluvchilarning o‘quv tajribasiga, xususan, yozish, grammatika va lug‘at boyligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlaydi. Shuningdek, u o‘zining qulayligi va katta didaktik imkoniyatlarga egaligi tufayli ularning motivatsiyasi va faolligini oshirdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, til o‘rganishda sun’iy intellektning quyidagi yutuqlari mualliflar tomonidan ta’kidlangan:

birinchidan, ChatGPT til o‘rganuvchilarga yangi g‘oyalar taqdim etish, fikr-mulohazalar bildirish hamda ularni turli grammatik tuzilmalar va so‘z boyligi bilan tanishtirish orqali ularning ingliz tilida yozish mahoratini oshirishga yordam berishi mumkin;

ikkinchidan, ChatGPT yordamida talaba va xorijiy til o‘qituvchilari vaqtdan samarali foydlanish imkoniyatini bergan. Talabalarni qiziqtirgan savollariga tezkorlik bilan javob beradi va bu ularning vaqtini tejaydi. Boshqa tadqiqotlar ham buni qo‘llab-quvvatlab, ChatGPT yordamida til o‘rganish foydali ma’lumotlarni taqdim etishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi va o‘qituvchilarga o‘quv materiallari, ish varaqalari va baholashlarni yaratish orqali vaqtni tejash imkonini beradi;

uchinchidan, ChatGPT yordamida til o‘rganish madaniy va ijodiy ta’lim tajribalarini o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etishi aniqlandi. Shuningdek, ChatGPT til o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini, shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishda sezilarli darajada yordam berishi mumkinligi ta’kidlanadi.

to‘rtinchidan, tadqiqot ishtirokchilari ChatGPT yordamida yozish ko‘nikmalarini rivojlangani aniqlangan. Ular hikoya, esse yozish jarayonida hikoyalarning turli xil ijodiy yakunlarini yaratish orqali o‘zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga hizmat qilgan.

Ushbu tadqiqotda xorijiy tillarini o‘qitishda ChatGPTdan foydalanishning bir qancha ilmiy muammoalari ham ko‘rsatilingan:

sun’iy intellektga bilim olish jarayonida haddan tashqari bog‘lanib qolish: O‘quvchilar sun’iy intellekt vositalariga uzviy bog‘lanib qolishlari mumkin, bu esa tilni mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin;

kasbiy muloqot yetishmasligi: ChatGPT suhbat amaliyotini taqdim etsa-da, u madaniy kontekst va hissiy ifoda

kabi real hayotiy insoniy o‘zaro ta’sirlarning nozik jihatlarini to‘liq takrorlay olmaydi;

ta’lim maqsadlariga erishishdagi noaniqlik: Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan javoblar vaqti-vaqti bilan noaniqliklarni o‘z ichiga olishi yoki o‘quv ma’lumotlarida mavjud bo‘lgan noxolisliklarni aks ettirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarni chalg‘itishi mumkin;

texnik va dasturiy qiyinchiliklar: ChatGPTdan foydalanish uchun tezkor internet va kompyuter qurilmalar barcha uchun, ayniqsa kam resursli sharoitlarda, imkonsiz bo‘lishi mumkin;

o‘qituvchilarning moslashuvi: O‘qituvchilar sun’iy intellekt vositalarini o‘z o‘qitish amaliyotiga joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa malaka oshirish va o‘zlarini ustida ishlashni talab qiladi.

Bu muammolar shuni ko‘rsatadiki, ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalari o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilsa-da, ular an’anaviy o‘qitish usullarini to‘liq egallamasdan, balki ularga qo‘shimcha ravishda qo‘llanilishi lozim.

C.Song va Y.Songning "Akademik yozish ko‘nikmalari va motivatsiyani oshirish: EFL talabalari uchun sun’iy intellekt yordamida til o‘rganishda ChatGPT samaradorligini baholash" mavzusidagi tadqiqot ishida ta’limda, ayniqsa ingliz tilini chet tili (EFL) sifatida o‘rganuvchilar uchun sun’iy intellektning transformatsion salohiyati o‘rganilgan. Aralash usullardan foydalangan holda, tadqiqot ChatGPTning talabalarning akademik yozish ko‘nikmalari va motivatsiyasiga ta’sirini baholaydi.

Tahlil va natijalar. Xorijiy tadqiqotlar tahlili sun’iy intellekt texnologiyalarining qator didaktik imkoniyatlarga egaligini ilmiy asoslaydi. Bular qatoriga yozuv ko‘nikmalarining yaxshilanishi, motivatsiya ortishi, turli xil qarashlarning mavjudligini kiritish mumkin. Binobarin, sun’iy intellekt yordamida ta’lim olgan talabalar an’anaviy ta’lim sharoitlaridagi o‘quvchilarga nisbatan yozuvni tashkil etish, izchillik, grammatika va lug‘at boyligida sezilarli yaxshilanishlarni namoyish etganlar. ChatGPTdan foydalanish o‘quvchilarning yozma topshiriqlar bilan shug‘ullanish motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilgan. Ko‘p ishtirokchilar til o‘rganishda sun’iy intellektning innovatsion rolini tan olgan bo‘lsalar-da, ba’zilari sun’iy intellekt vositalariga haddan tashqari bog‘lanib qolish va uning natijalarini kontekstual noaniqligidan xavotir bildirdilar.

Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalari qator didaktik imkoniyatlarga egaligini qayd etish mumkin. Birinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ya’ni individual o‘rganish tezligi va qobiliyatlarini tahlil qilib, har bir talaba uchun moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bu didaktik yondoshuvni shaxsiylashtirishga imkon beradi, chunki har bir o‘quvchi o‘zining ehtiyojlariga mos ravishda bilimlarni o‘zlashtiradi.

Ikkinchidan, interaktiv o‘quv materiallari taqdim etilishida yangi didaktik imkoniyat paydo bo‘ladi, ya’ni sun’iy intellektga asoslangan o‘quv materiallari o‘quvchilarni faollashtiradi, chunki ular har bir o‘quvchining darajasi va qobiliyatiga mos ravishda tanlanadi. Bu o‘quvchilarga nafaqat tilni o‘rganishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, sun’iy intellekt texnologiyalarini xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llash samara berishini ta’kidlash mumkin:

Talaffuz va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish

Sun’iy intellekt tizimlari, masalan, nutqni tanish dasturlari va talaffuzni tahlil qilish texnologiyalari yordamida, o‘quvchilarga talaffuz va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu didaktik vositalar o‘quvchilarning nutq madaniyatini yaxshilaydi va tilni mukammal o‘zlashtirishda yordam beradi.

O‘qitish jarayonining tahlilini amalga oshirish

SI texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘qish jarayonini kuzatib borishga imkon beradi. Bu esa o‘qituvchilarga har bir talabaning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida aniq ma’lumotlarni taqdim etadi, shu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlarini yanada samarali qondirishi mumkin.

Tavsiyalar. Bizning fikrimizcha, talabalarda akademik yozish ko‘nikmalari va motivatsiyani oshirish uchun ChatGPT da katta didaktik imkoniyatlar mavjud. Uni ChatGPT’ning chet tili sifatida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalarning akademik yozuv ko‘nikmalarini va motivatsiyasini oshirishdagi salohiyatida ko‘rish mumkin.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadi-ki, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda sun’iy intellektning xorijiy til o‘qitishda asosan urg‘u yozish, gapirish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilingan bo‘lib, boshqa til ko‘nikmalari, xususan, tinglab tushunish va o‘qish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘qitishga qaratilingan ilmiy izlanishlar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ushbu ko‘nikmalar har bir til o‘rganuvchi uchun muhim bo‘lib, ularni rivojlantirish xoirijiy til bilish darajasini baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuning uchun, biz ushbu tadqiqotimizda sun’iy intellekt texnologiyalaridan tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratdik.

Bizning fikrimizcha, sun’iy intellektga asoslangan chatbotlar hozirda o‘qituvchilarning eng tezkor yordamchisiga aylangan. Talabalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda savollar tuzish, savollarga javob berish, ularning qiziqishiga mos matnllar yaratish va shu kabi vazifalarni tez va samarali bajara oluvchi chatbotlar tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini o‘qitishda keng foydalanilishi mumkin.

Chatbot – bu sun’iy intellekt algoritmlari asosida ishlaydigan virtual yordamchi bo‘lib, inson bilan tabiiy tilda suhbatlashuvchi botdir.

Chatbotlar tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini o‘qitishda interaktiv, moslashuvchan va qiziqarli usullarni taqdim etishi mumkin. Quyidagi jadvalda ingliz tilida tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmasini o‘qitish jarayonida darsni samarali qilish maqsadida xorijiy til o‘qituvchisi uchun chatbotlardan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

№	Tinglab tushunish ko‘nikmasi	O‘qish ko‘nikmasi
1.	Chatbotlar real hayotiy dialoglarni taqlid qilib, talabalarga turli vaziyatlarda (masalan, kafeda ovqat buyurtma qilish, job interview) tinglash amaliyotini taklif qiladi.	Talaba qiyin so‘zga duch kelganda, chatbot uning ma’nosini, sinonimlarini va jumladagi ishlatilishini tushuntirib berishi mumkin.
2.	Sun’iy intellekt asosidagi botlar talaffuzni baholab, xatolarni tuzatib borishi mumkin.	Sun’iy intellekt matnni ovozli o‘qib berib, talaffuz bilan yozuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga yordam beradi.
3.	Chatbotlar turli ingliz aksentlari yordamida matnlarni o‘qib berishi mumkin.	Chatbot matndan so‘ng savollar berib, o‘quvchining tushunish darajasini tekshirishi mumkin.
4.	Chatbot biror audio parcha eshittirib, so‘ng savollar orqali talabaning tushunish darajasini tekshirishi mumkin.	Sun’iy intellekt maqola, kitob yoki yangiliklarni ta’lim oluvchining qiziqish va darajasiga qarab tavsiya qilishi mumkin.

1-jadval. Tinglab tushunish va o‘qish ko‘kikmlarini o‘qitishda chatbotlardan foydalanish imkoniyatlari

Xulosa. Sun’iy intellekt xorijiy til o‘qitishda gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ko‘plab tadqiqotlar va texnologiyalar bu yo‘nalishlarga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, tinglash va o‘qish ko‘nikmalari ham tilni puxta o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tinglash til o‘rganishda fundamental ko‘nikma bo‘lib, nutqni tushunishni va

talaffuzni rivojlantirishni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt yordamida ovozli materiallar, podkastlar va interaktiv audio-tahlil vositalaridan foydalangan holda ta’lim oluvchilar tinglash bo‘yicha mahoratini oshirishlari mumkin. O‘qish esa xorijiy til so‘z boyligini kengaytirish, grammatikani chuqur o‘zlashtirish va mazmunni tushunishning asosi hisoblanadi. Sun’iy intellekt orqali matnni tahlil qilish va tushunishga yordam beradigan dasturlar hamda interaktiv o‘qish mashqlarini amalga oshirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, gapirish va yozish bilan bir qatorda tinglash va o‘qish ko‘nikmalarining sun’iy intellekt yordamida rivojlantirilishi xorijiy til o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalangan yondashuv esa til o‘rganishni yanada samarali qiladi.

Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalari xorijiy til ko‘nikmalarini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ularning didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, o‘qitish jarayonini interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish, va talaffuz, tinglash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, texnologiyalardan samarali foydalanish uchun mavjud muammolarni hal qilish va tizimlarning ishonchliligini ta’minlash zarurdir. Bu yo‘nalishda kelajakda yanada samarali va sifatli til o‘qitish imkoniyatlari yaratish uchun tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli Qarori.
3. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, Challenges, Roles and Research Issues of Artificial Intelligence in Education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 1.
4. Almasri, F. Exploring the Impact of Artificial Intelligence in Teaching and Learning of Science: A Systematic Review of Empirical Research. Res Sci Educ 54, 977–997 (2024). https://doi.org/10.1007/s11165-024-10176-3.
5. Crompton, H., Burke, D. Artificial intelligence in higher education: the state of the field. Int J Educ Technol High Educ 20, 22 (2023). https://doi.org/10.1186/s41239-023-00392-8
6. United Nations. (2018). Sustainable Development Goals .:. Sustainable Development Knowledge Platform.
7. Crompton, H., Edmett, A., Ichaporia. I. Artificial intelligence and English language teaching: A systematic literature review. British Council, 2022.
8. Karatas,F., Abedi, F., Gunyel, F., Karadeniz, D., Kuzgun, Y. Incorporating AI in foreign language education: An investigation into ChatGPT’s effect on foreign language learners. Education and Information Technologies, 29, 2024.
9. Song, C., & Song, Y. (2023). Enhancing academic writing skills and motivation: Assessing the efficacy of ChatGPT in AI-assisted language learning for EFL students. Frontiers in Psychology, 14, 1260843. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1260843.
10. Praphan,W., Praphan, K. (2023). AI technologies in the ESL/EFL writing classroom: The villain or the champion? Journal of Second Language Writing. Volume 62.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:808.3

Muslima MATLATIPOVA,
Student of Urgench State University Supervisor: Feruza Masharipova, PhD, Associate Professor of Urgench State University
E-mail: f.masharipova@gmail.com

O‘zDJTU DSc I.Kaxarova taqrizi asosida

LINGUISTIC AND PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF READ-ALOUDS IN TEACHING ENGLISH

Annotation

Read-alouds have been widely recognized as an effective pedagogical tool in English language teaching (ELT), fostering listening comprehension, vocabulary development, and literacy skills among young learners. This article explores the linguistic and psycholinguistic foundations that underpin the use of read-alouds in ELT, drawing from theories of language acquisition, cognitive processing, and literacy development. A mixed-methods approach was employed, involving a small-scale experimental study with young learners aged 8-11 to assess the impact of read-alouds on language development. Results indicate that read-alouds significantly enhance phonological awareness, syntactic processing, and semantic comprehension while promoting engagement and interactive learning.
Key words: Read-alouds, linguistic foundations, psycholinguistic foundations, reading literacy development, young learners.

INGLIZ TILI O‘QITISHDA OVOZ CHIQARIB O‘QISH METODINING LINGVISTIK VA PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ovoz chiqarib o‘qish ingliz tilini o‘qitishda (ELT) samarali pedagogik vosita sifatida keng e’tirof etilgan bo‘lib, yosh o‘quvchilarda tinglab tushunish, so‘z boyligini rivojlantirish va o‘qish savodxonligini rivojlantiradi. Mazkur maqolada tilni o‘zlashtirish, kognitiv va savodxonlikni rivojlantirish nazariyalaridan kelib chiqib, ingliz tili o‘qitishda ovoz chiqarib o‘qitish metodining lingvistik va psixolingvistik asoslari o‘rganilgan. Ovoz chiqarib o‘qishning ingliz tilini o‘rganishga ta’sirini baholash uchun 8-11 yoshli o‘quvchilar bilan kichik eksperimental tadqiqotni o‘z ichiga olgan aralash usullar yondashuvi qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ovoz chiqarib o‘qish fonologik ongni, sintaktik va semantik tushunishni sezilarli darajada oshiradi, shu bilan birga tilni faol va interaktiv tarzda o‘rganishni rag‘batlantiradi.
Kalit so‘zlar: Ovoz chiqarib o‘qish, lingvistik asoslar, psixolingvistik asoslar, o‘qish savodxonligini rivojlantirish, o‘quvchilar.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЧТЕНИЯ ВСЛУХ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Чтение вслух широко признано эффективным педагогическим инструментом в преподавании английского языка (ELT), способствующим аудированию, развитию словарного запаса и навыкам грамотности среди учащихся младшего возраста. В этой статье рассматриваются лингвистические и психолингвистические основы, лежащие в основе использования чтения вслух в ELT, опираясь на теории усвоения языка, когнитивной обработки и развития грамотности. Был использован подход смешанных методов, включающий небольшое экспериментальное исследование с учащимися младшего возраста в возрасте 8-11 лет для оценки влияния чтения вслух на развитие языка. Результаты показывают, что чтение вслух значительно улучшает фонологическую осведомленность, синтаксическую обработку и семантическое понимание, одновременно способствуя вовлеченности и интерактивному обучению.
Ключевые слова: Чтение вслух, лингвистические основы, психолингвистические основы, развитие грамотности чтения, учащиеся младшего возраста.

Introduction. Read-alouds play a fundamental role in English language instruction by exposing learners to fluent reading, authentic pronunciation, and rich linguistic input. The practice aligns with key linguistic and psycholinguistic theories of language acquisition, including Krashen’s (1982) Input Hypothesis and Vygotsky’s (1978) Sociocultural Theory, which emphasize the importance of meaningful, comprehensible input and interactive learning.

The use of read-alouds in teaching English is particularly beneficial for language learners, as it facilitates exposure to complex syntactic structures, pronunciation patterns, and contextual vocabulary acquisition. By engaging with well-structured and expressive oral readings, students develop their phonemic awareness and listening comprehension, both of which are critical for second language development (Beck & McKeown, 2001). Furthermore, read-alouds serve as an effective means of fostering engagement and motivation in learners by making reading a shared and interactive experience (Trelease, 2019).

Beyond language learning, read-alouds also contribute to cognitive and socio-emotional development. The interactive nature of read-alouds allows students to engage in discussions, make predictions, and ask questions, fostering critical thinking and analytical skills (Fisher, Flood, Lapp, & Frey, 2004). Additionally, when teachers model expressive reading, they provide students with an example of fluent and prosodic speech, which enhances their ability to internalize pronunciation and rhythm.

Given the increasing emphasis on communicative language teaching (CLT) and student-centered learning, integrating read-alouds into ELT classrooms aligns with modern pedagogical approaches. This article explores the linguistic and psycholinguistic foundations of read-alouds, providing a theoretical and empirical framework for their implementation in ELT.

Literature Review. Linguistic theories provide a fundamental framework for understanding the effectiveness of read-alouds in English language teaching. Read-alouds expose learners to essential linguistic components, including phonology, morphology, syntax, and semantics, which are integral to language acquisition (Pinker, 1994). Phonological awareness is particularly enhanced through exposure to sound patterns, intonation, and rhythm in speech, which strengthens students’ ability to decode and pronounce words accurately (Rasinski, 2003). Additionally, read-alouds contribute to syntactic and grammatical development by exposing learners to complex sentence structures and variations in syntax, allowing them to internalize rules of language formation and use (Beck & McKeown, 2001). Furthermore, the semantic richness found in

read-aloud texts aids vocabulary acquisition by providing meaningful contexts that reinforce word meanings and encourage deeper comprehension (Elley, 1989).

From a psycholinguistic perspective, read-alouds support cognitive processes involved in language learning, including lexical access, working memory enhancement, and the development of comprehension strategies. Krashen’s (1982) Input Hypothesis suggests that learners acquire language best when exposed to comprehensible input that is slightly beyond their current proficiency level. Read-alouds serve as a valuable source of such input, particularly when accompanied by teacher scaffolding and discussion. Moreover, Sweller’s (1994) Cognitive Load Theory emphasizes the importance of reducing extraneous cognitive load in learning. Read-alouds facilitate comprehension by allowing learners to focus on meaning rather than struggling with decoding, thereby promoting efficient information processing. Another significant psycholinguistic aspect of read-alouds is their role in interactive learning and scaffolding. Vygotsky’s (1978) concept of the Zone of Proximal Development (ZPD) suggests that learners benefit most from guided instruction that bridges the gap between what they can do independently and what they can achieve with support. Read-alouds provide such scaffolding through teacher modeling, guided questioning, and interactive discussions, fostering an engaging and supportive learning environment (Fisher, Flood, Lapp, & Frey, 2004).

Empirical studies further highlight the positive impact of read-alouds on various aspects of language learning. Elley (1989) conducted a study on vocabulary acquisition and found that children who were exposed to read-alouds demonstrated significantly higher vocabulary gains than those who engaged in silent reading. Similarly, Brabham and Lynch-Brown (2002) explored the effects of interactive read-alouds on listening comprehension and reported improved student engagement and understanding of the text. Rasinski (2003) examined the relationship between read-alouds and fluency development, concluding that exposure to expressive and fluent reading enhances pronunciation, prosody, and overall reading fluency. These studies collectively underscore the cognitive, linguistic, and pedagogical benefits of integrating read-alouds into English language teaching.

Practical Implications of Read-Alouds. Read-alouds can be implemented in ELT classrooms in various ways to maximize their effectiveness. Teachers can integrate pre-reading activities such as activating background knowledge and introducing key vocabulary to facilitate comprehension. For example, before reading Charlotte’s Web, teachers can discuss farm life and introduce key terms like “barn,” “web,” and “friendship.” During read-alouds, educators should model fluent reading, use expressive intonation, and encourage student participation through predictions and discussions. For instance, pausing at a suspenseful moment in Harry Potter and the Sorcerer’s Stone allows students to predict what will happen next.

Post-reading activities, including summarization, storytelling, and dramatization, can further reinforce comprehension and linguistic development. For example, after reading The Very Hungry Caterpillar, young learners can sequence the story using picture cards. Additionally, incorporating digital tools such as audiobooks and interactive reading applications can enhance student engagement. Platforms like Epic! or Audible provide access to professional narrations that support listening skills.

Teachers may also utilize differentiated instruction by selecting texts of varying complexity levels and providing visual aids, ensuring accessibility for all learners. A teacher might use The Cat in the Hat for beginners and The Giver for advanced learners to scaffold understanding appropriately. Collaborative learning approaches, such as small-group discussions, peer questioning, and reciprocal teaching strategies, can encourage deeper interaction with the text and promote language production. Performance-based assessments, including student-led storytelling, role-playing, and creative writing tasks, can help measure comprehension and engagement while fostering critical thinking and creativity.

Furthermore, teachers should consider cultural relevance when selecting read-aloud materials, ensuring that texts resonate with students' backgrounds and experiences to increase motivation and personal connections. Integrating cross-curricular content into read-alouds can support interdisciplinary learning, allowing students to explore themes related to science, history, and social issues through engaging narratives.

Research Methodology. We employed a mixed-methods approach, incorporating both qualitative and quantitative research methods. A quasi-experimental design was used to assess the effectiveness of read-alouds in English language learning among young learners. Participants included 30 EFL learners aged 8 to 11, divided into experimental and control groups. The experimental group received structured read-aloud sessions over a 12-week period, while the control group engaged in silent reading activities.

Data collection involved pre-tests and post-tests measuring vocabulary acquisition, listening comprehension, and fluency development. Additionally, classroom observations and teacher interviews were conducted to gain qualitative insights into student engagement and participation during read-aloud activities.

Results and Discussion. Statistical analysis of pre-test and post-test scores indicated that young learners in the experimental group demonstrated significant improvements in vocabulary retention ($p < 0.05$), listening comprehension ($p < 0.01$), and reading fluency ($p < 0.05$) compared to the control group. Qualitative findings revealed that students in the read-aloud group exhibited higher levels of engagement, participation, and motivation. Teachers observed that students in the experimental group were more confident in oral responses, asked more questions, and displayed increased enthusiasm for reading activities.

The findings support previous research that highlights the benefits of read-alouds in enhancing phonological awareness, syntactic processing, and semantic comprehension (Beck & McKeown, 2001; Elley, 1989). Teachers noted that young learners who participated in read-aloud activities displayed increased confidence in oral language production and comprehension. Additionally, the interactive nature of read-alouds encouraged collaborative learning, as students actively discussed stories and related them to personal experiences, further reinforcing comprehension and critical thinking.

Conclusion. Read-alouds are deeply rooted in linguistic and psycholinguistic theories of language acquisition. They provide learners with structured, meaningful exposure to phonology, syntax, and semantics, while also engaging cognitive mechanisms that support language processing and comprehension. Our next research articles will explore the long-term impact of read-alouds on fluency development and the integration of digital read-aloud technologies in ELT classrooms.

REFERENCES

1. Beck, I. L., & McKeown, M. G. (2001). Text talk: Capturing the benefits of read-aloud experiences for young children. The Reading Teacher, 55(1), 10-20.
2. Brabham, E. G., & Lynch-Brown, C. (2002). Effects of teachers’ reading-aloud styles on vocabulary acquisition and comprehension. Journal of Educational Psychology, 94(3), 465-473.
3. Elley, W. B. (1989). Vocabulary acquisition from listening to stories. Reading Research Quarterly, 24(2), 174-187.
4. Fisher, D., Flood, J., Lapp, D., & Frey, N. (2004). Interactive read-alouds: Is there a common set of implementation practices? The Reading Teacher, 58(1), 8-17.
5. Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon.
6. Pinker, S. (1994). The language instinct: How the mind creates language. HarperCollins.

7. Rasinski, T. V. (2003). The fluent reader: Oral reading strategies for building word recognition, fluency, and comprehension. Scholastic.
8. Sweller, J. (1994). Cognitive load theory, learning difficulty, and instructional design. Learning and Instruction, 4(4), 295-312.
9. Trelease, J. (2019). The read-aloud handbook (8th ed.). Penguin Books.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:808.3

Zafar MAXMUDOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
E-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com

NamMQI dotsenti P.Botirova taqrizi asosida

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL DARS O‘TISHNING AHAMIYATI VA USLUBLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda interfaol dars o‘tishning ahamiyati, talabalarga taqdim etish va dars jarayonida samarali foydalanish haqida so‘z yuritiladi. Talabalarga interfaol darslar yordamida ko‘rsatmali o‘qitishning tarbiyalovchi ahamiyati aytib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Interfaol dars, faol, rol o‘ynash, guruh bo‘lib ishlash, platform, elektron darslik, motivatsiya, muloqot, grafik organayzerlar, savol-javob.

THE IMPORTANCE AND METHODS OF CONDUCTING AN INTERACTIVE LESSON IN TEACHING LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY

Annotation

This article will talk about the importance of taking an interactive lesson in teaching Latin and medical terminology, its presentation to students and its effective use in the course of the lesson. The educational significance of instructional teaching was told to students using interactive lessons.

Keywords: Interactive lesson, active, role-playing, group work, platform, electronic textbook, motivation, communication, graphic organizers, question and answer.

ВАЖНОСТЬ И МЕТОДЫ ПРОВЕДЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА И МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

В этой статье рассматривается важность интерактивного урока в преподавании латыни и медицинской терминологии, его представление студентам и эффективное использование в процессе урока. Учащимся была подчеркнута воспитательная ценность обучения с использованием интерактивных уроков.

Ключевые слова: Интерактивный урок, актив, ролевая игра, групповая работа, платформа, электронный учебник, мотивация, общение, графические органайзеры, вопросы и ответы.

Kirish. Lotin tili fani tibbiy ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki u nafaqat tilni o‘rganish, balki tarixiy, ilmiy va madaniy merosni tushunish uchun ham zarurdir. Lekin, an’anaviy o‘quv metodlari faqat yozma va og‘zaki mashqlar bilan cheklanishi, talabalarda qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda interfaol darslar o‘tish, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning bilimlarini mustahkamlash va ularda fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish maqsadida keraklidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. **Interfaol dars o‘tkazishning foydalari.**

Talabalarni faollashtirish. Interfaol darslar talabalarga faqat passiv tinglovchi bo‘lishdan ko‘ra faol ishtirokchi bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Ular o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lib, o‘z bilimlarini amaliy tarzda qo‘llashadi. Bu, o‘z navbatida, lotin tili kabi murakkab tilni o‘rganishda katta yordam beradi.

Muloqot va hamkorlikni rivojlantirish. Interfaol darslar talabalarni guruhlarda ishlashga, bir-birlari bilan fikr almashishga, savollar berishga undaydi. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘rganishda bu muhim, chunki talabalar nafaqat grammatik qoidalarni yodlashadi, balki tilni yanada chuqurroq tushunishga harakat qilishadi.

Tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirish. Talabalar interfaol darslarda o‘z bilimlarini muhokama qiladilar, bu esa ularni tanqidiy fikr yuritishga, turli yondashuvlar bilan qarashlar bildirishga o‘rgatadi. Lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rganish jarayonida bu, tilning lug‘aviy, grammatik va sintaktik jihatlarini to‘liq anglashga yordam beradi.

Motivatsiyani oshirish. Talabalar o‘zlarini dars jarayoniga bevosita jalb qilinganini his qilishadi. Interfaol metodlar orqali ular lotin tili va tibbiy terminologiya o‘rganishni o‘yin yoki muhokama sifatida qabul qiladilar, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va darslarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Lotin tili fanini o‘qitishda interfaol metodlar:

1. Rol o‘ynash: talabalar lotin tilidagi turli holatlarni o‘rganishda rol o‘ynash metodidan foydalanishlari mumkin. Masalan, talabalar bir-birlari bilan qisqa suhbatlar qurishadi, qoidalarga amal qilib, lotin tilida savollar berishadi va javoblar olishadi. Bu metod nafaqat grammatika, balki tilning amaliy jihatlarini ham o‘rgatadi.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan, deylik, “III turlanish otlari” mavzusi o‘tilgan bo‘lsa, birinchi talaba, otlar lug‘atini so‘raydi, ikkinchi talaba javob beradi, bu yerda talabalarning tez va to‘g‘ri javob berishlari ham inobatga olinsa vaqtdan unumli foydalanish mumkin.

basis, is, f	-asos	diagnosis, is, f	-tashxis, aniqlash
cavitas, atis, f	-bo‘shliq	dosis, is, f	-miqdor
curatio, ionis, f	-davolash	iniectio, onis, f	-ukol qilish, quyish
cutis, is, f	-teri	larynx, ngis, f (grek)	-hiqildoq
pertus, is, f	-ko‘k yo‘tal	pharynx, ngis, f (grek)	-halqum, yutqich
prognosis, is, f	-oldindan bilish	regio, onis, f	-soha
transfusio, onis, f	-quyish	tuberculosis, is, f	-sil kasalligi
tussis, is, f	-yo‘tal	cartilago, inis, f	-tog’ay
cervix, icis, f	-bo‘yin (bachadon, siydik pufagi, tish)		
necrosis, is, f	-tirik organizmning biror qismining o‘lishi		

2. Guruhlarda ishlash: lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda guruhli ishlar juda samarali bo‘ladi. talabalarni kichik guruhlarga ajratib, har bir guruhga biron-bir vazifa yoki topshiriq berish mumkin. Masalan, talabalar bir guruhda lotin tilidagi iboralar va jumlalarni tuzishlari yoki tarjima qilishlari kerak. Bu usul talabalarga tilni amaliy ravishda o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Natijalar va muhokama. Lotin tili fanini o‘qitishda bir-biriga o‘xshamagan usullarni qo‘llash talabalar bilimini oshirishi mumkin. Kichik guruhlarda ishlashga asoslangan “Har kim har kimga o‘rgatadi” usulida (1-rasm.) mavzu beriladi va talabalar guruhlarga ajratilib ushbu mavzu bo‘yicha ma’lumotlar yig‘adilar. Ma’lumotlarni yig‘ish vaqtida har bir talabaning fikri hisobga olinishi kerak. Guruh a’zolaridan biri taqdimot qiladi. Taqdimotning ixchamligi, ma’lumotlar yetarli va aniq ekanligi, dizayni va tushunarlilik darajasi hisobga olingan holda baholanadi.

2-ilova

1-rasm. “Har kim har kimga o‘rgatadi” (kichik guruhlarda ishlash) usuli

Yoki, Kichik guruhlarda ishlashni rag‘batlantiruvchi “Kim ko‘proq, kim tezroq” usuli yordamida talabalar guruhchalarga ajratiladi (2-rasm.). Har bir guruhchaga mavzu yuzasidddan savollar beriladi (bir guruhchaga berilgan savollar boshqa guruhlarga berilmaydi) va har bir guruh savollarga javob yozishadi, guruh a’zolari yoki a’zolardan biri javoblarni o‘qib berishi, sharxlashi kerak bo‘ladi.

2-rasm. “Kim ko‘proq, kim tezroq” (kichik guruhlarda ishlash) usuli

3. Interfaol texnologiyalarni ishlatish: zamonaviy texnologiyalar yordamida interfaol darslar yanada qiziqarli bo‘ladi. Masalan, turli onlayn platformalar va ilovalar orqali talabalar lotin tilidagi matnlarni ko‘rib chiqish, masalalar yechish yoki hatto o‘yinlar orqali bilimlarini tekshirishlari mumkin. Bu texnologiyalar talabalarning qiziqishini oshiradi va o‘rganish jarayonini yanada jonli qiladi.

Bu maqsadda Samarqand Davlat tibbiyot universitetida mt.sammu.uz platformasi yaratilgan bo‘lib, bu platformada barcha fanlardan, jumladan, lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan ham barcha yo‘nalishlar uchun o‘zbek, rus, ingliz tillarida ma’lumotlar bazasi yaratilgan. Universitet talabalari bu ma’lumotlardan istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanishlari mumkin, mavzuga doir test topshiriqlarini yechib, o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari mumkin.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan DGU 34881, DGU 34882, DGU 34883 raqamlar bilan 2024 yil 13 martda Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar berilgan “Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari”ning Elektron Darslikda ham fanning mavzulari bo‘yicha ma’lumotlar, mashqlar, slaydlar, test topshiriqlari va video darslar o‘zbek tilida berilgan. Bu Elektron darslikdan barcha tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining davolashga oid yo‘nalishlari talabalari bu ma’lumotlardan istalgan vaqtda va istalgan joyda Windows yoki Android tizimlarida foydalanishlari mumkin, mavzuga doir test topshiriqlarini yechib, o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari mumkin.

Xulosa. Lotin tili fanini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash, talabalarning faolligini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi va tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Bu metodlar nafaqat lotin tilining grammatikasini, balki uning tarixiy va madaniy kontekstlarini ham chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Interfaol darslar, shuningdek, talabalarda mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularga ta’lim jarayonida yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. Talabalarning bilimlarini oshirish yo‘lida qilingan ishlar o‘z samarasini berishiga ishonamiz.

ADABIYOTLAR

1. Махмудов, З. М., & Шарипов, Б. С. Талабаларнинг фанни яхши ўрганишлари учун психо–эмоционал таъсир этишда халқ мақол ва маталларидан тўғри фойдаланиш (лотин тили ва тиббий терминология фани мисолида). Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 112.
2. Nasimova, S. Y. (2024, August). Antroponim sarlavhalar. In Conference on Applied and Practical Sciences (pp. 149-151). Open Journal Systems.

3. Bakhodirovna, E. M. (2024). Structural and functional features of phraseological units in the texts of works of art (english and uzbek authors). Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-1), 111-117.
4. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 161-164.
5. Амриддинов, Ш., & Махмудов, З. М. (2025). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДРЕВНИХ ЛАТИНСКИХ ТЕРМИНОВ В СОВРЕМЕННОЙ СТОМАТОЛОГИИ. Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal, 2(1), 22-31.
6. Fayzullaev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.
7. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(13), 3358-3367.
8. Baxtiyarovna, B. D., Xolmurodovna, M. S., Nabiyevna, H. K., Maxammadovna, K. N., & Abdumannopovna, R. X. (2019). Modern methods in learning English. International scientific review, (1 (41)), 32-35.
9. Xolmurodovna, M. S. (2024). Syntactic analysis and their types in english linguistics. journal of international scientific research, 1(2), 163-166.
10. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. Science and Education, 3(12), 897-902.
11. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III Склонения имён существительных в латинском языке. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 22(5), 37-42.
12. Mallaevna, N. S., & Khalid, A. (2023, November). Topic chemical terminology of salts. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).
13. Alisherovna, A. U. (2023). Discourse in modern linguistics. Journal of new century innovations, 26(5), 123-128.
14. Alisherovna, A. U., & Uves, S. (2023, November). Clinical terminology: understanding word-formation, greek roots, suffixes, and prefixes. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 206-209).
15. Mardanovich, M. Z., Salimovich, S. B., & Arzimurodovich, B. D. (2021). Developing Students Attitudes Towards the Environment When Teaching a Foreign Languages. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 1(1), 199-201.
16. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. Journal of Universal Science Research, 2(1), 425-435.
17. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 132-136.
18. Sherbekova, Y., Makhmudova, S., Normuradova, N., Nuraliyeva, O., & Beknazarova, M. (2021). English As A Medium of Instruction in School of Arts. Ilkogretim Online, 20(3).
19. Maxmudov, Z. M. Retsept yozishda duch kelinadigan ayrim muammolarning qonuniy yechimi va amalda qo’llash haqida ba’zi mulohazalar,“. O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi.
20. Maxmudov Zafar Mardanovich, & Normurodova Sohiba Mallaevna (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. Research Focus, 2 (6), 132-136. doi: 10.5281/zenodo.8034739

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:471.1

Anvarjon MAKHMUDOV,
Researcher European institute of Applied science and Management
E-mail: makhmudov.a@gmail.com

Based on the review of Khujayev Muminjon Doctor of Phylosophical Sciences, Alfraganus University

THE FUNCTION AND SIGNIFICANCE OF THE HIGHER EDUCATION SECTOR IN THE COMMUNITY

Annotation

This quantitative research was conducted with the aspiration of expanding the theoretical and practical contribution to the field of satisfaction measurement. In the region of Central and Eastern Europe, there is a noticeable absence of student satisfaction surveys both nationally and at the level of individual universities. In comparison to Western universities in the Czech Republic, students are more interested in public universities, where studies are paid for by the state. However, the literature is mainly based on research on student satisfaction at private universities with paid education, while the measurement of satisfaction is usually timed after the educational experience. In all these areas, a certain degree of expansion of existing knowledge has been achieved.

Key words: Quantitative, satisfaction measurement, public universities, educational experience.

ФУНКЦИЯ И ЗНАЧЕНИЕ СЕКТОРА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СООБЩЕСТВЕ

Аннотация

Это количественное исследование было проведено с целью расширить теоретический и практический вклад в область измерения удовлетворенности. В регионе Центральной и Восточной Европы заметно отсутствие исследований удовлетворенности студентов как на национальном уровне, так и на уровне отдельных университетов. По сравнению с западными университетами в Чехии студенты больше интересуются государственными университетами, обучение в которых оплачивается государством. Однако литература в основном основана на исследованиях удовлетворенности студентов в частных университетах с платным обучением, тогда как измерение удовлетворенности обычно проводится после получения образовательного опыта. Во всех этих областях достигнута определенная степень расширения существующих знаний.

Ключевые слова: Количественные измерения, измерение удовлетворенности, государственные университеты, образовательный опыт.

OLIY TA’LIM SEKTORINING JAMOADAGI VAZIFASI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ta’lim sifatini o‘lchash sohasidagi nazariy va amaliy hissani kengaytirishga intilish bilan olib borildi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mintaqasida ham milliy miqyosda, ham alohida universitetlar darajasida talabalarning qoniqish so‘rovlari sezilarli darajada yo‘q. Chexiyadagi G‘arb universitetlari bilan solishtirganda, talabalar davlat universitetlariga ko‘proq qiziqishadi, bu erda o‘qish davlat tomonidan to‘lanadi. Biroq, adabiyotlar asosan pullik ta’limga ega bo‘lgan xususiy universitetlarda talabalarning qoniqish darajasi bo‘yicha tadqiqotlarga asoslanadi, qoniqishni o‘lchash esa odatda ta’lim tajribasidan keyin belgilanadi. Bu sohalarning barchasida mavjud bilimlarni ma’lum darajada kengaytirishga erishildi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifati, bilim o‘lchovi, davlat universitetlari, ta’lim tajribasi.

Introduction. Higher education is an area that helps develop the economy at the level of entire states, making it a strategically very important sector (Ali et al., 2016). The tradition of higher education as the highest level of the educational system is long-standing. Its origin dates back to ancient times, when the first academies and lyceums were established, which were later succeeded by universities (Cowdrey, 1998). These were founded in the west of the European continent only during the Middle Ages - in Bologna (founded in 1088), Paris (1150), Oxford (1167) or, for example, in Prague (1348). Today there is no unified interpretation for the origin of the word university. One version of the interpretation is the Latin term universitas (from Latin whole, generality, summary). Universities were founded as institutions precisely because of the need for unification, integrity in the sciences and the dissemination of knowledge (University | Definition, Origin, History, & Facts | Britannica, 2022). The importance of universities was later national and even continental, as these institutions preserved and developed knowledge common to the given region, which contributed to the co-creation of the cultural values and identities of the European communities. Naturally, higher education thus became an important sector of state interest.

In the Czech Republic today, the position of universities in society is anchored by its own law, specifically Act No. 111/1998 Coll., on universities. It stipulates that universities are a legal entity and the highest link of the educational system. They function as top centers of education, independent knowledge and creative activity. The significance of these institutions falls into various spheres of society – scientific, cultural, economic and social. there are three types of universities (public, state and private) and two types (university and non-university). Public and state universities are founded and financed by the state, their establishment is justified by meeting public needs. In addition to them, private universities are being created out of private needs and with the purpose of making a profit. Higher education is therefore available in the Czech Republic as declared by the Charter of Fundamental Rights and Freedoms:

"Citizens have the right to free education in primary and secondary schools, depending on the citizen's abilities and society's possibilities, also in universities."

(Charter of Fundamental Rights and Freedoms, Article 33, paragraph 2)

From the point of view of an individual who is interested in studying, a university is a place that allows "...in accordance with democratic principles, access to higher education, the acquisition of appropriate professional qualifications and preparation for research work and other demanding professional activities." (Law No. 111 /1998 Coll.

As already mentioned, higher education has a long tradition. Considering the topic of this dissertation thesis, it is important to mention the developmental changes that nowadays cause pressure to rework the strategies of individual universities. Institutions in the higher education system today face higher competition in order to differentiate themselves and attract the

highest possible number of potential students while meeting the needs of existing students (Kanwar and Sanjeeva, 2022). There are mainly two reasons for the increase in competition – firstly, the interest in studying at universities is increasing, the number of students is therefore growing significantly, and secondly, the principles of market entrepreneurship are penetrating the education sector (Burgess et al., 2018). This happened, for example, in Australia (Brown and Mazzarol, 2009), Great Britain (DeShields et al., 2005, Douglas et al., 2008) or India (Kanwar and Sanjeeva, 2022).

In particular, the British individual governments gradually tried to enforce the rules of commercial enterprise in the public sector, which included the introduction of tuition fees, the removal of regulatory conditions for student admission, customer-oriented approach to students, provision of education as a service, setting open market rules, etc. (Burgess et al., 2018), all in the belief of increasing the competitiveness of British educational institutions on a global scale (Douglas et al., 2008). The existence of educational institutions and organizations was and is to a large extent dependent on their own income, which is primarily state contributions or income from school fees (Douglas et al., 2006). The amount of these total revenues is influenced, among other things, by the rate of student retention, i.e. as Rowley (2003) writes, if an institution can attract and retain students who subsequently graduate successfully, this institution will collect a higher level of support from the state or higher income from tuition fees than if students were more likely to drop out early. Student satisfaction is of great importance here, as a satisfied student shows a higher retention rate (Rowley, 2003). Universities are thus motivated to attract potential students and at the same time provide them with adequate quality of services leading to successful graduation (Seymour, 1992). For this reason, colleges have commissioned several researches to find out what exactly makes a student happy in higher education (Kanwar & Sanjeeva, 2022).

Successful educational institutions collect a higher level of financial support, which can be reinvested in educational services and thereby improve the educational process (Anderson et al., 1994). Therefore, setting the rules of a certain competition in the education sector should be understood as a way to motivate institutions to achieve service excellence, which subsequently leads to an increase in student satisfaction with the given institution (Douglas et al., 2008). The increase in the number of people interested in studying and the penetration of the principles of the market economy led not only to the global growth of the education sector, but also resulted in a change in the overall concept of universities. The traditional model presented universities as a place of elite liberal education, but this model is gradually being replaced and universities are now considered providers of applicable and relevant knowledge for the wider masses of people (Mok & Jiang, 2017). The increased interest in studying is explained by the fact that graduating from university brings many advantages to the student, which subsequently drive their economic growth. For example, the average graduate has a high chance of earning a higher lifetime income than his peers without a college degree (Pericles Rospigliosi et al., 2014). However, the change in the perception of the university also had unexpected side effects. In general, more funds are being invested in the education sector and this raises the debate as to whether these investments are still paying off (Crawford and Erve, 2015). Furthermore, it has been shown that higher education can accentuate social inequalities in society, as happened for example in China (Mok and Jiang, 2017). and last but not least, in countries where education is mainly financed by the state, the growth of the education sector causes even more pressure on public finances, which eventually become unsustainable (Mazzarol & Norman Soutar, 1999).

The growing competitive environment in the education sector has triggered a chain reaction. Universities have begun to adapt to the new rules, a process that Hemsley-Brown and Oplatka (2006) call the “marketization” of higher education. The sector has come to be seen as a service market where the student is the main customer and client (DeShields et al., 2005; Meek & Wood, 1998). This environment has become very competitive and universities have had to respond by changing their strategies to deliver the quality of their services in such a way that the customer is maximally satisfied. In the perception of universities, student satisfaction has newly become a competitive advantage (Poole et al., 2000). Hennig-Thurau et al. (2001) and Oldfield and Baron (2000) also say that higher education is a clear example of a service delivered to a customer (student) by a provider (university).

However, there are also authors who distinguish educational services from other services offered on the market. For example, Shank et al. (1995) generally describe the nature of a service as intangible and heterogeneous, whereby the service is produced and consumed at one point in time. in the case of education, the product is the effort expended by the teaching pedagogue to transfer knowledge to the student and then transform this knowledge into skills. Both parties, i.e. the teacher and the student, participate in this process and the resulting quality of the service is determined by the degree of their participation (Gruber et al., 2010). Thus, students have to exert a huge amount of motivation and intellectual skills in order for the educational service to fulfill the desired benefit (Appleton-Knapp & Krentler, 2006). Due to this nature of the service, it is not always possible to measure its quality completely objectively (Patterson, 1993).

REFERENCES

1. Abdullah, F. (2006). The development of HEdPERF: A new measuring instrument of service quality for the higher education sector. International Journal of Consumer Studies, 30 (6), 569–581. https://doi.org/10.1111/j.1470-6431.2005.00480.x
2. Act No. 111/1998 Coll., on universities, Ministry of Education and Culture of the Czech Republic. (2022). Retrieved December 14, 2022, from https://www.msmt.cz/vyzkum-a-vyvoj-2/zakon-c-111-1998-sb-o-vysokych-skolach
3. Afzal, H., Ali, I., Aslam Khan, M., & Hamid, K. (2010). A Study of University Students' Motivation and Its Relationship with Their Academic Performance (SSRN Scholarly Paper No. 2899435). https://doi.org/10.2139/ssrn.2899435
4. Bedggood, RE, & Donovan, JD (2012). University performance evaluations: What are we really measuring? Studies in Higher Education, 37 (7), 825–842. https://doi.org/10.1080/03075079.2010.549221
5. Cattell, RB (1966). The Scree Test For The Number Of Factors. Multivariate Behavioral Research, 1 (2), 245–276. https://doi.org/10.1207/s15327906mbr0102_10
6. Cave, M. (1997). The Use of Performance Indicators in Higher Education: The Challenge of the Quality Movement. Jessica Kingsley Publishers.
7. Finn, A., & Kayande, U. (2004). Scale modification: Alternative approaches and their consequences. Journal of Retailing, 80 (1), 37–52. https://doi.org/10.1016/j.jretai.2004.01.003
8. Fisher, M., & Marshall, A. (2009). Understanding descriptive statistics. Australian critical care: official journal of the Confederation of Australian Critical Care Nurses, 22, 93–97. https://doi.org/10.1016/j.aucc.2008.11.003
9. Williams, J., & Cappuccini-Ansfield, G. (2007). Fitness for Purpose? National and Institutional Approaches to Publicizing the Student Voice. Quality in Higher Education, 13 (2), 159–172. https://doi.org/10.1080/13538320701629186
10. Yan, X., & Su, X. (2009). Linear Regression Analysis: Theory and Computing. World Scientific.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 101.1

Adhamjon MIRZACHAYEV,
Alfraganus universiteti Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi,
O‘zbekiston Milliy universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: a.mirzachayev@afu.uz

ISFT instituti dotsenti, f.f.n D.Bozarov taqrizi asosida

ABU HANIFA MAZHABI VAKILLARINING QARASHLARI VA IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abu Hanifa vakillarining qarashlari va ijtimoiy-falsafiy tahlili haqida so‘z boradi. Mazhablar, jumladan, hanafiy mazhabining dunyo ofkor ommasi oldidagi roli tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Islom, mazhab, e’tiqod, shahar, aholi.

ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ МАЗХАБА АБУ ХАНИФЫ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассматриваются взгляды представителей Абу Ханифы и их социально-философский анализ. Анализируется роль мазхабов, включая ханафитский мазхаб, перед общественным мнением мира.
Ключевые слова: Ислам, мазхаб, вера, город, население.

VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE ABU HANIFA SCHOOL AND THEIR SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article discusses the views of Abu Hanifa's representatives and their social-philosophical analysis. The role of the madhhabs, including the Hanafi madhhab, in front of the public opinion of the world is analyzed.
Key words: Islam, madhhab, belief, city, population.

Kirish. Abu Hanifa No‘mon (r.a.)ning mazhabi Imom Molik (r.a.) mazhabiga ergashuvchilar ko‘paygunga qadar Andalus shaharlarida nashr etilgan. Muqaddasiy “Ahsan ut-Taqosim” kitobida Molikiy mazhabining Hanafiy mazhabi tarafdorlari ustidan g‘olib kelganligi haqidagi voqeani ba’zi mag‘ribliklarning so‘zlaridan hikoya qiladi. Bir guruh hanafiy mazhabi tarafdorlari va bir guruh molikiy mazhabi tarafdorlari Sulton huzurida tortishib qolishdi. Sulton ulardan Abu Hanifa qaysi shahardan ekanligini so‘radi? Kufa shahridan, deyishdi, yana so‘radi: Imom Molik qaysi shahardan? Madinadan, deyishdi. Sulton dedi: Madinalik olim bizga yetarli va Abu Hanifa No‘mon (r.a.)ning sahobalarini Andalusdan chiqarib yuborishni buyurib, ishimga ikki mazhab aralashsa, menga yoqmaydi, dedi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Afrika mintaqasida (Jazoir, Tunis va Taroblus) Abu Hanifa No‘mon (ra) mazhabi mavjud edi. Tunisdagi Ahl al-Bayt Molik (Tunis hokimi) Ahnafdan bo‘lgan, shuning uchun Hanafiy mazhabi bu shaharda (poytaxtda) imtiyoz topgan edi [2]. Shu tariqa, faqat Molikiy mazhabiga tegishli bo‘lgan boshqa sohalardan farqli o‘laroq, Hanafiy mazhabiga ham fatvo berildi. Tunis bosh muftiysi hanafiy mazhabiga mansub bo‘lib, bu mazhabda uning uchun alohida g‘urur va ma’naviyat bor edi. Poytaxt atrofidagi jamiyatda muftiyning taxallusi “Shayx ul-Islom” bo‘lib, Molikiylar mazhabi bu mintaqada ikkinchi maqomga ega bo‘lib, madrasalari bo‘lishi odat edi. “Jome’ uz-zaytun» hanafiy mazhabidan bo‘lib, qolgan yarmi esa molikiy mazhabi vakillari xisoblangan. Ammo biz hanafiy mazhabining nashr etilishi haqida aytib o‘tgan boshqa bir voqea, bu viloyatning ba’zi shaharlarida mazhab paydo bo‘lganidan boshlab nashr etilgan [3]. Ba’zi boshqa shaharlarda bu mazhabning turli davrlarda nashr etilishiga yo hanafiy ulamolarining bu shaharlarga borib, o‘z mazhablarini yoyishlari yoki hukm va fatvolar shu ulamolar qo‘lida bo‘lganligi sababli hanafiy mazhabi ulamolarining bu shaharlarga tashriflari ularning borgan har bir shaharlarida shu mazhabga berilganligi yoki boshqa sabablar borligi ko‘rilgan [4].

Iroq, Suriya, Hindiston, Afg‘oniston va Sharqiy Turkiston (Xitoy Xalq Davlatida uyg‘urlar yashaydigan Shinjon Muxtor viloyatidan Shimoliy dengizgacha) va g‘arbiy (Shimoliy dengiz) kabi rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Usmonli Turkiyadan ko‘plab albanlar, Bolqon mamlakatlari aholisi islom dinini hanafiy mazhabiga amal qildilar va bu mazhab juda keng tarqalgan. Ushbu mazhabga ergashuvchilar ba’zi taxminlarga ko‘ra Hindistonda 48 millionga, Braziliyada esa 48 millionga yetadi. Janubiy Amerikada 25 000 dan ortiq musulmon bo‘lib, ularning barchasi Imomi A’zam (ra) mazhabiga ergashadi [5]. Yamanning Sano va Suada shaharlarida hanafiy mazhabi boshqa mazhablarga qaraganda ustunroq edi. Fatvo va qazo ham yuqoridagi kabidir. Aytib o‘tganimizdek, Iroq va Shom xalqlari hanafiy mazhabiga o‘tgan, mazhab hukmron bo‘lgan Livan va Iroqda qoriyalar ya’ni qishloqlar qolmagan. Hanafiy u yerga bormagan, ya’ni Iroq va Suriyaning barcha oilalari Buyuk kun dinini bilishgan va ko‘pchiligi unga ergashgan. Xuroson, Sijiston va Sharq dengizi kabi sharqiy iqlimda va Sharqiy dengizdagi shaharlarning aksariyati Imomi A’zam mazhabiga ergashgan, bundan tashqari bu shaharlarning ba’zilarida oz sonli odamlar imom A’zam mazhabiga ergashganlar. Daylam iqlimidan Gurgon, Eron va Tabariston aholisining ba’zi qismi hanafiy mazhabiga ergashgan. Armaniston, Ozarbayjon va Tabrizdagi musulmonlar ham hanafiy mazhabiga ergashgan va hozir ham davom etmoqda. O‘tmishda Ahvoz nomi bilan mashhur bo‘lgan Xuziston shaharlarida hanafiy mazhabining mashhur olim va ulamolari yashab, Eronning aksariyat fors mamlakatlari hanafiy mazhabiga, Hindiston, Pokiston, Bengaliya (Bangladesh) shaharlarida esa hanafiy mazhabiga ergashganlar), bugungi kunda ham ko‘pchilik hanafiy mazhabiga amal qiladi [6].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda Mag‘rib, Jazoir, Tunis, Taroblus kabi musulmon mamlakatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, garchi Molikiy mazhabiga ergashuvchilar ko‘proq bo‘lsa-da, ammo qolgan uchta sunniy mazhabdan faqat hanafiy mazhabi tarafdorlarini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Misrda shofe’iy va molikiy mazhabi tarafdorlari ko‘proq ko‘zga tashlanadi va qisman hanafiylar ham uchraydi. Shofe’iylar asosan Rif shahrida, molikiylar esa Said shahrida, lekin mahkamalarning fatvolarining aksariyati hanafiy mazhabiga beriladi, chunki o‘tmishda bu mazhab arablarda katta shon-shuhratga erishgan edi.

Misr, Shomi Sharif musulmonlarining yarmi hanafiy mazhabidagilardir, to‘rtdan biri shofe’iylar, to‘rtdan biri esa hanbaliylardir. Falastin xalqining ko‘pchiligi Shofe’iy mazhabiga tobedirlar. Hanafiy va Molikiy mazhablari deyarli ko‘rinmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sudanliklarining aksariyati Molikiy mazhabiga mansubdir. Hijoz va Taxomada yashovchilarning aksariyati Shofi’iy mazhabiga ergashadi. G‘olib va Najdliklarining ko‘pchiligi Hanbaliy mazhabiga mansub. Yamandagi Ahli Sunna va Adan va Hazoralmavt shofe’iy mazhabi, Adan shahrida esa bir qabila hanafiy mazhabiga ergashadi. Fors urf-odatlariga ega bo‘lganlarning ko‘pchiligi Shofe’iy mazhabidan bo‘lib, ularning oz qismi Hanafiy mazhabiga ergashadi. Afg‘oniston musulmonlarining ko‘pchiligi hanifiylardan iborat bo‘lib, oz sonli shofe’iy va hanbaliy mazhabiga e’tiqod qiladi. Sharqiy Turkiston (Xitoy) musulmonlarining ko‘pchiligi shofe’iy mazhabiga e’tiqod qilgan bo‘lsa, Buxoro shahridan kelgan olimlarning say-harakatlari bilan odamlar Hanafiy mazhabiga ergashdilar. Kavkaz va uning atrofidagi shaharlarning bir qismi shofe’iy, ba’zilari esa hanafiy mazhabiga e’tiqod qiladi. Hindistondagi g‘oliblar esa, avval aytib o‘tganimizdek, hanafiy mazhabidagilardir [7].

Xulosa va tarliflar. O‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda Islom olamida Imom Abu Hanifa (r.a.) mazhabi juda ko‘p taraqqiyotga erishib, Islom olami musulmonlarining ko‘plab tarafdorlarini o‘z mazhabiga jalb etgan. Biz muxlislar bugungi kunlik mavzularimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu mazhab musulmonlar hayotini osonlashtirish uchun katta xizmat qilgan. Afsuslar bo‘lsinki, bugungi kunda ayrim yoshlarimiz ahli sunna mazhablarini bilimsizlikdan yoki to‘g‘ri tushunmaslikdan nafrat bilan ahli sunna mazhablariga ergashuvchilarga e’tiborsizlik bilan tarafdorlarini haqorat qilib, ularni savodsizlikka nisbat berish kabi xollar kuzatilmoqda. Mamlakatimizda odob axloq tamoyillari asosida o‘zbekona urf odatlarimiz negizi o‘laroq hanafiylik singigan xalqimizga ehtirom ila sof islom arkonlari va uning mazhablarini to‘g‘ri tushintirishimiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -56 b.
2. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -57 b.
3. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -58 b.
4. Abu Is’hoqi Sherozi. Tabaqotu-l-fuqaho. \ Abu Is’hoqi Sherozi. Beyrut: Dor-ur-roidi arabi, 1899. -135 s.
5. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -59 b.
6. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -85 b.
7. Ahmad ibni Ismoil ibni Muhammadi Taymur. Nazrat-uttorixiyati fi hudus-il-mazohib-il-fiqhiyat-il-arba’ati.\ Ahmad ibni Ismoil.- Beyrut: Dor-ul-Qodiri, 1996. -86 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:372.8

Nargiza MIRYUSUPOVA,
Maktabgacha talim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini kayta tayerlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti
E-mail: nargizamiryusupova87@mail.ru

DSc, professor T.Ismoilov tarqizi asosida

MAKTABGACHA TALIMNI BOSHQARISHDA STRATEGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’limni boshqarishda strategik yondashuvlarning ahamiyati va ularni joriy etish usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy baza, inson resurslarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda ota-onalar bilan hamkorlikni strategik darajada tashkil qilish masalalariga e’tibor qaratiladi. O‘tkazilgan intervyu va focus-group tahlillari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv modellarining samaradorligi ko‘p jihatdan uzoq muddatli maqsadlar, monitoring mexanizmlari va faol manfaatdor tomonlar ishtirokiga bog‘liq. Xalqaro tajriba va mahalliy sharoitni uyg‘unlashtirish orqali bolalar rivojlanishi va tarbiyachilar malakasini yangi bosqichga ko‘tarish, pirovardida jamiyatning ilmiy-ma’rifiy salohiyatini mustahkamlash imkoni yaratiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, boshqaruv, strategik rejalashtirish, innovatsion pedagogika, ota-onalar bilan hamkorlik, malaka oshirish, monitoring, resurslar.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

Аннотация

В данной статье рассматривается значимость стратегических подходов в управлении дошкольным образованием и методы их внедрения. В ходе исследования основное внимание уделяется нормативно-правовой базе, развитию человеческих ресурсов, применению инновационных педагогических технологий, а также стратегическому сотрудничеству с родителями. Интервью и фокус-группы показали, что эффективность управленческих моделей в дошкольных учреждениях во многом зависит от долгосрочных целей, механизмов мониторинга и активного участия заинтересованных сторон. Комбинация международного опыта и местного контекста позволяет вывести развитие детей и квалификацию воспитателей на новый уровень, что в конечном итоге укрепляет научно-просветительский потенциал общества.

Ключевые слова: Дошкольное образование, управление, стратегическое планирование, инновационная педагогика, сотрудничество с родителями, повышение квалификации, мониторинг, ресурсы.

STRATEGIC APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT

Annotation

This article examines the significance of strategic approaches to managing preschool education and the methods of their implementation. The study focuses on the regulatory framework, human resource development, the application of innovative pedagogical technologies, and establishing strategic cooperation with parents. Interviews and focus group discussions revealed that the effectiveness of management models in preschool institutions largely depends on long-term goals, monitoring mechanisms, and active stakeholder participation. By integrating international experience with local context, it is possible to enhance children’s development and educators’ professional qualifications, ultimately strengthening the society’s scientific and educational potential.

Key words: Preschool education, management, strategic planning, innovative pedagogy, parental cooperation, professional development, monitoring, resources.

Kirish. Maktabgacha ta’lim bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy poydevorini shakllantiradigan muhim bosqich hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, bolalarning ilk yillari ularning kelajakdagi o‘qish jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy salohiyati rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim muassasalari boshqaruvi shu bois nafaqat bolaning shaxsiy imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish, balki davlatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limni boshqarishda zamonaviy strategik yondashuvlarni qo‘llash orqali bolalarning rivojlanishini optimallashtirish, tarbiyachilar malakasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va umuman olganda jamiyatning ta’limiy-ijtimoiy ehtiyojlariga moslashish mumkin. Shu ma’noda, bolalarning pirovard natijadagi rivojlanish darajasi bevosita boshqaruvning samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq bu jarayon turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida kechadi. Xususan, demografik o‘zgarishlar, o‘quvchilar sonining ko‘payishi, o‘qituvchi va tarbiyachilar malakasini oshirish ehtiyojlari, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘ning yetarliligi hamda oilalar bilan hamkorlik strategiyalarining qanday yo‘lga qo‘yilishi – bularning barchasi samarali boshqaruv uchun puxta strategik rejalashtirishni talab etadi. Ana shu sharoitda maktabgacha ta’limni boshqarishda strategik yondashuvlar nimalardan iborat bo‘lishi, ular qanday qo‘llanilishi va qanday natijalarga erishish mumkinligi ushbu maqolaning asosiy tadqiqot yo‘nalishini tashkil etadi.

Metod. Ushbu ilmiy tadqiqotda maktabgacha ta’lim boshqaruviga oid strategik yondashuvlarni o‘rganishda bir nechta metodologik manbalarga asoslanildi. Avvalo, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali metodik asos tayyorlandi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar, xususan YUNESKO, UNICEF, O‘ECD kabi institutsional tuzilmalarning maktabgacha ta’lim sohasidagi tavsiyalari, ilg‘or tajribalari va siyosiy hujjatlari tahlil qilindi. Keyinchalik, mahalliy kontekstda maktabgacha ta’limni boshqarishda yuzaga keluvchi dolzarb masalalarni aniqlash va ularning echimlari bo‘yicha ma’lumot olish maqsadida intervyu va focus-group usullaridan foydalanildi. Intervyular maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari, tarbiyachilar va ota-onalar bilan olib borildi. Focus-group esa turli darajadagi (rayon, shahar va respublika miqyosida) ta’lim mutasaddilari hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotchilar ishtirokida tashkil etildi. Olingan ma’lumotlar kontent-tahlil va tematik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, eng muhim strategik yondashuvlar ajratib ko‘rsatildi. Shuningdek, ta’lim tizimida jahon miqyosidagi tendensiyalarni solishtirish maqsadida qator davlatlarning maktabgacha ta’lim boshqaruviga oid qonunchilik va amaliy tajribalari ham o‘rganildi. Natijada, xalqaro tajribaga xos bo‘lgan strategik elementlar bilan mahalliy sharoit o‘rtasidagi muvofiqlik

darajasi baholandi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodlarning uyg‘unligi, ya’ni nazariy tahlil, empirik kuzatish, intervyu, focus-group va solishtirma tahlillar maktabgacha ta’lim boshqaruvida strategik yondashuvlar haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini berdi.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, maktabgacha ta’limni boshqarishda strategik rejalashtirish bir nechta asosiy yo‘nalishda kuzatiladi. Avvalo, boshqaruv tizimining qat’iy normativ-huquqiy bazaga tayanishi yetakchi o‘rin tutadi. YA’ni, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga oid asosiy qonunlar, nizomlar, standartlar va davlat dasturlari davlat yoki mahalliy hokimiyat darajasida belgilangan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishda to‘g‘ri strategik qarorlar qabul qilish muassasa rahbarlarining salohiyati va tarbiyachilar jamoasi bilan hamkorligiga bog‘liq. Ikkinchi yo‘nalish sifatida, inson resurslarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadqiqot chog‘ida intervyu qilingan rahbarlar va tarbiyachilar kasbiy malakalarini doimiy oshirish ehtiyojini ta’kidlashdi. Bu borada o‘quv kurslari, malaka oshirish dasturlari hamda tarbiyachilar o‘rtasida tajriba almashish tadbirlariga bo‘lgan talab yuqori ekani kuzatildi. Shuningdek, modellar amaliyotda samarali natija berishi uchun boshqaruvdagi xodimlar o‘zaro ko‘nikma, motivatsiya va yetarli metodik ta’minotga ega bo‘lishlari zarurligi aniqlandi. Uchinchi muhim yo‘nalish – innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Maktabgacha ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv dars usullarini targ‘ib qilish, bolalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi loyihalarga e’tibor qaratish juda zarur ekanligi aniqlandi. To‘rtinchi muhim jihat – oilalar bilan strategik hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish. Tadqiqot davomida ota-onalar bilan muloqot, o‘quv-tarbiya jarayonini uy va bog‘cha sharoitida izchil davom ettirish mexanizmlari haqiqatan ham maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Ota-onalar farzandlarining rivojlanish jarayonida bevosita ishtirok etishi, bolalarga tarbiyachi bergan ko‘nikmalarni mustahkamlashda faol bo‘lishi ta’limning barqaror samarasiga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, resurslar bilan ta’minlash ham muhimligi, ya’ni moddiy-texnika bazasini yaxshilash, guruhlarda bola sonini meyorlash, oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlarini sifatli taminlash bo‘yicha ijtimoiy hamda hukumat dasturlari ishlab chiqilishi lozimligi aniqlandi.

Tahlil va muhokama. Maktabgacha ta’lim bosqichida strategik boshqaruv deganda, birinchi navbatda, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ularga erishishda zanjirbozlik mexanizmini yaratish, natijalarni monitoring qilish va natijalar asosida keyingi qarorlarni shakllantirish tushuniladi. Joriy tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim rahbarlari odatda o‘z rejalari yoki yuqori idoralar tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida ish ko‘rishadi. Ammo bunday rasmiy hujjatlar hamisha ham “strategik” xususiyatga ega bo‘lmasligi mumkin, chunki ular amaliy natijalar, sifat o‘lchovlari va ularni monitoring qilish mexanizmlari bilan to‘laqonli bog‘lanmagan bo‘lishi ehtimoli bor. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish elementlarini samarali joriy etish uchun, avvalo, boshqaruv xodimlari mana shu tizimga oid to‘liq tushunchaga ega bo‘lishlari talab etiladi. Xuddi shu jarayonda xorij tajribasidan moslashuvchan foydalanish mumkin. Masalan, ayrim Yevropa davlatlarida “professional o‘rganish hamjamiyatlari”ni shakllantirish orqali, maktabgacha ta’lim xodimlari o‘rtasida malaka va tajriba almashinuvi mukammal yo‘lga qo‘yiladi. Bunday amaliyot bizdagi ta’lim muassasalarida ham joriy qilinsa, rahbar va tarbiyachilar orasida doimiy muloqot va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzaga kelishi, strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan birgalikdagi qarorlar qabuli yengillashishi mumkin. Shu bilan birga, oilalar bilan hamkorlikda strategik rejalashtirishning alohida afzalligi bor: ota-onalar bolalarning rivojlanishidagi ustuvor maqsadlar bilan tanishtiriladi, ularning fikrlarini inobatga olish orqali ta’lim jarayonining moslashuvchanligi oshadi. Ota-onalarning ko‘nikma va mulohazalari boshqaruv tizimini to‘ldiradi, zaruriy resurlarni safarbar etishda qulay sharoit yaratadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, maktabgacha ta’lim bosqichida oilalarning ishtiroki keyinchalik maktab bosqichida ham bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ta’lim jarayoni butun bir ijtimoiy muhitni qamrab oladigan shaklga keladi, bu esa strategik boshqaruvning izchil rivojiga yo‘l ochadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va joriy qilishda strategik yondashuvning o‘rni dolzarbdir. Tadqiqotda aniqlanishicha, zamonaviy texnologik platformalardan foydalanish, masalan, onlayn resurslar va virtual o‘yinlardan maqsadli foydalanish bolalarning qobiliyatlarini tezroq rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin. Ammo shu bilan birga, har bir maktabgacha ta’lim muassasasi o‘zining konkret sharoitlaridan, pedagogik jamoaning imkoniyatlaridan kelib chiqishi, texnologik vositalarning texnik ta’minotga bo‘lgan talablari va xavfsizligi masalalarini hamda bolaning ruhiy holatiga ta’sirini inobatga olishi zarur. Demak, innovatsion texnologiyalar strategik reja doirasida puxta tahlil qilinishi, kutilayotgan natijalar oldindan baholanib, monitoring usullarining aniq belgilab olinishi kerak. Ta’kidlash joizki, mazkur strategik qarorlar qabul qilinishida manfaatdor tomonlar – ota-onalar, pedagoglar, jamiyat vakillari – hamkorlikda ishtirok etishi lozim. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, strategik yondashuvlar boshqaruvning faol, moslashuvchan va innovatsion modelini yaratishga ko‘mak beradi. Binobarin, boshqaruv samarasini oshirishda, tabiiyki, davlat siyosati darajasidagi hujjatlar muhim bo‘lsa-da, joylardagi ijro mexanizmi, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, profesional hamjamiyatlar o‘rtasidagi hamkorlik, ota-onalar bilan turg‘un muloqot va qadriyatlar uyg‘unligi ta’lim jarayonida sifatli natijaga erishishni belgilab beradi. Bu esa maktabgacha ta’lim sohasidagi uzluksiz taraqqiyotning negizini tashkil etadi.

Xulosa. Maktabgacha ta’limni boshqarishda strategik yondashuvlar nafaqat bolalar rivojlanishi va tarbiyachilar malakasiga, balki butun jamiyatning ilmiy-ma’rifiy salohiyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Ushbu tadqiqotda ko‘rsatib o‘tilganidek, samarali strategik boshqaruvni yo‘lga qo‘yish uchun bir nechta asosiy omillar uyg‘un ishlashi zarur. Birinchidan, qonunchilik-meyoriy baza mavjud bo‘lganda ham uni ishga solishdagi moslashuvchanlik va ijro intizomi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ikkinchidan, tarbiyachilar va rahbar kadrlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish, malaka oshirish tizimini mukammal yo‘lga qo‘yish lozim. Uchinchi omil sifatida oilalar bilan hamkorlikni strategik darajaga ko‘tarish, ya’ni ota-onalarni faqat kuzatuvchi yoki ijrochi emas, balki hamkor sifatida jalb qilish, rejalashtirish va baholash jarayonida ularning ishtirokini ta’minlash alohida ahamiyatga ega. To‘rtinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni to‘g‘ri boshqarish muhim. Buning uchun texnik ko‘nikmalar va metodik qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda bolalarning salomatligi, psixologiyasi, xavfsizligi ham doimiy nazoratda bo‘lishi talab etiladi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, strategik boshqaruv modeli joriy etilgan maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, natijada ta’lim sifati izchil ravishda yuqori pog‘onaga ko‘tariladi. Shu bois kelgusida maktabgacha ta’lim sohasida olib boriladigan tadqiqotlar, amaliy chora-tadbirlar va siyosiy dasturni ishlab chiqishlarda strategik yondashuv prinsiplari ustuvor o‘rin tutishi zarurligi ta’kidlanadi. Zero, maktabgacha ta’limda tizimli va strategik qarorlar qabul qilish nafaqat jamiyatda ilm-fan va madaniyat rivojiga, balki davlatning barqaror taraqqiyotiga ham ijobiy hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш бўйича Низом / Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги. – Т.: МТВ, 2020. – 45 б.
2. Кузиев Р. Р.Мактабгача таълим: назарий ва амалий аспектлар / Р. Р. Кузиев. – Т.: Фан, 2018. – 225 б.

3. UNESCO.Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. – Paris: UNESCO, 2016. – 68 p.
4. OECD.Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 224 p.
5. Ғуломова Д. Ҳ.Инновацион педагогик технологиялардан фойдаланишда стратегик ёндашувлар / Д. Ҳ. Ғуломова // Педагогика инновациялари журнали. – 2021. – № 2. – Б. 112–118.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:377

Nilufar MUMINDJANOVA,
QDPI Pedagogika va ta’lim menejmenti kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
E-mail: NilufarxonMumindjanova@gmail.com

TDPU professori, p.f.d N.Muslimov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL-EXTREME COMPETENCIES IN VOCATIONAL EDUCATION

Annotation

This study focuses on exploring the scientific and theoretical foundations of developing students' professional-extreme competencies in the vocational education system. The research analyzes the content of extreme competencies, their pedagogical and psychological foundations, development methods, and the possibilities of their application in the educational process. Through experiments and empirical analyses, ways to improve professional training are identified, and practical recommendations are developed. The results of this study contribute to enhancing the effectiveness of the vocational education system and fostering students' competencies in operating under extreme conditions.

Key words: Professional-extreme competency, vocational education, pedagogical methods, psychological training, extreme conditions, stress management, innovative educational technologies, interactive teaching, simulation training, professional development.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Данное исследование направлено на изучение научно-теоретических основ развития профессионально-экстремальных компетенций учащихся в системе профессионального образования. В ходе исследования анализируется содержание экстремальных компетенций, их педагогические и психологические основы, методы развития, а также возможности их применения в учебном процессе. В результате экспериментов и эмпирического анализа определяются пути совершенствования профессиональной подготовки и разрабатываются практические рекомендации. Результаты данного исследования способствуют повышению эффективности системы профессионального образования, а также формированию у учащихся компетенций для деятельности в экстремальных условиях.

Ключевые слова: Профессионально-экстремальная компетенция, профессиональное образование, педагогические методы, психологическая подготовка, экстремальные условия, управление стрессом, инновационные образовательные технологии, интерактивное обучение, симуляционные занятия, профессиональное развитие.

PROFESSIONAL TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING KASBIY-EKSTREMAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ekstremal kompetensiyalarning mazmuni, ularning pedagogik va psixologik asoslari, rivojlantirish metodlari hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Eksperimentlar va empirik tahlillar natijasida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish yo‘llari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur tadqiqot natijalari professional ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga hamda o‘quvchilarning ekstremal sharoitlarda faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy-ekstremal kompetensiya, professional ta’lim, pedagogik metodlar, psixologik tayyorgarlik, ekstremal sharoitlar, stress boshqarish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, interfaol o‘qitish, simulyatsion mashg‘ulotlar, kasbiy rivojlanish.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayoni o‘zgarib, zamonaviy ta’lim tizimi oldida yangidan-yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, ekstremal sharoitlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi bo‘yicha olib borayotgan islohotlari ham aynan ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni real hayot sharoitlariga tayyorlash hamda ularning kasbiy mahoratini yuksaltirishga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida: “Bugungi kunda biz zamonaviy, raqobatbardosh va yuksak kasbiy mahoratga ega mutaxassislarni tayyorlashimiz lozim. Bu esa ta’lim tizimiga zamonaviy metodlarni joriy etish va yoshlarni real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashishiga erishish orqali amalga oshiriladi”.

Kasbiy-ekstremal kompetensiya insonning murakkab, favqulodda va stressli sharoitlarda samarali ishlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya harbiy soha, huquqni muhofaza qilish organlari, tibbiyot, qutqaruv xizmati, muhandislik va boshqa xavfli kasblar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Kasbiy-ekstremal kompetensiya – bu kasbiy faoliyat davomida ekstremal sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, stressni boshqarish, favqulodda holatlarda tez va samarali harakat qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya ayniqsa harbiy, huquq-tartibot, tibbiyot, qutqaruv xizmati va muhandislik sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Trening va simulyatsiyalar – O‘quvchilarga real hayotdagi ekstremal sharoitlarda harakat qilish imkonini beradi.

Interfaol darslar – Muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish metodlari asosida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kasbiy amaliyot – Ish joyida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik – Stressni boshqarish, motivatsiyani oshirish va o‘ziga ishonchni shakllantirish.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunda professional ta’lim tizimida dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning mehnat

bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga, ekstremal sharoitlarda samarali ishlashiga va kasbiy o‘sishga katta ta’sir ko‘rsatadi [1].

Professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakalari ham berilishi zarur. Bugungi kunda ta’limning bu yo‘nalishi bo‘yicha kompetensiyaviy yondashuv tobora ahamiyat kasb etmoqda.

Kasbiy tayyorlash kompetensiyalari o‘quvchilarning mehnat bozoriga tayyorlanishiga, kasbiy faoliyatda mustaqil va samarali ishlashga qodir bo‘lishiga yordam beradi. Ushbu kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Nazariy bilimlar – O‘z mutaxassisligi bo‘yicha asosiy bilimlarni egallash.

Amaliy ko‘nikmalar – Real ish sharoitlarida ishlash malakalarini shakllantirish.

Kasbiy muloqot qobiliyati – Jamoada ishlash, mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish – Innovatsion va kreativ fikrlash orqali kasbiy muammolarni yechish [2].

Pedagogik muammo sifatida kompetensiyaviy yondashuv:

Bugungi kunda professional ta’limda o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun o‘quvchilar o‘z harakatlarini tahlil qilishni o‘rganishlari zarur:

Har bir mashg‘ulotdan so‘ng muhokama va tahlil jarayonlarini o‘tkazish.

Xatolarni aniqlash va ularni qanday to‘g‘rilash mumkinligini tushuntirish.

Yangi bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta’lim jarayoniga amaliy mashg‘ulotlar, texnologik vositalar, psixologik tayyorgarlik va huquqiy bilimlarni integratsiya qilish zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning real hayotda uchraydigan murakkab vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi [6].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish usullarini ilmiy-nazariy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Kasbiy-ekstremal kompetensiyaning nazariy asoslarini o‘rganish;

Ekstremal sharoitlarda faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar turlarini aniqlash;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy tayyorgarlik metodlarini shakllantirish;

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani tahlil qilish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish.

Tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati shuki, kasbiy tayyorgarlik jarayonida faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, amaliy mashg‘ulotlar, psixologik tayyorgarlik va real vaziyatlarga moslashtirilgan ta’lim usullaridan foydalanish muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ushbu yo‘nalish alohida e’tiborga loyiq. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida kasb-hunar ta’limini takomillashtirish bo‘yicha shunday fikr bildirgan:

“Yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda biz zamonaviy fan va texnologiyalarni joriy etishimiz, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur” (SH.M. Mirziyoyev).

Ushbu tadqiqotning natijalari professional ta’lim tizimini takomillashtirishga, shuningdek, O‘zbekiston mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni yetishtirishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, kasbiy faoliyat jarayonida ekstremal sharoitlarda samarali ishlashni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirish usullari aniq tavsiyalar shaklida taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kasbiy ta’lim bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsion treninglar, stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan metodlar orqali ham amalga oshirilishi kerak. Jumladan, N.A. Muslimov va S.S. To‘laganova kabi olimlar kasbiy ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuvining ahamiyatini ta’kidlab, uni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadilar [8].

Shuningdek, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga real sharoitda moslashish imkoniyatlarini oshirishi aniqlangan. Xususan, G‘.X. Toshmatov va A.M. Usmonov kabi olimlar zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tganlar [9].

O‘quvchilarni kasbiy-ekstremal sharoitlarga tayyorlash masalasiga doir xorijiy adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, Germaniya va Rossiya tajribalarida maxsus psixologik treninglar, o‘yinli va amaliy mashg‘ulotlarning muhim o‘rin egallaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, V.I. Andreyevning ishlarida ekstremal sharoitlarda qaror qabul qilish va stressga chidamlilikni oshirish metodikasi batafsil o‘rganilgan [10].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish asosida o‘quvchilarni kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish zaruriyati oydinlashdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi kombinatsiyalangan yondashuvga asoslangan bo‘lib, unda empirik, nazariy va eksperimental metodlar uyg‘unlikda qo‘llaniladi. Mazkur yondashuv professional ta’lim o‘quvchilarining kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini chuqur tahlil qilish va amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Tadqiqotda deduktiv va induktiv metodlar uyg‘unlikda qo‘llaniladi.

Deduktiv yondashuv – mavjud ilmiy nazariyalarga tayanib, kasbiy-ekstremal kompetensiyalar shakllanishining nazariy asoslarini tahlil qilish.

Induktiv yondashuv – eksperimentlar, kuzatuvlar va so‘rovlar asosida yangi xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot dizayni quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tahlil – kasbiy-ekstremal kompetensiyalar haqidagi ilmiy adabiyotlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish.

Empirik tadqiqot – professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarning ekstremal sharoitlarga moslashuv darajasi va kasbiy tayyorgarlik holatini o‘rganish.

Eksperimental tadqiqot – kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni joriy etish va ularning samaradorligini baholash.

Statistik tahlil – olingan natijalarni qayta ishlash va ishonchliligini aniqlash.

Tadqiqotda quyidagi ma’lumot manbalaridan foydalaniladi:

Professional ta’lim o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish.

Eksperimental mashg‘ulotlar orqali kasbiy-ekstremal kompetensiyalar shakllanish jarayonini tahlil qilish.

Kuzatuvlar va amaliy tajribalardan foydalanish.

Ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiya tadqiqotlari.

Davlat ta’lim standartlari va meyoriy hujjatlar.

Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida tayyorlangan hisobotlar.

Tadqiqot obyekti professional ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar va ularning kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi.

Namuna olish usuli sifatida tasodifiy va maqsadli tanlov usullari qo‘llaniladi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida:

professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari;

pedagoglar va mutaxassislar;

ishlab chiqarish amaliyoti rahbarlari tanlab olinadi.

Ushbu metodologiya kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, samarali pedagogik texnologiyalarni taklif qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Professional ta’limda o‘quvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishga doir tadqiqotda empirik, nazariy va eksperimental usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida quyidagi tahlil usullari qo‘llanildi:

O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, kuzatishlar va intervyular asosida kasbiy-ekstremal sharoitlarga moslashuv darajasi o‘rganildi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar ekstremal holatlarda qaror qabul qilish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar, bu esa maxsus o‘quv mashg‘ulotlarini joriy qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Ekstremal kompetensiyalar bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar va ilmiy-adabiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy faoliyatda ekstremal sharoitlarga moslashuv qobiliyati o‘quvchilarning umumiy kasbiy tayyorgarligining muhim qismi bo‘lib, uni rivojlantirish maxsus metodika va yondashuvlarni talab qiladi.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlari sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning kasbiy faoliyatida ekstremal vaziyatlarga duch kelganda o‘zini tutish darajasi 30-40% ga yaxshilangan.

Umuman olganda, tahlil natijalari kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar asosida kelgusi tadqiqot bosqichlarida bu boradagi yondashuvlarni chuqurroq o‘rganish va takomillashtirish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot davomida ekstremal kompetensiyalarni shakllantirishning zarurligi, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni va rivojlantirish strategiyalari tahlil qilindi.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalar zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beruvchi muhim kasbiy sifatlar bo‘lib, ularni rivojlantirish professional ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, maxsus treninglar va amaliy mashg‘ulotlar kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Zamonaviy ta’lim metodlari, jumladan, simulyatsion mashg‘ulotlar, muammoli o‘qitish va tajribaga asoslangan ta’lim kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Professional ta’lim dasturlarini yangilash – kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv modullari ishlab chiqilishi va o‘quv dasturlariga integratsiya qilinishi lozim.

Amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish – o‘quvchilarning haqiqiy ishlab chiqarish va ekstremal vaziyatlarga yaqinlashtirilgan muhitda tajriba orttirishi uchun amaliy mashg‘ulotlar soni ko‘paytirilishi zarur.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – virtual simulyatsiyalar, interaktiv treninglar va texnologik vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ekstremal sharoitlarda harakat qilish malakasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchilarni qayta tayyorlash – professional ta’lim tizimidagi o‘qituvchilar kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish metodikalari bo‘yicha malaka oshirish kurslaridan o‘tishi kerak.

Kelajak tadqiqot yo‘nalishlari – kelajakda kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni shakllantirishning individual va guruhiy omillari, pedagogik yondashuvlarning samaradorligi hamda xalqaro tajriba asosida yangi metodlarni ishlab chiqish masalalarini tadqiq etish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari professional ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekstremal sharoitlarga moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., To‘laganova S.S. “Kasbiy ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuv”. – Toshkent: Fan, 2019 89-b.
2. Andreyev V.I. “Pedagogika: Ekstremal sharoitlarda ta’lim”. – Moskva: Prosveshchenie, 2017. 90-96-b.
3. Sagdullayev A. "Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar", Toshkent, 2021 137-b.
4. Toshmatov G‘.X., Usmonov A.M. “Axborot texnologiyalari va ta’lim”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 45-51-b.
5. Xodjayev A. "Kasbiy ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirish", Toshkent, 2020.12-b.
6. Yuldashev M. "Professional pedagogika asoslari", Samarqand, 2020
7. Dewey J. "Experience and Education", New York, 1938. 97-b
8. Mo‘mindjanova N.A. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari "Ekonomika i sotsium" №12(127)-2 2024, 581-b
9. Mo‘mindjanova N.A. Professional ta’lim o‘quvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish. Yangi O‘zbekiston Yangi tadqiqotlar. 2024-12-03 56-b
10. Mo‘mindjanova N.A. “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasini o‘qitish va raqamlashtirish.Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research 2024. 75-b

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:1/14.3.378

Odil MUSAYEV,
Renessans ta’lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori
Nodira SHAPSANOVA,
Renessans ta’lim universiteti tadqiqotchisi

Renessans ta’lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori T.Jo‘rayev taqrizi asosida

OILALARDAGI MA’NAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annatotsiya

Mazkur maqolada oilalardagi ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari har tomonlama taxlil etilgan. Oila, jamiyatning asosiy va muhim birligi sifatida, o‘zining a’zolari orasida ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, oiladagi qadriyatlar o‘zgarishi jamiyatdagi umumiy transformatsiyalar bilan bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, jamiyat, ahloq, oila, qadriyat, ma’naviy qadriyat, tenglik, gender tenglik, transformatsiya, oilaviy qadriyatlar.

OSOBENNOSTI TRANSFORMATSII DUXOVNЫX KACHESTV V SEMYE

Аннотация

В данной стате всесторонее анализируются особенности трансформации духовных ценностей в семе. Семя как основная и важная ячейка общества играет важную роль в формировании социалных и духовных ценностей у ее членов. Также смена ценностей в семе связана с общими преобразованиями в обществе.

Ключевые слова: Глобализация, общество, морал, семья, ценности, духовные ценности, равенство, гендерное равенство, трансформация, семейные ценности.

FEATURES OF THE TRANSFORMATION OF SPIRITUAL QUALITIES IN THE FAMILY

Annotation

This article comprehensively analyzes the specific features of the transformation of spiritual values in families. The family, as the main and important unit of society, plays an important role in the formation of social and spiritual values among its members. Also, the change in values in the family is associated with general transformations in society.

Key words: Globalization, society, morals, seeds, values, spiritual values, greed, gender inequality, transformation, family values.

Kirish. Oila muhitida shakllanadigan ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi – bu oiladagi qadriyatlar, an’analar va etik normalarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi va rivojlanishini o‘rganishga doir mavzu hisoblanadi. Oila, jamiyatning asosiy va muhim birligi sifatida, o‘zining a’zolari orasida ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘tgan davrlardan bugungacha oiladagi qadriyatlar, gender rtengligini, axloqiy va ma’naviy me’yorlarni qabul qilishda muhim omil bo‘lib kelgan.

Ma’naviy qadriyatlar – bu insonlar orasidagi axloqiy normalar, etik me’yorlar, an’analar va hayotga bo‘lgan umumiy munosabatlarni o‘zida ifodalayotgan tushuncha. Oila bu qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu qadriyatlar oila a’zolarining turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarini va axloqiy tamoyillarini belgilaydi. Oiladagi qadriyatlar o‘zgarishi jamiyatdagi umumiy transformatsiyalar bilan bog‘liqdir. Har bir jamiyatning o‘zgarishining xossalari va aniq bir nuqtalardan o‘tishi oiladagi axloqiy qadriyatlarning yangi shaklda shakllanishini ta’minlaydi.

Qadimgi jamiyatlarda oiladagi rollar ancha aniq bo‘lgan — erkak oilaboshi bo‘lib, ishdan qaytgach oilaviy ehtiyojlarni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan, ayol esa uy ishlari va bolalarni tarbiya qilish bilan shug‘ullangan. Zamonaviy jamiyatda bu rollar o‘zgardi. Hozirda ayollar ko‘p ishlab, o‘zini mustaqil iqtisodiy holatga ega qilishmoqda, erkaklar esa oiladagi ishlarda, masalan, bolalarni tarbiyalash va uyni yanada birgalikda boshqarishda faol ishtirok etmoqda.

O‘tgan asrning 80-90-yillarida oiladagi aloqa asosan shaxsiy muloqotga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Oila a’zolari internetda o‘zaro aloqa qilish, fikr almashish va videokonferensiyalar o‘tkazish orqali bir-birlari bilan yoqin munosabatda bo‘lishmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalar oila a’zolarining qadriyatlariga, xohishlariga va dunyoqarashlariga ta’sir qilishi mumkin.

Ba’zi jamiyatlarda, masalan, Markaziy Osiyo, Yaponiya va Koreyada kabi mamlakatlarda an’anaviy oila modellari hali ham ustun bo‘lib, bu yerda kattalarga hurmat, maslahat berish va ijtimoiy ta’lim muhim qadriyatlarga kiradi. Yoshlar an’anaviy qadriyatlar, oilaviy muloqot va kattalarga bo‘lgan hurmatni saqlab qolishga harakat qilishmoqda. Lekin, zamonaviy jamiyatda, ayniqsa, shaxsiy mustaqillikka intilish va globalizatsiya ta’siri bilan, yoshlar ko‘proq mustaqil qarorlar qabul qilishga e’tibor qarata boshladilar.

An’anaviy oilada ayol va erkak oilaviy munosabatlarda hamkorlik qilishadi. Har birining o‘ziga xos rollari bor: ayol bolalarni tarbiyalash, oilaviy ishlarni boshqarishda, erkak esa oila uchun mablag‘ ishlab topish va oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlashda mas’ul bo‘ladi.

“Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat — bu uning oilasidir. Sog‘lom va mustahkam oila — davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi olijanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi”[1], — dedi davlat rahbari.

U bugungi globallashuv zamonida oila institutini har tomonlama himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish zarurati tobora kuchayib borayotganligini ta’kidladi.

“Shuningdek, Konstitutsiyamizga „Ota-onalar o‘z farzandlari voyaga yetguniga qadar ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lig‘i, to‘laqonli va barkamol rivojlanishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish huquqiga ega va bunga majburdir“, degan qoidani kiritish yosh avlod taqdiri uchun mas’uliyatni yanada oshirishga xizmat qiladi”[2], — deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Kattalarga hurmat ko‘rsatish, ularning tajribasidan foydalanish va oiladagi ijtimoiy hurmat o‘rni katta ahamiyatga ega. Qadimdan ham ayollar va erkaklar kartalarga hurmat

ko‘rsatishni, ularning maslahatlariga amal qilishni muhim qadriyat deb bilishgan.

Globallashuv sharoitida oiladagi qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga, ya’ni shu jumladan urbanizatsiya, globalizatsiya, iqtisodiy taraqqiyot va texnologik yangilanishlarga bog‘liq tarzda transformatsiyaga uchraydi. Masalan, an’anaviy oila modelidan, ya’ni jamoaviylik asosidagi oiladan, individualistik yoki tenglik asosidagi oila modellariga o‘tish kuzatilmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a’zolarining munosabatlariga, ularning qadriyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, animatorlar, blogerlar va videoroliklar oila a’zolarining o‘z qadriyatlarini qayta shakllantirishga, novatorlik va yangi axloqiy prinsiplarni jamiyatga yetkazishga yordam bermoqda.

Bizga ma’lumki, oiladagi qadriyatlar va an’analarni shakllantirishda davlat siyosati va qonunlar ham muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, gender tenglikka oid siyosatlar, ajrashish va nikoh munosabatlariga oid qarashlar keskin o‘zgarib bormoqda. Jumladan, Respublikada keyingi yillarda ajralishlar soni sezilarli ko‘paygan. Misol uchun, 2021-yilda 39,3 ming nikohdan ajralish qayd etilgan bo‘lsa, bu raqam 2022-yilda 48,7 mingni, 2023-yilda esa 49,2 mingni tashkil qilgan[3]. 2024-yilning birinchi yarmida O‘zbekiston bo‘yicha nikohdan ajralishlar soni jami 25 400 tani tashkil etgan. Xususan, shahar joylarida 15,3 mingta, qishloq joylarida 10,1 mingta oila ajrashgan. O‘tgan 2022-yilning dastlabki 6 oyida esa 24 572 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilib, eng ko‘p ajralishlar Toshkent shahri (2 950 ta) va Samarqand viloyatida (2 569 ta) bo‘lgan. Mamlakatda 2022-yilda jami 48 734 ta nikohdan ajralish holatlari yuz bergan[4].

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, oiladagi qadriyatlar va munosabatlar transformatsiyasi ayrim hollarda ajrashish va oilaviy monotonlikning ortishiga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, gender rollarining uzilishini, yangi an’analarni qabul qilishga kirishgan odamlar o‘rtasida qiyinchiliklar paydo bo‘lishini ham ko‘rsatadi.

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar oila a’zolarining axloqiy qadriyatlariga ham ta’sir qilmoqda. Ba’zi hollarda bu transformatsiya axloqiy senzurani zaiflashtirib, xulq-atvor va munosabatlarda noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Bu ijtimoiy normalarning parchalanishiga, jamiyatdagi sog‘lom axloqiy asoslarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Ushbu jarayonlar mamlakatimizda yosh oilalarning ajralishlari dinamikasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, deyish mumkin.

Biroq, ushbu omillar oila a’zolari orasidagi tenglik prinsiplarining rivojlanishi va gender rollarining o‘zgarishi ijtimoiy kamsitishni kamaytirish va gender muammolarini hal qilishga yordam berishi mumkin. Oila muhitida shakllanadigan ma’naviy qadriyatlar, transformatsiya jarayonini boshdan kechirish bilan birga, jamiyatning tartib, ahloq, va madaniyat konsepsiyasiga ta’sir etadi. Bu transformatsiyaning davomiyligi ko‘p jihatdan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarga bog‘liq. Oiladagi ma’naviy qadriyatlar jamiyatning bugungi va kelajakdagi tartibini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Oila muhitidagi ma’naviy qadriyatlarning transformatsiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu, ayniqsa, urbanizatsiya, iqtisodiy taraqqiyot, sotsializatsiya, globalizatsiya va texnologik yangilanishlar orqali kuzatiladi. Misol uchun, ko‘plab ayollar ishlashga chiqish va mustaqil iqtisodiy holatga ega bo‘lish imkonini qo‘lga kiritmoqda. Bu oiladagi gender rollariga ham o‘zgarishlar kiritmoqda va oila a’zolari orasidagi munosabatlar yangi shaklga kirmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar va bilimlar oiladagi ma’naviy qadriyatlarning transformatsiyasini ilmiy asosda o‘rganishga yordam bermoqda. Oiladagi a’zolarning psixologiyasi va eng asosiy axloqiy prinsiplar asosidagi munosabatlar ularning hayotga bo‘lgan munosabatini kuchaytirishi va ijtimoiy intizomni oshirishi mumkin. Oiladagi o‘zgarishlar, farzandlar tarbiyasidagi yangi yondashuvlar jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi qadriyatlar va axloqiy me’yorlarning ushbu rivojlanishga olib kelishi, kerakli ish va turmush tarziga erishish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Oila a’zolarining qadriyatlari bugungi avlodda yanada tez o‘zgarishlarga uchramoqda. Yangi avlodlar, kimdir individualizmga intilayotgan bo‘lsa, boshqalar oilaviy qadriyatlarni va an’analarni saqlab qolishga harakat qilmoqda. Bu farqlar oilaviy munosabatlar va o‘zaro tushunishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yangi avlodda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiya natijasida oilada axloqiy me’yorlar ko‘p jihatdan o‘zgargan. Bu esa, kattalar va yoshlar o‘rtasida axloqiy qadriyatlar bo‘yicha tushunish muammolarini keltirib chiqargan. Yoshlar ko‘p hollarda o‘ziga yangicha dunyoqarash bilan qarashadi, kattalar esa an’anaviy qadriyatlarga ko‘proq e’tibor beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, smartfonlar va internet, oila a’zolarining o‘zaro aloqa qilish usullariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda oila a’zolarining bir-biri bilan suhbatlashish tarzi, ularning nafsni va odamgo‘y tushunchasini qabul qilishda o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Buning natijasida, a’zolarning bir-biri bilan mavjud bo‘lish davomiyligi va hissiy aloqadagi yordam ko‘rsatish darajasi o‘zgarishi mumkin.

Oiladagi qadriyatlar transformatsiyasini davlat siyosati va qonunlar ham mustahkamlaydi. Gender tengligi, ayollar huquqlari, bolalar huquqlari kabi masalalarga davlatning e’tibori oiladagi munosabatlarga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, ajrashish yoki nikohga doir yangi qonunlar, oiladagi munosibatlarning yangi shakllarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Jadidchilik harakatining ulug‘ namoyondasi Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”[5], – deb yozadi. Bu jarayonda davlat har bir oilani ijtimoiy himoyalanishi, moddiy jihatdan ta’minlanishi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlarga ega bo‘lishidan manfaatdor bo‘lib, ularning farovonligini kafolatlanishiga ko‘maklashayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”[6] deb qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazkur normasi asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”ning 2- moddasi talabiga ko‘ra, “oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo‘lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquklari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi”[7].

Dunyo miqyosida global muammolardan biri bo‘lib kelayotgan oilaviy zo‘ravonlik masalasiga xalqaro hamjamiyatlar tomonidan berilayotgan yuksak e’tiborga qaramasdan, oilalarda bunday salbiy holatlarning kamaymayotgani mazkur holatning alohida tadqiq etiladigan dolzarb mauammolar sirasida qolib kelayotganligi va uni ilmiy tadqiq etishni faollashtirish zaruratini belgilaydi.

Oilaviy zo‘ravonlikning mavjudligi muammo sifatida oilaning iqtisodiy, ma’naviy jihatlari bilangina belgilanmaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda bizning mamlakatimizda bu muammo tor oilaviy doiradan chiqib, davlat miqyosida hal etiladigan muhim sotsiologik jarayon sifatida tadqiq etilmoqda. Shu kunga qadar mavjud bo‘lgan bu muammoni hal etishga xalaqit beradigan omillar, birinchi navbatda milliy mentalitet xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Oiladagi gender rollarining transformatsiyasi gender tengligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu ayollarning faolligi va iqtisodiy mustaqilligini oshiradi, erkaklarning oiladagi rollarini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. YA’ni, ayollar ishlashga chiqish va erkaklar oiladagi maslahatlar va tarbiyada ham faol bo‘lishga harakat qilishadi. Yangicha axloqiy qadriyatlar oila a’zolarining munosabatlarini mustahkamlaydi, ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi. Masalan, bir-birini tushunish, hurmat

qilish va yordam berish qadriyatlari oila a’zolari o‘rtasida ijobiy muhit yaratadi.

Xulosa. Oiladagi ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘sishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir davlat va jamiyatning unikal xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu o‘zgarishlar oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, qadriyatlar va axloqiy normalarga ta’sir ko‘rsatadi. Yangi qadriyatlarni qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish, ayni vaqtda, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Oiladagi ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatning umumiy taraqqiyoti va rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘zgarishlarni qabul qilishga, yangi axloqiy va ijtimoiy normalarga moslashishga imkon beradi. Oila a’zolarining qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishlari jamiyatda yangi qarorlar va dunyoqarashlar shakllanishiga yordam beradi, bu esa jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Oila muhitida shakllanadigan ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi mavzusiga oid ijobiy jihatlar

1. Oilada ma’naviy qadriyatlar transformatsiyalashuvi natijasida ota va o‘g‘il, ona va qiz o‘rtasidagi munosabatlarda anchayin ochiqlik va dialoglar shakllandi. Natijada o‘g‘il otaga, qiz onaga o‘z muammolarini ayta olish an’analari rivojlanmoqda.
2. Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarda farzandlarning fikrlari va manfaatlari o‘z ifodasini topish jarayonlari ancha kengayib bormoqda.
3. Oiladagi ma’naviy qadriyatlar transformatsiyalashuvi aksariyat oilalarda farzandlarning mustaqil shaxs sifatida shakllanish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.
4. Oilalarda “feodal ota” va “mehribon ona” tamoyillari barham topmoqda. YA’ni ularning kasb tanlashi, turmush qurishi, mustaqil fikrini ifodalashi.
5. Oilalardagi gender tenglik masalalaridagi muammolar o‘z yechimini topmoqda.
6. Xotin-qizlarning Oliy ta’lim muassalarida ta’lim olishi, ilmiy izlanishlar olib borishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Oilaviy qadriyatlar transformatsiyasining salbiy ko‘rinishlari

1. Oilada ota o‘rnining pasayib ketishi natijasida oilaviy birlikka putur yetmoqda. YA’ni egoizm kuchaymoqda.
2. Yoshlar o‘rtasida “Ommaviy madaniyat”ga hayrihoxlik kuchaymoqda.
3. Oilada milliy qadriyatlarning yemirilishi yoshlarning ta’lim olishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. YA’ni ota-onalar majlisiga asosan ayollarning borishi, turli xil pul yig‘imlari ko‘payishiga, o‘qituvchilar bilan yosh bolalar oldida janjallashish, urishish holatlarining paydo bo‘lishiga, bu esa bolaning ta’lim-tarbiya olishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
4. Yosh oilalarning ajralib ketishi jarayoni oldingilarga nisbatan bir necha bor oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda.
5. Oilada ota va o‘g‘il, ona va qiz o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan qadriyatlarimiz inqirozga yuz tutmoqda. Oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro janjallar, nizolar, mol-mulk talashishlar ochiq ko‘rinishga o‘tmoqda. Masalan, ota-onalar o‘z farzandlaridan aliment olmoqdalar, farzanlar esa ota-onalarini qorovsiz qoldirmoqda, qariyalar uylariga yubormoqda, xatto ularga tan jarohati yetkazishgacha borishmoqda.
6. Bir jinsli nikohlar, Geyparadlar o‘tkazish, transgenderlikni targ‘ib qilish, eftonaziya qilishga rozilik, LGBT va boshqalarni qonuniylashtirish lozimligiga urg‘u bermoqda. Bizga ma’lumki, demokratiyada ham chegara mavjud. Lekin bugungi g‘arb chegarasizlikka intilmoqda va boshqalarni ham shunga chorlamoqda yoki turli xil yo‘llar bilan (masalan, qarz berish uchun majburiyatlar yuklash, xalqaro reyting ko‘rsatkichlarida oxirgi o‘rinlarga qo‘yish, nodemokratik davlat deb atash kabi) majburlamoqda.

Bugungi biz taraqqiy etgan G‘arb deb ataladigan makonda bir jinsli nikohlarni qonunlashtirish jarayonlari ommalashtirilmoqda. Bizga ma’lumki, xatto xayvonot olamida ham bir xil jinslar o‘rtasida jinsiy aloqa deyarli uchramaydi. Nega eng aqlli bo‘lgan inson tabiat va jamiyat qonunlariga zid ish qilmoqda? Bunga sabab nima? Bizningcha sababni erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishidan izlash lozim. Chunki, biz keyingi davrlarda tabiat qonunlariga zid ravishda erkak va ayolni hamma narsada bir xil bo‘lishligini ta’minlashga intilmoqdamiz. YA’ni, huquqda tenglik, erkinlikda tenglik, oilada tenglik, mexnat qilishda tenglik, bola boqishda tenglik, pul topishda tenglik kabi bir xil standartlarda ko‘rishga urinmoqdamiz. Bugungi kunda ayol keragidan ortiq erkaklardan o‘z ulushini talab qilishga odatlanmoqda, erkak esa unga imkoniyatidan ortiq vazifalarni yuklamoqda. Natijada jinslar o‘rtasida ko‘zga ko‘rinmas “nafrat” shakllanmoqda. Bir jinsli nikohlarni o‘sha “nafrat”ning amaliy ifodasi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. Jamiyat gazetasi 2022-yil 20-iyun. https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/20/family/
2. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. Jamiyat gazetasi 2022-yil 20-iyun. https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/20/family/
3. O‘zbekistonda nikohlar kamayib, ajralishlar ko‘paydi — statistika. https://kun.uz/kr/news/2024/02/09 /ozbekistonda-nikohlar-kamayib-ajralishlar-kopaydi-statistika
4. O‘zbekistonda nikohdan ajralishlar soni eng ko‘p hudud ma’lum qilindi. https://daryo.uz/k/2023/08/08/ ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi
5. Abdurauf Fitrat. Oila.-Toshkent: Ma’naviyat, 1998. B.8.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023. 63-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. https://lex.uz/acts/104720

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:801. 571

Dildora MUSLIMOVA,
Toshkent viloyati, Parkent shahri 31-maktab o‘qituvchisi
E-mail: muslimovadildora05@gmail.com

PhD N.O‘ktamova taqrizi asosida

EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPING ENGLISH SPEECH SKILLS IN VISUALLY IMPAIRED STUDENTS THROUGH AUDIO TECHNOLOGIES

Annotation

This article explores effective methods for developing English speech skills in visually impaired students through the use of audio technologies. The rapid advancement of digital tools has opened new opportunities for inclusive education, making language learning more accessible for learners with visual impairments. Audio technologies such as screen readers, podcasts, audiobooks, text-to-speech software, and interactive listening apps play a crucial role in enhancing the listening and speaking competencies of these students. The study highlights the importance of creating a learner-centered environment where audio materials serve not only as supplementary resources but also as primary tools for improving pronunciation, vocabulary, intonation, and fluency.
Key words: Visually impaired, speech skills, audio technologies, inclusive education, English learning, listening, communication.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СЛАБОВИДЯЩИХ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ АУДИОТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются эффективные методы развития навыков английской речи у учащихся с нарушениями зрения с помощью аудиотехнологий. Стремительный прогресс цифровых инструментов открыл новые возможности для инклюзивного образования, делая изучение языка более доступным для учащихся с нарушениями зрения. Аудиотехнологии, такие как программы экранного чтения, подкасты, аудиокниги, программное обеспечение для преобразования текста в речь и интерактивные приложения для аудирования, играют ключевую роль в развитии навыков восприятия на слух и говорения у этих учащихся. В исследовании подчеркивается важность создания личностно-ориентированной среды обучения, где аудиоматериалы служат не только дополнительными ресурсами, но и основными инструментами для улучшения произношения, расширения словарного запаса, совершенствования интонации и беглости речи.
Ключевые слова: Слабовидящие, речевые навыки, аудиотехнологии, инклюзивное образование, изучение английского языка, аудирование, коммуникация.

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNI INGLIZ TILIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI AUDIO TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ko‘zi ojiz o‘quvchilarda audio texnologiyalar yordamida ingliz tili nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini tadqiq etadi. Raqamli vositalarning tez sur’atlar bilan taraqqiy etishi inklyuziv ta’lim uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun til o‘rganishni yanada qulaylashtirdi. Ekran o‘quvchilar, podkastlar, audiokitoblar, matnni nutqqa aylantiruvchi dasturlar va interaktiv tinglash ilovalari kabi audio texnologiyalar bu o‘quvchilarning tinglab tushunish va gapirish malakalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot audio materiallar nafaqat qo‘shimcha manba, balki talaffuz, lug‘at boyligini oshirish, ohang va ravon nutqni yaxshilashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladigan o‘quvchiga yo‘naltirilgan muhit yaratishning ahamiyatini ta’kidlaydi.
Kalit so‘zlar: Ko‘zi ojizlar, nutq ko‘nikmalari, audio texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, ingliz tilini o‘rganish, tinglash, muloqot.

Introduction. In today’s rapidly evolving educational environment, ensuring equal learning opportunities for students with special needs has become a primary focus in language education. Among these learners, visually impaired students face unique challenges in acquiring and developing English speech skills due to their limited access to visual learning materials such as texts, images, and videos. However, the advancement of audio technologies has created new pathways to support the linguistic and communicative development of these learners [3]. Speech skills are a crucial component of mastering any language, as they enable learners to express thoughts, engage in conversations, and participate in social interactions confidently. For visually impaired students, traditional teaching methods that rely heavily on visual stimuli are often ineffective and demotivating. Therefore, the integration of audio technologies into English language instruction serves as an essential strategy to overcome these barriers and promote inclusive education.

Audio resources such as screen readers, podcasts, audiobooks, text-to-speech applications, and voice-recording tools provide visually impaired students with direct access to authentic language input [5]. These tools not only help improve listening comprehension but also enhance pronunciation, intonation, and speaking fluency. By engaging in audio-based activities, learners can practice their speech in a safe environment, build confidence, and receive immediate auditory feedback. Moreover, audio technologies support independent learning by allowing students to revisit materials at their own pace, fostering autonomy and self-directed learning. Teachers can create interactive tasks, role-plays, and dialogue practices using these tools to encourage active participation and improve communication skills. This paper aims to explore the most effective methods for developing English speech skills in visually impaired students through audio technologies. It highlights practical strategies, examines the impact of audio-based learning on speech development, and provides recommendations for teachers to enhance the language learning experience of visually impaired students [7]. Ultimately, the study seeks to contribute to the broader goal of creating an inclusive and accessible educational environment for all learners.

A literature review. The development of speech skills in visually impaired students presents unique challenges that require the integration of specialized teaching methods and technologies. According to Wittenstein, auditory strategies play a crucial role in teaching language to blind and visually impaired students, enabling them to compensate for the lack of visual input by

enhancing listening and speaking skills [10]. Studies by Argyropoulos emphasize that Information and Communication Technologies (ICT), particularly audio-based tools, have proven effective in supporting visually impaired learners in English language acquisition [2]. Richards highlights the importance of listening and speaking activities in language learning, which are easily adaptable for visually impaired learners through audio technologies [8]. Tools such as screen readers, audiobooks, podcasts, and text-to-speech software provide access to authentic language input and pronunciation models. These tools promote better comprehension, enhance vocabulary acquisition, and improve fluency in speech production.

Furthermore, Gonzalez states that podcasts and audiobooks not only serve as valuable resources for listening practice but also engage learners in meaningful contexts, promoting critical thinking and language usage in real-life situations [4]. Similarly, Mayer suggests that multimedia learning, when adapted appropriately, can significantly support language development even for learners with disabilities [6]. Research by Akram and Malik confirms that audio aids increase motivation and confidence among ESL learners, particularly at elementary levels [1]. The studies collectively agree that incorporating audio technologies in English language teaching creates an inclusive environment, allowing visually impaired students to develop essential speech skills effectively. Overall, the literature supports the integration of audio resources as a practical and impactful approach to enhancing speech skills in visually impaired learners.

Research methodology. This study employs a qualitative research methodology to explore effective methods for developing English speech skills in visually impaired students through audio technologies. Data was collected from a sample of 15 visually impaired students aged 14 to 18, studying at a specialized educational institution. The primary research tools included classroom observations, audio-recorded speaking tasks, and semi-structured interviews with both students and English language teachers.

Audio technologies such as screen readers, podcasts, audiobooks, and text-to-speech software were integrated into regular English lessons over a period of six weeks. Students participated in listening and speaking activities designed to improve pronunciation, fluency, and intonation. Teachers monitored the learners’ progress and provided feedback based on students’ recorded responses.

Data analysis focused on identifying improvements in speech skills, levels of student engagement, and challenges faced during the process [9]. The findings helped determine which audio methods were most effective in enhancing the speaking competence of visually impaired learners.

Analysis and results. The analysis of classroom observations, recorded speech tasks, and interviews revealed significant improvement in the students’ English speech skills after integrating audio technologies. Most participants showed noticeable progress in pronunciation, fluency, and intonation. Audiobooks and podcasts were particularly effective in expanding vocabulary and improving listening comprehension, while text-to-speech tools helped students practice pronunciation and sentence formation. Students reported increased motivation and confidence when performing speech tasks, as audio tools provided repeated exposure to correct language models. Teachers also noted that students became more active and engaged in speaking activities, demonstrating better sentence construction and clearer articulation. The findings indicated that interactive audio-based exercises, such as role plays and dialogue practices, enhanced students' communication skills. Overall, the use of audio technologies created a supportive learning environment, enabling visually impaired learners to overcome speech difficulties and develop their English-speaking competence more effectively.

Table. Improvement in English speech skills after using audio technologies.

Speech skill	Initial level	After 6 weeks	Improvement	Audio tools used
Pronunciation	Weak	Good	Clearer word articulation	Text-to-speech, audiobooks
Vocabulary usage	Limited	Moderate-strong	Increased range of words	Podcasts, audiobooks
Speaking fluency	Slow	Fluent	Improved sentence flow	Dialogue practice, podcasts
Listening comprehension	Low	High	Better understanding of context	Screen readers, audiobooks
Intonation	Poor	Improved	More natural speech rhythm	Audio dialogues, role-plays
Confidence level	Low	High	Increased participation	Repetitive listening tasks, audio tasks

Notes:

Participants: 15 visually impaired students;

Duration: 6 weeks of audio-integrated learning;

Observation: Clear progress in all aspects of speech skills;

Most Effective Tools: Audiobooks, Podcasts, Text-to-Speech apps.

During the research process, an important issue was identified – currently, there is no official Braille transcription of English letters or pronunciation guidelines available for visually impaired students in Uzbekistan. This creates additional challenges in learning correct English pronunciation. As part of this project, we plan to develop a small guidebook that provides the Braille transcription of English letters along with pronunciation tips. This will be the first resource of its kind in Uzbekistan, aimed at helping visually impaired learners improve their independent speaking skills in English more effectively.

Conclusion. In conclusion, the integration of audio technologies into English language instruction for visually impaired students has proven to be highly effective in developing their speech skills. Tools such as audiobooks, podcasts, text-to-speech applications, and interactive audio exercises significantly enhance pronunciation, fluency, and listening comprehension. These technologies not only improve language skills but also increase learners' motivation and confidence. However, the lack of a Braille transcription system for English letters and pronunciation guidelines in Uzbekistan remains a serious gap. Therefore, it is strongly recommended to develop a practical guide that includes English Braille transcriptions and phonetic instructions to support visually impaired learners. Teachers should also receive specialized training to effectively incorporate audio resources and Braille materials into lessons, ensuring a more inclusive, engaging, and accessible English learning environment for all students.

REFERENCES

1. Akram M., Malik K. Effectiveness of Audio Aids in Language Learning of ESL Learners at Elementary Level. - Pakistan, Language in India Journal, 2010. - Vol.10, pp.134-150.
2. Argyropoulos V. Supporting the Learning of English by Visually Impaired Students through ICT Tools. - Greece, Journal of Education and Learning, 2013. - Vol.2(1), pp.112-120.
3. Brown S. Listening Myths: Applying Second Language Research to Classroom Teaching. - USA, University of Michigan Press, 2011. - 215 p.
4. Gonzalez J. The Use of Audiobooks and Podcasts in EFL Classrooms. - Spain, ELT Journal, 2016. - Vol.70(3), pp.320-329.

5. Lewis A., Norwich B. Special Teaching for Special Children? Pedagogies for Inclusion. - UK, Open University Press, 2005. - 224 p.
6. Mayer R. Multimedia Learning. - USA, Cambridge University Press, 2009. - 320 p.
7. Ockelford A. Music for Children and Young People with Complex Needs. - UK, Oxford University Press, 2008. - 304 p.
8. Richards J.C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. - USA, Cambridge University Press, 2008. - 240 p.
9. Smith J. Assistive Technology for Students with Disabilities: Creating Access in the Digital Age. - USA, Pearson, 2017. - 320 p.
10. Wittenstein S.H. Auditory Strategies for Teaching Language to Blind and Visually Impaired Students. - USA, AFB Press, 1997. - 195 p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9(575.1)

Feruza MUTALIPOVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: feruza@mail.ru

ADU dotsenti, PhD O.Qodirova taqrizi asosida

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN

Annotation

The article analyzes the socio-psychological factors influencing the development of aggressive behavior in children. The causes of aggressive behavior, factors influencing its development, and preventive measures are considered. Mass media and the Internet — content promoting violence can have a negative impact on the consciousness of children. From the point of view of child psychology, the following factors contributing to the development of aggression are identified.

Key words: Aggression, child psychology, social factors, education, environment, personality development.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ

Аннотация

В статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование агрессивного поведения у детей. Рассмотрены причины агрессивного поведения, факторы, влияющие на его развитие, и меры профилактики. Средства массовой информации и Интернет – контент, пропагандирующий насилие, может оказывать негативное влияние на сознание детей. С точки зрения детской психологии выделены следующие факторы, способствующие развитию агрессии.

Ключевые слова: Агрессия, детская психология, социальные факторы, воспитание, среда, развитие личности.

BOLALAR AGRESSIV XULQNING SHAKLLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar orasida kuzatiladigan agressiv xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Agressiv xulqning kelib chiqish sabablari, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar hamda oldini olish choralari ko‘rib chiqiladi. Ommaviy axborot vositalari va internet – zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent bolalarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bolalar psixologiyasi nuqtayi nazaridan, agressivlikning rivojlanishiga quyidagi omillari yoriyilgan.

Kalit so‘zlar: Agressivlik, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy omillar, tarbiya, muhit, shaxs rivojlanishi.

Kirish. Bolalar orasida kuzatiladigan tajovuzkor xulq-atvor ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi va uning yuzaga kelish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada bolalar orasida tajovuzkor xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi asosiy ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilinadi. Ta’lim muassasalarida tajovuzkorlik holatlarining namoyon bo‘lishi o‘qituvchilar, ota-onalar, psixologlar, shifokorlar va keng jamoatchilikda katta tashvish uyg‘otmoqda, chunki tajovuzkor bolalar soni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda [1;5]. Maktab o‘quvchilarining ayrim toifasida tajovuzkorlik barqaror shaxsiy sifatga aylanib, noqulay ijtimoiy sharoitlarda antisotsial xatti-harakatlarning kuchayishiga va natijada jamiyatda ijtimoiy keskinlikning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bolalar va o‘smirlarda tajovuzning namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, avvalo, ijtimoiy-madaniy sohadagi muammolar bilan bevosita bog‘liqdir. Bunga oilaviy tarbiyaning inqirozi, maktabning bolalarning nevropsixologik holatiga yetarlicha e’tibor qaratmasligi, nutq madaniyatining umumiy darajada pasayishi, ommaviy axborot vositalarida zo‘ravonlikning keng targ‘ib qilinishi, axborot, kino va video sanoatining salbiy ta’siri, aloqa va muloqot mexanizmlarining zaiflashuvi va boshqa omillar kiradi [2;7-b]. Oila bolaning shaxs sifatida shakllanishida birlamchi ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, bolaning xulq-atvori, jumladan, tajovuzkorlik darajasi ham aynan oiladagi tarbiya uslublari va munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Birinchidan, oilada zo‘ravonlik va qattiqqo‘llik mavjud bo‘lsa, bola uchun tajovuzkor xulq-atvor hayotiy meyor sifatida shakllanishi mumkin. Jismoniy yoki ruhiy bosim ostida ulg‘aygan bolalar atrofdagilarga nisbatan ham shafqatsizlik va qattiqqo‘llikni namoyon etishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ikkinchidan, ota-onaning e’tiborsizligi va hissiy befarqligi bolalarda salbiy hissiy bo‘shliq va psixologik beqarorlikni keltirib chiqaradi. Natijada, bola o‘zining ichki noroziligini tajovuzkor xatti-harakatlar orqali ifoda etishga moyil bo‘lib qoladi. Shuningdek, oiladagi mojarolar – ya’ni ota-onalar o‘rtasidagi doimiy nizolar va janjallar bolaning psixologik muvozanatini izdan chiqarib, uning stress va tashvishlarini tajovuz orqali “chiqarishiga” sabab bo‘lishi mumkin.

Bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning, ayniqsa maktab va unga yaqin muhitning ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Maktab va pedagogik muhit bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. O‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan bo‘lgan sog‘lom yoki ziddiyatli munosabatlar bolaning tajovuzkorlik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, do‘stlar guruhi va jamoa bosimi ham muhim omil hisoblanadi. Bola tajovuzkorlikni rag‘batlantiruvchi muhit yoki guruhda bo‘lsa, bu uning shaxsiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatib, tajovuzni odatiy model sifatida qabul qilishga olib keladi. Keng ijtimoiy kontekstda esa, ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik kabi omillar ham bolalarda norozilik kayfiyati va tajovuzkorlikni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, kam ta’minlangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarida bunday holat tez-tez uchrab turadi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari ham bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, multfilmlar va teleko‘rsatuvlar, shuningdek, jangovar va zo‘ravonlikka asoslangan kompyuter o‘yinlari bolalarda tajovuzkorlikni meyor sifatida qabul qilishga olib keladi. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda yoshlar orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling va onlayn tahdidlar bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir o‘tkazib, ularda agressiv javob reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin.

Madaniy meyorlar va tarbiya tizimi – Ba’zi jamiyatlarda zo‘ravonlik va jismoniy jazo odatiy hol sifatida qaralishi,

bolalarda ham shunday xatti-harakatlarga moyillikni oshiradi. Bundan tashqari, bolalar orasida agressiv xulqni keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Oila muhitining ta’siri – Zo‘ravonlikka asoslangan yoki haddan tashqari qat’iy tarbiya usullari bolalarda tajovuzkorlikni kuchaytirishi mumkin.

- Atrof-muhit va ijtimoiy muhit – Bolalar yashaydigan hududdagi jinoyatchilik darajasi, maktab va bog‘cha muhitining salbiy jihatlari bolaning ruhiy holatiga ta’sir etadi.

- Ommaviy axborot vositalari va internet – Zo‘ravonlik va agressiyani targ‘ib qiluvchi kontent bolalarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni tajovuzkorlikka undashi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar – Asabiylik, impulsivlik va hissiy muvozanatsizlik kabi individual xususiyatlar bolalarda agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zini ifoda eta olmaslik – Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri va sog‘lom tarzda ifodalashni bilmagan hollarda, bu ularni tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Emotsional va psixologik zo‘riqish – Stress, qo‘rquv va xavotir kabi salbiy his-tuyg‘ular bolalarda agressivlikni kuchaytirishi mumkin.

Bolalar orasida agressivlikni kamaytirish va uning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi: Sog‘lom tarbiya muhitini yaratish - ota-onalar va pedagoglar tomonidan mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi muhit shakllantirilishi, muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish – Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, ijobiy muloqot qilish va muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishni o‘rganishlari, jismoniy va psixologik faoliyatlarni rag‘batlantiris – Sport, san’at va ijodiy mashg‘ulotlar orqali bolalar energiyasini ijobiy va samarali yo‘nalishga yo‘naltirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tajovuzkor xatti-harakatlarni butunlay yo‘q qilish imkonsizdir. Psixologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, insonlarda qisman tajovuzkor, qisman libidinal bo‘lgan obyektlarga nisbatan yuqori darajada tabaqalashtirilgan munosabatlar mavjud bo‘lib, bu holat inson hayotida tug‘ilishdan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi. Agressiya har bir bolaning ruhiy hayotida uchraydigan tabiiy va odatiy hodisa hisoblanadi [9]. Xavotir va g‘azab, hattoki nafrat ham ko‘pincha sevgi kabi bir xil insonda namoyon bo‘ladi. Natijada esa ichki ziddiyatlar va og‘riqli to‘qnashuvlar muqarrar holga aylanadi. Sevimli insonga nisbatan yuzaga kelgan g‘azab va dushmanlik hissiyotlari ko‘pincha ong ostida bostiriladi, boshqa sohalarga ko‘chiriladi yoki boshqa insonlarga yo‘naltiriladi.

Ta’riflangan tendensiyalar bolaning xavfsizlik hissi shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bola o‘zini xavfsiz va himoyalangan deb his qilganda, ushbu ehtiyojlar barqaror tarzda qondiriladi. Aks holda, ya’ni bu ehtiyojlarni qondirish imkoni bo‘lmaganda, agressiv xatti-harakatlar kuchayadi va oxir-oqibat buzg‘unchi xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin [10].

Olimlarning fikricha, tajovuz insonning hayotiy manfaatlariga tahdid soladigan, genetik jihatdan shakllangan himoya reaksiyasi hisoblanadi. Bu esa uning biologik asosini o‘zgartirish mumkin emasligini anglatadi.

Agressivlikni shakllantiruvchi omillar mohiyatini tahlil qilganda, ularni quyidagi ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Individual-shaxsiy omillar – shaxsning tug‘ma yoki orttirilgan psixologik va emotsional xususiyatlari (masalan, temperament, stressga chidamlilik darajasi, empatiya darajasi va boshqalar).

2. Tashqi ijtimoiy-psixologik omillar – bola yashaydigan muhit, tarbiya tizimi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, oila va maktabdagi munosabatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet orqali beriladigan axborotlar.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasining asosiy g‘oyalariga tayanib, amerikalik sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar K. Jeklin, R. Jan, E. Makkobi, J. Uayt va boshqalar dushmanlik va tajovuzkor xatti-harakatlarning tabiatiga nimalar ta’sir qiladi, degan savolga javob topishga urinib, subyektning jinsiy xususiyatlari farqlariga alohida e’tibor qaratganlar [3]. Xuddi shu yondashuv doirasida P. Bell, E. Donnershteyn, E. O‘Nil, R. Rojers kabi olimlar esa shaxsning irqiy kelib chiqishi shaxslararo tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tadqiq qilganlar.

Bundan tashqari, agressivlikning genetik komponentlari va ularning inson xulq-atvoriga ta’siri M.V. Alfimova va V.I. Trubnikov kabi tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilgan va ular tajovuzkor xatti-harakatlarda genlarning muhim o‘rin tutishini ta’kidlaganlar [1].

Agressiyani keltirib chiqaruvchi tashqi omillar haqida so‘z borganda, avvalo inson muhitidagi salbiy omillar nazarda tutiladi. Bular qatoriga shovqin, suv va havoning ifloslanishi, haroratning keskin o‘zgarishi, haddan tashqari gavjumlik, shaxsiy makonga tajovuz kabi omillar kiradi. Ushbu masalalar R. Baron, D. Zilmann, K. Loo, J. Karlsmit, S. Myuller, J. Fridman, H. Holden va boshqa olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Shuningdek, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste’moli kabi omillarning agressivlik darajasiga ta’siri ham ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Bu borada A. Armenti, R. Boyatjiz, H. Kappel, J. Karpenter, D. Kapasso, K. Leonard va S. Teylor kabi tadqiqotchilar ishlarini alohida ta’kidlash mumkin [5].

O‘smirlarning guruhga mansubligi, ommaviy axborot vositalarining ta’siri, filmlar va kompyuter o‘yinlaridagi zo‘ravonlik, ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlar kabi muhim ijtimoiy omillar turli tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan [6]. Biroq, o‘tkazilgan tadqiqotlar ushbu omillar va o‘smirlarning agressiv xatti-harakati o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni to‘liq aniqlamagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asosiy farqlovchi omil – bu kattalarning ushbu omillarga munosabati, ularning o‘z farzandlariga axborotni qanday yetkazishi va vaziyatni tushuntirish qobiliyatidir.

Shunday qilib, tarbiyaning sifati va oilaviy munosabatlar uslubi, ya’ni ijtimoiy omillar birlamchi ahamiyatga ega ekani aniqlangan.

Xulq-atvorni tartibga soluvchi ko‘plab ijtimoiy normalar bolalar va o‘smirlar tomonidan atrofdagi, ular uchun muhim bo‘lgan insonlarga taqlid qilish orqali shakllanadi. A. Bandura bolalarning ota-onalariga qaramligining muhimligini ta’kidlaydi, bu esa ularda kattalarga taqlid qilish istagini kuchaytiradi. Aksincha, qaramlik kuchsiz yoki yo‘q bo‘lganda, bolalarda dushmanlik va tajovuzkorlik hissiyotlari kuchayishi, shu bilan birga, bu hissiyotlarni nazorat qilish qobiliyati cheklanishi mumkin [2].

Banduraning qaramlik konsepsiyasi onaning chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilish orqali unga “ikkilamchi mustahkamlash” qiymatini berishiga asoslanadi. YA’ni, ona borligi va uning mehribonligi bolaning o‘zini xavfsiz va qulay his qilishi uchun yetarli omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning belgilangan maqsadiga muvofiq, biz ko‘rsatilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi usullarni tanladik:

1) "Qo‘llar" testi - tajovuzkor xatti-harakatlarni bashorat qilishga qaratilgan usul;

2) Bass-Darki so‘rovnomasi - shaxsning shakllari va dushmanlik reaksiyalarining xilma-xilligini aniqlash;

3) tajovuzni diagnostika qilishning yordamchi usuli sifatida turli mavzulardagi mini-insholar;

4) og‘zaki tajovuzga javoblarni o‘rganish uchun ishlatiladigan tugallanmagan iboralar usuli;

5) kuzatish usuli;

6) “Statistika” kompyuter dasturi yordamida ma’lumotlarni statistik qayta ishlash.

Tadqiqot No 12- o‘rta umumta’lim maktabida o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar. Quyida 25 ta o‘quvchining Bass-Darki so‘rovnomasi asosida empirik tahlili berilgan. Ushbu tahlilda har bir agressiya shaklining o‘rtacha, minimal va maksimal qiymatlari hisoblab chiqildi: 25 ta o‘quvchining empirik tahlili.

Ko‘rsatkich	O‘rtacha (%)	Minimal (%)	Maksimal (%)
Jismoniy agressiya	20.19	18.52	21.74
Bilvosita	14.54	12.50	16.44

agressiya			
Salbiylik	11.02	8.93	12.50
Jahllilik	15.96	13.70	17.39
Shubhalanish	11.86	8.70	13.04
Hujumkorlik	9.66	8.33	13.04
Dushmanlik	16.78	15.52	18.18
Umumiy agressiya	161.56	144.00	176.00

Empirik tahlil natijalari

Ushbu jadvalda 25 ta o‘quvchining Bass-Darki so‘rovnomasi asosida agressiya shakllari bo‘yicha o‘rtacha, minimal va maksimal ko‘rsatkichlar berilgan. Endi har bir ko‘rsatkichni alohida tahlil keltiramiz: 1. Jismoniy agressiya; O‘rtacha: 20.19% , Minimal: 18.52%, Maksimal: 21.74% Jismoniy agressiya eng yuqori agressiya shakllaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning aksariyati ushbu xatti-harakatni o‘zida namoyon qilgan. Maksimal va minimal qiymatlar orasidagi farq nisbatan kichik, bu esa jismoniy agressiyaning barqaror ekanligini ko‘rsatadi. 2. Bilvosita agressiya; O‘rtacha: 14.54%, Minimal: 12.50%, Maksimal: 16.44%, Bilvosita agressiya ham sezilarli darajada namoyon bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy muhitda bevosita tajovuz ko‘rsatmagan holda, lekin bilvosita tarzda bosim o‘tkazishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. 3. Salbiylik; O‘rtacha: 11.02%, Minimal: 8.93%, Maksimal: 12.50%, Salbiylik boshqa agressiya shakllariga qaraganda nisbatan pastroq. O‘quvchilarning ba’zilari bu ko‘rsatkich bo‘yicha ancha past natija ko‘rsatgan, bu esa ularning salbiy fikr va hissiyotlarni ochiq ifodalashga moyilligi kamligini bildiradi. 4. Jahllilik; O‘rtacha: 15.96%, Minimal: 13.70%, Maksimal: 17.39%, Jahllilik yuqori bo‘lib, o‘quvchilarning ko‘pchiligi tez g‘azablanishi yoki sabrsizlikni namoyon qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichning yuqoriligi muomala va muloqotda sabr va ijobiy muhit yaratish muhimligini bildiradi. 5. Shubhalanish; O‘rtacha: 11.86%, Minimal: 8.70%, Maksimal: 13.04%, O‘quvchilarning ba’zilari boshqalarga nisbatan ishonchsizlik yoki shubha bilan qaraydi. Biroq, bu ko‘rsatkich boshqa agressiya shakllariga qaraganda pastroq. 6. Hujumkorlik O‘rtacha: 9.66%, Minimal: 8.33%, Maksimal: 13.04%, Hujumkorlik eng past agressiya shakllaridan biri bo‘lib, aksariyat o‘quvchilar o‘zini bevosita tajovuzkor tutmaydi. 7. Dushmanlik O‘rtacha: 16.78%, Minimal: 15.52%,Maksimal: 18.18%, Dushmanlik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, ba’zi o‘quvchilar atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishi yoki muayyan shaxs yoki guruhlarga nisbatan dushmanlik hissini saqlashi mumkin. 8. Umumiy agressiya; O‘rtacha: 161.56, Minimal: 144.00, Maksimal: 176.00 , O‘quvchilarning umumiy agressiya darajasi nisbatan yuqori. Ba’zi o‘quvchilar agressiyaning turli shakllarida ko‘proq namoyon bo‘lsa, boshqalari nisbatan pastroq agressiya darajasiga ega. - Eng yuqori ko‘rsatkichlar: Jismoniy agressiya (20.19%), Dushmanlik(16.78%), Jahllilik (15.96%) - Eng past ko‘rsatkichlar: Hujumkorlik (9.66%), Salbiylik (11.02%) - Agressiya shakllari o‘quvchilar orasida turlicha namoyon bo‘lsa ham, umumiy xulosa shuki, jismoniy agressiya va dushmanlik eng ko‘p uchraydigan shakllar bo‘lib, shubhalanish va hujumkorlik esa nisbatan past darajada kuzatilgan.

Xulosa va takliflar. Bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga ijtimoiy-psixologik omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, psixologik omillar va madaniy qadriyatlar bolaning tajovuzkorlik darajasini belgilovchi asosiy omillardir. Shu sababli, bolalarda agressivlikning oldini olish uchun oilaviy tarbiyaga e’tibor berish, ijtimoiy muhitni yaxshilash, ommaviy axborot vositalari ta’sirini tartibga solish va psixologik yordam ko‘rsatish juda muhimdir. Bolalar agressivligi ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab ta’siri natijasida shakllanadi. Oilaviy tarbiya, maktab muhiti, do‘stlar ta’siri, ommaviy axborot vositalari, va shaxsiy psixologik xususiyatlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Agressiyani kamaytirish va oldini olish uchun: Oilada ijobiy muhit yaratish, bolalarga mehr va e’tibor berish kerak. Maktab va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish lozim. Bolalarga muammolarni agressiyasiz hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish samarali usullardan biridir. OAV va internetdagi zo‘ravonlikni cheklash, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi kontentdan himoya qilish lozim. To‘g‘ri yondashuvlar orqali bolalar agressivligining oldini olish, ularning ruhiy va ijtimoiy sog‘lom rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Алфимова М.В., Трубников В.И. Психогенетика агрессивности//Вопросы психологии. 2000. № 6.
2. Бандура Альберт, Уолтерс Ричард / Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. Пер. с англ. Ю.Брянцевой и Б. Красовского. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО –Пресс, 1999. – 512 с. (Серия «Психология. XX век»).
3. Берковец Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002.-512 с.(Секреты психологии).
4. Боулби Дж. Привязанность. — М.: Гардарики, 2003Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.
5. Dodge, K. A. (2006). Translational Science in Preventing Youth Violence. Current Directions in Psychological Science.
6. Olweus, D. (1993). Bullying at School: What We Know and What We Can Do. Wiley-Blackwell.480 c.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:1:233:852.5-055.62

Oynisa MUXAMMADIEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori v.b
E-mail: oynisamuhammadieva@gmail.com
Oysafar MAJIDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b

F.f.n., dotsent D.Islomova taqrizi asosida

Annotatsiya
Mazkur maqolada, Sharq mutafakkirlarining inson axloqiy kamoloti to‘g‘risidagi qarashlari yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, mantiqiy tahlil qilingan. Unda inson tuyg‘usi va tafakkuri, inson borlig‘i va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, tarbiya uning asosiy xususiyatlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg‘ariy, Mirzo Bedil inson borlig‘i, fazilat, odob, ahloq, yaxshilik va yomonlik.

РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация
В данной статье логически проанализированы взгляды восточных мыслителей на моральное совершенство человека и их значение в воспитании молодого поколения. Раскрываются чувства и мышление человека, его бытие и роль в общественной жизни, а также основные характеристики воспитания.
Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина, Махмуд Кашгари, бытие человека, добродетель, этикет, нравственность, добро и зло.

THE ROLE OF TEACHING EASTERN PHILOSOFERS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Annotation
This article logically analyzes the views of Eastern thinkers on the moral perfection of human and their importance in the education of the younger generation. It reveals the feeling and thinking of human, his being and role in public life, as well as the main characteristics of education.
Key words: Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, Mahmud Kashgari, human existence, virtue, etiquette, morality, good and evil.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida diniy va dunyoviy omillar o‘rtasida sog‘lom muvozanatni to‘liq ta’minlash, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega bo‘lgan va xalqimiz ma’naviyatini asrlar davomida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning, azaliy an’ana va urf odatlarimizning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘yish xollari uchramoqda[1]. Barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladigan g‘oyaviy tarbiya mexanizmining ta’siri kamaygani sezilmoqda. Targ‘ibot ishlari samarasi kamaygan joyda turli xil anglashilmovchilik va nizolar paydo bo‘lishi aniq. Shunday bir xolatda madaniy determinantlarni izlashga, jamiyatimiz ma’naviy hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi ilmiy falsafiy g‘oyalarga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Shunday g‘oyalardan biri o‘rta asr sharq falsafiy merosi, uning ahloq va tarbiya bilan bog‘liq jihatlaridir. Yoshlarni kasb-hunarga nisbatan mehr-muxabbat ruhida tarbiyalashda asosiy e’tibor, Sharq mutafakkirlarining baxt-saodatga erishuvida hunar egallashning ahamiyati to‘g‘risida fikr-muloxazalarni chuqur o‘rganish lozim. Shu bilan bir qatorda kasb-hunar mehnatsevarlik mavzusidagi xalq maqollari, o‘tmishda yashab o‘tgan donishmandlarimizning pandu-nasixatlari va o‘gitlaridan ham unumli foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Yoshlar biron-bir o‘zlari yoqtirgan kasbni egallash jarayonida ularda shu kasbga nisbatan mehr uyg‘ota bilishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari, xususan, inson ma’naviy kamoloti haqidagi ilmiy ta’limoti ko‘plab chet el va mamlakatimiz manbashunos, faylasuf olimlari tomonidan jiddiy o‘rganilib kelinayotganligiga qaramay, uni maxsus tadqiq etish, falsafiy umumlashtirish, xulosalash va baho berish ishlari hali yakunlanmaganligini ham ta’kidlash lozim. Bu holat mutafakkirning ma’naviy madaniyat va shaxs barkamolligi to‘g‘risidagi ta’limotiga yangicha yondashish asosida tadqiq etishning o‘ta dolzarb muammo ekanligini ko‘rsatmoqda. Zero[2], “...tarixiy merosni asrab - avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri” sifatida qabul qilingan. Abu Nasr Forobiyning to‘liq asarlari ro‘yxati atoqli sharqshunos Abdusodiq Irisov Mahkam Mahmudov bilan hamkorlikda nashr etgan “Fozil odamlar shahri” to‘plamida Abu Usaybiya, Ibn Hallikon asarlaridan olib keltirilgan[3]. Rossiya sharqshunos olimi A.Smirnov o‘z tadqiqotida shunday deydi, Ibn Sino falsafiy qarashlarida inson va borliqni ayri-ayri holda emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘liqligini tadqiq etib, shaxsning nafaqat jismoniy va aqliy qobiliyatlari, balki ruhiy xislatlariyu imkoniyatlarini o‘rganish[4], insonni borliq sifatida o‘rganishning asosini tushuntirishga harakat qilganligini e’tirof etadi. Markaziy Osiyo davlatlari xususan, Tojikistonda Ibn Sinoning falsafiy, ilmiy, ahloqiy, estetik, badiy qarashlarining tahlili olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo‘lsa, Qozog‘istonda uning merosi asosan Abu Nasr Farobiy ta’limoti bilan qiyosiy o‘rganiladi. A.Qayumov, U. Karimov axloq kategoriyasiga sharq mutafakkirlari yaxshilik va yomonlikni, lazzat, donolik saxiylik sevgi-muhabbat, kamtarlik azob-uqubat va shu kabilarni[5], kiritganligini o‘z tadqiqotlarida takidlaydi.

Tahlil va natijalar. Abu Nasr Forobiy axloqiy tamoyilni rivojlantirishga va axloqiy jamiyatda ro‘yobga chiqishga intilib, shaxsiy manfaatdorlik impulsini o‘z ichiga oladigan haqiqiy ijobiy konsepsiyaning zarurligini tushundi. Shaxs va hukmdorning manfaatlari bir-biriga to‘g‘ri kelishi kerak edi. Lekin qanday? Darhaqiqat, hukmdor uchun asosiy narsa universallikni amalga oshirishdir, va inson uchun[6] o‘zini o‘zi anglashi zaruratdir.

Abu Nasr Farobiyning fikriga ko‘ra, bu universallik yaxlitlikdir, unga hamma narsa oqilona intiladi va shu nuqtai nazardan ijtimoiy ontologiya modelini qurish "borliq yaxlitligi" ga da’vatlarni erishtirgan fazilatli inson tabiatiga halollik har doim axloq, adolat, va mas’uliyatdir. Mutafakkirning fazilati shundaki, u ijtimoiy mavjudotning universal maqsadini individual maqsad bilan birlashtirdi, hamda shaxsning axloqiy fazilat uchun

umumbashariy axloq qonunlariga bo‘ysunish istagi bilan, ushbu versiyada fazilatli shaharning islom tushunchasi shahada, salat, saum, zakot, haj kabi hayotiy obrazlarda mavjud bo‘lib, ular Xudodan olgan qonuniy huquqlari bilan insonning ilohiy qadr-qimmatini ochib berish usullariga aylandi ya’ni erkinlik, tenglik, adolat, mehnat va axloqiy fazilatli hayot.

Abu Nasr Farobiy kasb-hunar kamolotga erishish uchun hayot davomida qo‘lga kiritilgan fazilitlar mashaqqatli mehnat tufayli erishiladigan malakalarning muhim rol’ o‘ynashini ta’kidlash bilan birga, insonning tug‘ma qobiliyatini ham inkor qilmaydi. Mutafakkir insonning tug‘ma qobiliyatiga zukkolik, donolik, zehn o‘tkirligi, biron kasbni egallashga bo‘lgan qobiliyat va boshqalarni[7] kiritdi. U tug‘ma fazilatning fikriy fazilat bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ularni bir-biridan ayri xolda qarab bulmaydi. “Quvvati jixatidan eng kuchli bo‘lgan fikriy fazilat bilan kuchli tug‘ma fazilat bir-biridan ajralmaydi. Fikriy fazilat insonning kasb-hunar fazilatlari ichidagi eng kuchlisi bilan bog‘liq va ajralmagan holda bo‘lishi lozim. Aks holda, keyingi ikki fazilat(tug‘ma va san’atga oid) - to‘la va mukammal bo‘lmaydi va ular o‘z navbatida nazariy fazilatga bo‘ysunmasligi mumkin emas, fikriy fazilatning nazariy fazilatdan ajralmasligi uchun, uni tug‘ma takomillashtirish ham qiyin bo‘ladi. Tug‘ma fazilat insonda ustun fazilat bo‘lsa, u ma’qul nazariy fazilatga aylangandan so‘ng, shu ma’qul nazariy fazilat vositasi bilan fazilatlarni ayira bilish ular yordamida kutilgan predmetni kashf etish va xosil qilish xech so‘zsiz mumkin bo‘lib qoladi” [8],

Sharq mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, shaxsni kamol topishida uning ma’naviy xazinasi bo‘lgan ko‘ngil olamiga, ruhiy olamiga juda katta e’tibor beradi. Ibn Sino fikricha, “Tabiatda nimaiki mavjud bo‘lsa, o‘z tabiatiga ko‘ra, kamolotga intiladi. Mana shu kamolotga intilish, o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxshilikdir. Narsa kamolotga intilib, nuqsonlardan qochadi” predmetlarga xos bo‘lgan nuqsonlar uning uchun yomonlikdir[9]. “Har qanday predmetning ikki jihati bor, - deydi u, - bu faollik va passivlik jihatlaridir”[10]. Mutafakkir “Risolai axloq” asarida: axloqda yaxshilik va yomonlik, lazzat va azob – uqubat, bosh rolni o‘ynaydi, u insonning barcha yomon fazilatlarini yomonlik kategoriyasiga kiritadi.[11]. Ibn Sino “Risolai axloq” asarida shunday yozadi: “Axloq ilmi insonlarning yaxshi hulqlarga chaqirib, yomon hulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi hulqlarning yaxshiligini yomon hulqlarning yomonligini bayon qiladigan, bildiradigan bir ilmdir. Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxirotda sharofatlik bo‘lur. Axloqli yaxshi kishilar dushmanlarini ham osonlik bilan o‘zlariga do‘st qilurlar. Insonlarning hayvonlardan farqlari, ayrimlari aql, ilm, so‘z, adab, fikr, axloq iladur. Shuning uchun dunyoda[12], “chin inson bo‘lurman degan kishilarga bu ilmni o‘qimak, axloq yo‘llarini o‘rganmak, yaxshi hulq qaysi, yomon xulq qaysi - bilmak, bir-biridan ayirmak lozimdir. Agar bir kishining o‘zidan, ishidan, so‘zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyilur. Agar ozor topadug‘on bo‘lsalar yomon xulq deb atalur”[13].

Kasb-xunarga munosabat yuzasidan qimmatli o‘gitlarini qoldirgan sharq uyg‘onish davri mutafakkirlaridan biri Maxmud Qoshg‘ariydir. Alloma kasb-xunar va ilm o‘rganish to‘g‘risida o‘zining «Devon»ida ibratli fikr muloxazalarini bildirib o‘tganlar. U asosan ilm-fanning jamiyatda tutgan o‘rnini chuqur idrok etadi, xamda ilmni insonning yuksak fazilat deb xisoblaydi. Mutafakkir ilmni xulq-odob va ta’lim-tarbiya bilan chambarchas bog‘lagan xolda talqin qiladi. Lekin o‘sha zamonda ilm hal bo‘lganligidan, bilimdonlarning turmushi yomonlashayotganligidan nolib, quyidagilarni yozadi. “Bilimdonlarning ahvoli yomonlashadi, zamon ularni tashlab azob berdi, hattoki odob, fazilat go‘shtlari buzildi, sasidi zaiflikdan yerga tegib sudralmoqda”[15]. Lekin shunga qaramasdan, u kishilarni va o‘z farzandlarini bilim sirlarini egallashga tinmay chaqirdi. “O‘g‘lim, senga me’ros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman, Agar ilmli, aqlli odamlarga yo‘liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan”[16]. Uning fikricha, ilm o‘rganuvchi kibr-xavoga berilmasligi, maqtanmasligi, takabbur bo‘lmasligi, kamtar va xulqi odobli bo‘lishi darkor. Maxmud Qoshg‘ariy bilimdonlarni, xunarmandlarni ulug‘laydi, bilimsizlik, joxillik va nodonlikni qoralaydi. U o‘g‘liga murojat qilib, faqat bilimdon odamlar bilan muomila qilishni, ularning pand-nasixatlariga quloq solib, xikmatlarini o‘rganishga chaqirdi. “Ilmli aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla, ilmlarini, xunarlarini o‘rganib, amalga oshir” deb ta’kidlaydi[17] mutafakkir.

Sharqning buyuk mutafakkiri Mirzo Abdulqodir Bedil Inson kamoloti va fazilati ilm bilan ekanligini uqtirib, quyidagilarni yozadi:

To fazlu hunarga bezanmay inson,
Biron baxt eshigi ochilmish qachon?
Javhar bilan po‘lat bo‘lur jo‘n temir,
Ilmsiz o‘z jinsidan chiqmogi gumon .

Bedil insonni ilm olishga chaqiradi, ilm orqali baxt-saodatga erishishi mumkinligini uqtirib o‘tadi[18].

Mutafakkir insonni axloqiy fazilatlarini, ilm-ma’rifatli bo‘lishga intilishini madh etish barobarida, uning illatlarini qoralaydi. Insonning ijobiy fazilatlarini uning salbiy illatlariga qarama-qarshi qo‘ygan holda qiyosiy tahlil qiladi. Mutafakkir insonnig salbiy illati bo‘lgan hirsning naqadar yomon ekanligi, agar uni qondirishga harakat qilinsa, yomon oqibatlarga olib kelishini[19] ta’kidlab shunday deydi:

Kishi to tamiizdai ajralmasa gar,
Tillo-kumush kayfi uiga beasar.
Odamzod hamma vaqt qo‘yganda xino,
Behis tirnoqlarga[20] yaxshiroq yuqar.

Bedil hirsning naqadar yomon ekanligi, agar uni qon dirishga harakat qilinsa, yomon oqibatlarga olib kelishini[21]ta’kidlaydi. Bedil ta’limotiga ko‘ra, faqat idroksiz kishilargina tillo-kumush va dunyo boyligidan lazzat oladilar. Chunki insonning tanasiga bezak bo‘lgan xina ham kishining hissiz joylari-tirnoq va sochlariga yuqadi, deb nafs, hirsni qoralaydi[22].

Xulosa va takliflar. Fikrlarimizni xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson o‘z ma’naviyatini shakllantirishda ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy oziq, kuch quvvat oladi, ularga tayanadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarimizni shakllantirishda sharq mutafakkirlarimizning bilim boyliklaridan, tajriba va tarihiy saboqlaridan, odob – ahloq, ta’lim – tarbiyaga oid o‘gitlari va yo‘l – yo‘riqlaridan foydalanishimiz foydadan xoli bo‘lmaydi. Buyuk allomalarimiz, mutafakkir-faylasuflarimiz qoldirgan boy ma’naviy meros hozirgi yangi O‘zbekistonda Uchinchi renessans poydevorini qurish sharoitida yoshlar qalbida milliy g‘urur, qadriyatlarimizga sadoqat tuyg‘usini qaror toptirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Mutafakkirlarimizning insonni ilm olish, hunar egallash va komil inson bo‘lish to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi sharoitda ham barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Allomolarimiz ta’kidlab o‘tganlaridek yoshlar qanchalik ilm va hunarni mukammal egallab unga mehr qo‘ysalar baxt-saodat va kamolotga erishishlari oson kechadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziëev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T,:O‘zbekiston, 2021.292 b.
2. Abu Nasr Forobiy falsafiy qarashlari xususan, inson ma’naviy kamolati haqidagi ilmiy - falsafiy ta’limoti.
3. Irisov A.. Abu Ali Ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi. Toshkent: “Fan”, 1973. – 50.B.
4. Smirnov A.V.. Filosofskaya mыsl islamskogo mira. Issledovovaniya Tom-1.Moskva: 2009.S.531.
5. Karimov U.. M. Eticheskie problemы v antropologii Ibn Sinы. Avtoreferat diss ...kand..filos. nauk. –Dushanbe, 2009. –.22s.
6. Abu Nasr Forobiy falsafiy qarashlari xususan, inson ma’naviy kamolati haqidagi ilmiy - falsafiy ta’limoti.
7. Abu Nasr Forobiy falsafiy qarashlari xususan, inson ma’naviy kamolati haqidagi ilmiy - falsafiy ta’limoti.
8. Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida‖.Abu Nasr Forobiy. Risolalar, Fan, 1975, str.101.
9. Majidova O.U.. Ibn Sino inson, uning ahloqiy fazilatlari haqida. UzMu xabarlari -Toshkent. 125-b.
10. Raximov S.. Abu Ali Ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1967. – 77.B.

11. Raximov S.. Abu Ali Ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1967. – 77.B.
12. Majidova O.U.. Ibn Sino inson, uning ahloqiy fazilatlari haqida. UzMu xabarlari -Toshkent. 125-b.
13. Aliqulov H. «Falsafiy meros va ma’naviy ahloqiy fikr rivoji» Toshkent 2009yil, 35-36 betlar.
14. Aliqulov H. «Falsafiy meros va ma’naviy ahloqiy fikr rivoji» Toshkent 2009yil, 35-36 betlar.
15. Falsafa lug‘ati (2004). Mahmud Qoshg‘ariy. Faylasuflar jamiyati.
16. Muxammadieva O.M.. Bedil ijodida inson mohiyati – Imom Buhoriy halqaro ilmiy -tadqiqot jurnali.
17. Mirzo Abdulqordir Bedil. Ruboiylar. Toshkent, 1974, - B. 44.
18. Mirzo Abdulqodir Bedil. Shavqingni yod etib. T, 2005. - B. 51

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:81-133

Xadicha MUXITDINOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, p.f.d
E-mail:xadichasmuxitdinova@gmail.com

O‘zDJTU dotsenti, PhD P.Omonov taqrizi asosida

STATUS OF CURRICULUM PROVISION FOR TEACHING THE UZBEKISTAN LANGUAGE TO FOREIGNERS AND ITS TASKS

Annotation

These days the growing prestige of Uzbekistan in the world community has led to increased interest in our republic and the study of the Uzbek language, and the opening of Uzbek language and culture centers in leading higher education institutions in more than 60 countries of the world. However, modern textbooks and study guides for teaching Uzbek language to foreigners have not been created in our republic, nor has a separate lexical minimum and grammatical minimum been developed for each level based on the competence standards of language education. This emphasizes that the creation of educational and methodological support for teaching the Uzbek language for foreigners is one of the urgent issues of today. Also, the development of special textbooks and training manuals so that Uzbeks living in different countries and their children do not forget their mother tongue is one of the urgent issues. The article gives some comments on how to solve this problem.

Key words: Mother tongue, second language, foreign language, language environment, foreigners, language skills, system software, study guides, vocabulary, dictionaries, A1 level, A2 level, educational content, lexic-grammatical minimum.

СТАТУС И ЗАДАЧИ ПРОГРАММЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА ИНОСТРАНЦАМ

Аннотатция

К настоящему времени растущий авторитет Узбекистана в мировом сообществе привел к повышению интереса к нашей республике и изучению узбекского языка, открытию центров узбекского языка и культуры в ведущих высших учебных заведениях более чем 60 стран мира. Однако в нашей республике не созданы современные учебники и учебные пособия для преподавания узбекского языка иностранцам, не разработан отдельный лексический минимум и грамматический минимум для каждого уровня на основе компетентностных стандартов языкового образования. Это подчеркивает, что создание учебно-методического обеспечения обучения узбекскому языку иностранцев является одним из актуальных вопросов современности. Также одним из актуальных вопросов является разработка специальных учебников и учебных пособий, чтобы узбеки, проживающие в разных странах, и их дети не забывали родной язык. В статье даются некоторые комментарии о том, как решить эту проблему.

Ключеввые слова: Родной язык, второй язык, иностранный язык, языковая среда, иностранцы, языковые навыки, системное программное обеспечение, учебно-методические пособия, лексика, словари, уровень А1, уровень А2, образовательный контент, лексико-грамматический минимум.

XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING O‘QUV-DASTURIY TA’MINOTI HOLATI VA DOLZARB VAZIFALAR

Annotatsiya

Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborining ortib borishi respublikamizga va o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishning kuchayishiga, jahonning 60 dan ortiq mamlakatlaridagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va madaniyati markazlarining ochilishiga olib keldi. Biroq bugungi kungacha respublikamizda xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgani, til ta’limining kompetensiyaviy me’yorlaridan kelib chiqib har bir daraja uchun alohida leksik minimum va grammatik minimum ishlab chiqilgani yo‘q. Bu xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘qitishning o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, turli mamlakatlarda yashayotgan o‘zbekistonliklar va ularning farzandlari ona tillarini unutib yubormasliklari uchun maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilishi ham dolzarb masalalardan biridir. Maqolada mazkur muammoni bartaraf etish yuzasidan ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili, ikkinchi til, xorijiy til, til muhiti, xorijliklar, til ko‘nikmalari, tizimli dasturiy ta’minot, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, so‘zlashgichlar, lug‘atlar, A1 daraja, A2 daraja, ta’lim mazmuni, leksik-grammatik minimum.

Kirish. Ma’lumki, til ta’limida bir-biridan farq qiladigan ikki xil yondashuv – tilni ona tili sifatida o‘qitish va tilni ikkinchi til sifatida o‘qitish farqlanadi. Ayni vaqtda tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishning o‘zi ham tilni til muhitida o‘qitish (respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillariga o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish) hamda til muhiti mavjud bo‘lmagan holatda o‘qitish (xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tilini o‘qitish) yo‘nalishlariga bo‘linadi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lib, ta’lim mazmuni va metodlari shunga mos holda tanlanadi. Bu har bir yo‘nalishning o‘quv-uslubiy dasturiy ta’minotini ham yondashuvlar va yo‘nalishlardan kelib chiqib ishlab chiqishni taqozo etadi. Jumladan, respublikamizda o‘zbek tilini milliy maktablarda ona tili sifatida o‘qitish mazmuni, albatta, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish mazmunidan farq qiladi va ushbu ta’lim mazmuni o‘ziga xos metodikani va shunga mos o‘quv-uslubiy ta’minotni ham talab etadi. Ayni vaqtda o‘zbek tilini respublikamizda yashovchi o‘zga tillar vakillariga o‘qitish mazmuni ham xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish mazmunidan farq qiladi. Ko‘p millatli respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillari esa shu yerda tug‘ilib o‘sib, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar muhitida yashab kelmoqdalar, o‘zbekcha nutqni har kuni tinglab eshitib turganliklari tufayli ular o‘zbek tilida muaayyan so‘z zahirasiga ega, muayyan darajada tinglab tushunish, gapirish va boshqa til ko‘nikmalariga egalar. O‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda va respublikamizga ish, o‘qish munosabati bilan kelayotgan xorijliklarga o‘rgatishda esa nol darajadan boshlashni va bunda chet tillarini o‘qitish mazmuni va metodikasini qo‘llashni taqozo etadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda jadal olib brilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-demokratik islohotlar ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berishiga, uzluksiz ta’lim tizimining har

bir bo‘g‘inida o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy metodikasini yaratish, o‘quv-uslubiy ta’minotini yangilash bo‘yicha amaliy tajribalar o‘tkazilishiga olib keldi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborining ortib borishi respublikamizga va o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishning kuchayishiga, ko‘plab xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili bo‘limlarining va hatto o‘zbek tili litsey-kollejlarining ochilishiga olib keldi. Bu o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish yo‘nalishini tashkil etish va xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, bugungi kunga kelib jahonning 60 dan ortiq mamlakatlaridagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va madaniyati markazlari ochilgan, ularning qoshida maktab, litsey va kollejlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakalardagi diplomatik vakolatxonalari qoshida “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari ham faoliyat yuritmoqda. Biroq xorijiy mamlakatlardagi ushbu ta’lim muassasalari, o‘zbek tili va madaniyati markazlari, klublarini zarur o‘zbek tili va adabiyotidan o‘quv qo‘llanmalar, bosma va elektron darsliklar, uslubiy-metodik ishlanmalar bilan ta’minlash holati talab darajasida emas. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 1990- yilda Toshkentda I.A. Kissen, Sh.U.Rahmatullayevlar tomonidan chop etilgan “Izuchayem uzbekskiy yazik (samouchitel)” [1], 1997-yilda A.Rafiyev, Tunjay O‘zturk, D. Nuriddinova tomonidan tayyorlanib Toshkentda chop etilgan “Chet elliklar uchun o‘zbek tili” [2], 2002- yilda Nigora Ikromova va Hanneke Ykema tomonidan o‘zbek va ingliz tillarida tayyorlanib, Toshkentda chop etilgan “Marhamat” o‘quv qo‘llanmasi [3], Y. Azizxanova va R. Tolipova tomonidan “O‘zbek tili chet elliklar uchun” o‘quv qo‘llanmalarini [4] ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanmalar xorijliklarni o‘zbek tili alifbosi va fonetikasi, grammatik strukturasi bilan tanishtirish, til o‘rganuvchilar nutqini dastlabki muloqot uchun zarur bo‘lgan lug‘aviy zahira bilan boyitish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan bo‘lib, ularda o‘zbek tilining spesifik nutq tovushlari talaffuzi haqida ma’lumotlar berilgan, faol qo‘llanadigan so‘z birikmalari, gap va jumlalar tarjimasi bilan keltirilgan, ularni nutqda qo‘llash namunalari bilan tanishtirilgan. Biroq mazkur qo‘llanmalarning birortasi ham tizimli dasturiy ta’minot asosida yaratilmagan va xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarni o‘zbek tilidagi nutqiy ko‘nikmalarini tilning kompetensiyaviy darajalariga mos ravishda rivojlantirib borishga mo‘ljallanmagan. Shu bois bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan bo‘limlar va markazlarda o‘zbek tilini o‘rgatishda ko‘p hollarda eski o‘quv qo‘llanmalari, pedagoglar o‘zlari tuzgan didaktik materiallardan foydalanilmoqda. Bu o‘rinda shuni ham qayd etish kerakki, xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tilini o‘qitayotgan pedagoglarning aksariyati o‘zbek tili mutaxassislari emas. Bularning barchasi oldimizga xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun maxsus tizimli dasturiy ta’minot asosida tuzilgan va multimedia ishlanmalari kiritilgan o‘quv-metodik adabiyotlari bilan ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6084- sonli Farmonlari va ular ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “2020 — 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da bu masalaning dolzarbligi qayd etib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xususan, Konsepsiyaning 5-bandida davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, o‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish, uni o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik fuqarolarga ko‘maklashishga mo‘ljallangan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini ta’minlash va muntazam boyitib borish; xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning madaniy va til o‘zligini saqlab qolish, ularning o‘zbek madaniy an’ana va qadriyatlari ruhida tarbiya topishlariga ko‘maklashish, xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari bilan muntazam aloqa o‘rnatish va o‘zaro tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish; xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari, elektron dasturlar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan [5].

Biroq qayd etganimizdek, xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 1990-2000 yillarda yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar bugungi talabga javob bermaydi, so‘nggi yillarda yaratilganlari esa xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan markazlar ehtiyojini to‘liq qoplay olmaydi. Bugungi kungacha o‘zbek tilini xorijliklarga o‘qitish yo‘nalishi tor doirada ko‘proq respublikamizga ish, o‘qish munosabati bilan kelgan xorijlik fuqarolarga individual tarzda o‘rgatib kelingani yoki dastlabki muloqot yuritishga o‘rgatishga qaratilgan qisqa kurslardan iborat bo‘lgani hech kimga sir emas. Ushbu jarayonda qo‘llanib kelingan o‘quv-uslubiy materiallar ham ta’lim beruvchi o‘zbek tili o‘qituvchilarining yoki o‘zbek tilini o‘rgatuvchilarning (ayrim hollarda hatto bevosita mutaxassis bo‘lmagan boshqa soha vakillari masalan, chet tili o‘qituvchilari, jurnalistlar ham shug‘ullanganlari uchun, ularni o‘zbek tilini o‘rgatuvchilar deb atash ham mumkin) o‘zlari tayyorlagan materiallardan iborat bo‘lib, ko‘p hollarda tizimli dasturiy ta’minotni tashkil etmas edi. Ta’kidlash kerakki, xorijiy mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalarida (masalan, AQShning Indiana, Chikago, Arizona, universitetlari, Rossiya Federatsiyasining MDU, MDLU universitetlari, Germaniyaning Gumboldt universiteti, Koreyaning Pusan universiteti, Xitoy, Yaponiya, Turkiya universitetlari va boshqalarda) faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili bo‘limlarining o‘quv-dasturiy ta’minoti ham o‘sha ta’lim muassasalarida dars beradigan o‘qituvchilar tomonidan individual tarzda tuzilgan.

Keyingi yillarda talab va ehtiyoj ortganligi tufayli xorijiy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili 1 semestr, 1 o‘quv yili, ayrim universitetlarda to‘liq bakalavriat davomida tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tizimli o‘qitila boshlandi. Jumladan, Moskva davlat lingvistik universitetida “O‘zbek tili” “Prakticheskiy kurs uzbekskogo yazika” (haftasiga 3 soat) va “Professionalnaya kommunikatsiya” (haftasiga 2 soat) dasturlari [6] asosida haftasiga 5 soat o‘qitilishi rejalashtirilgan, Moskva davlat universitetida “Uzbekskiy yazik” dasturi asosida haftasiga 4 soat o‘qitiladi. AQShning Chikago universitetida o‘zbek tili 1 semestr davomida, Arizona universitetida yozgi maktablarda 1,5 oy davomida, Indiana universitetida esa bakalavr kursi davomida “O‘zbek tili” fani haftada 2 marta (4 soat) amaliy mashg‘ulot sifatida offlayn ta’lim shaklida hamda 1 marta onlayn tarzda suhbat darslari sifatida o‘tilishi rejalashtirilgan. Kurs oxirida talabalar o‘zlari qiziqqan mavzuda kurs ishlarini yozadilar, kurs ishlari mavzusi doirasida yozgi ta’til davrida O‘zbekistonda til tajribasini o‘tashlari ham rejaga kiritilgan.

Ko‘rinadiki, bugungi kungacha respublikamizda xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha maxsus o‘quv-uslubiy ta’minot ishlab chiqilmaganligi, hatto ushbu yo‘nalishlarda ta’lim beruvchi kadrlar ham maxsus tayyorlanmayotganligi o‘zbek tilining turli mamlakatlarda turlicha o‘qitilishiga olib kelmoqda. Shu o‘rinda turli mamlakatlarda yashayotgan o‘zbekistonliklar va ularning farzandlari ona tillarini unutib yubormasliklari masalasi ham dolzarb bo‘lib, ular uchun ham maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak.

Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha respublikamizda va respublikamizdan tashqarida chop etilgan sanoqli darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, so‘zlashgichlar va lug‘atlar mavjud, biroq ularning birortasi ham tizimli dasturiy ta’minot asosida yaratilmagan. Afsuski, xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha bugungi kunda turli loyihalar asosida ishlanayotgan o‘quv qo‘llanmalar ham tizimli o‘quv-dasturiy ta’minot asosida yaratilmayapti.

Mavjud qo‘llanmalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning deyarli 80%i “Chet tillarini egallashning Umumevropa kompetensiyalari”da [7] qayd etilgan til ko‘nikmalarining A1 darajasiga muvofiq holda yaratilgan, hatto ayrimlari A1.1. va A1.2. daraja ko‘rsatkichlari bilan qismlarga ajratib berilgan bo‘lsa-da, biroq aynan shu daraja ko‘rsatkichlari uchun belgilangan ta’lim mazmuni va leksik-grammatik minimum qaysi dastur asosida ajratilgani, ushbu boshlang‘ich darajadan keyingi

A2 va B1 darajalarda ta’lim mazmuniga nimalar kiritilishi, qaysi grammatik ma’lumotlar va lug‘aviy zahira berilishining dasturiy ta’minoti ishlab chiqilmagani bois ularda har xil materiallar taqdim etilgan.

To‘g‘ri, ko‘pchilik mualliflar xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishda chet tillarini o‘qitish mazmuni va metodikasini qo‘llangani, chet tillarini o‘qitish dasturlaridagi mavzular kiritilganini qayd etadilar. Biroq bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, etalon sifatida olinayotgan ingliz, nemis tili darsliklarining o‘quv materiali va topshiriqlar tizimi genetik kelib chiqishi va tipologik tuzilishi jihatidan mutlaqo farq qiluvchi o‘zbek tili xususiyatlariga ko‘p hollarda mutlaqo mos kelmaydi. Yuqorida qayd etilgan tillar strukturasida leksikaning katta o‘rin tutishi, tarkibiy tuzilishda analitik xususiyatlar ustuvor bo‘lgani uchun turkiy tillar oilasiga kiruvchi agglyutinativ tuzilishli o‘zbek tili uchun ular har doim ham etalon vazifasini o‘tay olmaydi.

Tahlil va natijalar. Respublikamizda “O‘zbek tili” fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari talablarida [8] ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflari uchun o‘zbek tilini o‘rganishning A1- boshlang‘ich darajasi, 5-9-sinflar uchun A2- tayanch darajasi, 10-11-snflar va o‘rta maxsus ta’lim uchun V1- asosiy darajasi va oliy ta’lim uchun B2- yuqori darajasi belgilangan va o‘quv dasturlari, darsliklar shu asosda yaratib kelinmoqda [9]. Biroq ushbu talablar xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish yo‘nalishiga to‘g‘ri kelmaydi. Demak, xorijliklar uchun ham o‘zbek tilidan o‘quv-dasturiy ta’minoti mazmunini belgilash uchun, avvalo, o‘zbek tilining boshlang‘ich A1 darajasi, tayanch A2 darajasi va asosiy B1 darajalari uchun leksik-grammatik minimumlar chegaralarini ajratib olish kerak bo‘ladi.

Grammatik minimumni belgilashda aynan affiksal o‘zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqish va imkon boricha avval qo‘shimchalar kam ishlatiladigan so‘z shakllaridan foydalanish (masalan, A1.1. darajada faqat otli birikmalar ishtirok etgan jumlalarni qo‘llash), keyingi A1.2. darajadan boshlab tarkibida 3-4 tadan qo‘shimchalar ishtirok etadigan so‘zlarni nutq jarayoniga (masalan, fe’lli birikmalarni) kiritib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Ma’lumki, til o‘rganish tanish shakldan notanish shaklga qarab, oddiydan murakkabga qarab boradi. Tarkibida hali o‘tilmagan grammatik shakl mavjud bo‘lgan fe’llarni dastlabki bosqichdan boshlab qo‘llash til o‘rganuvchilarning qo‘shimcha izohlar talab qilishlariga, ushbu shaklni anglamagan, tushunmagan holda quruq yodlash orqali qo‘llashlariga va boshqa vaziyatlarda noto‘g‘ri qo‘llab, noqulay holatga tushib qolishlariga olib keladi.

Aytilgan mulohazalar “Xorijliklar uchun o‘zbek tili” qo‘llanmalarini yaratishning o‘quv-uslubiy dasturiy ta’minotini ishlab chiqish bugungi kunda zaruratga aylanganini ko‘rsatadi. O‘zbek tilini o‘rganishni xohlovchilar soninig ko‘payib borayotgani ona tilimizning jahon miqyosida nufuzining ortib borishiga olib keladi. Bu imkoniyatni boy bermaslik uchun xorijiy mamlakatlarda ta’lim muassasalarida ochilayotgan o‘zbek tili bo‘limlarini o‘quv-uslubiy materiallar bilan yetarli va kerakli darajada ta’minlash, buning uchun esa avvalo xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishning dasturiy ta’minotini tezkorlik bilan ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu kelajakda jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarimizni yanada yaxshilashga, ayni vaqtda chet mamlakatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizning farzandlarini ham o‘z ona tillari va madaniyatlarini asrab qolishlariga mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Kissen I.A., Rahmatullayev Sh.U. “Изучаем узбекский язык (самоучитель)”.– Toshkent, 1990.
2. Rafiyev A., O‘zturk T., Nuriddinova D. (eds.) Uzbek language for foreigners. Tashkent: O‘zbek-Türk liceylari, 1997. — 176 p.
3. Sharipova N., Ykema H. Marhamat. Uzbek Coursebook for Beginners. Toshkent, 2002. - 297 p.
4. Azizxanova Yu., Tolipova R. O’zbek tili (практический курс для иностранцев). – Toshkent, O’qituvchi, 1999.
5. 2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-son Farmoni. 1-ilova, 5-band. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 06/20/6084/1398-son.
6. Практический курс второго иностранного языка (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010; Профессиональная коммуникация (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010.
7. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 256.
8. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) // Ta’lim taraqqiyoti. O‘zR Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. –Toshkent: Sharq, 1999. – 262–302 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:373.1.02(045)

Xurshida NARXODJAYEVA,
Iqtisod va pedagogika universitetida professor vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari doktori
E-mail: xurshida_narxojayeva@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor G.Tojiyeva taqrizi asosida

MEANS FOR CULTIVATING STUDENTS' SPEECH CULTURE

Annotation
This article provides an in-depth analysis of important tools and methods for developing students' speech culture. Speech culture includes not only the correct use of language, but also a person's culture in communication, ethics, rules of communication and the ability to adapt to social situations. Speech culture is of great importance in the education system in the formation of students' communicative abilities. The article discusses various methods and techniques aimed at improving students' language and speech culture during the lesson, pedagogical approaches and effective methods of teaching students speech culture. Enriching students' written and oral speech, following vocabulary and grammar norms, as well as forming the skills of correct and effective communication in a socio-cultural context play an important role in the educational process. By developing speech culture, students not only achieve academic success, but also become able to communicate effectively in society in a social and cultural environment.
Key words: Speech culture, students, education, communication, learning process, literature, norms, language skills.

СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

Аннотация
В данной статье подробно анализируются важные средства и методы развития речевой культуры учащихся. Речевая культура – это не только правильное использование языка, но и включает в себя культуру, этику, правила общения и умение адаптироваться к социальной ситуации. Речевая культура имеет большое значение в формировании коммуникативных способностей учащихся в системе образования. В статье рассматриваются различные методы и методы, педагогические подходы и эффективные способы обучения учащихся культурной речи на уроке. В образовательном процессе важное значение имеют обогащение письменной и устной речи учащихся, соблюдение словарного и грамматического нормативов, а также формирование навыков правильного и эффективного общения в социокультурном контексте. Развивая речевую культуру, студенты не только достигают академических успехов, но и приобретают способность эффективно общаться в социальной и культурной среде общества.
Ключевые слова: Культура речи, студенты, образование, общение, учебный процесс, литература, норма, языковые навыки.

O‘QUVCHILAR NUTQ MADANIYATINI O‘STIRISH VOSITALARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada o‘quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirishning muhim vositalari va usullari chuqur tahlil qilinadi. Nutq madaniyati – bu tilni faqat to‘g‘ri ishlatish, balki shaxsning muloqotdagi madaniyati, axloqi, muloqot qoidalari va ijtimoiy vaziyatga moslashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati ta’lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada dars jarayonida o‘quvchilarning til va nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan turli uslublar va metodlar, pedagogik yondashuvlar va o‘quvchilarni nutq madaniyatiga o‘rgatishning samarali usullari muhokama qilinadi. O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini boyitish, lug‘at hamda grammatika me’yorlariga amal qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kontekstda to‘g‘ri va samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Nutq madaniyatini rivojlantirish orqali o‘quvchilar nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, balki jamiyatda ijtimoiy va madaniy muhitda samarali muloqot olib borishga qodir bo‘ladilar.
Kalit so‘zlar: Nutq madaniyati, o‘quvchilar, ta’lim, kommunikatsiya, o‘quv jarayoni, adabiyot, me’yor, til ko‘nikmalari.

Kirish. Nutq madaniyati har bir insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Til va nutqning to‘g‘ri ishlatilishi, muloqotning samarali va madaniyatli bo‘lishi, odamlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek sharq olimlari nutq madaniyati va uning ahamiyati haqida o‘z asarlarida chuqur fikrlar bildirganlar. Ularning fikricha, nutq madaniyati nafaqat tilni to‘g‘ri va lo‘nda ishlatish, balki axloqiy, ma’naviy va estetik jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Maqolada o‘zbek sharq olimlarining nutq madaniyati haqidagi qarashlari tahlil qilinadi, shuningdek, o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar va yondashuvlar muhokama qilinadi. Nutq madaniyati insonning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarida, shuningdek, ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki bu kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Nutq madaniyati – bu insonning tilni to‘g‘ri, ma’naviy va estetik jihatdan boy tarzda ishlatish qobiliyatidir. Bu atama, odamning nutqidagi grammatik to‘g‘rilik, lug‘at boyligi, muloqotda ma’naviy meyorlar va ijtimoiy etikaga rioya qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati shaxsning o‘z fikrini aniq, to‘g‘ri va samarali tarzda ifodalash, boshqalar bilan muloqotda madaniyatli va ehtiyotkor bo‘lish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek sharq olimlari nutq madaniyati haqida turli davrlarda va turli yo‘nalishlarda o‘z fikrlarini bildirganlar. Ularning asarlarida nutq madaniyati shaxsning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishidagi muhim o‘rin, til va nutqning to‘g‘ri ishlatilishi, muloqotdagi axloqiy meyorlar va etikaga katta ahamiyat berilgan. A.Navoiy o‘z asarlarida tilni ifodalashning faqat ilmiy emas, balki axloqiy jihatlari ham muhimligini ta’kidlagan. Uning “Xamsa” asarida, nutqning so‘z san’ati sifatida qanday ishlatilishini, tilning nozikliklari va ifoda erkinligini, ayniqsa, adabiy asarlarda to‘g‘ri va mazmunli nutqni qadrlagan. Navoiyning nutq madaniyati haqidagi fikrlari, tilning go‘zalligini va uning estetik qiymatini tushunishda zamonaviy o‘quvchilarga ham ilhom manbai bo‘ladi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining ilmiy asarlarida til va nutq madaniyatining ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, to‘g‘ri nutq nafaqat muloqotda, balki ilmiy va falsafiy fikrni aniqlik bilan ifodalashda muhimdir. U, shuningdek, tilni aniq va lo‘nda ishlatish, nutqning ilmiy,

madaniy va axloqiy jihatlarini doimo saqlash zarurligini ta’kidlaydi.

Imom Buxoriyning hadislar to‘plamlarida ham nutq madaniyati, muloqotning to‘g‘ri va axloqiy jihatlari haqida ko‘plab misollar keltirilgan. Uning hadislarida, odamlarning bir-biri bilan muloqotda ehtiyotkor, muloyim va sabrli bo‘lishi kerakligi, so‘zlar bilan boshqalarga zarar bermaslik kerakligi ta’kidlangan. Bu uning nutq madaniyatiga bo‘lgan yondashuvini ifodalaydi.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida, xususan, “O‘tkan kunlar” romani orqali, tilni va nutqni to‘g‘ri ishlatishning jamiyatdagi o‘rni haqida gapirgan. U tilni faqat ma’lumot berish vositasi emas, balki insoniyatning jamiyatda o‘zini tutishi, munosabatlar o‘rnatishi uchun zarur vosita sifatida ko‘rgan. Uning nutq madaniyati haqidagi qarashlari jamiyatda odob-axloq va etika meyorlariga amal qilishni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbek sharq olimlari nutq madaniyatini nafaqat tilni to‘g‘ri ishlatish, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga olishni muhim deb bilishgan. Ularning fikrlariga ko‘ra, nutq madaniyati – bu nafaqat so‘zlar, balki insonning ichki dunyosini, fikrlarini va axloqini ifodalash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Nutq madaniyatining qadri esa shaxsiy va jamiyatdagi o‘rni, axloqiy meyorlarga rioya qilish va ma’naviy rivojlanish bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutq madaniyati quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Grammatik va sintaktik to‘g‘rilik: Nutqda grammatika va sintaksis qoidalariga rioya qilish, ya’ni so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirish, vaqtlarni to‘g‘ri ishlatish va gaplarning mantiqiy tuzilishiga e’tibor qaratish.

Lug‘at boyligi: Nutqning boy va to‘g‘ri lug‘at bilan ifodalanishi, bu esa nutqni yanada ma’noli va ta’sirli qiladi.

Stilistik jihatlar: Nutqning estetik jihatdan boy bo‘lishi, ya’ni nutqda xushmuomalalik, madaniy meyorlar va so‘zlarning ta’sirchanligi.

Fonetik va imloviy to‘g‘rilik: So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish, bu nutqning aniqligini va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Muloqotda madaniyat: Nutq madaniyati muloqotda madaniyatli bo‘lishni, boshqalar bilan hurmatli va o‘rganishga tayyor tarzda muloqot qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu, o‘z fikrini aniqlik bilan bildirgan holda, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilishni anglatadi.

Nutq madaniyati o‘quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlari, balki shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun ham muhimdir. Shuningdek, bu jamiyatda ijtimoiy integratsiya, o‘z fikrini ifodalash va boshqalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmadir.

O‘quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish – bu ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat akademik yutuqlariga, balki shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Nutq madaniyati nafaqat tilni to‘g‘ri ishlatish, balki o‘quvchilarning fikrini aniq va mantiqan ifodalash, ijtimoiy muhiti bilan samarali aloqada bo‘lish, muloqotdagi etiket va meyorlarga amal qilishni o‘z ichiga oladi. Maqolada o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishning samarali vositalari tahlil qilinadi va ushbu jarayonda ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarning o‘rni ko‘rsatiladi.

Nutq madaniyati, albatta, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutqning to‘g‘ri va ma’naviy jihatdan boy bo‘lishi o‘quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlarini, balki ular o‘zlarini jamiyatda qanday ko‘rsata olishlarini ham belgilaydi. Nutq madaniyati o‘quvchilarga:

O‘z fikrini aniq ifodalash: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalashni o‘rganadilar, bu esa ularga akademik ishlarni bajarishda va kundalik hayotda samarali muloqotda bo‘lishda yordam beradi.

O‘quvchilarning o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalash ko‘nikmasi, nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Bu qobiliyatni rivojlantirish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri va tushunarli tarzda ifodalash imkonini beradi, bu esa ularning kommunikativ qobiliyatlarini yanada kuchaytiradi. O‘z fikrini aniq va lo‘nda ifodalash o‘quvchilarga turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish, samarali muhokama olib borish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatini yaratadi:

Nutqni aniq ifodalashning ahamiyati shundaki, shaxsning tushunishi osonlashadi. O‘quvchilar fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalashni o‘rganganida, ular o‘z g‘oyalarini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu o‘quvchilarga o‘z fikrlarini so‘zlar yordamida izohli, soddalashtirilgan va to‘g‘ri tushuniladigan holatda taqdim etish imkonini beradi. Aniq ifodalash orqali o‘quvchilar o‘zlarining nutqini samarali qilishadi va boshqalar tomonidan tushunilishini ta’minlaydi;

Muloqotda o‘rnatilgan ishonchni ta’minlaydi. O‘z fikrini aniq va lo‘nda ifodalash o‘quvchilarga o‘zlarini ishonchli va to‘g‘ri ifoda etishga yordam beradi. Ishonchli nutq nafaqat o‘z fikrini ifodalashda, balki boshqalar bilan samarali muloqotda bo‘lishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar, o‘z fikrlarini aniq ifodalagan holda, jamiyatda o‘zlarining o‘rni va roli haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladi;

Muammolarni hal qilishda yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rganganlarida, ular muammolarni samarali hal qilish, qarorlar qabul qilishda va ijtimoiy vaziyatlarda aniq, lo‘nda fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu ularga turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishda mantiqiy va asoslangan yondashuvlarni qo‘llashni o‘rgatadi. Jumladan:

Yozma va og‘zaki nutqni rivojlantiradi. O‘z fikrini aniq ifodalash faqat og‘zaki nutqni emas, balki yozma nutqni ham rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rganish orqali yozma ishlar (esselar, insholar, xatlar)da to‘g‘ri va lo‘nda tarzda fikrlar bildirishga o‘rganadilar. Bu esa ularning yozma nutqida aniq fikrlar va mantiqiy bog‘lanishlar bo‘lishini ta’minlaydi;

Maqsadga yo‘naltirilgan fikr bildirish. O‘z fikrini aniq ifodalash o‘quvchilarga qanday maqsadni ko‘zlayotganliklarini aniqlashga yordam beradi. Aniq va lo‘nda nutq fikrni qanday yondashuv bilan taqdim etish va qanday maqsadga erishish uchun ishlatilishini bilishning samarali usulidir;

Tahlil va natijalar. O‘quvchilar fikrlarini maqsadga yo‘naltirgan holda etkazishda muvaffaqiyat qozonadilar, bu esa ularning muloqotda va yozma ishlarida yanada aniqroq va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lish: O‘z fikrini aniq ifodalash, o‘quvchilarga boshqalar bilan muloqotda bo‘lishda o‘zaro tushunishni ta’minlashga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini muloqot jarayonida aniq va to‘g‘ri ifodalash orqali boshqalarning fikrlarini eshitishga tayyor bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, muhokamalarni samarali olib borish, fikr almashish va jamiyatda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi;

O‘quvchilarga turli mavzularda fikr bildirish va muhokama qilish imkoniyatini yaratish, ularni aniq va lo‘nda fikrlarini ifodalashga o‘rgatadi. Bu usul o‘quvchilarni nafaqat nutq madaniyatini rivojlantirishga, balki turli mavzular bo‘yicha fikr almashishga ham undaydi. Bu boradagi ishlarda yozma ishlarning ahamiyati katta. O‘quvchilarga insholar, esselar, maqolalar yozish topshirilganida, ular o‘z fikrlarini yozma ravishda aniq va mantiqiy tarzda bayon qilishga o‘rganadilar. Bu yozma nutqni rivojlantirish uchun juda foydali metod hisoblanadi.

O‘quvchilarni kun davomida muloqotga jalb qilish, ular o‘z fikrlarini turli shakllarda ifodalash ham nutq madaniyatini shakllanishini o‘rgatadi. Masalan, o‘quvchilarni darsda yoki sinfda qisqacha ma’ruzalar qilish, o‘z fikrlarini qisqa va lo‘nda tarzda ifodalashga undash ham samarali bo‘ladi.

O‘quvchilarga boshqa odamlarning nutqini tahlil qilishni va ularning ifodalaridagi mantiqiy xatolarni aniqlashni o‘rgatish, o‘z nutqlarini aniq, to‘g‘ri qilishda yordam beradi. Shu tarzda, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda ifodalashni o‘rganganlarida, ular nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, balki kundalik hayotda ham samarali va ma’naviy rivojlangan muloqot olib borishga qodir bo‘ladilar. Bu esa, albatta, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lishga va o‘z fikrlarini ishonch bilan bildirishga yordam beradi.

Muloqotda ma’naviy o‘zlikni saqlash: Nutq madaniyati o‘quvchilarga faqat bilim olishni emas, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlar o‘rnatishda ham yordam beradi.

Ijtimoiy integratsiya: O‘quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan kommunikativ ko‘nikmalarni egallaydilar.

O‘quvchilar nutq madaniyatini o‘stirishning vositalari:

Adabiyot o‘qish va tahlil qilish: O‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda adabiyot o‘qish muhim vosita bo‘lib, bu orqali ular tilning go‘zalligini, nutqning to‘g‘riligi va mazmunini yaxshiroq tushunadilar. O‘quvchilarga klassik va zamonaviy adabiyotlarni o‘qitish, ular orqali boy lug‘atga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Tahlil qilish jarayoni esa, nutqni chuqur anglash va uni samarali ishlatishga yordam beradi.

Yozma ishlar va esselar: O‘quvchilarga yozma ishlar yozish (esselar, insholar, xat yozish) orqali tilning grammatik va stilistik jihatlarini o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bu metod o‘quvchilarning nutq madaniyatini faqat og‘zaki emas, balki yozma tarzda ham rivojlantirishga yordam beradi.

Dialoglar va munozaralar: O‘quvchilarga muntazam ravishda dialoglar va munozaralar o‘tkazish, ularni turli mavzular bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilishga undaydi. Bu usul o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi va ular o‘z fikrlarini ishonch bilan ifodalashni o‘rganadilar.

Til meyorlari va etiketi: Nutq madaniyatini shakllantirishda til meyorlari va etiketi haqida o‘quvchilarga ma’lumot berish muhimdir. O‘quvchilarga to‘g‘ri grammatika, imlo, fonetika va stilistika haqida tushunchalar berish, ularni nutq madaniyatining asosiy qoidalariga amal qilishga undaydi.

Tezkor fikr bildirish mashqlari: O‘quvchilarga tezkor fikr bildirish, qisqacha, aniq va lo‘nda ifodalashni o‘rgatish ham samarali vosita hisoblanadi. Bu metod o‘quvchilarning muloqotda tez va aniq javoblar berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Multimedia vositalari: Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga nutq madaniyatini o‘stirishning innovatsion usullari ham mavjud. Masalan, audio va video materiallar, nutqning to‘g‘riligi va ifoda boyligini o‘rganish uchun samarali vositalar hisoblanadi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarga zarur bilimlarni berish bilan birga, o‘quvchilarning nutq madaniyati bo‘yicha qo‘llanma va metodologiyalarni ishlab chiqishlari kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarga nutq madaniyatini o‘rgatish uchun:

Darslarni interaktiv va innovatsion usullarda tashkil qilish,

O‘quvchilarning nutqini tahlil qilish va unga ijobiy fikrlar bildirish,

O‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantiradigan faoliyatlarda ishtirok etishga undash,

Nutq madaniyati sohasida yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqish lozim.

Xulosa. Nutq madaniyatini rivojlantirish o‘quvchilar uchun muhim ko‘nikmalardan biridir va ularning umumiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishning samarali vositalari va usullari ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar va ta’lim tizimi, o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlar yaratishi kerak. Nutq madaniyati – bu nafaqat tilni bilish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishining ham muhim tarkibiy qismidir.

REFERENCES

1. Abdullayeva B.A. O‘zbek tili va nutq madaniyati: darslik. Samarqand: Ilm-fan, 2019.
2. Begmatov E., Qung‘urov R., Tojiev Y., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Sattorov M.C. Nutq madaniyati asoslari// Til va adabiyot ta’limi. №5. 2021.
4. Кудряцев В.Д. Основа орторского исскуства. Изд-3. Иркутск: наука, 2021.
5. Шарипов Б.Ш. О литературном языке // Русский язык в национальных школах. 2022. № 1.
6. Ne’matov Q., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993. - 32 b. 28.
7. Nurmonov A. Nutqiy faoliyat va so‘zlovchi shaxs \\ Rahmatulla Qo‘ng‘urovning ilmiy merosi va o‘zbek tilshunosligi masalalari.– Samarqand, 2008. – B.10-13.
8. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. Toshkent, 2009. - 188 b.
9. Karimov S., Jo’raev T. O’zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati (bibliografik ko’rsatkich). – Samarqand: SamDU nashri, 2001. – 61 b.
10. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dok. diss... -Toshkent, 2008. -B. 244.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 37.091.313:004.9

Akmal NIZAMOV,
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi
E-mail: nizamovakmal0088@gmail.com

GulDU dotsenti, p.f.n D.Toshtemirov taqrizi asosida

THE ROLE OF E-LEARNING IN THE CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL STAFF

Annotation

This article explores the role of e-learning in the continuous professional development of pedagogical staff. The study aims to evaluate the advantages, limitations, and future prospects of e-learning, based on the experience of our country's educators. Using a mixed methodology (literature review, survey, and interviews), data were collected from 100 teachers and 10 experts. The results indicate that while e-learning offers benefits such as flexibility and broad accessibility, challenges include poor internet quality, limited digital literacy, and insufficient interaction. The study found that 78% of teachers utilized online courses, with 85% rating its convenience positively. The discussion provides recommendations for optimizing this process, including enhancing digital literacy and improving infrastructure. The article confirms e-learning as a vital tool for educators and outlines ways to increase its effectiveness. Limitations include the small sample size and inadequate coverage of rural areas. Further extensive research is recommended.

Key words: E-learning, pedagogical staff, continuous professional development, professional training, digital literacy, online courses, educational technologies, teacher preparation.

РОЛЬ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Аннотация

Данная статья исследует роль электронного обучения в непрерывном профессиональном развитии педагогических кадров. Исследование направлено на оценку преимуществ, ограничений и будущих перспектив электронного обучения на основе опыта педагогов нашей страны. Используя смешанную методологию (анализ литературы, опрос и интервью), были собраны данные от 100 учителей и 10 экспертов. Результаты показывают, что электронное обучение предоставляет такие преимущества, как гибкость и широкий охват, однако сталкивается с проблемами, включая низкое качество интернета, ограниченную цифровую грамотность и недостаток взаимодействия. Установлено, что 78% педагогов использовали онлайн-курсы, а 85% положительно оценили их удобство. В обсуждении предложены рекомендации по оптимизации процесса, включая повышение цифровой грамотности и развитие инфраструктуры. Статья подтверждает, что электронное обучение является важным инструментом для педагогов, и указывает пути повышения его эффективности. Ограничения исследования связаны с небольшим размером выборки и недостаточным охватом сельских территорий. Рекомендуется проведение более масштабных исследований в будущем.

Ключевые слова: Электронное обучение, педагогические кадры, непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, цифровая грамотность, онлайн-курсы, образовательные технологии, подготовка педагогов.

ELEKTRON TA’LIMNING PEDAGOG KADRLAR UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada elektron ta’limning pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Tadqiqot elektron ta’limning afzalliklari, cheklovlari va kelajakdagi imkoniyatlarini baholashga qaratilgan bo‘lib, yurtimiz pedagoglarining tajribasiga asoslanadi. Aralash metodologiya (adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma va intervyu) yordamida 100 nafar pedagog va 10 nafar mutaxassis ishtirokida ma’lumotlar yig‘ildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, elektron ta’lim moslashuvchanlik va keng qamrov kabi afzalliklarni taqdim etsa-da, internet sifati, raqamli savodxonlik va o‘zaro muloqotning kamligi kabi muammolar mavjud. Tadqiqotda pedagoglarning 78% onlayn kurslardan foydalangani, 85% esa uning qulayligini ijobiy baholagani aniqlandi. Muhokama qismida ushbu jarayonni optimallashtirish uchun raqamli savodxonlikni oshirish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha takliflar beriladi. Maqola elektron ta’limning pedagoglar uchun muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi va uning samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatadi. Tadqiqotning cheklovlari namunaning kichikligi va qishloq hududlarining yetarlicha qamrab olinmaganligidan iborat. Kelajakda kengroq tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Elektron ta’lim, pedagog kadrlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, raqamli savodxonlik, onlayn kurslar, ta’lim texnologiyalari, pedagogik tayyorgarlik.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon o‘qituvchilarning malakasini oshirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash orqali ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda elektron ta’lim (e-learning) ushbu jarayonning ajralmas qismiga aylandi. Elektron ta’limning keng tarqalishi, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida tezlashdi va u nafaqat o‘quvchilar uchun, balki pedagoglar uchun ham yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu maqolada elektron ta’limning pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o‘rni, uning afzalliklari, cheklovlari va kelajakdagi istiqbollari o‘rganiladi.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi an’anaviy tarzda yuzma-yuz seminarlar, kurslar va konferensiyalar orqali amalga oshirilib kelgan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan ushbu jarayon virtual muhitga ko‘chdi. Elektron ta’lim moslashuvchanlik, keng qamrov va individual yondashuv kabi afzalliklarni taqdim etadi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilma yetishmasligi, pedagoglarning raqamli savodxonligi va o‘zaro muloqotning cheklanganligi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron ta’limning pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta’sirini baholash va ushbu jarayonni optimallashtirish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yurtimizda elektron ta’limning rivojlanishi, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida sezilarli darajada jadallashdi. Mirzayev va Aliyeva (2022) o‘zbek pedagoglarining onlayn kurslarga moslashuvi bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotida 60% dan ortiq o‘qituvchilar virtual muhitda o‘qishni boshlaganini aniqlagan. Bu jarayon mamlakatda elektron

ta’limning potensialini ko‘rsatsa-da, tadqiqotchilar texnologik infratuzilma yetishmasligi va pedagoglarning raqamli ko‘nikmalari pastligini asosiy muammolar sifatida qayd etgan. Ushbu holat elektron ta’limning mahalliy sharoitlarda qo‘llanilishida qo‘shimcha yechimlar talab qilinishini ko‘rsatadi. Elektron ta’limning afzalliklari bilan birga, bir qator cheklovlari ham mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi. Salmon (2011) “E-Moderating” asarida onlayn muhitda pedagoglar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning kamligini va bu holatning o‘quv jarayonining sifatiga salbiy ta’sirini qayd etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot elektron ta’limning pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganish uchun aralash metodologiyadan foydalanadi. Aralash metodologiya miqdoriy va sifatli usullarni birlashtirib, tadqiqot savollariga kengroq va chuqurroq javob berish imkonini beradi. Ushbu yondashuv pedagoglarning onlayn malaka oshirish kurslaridagi tajribasini, ular duch keladigan muammolarni va jarayonni yaxshilash yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Miqdoriy usul: so‘rovnoma. Tadqiqotning miqdoriy qismida yurimizning turli hududlaridan 100 nafar pedagog (o‘rta maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari) ishtirokida onlayn so‘rov o‘tkazildi. So‘rovnoma ushbu “pedagoglarning onlayn malaka oshirish kurslaridan foydalanish darajasini aniqlash, elektron ta’limning afzalliklari va cheklovlarini baholash, pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasini va texnologik qiyinchiliklarini o‘lchash” maqsadlarni ko‘zlab tuzildi.

So‘rovnoma 20 ta yopiq savoldan iborat bo‘lib, 5 ballik Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi. Savollar quyidagi toifalarga bo‘lingan:

yosh, ish tajribasi, o‘qitish sohasi (demografik ma’lumotlar);

foydalanish chastotasi (onlayn kurslardagi ishtirok);

qulaylik va foydalilik darajasi (Elektron ta’limning samaradorligi);

raqamli ko‘nikmalar va infratuzilma bilan bog‘liq qiyinchiliklar (texnik muammolar).

Yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, o‘rtacha qiymatlar, foizli taqsimot va korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblandi.

Sifatli usul: intervyu. Tadqiqotning sifatli qismida malaka oshirish kurslarini tashkil qiluvchi 10 nafar mutaxassis bilan yarim strukturlashtirilgan intervyular o‘tkazildi. Intervyular Zoom platformasi orqali amalga oshirilib, har bir sessiya 30-40 daqiqa davom etdi. Intervyular quyidagi maqsadlarga yo‘naltirildi:

mutaxassislarning elektron ta’limni pedagoglar uchun qo‘llash tajribasini o‘rganish;

onlayn kurslarning mazmuni va tashkil etilishidagi muammolarni aniqlash;

elektron ta’limni yaxshilash bo‘yicha taklif va tavsiyalarni yig‘ish.

Intervyu savollari ochiq turdagi bo‘lib, quyidagi mavzularni qamrab oldi:

onlayn kurslarning pedagoglar uchun moslashuvi;

texnologik infratuzilma va resurslarning yetarliligi.

pedagoglarning raqamli savodxonligiga qo‘yiladigan talablar va ularga ko‘rsatiladigan yordam.

Intervyu ma’lumotlari transkripsiya qilinib, tematik tahlil usuli yordamida guruhlandi. Asosiy mavzular va takrorlanuvchi naqshlar aniqlanib, miqdoriy natijalarni to‘ldiruvchi sifatda ishlatildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish. Tadqiqot 2025 yilning yanvar-mart oylarida o‘tkazildi. So‘rov va intervyu natijalari birgalikda tahlil qilinib, elektron ta’limning pedagoglar uchun samaradorligini baholashda triangulyatsiya usuli qo‘llanildi. Miqdoriy ma’lumotlar SPSS dasturida statistik usullar (descriptive statistics, correlation analysis) yordamida qayta ishlandi. Sifatli ma’lumotlar esa NVivo dasturida kodlash va tematik guruhlash orqali tahlil qilindi.

Tadqiqotning cheklovlari. Tadqiqotda quyidagi cheklovlar mavjud:

100 nafar pedagog va 10 nafar mutaxassisning ishtiroki umumiy populyatsiyani to‘liq aks ettirmasligi mumkin (namuna hajmi);

tadqiqot asosan shahar hududlaridagi pedagoglarni qamrab oldi, qishloq joylardagi o‘qituvchilarning tajribasi yetarlicha o‘rganilmadi (geografik cheklov).

onlayn so‘rov va intervyular faqat internetga ulangan ishtirokchilarni qamrab oldi, bu esa texnologik imkoniyatlari cheklangan pedagoglarning fikrini aks ettirmasligi mumkin (texnologik cheklov).

Etik masalalar. Tadqiqot davomida barcha ishtirokchilarning roziligi olingan va ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlangan. So‘rov va intervyularda anonimlik saqlanib, shaxsiy ma’lumotlar yig‘ilmagan. Tadqiqot natijalari faqat ilmiy maqsadlarda ishlatiladi.

Ushbu metodologiya tadqiqotning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, miqdoriy va sifatli usullarning kombinatsiyasi orqali chuqur tahlil imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasiga umumiy nazar ushbu 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

№	Tadqiqot usuli	Maqsad	Ishlatilgan vositalar	Namuna hajmi
1	Kantitativ: so‘rovnoma	Onlayn kasbiy rivojlanish kurslaridan foydalanish darajasini aniqlash, elektron ta’limning afzalliklari va qiyinchiliklarini baholash, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va texnik qiyinchiliklarini o‘lchash.	Onlayn so‘rovnoma (Google Forms), 5 ballik Likert shkalasi	100 o‘qituvchi
2	Moslashtirish (Matching)	Mutaxassislarning o‘qituvchilar uchun elektron ta’limni joriy etish tajribasini o‘rganish, kurs mazmuni va tashkil etishdagi muammolarni aniqlash, elektron ta’limni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar yig‘ish.	Yarim tuzilgan intervyular (Zoom orqali), tematik tahlil (NVivo)	10 mutaxassis
3	Ketma-ketlik (Ordering)	So‘rovnoma ma’lumotlarini tendensiyalar va korrelyatsiyalar uchun tahlil qilish, intervyu ma’lumotlarini asosiy mavzular bo‘yicha kodlash va guruhlash.	SPSS (kantitativ), NVivo (kvalitativ)	Yo‘q (N/A)

Ushbu jadval tadqiqotda qo‘llanilgan aralash usul yondashuvini aniq va qisqacha umumlashtiradi, kantitativ va kvalitativ komponentlarni, ularning maqsadlari, vositalari va namuna hajmlarini ta’kidlaydi. Uni tadqiqotning metodologiya bo‘limida tezkor ma’lumotnoma sifatida ishlatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot yurtimizda pedagogik xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida (UKR) e-learningning rolini o‘rganish uchun aralash metodlardan foydalangan. Miqdoriy qism 100 nafar o‘qituvchi o‘rtasida so‘rovnoma orqali o‘tkazilgan bo‘lsa, sifatli qism o‘qituvchilar tayyorlash va e-learningni joriy etish bo‘yicha 10 nafar mutaxassis bilan yarim strukturalashgan suhbatlarni o‘z ichiga olgan. So‘rovnoma o‘qituvchilarning onlayn UKR kurslaridan foydalanish darajasini, e-learningning afzalliklari va qiyinchiliklarini baholashni, shuningdek, ularning raqamli savodxonlik darajasini aniqlashni maqsad qilgan. Asosiy natijalar quyidagicha:

Onlayn UKR kurslaridan foydalanish. So‘rovda qatnashgan 100 nafar o‘qituvchidan 78% oxirgi ikki yil ichida kamida bitta onlayn kasbiy rivojlanish kursida ishtirok etganini bildirdi. Eng ko‘p foydalanilgan platformalar: Moodle (45%), Zoom (30%) va mahalliy “Ustoz” platformasi (15%).

E-learningning afzalliklari. 85% respondentlar e-learningning moslashuvchanligini (masalan, o‘z vaqtida va tezlikda o‘qish imkoniyati) muhim afzallik deb baholadi, 70% turli xil resurslarning (video darslar, PDF fayllar) qulayligini va ularga qayta murojaat qilish imkoniyatini ijobiy ta’kidladi. 62% o‘ziga xos ehtiyojlarga moslashtirilgan individual ta’lim imkoniyatini qadrladi.

Qiyinchiliklar va to‘siqlar. 55% o‘qituvchilar internet aloqasining yomonligini e-learningning samaradorligiga asosiy to‘siq deb hisobladi, 40% onlayn platformalarni boshqarishda texnik qiyinchiliklarni, ayniqsa yoshi kattaroq o‘qituvchilar yoki raqamli savodxonligi past bo‘lganlar orasida ko‘rsatdi, 65%

onlayn muhitda tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlikning yo‘qligi o‘qish tajribasiga xalaqit berishini ta’kidladi.

Raqamli savodxonlik va texnik yordam. O‘qituvchilarning o‘zlarini baholashiga ko‘ra, raqamli savodxonlik 5 ballik shkala bo‘yicha o‘rtacha 3.8 ballni tashkil etdi, bu o‘rtacha darajani ko‘rsatadi. Biroq, 30% respondentlar o‘z raqamli ko‘nikmalarini “past” yoki “juda past” deb baholadi, bu qo‘shimcha trening zarurligini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi bilan e-learningning samaradorligi o‘rtasida sezilarli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.62$, $p < 0.01$). Bu raqamli ko‘nikmalari yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar e-learningni yanada foydali deb topishini anglatadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, elektron ta’lim pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda qatnashgan o‘qituvchilarning aksariyati (78%) onlayn kurslardan foydalangan bo‘lsa, ularning 85% ushbu kurslarning qulayligini ijobiy baholagan. Bu esa elektron ta’lim pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, elektron ta’lim jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagoglarning 55% internet sifati yetarlicha yuqori emasligini ta’kidlagan bo‘lsa, 40% esa onlayn platformalarni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelganini bildirgan. Bu holat elektron ta’lim samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani yaxshilash va raqamli savodxonlikni oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

raqamli savodxonlikni oshirish – pedagoglar uchun maxsus trening va seminarlarni tashkil qilish;

onlayn kurslarni interaktiv qilish – hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish;

texnologik infratuzilmani yaxshilash – internet sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish;

elektron ta’lim samaradorligini baholash – doimiy monitoring va tahlil qilish tizimlarini yaratish.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot elektron ta’lim pedagoglar uchun muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, uning samaradorligini oshirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish va pedagoglarning texnologik tayyorgarligini oshirish zaruriyatini ham ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. E-learning yurtimizda pedagogik xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida muhim vosita bo‘lib, moslashuvchanlik va resurslarga kirish imkoniyatlari kabi afzalliklarni taqdim etadi. Biroq, uning samaradorligini oshirish uchun texnik muammolar, infratuzilma cheklovlari va kurs dizayni bilan bog‘liq masalalarni hal qilish kerak. Raqamli savodxonlikni yuksaltirish, interaktiv kurslar ishlab chiqish va infratuzilmaga investitsiya kiritish orqali e-learning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Takliflar:

Raqamli savodxonlikni oshirish: o‘qituvchilar uchun raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha majburiy treninglar tashkil qilish, ayniqsa, yoshi katta va raqamli savodxonligi past o‘qituvchilarga e’tibor qaratish, onlayn platformalardan foydalanishni o‘rgatuvchi qisqa muddatli seminarlar va vebinarlar o‘tkazish.

Interaktiv va hamkorlikka asoslangan kurslar: E-learning kurslariga virtual guruh loyihalari, munozara forumlari va real vaqtda muloqot elementlarini qo‘shish orqali hamkorlikni kuchaytirish, kurs mazmunini o‘qituvchilarning fan sohasi va tajribasiga moslashtirib, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘llarini joriy etish.

Infratuzilmaga sarmoya kiritish: hukumat va ta’lim muassasalari qishloq hududlarda internet aloqasini yaxshilash va zamonaviy qurilmalar bilan ta’minlash uchun moliyaviy yordam ko‘rsatishi, o‘qituvchilarga onlayn kurslar davomida yordam beruvchi texnik yordam markazlarini tashkil qilish.

Monitoring va baholash: E-learning kurslarining samaradorligini baholash va o‘qituvchilar fikr-mulohazalarini yig‘ish uchun tizimli yondashuv joriy etish kurs mazmuni va metodologiyasini o‘qituvchilar ehtiyojlari va texnologik yangiliklarga mos ravishda doimiy yangilab borish.

ADABIYOTLAR

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 80-97.
2. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age. Vancouver: Tony Bates Associates.
3. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). E-Learning in the 21st Century. London: Routledge.
4. Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. New York: Routledge.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). “Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.” Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
6. Mirzayev S., & Aliyeva N. (2022). “O‘zbekistonda elektron ta’limning joriy etilishi.” Ta’lim jurnali, 15(2), 45-52.
7. OECD (2020). “Education at a Glance 2020.” Paris: OECD Publishing.
8. Qodirov A. (2023). “O‘zbekiston pedagoglari uchun raqamli ta’lim muammolari.” Ilmiy xabarlar, 10(1), 33-39.
9. Salmon, G. (2011). E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. London: Routledge.
10. UNESCO (2021). “Digital Skills for Teachers in Developing Countries.” Paris: UNESCO.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:372.8

Abduvoxid NISHONOV,
Farg‘ona davlat univeristeti tadqiqotchisi
E-mail: farxod@mail.ru

DSc, dotsent V.Jurayev taqrizi asosida

MAFKURAVIY IMMUNITETNING FALSAFIY, PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsda mustahkam e’tiqodlar va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga asoslangan falsafiy poydevor bo‘lmasa, mafkuraviy ta’sirlar oldida barqaror turish mushkul. Psixologik barqarorlik va stressga bardosh berish imkoniyati esa mafkuraviy immunitetni mustahkamlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik jarayonlarda esa ijodiy izlanish va tanqidiy fikrlash metodlarini qo‘llash orqali shaxsda sog‘lom dunyoqarash shakllantirish mumkin. Shunday qilib, falsafiy qarashlar, psixologik barqarorlik va pedagogik metodlarning uyg‘unlashuvi mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning eng muhim shartlari ekanligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: Mafkuraviy immunitet, falsafiy poydevor, psixologik barqarorlik, pedagogik metod, tanqidiy fikrlash, ijodiy izlanish, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar.

ФИЛОСОФСКИЕ, ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА

Аннотация

Результаты показывают, что без прочного философского фундамента, основанного на устойчивых убеждениях и критическом мышлении, личности сложно противостоять внешним идеологическим воздействиям. Психологическая стабильность и умение справляться со стрессом служат важным фактором укрепления идеологического иммунитета. В педагогическом процессе развитие творческого поиска и применение методов критического мышления способствуют формированию здорового мировоззрения у личности. Таким образом, в исследовании доказывается, что гармоничное сочетание философских взглядов, психологической устойчивости и педагогических подходов является важнейшим условием развития идеологического иммунитета.

Ключевые слова: Идеологический иммунитет, философский фундамент, психологическая устойчивость, педагогические методы, критическое мышление, творческий поиск, глобализация, духовные ценности.

PHILOSOPHICAL, PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IDEOLOGICAL IMMUNITY

Annotation

The findings indicate that without a firm philosophical foundation based on solid beliefs and critical thinking, it is difficult for individuals to withstand external ideological influences. Psychological stability and the ability to cope with stress serve as vital factors in strengthening ideological immunity. In the educational process, fostering creative inquiry and applying critical thinking methods help shape a healthy worldview. Thus, this study demonstrates that the harmonious integration of philosophical perspectives, psychological resilience, and pedagogical approaches is crucial for the development of ideological immunity.

Key words: Ideological immunity, philosophical foundation, psychological resilience, pedagogical methods, critical thinking, creative inquiry, globalization, spiritual values.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mafkuraviy immunitet tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mafkuraviy immunitet, eng avvalo, shaxsning tashqi ta’sirchan g‘oyalar yoki mafkuralar oldida mustahkam qarashlar, tizimli fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga asoslangan murakkab hodisadir. Bugungi globallashuv davrida turli g‘oyaviy oqimlar keskin ravishda aralashib, inson ma’naviy dunyosini boyitishi yoki, aksincha, muayyan ziddiyatlar va inqirozlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday sharoitda mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan shaxs jamiyatda mustahkam e’tiqod va axloqiy mezonlarga suyanadi, o‘z qarashlarini konstruktiv muloqot orqali himoya qila oladi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi.

Mafkuraviy immunitetning shakllanishida falsafiy, psixologik hamda pedagogik omillar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Falsafiy jihat, avvalo, shaxsning borliq va bilimga bo‘lgan umume’tirof etilgan qarashlarni chuqur anglashini nazarda tutadi. Insonning dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati va ma’naviy tamoyillari falsafaning yordami bilan shakllanib, mustahkamlanadi. Psixologik omil esa shaxsning ijtimoiy hayotda barqaror psixik muvozanat va hissiy bardoshlilikka ega bo‘lishi, yangicha fikrlar yoki tazyiqlarga qarshi o‘z “ichki men”ini himoya qila bilishida namoyon bo‘ladi. Pedagogik omil, o‘z navbatida, ta’lim jarayonida ilmiy-nazariy bilimlar, axloqiy g‘oyalar hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali mafkuraviy immunitet poydevorini mustahkamlashni ta’minlaydi.

Mafkuraviy immunitet, bir tomondan, shaxsni turli tahdidlar yoki yanglish g‘oyalar ta’siridan saqlaydi, ikkinchi tomondan, bu shaxsning vijdon erkinligi va shaxsiy intilishlarini rag‘batlantiradi. Shunday qilib, mafkuraviy immunitet masalasining nazariy jihatlari falsafa fanida g‘oya va ong o‘rtasidagi munosabatni, psixologiya sohasida shaxs barqarorligini, pedagogika sohasida esa sog‘lom fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi bir butun tizim sifatida namoyon bo‘lib, shaxsning mafkuraviy immuniteti ijodiy tafakkur hamda tanqidiy qarashlar negizida rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi mafkuraviy immunitetning falsafiy, psixologik va pedagogik asoslarini tadqiq etish, uning shakllanish va rivojlanish omillarini aniqlash hamda ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ilmiy tarzda asoslab berishdan iborat. Buning uchun biz zamonaviy ta’lim jarayonlarida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini o‘rganamiz, shuningdek, shaxsning ichki psixologik barqarorligi, mustahkam e’tiqodlar tizimi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga tayanilgan holda bunga erishish yo‘llarini tahlil qilamiz.

Metodologiya. Ushbu maqolani yozish uchun, avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, tadqiqot maqolalari va dissertatsiyalar tahlil qilindi. Bu tahlil mafkuraviy immunitet

tushunchasining turli fanlar doirasida qanday tushunilishi, qay tarzda o‘rganilishi va uning asosiy konseptual xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga xizmat qildi. Tahlil qilinayotgan manbalar asosan falsafa, psixologiya va pedagogika sohalariga oid bo‘lib, ularning o‘zaro integratsiyasini ko‘rsatishga imkon yaratdi.

Ilmiy adabiyotlarga tayangan holda, tadqiqotda kuzatuv, suhbat va mazmun tahlili (content analysis) kabi usullardan foydalanildi. Kuzatuv usuli orqali pedagogik jarayonlarda, xususan, oliy o‘quv yurtlarida talabalarning turli mafkuraviy g‘oyalarni qabul qilish yoki ularga tanqidiy yondashish darajasi baholandi. Suhbat usuli orqali esa professor-o‘qituvchilar, talabalar va mustaqil tadqiqotchilar bilan muloqot qilinib, ularning mafkuraviy tahdidlarga nisbatan reaksiyasi, shuningdek, mafkuraviy immunitetga oid qarashlari o‘rganildi. Mazmun tahlili esa ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va turli metodik qo‘llanmalardagi mafkuraviy ohangni o‘rganish, tahlil qilish va umumiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot ishi strukturasida dastlab olingan ma’lumotlar (masalan, suhbat natijalari, pedagogik jarayondagi kuzatishlardan kelib chiqqan xulosalar, ilmiy adabiyotlar sharhi) dastlabki manba sifatida tasniflandi. Keyin esa ular o‘rtasida o‘xshashliklar, farqlar va o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash uchun tematik tahlil o‘tkazildi. Ushbu tematik tahlil davomida biz shaxsning mafkuraviy immunitetini mustahkamlovchi asosiy omillar (falsafiy qarashlar, psixologik bardoshlilik, pedagogik jarayonlar) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlashga e’tibor qaratdik. Natijada, mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha turli yondashuvlar hamda ularning samaradorlik darajasi o‘rganilib, umumiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mafkuraviy immunitetning falsafiy asosi eng avvalo shaxsning ma’naviy-ahloqiy tamoyillari barqarorligida namoyon bo‘ladi. Filologik, ijtimoiy-siyosiy va pedagogik adabiyotlarni chuqur o‘rganish orqali shunday xulosa qilish mumkinki, mafkuraviy immunitetdagi falsafiy omil shaxsning hayotiy maqsadlari, qadriyatlar tizimi hamda ijodiy fikrlash darajasini belgilab beradi. Shaxsda mavjud dunyoqarash va o‘zlikni anglash jarayoni mafkuraviy ta’sirlar bilan to‘qnashganda, agar falsafiy poydevor mustahkam bo‘lsa, inson yanglish oqimlarga qo‘shilmaydi, balki mustaqil, tanqidiy yondashuv bilan o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, mafkuraviy immunitet insonning psixik barqarorligi, stressga bardosh berish qobiliyati va tanqidiy fikrlash layoqatiga tayanadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yoshi kattaroq talabalarda (magistratura bosqichi yoki undan yuqori) turli mafkuraviy g‘oyalarni saralab qabul qilish, ularni sharhlash va baholash ko‘nikmalari balandroq bo‘ladi. Bu shaxsning hayotiy tajribasi va oldingi ta’lim jarayonida shakllangan mustahkam e’tiqodlar tizimiga bog‘liq. Yoshroq talabalarda esa ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy, mafkuraviy yoki diniy propagandalarga nisbatan taqlidiy munosabatlar kuchliroq kuzatiladi. Bunday holatlarda psixologik muhofaza mexanizmlarini shakllantirish, o‘zini anglashni kuchaytirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Pedagogik nuqtayi nazardan olib qaralganda, ilmiy metodlardan foydalanish, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlash va muammoli metodlar bilan ishlash mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda muhim vositalar ekani aniqlandi. An’anaviy ma’ruza-va-eshitish shaklidan interaktiv usullarga o‘tish, talabalarni munozara va bahs-munozaralarga jalb qilish, ularga mustaqil tadqiqot vazifalarini berish orqali shaxsiy dunyoqarash poydevorini mustahkamlash osonlashadi. Pedagogik jarayonlarda turli mafkuraviy mavzularni muhokama qilish va ularni tahlil qilish talabalar ongida ijtimoiy hodisalarga nisbatan xolisona, tanqidiy munosabatni shakllantiradi.

Muhokama. Mafkuraviy immunitet tizimining shakllanishi bir-biriga bog‘liq uchta asosiy omil – falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlarga tayanishi, ushbu omillarning uyg‘unlashgan holda ishlashi zarurligini ko‘rsatadi. Shaxsda mustahkam e’tiqodlar va qadriyatlarga asoslangan falsafiy qarash bo‘lmasa, psixologik jihatdan barqarorlikni ta’minlash qiyinlashadi. Zero, nima uchundir kurashish yoki biror-bir tahdidga qarshi chiqish, avvalo, shaxsning o‘zligiga, hayotiy maqsadlariga, qadriyatlariga bog‘liq. Bunga qo‘shimcha ravishda, psixologik jihatdan zaif shaxs turli propaganda yoki manipulyatsion g‘oyalarga osonlik bilan ergashadi, chunki unda mustahkam ruhiy tayanch va tanqidiy fikrlash mexanizmlari rivoj topmagan bo‘ladi.

Shunday ekan, mafkuraviy immunitetning pedagogik omili bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Ta’lim jarayonlarida faqatgina ilmiy bilimlar berish emas, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jarayonlarni chuqurroq yo‘lga qo‘yish lozim. Tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayoniga tanqidiy fikrlash, ijodiy izlanish va mustaqil qaror qabul qilish elementlarini kiritish orqali talabalarga mafkuraviy tahdidlar oldida himoya mexanizmlarini shakllantirish mumkin. O‘qituvchi shu ma’noda nafaqat axborot uzatuvchi, balki murabbiy, motivator va “g‘oya sharhlovchi” rolini bajaradi. Uning vazifasi shaxsni fikrlar xilma-xilligidan cho‘chimaydigan darajada mustahkam ma’naviy poydevor bilan qurollantirishdir.

Mazkur jarayonda oilaning ham xissasi muhim. Oilaviy tarbiya, qadriyatlar va an’analar shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning asosiy bosqichlari hisoblanadi. Aynan oilada bolaga mustahkam e’tiqodlar, an’anaviy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy meyorlar singdiriladi. Keyinchalik maktab va oliy ta’lim jarayonlari bu tamoyillarni ilmiy-nazariy bilimlar va zamonaviy dunyoqarash bilan boyitadi. Shuning uchun ham, agar oila tarbiyasi ijtimoiy-madaniy talablarga mos ravishda yo‘naltirilmasa, keyinchalik ta’lim jarayonida farzandda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash ancha qiyin bo‘ladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot mafkuraviy immunitetni falsafiy, psixologik va pedagogik omillarning uyg‘unlashuvi natijasi ekani, bu jarayonning uzluksiz va kompleks xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Falsafiy omil shaxsning dunyoqarashi va ma’naviy tamoyillarini belgilovchi negiz bo‘lsa, psixologik omil ushbu negizni mustahkamlovchi barqarorlik, hissiy muvozanat va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Pedagogik omil esa jamiyatda ushbu dastlabki ikkita tayanchni rivojlantirish va shu orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitet mavzusi yanada dolzarblashgani bejiz emas. Omma ongiga turli manbalardan kirib kelayotgan axborotning hajmi va tezligi ortib borar ekan, shaxsning mustahkam aqidalariga asoslangan tanqidiy fikrlash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish – bu shunchaki himoya vositasi emas, balki insonning ijtimoiy hayotda faol, ongli, demokratik qarashlar bilan qurollangan hamda turli mafkuraviy xurujlarga nisbatan o‘z mustaqil pozitsiyasini saqlab qolish layoqatidir.

Mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar orasida ta’lim dasturlarida falsafiy fanlar, psixologik treninglar va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ulushini oshirish g‘oyat muhim. Ta’lim muassasalari mazkur fanlar va mashg‘ulotlar orqali yoshlarni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, ma’naviy barqarorlik va boshqa mafkuraviy oqimlarni tahlil qilishga tayyorlashi zarur. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning o‘zlari ham zamonaviy metodlar va o‘qitish strategiyalaridan xabardor bo‘lishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta olishi lozim. Chunki mafkuraviy immunitetning poydevori o‘qituvchi va talaba, murabbiy va shogird o‘rtasidagi samarali o‘zaro hamkorlik jarayonida barpo etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy immunitetning falsafiy, psixologik va pedagogik asoslarini izchil, ilmiy-nazariy yondashuv orqali o‘rganish bugungi kunda juda muhim. Shaxsda falsafiy qarashlarning kuchli poydevori, psixologik bardoshlilik va mustahkam psixik barqarorlik, shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlar orqali rivojlanadigan tanqidiy fikrlash va ijodiy izlanish ko‘nikmalari shakllangandagina, mafkuraviy immunitet mazmunli va samarali bo‘ladi. Bunday immunitetga ega shaxs jamiyatning faol a’zosi bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarga xolisona yondashadi, har qanday propagandaga berilmaydi va tanqidiy mulohaza yuritish orqali o‘z muqobil yo‘lini aniqlay oladi. Shu sababli ham, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish nafaqat shaxsiy rivojlanishning bir qismi, balki butun jamiyat

barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Subhanberdiyeva, M. M. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda falsafiy yondashuvlar / M. M. Subhanberdiyeva. – Toshkent : Fan, 2018. – 220 b.
2. Rasulova, D. R. Mafkuraviy jarayonlarda shaxsning psixologik himoyasi / D. R. Rasulova. – Toshkent : O‘qituvchi, 2019. – 150 b.
3. Safarov, B. B. Globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitet va uning falsafiy tamoyillari / B. B. Safarov. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2020. – 192 b.
4. Shchyrbul, Oleksandr, et al. "Conceptual approaches to training specialists using multimedia technologies." International Journal of Computer Science & Network Security 22.9 (2022): 123-130.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

УДК: 81-13

Минара НИЯЗОВА,
Профессор Ташкентский архитектурно-строительный университет
E-mail: m.niyazova@umail.uz

По отзыв И.Кахарова DSc УзГУМЯ

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Аннотация

Хотя изучение второго языка буквально означает изучение языка после того, как был освоен первый язык Люди не испытывают особых трудностей в освоении более чем одного языка. Напротив, распространенному мнению, французский язык является одним из самых легких и полезных языков для носителя английского языка. Основная цель этой статьи — обсудить некоторые очевидные трудности, с которыми сталкивается носитель английского и русского языка при изучении французского, а также подчеркнуть важность французского языка как средства коммуникации и предложить возможные решения проблем, возникающих при изучении французского языка как второго, особенно носителями английского и русского языка.

Ключевые слова: Английский говорящий, носитель языка, второй язык, спряжение глаголов.

FRANSUZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ikkinchi tilni o‘rganish, aslida, birinchi tilni o‘rganganidan keyin tilni o‘rganishni anglatadi, ammo odamlar bir nechta tilni o‘rganishda hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydilar. Aksincha, keng tarqalgan fikrga ko‘ra, fransuz tili ingliz tilini ona tili sifatida biluvchilar uchun eng oson va foydali tillardan biridir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz tili va rus tili ona tili bo‘lgan kishilar fransuz tilini o‘rganishda duch keladigan ba’zi aniq qiyinchiliklarni muhokama qilish, fransuz tilining aloqa vositasi sifatidagi ahamiyatini ta’kidlash va ayniqsa ingliz va rus tilida so‘zlashuvchi ona tili egalariga fransuz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun mumkin bo‘lgan yechimlarni taklif qilishdir.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili egasi, ona tili egasi, ikkinchi til, fe’lning tuslash shakllari.

THE PROBLEMS OF TEACHING FRENCH AS A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

Although learning a second language literally means learning a language after the first language has been mastered, people do not experience any particular difficulty in mastering more than one language. On the contrary, according to popular belief, French is one of the easiest and most useful languages for a native English speaker. The main purpose of this article is to discuss some of the obvious difficulties that a native English speaker and a native Russian speaker face when learning French, as well as to highlight the importance of French as a means of communication and to suggest possible solutions to the problems encountered when learning French as a second language, especially by native English and Russian speakers.

Key words: English speaker, native speaker, second language, verb conjugation.

Введение. Изучение языка и умение понимать его — это один из самых сложных видов обучения, однако считается, что у человека есть способность говорить и понимать более одного языка (Сапир, 1980). Существует широко распространенное мнение, что французский язык сложнее учить по сравнению с другими европейскими языками. Французский язык является одним из самых распространенных романских языков, используемых большинством стран как язык преподавания. Это восприятие отпугивает некоторых людей, стремящихся выучить французский язык.

Обзор литературы. Для носителей русского языка изучение французского языка может представлять как трудности, так и преимущества. Хотя французский и русский языки принадлежат к разным языковым семьям — романской и славянской, — у них есть некоторые общие аспекты, которые могут облегчить процесс обучения. Одна из главных проблем возникает из-за различий в фонетике: французское произношение заметно сложнее из-за носовых гласных и немых букв. Кроме того, французский язык имеет относительно простую грамматическую структуру по сравнению с русским, который отличается сильно флективной системой с шестью падежами. С другой стороны, носители русского языка могут посчитать французский словарный запас относительно доступным из-за заимствований из латинского и греческого языков, а также широкого использования международных терминов в современном французском языке. Более того, носители русского языка, привыкшие к кириллице, поначалу могут испытывать трудности с латинским алфавитом, но это препятствие можно преодолеть относительно быстро. В целом, несмотря на значительные языковые различия между русским и французским языками, процесс изучения языка достижим при целенаправленных усилиях, особенно для тех, кто уже имеет опыт работы с другими европейскими языками.

Другим аспектом, который может повлиять на простоту или сложность изучения французского языка для русскоговорящих, является синтаксическая структура. Хотя в обоих языках обычно используется порядок слов подлежащее-глагол-объект (SVO), французский синтаксис, как правило, более жесткий по сравнению с русским, что обеспечивает большую гибкость благодаря своей системе падежей. Эта гибкость в русском языке может облегчить учащимся привыкание к изменениям порядка слов во французском языке, хотя последовательность, требуемая при построении французских предложений, может представлять первоначальную проблему. Кроме того, спряжение французских глаголов относительно сложное, с многочисленными временами и наклонениями, что может быть трудным для русскоговорящих, поскольку русские глаголы спрягаются по-другому, но не имеют такого количества времен, как французские. Однако постоянное использование вспомогательных глаголов и правильных моделей спряжения во французском языке может помочь учащимся постепенно освоить эти структуры. Несмотря на эти различия, мотивация, знакомство с языком и регулярная

практика могут значительно облегчить усвоение французского языка для русскоговорящих.

Культурные и экологические факторы также играют решающую роль в процессе изучения языка для русскоязычных. Французский язык широко преподается как второй язык по всей России, и для облегчения обучения доступны многие ресурсы, такие как учебники, онлайн-курсы и платформы языкового обмена. Наличие французских СМИ, включая фильмы, музыку, литературу и новости, предоставляет русскоязычным широкие возможности для погружения. Такое воздействие может помочь учащимся познакомиться с языком в естественном контексте, что имеет решающее значение для развития как понимания, так и навыков говорения. Кроме того, многие русскоязычные могут иметь доступ к сообществам по изучению языка, как очно, так и онлайн, что может способствовать вовлеченности и практике. Однако относительное расстояние между русскоязычными и франкоязычными странами может ограничивать возможности прямого взаимодействия с носителями языка, что может замедлить развитие беглости разговорной речи. Подводя итог, можно сказать, что в то время как определенные лингвистические и экологические факторы могут сделать изучение французского языка умеренно сложным занятием для русскоязычных, наличие ресурсов и возможностей для практики может значительно облегчить этот процесс.

Вот несколько примеров фраз и предложений на французском языке, которые могут помочь проиллюстрировать основные проблемы и сходства для носителей русского языка, изучающих язык: Базовые проблемы с лексикой и произношением: Французский: Bonjour, comment ça va ? (Привет, как дела?)

Русскоязычные люди могут поначалу испытывать трудности с французскими гласными звуками, такими как носовые гласные в "ça" (произносится как "са").

Гендерные существительные:

Французский: Le livre est intéressant (Книга интересная) – le мужского рода.

Русский: В русском языке также есть гендерные существительные, но особые грамматические правила для рода и использования артиклей во французском языке могут стать дополнительным уровнем сложности.

Спряжение глаголов:

Французский: Je mange (я ем) / Il mange (он ест)

Русскоязычные привыкли спрягать глаголы, но им может быть сложно запомнить различные времена и наклонения во французском языке, например, сослагательное наклонение, у которого нет прямого эквивалента в русском языке. Порядок слов и гибкость:

Французский: Elle parle français (она говорит по-французски).

Русский: русский язык допускает большую гибкость порядка слов, поэтому строгая структура SVO во французском языке может потребовать корректировки для русскоязычных. Ложные друзья:

Французский: Actuellement (в настоящее время)

Русский: Актуально (соответствующий или уместный)

Хотя слова могут выглядеть похожими, их значения различаются, что может привести к путанице для учащихся. В этих примерах подчеркиваются лингвистические особенности, которые как мешают, так и помогают носителям русского языка изучать французский язык. Со временем, практикуясь, можно освоить нюансы произношения, грамматики и словарного запаса. Хотя изучение второго языка сопряжено с определенными трудностями, которые не являются непреодолимыми, если на раннем этапе предпринимаются соответствующие меры для их решения. Для носителя английского языка существуют факторы, которые определяют способность человека учить язык и скорость его обучения. Изучение французского языка обогащает словарный запас англоязычного студента неисчислимыми способами и в различных областях. Эта статья направлена на обсуждение трудностей, с которыми сталкиваются носители английского языка при изучении французского, а также подчеркивание важности французского языка.

Результаты и дискуссия. Компоненты языка. Говорящий человеческий язык состоит из звуков, которые сами по себе не имеют значения, но могут быть объединены с другими звуками, чтобы создать сущности, имеющие значение. Таким образом, буквы p, e и n сами по себе не имеют смысла, но их комбинация "pen" имеет значение (Комри, 2009). Кроме того, язык характеризуется сложным синтаксисом, при котором элементы, обычно слова, объединяются в более сложные конструкции, называемые фразами, и эти конструкции играют важную роль в структуре предложения. Общей характеристикой языка является то, что слова не объединяются напрямую в предложения, а сначала собираются в промежуточные единицы, называемые фразами, из которых затем формируются предложения.

Приобретение второго языка. Приобретение языка — это процесс, с помощью которого дети и взрослые учат язык или языки (Комри, 2009). Люди успешнее учат второй язык, когда они погружаются в культуру тех сообществ, которые говорят на этом языке. Также люди успешнее учат второй язык в культурах, где изучение второго языка ожидается, как в большинстве африканских стран, чем в культурах, где владение вторым языком считается необычным, как в большинстве англоязычных стран. Стоит отметить, что для изучения второго языка людям нужно приложить больше усилий, и часто они достигают более низкого уровня компетенции в этом языке по сравнению с первым. Теории приобретения второго языка утверждают, что языковой ввод оказывает постоянный положительный эффект на улучшение уровня владения. Эти теории предполагают, что ввод должен быть понятен учащемуся и модифицирован через взаимодействия. В изучении словарного запаса гипотеза ввода вдохновила исследования случайного усвоения словарного запаса через чтение и слушание, а также анализ речи преподавателя как устного ввода.

Изучение французского как второго языка. Несомненно, в Нигерии учителей французского языка трудно найти, в отличие от других областей обучения. По словам Олюранти (2012), большинство доступных учителей не обучены преподавать французский язык. Поскольку учителя играют важнейшую роль в реализации любой учебной программы, их подготовка должна считаться основополагающим элементом в любой значимой стратегии образовательной реализации. Именно учитель интерпретирует цели и содержание учебных планов и управляет процессом обучения; поэтому их качество, количество, готовность, самоорганизация, интерес, приверженность и методология являются крайне важными для успеха программы.

Почему же все еще сохраняется мнение, что французский язык труден для изучения? Почему, в частности, он считается более трудным для изучения, чем испанский? Лингвистический ответ заключается в том, что для носителей английского языка французский не сложнее для освоения, чем испанский. Неверное восприятие трудности французского языка, вероятно, происходит из двух источников. Во-первых, французский исторически считался языком высокой европейской культуры, и эта ассоциация приводит к ошибочному предположению, что язык этой культуры должен быть более сложным и трудным, чем другие европейские языки. Во-вторых, как и в английском языке, система правописания французского языка может потребовать некоторого времени для освоения.

Важность французского языка. Во Нигерии французский язык является иностранным. Поскольку Нигерия окружена франкоговорящими странами (Чад, Республика Бенин, Нигер и «билингвальная» Камерун), значение французского языка для Нигерии в социальном, политическом, экономическом и международном контексте невозможно переоценить. Использование языка способствует общению, способствует пониманию между носителем языка

и его получателем, а также позволяет предпринять полезные, соответствующие и эффективные действия (Муди, 1970).

Изучение французского языка значительно обогащает словарный запас англоязычного студента в различных областях, которые являются неотъемлемой частью повседневной жизни. Юридическая и административная лексика английского языка насыщена французскими словами: people, govern, chancellor, country, conference, council, judge, jury, suit, verdict, contract, guarantee, crime, treason, felony, ward, regal, royal, majesty — все они происходят от французского. В области архитектуры также встречается множество французских терминов: mason, carpenter, scaffold, choir, chapel, belfry, даже gargoyle. Термины для домашних предметов пришли напрямую из французского: table, chair, cushion, chimney, laundry, garden, arbor, а особенно на кухне: dinner, supper, dessert, flavor, sausage, pastry, tart, pork, mince, purée, sauté, butter, mushroom, veal, beef, bacon, mutton и другие.

Очень большая часть слов в английском и французском языках имеет общий и легко идентифицируемый источник. Самый богатый источник академической (ученой) лексики в английском языке на самом деле происходит не напрямую от латинского языка, а через французский. Например, латинское fragilis вошло в английский через французский, сначала как frail (от французского frêle), а затем позже, как fragile, слово, которое современные языки теперь используют как когнат. Даже те слова, которые могли попасть в английский из латинского языка более прямым путем, такие как ascend, также встречаются в той или иной форме и во французском: ascenseur. Таким образом, классические корни латинского языка могут быть усвоены англоговорящим студентом через французский, живой язык!

Недавние заимствования в английском языке включают au jus, soupçon, je ne sais quoi, frisson, в то время как англицизмы в разговорном французском продолжают множиться без остановки: email, babysitter, parking, pompom girl, а также из области текстовых сообщений (например, lol = Laughing Out Loud, произносится как "лол" во французском).

Заключение. В этой статье обсуждаются концепция освоения второго языка и изучение французского языка как второго языка. Также подробно рассматриваются различные трудности, с которыми носители английского языка могут столкнуться при изучении французского как второго языка. Несмотря на эти трудности, носитель английского языка имеет множество преимуществ при изучении французского, помимо социальных, образовательных, профессиональных и даже когнитивных преимуществ, которые предоставляются студенту, владеющему двумя языками.

ЛИТЕРАТУРА

1. Barbara E. (2010): The Ease and Challenges for an English Speaker Learning French. University of Texas, Printing Press.
2. Comrie, Bernard. (2009): The World's Major Languages. Oxford University Press.
3. "Language." Microsoft Encarta 2009 [DVD]. Redmond, WA: Microsoft Corporation, 2008.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:18:321(575:1)

Maxsuda NORMAMATOVA,
Zarmed universiteti dosenti, DSc
E-mail:m.normamatova@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

IJTIMOIY XIZMATLARNI RAQAMLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola virtuallik tushunchasini ma’nosi yoritilgan. Axborotlashgan jamiyatda virtual obrazlar va virtual reallik ta’siri to‘g‘risida ilmiy ma’lumot berilgan. Virtuallik tushunchasining tarixiy taraqqiyoti yoritib berilgan. Ijtimoiy hayotni bugungi ko‘rinishlari ya’ni virtuallashgan jamiyat, virtual realliklar, virtual obrazlar ularning bugungi kun ijtimoiy jarayonlarga ta’siri masalasi keng bayon etilgan. Bugungi kun yoshlari virtual realliklar bilan to‘qnash kelganda uchraydigan to‘siqlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Virtuallik, bilish, epistemologiya, virtual reallik, virtual obraz, axborot.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ

Аннотация

В этой статье рассматривается значение понятия благородства. В информированном обществе предоставляется научная информация о виртуальных образах и воздействии виртуальной реальности. Был освещен исторический прогресс концепции власти. Широко освещается вопрос о влиянии социальной жизни на современные институты, то есть развитое общество, виртуальные реальности, виртуальные образы на социальные процессы сегодняшнего дня. Сегодняшняя молодежь коснулась препятствий, которые приходят на ум, когда речь заходит о столкновении с виртуальными реальностями.
Ключивые слова: Виртуалистика, эпистемология, виртуальное реальност, виртуальной образ, информация.

ACTUAL ISSUES OF DIGITIZATION OF SOCIAL SERVICES

Annotation

This article covers the meaning of the concept of nobility. In an informed society, scientific information is given about virtual images and the impact of virtual reality. Historical progress of the concept of power has been highlighted. The issue of the impact of social life on today's institutions, that is, the developed society, virtual realities, virtual images on the social processes of today is widely described. Today's day youth touched on the obstacles that come to mind when it comes to confronting virtual realities. The question of the impact of the process of turning virtual images into reality on the outlook of people has been studied.
Key words: Virtualuty, knowing, epistemology, virtual reality, virtual imagein, information.

Kirish. Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida va oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish jamiyatdagi moddiy-madaniy va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarga bog‘liqligini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, uning ilmiy-nazariy jihatlari, amaliy ahamiyati masalalari, metodologik mohiyati, ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning aktual jihatlari borasidagi tadqiqotlar yetarli emasligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga hozirgi davrda dunyoda virtual ijtimoiy xizmat ko‘rsatish jarayoni insoniyatga xos harakat turi sifatida uning xalqaro tajribasi va amal qilishini ta’minlashda umumbashariy, mintaqaviy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda abadiyatga daxildor ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish mezonlarning jamiyat intellektual taraqqiyotiga hamohangligi, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo‘lga qo‘yish zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholining turli qatlamlariga yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, jismoniy salohiyatini inobatga olgan holda amaliy yordam ko‘rsatish tizimini virtuallashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. “Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak”[1]. Shu maqsad yo‘lida, rivojlangan mamlakatlarning sinovdan o‘tgan tajribalari asosida ijtimoiy xizmatlar tizimini yangicha mexanizmlarini tashkil etish va mamlakatimizda zamonaviy, ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish borasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, istiqbolli, ijtimoiy xizmatlarini virtuallashtirish qonuniyatlarini nazariy-metodologik tahlil etish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda[2].

Adabiyotlar tahlili. Maqolada rus, xorij va respublikamiz olimlari Silayeva, V.L., Davidov A.A., Xabermas Y., Giddens A., Normamatova M.N ijtimoiy xizmatlarning virtuallashuvu va uning tabiati, rivojlanishga tasir etuvchi omillarga oid asarlardan samarali foydalanildi.

Muxokama va natijalar. Ijtimoiy xizmatlarni fuqarolarning barcha ijtimoiy huquq, manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektorlari tomonidan pullik, qisman pullik yoki beg‘araz ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasidir, deya ta’rif bersak, mohiyat yanada oydinlashadi. Ijtimoiy xizmatlar aholi barcha qatlamlarining munosib turmush tarzini ta’minlash, inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmat, avvalo, talab va taklifdan kelib chiqadi. Ijtimoiy xizmatga talabning ko‘pligi xizmatlar bozorida yangi subyektlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Jamiyatni virtuallashtirish ijtimoiy transformasiyasiga kompleks yondashuv D.V.Ivanov tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lib, uni real narsalar va harakatlarni obrazlar–simulyasiyalar bilan almashtirish sifatida taqdim etadi. Muallif jamiyatni virtuallashtirishni transformasiyalashning uchta asosiy xususiyatini aniqlaydi:

ta’sirning nomoddiyligi (tasvirlangan obyekt haqiqiyga xos effektlarni keltirib chiqaradi);

parametrlarning shartliligi (obyektlar sun’iy va o‘zgaruvchan);

efemerlik (kirish - chiqish erkinligi uzilish va mavjudlikni qayta tiklash imkoniyatini ta’minlaydi).

Aynan shu xususiyatlar, bizningcha, sosiologiyada internet virtual makonining tadqiqot sohasini belgilaydi. V.L.Silayeva jamiyatni virtuallashtirishning yana bir o‘ta muhim xususiyatini, ya’ni uning obyektiv voqelikdan hosil bo‘lgan ikkilamchi tabiatini qayd etadi. U virtuallashtirish, birinchi

navbatda, inson faoliyati sohalariga bog‘liq bo‘lib, aprior tarzda fenomenologik ravishda virtual tabiatga ega, shuning uchun hozirgi virtuallashtirish jarayoni ular uchun ikkinchi darajali[4]. Bu shuni anglatadiki, virtuallashtirish ijtimoiy o‘zaro ta’sirning xarakterini sezilarli darajada o‘zgartiradi, uni interaktiv tarmoq rejimiga o‘tkazadi, o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining miqdoriy tarkibini kengaytiradi va ularni geografik bog‘liqlikdan xalos qiladi. Shu munosabat bilan virtualizasiya jarayoniga uchragan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning turlari alohida ahamiyatga ega.

Internet eng yangi vositalardan biri sifatida shaxslarning an’anaviy o‘zaro ta’sir shakllarini interaktiv rejimga aylantiradi, natijada, kibermaydon ishtirokchilari va jismoniy shaxslarni kundalik hayotining turli xil ijtimoiy amaliyotlari o‘rtasida gorizontal aloqalar shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, A.A.Davidovning “ijtimoiy tizimlarning kompyutasion nazariyasi” juda ahamiyatlidir. U sun’iy intellektga ega va inter-netdagi shaxslarning barcha o‘zaro munosabatlarida ko‘rinmas holda mavjud bo‘lgan “sun’iy ijtimoiy agentlar” tushunchasini kiritdi[5]. Bunday “sun’iy ijtimoiy agentlar” sifatida muallif insonning xohishiga binoan tabiat va jamiyatda mavjud bo‘lgan xususiyatlar va munosabatlarga taqlid qila oladigan kompyuter modellarini nomlaydi[6]. Shunday qilib, intellektual texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida aloqaning yangi turlari, kompyuter texnologiyalari ongni, kundalik hayotni, mehnatni va inson hayotining boshqa sohalarini o‘zgartiradi. YE.Toffler o‘zining “Adaptiv korporasiya” asarida jamiyatning yangi “superindustrial” tipi vujudga kelayotganini, unda tashkil etishning an’anaviy shakllari o‘z samarasini bermasligini qayd etadi[7].

Insonning kundalik hayotini virtuallashtirishda zamonaviy jamiyatdagi inson tez o‘zgaruvchan ijtimoiy tuzilmalarda o‘z taqdirini o‘zi belgilash bilan shug‘ullanishga majbur. Zamonaviy insonning o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonlariga jamiyatning kundalik hayotini virtuallashtirish sezilarli darajada ta’sir qiladi hamda ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, virtual reallik insonning aks ettirish faoliyatini cheklaydi (ba’zan butunlay yo‘q qiladi), uni tanqidiy fikrlash qobiliyatidan mahrum qiladi, uning dunyo va o‘zi haqidagi g‘oyalarini birlashtiradi. Shu bilan birga, ongni virtuallashtirish orqali inson nafaqat ma’lumotni tanqidiy baholash uchun asoslarni, balki kelajakda o‘z dunyoqarashini ham yo‘qotishi mumkin.

Boshqa tomondan, axborot jamiyatning ham, shaxsning ham rivojlanishida strategik resurs bo‘lib, o‘z-o‘zini takomillashtirish va shaxsiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishga qodir. Nihoyat, axborot texnologiyalari “Men – Boshqa”, “Men – Sen” rejimidagi o‘zaro aloqalar tarmog‘ini kengaytirish orqali inson hayotining muqaddasligini, baxt va baxtga bo‘lgan umuminsoniy huquqni e’tirof etishni, o‘z-o‘zini anglash, kosmopolit birdamlikni rivojlantirishga ko‘maklashish va insoniyat mavjudligi muhitini saqlash burchini nazarda tutuvchi yagona etos (axloq) ning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Y.Xabermas uning asoslarini “oqilona axloqiy munosabatning egalitarizmi (tengligi)” yoki “begonalar orasidagi mavhum vositachi birdamlik”[8] deb tavsiflagan.

Odamlarning onlayn hamjamiyatlarga birlashishi zamonaviy insonning “o‘zini o‘zi yaratish loyihasi” (E.Giddens)ni amalga oshirish shaklida doimiy ravishda o‘z shaxsiyatini izlash bilan bog‘liq. “Shaxs bo‘lish nafaqat refleksiv harakat qiluvchi, balki shaxs tushunchasiga (o‘ziga va boshqalarga nisbatan) ega bo‘lishni ham anglatadi)”[5]. Boshqacha qilib aytganda, “o‘z-o‘zini loyihalash” virtual makonda turli xil o‘zaro ta’sirlarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shishi mumkin, bu esa keyinchalik real ijtimoiy rollar, amaliyotlar va institutlarga ta’sir qiladi.

Zamonaviy jamiyatni virtuallashtirishda internetning rolini quyidagicha belgilash mumkin:

internet odamlar o‘rtasidagi muloqotda gorizontal aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi;

internet axborotni majburlab “tiqishtirmaydi”, u faqat ixtiyoriy idrok etish uchun taklif qilinadi;

internet har kimga axborot jarayonining ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi;

internet manipulyativ aloqa uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmaydi, aksincha ularni yo‘qotadi. Savol-javob jarayoni aldash va manipulyasiya qilish imkoniyatini bermaydi;

internet (ongni to‘sib qo‘yuvchi ommaviy axborot vositalaridan farqli o‘laroq) insonni ozod qiladi va uni fikrlashga undaydi;

internet, mavhum olomon yoki standart qatlamga muqobil ravishda lokal jamoalarni yaratadi. Ular jamiyat strukturasini o‘zgartirib, o‘z-o‘zini tashkillashtiradi va o‘z-o‘zini boshqaradi;

internet axborot o‘zaro ta’sirining yangi sohasini tashkil etadi, jamoatchilik bilan aloqalarning yangi turlarini paydo bo‘lishiga olib keladi.

Umuman, internet aloqalari teskari aloqa elementlarini o‘z ichiga oladi va katta masofalar bilan ajratilgan odamlarning jonli, ochiq va keng qamrovli muloqot qilish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratadi. Internetning faoliyati tufayli etnik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa farqlarga qaramay, umumiy manfaatlar, intilishlar, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlar bilan birlashtirilgan global, tobora o‘sib borayotgan odamlar hamjamiyati shakllanmoqda. Internet shu tariqa integrativ funksiyani bajaradi. Ammo internetning zamonaviy jamiyat hayotiga kirishining asosiy natijasi ijtimoiy muhitni individuallashtirishdir.

Ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish ijtimoiy amaliyotning barcha jabhalarida istisnosiz tobora ortib borayotgan ishtirokini nafaqat bir mamlakatda, balki butun dunyo jamiyati miqyosida ko‘rish mumkin.

Virtual xizmatlar Internetdan tijorat maqsadlarida foydalanishning barcha sohalarini qamrab oldi: ta’lim (masofaviy), ko‘ngilochar, sayohat, aloqa va xaridlar, to‘lov operasiyalari. Ishbilarmonlik munosabatlarining barcha jihatlari Internetda amalga oshiriladi: savdo, marketing, moliyaviy tahlil, to‘lovlar, xodimlarni qidirish, foydalanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik. Elektron tijorat ham yetkazib beruvchi-larga, ham mijozlarga foyda keltiradi. Internetning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi yetkazib beruvchilar uchun savdo bozorining kengayishiga va xaridor uchun tanlovga olib keladi.

Elektron virtual xizmatning jozibadorligi aynan yetkazib beruvchining ham, mijozning ham bir vaqtda foyda olishidadir. Yetkazib beruvchi global savdo bozorini, yuqori raqobatbardoshlikni, individual ishlash qobiliyatini, ta’minot zanjirini qisqartirish yoki yo‘q qilishni, xarajatlarni kamaytirishni, yangi biznes imkoniyatlarini qo‘lga kiritadi.

Mijozlarning afzalliklari: katta tanlov, yuqori sifatli xizmat, tovar va xizmatlarning individual tanlovi, tezkor javob, narxlarni pasaytirish, yangi mahsulot va virtual xizmatlar haqida ma’lumotlar. Elektron biznesda taraflari tomonidan olinadigan imtiyozlar-bitimlar amalga oshiriladigan Internet muhitining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Foydalanuvchilar navigasiya[9] dasturlari yordamida atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari, tarkibni o‘rganishlari mumkin.

Virtual xizmatlarni elektron biznesda to‘lov tizimlarining mavjudligi uchun asos Internet orqali to‘lovlarni amalga oshirish xavfsizligini ta’minlash usullari hisoblanadi, chunki tarmoq tashqi kirish uchun butunlay ochiq. Elektron pullar – bu elektron imzo bilan shifrlangan va qalbakilashtirishdan himoyalangan, global axborot tarmoqlari orqali uzatilishi to‘lovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar majmuasidir. Elektron pulning ikki turi mavjud:

- mijozning bankka o‘ziga tegishli naqd bo‘lmagan pul mablag‘larini bir hisob varaqdan boshqasiga o‘tkazish uchun bergan elektron topshiriqlari. Bunday buyurtmalar global tarmoqlar orqali uzatiladi va shuning uchun, prinsipial jihatdan, virtul xizmatni elektron pul ta’rifiga kiradi. Bu buyurtmalar ma’lum bir bankda qo‘yilgan va jahon valyutalaridan birida o‘lchanadigan real depozitlarga asoslanadi. Ushbu tasnif shu turdagi pullar ko‘plab mualliflar tomonidan elektron pul deb atalgani uchun berilgan. Bizningcha, bu hodisani elektron to‘lov yoki elektron buyurtma deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi. Elektron pulni hech qanday real valyutada hisoblash shart emas. Ba’zida bunday pullar tovar bilan ta’minlanadi. Ular global tarmoqda (va faqat unda) “mustaqil hayot” olib borishi yoki “elektron hamyonlarda” saqlanishi va maxsus ko‘chma qurilmalar, jumladan, naqd pul kabi kompyuterga ulangan qurilmalar orqali

uzatilishi mumkin. Ulardan birinchisini virtual pul, ikkinchisini esa elektron naqd pul deb atashdi[10].

Ushbu ikki turdagi elektron pullarning umumiy tomoni shundaki, ular xususiy firmalar (Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmaydi) va yoki banklar tomonidan chiqariladi va ular naqd yoki naqd bo‘lmagan pul yoki tovarlarga qandaydir sxema bo‘yicha almashtirilishi mumkin. Bunday pullar Internet orqali tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishning qulay vositasidir. Iqtisodiyotdagi xizmatlarni virtuallashtirishning birinchi bosqichini haqli ravishda pul tizimining paydo bo‘lishi deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning yana bir ko‘rinishi virtual ta’limda masofaviy telekommunikasiya orqali o‘qitish.

Xulosa. 1. Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining virtuallashuvi sharoitida inson kapitalini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri – “portlash effektini” vujudga keltirish va samaradorlik koeffisentini yanada oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, zamonaviy ta’lim olishning samarali mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilgan holatlarda kutilgan natijalarni berishi mumkin.

2. Insonning axborot texnologiyalariga moslashish hodisasi, uning takdirga tan berib yashash uchun kurashdan iborat passiv harakati natijasi emas, aksincha, axborot madaniyatini yuksaltirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, o‘z ongi va qalbiga ta’sir etuvchi axborot muhitiga ongli, faol munosabati bilan xarakterlanadi.

3. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishini belgilovchi bazis munosabatlari majmuasi, insonning mavjud axborotlarni o‘zlashtirish maqsadi yo‘lidagi uni o‘zgartirishdan iborat ijtimoiy faolliganing asosi hisoblanadi. Bunday holda, axborot bazisi insoniy munosabatlarning nisbatan mustaqilligi, faqatgina amaliy faoliyatining natijasi emas. Chunki, “jamiyatning virtuallashuvi va insonning axborot madaniyati” majmuasidagi amaliy munosabatlarda o‘z ifodasini topadi.

4. Hozirgi davrda axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish sohasidagi amaliy munosabatlarni, yoshlarda axborot madaniyatining bevosita birlamchi mavjudlik sharti, deb qarash umuman metodologik jihatdan xatodir. Chunki, axborot madaniyati rivojlanishining nazariy darajasi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni passiv idrok yetishiga emas, balki insonning axborotga bo‘lgan ehtiyojiga bog‘liq bo‘lib, axborot munosabatlarni harakatga keltiruvchi mexanizmdir. Bunda virtual reallik fenomeni insonning axborot olishga bo‘lgan ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishning texnologik jarayonini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // расмий нашр // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Тошкент: Адолат, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. 2021 йил 6 ноябрь куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисида сўзлаган нутқи. –Т.: “Ўзбекистон овози” газетаси. № 223 (479), 2021 йил 7 ноябрь
3. Силаева, В. Л. Подмена реальности как социокультурный механизм виртуализации общества: дисс. …канд. филос. наук. – М.: МГТУ им. Н Э.Баумана, 2004. – С. 46.
4. Helm Michel. The MeTaphisics of virtual reality // Virtual reality, practice and promise Westport and London. 1991.-P. 27-33:
5. См. подробнее: Давыдов А.А. Компьютационная теория социальных систем // Социс. – 2005. – № 6.
6. Давыдов А.А. О компьютационной теории социальных агентов // Социс. – 2006. – № 2. – С. 20.
7. Хабермас Ю. Расколотый Запад. – М., 2008. – С. 21.
8. Giddens A. Modernity and self-identity: Self and society in the Late Modern Age. – Cambridge: Polity Press, 1991. – P. 53.
9. Нормаматова М.Н. Жамиятни виртуаллаштириш: асосий омиллар ва детерминантлар. // Falsafa va hayot. Xalqaro jurnal. – Тошкент, № SI-2 Август 2021 – Б. 201-210.
10. Корсунцев И.Г.Субъект и виртуальная реальность.М., 1998 г

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 141.1:316.7:323/327(575.1)

Dilshod NORMURODOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqoqotchisi
E-mail: dilshod.normurodov@jmail.com

TITU dosenti, f.f.n A.Tashanov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF IDEAS ON CIVIL SOCIETY IN WESTERN MODERN PHILOSOPHY

Annotation

This article analyzes the development of ideas about civil society in Western philosophy of the Modern era, examining the views of thinkers such as J. Locke, C. Montesquieu, J.-J. Rousseau, N. Machiavelli, T. Hobbes, I. Kant, and G. Hegel. Furthermore, it explores the influence of their ideas on civil society on the later teachings of philosophers, including K. Marx, M. Weber, P. Sorokin, T. Parsons, A. Tocqueville, and others.

Key words: Modern era, Western philosophy, civil society, development of ideas, state, law, social contract, democracy, J. Locke, C. Montesquieu, J.-J. Rousseau, N. Machiavelli, T. Hobbes, I. Kant, G. Hegel.

РАЗВИТИЕ ИДЕЙ О ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ В ФИЛОСОФИИ НОВОГО ВРЕМЕНИ ЗАПАДА

Аннотация

В данной статье анализируется развитие идей о гражданском обществе в философии Нового времени Запада, рассматриваются взгляды таких мыслителей, как Дж. Локк, Ш. Монтескье, Ж.-Ж. Руссо, Н. Макиавелли, Т. Гоббс, И. Кант, Г. Гегель. Кроме того, исследуется влияние их идей о гражданском обществе на последующие учения философов, включая К. Маркса, М. Вебера, П. Сорокина, Т. Парсонса, А. Токвиля и других.

Ключевые слова: Новое время, западная философия, гражданское общество, развитие идей, государство, закон, общественный договор, демократия, Дж. Локк, Ш. Монтескье, Ж.-Ж. Руссо, Н. Макиавелли, Т. Гоббс, И. Кант, Г. Гегель.

YANGI DAVR G‘ARB FALSAFASIDA FUQAROLIK JAMIYATIGA DOIR G‘OYALAR RIVOJI

Annotasiya

Ushbu maqolada Yangi davr G‘arb falsafasida fuqarolik jamiyatiga doir g‘oyalar rivoji tahlil qilinib, J. Lokk, C. Monteskye, J.-J. Russo, N.Machiavelli, T.Gobb, I.Kant, V.Gegel kabi mutafakkirlarning fuqarolik jamiyatiga doir mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, bu davr mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalarining keyingi davr K.Marks, M.Veber, P.Sorokin, T.Parsons, A.Tokvil va boshqa faylasuflari ta’limotlariga ta’siri ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi davr, G‘arb falsafasi, fuqarolik jamiyati, g‘oyalar rivoji, davlat, qonun, ijtimoiy shartnoma, demokratiya, J. Lokk, C. Monteskye, J.-J. Russo, N.Machiavelli, T.Gobb, I.Kant, V.Gegel.

Kirish. Fuqarolik jamiyati – bu jamiyat a’zolarining davlatdan mustaqil ravishda o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati nazariyasi tarixan shakllangan bo‘lib, uning ilmiy asoslari Aristotel, Jan-Jak Russo, Jon Lokk, Gegel va Karl Marks kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan. Asosiy g‘oya – jamiyat a’zolarining davlatga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshirishidir. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari sifatida qonun ustuvorligi – huquqiy davlat asosida fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qila olsa, ochiqlik va shaffoflik – davlat organlarining faoliyati jamoatchilik nazoratida bo‘lishini ta’minlaydi. Ko‘ppartiyaviylik va plyuralizm – turli siyosiy va ijtimoiy qarashlarning mavjudligi ko‘rsatsa, nodavlat tashkilotlari – jamoat birlashmalari, mustaqil matbuot va tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati davlat bilan hamkorlik qilishi va uning cheklovlariga qarshi turishi mumkin. Mukammal fuqarolik jamiyati – bu demokratik institutlar orqali jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarishidir. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun avtoritarizm, korrupsiya, qonun ustuvorligining zaifligi va jamoatchilik faolligining pastligi kabi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatiga e’tiborni o‘z ma’ruzalarida quyidagicha ta’riflaydilar: “Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo‘yicha vijdonan yashashga tayyor bo‘lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg‘a qadam bosmog‘imiz kerak”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dastlabki shakllanishidan boshlab fuqarolik jamiyati zamondoshlari tomonidan katta ye’tiborga sazovor bo‘ldi. XVII-XVIII asrlarda A. Bergson, J.Lokk, Sh. Monteskyo, J. J. Russo, T. Xobbs va boshqa mutafakkirlar, ularda zamonaviy fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning birinchi ta’riflari berilgan. Fuqarolik jamiyati yevolyusiyasi bilan bir qatorda, u haqidagi ilmiy bilimlar ham rivojlandi va farqlandi. Yigirmanchi asrning oxirida fuqarolik jamiyati yevolyusiyaning yangi bosqichiga kirdi, bu post-kommunistik Sharqiy Yevropa va sobiq possovet hududida ijtimoiy faollikning sezilarli o‘sishi, shuningdek Lotin Amerikasi mamlakatlarida demokratlashtirishning yangi to‘lqini bilan tavsiflanadi. Fuqarolik jamiyati yana gapira boshladi, uning asosiy xususiyatlari dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda qayta tahlil qilindi, bu globallashuvning rivojlanayotgan jarayonlari bilan tavsiflanadi, bu yerda fuqarolik jamiyati yangi dunyo ijtimoiy tartibini shakllantirish jarayonida o‘z o‘rnini topishi kerak yedi. Bu ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy aks yettirish mavzusiga aylandi, bu yesa fuqarolik jamiyatini o‘rganishga yangi zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ishlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy mahalliy va xorijiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati va uni amalda ta’minlash omillari va mexanizmlari muammosining o‘rganilish darajasini sarhisob qilsak, ushbu maqola mavzusi siyosiy fanlarda anchagina keng doirada tahlil qilingan. Ularni hal qilish uchun tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan, jumladan: muammoli - xronologik – fuqarolik jamiyatini rivojdantirish, ushbu faoliyatning muayyan shakllari va usullarining paydo bo‘lishining kelib chiqishini aniqlash qaratiladi. Qiyosiy-tarixiy uslub asosida fuqarolik jamiyati konsepsiyasining takomillashib borishi, ularga doir tushunchalarni aniqlashdagi qiyinchiliklarning ortib borishini ta’kidlash mumkin. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar usuli esa shaxs, jamiyat va davlat munosbatlarida fuqarolik jamiyati konsepsiyaning namoyon bo‘lishi, ular bilan aloqador tendensiyalar va o‘zgarishlarni aniqlashni ko‘zda tusa, mantiqiy

usul - mavjud hodisa va jarayonlar o‘rtasida aniq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Mavzu maqolada ushbu usullardan birgalikda foydalanish mavjud muammoni aniqroq va chuqurroq tekshirishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Tomas Gobbs siyosiy falsafa va davlat nazariyasi bo‘yicha muhim g‘oyalarni ilgari surgan. Uning asosiy asari “Leviafan” hisoblanadi, va bu kitobda u davlat, jamiyat va inson tabiati haqidagi fikrlarini bayon qiladi. Gobbsning fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari ko‘p jihatdan “tabiat holati”, “ijtimoiy shartnoma” va "mustahkam davlat" konsepsiyalariga asoslanadi. Gobbsning fikricha, insonlar tabiatan o‘z manfaatlarini o‘ylaydigan, shaxsiy foydani ko‘zlaydigan maxluqlardir. Agar hech qanday davlat va qonunlar bo‘lmasa, jamiyatda “hammaning hammaga qarshi urushi” (bellum omnium contra omnes) yuzaga keladi. Bu holatda kuchlilar zaiflarni ezadi, mulk va hayot kafolatsiz qoladi hamda hech qanday taraqqiyot va tinchlik bo‘lmaydi.

Bu holatni tasvirlash uchun Gobbs quyidagi iborani ishlatadi “Inson – insonga bo‘ri” (Homo homini lupus est). Bu shuni anglatadiki, insonlar tabiatan bir-biriga tahdid soladi va o‘z manfaatlari yo‘lida bir-birini yo‘q qilishga tayyor turadi. Mutafakkirning ijtimoiy shartnoma va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga doir qarashlari e’tiborga molik. Gobbsning fikricha, insonlar o‘zlarini tabiat holatida xavfsiz his qilmaganlari uchun ijtimoiy shartnoma tuzishga majbur bo‘ladilar. Uilgari surgan ijtimoiy shartnomaning mohiyati shundaki, har bir shaxs o‘zining tabiiy huquqlarining bir qismidan voz kechadi. Bu huquqlar kuchli markazlashgan hokimiyatga (suverenga) topshiriladi. Davlat ("Leviafan") jamiyatni tartibga soladi va uni himoya qiladi.

Gobbsning tushunchasida fuqarolik jamiyati davlat paydo bo‘lgandan keyingina shakllanadi. Davlatsiz fuqarolik jamiyati bo‘lishi mumkin emas, chunki davlat qonunlarni qabul qiladi, jamoat tartibini ta’minlaydi va insonlar o‘rtasidagi nizolarni hal qiladi. Mutafakkir mustahkam davlat – tinchlik va tartibning kafolati deb hisoblaydi. Gobbsning fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi qarashlarining asosiy nuqtasi shundaki, u kuchli va markazlashgan davlat hokimiyatini yoqlagan. Uning fikricha, suveren hokimiyat: qonunlar va tartib o‘rnatadi; jamiyat a’zolarini himoya qiladi; urush va nizolarning oldini oladi.

Bu davrning yana bir mutafakkiri Jon Lokk – ingliz faylasufi va siyosiy fikrlar tarixidagi eng muhim shaxslardan biri bo‘lib, u fuqarolik jamiyati, hokimiyat va inson huquqlari haqidagi g‘oyalari bilan mashhur bo‘lib, uning fikrlari demokratiya, huquqiy davlat va inson erkinliklari kabi tushunchalarga asos bo‘lgan. Lokkning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari "Ikki traktat hukumat haqida" (1689) asarida bayon qilingan. Lokkning fikricha, fuqarolik jamiyati – bu insonlar tabiiy holatdan chiqib, qonun va huquqlar asosida tashkil topgan jamiyatdir. U Gobbsdan farqli ravishda, insonlar tabiatan yomon emas, balki erkin va teng deb hisoblagan[2].

Lokk fikricha, fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari sifatida huquqlar himoya qilinadi (hayot, erkinlik, mulk), hokimiyat fuqarolar roziligiga asoslangan bo‘lishi kerak, qonun ustuvorligi ta’minlanishi kerak va insonlar davlatdan mustaqil ravishda hamkorlik qilishi mumkin. Lokk insonlar tabiat holatida ham erkin va teng huquqlidirlar, ammo bu holatda qonunlarni himoya qiluvchi markaziy tizim mavjud emas, deb hisoblaydi. Lokkning fikricha, insonlar ijtimoiy shartnoma orqali fuqarolik jamiyatiga o‘tadilar. Bu shartnoma Gobbsnikidan farqli, chunki u mutlaq hokimiyatni emas, xalq suverenitetini va hukumatning cheklanganligini nazarda tutadi.

Lokkning ijtimoiy shartnoma nazariyasi bo‘yicha insonlar tabiiy huquqlarini himoya qilish uchun davlatni tashkil etadi. Davlat fuqarolar roziligiga asoslangan bo‘lishi kerak. Agar davlat inson huquqlarini buzsa, fuqarolar unga qarshi chiqishga haqlidir. Bu o‘rinda fuqarolik jamiyati va davlat munosabatini tahlili ham e’tiborga molikdir. Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil jamoatchilik vakillarining uyushmalari va faoliyatlaridir.

Lokk davlat hokimiyatini cheklash zarurligini ta’kidlar ekan, qonun chiqaruvchi hokimiyat (parlament) – asosiy qonunlarni qabul qiladi va ijroiya hokimiyat (hukumat) – qonunlarni bajaradi. Bu qarashlar keyinchalik hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi (Monteskyo) va demokratiya tamoyillariga asos bo‘lgan.

Lokkning qarashlariga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari bir necha jihatlarni o‘zida aks etirishi kerak. Bular hayot, erkinlik va mulk huquqi – insonlarning tabiiy huquqlari hukumat tomonidan himoya qilinishi kerak, hokimiyat xalq roziligiga asoslanishi kerak – agar hukumat xalq manfaatlariga zid harakat qilsa, xalq uni almashtirish huquqiga ega, qonun ustuvorligi – barcha fuqarolar va davlat amaldorlari qonunga bo‘ysunishi kerak hamda fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo‘lishi mumkin – odamlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun uyushmalar tashkil etishi mumkin.

Jon Lokk g‘oyalarining zamonaviy ahamiyati shundaki, uning qarashlari liberalizm, huquqiy davlat, demokratiya va inson huquqlari tamoyillariga asos bo‘lgan. Uning g‘oyalari AQSH va Fransiya konstitutsiyalari hamda zamonaviy demokratiya modellariga ta’sir qilgan. Bugungi kunda ham xalq hokimiyati, erkinliklar va qonun ustuvorligi kabi tushunchalar Lokkning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlariga tayanadi.

Bu davrning mashhur mutafakkirlaridan biri Sharl Lui de Monteskyo bo‘lib, uning fuqarolik jamiyati haqidagi nazariy qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. Sharl Lui de Sekonda, baron de La Bred va de Monteskyoning asosiy asari "Qonunlar ruhi haqida" hisoblanadi. U hokimiyatlar bo‘linishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari bilan mashhur bo‘lgan. Monteskyo fuqarolik jamiyatini demokratik va huquqiy institutlar orqali tartibga solingan jamiyat deb hisoblagan. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilini ilgari surgan[3].

Monteskyoning fuqarolik jamiyati haqidagi asosiy qarashlari sifatida fuqarolik jamiyati insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun mavjud bo‘lishi, davlat fuqarolarning huquqlariga aralashmasligi va ularning erkin faoliyat yuritishiga imkoniyat berishi kerakligi, qonunlar barcha uchun teng va adolatli bo‘lishi lozimligini aytish mumkin. Monteskyo fuqarolik jamiyatining to‘g‘ri ishlashi uchun davlat hokimiyati uchga bo‘linishi kerak deb hisoblagan: Qonun chiqaruvchi hokimiyat (parlament) – qonunlarni qabul qiladi, Ijroiya hokimiyat (hukumat) – qonunlarni amalga oshiradi, Sud hokimiyati (sudlar) – qonunlar bajarilishini nazorat qiladi. Hokimiyatlar bir-birini nazorat qilishi kerak, aks holda diktatura yuzaga keladi. Bu g‘oyalar zamonaviy demokratiya va huquqiy davlat tamoyillariga asos bo‘ldi.

Jan Jak Russo – mashhur fransiyalik faylasuf, siyosiy mutafakkir va "ijtimoiy shartnoma" nazariyasining eng muhim vakillaridan biri bo‘lib, uning fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari asosan "Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquqlar prinsiplari" (1762) asarida bayon qilingan. Russo ozodlik, tenglik va xalq irodasiga asoslangan jamiyat qurish g‘oyasini ilgari surgan. Uning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari Lokk va Monteskyodan farq qiladi.

Russo insonlarning tabiatdagi holatini erkin va teng, deb hisoblagan, ammo jamiyat rivojlangan sari, boylik va mulkchilik tengsizlikni keltirib chiqargan deb hisoblaydi. "Birinchi bo‘lib yerga tegishli tosh qo‘ygan odam:’Bu yer menga tegishli’, deb aytdi va odamlar unga ishondi. Ana shu inson jamiyatda tengsizlikni yaratgan birinchi shaxs edi." Russoga ko‘ra, fuqarolik jamiyati insonlar tomonidan "ijtimoiy shartnoma" asosida yaratiladi. Bu shartnoma har bir shaxs o‘z erkinligidan voz kechib, jamoaviy irodaga bo‘ysunadi, hokimiyat xalqning umumiy irodasiga asoslanadi. Fuqarolar faqat o‘z manfaatlarini emas, jamiyatning umumiy manfaatlarini ham himoya qilishi kerak. Boshqa faylasuflardan farqli ravishda, Russo hokimiyatning eng to‘g‘ri shakli bevosita demokratiya, deb hisoblaydi [4].

Russoing qarashlari bo‘yicha Fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari sifatida jamoaviy iroda ustuvorligi – jamiyat barcha fuqarolarning umumiy manfaatlari asosida boshqarilishi kerak. Tenglik va adolat – tabiiy tenglik yo‘qolmasligi uchun jamiyatda mulkiy va ijtimoiy adolat ta’minlanishi kerak. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar – davlat xalq irodasini ifoda etish vositasi bo‘lishi hamda fuqarolarning faol ishtiroki – har bir fuqaro jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi kerak.

Russoning g‘oyalari Fransiyadagi Buyuk inqilobga kuchli ta’sir qildi. Fransuzlar "erkinlik, tenglik, birodarlik" shiori bilan mutlaq monarxiyaga qarshi chiqdilar. Russo Shveysariyada tug‘ilgan va u yerdagi bevosita demokratiya g‘oyalaridan ta’sirlangan. Hozirgi kunda ham Shveysariyada xalq referendumlar orqali davlat boshqaruvida faol ishtirok etadi. Mutafakkirning tenglik va jamoaviy boshqaruv haqidagi fikrlari sotsialistik va kommunistik g‘oyalarga ham ta’sir qilgan.

Nemis idealist faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari "Huquq falsafasi" (1820) asarida bayon qilingan. Gegel fuqarolik jamiyatini insonning shaxsiy manfaatlariga asoslangan, lekin davlat tomonidan tartibga solib turuladigan tizim, deb ta’riflaydi. Gegel fuqarolik jamiyatini "oila" va "davlat" orasidagi mustaqil tizim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson uchta asosiy bosqich orqali ijtimoiy taraqqiyotni bosib o‘tadi:

- Oila – shaxs o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechib, oila manfaatlari uchun yashaydi. Bu kollektiv hayotning boshlang‘ich shakli.

- Fuqarolik jamiyati – shaxs erkin faoliyat yuritadigan, o‘z manfaatlari va ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat. Bu yerda shaxs o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy imkoniyatlaridan foydalanadi.

- Davlat – jamoaviy manfaatlarni tartibga soluvchi oliy kuch. Fuqarolik jamiyati o‘z-o‘zini boshqarishda yetarlicha samarali bo‘lmagani uchun davlat aralashuvi zarur. Demak, Gegel nazarida fuqarolik jamiyati – shaxsiy manfaatlar va erkinliklarning maydoni, ammo u davlatsiz to‘liq ishlay olmaydi.

Gegelning fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyati bir qator asosiy elementlardan tashkil topgan. Fuqarolik jamiyati iqtisodiy manfaatlar negizida shakllanadi. Insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qiladi va bozor munosabatlariga kirishadi. Gegel huquqni fuqarolik jamiyatining bosh mezoni, deb hisoblaydi. Har bir inson muayyan huquq va burchlarga ega, lekin bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanishi kerak. Fuqarolik jamiyatida turli tashkilotlar, kasaba uyushmalari va professional guruhlar mavjud. Bu tuzilmalar insonlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Gegel fuqarolik jamiyatini anarxiya va tartibsizlikka moyil tizim, deb hisoblaydi. Shuning uchun davlat bu jamiyatni tartibga solishi, insonlarning yagona umumiy manfaatlarini ta’minlashi lozim.

Gegelning fikrlari hozirgi kapitalistik tizimda muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati asosan iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq va buni davlat tartibga solishi kerak. Bugungi demokratiyalarda davlat fuqarolar erkinligini cheklamasdan, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy tartibni ta’minlaydi. Gegelning fikrlari hozirgi huquqiy davlat konsepsiyasining asoslaridan biri bo‘lib, davlat insonlarning huquqlarini himoya qilishi va ularni tartibga solishi kerak. Gegel ta’kidlaganidek, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va NNTlar hozirgi fuqarolik jamiyatida muhim rol o‘ynaydi. G.V.Gegel ta’biri bilan aytganda, “fuqarolik jamiyatida har kim o‘zi uchun — maqsad, qolgan hamma uning uchun hech kim emas. Ammo boshqalar bilan o‘zaro munosabatga kirishmasdan, u o‘zining barcha maqsadlariga erisha olmaydi”[7.464].

Gegelning g‘oyalari keyinchalik nemis faylasufi, iqtisodchisi va siyosiy nazariyachisi Karl Marks ta’limotiga ta’sir ko‘rsatib, u fuqarolik jamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan yondashgan. Uning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari asosan "Gegel huquq falsafasining tanqidi" (1843), "Iqtisodiy-falsafiy qompozitlar" (1844), "Kommunistik manifest" (1848) kabi asarlarida bayon qilingan. Marksning fikricha, fuqarolik jamiyati – kapitalistik munosabatlar va sinfiy tuzilmalar ta’sirida shakllangan ijtimoiy tizimdir[11].

Marks fuqarolik jamiyatini kapitalistik iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllangan ijtimoiy tuzilma, deb hisoblaydi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil emas, balki kapitalistik tuzumning bir qismi. Bu jamiyat burjuaziya manfaatlarini himoya qiladi, kambag‘al (proletarlar) esa ekspluatatsiya qilinadi. Erkin bozor va mulkiy munosabatlar fuqarolik jamiyatini nomutanosib, tengsiz tizimga aylantiradi. Faylasufning fikricha, fuqarolik jamiyatidagi asosiy muammo – sinfiy ziddiyatlar. Burjuaziya – ishlab chiqarish vositalarini egallagan hukmron sinf bo‘lsa, proletariat – mehnat qiladigan, lekin o‘z mehnatining haqqini to‘liq ololmaydigan kambag‘allar qatlamidir. Gegeldan farqli ravishda, Marks davlatni fuqarolik jamiyatidan yuqori turmaydi, balki u burjuaziya manfaatlariga xizmat qiladigan mexanizm, deb hisoblaydi. Davlat faqat burjuaziya hukmronligini saqlab qolish uchun mavjud va uning asosiy vazifasi – proletariatning isyon ko‘tarishining oldini olish.

G‘arb falsafasida fuqarolik jamiyatiga oid g‘oyalar va ularning mualliflari

Muallif	Asarlari	Fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalari	Xususiyatlari
Tomas Gobbs	Leviatan (1651)	Fuqarolik jamiyatini tabiiy holatdan chiqish sifatida ko‘radi. Kuchli davlat (suveren) jamiyatni tartibga solishi kerak.	Absolyutistik davlatni qo‘llab-quvvatlaydi. Inson tabiatan o‘z manfaatini ko‘zlovchi mavjudot.
Jon Lokk	Ikki risola (1690)	Fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi – fuqarolarning hayoti, erkinligi va mulkini himoya qilish. Davlat shartnomaga asoslangan bo‘lishi kerak.	Liberalizm asoschisi. Fuqarolarning tabiiy huquqlarini himoya qilish muhim.
Sharl Lui Monteskye	Qonunlar ruhi haqida (1748)	Fuqarolik jamiyatining erkin va adolatli bo‘lishi uchun hokimiyatlar bo‘linishi zarur.	Uch hokimiyat bo‘linishini ilgari surgan. Konstitutsiyaviy boshqaruv tarafdori.
Jan-Jak Russo	Ijtimoiy shartnoma (1762)	Fuqarolik jamiyati ijtimoiy shartnoma orqali shakllanadi. Suverenitet xalqqa tegishli bo‘lishi kerak.	Demokratik boshqaruvni ilgari suradi. “Umumiy iroda” tushunchasini ishlab chiqqan.
Georg Vilgelm Fridrix Gegel	Huquq falsafasi (1820)	Fuqarolik jamiyati davlat va oilaning o‘rtasidagi o‘ziga xos bosqichdir. U erkinlik va manfaatlarni muvozanatlashtiradi.	Fuqarolik jamiyati davlat orqali barqarorlik topadi. Dialektik yondashuv tarafdori.
Karl Marks	Kapital, Nemis mafkurasi	Fuqarolik jamiyati – bu sinfiy kurash maydoni. Kapitalistik jamiyatda boylar manfaatlarini himoya qiladi.	Iqtisodiy tuzilma jamiyatni belgilaydi. Sinfsiz jamiyat g‘oyasini ilgari surgan.

Xulosa va takliflar. Tomas Gobbs fuqarolik jamiyatini mustahkam davlatsiz tasavvur qilmagan. Uning fikricha, insonlar tabiatan o‘z manfaatlarini o‘ylaydigan mavjudotlar bo‘lgani uchun, ularni nazorat qilish uchun kuchli davlat kerak. Bu konsepsiya keyingi siyosiy falsafaga katta ta’sir ko‘rsatgan;

Jon Lokk fuqarolik jamiyatini davlat va qonunlar himoyasidagi, huquq va erkinliklarga asoslangan tashkilotlashgan jamiyat, deb hisoblagan. Uning fikricha, davlat xalq roziligi bilan shakllanishi va insonlarning tabiiy huquqlarini himoya qilishi kerak. Bu g‘oyalar zamonaviy demokratiya, huquqiy davlat va inson huquqlari konsepsiyalarining asosiga aylangan;

Jan Jak Russo fuqarolik jamiyatini xalqning umumiy irodasiga asoslangan, teng va erkin jamiyat sifatida tasvirlagan. U demokratiya va ijtimoiy tenglik g‘oyalarini ilgari surgan. Uning fikrlari hozirgi demokratiya, xalq hokimiyati va ijtimoiy adolat konsepsiyalariga asos bo‘lib xizmat qilgan;

Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyasi davlat, huquq va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatga asoslangan. Uningcha, fuqarolik jamiyati erkin shaxslardan iborat, lekin u davlatsiz anarxiyaga aylanishi mumkin. Shuning uchun davlat qonun ustuvorligi va umumiy manfaatlarni himoya qilishi lozim;

Karl Marks fuqarolik jamiyatini mustaqil va erkin deb emas, balki kapitalizm tizimida hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizm deb ko‘rgan. Unga ko‘ra, bu jamiyatda sinfiy qarama-qarshilik mavjud va u faqat proletariat inqilobi orqali yo‘q qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. 2023-yil 23 dekabrdagi “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy” nomli ma’ruzasi - «Xalq so‘zi» gazetasi № 271 23.12.2023 –B.1
2. Соколов В. В.. «Левиафан...» // Новая философская энциклопедия: В 4 т. / Ин-т философии РАН,- М.: Мысл, 2010. - Т. ИИ | Е-М. - С. [377]
3. Локк Дж. Два трактата о правлении. Соч.: в 3 т. М., 1988. Т. 3. 312 с.
4. Монтеске Ш.Л. О духе законов. Избр. произв. М., 1955. 570 с.
5. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. Избр. соч. М., 1964. 416 с.
6. Гегел Г.В.Ф. Соч. в 14 т. -М., 1999 . Т. 7. 213 с.
7. Гегел. Г.В. Философия права. - М.: Мир книги, 2007. - 464 с. - (Великие мыслители). - ИСБН 978-5-486-01240-2.
8. Маркс К., Энгелс Ф. Соч. Т. 1. -С. 400 – 402.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:53.35.014.56

Abdulla NORCHAYEV,
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarDTU dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ENGINEERING COMPETENCE IN STUDENTS

Annotation

This article explores the didactic foundations for developing engineering competence among university students. The study examines methodological approaches to shaping engineering knowledge, skills, and abilities, as well as the integration of theoretical and practical training. Special attention is given to the use of digital technologies and innovative pedagogical methods in engineering education. The paper provides recommendations for improving the educational process to enhance the professional training of future engineers.

Key words: Engineering competence, didactic foundations, methodological approaches, digital technologies, engineering education, practice-oriented learning, professional training.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются дидактические основы развития инженерной компетентности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Исследуются методологические подходы к формированию инженерных знаний, умений и навыков, а также вопросы интеграции теоретического и практического обучения. Особое внимание уделяется использованию цифровых технологий и инновационных педагогических методов в инженерном образовании. Представлены рекомендации по совершенствованию образовательного процесса с целью повышения профессиональной подготовки будущих инженеров.

Ключевые слова: Инженерная компетентность, дидактические основы, методологические подходы, цифровые технологии, инженерное образование, практико-ориентированное обучение, профессиональная подготовка.

TALABALARING MUHANDISLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar muhandislik kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda muhandislik bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlar hamda nazariy va amaliy ta’limni integratsiyalash muammolari o‘rganiladi. Ayniqsa, muhandislik ta’limida raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullardan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Kelajakdagi muhandislarni kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhandislik kompetentligi, didaktik asoslar, metodologik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, muhandislik ta’limi, amaliy yo‘naltirilgan o‘qitish, kasbiy tayyorgarlik.

Kirish. Zamonaviy muhandislik ta’limi axborot texnologiyalari va innovatsion o‘qitish metodlarining jadal rivojlanishi sharoitida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning o‘sishi bilan tavsiflanadi. Muhandislik sohasidagi global o‘zgarishlar talabalar muhandislik kompetentligini shakllantirish jarayoniga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash jarayonida didaktik asoslarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Muhandislik kompetentligining rivojlanishi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga asoslangan bo‘lib, talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanligi va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda ta’lim jarayonining ilmiy asoslanganligi, interaktiv o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanilishi va real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi[1].

Mazkur tadqiqotda muhandislik kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslari ko‘rib chiqilib, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarni amaliy muammolarni mustaqil hal qilishga yo‘naltirilgan metodlar, muhandislik fanlarining integratsion o‘qitilishi va raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Ushbu masalalarni o‘rganish natijasida kelajakdagi muhandislarni kasbiy jihatdan tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasida “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida: oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” kabi muhim vazifalar belgilangan [1]. Bu esa oliy ta’lim muassasalari oldiga bo‘lajak mutaxassislarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish, bu borada pedagogik tadqiqotlarni olib borish kabi vazifalarni yuklaydi.

Kreativ yondoshuv asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda belgilangan topshiriq va vazifalarni tizimli tahlil qilish, talabalarda muhandislik kompetentligini rivojlantirish uchun fanning metodologik ta’minotini ishlab chiqishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda o‘qituvchilardan har bir talabaga indivudual yondoshish va talabani individual ta’lim olishga yo‘naltirish talab etiladi[2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogikada “shart-sharoitlar” - deganda pedagogik tizimi ishlash samaradorligiga bog’liq omillar, holatlar tushuniladi. Zamonaviy didaktikada “shart-sharoit” tushunchasi o’qitishning muvafaqiyatligini ta’minlovchi omillar, komponentlar yig’indisi – deb izohlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki didaktik shart-sharoit – deganda o’quv jarayonning muhim komponenti tushuniladi, u o’zida qo’yilgan maqsadga erishishga yo’naltirilgan, o’quv jarayonning ma’lum o’lchovlari yig’indisini bir butun holatda umumlashtiradi.

Kreativ yondoshuv asosida o’qitishning maqsadi - ob’ektiv voqelikni yetarli darajada aks ettiruvchi, faoliyat ko’rsatuvchi, individual tarzda muhandislik kompetentlikni rivojlantirish har bir talabaning shaxsiy maqsadiga aylanadi. O’quv jarayonida talabalarda muhandislik kompetentlikni

rivojlantirish ishlari har bir talabaning ongida bajarilishi kerak va uni boshqa hech kim bajara olmaydi. Lekin bu ish o’ta murakkab va talabadan ko’p energiya talab qiladi. Shuning uchun uning muvaffaqiyati malakali o’qituvchining yordamini talab qiladi[3].

Kreativ yondoshuv talabaning muhandislik kompetentligini rivojlantirish faoliyatini rejalashtirish talabaning o'zi ixtiyoriy qaroriga asoslanishi kerak, talabalarni o'z faoliyatini loyihalash va tashkil etishga undash kerak, chunki ongli tanlov va to'g'ri qaror qabul qilish jarayoni kelajakni tushunishga yordam beradi.

Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlanishida yuqoridagi qayd etilgan o’qituvchi va talabalarning duch keladigan muammo va qiyinchiliklarini bartaraf etishda alohida tashkiliy, pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Zaruriy va yetarlicha shart-sharoitlarni aniqlash uchun biz “shart-sharoit” tushunchasining mohiyatiga diqqat qaratishimiz lozim.

Shart-sharoit deganda metodologlar qandaydir ob’ektning paydo bo’lishi, mavjudligi, o’zgarishi uchun zarur bo’lgan ob’ektlar (munosabatlar, narsalar, jarayonlar va shu kabilar) jamlamasini tushunadilar[4].

Pedagogik shart-sharoitlar dialektik o’zaro bog’langan va bir-birini to’ldiruvchi yetarlicha va zaruriy shart-sharoitlar yig’indisini bildiradi, o’rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab oladi va moslashuvchanlik bilan, ya’ni fanlararo aloqadorlik asosda o’quvchilarning doimiy yangilanib boruvchi talablarini hisobga olish bilan ajralib turadi[5].

Kreativ yondoshuv asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishda talabalarda kreativlik qobiliyatlarini, ya’ni, talabalar tomonidan yangi bilimlarni va aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirishning turli darajalarini, fikrlashning turli darajalarini ham aks ettiradi. O’qituvchi bilan talabaning o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra kreativ yondoshuv asosidagi ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:

2.1-jadval

O‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro munosabati xarakteriga ko‘ra ta’limning darajalari

ta'lim darajalari	Darajalar nomi	O’qituvchi va talaba faoliyati
I daraja	Oddiy nomustaqil faoliyat	talabalarning o'qituvchining tushuntirishlarini idrok etishi, muammoli vaziyatda aqliy harakat modelini o'zlashtirishi, mustaqil ishlarni bajarish, takror ishlab chiqarish xarakteridagi mashqlardir
II daraja	Yarim mustaqil faoliyat	olingan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va talabalarning o'qituvchi bilan birgalikda qo'yilgan ta'lim muammosini hal qilish yo'lini izlashda ishtirok etishi bilan tavsiflanadi
III daraja	Mustaqil faoliyat	reproduktiv-qidiruv tipidagi mustaqil ishlarni bajarishni ta'minlaydi, bunda talaba darslik matini bo'yicha mustaqil ishlaganda, olingan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llaganida o'rtacha hisobdagi muammoning yechimini tuzsa va murakkablik darajasini mantiqiy tahlil orqali farazlarni isbotlasa -bu holda o'qituvchining yordami minimal bo’ladi
IV daraja	Ijodiy faoliyat	ijodiy tasavvurni, mantiqiy tahlilni, yechishning yangi usulini topishni, mustaqil isbotlashni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarishni tavsiflaydi. Bu darajada mustaqil xulosalar va umumlashtirishlar, ixtirolar qilinadi

Kreativ yondoshuvasosidagi ta’lim murakkabligiga ko‘ra turli darajada bo‘lishi, ya’ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq holda tanlanadi[6].

birinchi daraja – o‘z holicha vujudga kelib qolgan muammolar bo‘lib, dars mashgulotlarining turli shakllarida va turli vaziyatlarda surunkali holda vujudga keladi va o‘z yechimini kutadi.

ikkinchi daraja – o‘qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo‘ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

uchinchi daraja – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o‘rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

to‘rtinchi daraja - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o‘zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko‘ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o‘rganadilar. Bu kreativ ta’limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o‘rganadilar. Bu holda talabalar o‘ta faol holatda bo‘ladilar. O‘qituvchi esa kuzatuvchi va ba’zan yo‘naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda muhandislik kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlil metodlari uyg‘unlashtirildi. Metodologik asos sifatida pedagogik tadqiqot usullari, eksperimental sinovlar, so‘rovnomalar, ekspert baholash usullari hamda statistik tahlil usullari tanlandi.

Dars mashg‘ulotlariga kreativ yondoshish muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo‘naltiradi. Talaba tomonidan qiyinchilikning mohiyatini tushunish, agar u o‘rganilgan harakat usullarining obyektiv asoslarini tushunsa va bu asoslarning hal qilinayotgan muammoning haqiqiy shartlariga muvofiqligini kuzata olsa mumkin bo‘ladi[7].

Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlanishning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, yo‘nalishning malaka talablari, talabalar kreativ yondoshuv asosidagi ta’limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o‘z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda Talabalarning muhandislik tafakkurini rivojlanishini tashkil etish metodikasini takomillashtirishda quyidagi didaktik shartlarni belgilab oldik:

Loyihaviy-konstruktorlik sharti - tabiiy va oqova suvlarni tozalash usullari, ishlatiladigan inshootlar, qurilmalar, uskunalar va mexanizmlarning texnologik sxemalari va konstruksiyalarini ishlab chiqish jarayonlarining tartib-qoidalarini, meyor xujjatlarini bilishi shartligini nazarda tutadi;

Tizimlashtirish sharti - muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta’minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

Axborot texnologiyalari sharti - texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqarish faoliyatda va ilmiy-amaliy faoliyatda axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, axborot texnologiyalarining avtomatlashtirilgan tizimlarini kasbiy faoliyati jarayonida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart;

Modellashtirish sharti - suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini modellashtirishning ilmiy asoslarini hamda mazkur tizimlarni iqtisodiy, texnologik va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish usullarini ishlab chiqishda matematik, informatsion va imitatsion modellarni yaratish va tadqiq etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim;

Didaktik ta’minot sharti - talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlanishini tashkil etishda yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi shart. Bu shart o‘qitish samaradlorligining talaba rivojlanish darajasi va unda muhandislik kompetentligining shakllanganligiga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. Bu shartni joriy etishda o‘quv jarayonini talaba bilimlarni mustaqil individual faoliyat jarayonida oladigan tartibda tashkil etish talab qilinadi[8, 9].

Natijaviylik sharti – Muhandislik tafakkurini rivojlantirish dasturining natijasi va samaradorligini tahlil qilish. Bu o‘qitishning shunday tashkiliy shakli va talabaning individual o‘quv faoliyatini boshqarish vositasini tanlash hisoblanadiki, “Muhandislik tafakkurini rivojlantirish dasturi” talabaning individual faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishni ta’minlasin.

Tahlil va natijalar. Bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilishni shunday tashkil etishki, bunda u nafaqat mashg‘ulot yakuni bo‘yicha, balki talabaning o‘quv-biluv jarayonida amalga oshiriladi. Bu shart o‘qitish samaradorligini oshirish va talabada muhandislik kompetentligining rivojlanishida uning individual faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqligini o‘zida aks ettiradi. Bu shartda talabada individuallik asosida muhandislik kompetentlikning uzluksiz o‘sishiga zamin yaratadi va buning uchun talabaning individual faoliyatiga rahbarlik qilish va mashg‘ulot mazmunini tashkil etish talab etiladi.

Kreativ yondoshuv asosida talabalarda muhandislik kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi didaktik sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- motivatsion sharoit: talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishida individual faoliyatning o‘rni va rolini asoslash, talabalarda muhandislik kompetentligini egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- konstruktiv sharoit: talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan talabalarning individual tarzda muhandislik tafakkurini rivojlantirishga ruhiy jihatdan safarbar qilish, individual faoliyatga o‘rgatish, shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodlarini ishlab chiqish;

- tashkiliy-kognitiv sharoit: talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishni tashkil etish usullari va shakllaridan foydalanish; talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning muhandislik tafakkuri imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; muhandislik kompetentlikni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kreativ bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tadbiq etish;

- o‘quv-didaktik va metodik sharoitlar: preativ yondoshuv asosida talabalarda muhandislik kompetentligini rivojlantirish va talabalarning muhandislik tafakkurini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va web texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarning individual tarzda faoliyatini amalga oshirishning uslubiy ta’minotini ishlab chiqish.

- muhandislik tafakkuri sharoiti - talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonida talabalarning muhandislik taffakuri faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan didaktik va pedagogik vositalar, zarur shart-sharoitlarni hamda o‘quv didaktik muhitni vujudga keltirish, zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish[10].

Xulosa va takliflar. Muhandislik ta’limining sifatini oshirish va talabalar kompetentligini rivojlantirish uchun didaktik asoslarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi talabalar muhandislik kompetentligini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot muhandislik ta’limini yanada takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam berdi. Keyingi tadqiqotlar muhandislik kompetentligining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish hamda ularni ta’lim jarayoniga kengroq tatbiq etishga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Axmedov S.A. Muhandislik ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Jo‘rayev B.A., Xodjayev N.T. Muhandislik ta’limining metodologik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi, 2019.
3. Sattarov R.K. Muhandislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy didaktik yondashuvlar. – Toshkent: Sharq, 2021.
4. Hasanov I.I. Muhandislik pedagogikasi va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
5. Qosimov M.X., Tursunov A.B. Muhandislik ta’limida integrativ yondashuvlar. – Toshkent: Ilmiy nashriyot, 2017.
6. Karimov S.M. Muhandislik yo‘nalishidagi oliy ta’limda kasbiy kompetensiyani shakllantirish. – Toshkent: Texnika, 2022.
7. Rasulov N.U. Muhandislik ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti, 2021.
8. Abduqahhorov Sh.T., Yo‘ldoshev I.A. Texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislik fanlarini o‘qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va innovatsiya, 2020.
9. Nurmatov O.N. Muhandislik kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik tamoyillari. – Toshkent: Ma’rifat, 2019.
10. Ismoilov D.M. Muhandislik ta’limida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashning metodologik asoslari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2023.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

O‘UK:378.3(916) (575.1)

Fazilat NURMETOVA
Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi, O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy komunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail:fnurmetova@list.ru

PhD A.Achilov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON - JANUBIY KOREYANING TA’LIM SOHASIDAGI HAMKORLIGI

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekistonning Janubiy Koreya Respublikasi bilan fan-ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorligi tarixini tadqiq etishga qaratilgan. O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi ta’lim, xususan oliy ta’lim aloqalarining rivojlanish tendensiyalari ilmiy, statistika asosida tahlil qilingan. Koreya Respublikasi dunyoda ilm-fan rivojlangan davlatlar qatorida o‘rin olgan mamlakatlardan sanaladi. Shu boisdan, mazkur davlat bilan O‘zbekiston Respublikasining fan va ta’lim sohalarida olib borayotgan hamkorlik aloqalari samarali natija bermoqda.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Janubiy Koreya, ta’lim, Koreyashunoslik, KOICA, YOJU, Puchon, Inxa, Sejong, maktabgacha ta’lim.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ЮЖНОЙ КОРЕИ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация
Данная статья посвешена на изучение истории научно-образовательного взаимодействия Узбекистана с Республикой Южная Корея. Тенденции развития образовательных связей между Узбекистаном и Республикой Корея, в частности высшего образования, проанализированы на основе научных, статистических данных. Республика Корея входит в число стран мира, где наука занимает одно из первых мест среди развитых стран. В связи с этим сотрудничество, которое Республика Узбекистан ведет с этим государством в области науки и образования, даст эффективные результаты.
Ключевые слова: Узбекистан, Южная Корея, образование, Корееведение, KOICA, Ёджу, Пучон, Инха, Седжон, дошкольное образование.

COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA IN THE FIELD OF EDUCATION

Annotation
This article is aimed at studying the history of scientific and educational cooperation between Uzbekistan and the Republic of South Korea. The trends in the development of educational ties between Uzbekistan and the Republic of Korea, in particular higher education, are analyzed on the basis of scientific and statistical data. The Republic of Korea is one of the countries in the world where science occupies one of the first places among developed countries. In this regard, the cooperation that the Republic of Uzbekistan conducts with this state in the field of science and education will yield effective results.
Key words: Uzbekistan, South Korea, education, Korean studies, KOICA,Yoju, Puchon, Inha, Sejong, project, preschool education.

Kirish. O‘zbekiston va Koreya Respublikalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uzoq tarixga borib taqaladi. Janubiy Koreya O‘zbekiston suverenitetini e’lon qilganda birinchilardan bo‘lib davlat mustaqilligini tan olgan va diplomatik aloqalar o‘rnatilgan hamda bugungi kunda izchillik bilan rivojlanmoqda. Ikki davlat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta’lim sohasida ham hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

Metodologiya. Maqolada tarixiylik, qiyosiy-tahlil metodlaridan foydalanib, O‘zbekiston va Koreya Respublikalari o‘rtasidagi ta’lim masalalarida hamkorlik tarixi yoritildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston va Janubiy Koreya Respublikasi madaniy diplomatiya doirasida amalga oshirilgan dastlabki amaliy harakati Toshkentda 1992-yildan boshlab Koreya ta’lim markazining ochilishi bo‘ldi. Koreya elchixonasi qoshida ochilgan mazkur markaz 30 yil davomida mamlakatimiz hududida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Markazning vazifalariga etnik koreys millatiga milliy urf-odat, an’analarini saqlab qolishga ko‘maklashish bilan bir qatorda koreys tili kurslari ham tashkil etilgan. Xususan, markaz ko‘magida “Incheon ta’lim festivali”, “Tabiiy fanlar festivali”, koreys tili bo‘yicha Respublika olimpiadalari o‘tkazilib kelmoqda.

2024-yil 22-noyabrida Koreya Respublikasi elchixonasi qoshidagi Koreya ta’lim markazi direktori Leye Young Woong Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligiga tashrif chog‘ida O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida barcha ta’lim yo‘nalishida ham hamkorlik aloqalari sarhisob qilinib, ta’lim jarayoniga STEM va koreys tili fanidan xalqaro toifadagi o‘qituvchilarni jalb qilish, xalqaro olimpiadalarga o‘quvchilarni tayyorlash, akademik tajriba va milliy-madaniy ma’lumotlar almashishni ko‘zda tutuvchi seminar-treninglarni tizimli tashkil etish kabi masalalar yuzasidan shartnomalar imzolanadi[4]. Bu ikki davlat o‘rtasidagi ta’lim sohasida qo‘shma loyihalarning birinchi yirik yutug‘i hamda keyingi davomiylikda asos bo‘lib xizmat qildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning 7 ta oliy ta’lim muassasasi hamda 48 ta maktab va litseylarida, shuningdek, Sejong maktabida koreys tili o‘rgatilmoqda. O‘zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju universitetlari filiallari hamda Farg‘onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1-fevralda Toshkentda Aju universitetining filiali ochildi[5]. Uzoq yillik ta’lim hamkorligi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys tilining o‘qitilishi bilan boshlangan edi[6].

O‘zbekiston-Koreya ta’lim hamkorligi asosida 1992-yili mart oyida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida dastlab Koreys filologiyasi kafedrasi asos solindi, keyin esa Koreyashunoslik fakultetiga aylantirildi. Fakeltetda Koreya tarixi, tili, adabiyoti, iqtisodi, madaniyati, siyosati to‘g‘risida o‘zbekistonlik talabalarga bilim beriladi [7]. Fakultet va Janubiy Koreyaning nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta’lim sohasida tajriba almashish, ilg‘or ta’lim tizimlarini amaliyotga tatbiq etish, o‘qitish usullarini zamon talabiga mos ravishda yaratish borasida hamkorlik sathi kengaymoqda.

Shuni alohida ta’kidlash muhimki, mustaqil ravishda birinchilardan bo‘lib 2014-yilda Toshkentda INHA universiteti ochilishi mamlakatimizning Janubiy Koreya bilan ta’lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi [11]. Bu xalqaro miqyosda yuqori malakali IT-mutaxassislarni tayyorlaydigan birinchi xorijiy ta’lim muassasasiga aylandi. Bugungi kunda universitetda axborot texnologiyalari, muhandislik va logistika yo‘nalishlari bo‘yicha mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda [8].

Oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikning yangi bosqichi 2018-yil O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda Janubiy Koreyaning Puchon universiteti bilan tuzilgan uch tomonlama shartnomaning imzolanishi bilan boshlandi. Mazkur shartnoma hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni asosida Toshkent shahrida Puchon universiteti ochiladi. Universitet maktabgacha ta’lim, san’at, ijtimoiy fanlar, biznes va menejment, arxitektura singari 26 yo‘nalishda talabalarga tahsil berib kelmoqda[9].

2018-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida Adju Universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida 2020-yilda Toshkent shahrida Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda Adju Universiteti tashkil etildi[9].

O‘z navbatida Janubiy Koreya Respublikasida ham o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Yongin shahridagi Xankuk xalqaro xorijiy tillar universitetida o‘zbek tili bo‘limi faoliyat yuritib kelmoqda. Qolaversa, Janubiy Koreyaning Kvadju shahridagi Xonam universitetida o‘zbek tilini o‘qitish qisqa muddatli kurslari tashkil etilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Koreya oliy o‘quv yurtlarida 200 mingdan ortiq xorijiy talabalar tahsil olishadi. Ulardan 2300 nafari aynan, o‘zbekistonlik talabalardir[11].

Shu bilan birga ikki do‘st mamlakat o‘rtasida talaba almashinuvi dasturlari amal qilib kelmoqda. Agar 2001-2002-yillarda 20 nafar koreyalik talabalar Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida, O‘zbekiston Milliy universitetida ta’lim olib, tajriba almashilgan bo‘lsa, bu raqamlar hozirda 100 da ortiqni tashkil qiladi.

2023-yil Toshkentda ikki davlat oliy o‘quv yurtlari rektorlari Forumi o‘tkazildi. Unda ikki tomonlama ta’lim loyihalarini kengaytirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini ko‘paytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, yoshlarni kasbga o‘qitish, o‘zbekistonlik talabalarni Koreya universitetlarida ta’lim olishi, O‘zbekistonda Koreya universitetlari filiallari faoliyatiga oid bir qator masalalar muhokama qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizning 14 ta ta’lim maskanida Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ko‘ngillilari yordamida koreys tili o‘qitilayotgani, shuningdek, hozirda Koreya oliy ta’lim muassasalarida 8 mingdan ziyod o‘zbekistonlik yoshlar tahsil olayotgani e’tirof etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Janubiy Koreyaning Andong universiteti, Gangneung-Wonju Milliy universiteti, Kyungdong universiteti bilan 2+2 dasturi yo‘lga qo‘yildi. Toshkent davlat transport universiteti Janubiy Koreyaning 9 ta ta’lim muassasasi Kyungil, Keimyung, Daegu, Jeju turizm univesiteti, Kumoh texnologiya universiteti, Andong Milliy universiteti bilan shartnomalar imzoladi.

2024-yilda O‘zbekiston ta’lim, fan va innovatsiya vaziri Q.Sharipov Koreya Respublikasi Milliy assambleyasi kongresmeni Kvon Yonji boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi va o‘zaro kelishivlar asosida “Oliy ta’lim trasfornatsiya, samarali boshqaruv va sifatli ta’limni ta’minlash” va “Iqtisodiy tranformatsiyada kasb-humar ta’limi” hamkorlik memarandumlari ishlab chiqildi.

Xulosa. Hozirgi davrda mamlakatimizda jahon ta’lim makoniga kirib borishga mo‘ljallangan yangi ta’lim tizimining shakllanish jarayoni kechmoqda. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda Koreyaning qator nufuzli oliygohlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Shunday imkoniyatlardan foydalanish ikki davlat manfaatlariga birdek xizmat qilishi shubxasiz.

Yuqoridagi tahlillardan quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

Birinchidan, ikki mamlakatlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalar uzoq o‘tmishga borib taqalishi va dastlabki hamkorliklarning o‘zidayoq ikki tomonnning maqsad hamda fikrlari mushtarak ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Qolaversa, O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar mustahkam ishonchga qurilganligini Koreya O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olganligidan anglash qiyin emas.

Ikkinchidan, Qisqa fursatdan ikki tomonlama aloqalarning ta’lim sohasidagi hamkorligi 1992-yilda Toshkentda Koreya ta’lim markazining ochilishi bilan boshlandi. Ushbu markaz koreys tili kurslarini tashkil etib, xalqaro festivallar va olimpiadalar o‘tkazib kelmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim va universitetlar hamkorligi yuqori ko‘rsatkichlarga olib chiqilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda Koreyaning Inha, Puchon, Yoju va Aju universitetlari faoliyat yuritmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys filologiyasi bo‘yicha ta’lim yo‘lga qo‘yilgan. 2014-yilda Inha universiteti ochilishi ta’lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Janubiy Koreyada ham o‘zbek tili bo‘yicha ta’lim dasturlari joriy qilingan.

Uchinchidan, dual ta’lim, exchenej stady, talaba almashinuvi va ikki tomonlama qo‘shma dasturlar kabi hamkorlikning yangi yo‘nalishlari nafaqat o‘zbek talabalariga, qolaversa koreys talabalariga ham bilim olishda hamda tajriba almashishda qo‘l kelmoqda. Qolaversa, bunday Ikki davlat o‘rtasida talaba almashinuvi dasturlari amalga oshirilishi Koreyaning turli universitetlari bilan shartnomalar asosida akademik tajriba almashuvi va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etishga imkoniyat yaratmoqda. O‘zbekiston va Janubiy Koreya universitetlari o‘rtasida 2+2 dasturlari joriy qilinib, o‘zbekistonlik talabalar jahon darajasidagi xalqaro ta’lim imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim sohasi va innovatsion texnologiyalar borasidagi hamkorlik, Janubiy Koreya maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega. Toshkentda koreys metodikasi asosida faoliyat yurituvchi 324-maktabgacha ta’lim muassasasi tashkil qilingan. KOICA tashkiloti bilan hamkorlikda pedagoglarning salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilgan.

Koreys tilini o‘rganish va o‘qitish bo‘yicha maxsus grant dasturlarini kengaytirish hamda o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun xalqaro sertifikatsiya tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Talaba va o‘qituvchilar uchun qo‘shma innovatsion laboratoriyalar va markazlar tashkil etib, IT va STEM sohalarini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shma loyihalarni kengaytirish orqali zamonaviy dunyoda raqobatbardosh kadrlar zahirasini yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdujabbarov Sh.A., Cooperation between the Republic of Korea and the Republic of Uzbekistan in the development of innovative education. Look to the past. 2021, Special issue 3, pp.133-146
2. Бобожонов Б.Р., Хусаинов Ш.А. Корея Республикасида инновацион салоҳиятни ривожлантириш босқичлари ва унда давлатнинг роли// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил 1-8
3. Маматов Д.О. Ўзбекистон ва Жанубий Корея: ўзаро ҳамкорлик алоқалари ва истиқболлари., Volume 3 | Issue 4 | 2022 707-711., Academic Research in Educational Sciences https://piima.uz/ru/news/koreya-ta-lim-markazi-bilan-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi
4. https://piima.uz/ru/news/koreya-ta-lim-markazi-bilan-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi
5. Oqbo‘tayev I. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi diplomatikmunosabatlar. https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekiston-va-koreya-ortasidagi-diplomatik-munosabatlar
6. Ким Наталья. Развитие Корееведения в Узбекистане: обзор лингвистических исследований. https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2016/11/o%e2%80%98zbekiston-koreya-o%e2%80%98zaro-hamkorlikning-bugungi-kuni-va-istiqbollari.pdf
7. Ниязова Н.М. Узбекистан-Корея: трансформация двусторонних отношений. https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2016/11/o%e2%80%98zbekiston-koreya-o%e2%80%98zaro-hamkorlikning-bugungi-kuni-va-istiqbollari.pdf
8. Janubiy Koreya Prezidenti Toshkent shahridagi Inha universitetiga tashrif buyurdi. https://inha.uz/uz/hukumat/janubiy-koreya-prezidenti-toshkent-shahridagi-inha-universitetiga-tashrif-buyurdi/

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida Puchon universiteti ochish to‘g‘risidagi 02.07.2018 yildagi PQ-3821-son qarori. URL://https://lex.uz/docs/-3804145?ONDATE2=04.07.2023&action=compare
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Toshkent shahrida Adju universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi 30.11.2018 yildagi PQ-4041-son. Qarori. URL://https://www.lex.uz/ru/docs/-4086841
11. O'zbekiston – Koreya Respublikasi: ko'p asrlik do'stlik aloqalariga sodiqlik va alohida strategik sheriklik yo'lida. https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7103-o-zbekiston-%E2%80%93-koreya-respublikasi-ko-p-asrlik-do-stlik-aloqalariga-sodiqlik-va-alohida-strategik-sheriklik-yo-lida.html
12. Bolibekov A.A. Janubiy koreya maktabgacha ta’lim tizimining o’ziga xos xususiyatlari. https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/17308/11957/15214
13. Janubiy Koreya O‘zbekistonda innovatsion bog‘cha tashkil etadi. https://kun.uz/65794935?q=%2F65794935#!
14. Тошкентдаги Ёджу техника институти фаолиятини ташкил этиш бўйича ҳукумат қарори. https://www.gazeta.uz/uz/2019/12/18/yoju-institut/
15. Тошкент шаҳрида Аджу университетини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори https://lex.uz/docs/4086841?ONDATE2=04.07.2023&action=compare
16. «O‘zbekiston–Koreya: o‘zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Toshkent – «Istiqlol» – 2022., 308 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9(575.1)

Aziza ODILJONOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: odiljonova89@gmail.com

ADU dotsenti, PhD O.Qodirova taqrizi asosida

THEORETICAL METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES IN STUDENTS

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations that influence the manifestation of students' creative traits. Various definitions of the concept of creativity, its psychological and pedagogical aspects, as well as factors influencing the formation of creativity are considered. At the same time, methods and techniques for developing creativity, approaches that serve to increase students' creative thinking abilities are discussed. The article examines the views of such scientists as J. Gilford, E. Torrens, S. Mednik on creativity and their application in the modern education system. The study pays special attention to the criteria for diagnosing creativity and assessing it.

Key words: Creativity, creativity, creativity in students, creative thinking, psychological characteristics, methodological foundations, creative approach, educational process, creative ability, innovative education.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методические основы, влияющие на проявление творческих качеств учащихся. Рассматриваются различные определения понятия креативности, ее психолого-педагогические аспекты, а также факторы, влияющие на формирование креативности. При этом обсуждаются методы и приемы развития креативности, а также подходы, способствующие повышению навыков творческого мышления учащихся. В статье рассматриваются взгляды таких ученых, как Дж. Гилфорд, Э. Торренс и С. Медник, на креативность и их применение в современной системе образования. Исследование посвящено диагностике креативности и критериям ее оценки.

Ключевые слова: Креативность, креативность, креативность учащихся, творческое мышление, психологические особенности, методические основы, творческий подход, образовательный процесс, творческие способности, инновационное образование.

TALABALARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO‘LISHINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalar kreativlik xususiyatlarining namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi nazariy va metodologik asoslar tahlil qilinadi. Kreativlik tushunchasining turli ta’riflari, uning psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, kreativlikni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, kreativlikni rivojlantirish usullari va metodlari, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar muhokama qilinadi. Maqolada J. Gilford, E. Torrens, S. Mednik kabi olimlarning kreativlik haqidagi qarashlari va ularning zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda kreativlik diagnostikasi va uni baholash mezonlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, ijodkorlik, talabalarda kreativlik, ijodiy fikrlash, psixologik xususiyatlar, metodologik asoslar, kreativ yondashuv, ta’lim jarayoni, ijodiy qobiliyat, innovatsion ta’lim.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvga ega kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" (2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni) hamda "Ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" (2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-son Qarori) hujjatlarida ta’lim tizimini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish va talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kreativlik shaxsning yangilik yaratish, mavjud stereotiplarni yengib o‘tish va nostandart yechimlarni topish qobiliyatini aks ettiradi. Shu bois, bugungi kunda kreativlik nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki iqtisodiy va texnologik taraqqiyot uchun ham muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kreativ yondashuvni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar bu boradagi tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrda kreativlik tushunchasi turli nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda. V.N. Drujinin kreativlikni tadqiq qilishda to‘rtta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatadi:

Ijod mahsulini o‘rganish (uning miqdoriy va sifat jihatlari, shuningdek, ahamiyati);

Kreativlikni muammolarni stereotipik yondashuvlardan chetlab echish qobiliyati sifatida tushunish;

Kreativlikni shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘lash;

Kreativlikni aqliy jarayon sifatida tahlil qilish, ya’ni ijodiy jarayon bosqichlari va turlarini ajratish [2].

Keng qabul qilingan qarashga ko‘ra, tashqi rag‘batlantirishsiz amalga oshiriladigan ijodiy transformatsion faoliyat maxsus ijodiy qobiliyatlarga asoslanadi, bu esa insonning har qanday faoliyat turida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu yondashuv J. Gilford, E. Torrens, J.A. Ponomaryov va S. Mednik kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali rivojlangan.

J. Gilfordning asarlari e’lon qilinganidan so‘ng, ijod umumiy kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida qarala boshladi. U turlicha fikrlash qobiliyatini kreativlikning asosi deb hisoblagan. Unga ko‘ra, ijodiy fikrlash muammoni hal qilish usullarini o‘zgartirish qobiliyatiga asoslanadi [5].

Gilford kreativlikning to‘rtta asosiy parametrini ajratgan:

1) ravonlik;
2) moslashuvchanlik;
3) o‘ziga xoslik;
4) rivojlanish.

Biroq, zamonaviy tadqiqotlar natijasida uning yondashuvi tor doirada qabul qilinadigan nazariya sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu nuqtai nazarni D.B. Bogoyavlenskaya va R. Sternberg qo‘llab-quvvatlagan. Gilford tomonidan qo‘llanilgan matematik metodlar ham keskin tanqidga uchragan bo‘lib, uning natijalari

boshqa omil modellar orqali tushuntirilishi mumkinligi qayd etilgan [6].

E. Torrens Gilford g‘oyalarini rivojlantirib, kreativlikni kamchiliklar, bilimlardagi bo‘shliqlar va disgarmoniyaga sezgirlik sifatida ta’riflagan. Ba’zi tadqiqotchilar Guilford va Torrens tomonidan ishlab chiqilgan metodlarni kreativlikni o‘lchashga emas, balki aqlni tekshirishga qaratilgan deb hisoblashadi. Natijada, ushbu testlar kreativlik emas, balki intellektni o‘lchashga yaqinlashib borgan [8]. Tadqiqotchilar, jumladan, Heausler & Tompson, Treffinger tomonidan ta’kidlanganidek, ijodiy fikrlash parametrlarining (ravonlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va ishlab chiqish) mustaqil omillar sifatida qaralishi shubha ostiga olingan. Hocevar esa kreativlik testlari faqat ravonlik omilini o‘lchash imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidlagan [7].

S. Mednik esa kreativlikni psixik jarayonlar bilan bog‘lagan. Unga ko‘ra, kreativlik – bu alohida elementlarni vazifaga muvofiq holda yangi kombinatsiyalarga qayta birlashtirish jarayonidir. Mednik tomonidan ishlab chiqilgan RAT (Remote Association Test) testi boshqa kreativlik testlariga qaraganda intellekt, ayniqsa, og‘zaki intellekt bilan kuchli bog‘liqlikka ega bo‘lib, ko‘proq konvergent fikrlashni o‘lchaydi [9].

Turli tadqiqotchilar fikricha, odatiy kreativlik testlari insonning haqiqiy kasbiy faoliyatidagi ijodiy samaradorligini oldindan aniqlash uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. M.A. Xolodnaya ta’kidlaganidek, "javobning nostandartligi yoki kamdan-kamligi mutlaqo turli psixologik hodisalarga asoslanishi mumkin: ba’zan bu subyektning ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini aks ettirsa, ba’zan esa intellektual qobiliyatsizlik yoki shaxsiy ortiqcha kompensatsiya belgisi bo‘lishi mumkin" [10]. V.N. Drujinin ham shunga o‘xshash fikr bildirgan bo‘lib, eng ijodiy deb topilgan javoblar ba’zan be’mani yoki bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar to‘plamidan iborat bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan [2].

Ushbu tadqiqotlar kreativlikni tahlil qilishda turli yondashuvlarning mavjudligini ko‘rsatadi hamda uning turli aspektlarini baholash va o‘lchash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning davom etishi zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarning kreativlik darajasini baholash maqsadida mashhur psixologik diagnostika usullari – Torrens ijodiy fikrlash testi va Guilford divergent fikrlash testi qo‘llanildi. Ushbu testlar talabalarning kreativlik ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan ushbu test kreativ tafakkurning asosiy jihatlarini – muammoni ilg‘ash, nostandart echimlarni izlash va yangilik yaratish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Test davomida talabalar quyidagi mezonlar bo‘yicha baholandi:

Ravonlik – berilgan topshiriqlarga javoblar soni.

Moslashuvchanlik – fikrlashning moslashuvchanligi, ya’ni muammoni turli nuqtai nazardan hal qila olish qobiliyati.

Originallik – nostandart va kutilmagan yechimlarni topish darajasi.

Rivojlanganlik – tafsilotlarga e’tibor qaratish va g‘oyalarni batafsil izohlash qobiliyati.

Test natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori kreativlik darajasiga ega talabalar o‘z javoblarida original va moslashuvchan fikrlash qobiliyatlarini namoyon etdilar. O‘rtacha va past darajadagi talabalar esa odatiy yoki oldindan taxmin qilinadigan echimlarni taklif qilishga moyil bo‘ldilar.

J. Guilford tomonidan ishlab chiqilgan test talabalar kreativligini baholashda muhim vosita bo‘lib, u asosan divergent fikrlash qobiliyatlarini o‘lchashga qaratilgan. Guilford testining asosiy parametrlari:

Divergent fikrlash tezligi – muammoni hal qilish bo‘yicha berilgan javoblarning soni.

Moslashuvchanlik – har xil kategoriyalardagi muammolar uchun turli usullarni qo‘llash qobiliyati.

Originallik – kam uchraydigan va noodatiy fikrlarni ilgari surish qobiliyati.

Mukammallik – taklif qilingan g‘oyalarning mukammalligi va tafsilotlarga boyligi.

Test natijalariga ko‘ra, yuqori kreativlik darajasiga ega talabalar berilgan topshiriqlarga ko‘plab original yechimlarni taklif qilishdi. Moslashuvchanlik va originallik bo‘yicha yuqori ball to‘plagan talabalar o‘z g‘oyalarini izchil bayon eta oldilar. O‘rtacha kreativlik darajasidagi talabalar esa odatiy va an’anaviy yechimlarga suyanishgan.

Tahlil va natijalar. Talabalarda kreativlik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha Torrens va Guilford testlari natijalarining Pirson korrelyatsion tahlili:

Jadval 1. Torrens va Guilford testlari mezonlari natijalarining o‘zaro bog‘liqligi (Pirson bo‘yicha korrelyatsiya koeffitsiyentlari)

Mezonlar	Ravonlik	Moslashuvchanlik	Originallik	Rivojlanganlik
Ravonlik	1.00	0.68	0.55	0.47
Moslashuvchanlik	0.68	1.00	0.72	0.61
Originallik	0.55	0.72	1.00	0.65
Rivojlanganlik	0.47	0.61	0.65	1.00

Yuqoridagi jadvalda Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari (r) keltirilgan bo‘lib, ular talabalarning kreativlik mezonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi:

Ravonlik va moslashuvchanlik (r = 0.68) o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu kreativ fikrlashda muammolarni turlicha yondashuv bilan hal qilish qobiliyatining muhimligini ko‘rsatadi.

Moslashuvchanlik va originallik (r = 0.72) o‘rtasida yuqori bog‘liqlik aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, nostandart fikrlar yaratish qobiliyati fikrlashning moslashuvchanligi bilan bevosita bog‘liq.

Originallik va rivojlanganlik (r = 0.65) o‘rtasidagi bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, ijodiy g‘oyalarning chuqurroq ishlab chiqilishi ularning original bo‘lishiga ta’sir qiladi.

Ravonlik va rivojlanganlik (r = 0.47) o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rtacha darajada bo‘lib, kreativ javoblarning miqdori ularning chuqur tafsilotlarga ega bo‘lishini to‘liq belgilab bermasligini anglatadi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning kreativlik darajasi o‘zaro bog‘liq mezonlardan tashkil topgan bo‘lib, moslashuvchanlik va originallik eng muhim omillar hisoblanadi. Korrelyatsion tahlil natijalari asosida kreativlikni rivojlantirishda divergent tafakkur mashqlaridan foydalanish muhimligi ta’kidlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativlik xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga shaxsiy xususiyatlar, ta’lim muhiti va pedagogik yondashuvlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Kreativ tafakkurning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lmish ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va rivojlanganlik talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini baholashda muhim mezonlar hisoblanadi.

Talabalarning kreativ fikrlash darajasi ularning individual psixologik xususiyatlari va ta’lim jarayonida rag‘batlantirilish darajasiga bog‘liq.

Guilford va Torrens testlari natijalari kreativlikning turli jihatlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, moslashuvchanlik va originallik o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda kreativlikni rag‘batlantirish talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va innovatsion fikrlashga yo‘naltirish imkonini beradi.

Kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini keng qo‘llash, dars jarayonlarida ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlardan hamda talabalarni erkin fikrlashga va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Talabalarning kreativlik darajasini baholash va rivojlantirish tizimini shakllantirish, talabalar kreativligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va kurslarni ishlab chiqish lozim. Kreativ tafakkur mezonlarini baholash uchun ilmiy asoslangan test va metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, talabalar uchun mustaqil tadqiqot va loyihalar bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga innovatsion markazlar, kreativ laboratoriyalar va startap platformalarini tashkil etish orqali ijodiy g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda kreativ pedagogik metodlarni qo‘llash bo‘yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etish va ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interfaol vositalarni keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kreativlikni rag‘batlantirish orqali talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bogoyavlenskaya, D. B. (2007). Psikhologiya tvorchestva [Psychology of Creativity]. Moscow: PER SE.
2. Drujinin, V. N. (2007). Psikhologiya obshchikh sposobnostey [Psychology of General Abilities]. St. Petersburg: Piter.
3. Heausler, N. L., & Thompson, B. (1988). "Structure of the Torrance Tests of Creative Thinking." Educational and Psychological Measurement, 48(2), 463–468.
4. Hocevar, D. (1979). "The Unidimensional Nature of Creative Thinking in Fifth-Grade Boys and Girls." Educational and Psychological Measurement, 39(3), 725–735.
5. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.
6. Sternberg, R. J. (2005). Creativity or creativities? International Journal of Human-Computer Studies, 63(4-5), 370-382.
7. Treffinger, D. J. (1986). Research on Creativity: A Review of Selected Trends. Sarasota, FL: Center for Creative Learning.
8. Torrance, E. P. (1962). Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
9. Mednick, S. A. (1962). "The associative basis of the creative process." Psychological Review, 69(3), 220–232.
10. Xolodnaya, M. A. (2002). Kognitivnye stili: O prirode individual’nogo uma [Cognitive styles: On the nature of individual intelligence]. Moscow: Per Se.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDC: 316.32

Yulduz OTANAZAROVA,
Sunmoon university - MA in Political science, independent researcher of UWED
E-mail: yulduz.otanazarova@gmail.com
Gulrux DJURAYEVA,
(UWED lecturer), PhD in Political problems of international relations, global and regional development

Viewer: Ibragimov U.M. PhD, docent, Bukhara engineering technological institute

ECONOMIC AND CULTURAL FACTORS INFLUENCING SKILLED MIGRATION BETWEEN CHINA AND TAIWAN

Annotation

This study explores the economic, political, and cultural factors influencing skilled migration between China and Taiwan. Skilled migration, which includes professionals and highly educated individuals, plays a vital role in shaping the economic landscapes of both regions. By analyzing wage disparities, career advancement opportunities, political tensions, government policies, and cultural integration challenges, the study uncovers key motivators and barriers for skilled workers considering migration. Economic opportunities, particularly in high-tech industries, are identified as major drivers for professionals moving between China and Taiwan. However, political and institutional barriers, including cross-strait tensions and immigration policies, significantly affect migration patterns. Additionally, cultural factors, such as work-life balance, family considerations, and social integration, further influence migration decisions. The study’s findings highlight the complexities of skilled migration, emphasizing the importance of understanding both economic incentives and the social and political context when analyzing migration flows between these two regions.

Key words: Skilled migration, China, Taiwan, economic factors, political factors, cultural factors, cross-strait relations, immigration policies, career opportunities, social integration, labor market, government policies.

XITOY VA TAYVAN O‘RTASIDAGI MALAKALI MIGRATSIYAGA TA’SIR QILUVCHI IQTISODIY VA MADANIY OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Xitoy va Tayvan o‘rtasidagi malakali migratsiyaga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarni o‘rganadi. Malakali migratsiya, jumladan, mutaxassislar va yuqori ma’lumotli shaxslar, har ikki hududning iqtisodiy manzaralarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ish haqi farqlari, kariyerada rivojlanish imkoniyatlari, siyosiy tarangliklar, hukumat siyosatlari va madaniy integratsiya qiyinchiliklarini tahlil qilish orqali tadqiqot, migratsiyani ko‘rib chiqayotgan malakali ishchilar uchun asosiy motivatorlar va to‘siqlarni aniqlaydi. Iqtisodiy imkoniyatlar, ayniqsa yuqori texnologiyalar sanoatida, Xitoy va Tayvan o‘rtasida harakatlanayotgan mutaxassislar uchun asosiy motivatsiya omillari sifatida aniqlanadi. Biroq, siyosiy va institutiyaviy to‘siqlar, shu jumladan, torlararo tarangliklar va immigratsiya siyosatlari migratsiya yo‘nalishlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ish va shaxsiy hayot balansini saqlash, oilaviy masalalar va ijtimoiy integratsiya kabi madaniy omillar migratsiya qarorlariga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari malakali migratsiyaning murakkabligini ko‘rsatib, iqtisodiy rag‘batlar va ijtimoiy-siyosiy kontekstni tushunishning ahamiyatini ta’kidlaydi, chunki bu ikki hudud o‘rtasidagi migratsiya oqimlarini tahlil qilishda zarurdir.

Kalit so‘zlar: Malakali migratsiya, Xitoy, Tayvan, iqtisodiy omillar, siyosiy omillar, madaniy omillar, torlararo aloqalar, immigratsiya siyosatlari, kariyera imkoniyatlari, ijtimoiy integratsiya, mehnat bozori, hukumat siyosatlari.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КВАЛИФИЦИРОВАННУЮ МИГРАЦИЮ МЕЖДУ КИТАЕМ И ТАЙВАНЕМ

Аннотация

Данное исследование изучает экономические, политические и культурные факторы, влияющие на миграцию квалифицированных кадров между Китаем и Тайванем. Миграция квалифицированных кадров, включающая профессионалов и высокообразованных специалистов, играет важную роль в формировании экономических ландшафтов обеих регионов. Анализируя различия в заработных платах, возможности карьерного роста, политическую напряженность, государственную политику и проблемы культурной интеграции, исследование выявляет ключевые мотиваторы и барьеры для квалифицированных работников, рассматривающих миграцию. Экономические возможности, особенно в высокотехнологичных отраслях, являются основными движущими силами для профессионалов, перемещающихся между Китаем и Тайванем. Однако политические и институциональные барьеры, включая напряженность в отношениях через Тайваньский пролив и иммиграционную политику, существенно влияют на миграционные потоки. Кроме того, культурные факторы, такие как баланс между работой и личной жизнью, семейные соображения и социальная интеграция, также оказывают влияние на решения о миграции. Результаты исследования подчеркивают сложность миграции квалифицированных кадров, акцентируя важность учета как экономических стимулов, так и социально-политического контекста при анализе миграционных потоков между этими двумя регионами.

Ключевые слова: Квалифицированная миграция, Китай, Тайвань, экономические факторы, политические факторы, культурные факторы, отношения через Тайваньский пролив, иммиграционная политика, карьерные возможности, социальная интеграция, рынок труда, государственная политика.

Introduction. The flow of skilled migrants between China and Taiwan has been a significant aspect of their historical, social, and economic interactions. Despite the political complexities and geographical proximity, there has been considerable movement of people across the Taiwan Strait, particularly in the context of skilled labor. This migration is driven by a mix of economic incentives, cultural factors, and societal considerations. In this article, we will explore the economic and cultural factors that influence the migration of skilled individuals between China and Taiwan. Economic opportunities are a central driving force behind skilled migration between China and Taiwan. Both regions have experienced rapid

economic growth over the last few decades, but they differ significantly in their industrial structures and economic landscapes. The disparity in income levels and cost of living is another factor influencing skilled migration [1]. Taiwan, with its higher cost of living relative to many Chinese cities, may push some Taiwanese professionals to seek opportunities in mainland China, where certain urban centers offer a similar or better standard of living for a lower cost. On the other hand, the higher wages and benefits available in Taiwan’s high-tech sector may continue to attract skilled professionals from mainland China, especially for those seeking opportunities in Taiwan’s top industries. The political divide between China and Taiwan plays a significant role in shaping migration patterns. Despite the proximity and shared cultural roots, the historical and ongoing political tensions create a complex environment for migration [2]. Taiwan is often seen as offering a better work-life balance, with less intense work pressures than major cities in China, such as Beijing or Shanghai.

Research methodology. The study of skilled migration between China and Taiwan, driven by both economic and cultural factors, requires a multi-faceted approach that combines both qualitative and quantitative research methods. This mixed-methods methodology will allow for a comprehensive understanding of the various dynamics that influence migration patterns, while also providing empirical evidence and insights into the factors at play. The following outlines the methodological framework adopted for this study. This study adopts a descriptive research design to explore and analyze the key economic and cultural factors influencing skilled migration between China and Taiwan. The goal is to understand the patterns, motivations, and challenges of migration, as well as the role that government policies, economic conditions, and cultural factors play in shaping these patterns. A structured questionnaire will be developed and distributed to skilled professionals currently residing in Taiwan and China. These individuals will be targeted based on their employment in key sectors such as technology, healthcare, finance, and engineering. For the survey, the sampling will be stratified based on occupation, ensuring that responses are gathered from key sectors that are central to the migration flow, such as technology, engineering, finance, and healthcare. For the in-depth interviews, snowball sampling will be used, starting with a few individuals who have firsthand experience of skilled migration [3]. These individuals will then refer others who have similar experiences, ensuring that the sample reflects a diverse range of perspectives and experiences.

Table 1. An analytical comparison of the economic and cultural factors influencing skilled migration between China and Taiwan

Factor	China	Taiwan
Economic Opportunities	- Rapid economic growth, especially in high-tech, finance, and manufacturing sectors. - High wages in top-tier cities like Beijing, Shanghai, Shenzhen. - Large and diverse labor market offering various opportunities.	- Strong presence in high-tech sectors (semiconductors, ICT), especially in industries like TSMC. - Competitive salaries in tech-related industries, though overall salaries may be lower than in China’s Tier 1 cities. - Smaller labor market but highly specialized industries attract skilled professionals.
Career Advancement	- China offers more opportunities for rapid career progression, especially in the tech and e-commerce sectors. - Large and dynamic economy creates faster pathways to managerial roles.	- Taiwan offers career growth opportunities but in a smaller, more specialized market. - Professionals in industries like semiconductor manufacturing have excellent prospects for advancement.
Cultural Integration	- Chinese migrants to Taiwan may experience challenges in adapting to Taiwan’s more liberal social norms and work culture. - Tensions over political identity can create barriers to social integration.	- Taiwanese migrants to China may struggle with adapting to the collectivist, hierarchical work culture in China. - Differences in family values and social structures can also affect integration into mainland Chinese society.

This mixed-methods approach will provide a comprehensive understanding of the factors influencing skilled migration between China and Taiwan, combining both statistical rigor and in-depth qualitative insights. By utilizing a combination of surveys, interviews, and secondary data analysis, the study aims to provide a nuanced, multi-dimensional view of skilled migration flows and the factors that shape them. The findings will contribute valuable knowledge to policymakers, businesses, and academics interested in labor migration, cross-strait relations, and global workforce trends [5].

Analysis of literature. The study of skilled migration between China and Taiwan has been explored across a range of academic disciplines, including economics, sociology, political science, and international relations. The migration of highly skilled workers is an important phenomenon that influences the global labor market, economic development, and bilateral relations between countries. A comprehensive literature review on this topic reveals key themes surrounding economic factors, political tensions, cultural dynamics, and government policies that shape skilled migration patterns between China and Taiwan. In contrast, Chang and Liu (2018) argue that Taiwan’s economic model—centered around high-tech industries like semiconductor manufacturing—has also made it an attractive destination for skilled workers. Taiwan’s semiconductor industry is renowned globally, and firms like TSMC continue to drive demand for talent in fields such as engineering, materials science, and technology [6]. However, while Taiwan remains a technological hub, Wang (2020) notes that Taiwan's labor market is smaller compared to China’s, and this disparity in labor demand and supply may push Taiwanese workers to seek opportunities in China, where there is a larger and more diverse labor market. The economic disparity in wages between Taiwan and China is another critical factor. Lin and Chen (2019) highlight that salaries in high-demand industries such as IT and finance are often higher in China’s Tier 1 cities, despite Taiwan's advanced technological sector. This wage differential often acts as an incentive for Taiwanese professionals to migrate to China for better compensation packages. The pull of greater financial rewards in mainland China has thus become an essential consideration for skilled workers in Taiwan [7].

The political environment is a key factor influencing migration flows, especially given the unique political relationship between China and Taiwan. Zhang (2016) points out that Taiwan’s strict immigration policies for Chinese nationals and the political tensions between the two regions significantly affect skilled migration. Despite Taiwan’s relative openness to skilled professionals from other countries, its policies toward China have been more restrictive [9].

Discussion and results. The findings of this study provide a nuanced understanding of the factors influencing skilled migration between China and Taiwan. By analyzing both qualitative and quantitative data, we have uncovered key trends, patterns, and insights into how economic, political, and cultural factors drive skilled migration between the two regions. The political environment between Taiwan and China remains one of the most complex and influential factors in skilled migration. Although both regions have policies designed to attract skilled talent, the political divide remains a barrier for many workers. The survey results revealed that 48% of Taiwanese professionals view China’s political landscape, including issues related to the One-China Policy and cross-strait tensions, as a significant deterrent to migration. Similarly, 56% of Chinese nationals indicated that Taiwan’s political separation and ongoing geopolitical tensions affected their willingness to migrate, even though Taiwan’s economic environment was appealing. Interviewees who had migrated to China expressed concern about the political environment but also acknowledged the economic benefits that far outweighed their concerns. In contrast, those who had moved to Taiwan or were considering migration to Taiwan noted the challenges posed by the island's immigration policies [10]. Taiwan's immigration system, despite being relatively open to skilled professionals, has stringent visa requirements for Chinese nationals, which some respondents perceived as an obstacle to

their professional opportunities. Cultural factors also play a significant role in skilled migration decisions. While both China and Taiwan share a common cultural heritage, including the use of Mandarin Chinese, the study revealed that cultural differences, particularly in work-life balance and social integration, influence migration choices. The survey found that 36% of Taiwanese professionals felt that the work culture in China—characterized by long working hours and intense competition—was less attractive compared to Taiwan’s relatively balanced work-life environment. However, the data also showed that cultural integration is not always a smooth process. Around 29% of Taiwanese respondents in China mentioned difficulties in adapting to the mainland's collectivist social structure and the intensity of the work environment. Similarly, 22% of Chinese migrants in Taiwan reported facing challenges in understanding and adapting to local Taiwanese culture [11]. Both China and Taiwan have adopted various policies aimed at attracting skilled professionals. Taiwan's "Act for the Recruitment and Employment of Foreign Professionals" and China’s “Thousand Talents Program” are central to these efforts. The survey data indicated that 41% of Taiwanese professionals were aware of Taiwan’s talent attraction programs, but only 18% had used them, citing bureaucratic barriers and the complexity of immigration procedures. Similarly, 35% of Chinese professionals were aware of China's talent recruitment initiatives, but many noted that political factors still influenced their decisions.

Conclusion. This study has explored the economic, political, and cultural factors influencing skilled migration between China and Taiwan. By examining both the push and pull factors from a multi-dimensional perspective, the research has provided valuable insights into the complex dynamics driving migration patterns between the two regions. Economically, the results highlight that better career opportunities, higher wages, and access to burgeoning industries are key motivators for skilled workers. Taiwan’s advanced technological sectors, particularly in semiconductor industries, and China’s rapid economic growth, especially in high-tech fields, create significant pull factors for skilled professionals. However, despite the opportunities, the political tensions between China and Taiwan remain a considerable barrier, often complicating migration decisions. Taiwanese professionals are wary of moving to China due to the political climate and concerns about national security, while Chinese professionals face challenges related to Taiwan’s immigration restrictions.

REFERENCES

1. Zhao, X. (2018). China’s Thousand Talents Program and its Impact on Skilled Migration. Global Talent Migration Journal, 7(1), 51-67.
2. Zhang, F. (2016). Political Tensions and Migration: The Impact of Cross-Strait Relations on Skilled Migration. Asian Political Science Review, 8(2), 120-135.
3. Wu, P., & Chang, H. (2019). Social Integration and Skilled Migration: A Comparative Study of Migrants in Taiwan and China. Journal of Social Integration, 22(3), 143-158.
4. Chang, Y., & Liu, W. (2018). Economic Aspects of Migration: Taiwan’s High-Tech Industry and the Impact on Skilled Labor Mobility. Journal of Economic Migration, 12(3), 45-67.
5. Chen, H. (2020). Skilled Labor Migration in the Greater China Region: Trends and Implications. East Asian Economic Review, 23(4), 301-320.
6. Chou, W. (2015). Cultural Identity and Migration: The Case of Skilled Workers from Taiwan to China. Asian Journal of Social Sciences, 42(2), 119-137.
7. Huang, Q. (2020). Political Barriers to Skilled Migration: A Case Study of Cross-Strait Migration between China and Taiwan. International Relations and Politics, 15(1), 33-49.
8. Kuo, S. (2018). Family and Social Ties in Migration Decisions: The Role of Family Networks in Skilled Migration. Social Science Research, 11(2), 71-89.
9. Lee, J. (2021). Education, Employment, and Migration: The Influence of Taiwan’s Higher Education System on Skilled Migration to China. Journal of Education and Migration, 8(1), 27-43.
10. Lin, J. (2020). The Role of Skilled Migration in Economic Cooperation: The Case of the Taiwan-China Technology Sectors. Journal of Asian Economic Integration, 5(2), 88-105.
11. Lin, Z., & Chen, D. (2019). Wages and Opportunities in Skilled Migration: A Comparative Analysis of Taiwan and China. International Journal of Labor Economics, 25(4), 122-138.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:370.2

Jamshid OCHILOV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali direktori, PhD, dotsent
E-mail: j.ochilov@gmail.com

Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent X.Djurakulov taqrizi asosida

JAMIYATGA ANTROPOGEN VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYALAR TA’SIRINING ONTOLOGIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar diferensiallashuvi, integratsiyalashuvi va globallashuvi jarayonlari birligining texnogen madaniyat strukturasiga jiddiy ta’siri hamda jamiyat taraqqiyotining subyektiv omillari tizimida anropogen omillarning barcha sohalarda ustuvorlashuvi bilan bog‘liq ontologik talqini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Antropogen sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat, texnogen sivilizatsiya globallashuvi.

ОНТОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ АНТРОПОГЕННЫХ И ТЕХНОГЕННЫХ ЦИВИЛИЗАЦИЙ НА ОБЩЕСТВО

Аннотация

В статье анализируется существенное влияние единства процессов дифференциации, интеграции и глобализации социальных, экономических, политических и культурных отношений, возникших в более поздние исторические периоды развития общества, на структуру техногенной культуры, а также ее онтологическая интерпретация, связанная с приоритетностью антропогенных факторов всех сфер в системе субъективных факторов общественного развития.

Ключевые слова: Антропогенная цивилизация, техногенная цивилизация, технологическая культура, глобализация техногенной цивилизации.

ONTOLOGICAL INTERPRETATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC AND TECHNOGENIC CIVILIZATIONS ON SOCIETY

Annotation

This article analyzes the significant impact of the unity of the processes of differentiation, integration and globalization of social, economic, political, and cultural relations that have arisen in the later historical periods of the development of society on the structure of technogenic culture, as well as its ontological interpretation related to the prioritization of anthropogenic factors in all spheres in the system of subjective factors of social development.

Key words: Anthropogenic civilization, technogen civilization, technological culture, globalization of technogen civilization.

Kirish. Dunyoni o‘zgartirish va tabiatni insonga bo‘ysundirish g‘oyasi texnogen sivilizatsiyaning ilk davridan to hozirgi bosqichigacha ustuvor bo‘lib kelgan va tevarak-atrofga bo‘lgan bunday faol munosabat ijtimoiy munosabatlar sohasida ham o‘z ifodasini topmoqda. Jahonda texnogen, antropogen sivilizatsiyalar globallashuvi jarayonining chuqurlashuvi borasida ilmiy izlanishlarga, ayniqsa ushbu jarayonlarni ontologik yondashuv asosida tadqiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Texnogen sivilizatsiya davriga kelib, ya’ni so‘ngi yillarda jahon miqyosida atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o‘zgarib borayotganligi uning salbiy oqibatlari namoyon bo‘layotganligi haqidagi o‘ta tashvishli ma’lumotlar keltirilmoqda. “Iqlim o‘zgarishlarining oqibatini Markaziy Osiyo o‘tkir his qilmoqda”[1]. Iqlimning o‘zgarishi tabiiy, antropogen omillar ta’sirida ro‘y beradi. Antropogen omillarga esa aholining soni va uning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati tufayli iqlimiy sharoitga ko‘rsatiladigan ta’siri kiradi.

Jamiyat rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar diferensiallashuvi, integratsiyalashuvi va globallashuvi jarayonlari birligi texnogen madaniyat strukturasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, uning antropotexnogen faoliyat yo‘nalishlarini konkretlashtirdi. Hozirgi kunda esa bu jarayonlar yanada kuchayib, jamiyat taraqqiyotining subyektiv omillari tizimida – texnologik inson omilining barcha sohalarda ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo‘lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqotda ilmiy va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Zamonaviy tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy maqolalaridan tahlillar uchun foydalanildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, farmon va qarorlari, B.O.Turayev, M.X.Ergasheva, B.U.Rahmonov, Z.O.Muminova, J.A.Ochilovlar tomonidan nashr etilgan monografiya, A.N.Palenkoning («Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema // Voprosi filosofii. №7. 2002. S. 71.) maqolalarining tahlili keltirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, ilmiy, tarixiy yondoshuv, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ontologiya, gnoseologiya va mantiq masalalari bilan tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirish, jamiyatga antropogen va texnogen sivilizatsiyalar ta’sirining ontologik talqini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Natijalar va muhokama. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniyat fenomeni paradigmalari va funksional maqomi o‘zgarishlarini, yangi xususiyatlari, sifatlari namoyon bo‘lishini e’tiborga olib, uning ta’riflarini “tahrir qilishni” taqozo etmoqda. Xususan, hozirgi kunda global muammolar keskinlashuvi bilan, uning ta’rifida insonning borliqni o‘zgartirishi emas, balki uni qayta tiklash, barqarorligini muhofaza qilishdan iborat texnologiya madaniyati texnogen sivilizatsiyaning hozirgi rivojlanish bosqichi xususiyatini aniqlash mezonlari tizimida ustuvorlashib borishi tasodifiy emas.

Texnogen sivilizatsiya globallashuviga texnologik madaniyat ta’sirini o‘rganishning asosiy maqsadi – kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Chunki texnologik ilmiy dunyoqarash, ularning ma’naviy qiyofasini (hatto, moddiy turmush tarzini) belgilaydi va muhim regulyativ funksiyani bajaradi. Bunda texnologik madaniyatning texnogen sivilizatsiyaga ta’siri kompleks-sistemaliligi va universalligi boshqa madaniyat shakllarini integratsiyalashtiruvchi imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bunda asosiy masala “tabiat-

jamiyat-inson” munosabatida insonning texnik-texnologik ta’sir imkoniyatini – mazkur tizim barqarorligini ta’minlovchi omilligini e’tirof etishdir. Xususan, insonning “texnologik ma’naviy sifatlari”ni yuksaltirish orqali borliqqa antropotexnogen ta’sirini boshqarish masalasida yakdillik kuzatilmoqda. XX asrning 60-70-yillarida G‘arbda tarkib topgan va rivojlangan Rim klubi “yangi gumanizm” kontsepsiyasidagi insonning ichki, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, jamiyat transformatsiyasi va sivilizatsiyalar keyingi taraqqiyotini ta’minlashi haqidagi fikrlar “ongda inqilob yuz berishi”, insonning o‘z-o‘zini takomillashtirishi g‘oyalari asosida shakllandi.

Texnogen sivilizatsiyaning shakllanishida turli fanlarning, amaliy faoliyatlarning ekologiyalashish tendensiyalari tarixini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega[2]. Tabiatni muhofaza qilish muammolari tarixiga doir ilmiy tadqiqot ishlari miqdori ortib bormoqda, ulardan kompleks texnogen dasturlarni ishlab chiqishda qo‘llanilish imkoniyatlari kengaymoqda. Boshqa tomondan, tabiat insonga, uning rivojlanishiga turli-tuman ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir kuchi (ayniqsa, insonning antropotexnogen ta’siri natijasida vujudga kelgan «noklassik» sun’iy tabiatning) aniq namoyon bo‘lishi, qoldiradigan izlari va boshqalariga ko‘ra turlichadir. Bu ta’sirning tabiiy yo‘naltirilganligi shu bilan belgilanadiki, tabiat-kishilar hayoti va faoliyatining asosi, ular har tomonlama rivojlanishining manbaidir. A.N.Palenkoning yozishicha, «Ma’lum ma’noda, texnogen inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyobligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg‘onish davridan boshlab ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir»[3]. Bu fikrga to‘la qo‘shilamiz.

Hozirgi davrda ilm-fan taraqqiyoti, sanoat, qishloq xo‘jaligi, avtotransport, maishiy hayot infrastrukturasi rivojlanishi, aholi soni oshishi va boshqa ijtimoiy sohalar rivojlanishi tabiiy resurslardan ko‘proq foydalanish texnik-texnologik asoslarini takomillashtirini taqozo qilmoqda. Natijada sivilizatsiyalarning moddiy asosi bo‘lgan o‘simliklar va hayvonot dunyosiga, yer osti boyliklari, tuproq, atmosfera va gidrosferaga jiddiy ta’sir etmoqda. 2017 yil Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlanganidek: “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq", degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q[4]” “Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq xatarlarni qisqartirish, barqaror bioxilma-xillik va transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini qayd etib, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash sohasida majburiyatlar to‘g‘risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi”[1].

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi jarayonida turli fanlarni insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalashtirish) maqsadi doirasida integratsiyalashuvi va differensiyallashuvi, uning quyidagi asosiy tamoyillarini va rivojlanish tendensiyalarini belgilab bermoqda:

-birinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuv jarayonining tarixiy-retrospektiv asoslarini ijtimoiy munosabatlar va fanlar tizimi kontekstida kompleks-sistemali tahlil qilish ilmiy xulosalar chiqarishning asosiy shartidir. Zero, texnogen sivilizatsiyaning intellektual asoslari, bir tomondan, uning natijasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, keyingi rivojlanishi (itegratsiyalashuvi va differensiatsiyalashuvi) imkoniyati hisoblanadi;

-ikkinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganuvchi fanlar tarixiga bevosita aloqador bo‘lib, bir tomondan, tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning “faoliyat taqsimoti” – differensiallashuvi jarayonida, ularning maqomi va funksiyasi konkretlashmoqda. Ikkinchi tomondan, turli fanlarning texnogen jihatlari tarixini kompleks-sistemali o‘rganish asosida yangi bilim sohalari shakllanishi, ularning “kooperatsiyalashuviga” olib kelmoqda;

-uchinchidan, hozirgi davrda fan, texnika, texnologiya sohalari tarixiga doir tadqiqotlarning bir butun kompleksi shakllanishi va rivojlanishi xarakterlidir. Zero, bir tomondan, texnogen sivilizatsiya globallashuvi hodisasi turli fan sohalarining tadqiqot obyekti droirasiga kiritilib, ularning integratsiyalashuvini taqozo qiluvchi omilga aylanmoqda. Ikkinchi tomondan, texnogen sivilizatsiya tarixini kompleks-sistemali o‘rganish jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini determinlashtiruvchi va harakatlantiruvchi motivlarni, mexanizmlarni aniqlashga xizmat qiladi;

-to‘rtinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvini umuminsoniyat manfaatlariga mos yo‘naltirish uchun ilmiy bilish jarayonida fundamental nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda Chunki, bir tomondan, har qanday nazariyaning ahamiyati amaliyotda qo‘llanilish samaradorligini belgilovchi metodologiyada namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, mustaxkam nazariya va metodologiyaga tayangan amaliyot yangi g‘oyalar, nazariyalar vujudga kelishiga asos bo‘ladi va ularning hayotiyligi, istiqboli realligi kafolati, mezoni hisoblanadi;

-beshinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining salbiy oqibatlari oldini olishga keng jamoatchilikni jalb qilish uchun, ularni axborot bilan ta’minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, bir tomondan, texnogen sivilizatsiya subyektlarining bu jarayonga ta’sir qilish institutsional tizimi potensial imkoniyatlarini va intellektual salohiyati darajalarini e’tiboga olish, ikkinchi tomondan, uni ommaga transformatsiya qilishning moddiy-texnik asoslarini, targ‘ibot-tashviqot texnologiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Global muammolarga umuminsoniyat texnogen sivilizatsiyasi manfaatlari kontekstida yondashilganda, ularni bartaraf qilishning, nisbatan mukammal va universal nazariy-metodologik asosi yaratiladi. Chunki har qanday fan sohasi texnogen sivilizatsiyaga bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lganligidan, ularning integratsiyalashuvi umumiy nazariya va metodologiyani taqozo qiladi. Bunda asosiy masala fanlarning texnogen sivilizatsiya globallashuvida individual ta’sir yo‘nalishlarini va funksional ahamiyatini zamonaviy tendensiyalar, tamoyillarga mos tarzda aniqlashdan iborat, ya’ni fanlarning texnogen sivilizatsiya bilan aloqadorligi: 1) fanlarning texnogen sivilizatsiya darajasini belgilovchi mezon maqomi ustuvorlashib, boshqa elementlarini integatsiyalashtiruvchi “intellektual makon” yaratuvchi omilga aylanmoqda; 2) texnogen sivilizatsiya ta’sirida ijtimoiy ong shakllari va fan sohalarining integratsiyalashuvini tadqiq qilish jarayonida, ularning yangi aloqadorlik jihatlari aniqlanmoqda; 3) dunyoni ilmiy bilish darajasining texnogen sivilizatsiya globallashuvi bilan taqozolanishi yangi fan sohalari shakllanishi va rivojlanishi tendensiyasini belgilab bermoqda; 4) texnogen sivilizatsiya globallashuvi natijalarini xalqaro miqyosda transformatsiya qilish ehtiyoji, uning usullari va vositalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan fan sohalarini vujudga keltirmoqda.

Bu yo‘nalishlar samaradorligi, ta’lim-tarbiya jarayonini texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixi kontekstida (tarixni haqqoniy yoritish talablari asosida) isloh qilishni taqozo qilmoqda. Chunki kishilarning texnogen sivilizatsiya haqida o‘zlashtiradigan barcha bilimlari tarixiy xotirani, ongni tiklash va rivojlantirish jarayoni natijasi va tarkibiy yo‘nalishini tashkil qiladi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya tizimida texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixini o‘rganish asosida, (xususan, yoshlarda texnologik madaniyatni shakllantirishni) tizimli ravishda bosqichma-bosqich, uzluksiz amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero, bu tizimning maqsadi – yoshlarni texnogen sivilizatsiya natijalarini oqilona “seleksiya” qilib, hayotga joriy etish imkoniyatlarini reallashtiruvchi nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. “Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, kelajak avlodga ekologik muammolardan xoli bo‘lgan shart-sharoit yaratib berish har bir fuqaroning burchi ekanligiga alohida e’tibor qaratilishi kerak[5].”

Bunda asosiy masala “tabiat-jamiyat-inson” munosabatida insonning texnik-texnologik ta’sir imkoniyati, tizim barqarorligini ta’minlovchi omilligini e’tirof etishdir. Turli manfaatlarga asoslangan bo‘lsa ham bu kontsepsiyalarning umumiy tomoni texnogen sivilizatsiya globallashuvi salbiy

oqibatlarini bartaraf qilishda inson omili roli ahamiyatini e’tirof etishdir. Xususan, insonning “texnologik sifatlari”ni yuksaltirish orqali borliqqa antropotexnogen ta’sirini boshqarish masalasida yakdillik kuzatilmoqda. “Hech qachon unutmasligimiz lozimki, tabiiy resurslar – bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo‘lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o‘ylab, oqilona foydalanishimiz zarur. Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o‘tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun “yashil” va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo‘lib turibdi”[6]. Darhaqiqat, texnogen sivilizatsiyaning turli bosqichlarida erishilgan barcha ijobiy natijalar, (ularga pessimistik, skeptik, alarmistik yondashuvlarga qaramasdan) inson faoliyatini ongli ravishda boshqarish natijasidir. Bu esa, o‘z navbatida, insonning jamiyatdagi o‘z o‘rni, maqomini aniqlab, ijtimoiy munosabatlari xarakterini, maqsadlari yo‘nalishlarini, qadriyati mo‘ljallarini belgilab olishga yordam beradi.

Xulosa. Birinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar shakllanishi va rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari uyg‘unligini ta’minlash jamiyat barqarorligi sharti bo‘lib, globallashuvi salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga adekvatdir. Ikinchidan, ijtimoiy ong shakllari va fanlarning rivojlanishini antropogen va texnogen sivilizatsiyalar globallashuvi kontekstida o‘rganish, ularning paradigmal o‘zgarishlarini va funksional ahamiyatini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi va munosabatlar konkretlashadi. Uchinchidan, insoniyatning umumiy sivilizatsiyasi tarixida antropogen va texnogen sivilizatsiyalar tarixi o‘ziga xos qonunlar, qonuniyatlar, tamoyillar asosida rivojlangan va uning mazmun-mohiyati jamiyat xarakterini determinlashtiruvchi muhim omil bo‘lgan va shart-sharoit yaratgan. To‘rtinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar tarixi va uning rivojlanish bosqichlari haqidagi muqobil falsafiy qarashlar, ta’limotlar masalaga muayyan manfaatlar asosida faktorial yondashishlar natijasi sifatida, umuminsoniy maqsadlar doirasida integratsiyalashuvga moyil bo‘lgan. Beshinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar globallashuvining tarixiy genezisini, retrospektiv asoslarini kompleks-sistemali tahlil qilish, umuman jamiyat rivojlanishi va uning istiqbollari haqida nisbatan mukammal va universal nazariy-metodologik xulosalarga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 12 noyabr kuni Boku shahrida o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammitining yalpi majlisida nutq https://president.uz/uz/lists/view/7689
2. Turayev B.O., Ochilov J.A. va boshqalar. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. Monografiya. Toshkent: NAVRO‘Z, 2017. 360 b.
3. Palenko A.N. «Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema // Voprosi filosofii. №7. 2002. S. 71.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasi. https://president.uz/uz/lists/view/1063
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-81-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6479180
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi https://president.uz/uz/lists/view/6637
7. Ochilov J.A. Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari Monografiya. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. 160 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 378.1:004

Jamshid RAJABOV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari
E-mail: jrajabov@gmail.com

ChDPU dotsenti A.J.Xurramov taqrizi asosida

TARMOQLARNI QURISHDA QO‘LLANILADIGAN ARXITEKTURALAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy tarmoqlarni qurishda qo‘llaniladigan arxitekturalar va ularning asosiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Tarmoq arxitekturasi tizimlarining rivojlanishi, OSI va TCP/IP kabi asosiy modellar, shuningdek, bulutli texnologiyalar, IoT (Internet of Things) va ma’lumotlar uzatishning zamonaviy usullari o‘rganilgan. Tarmoq arxitekturalarini loyihalashda qo‘llaniladigan protokollar, xavfsizlik choralari va tarmoqni optimallashtirish usullari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada, shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirishda tarmoq arxitekturalarining o‘rni va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tarmoq tizimlarini qurish va boshqarishda samarali yechimlarni taklif qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tarmoq arxitekturasi, TCP/IP modeli, OSI modeli, tarmoq protokollari, ma’lumot uzatish texnologiyalari, tarmoq xavfsizligi, bulutli tarmoq arxitekturasi, IoT tarmoqlari, tarmoqni optimallashtirish, raqamli infratuzilma.

АРХИТЕКТУРЫ ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ПОСТРОЕНИИ СЕТЕЙ

Аннотация

В статье рассматриваются архитектуры, используемые при построении современных сетей, и их основные характеристики. Были изучены развитие систем сетевой архитектуры, базовые модели, такие как OSI и TCP/IP, а также облачные технологии, Интернет вещей (Интернет вещей) и современные методы передачи данных. Подробно описаны протоколы, меры безопасности и методы оптимизации сети, используемые при проектировании сетевых архитектур. В статье также анализируется роль сетевых архитектур в развитии цифровой инфраструктуры и тенденции будущего развития. Результаты исследования направлены на предоставление эффективных решений в построении и управлении сетевыми системами.

Ключевые слова: Сетевая архитектура, модель TCP/IP, модель OSI, сетевые протоколы, технологии передачи данных, сетевая безопасность, архитектура облачных сетей, сети Интернета вещей, оптимизация сети, цифровая инфраструктура.

ARCHITECTURES USED IN BUILDING NETWORKS

Annotation

The article discusses the architectures used in the construction of modern networks and their main characteristics. The development of network architecture systems, basic models such as OSI and TCP/IP, as well as cloud technologies, the Internet of Things (Internet of Things) and modern data transmission methods were studied. The protocols, security measures, and network optimization techniques used in the design of network architectures are described in detail. The article also analyzes the role of network architectures in the development of digital infrastructure and future development trends. The research results are aimed at providing effective solutions in the construction and management of network systems.

Key words: Network architecture, TCP/IP model, OSI model, network protocols, data transmission technologies, network security, architecture of cloud networks, Internet of Things networks, network optimization, digital infrastructure.

Kirish. Tarmoqlarni qurishda qo‘llaniladigan arxitekturalar tarmoqning samarali ishlashini ta’minlash va ma’lumotlarni uzatishda optimal konfiguratsiyalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida tarmoqlarni qurishda qo‘llaniladigan ba’zi asosiy arxitekturalar haqida ma’lumot keltiramiz:

1. Client-Server arxitekturasi

Tavsif: Bu arxitektura tarmoqda ikkita asosiy tomon – klient (foydalanuvchi) va server (xizmat ko‘rsatuvchi) mavjud bo‘lgan tizimni anglatadi. Klientlar serverga so‘rov yuboradi, server esa ularni qayta ishlaydi va javob beradi.

Afzalliklari:

Xizmatlar markazlashtirilgan va ularni boshqarish oson.

Kengaytirilgan xavfsizlik choralarini joriy etish mumkin.

Kamchiliklari:

Serverda ko‘p yuklanish bo‘lishi mumkin, chunki barcha resurslar unga bog‘langan.

Internetning paydo bo‘lishi davrida klient-server arxitekturasi juda keng tarqalgan edi, garchi boshqa arxitekturalar ham mavjud edi. Uning ma’nosi shundaki, tarmoqdagi barcha ishtirokchilar ikki mantiqiy qismga bo‘lingan: klient va server.

Serverning vazifasi (server, serve - xizmat qilish) - klientlarning so‘rovlarini bajarish. Server katta ish hajmini amalga oshiradi, kerakli barcha ma’lumotlarni saqlaydi va ularning yaxlitligini nazorat qiladi. Kompyuterlar ham bor, ular server deb ataladi, odatda “klient” va “server” tushunchalari ostida dasturiy ta’minot nazarda tutiladi.

Klientning vazifasi - mazza qilish. Klientga serverdan qandaydir ma’lumot kerak bo‘lganda, u so‘rov yuboradi. Bir muddatdan keyin u serverdan javob oladi va olingan ma’lumotlar bilan biror muhim ishni bajarishi mumkin.

So‘rovlarning tashabbuskori har doim klient hisoblanadi. Aloqa rejimi har doim so‘rov-javob shaklida bo‘ladi. Bu ma’noda “klient-server” tushunchasining sinonimidir.

Klient-server arxitekturasining afzalliklari:

Ishonchlilik. Klientlar har qanday joyda bo‘lishi mumkin, hatto ishonchsiz platformalarda ham. Kompyuteringizdagi Windows “chiqib ketishi” mumkin, iPhoneni o‘g‘irlab ketishi mumkin, lekin bulutda saqlangan ma’lumotlar hech qayerga ketmaydi.

Kuchsiz va arzon klientlar. Agar siz telefoningizda video tahrirlashni xohlasangiz, uni serverga yuklaysiz va serverning imkoniyatlarida amalga oshirasiz. Klient arzon vosita bo‘lishi mumkin.

Muvozanatli yuklama. Har bir klient o‘zining individual foydalanish jadvaliga ega, bu juda sakrashli bo‘lishi mumkin. Serverga minglab klientlardan so‘rovlar keladi, uning yuklamasi o‘rtacha bo‘ladi va shuning uchun yaxshiroq prognoz qilinadi.

2. Peyer-to-Peyer (P2P) arxitekturasi

Tavsif: Bu arxitektura tarmoqda har bir kompyuter bir vaqtning o‘zida server va klient vazifasini bajaradi. Foydalanuvchilar bir-birlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot almashadilar.

Afzalliklari:

Serverga yuklanish kamayadi, chunki barcha qurilmalar teng darajada ishlaydi.

Tarmoqni sozlash va kengaytirish oson.

Kamchiliklari:

Xavfsizlikni ta’minlash qiyin, chunki har bir qurilma tarmoqda mustaqil ravishda ishlaydi.

Ma’lumotlarni sinxronlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Qaysidir ma’noda, Peyer to Peyer (P2P) tarmoqlari Internetning ijtimoiy tarmoqlari hisoblanadi. Har bir tengdosh boshqalarga tengdir va har bir tengdosh boshqalarga o‘xshab huquq va majburiyatlarga ega. Tengdoshlar bir vaqtning o‘zida mijozlar va serverlardir.

P2P tarmog‘ida “tengdoshlar” - bu, masalan, Internet orqali bir -biriga ulangan kompyuter tizimlari va boshqa qurilmalar. Biz fayllarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri ushbu tizimlar ulangan tarmoq orqali almashishimiz mumkin. Buning uchun markaziy server kerak emas. Tengdoshlar tarmog‘iga kiruvchi kompyuterlar yoki qurilmalar bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulangan va tengdoshlar deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, P2P tarmog‘idagi har bir kompyuter bir vaqtning o‘zida server va mijozga aylanadi.

Tengdoshlar peer-to-peer tarmog‘ida mavjud bo‘lgan barcha resurslarni, hattoki markaziy server ishtirok etmasa ham bo‘lishadi. P2P tarmog‘idagi umumiy resurslar hisoblash quvvati, diskni saqlash maydoni yoki tarmoqli kengligi kabi narsalar bo‘lishi mumkin.

Peyer-to-peer tarmog‘ining kashshofi 1979-yilda ishlab chiqilgan USENET. Bu foydalanuvchilarga xabarlarni (yangiliklarni) o‘qish va joylashtirishga imkon beradigan tizim edi. Bu hozirgi onlayn forumlarga o‘xshash tarmoq tizimi edi, faqat USENET markaziy server yoki administratorga ishonmaydi. USENET bir xil xabarni tarmoqdagi barcha serverlarga ko‘chirdi. Xuddi shunday, barcha P2P tarmoqlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan barcha resurslarni tarqatadi va ulardan foydalanadi.

P2P tarixidagi keyingi katta voqea 1999-yilda Napster hayotga kelganida bo‘lgan. Napster fayllarni almashish dasturi bo‘lib, odamlar musiqani tarqatish va yuklab olish uchun foydalangan. Napster-da tarqalgan musiqa ko‘pincha mualliflik huquqiga ega edi va tarqatish noqonuniy edi. Biroq, bu odamlarga Napsterni ommaviy ravishda o‘rnatishga xalaqit bermadi. Napster P2P-ni asosiy oqimga aylantirganda, Napster oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlikka uchradi va rasmiylar uni barcha noqonuniy tarkib bilan bo‘lishgani uchun o‘chirib qo‘yishdi. Yaxshisi xavfsiz tomonda bo‘ling va faqat qonuniy veb-saytlardan dasturiy ta’minot va musiqani yuklab oling. Bugungi kunda P2P hali ham Internet-fayllarni almashish bo‘yicha eng mashhur texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Oddiy shaklda, tengdosh (P2P) tarmog‘i ikki yoki undan ortiq shaxsiy kompyuterlar ulanganida va alohida server kompyuteridan o‘tmasdan resurslarni almashganda yaratiladi. P2P tarmog‘i maxsus ulanish bo‘lishi mumkin: fayllarni uzatish uchun universal ketma - ket avtobus orqali ulangan bir qancha kompyuterlar. P2P tarmog‘i, shuningdek, mis simlar orqali kichik ofisdagi yarim o‘nlab kompyuterlarni bog‘laydigan doimiy infratuzilma bo‘lishi mumkin. Yoki P2P tarmog‘i ancha katta hajmdagi tarmoq bo‘lishi mumkin, bunda maxsus protokollar va ilovalar Internet orqali foydalanuvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan - to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatadi.

Fayllarni almashishda yuklovchilar va yuklab oluvchilar media va dasturiy ta’minot fayllarini almashish uchun uchrashadilar. Peyer-to-peer tarmoqlariga qo‘shimcha ravishda, fayl almashish xizmatlari umumiy fayllar uchun skanerlash va xavfsizlikni ham ta’minlaydi. Ular, shuningdek, foydalanuvchilarga intellektual mulk huquqlarini anonim ravishda chetlab o‘tish imkoniyatini berishi yoki muqobil ravishda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni ta’minlashi mumkin.

P2P Internet orqali eng keng tarqalgan foydalanish sumkasi. Biroq, peer-to-peer tarmog‘i Internetda fayllarni almashish uchun mo‘ljallangan. Peyer-to-peer tarmoqlari fayllarni almashish uchun ideal, chunki ular ulangan kompyuterlarga bir vaqtning o‘zida fayllarni qabul qilish va fayllarni yuborish imkonini beradi.

Oddiy holatda biz faylni yuklab olishimiz mumkin bo‘lgan veb-saytga tashrif buyuramiz. Bunday holda, veb-sayt server sifatida ishlaydi va bizning kompyuterimiz vazifasini bajaradi mijoz faylni kim oladi. Agar biz bir xil faylni peer-to-peer tarmoq orqali, masalan, BitTorrent veb-saytidan yuklab olsak, yuklab olish boshqacha amalga oshiriladi. Keyin faylni kompyuterimizga P2P tarmog‘idagi ushbu faylga ega bo‘lgan boshqa ko‘plab kompyuterlardan keladigan bir nechta qismlarga yuklab olamiz. P2P texnologiyasi uni yana bitta faylga aylantiradi. Shu bilan birga, fayl bizning kompyuterimizdan uni so‘ragan boshqalarga ham yuboriladi.

Onlayn bozorlar manfaatdor xaridorlarni topish uchun tovarlarning xususiy sotuvchilari uchun tarmoqdan iborat. Ushbu onlayn bozorlar sotuvchini rag‘batlantirish xizmatlarini, xaridor va sotuvchilar tarixini baholash, to‘lovlarni qayta ishlash va eskrow xizmatlarini taklif qilishi mumkin.

Har kim dastur kodini ko‘rishi yoki o‘zgartirishi mumkin. Ochiq kodli dasturiy ta’minot yozuvchilar va foydalanuvchilar o‘rtasida dasturiy ta’minotni kodlash, tahrirlash va sifatini nazorat qilish orqali markaziy dasturiy ta’minot nashriyoti (muharriri)ni yo‘q qilishga harakat qiladi.

Blokcheyn kriptovalyuta texnologiyasining bir jihati hisoblanadi. Bu foydalanuvchilar markaziy valyuta emitenti yoki hisob-kitob markazisiz to‘lovlarni amalga oshirishi, qayta ishlashi va tekshirishi mumkin bo‘lgan tarmoqdir. Blokcheyn texnologiyasi yordamida odamlarga biznes yuritish imkonini beradi cryptocurrencies va uchun aqlli shartnomalar yopish va amalga oshirish.

Peyer-to-peer tarmog‘iga qo‘shilish uchun kompyuterga qo‘yiladigan yagona talab - bu Bluetooth yoki Internet aloqasi va P2P dasturi. Ushbu dasturlar P2P tarmog‘iga ulanadi, masalan “Gnutella”, bu kompyuterga tarmoqdagi minglab boshqa tizimlarga kirish imkonini beradi.

Tarmoqqa ulanganingizdan so‘ng, P2P dasturi boshqa foydalanuvchilarning kompyuterlarida fayllarni qidirishga imkon beradi. Shuningdek, tarmoqdagi boshqa foydalanuvchilar kompyuteringizda fayllarni qidirishlari mumkin, lekin odatda faqat siz ulashish uchun tayinlangan papkada.

P2P tarmoqlarida bir nechta foydali xususiyat mavjud:

Ular juda kengaytirilgan. Yangi tengdoshlarni qo‘shish oson, chunki markaziy serverda markaziy konfiguratsiyani bajarishingiz shart emas.

“Peyer-to-peer” tarmog‘i qanchalik katta bo‘lsa, u tezroq bo‘ladi. Agar bir xil fayl P2P tarmog‘idagi ko‘plab tengdoshlarda saqlansa, demak, agar kimdir uni yuklab olishni xohlasa, ular faylni bir vaqtning o‘zida turli xil joylardan yuklab olishadi.

Peyer-to-peer tarmog‘ini olib tashlash qiyin. Agar siz tengdoshlaringizdan birini yopsangiz ham, boshqalar ishlashda va bir-birlari bilan aloqa qilishni davom ettiradi. Tarmoqni o‘chirish uchun barcha tengdoshlarni yopishingiz kerak.

WiFi orqali P2P ulanishlarni yaratish

WiFi yordamida mos P2P dasturi ushbu qurilmadagi qurilmalarni tezda topishi va ulashi mumkin. Ushbu interaktivlik Bluetooth taqdim etadigan imkoniyatlardan tashqarida.

WiFi peer-to-peer API-lari, shuningdek, tarmoqqa yoki ulanish nuqtasiga ulanmasdan dasturlarning yaqin atrofdagi qurilmalarga ulanish imkoniyatini beradi. Agar ilova yaqin atrofdagi xavfsiz tarmoqning bir qismi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lsa, WiFi quyidagi sabablarga ko‘ra WiFi orqali an’anaviy vaqtinchalik tarmoqlardan ko‘ra ko‘proq mos variant hisoblanadi:

Xizmat WPA2 xavfsizligini qo‘llab-quvvatlaydi. (Ayrim vaqtinchalik tarmoqlar faqat WEP shifrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.)

Qurilmalar o‘zlari olib boradigan xizmatlarni taqdim etishi mumkin, bu esa boshqa qurilmalarni mos foydalanuvchilarni topishni osonlashtiradi.

Android Wi-Fi orqali ad-hoc rejimini qo‘llab-quvvatlamaydi.

Ko‘pgina P2P tarmoqlari yuklab olingandan so‘ng, josuslarga qarshi dasturlar va zararli dasturlar bilan to‘ldirilgan. Bu bizning kompyuterlarimizning ishini sekinlashtirishi yoki hatto ishdan chiqishi mumkin. Agar biz P2P tarmoqlaridan musiqa yoki boshqa fayllarni, ayniqsa bepul yuklab olmoqchi bo‘lsak, o‘z

fayllarimiz va ma’lumotlarimizni himoya qilish uchun yaxshi antivirus, xavfsizlik devori va shpion dasturlarini olishimiz kerak.

3. Layered (qatlamli) arxitektura

Tavsif: Bu arxitektura tarmoqning turli funksiyalarini mustaqil qatlamlarga ajratish orqali tashkil etiladi. Har bir qatlam ma’lum bir vazifani bajaradi. Masalan, OSI modelida 7 qatlam mavjud: fizikal, kanal, tarmoq, transport, sessiya, taqdimot va ilova qatlamlari.

Afzalliklari:

Har bir qatlamning funksiyasi aniq bo‘lib, tizimni ishlab chiqish va boshqarishni osonlashtiradi.

Kengaytirilgan moslashuvchanlik va tizimni yangilash imkoniyatlari mavjud.

Kamchiliklari:

Barcha qatlamlar o‘zaro aloqada bo‘lganligi sababli tarmoqni optimal ishlashini ta’minlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Layered (qatlamli) arxitektura - bu tarmoq tizimlarini tashkil etishda foydalaniladigan arxitektura modelidir. Bu modelda, tarmoqning funksiyalari turli qatlamlarga ajratilib, har bir qatlam ma’lum bir vazifani bajaradi. Qatlamli arxitektura tizimni modullar va qismalarga ajratib, tarmoqni boshqarishni, rivojlantirishni va yangilashni osonlashtiradi.

1. OSI modeli

Qatlamli arxitektura haqida gapirganda, eng mashhur model OSI (Open Systems Interconnection) modelidir. OSI modeli 7 qatlamga bo‘lingan bo‘lib, har bir qatlam tizimning turli funksiyalarini bajaradi. Quyidagi qatlamlar mavjud:

Fizikal qatlam (Physical Layer):

Bu qatlamning vazifasi fizikal aloqalarni ta’minlashdir. Bunga signal uzatish (elektrik, optik yoki radiodalga) va tarmoq orqali fizik ma’lumotlarni uzatish kiradi.

Misollar: Ethernet, koaksial kabel, optik tolalar, radio to‘lqinlari.

Kanal qatlam (Data Link Layer):

Bu qatlamda ma’lumotlarni paketlarga bo‘lish va ularni bir qurilmadan boshqa qurilmaga uzatish ta’minlanadi. Bundan tashqari, u ma’lumotlar uzatishda xatoliklarni aniqlash va tuzatishni amalga oshiradi.

Misollar: Ethernet, Wi-Fi, PPP (Point-to-Point Protocol), MAC (Media Access Control).

Tarmoq qatlam (Network Layer):

Bu qatlam tarmoqlar orasidagi ma’lumotlar paketini uzatish uchun mas’uldir. U ma’lumotlar paketlarini yo‘naltirish va marshrutlashni amalga oshiradi.

Misollar: IP (Internet Protocol), IPv4, IPv6, Routers.

Transport qatlam (Transport Layer):

Bu qatlam ma’lumotlar uzatish uchun ishonchli aloqani ta’minlaydi. Ma’lumotlar to‘liq va to‘g‘ri tarzda uzatilishini nazorat qiladi.

Misollar: TCP (Transmission Control Protocol), UDP (User Datagram Protocol).

Sessiya qatlam (Session Layer):

Bu qatlam tarmoqdagi ikki tomonlama aloqalarni boshqaradi va ularga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Sessiya qatlamida aloqani boshqarish, sinxronlash va qayta tiklash imkoniyatlari mavjud.

Misollar: RPC (Remote Procedure Call), NetBIOS.

Taqdimot qatlam (Presentation Layer):

Bu qatlamda ma’lumotlarning formatlanishi va kodlanishi amalga oshiriladi. Masalan, u ma’lumotlarni kompyuterlar o‘rtasida uzatishdan oldin kompyuter tomonidan tushunarli formatda qayta ishlaydi.

Misollar: JPEG, GIF, SSL/TLS (ma’lumotlarni shifrlash).

Ilova qatlam (Application Layer):

Bu qatlam foydalanuvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydi. Ilova qatlamida tarmoq orqali uzatilgan ma’lumotlar foydalanuvchiga ko‘rsatiladi.

Misollar: HTTP, FTP, SMTP, IMAP, DNS, POP3.

ADABIYOTLAR

1. https://javarush.com/uz/quests/lectures/uz.questservlets.level09.lecture00
2. https://www.hua-network.com/uz/news/waht-is-mesh-network
3. https://uz.itpedia.nl/2019/01/11/wat-is-p2p-peer-to-peer-en-wat-kan-je-er-mee
4. Kurose J.F., Ross K.W. - Computer Networking: A Top-Down Approach // Pearson. – 2020. – 864 b.
5. Abdullayev R.R., Karimov I.A. - Zamonaviy tarmoq arxitekturalari va ularning rivojlanish tendensiyalari // Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar jurnali. – Toshkent, 2022. – № 4. – B. 45-52.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

УДК: 159.9.(072.432)

Санжар РАХИММИРЗАЕВ,
PhD, доцент Национального Университета Узбекистана им. М.Улугбека
E-mail: sanjar-rah@list.ru,

На основе рецензии DSc, и.о. профессора СамГИИЯ Ф.Нарзикуловой

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL IMPORTANCE OF THE WELL-BEING OF EMPLOYEES OF MODERN ORGANIZATIONS

Annotation

The article is devoted to the study of the socio-psychological significance of the well-being of employees of modern organizations. The various positions of scientists regarding the problem under study are considered, the role and importance of employee well-being for the functioning of companies are revealed, as well as its impact on the personality of the employee and the socio-psychological aspects of the functioning of work collectives.

Key words: Employee well-being, the impact of employee well-being on the company, the impact of well-being on the employee's personality, the impact of employee well-being on the socio-psychological characteristics of work teams, the importance of well-being, the resilience of companies, the competitiveness of companies, human capital.

ZAMONAVIY TASHKILOTLAR XODIMLARI FAROVONLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola zamonaviy tashkilotlar xodimlari farovonligining ijtimoiy-psixologik ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha olimlarning turli pozitsiyalari ko‘rib chiqiladi, kompaniyalar faoliyati uchun xodimlar farovonligining roli, ahamiyati, shuningdek uning xodimning shaxsiyati va ishchi guruhlar faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlariga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xodimlarning farovonligi, xodimlarning farovonligining kompaniyaga ta’siri, farovonlikning xodimning shaxsiyatiga ta’siri, xodimlarning farovonligining ishchi guruhlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ta’siri, farovonlikning ahamiyati, kompaniyalarning hayotiyligi, kompaniyalarning raqobatbardoshligi, inson kapitali.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ БЛАГОПОЛУЧИЯ СОТРУДНИКОВ СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация

Статья посвящена исследованию социально-психологической значимости благополучия сотрудников современных организаций. Рассмотрены различные позиции ученых относительно изучаемой проблемы, раскрыта роль, значение благополучия сотрудников для функционирования компаний, а также его влияние на личность работника и социально-психологические аспекты функционирования рабочих коллективов.

Ключевые слова: Благополучие сотрудников, влияние благополучия сотрудников на компанию, влияние благополучия на личность сотрудника, влияние благополучия сотрудников на социально-психологические характеристики рабочих коллективов, значение благополучия, жизнестойкость компаний, конкурентоспособность компаний, человеческий капитал.

Введение. На сегодняшний, в условиях стремительно изменяющегося мира труда и увеличения конкуренции на рынке, благополучие сотрудников становится одной из ключевых ценностей, обеспечивающих успех и устойчивое развитие современных организаций. Этот феномен выходит за рамки индивидуального комфорта или удовлетворенности и представляет собой многоуровневую категорию, включающую физическое, эмоциональное, социальное и профессиональное благополучие работников. Социально-психологический аспект благополучия сотрудников привлекает внимание исследователей и практиков, поскольку он оказывает значительное влияние на внутреннюю культуру организации, корпоративную идентичность, а также на производительность труда. Исследование социально-психологической значимости благополучия сотрудников позволяет раскрыть глубинные механизмы взаимодействия между организацией и её персоналом, а также определить эффективные стратегии управления, направленные на улучшение качества рабочей среды и развитие потенциала сотрудников.

Анализ литературы по теме. Согласно исследованиям Т.Н. Лук, Е.Н. Киселевой, Н.В. Жахова и др. благополучие сотрудников связано с их удовлетворенностью работой, уровнем мотивации, вовлеченности и способностью поддерживать здоровые межличностные отношения в рабочей среде. Наличие гармоничных отношений в коллективе, справедливой системы управления и поддержки со стороны руководства способствует формированию позитивного социально-психологического климата, который в свою очередь способствует повышению креативности, лояльности и готовности сотрудников участвовать в решении сложных задач [9].

Исследования А.В. Маркеевой, Е.В. Черсуновой, Л.М. Борисовой и др. показывают, что развитие благополучия сотрудников напрямую влияет на имидж компании. Работодатели, создающие комфортные условия труда, привлекают талантливых специалистов и формируют положительный бренд работодателя, что особенно важно в условиях конкуренции за кадры. При этом, вложение в благополучие сотрудников может показаться затратным, однако долгосрочные выгоды значительно превышают начальные инвестиции. Сокращение количества больничных дней, снижение затрат на найм и обучение новых сотрудников, повышение уровня клиентского обслуживания – это лишь часть преимуществ, которые получают компании, заботящиеся о своем персонале о их благополучии. Развитие благополучия сотрудников – это не только этическая, но и стратегическая задача для современных компаний. Успех бизнеса напрямую зависит от людей, которые его создают. Поэтому инвестиции в здоровье, удовлетворенность и развитие персонала являются важным шагом к созданию успешной, инновационной и устойчивой организации [10].

По мнениям Н.В. Антонова, Н.Л. Удальцова, О.А. Рассказова, И.В. Воронова, Ю.И. Притула и др. благополучие сотрудников имеет взаимосвязь, влияет на производительность. Т.е. работники, имеющие должный

уровень благополучия более продуктивны. Они работают с большей мотивацией, реже совершают ошибки и проявляют инициативу. Компании, которые инвестируют в развитие благополучия своих сотрудников, получают значительные преимущества, такие как снижение уровня текучести кадров и увеличение лояльности персонала. Например, внедрение программ физического здоровья, таких как занятия спортом или программы здорового питания, способствует повышению энергии сотрудников. Психологическое благополучие, поддерживаемое через консультации, тренинги по управлению стрессом или развитие эмоционального интеллекта, помогает справляться с профессиональными вызовами и улучшает качество взаимодействия в коллективе [3].

Н.А. Плешкова, Г.А. Подзорова, О.С. Алымова, О.С. Сувалов, Н.В. Громова и др. изучая исследования организации Gallup по влиянию вовлеченности на продуктивность отмечают, что команды с высоким уровнем вовлеченности сотрудников компаний демонстрируют:

21% - рост производительности;

20% - повышения уровня прибыльности;

41% - снижение уровня дефектов в продукции.

Кроме того, компании, уделяющие внимание благополучию сотрудников, уменьшают уровень текучести кадров в среднем на 25%. Это особенно важно для отраслей с высокой конкуренцией, где текучесть кадров приводит к значительным финансовым потерям.

Методология исследования. Таким образом, по мнению учёных данные исследования наглядно подтверждают, что инвестиции в благополучие сотрудников не только улучшают их качество жизни, но и приносят компании значительные экономические и стратегические выгоды. Благополучие становится важным фактором, определяющим конкурентоспособность и устойчивость бизнеса в современном мире [2].

Анализ и результаты. Согласно позициям А.А. Корякина, Л.М. Кузнецовой, С.А. Усаевой, А.М. Бабич и др. развитие благополучия сотрудников играет важную роль в построении успешного, устойчивого и конкурентоспособного бизнеса. Включая физическое, психологическое, социальное и профессиональное здоровье, оно влияет на эффективность работы, корпоративную культуру и общее состояние компании. Так, здоровые и удовлетворённые сотрудники работают более эффективно, проявляют инициативу и достигают лучших результатов. Исследования показывают, что развитие программ благополучия, включая поддержку ментального здоровья и физического состояния, приводит к росту производительности, улучшению качества работы, снижению уровня ошибок. Кроме того, забота о благополучии формирует культуру уважения и поддержки, где сотрудники чувствуют себя частью команды. Это укрепляет отношения между коллегами и руководством, создавая более гармоничную рабочую среду. В результате, сотрудники в таких компаниях становятся более вовлечёнными, открытыми для диалога и готовы разделять ценности организации [5].

Исследователи Д.Х. Насирова, Д.В. Шумилов, Н.А. Азарова и др. в своих работах отмечают о наличии устойчивой взаимосвязи уровня благополучия сотрудников с жизнеспособностью соответствующих компаний. Под жизнеспособностью авторы понимают способность компании адаптироваться к изменениям, сохранять устойчивость в кризисных ситуациях и обеспечивать долгосрочный рост. Уровень благополучия сотрудников играет ключевую роль в формировании этих качеств через следующие основные аспекты:

повышение производительности и эффективности - сотрудники с высоким уровнем благополучия, как правило, более продуктивны, готовы предлагать инновационные решения;

устойчивость в кризисных ситуациях - здоровые и поддерживаемые сотрудники лучше справляются с трудностями, остаются мотивированными и готовы работать в условиях неопределённости, различных кризисов и пр.;

снижение текучести кадров - высокий уровень благополучия снижает вероятность увольнений, поскольку сотрудники чувствуют заботу о себе и свою ценность для компании;

создание инновационной среды - благополучие сотрудников способствует созданию благоприятной атмосферы для креативности, удовлетворённые сотрудники более склонны делиться идеями, предлагать новые подходы и активно участвовать в развитии бизнеса;

укрепление корпоративной репутации - компании, которые заботятся о благополучии сотрудников, формируют позитивный имидж работодателя;

снижение расходов - затраты на лечение заболеваний, вызванных стрессом, выгоранием или другими неблагополучными условиями, могут быть значительными. Компании, которые инвестируют в здоровье сотрудников, экономят на медицинских расходах, больничных днях и компенсациях;

долгосрочная стратегическая устойчивость - компании, заботящиеся о благополучии сотрудников, формируют лояльный, мотивированный коллектив, готовый работать на благо бизнеса в долгосрочной перспективе. Это закладывает основу для стратегической устойчивости организации, её способности развиваться и адаптироваться к изменениям внешней среды [1].

Как показывают результаты исследований, проведенные О.В. Арнаутовым, Н.Л. Сунгуровой, Э.Д. Касимовым, Л.Н. Захаровой, И.С. Леоновой и др. инвестиции в благополучие сотрудников становятся одной из ключевых стратегических задач для современных компаний. Это связано с множеством факторов, включая изменения на рынке труда, рост конкуренции, потребность в повышении производительности и изменяющиеся ожидания работников. В качестве основных аспектов целесообразности развития благополучия сотрудников авторы выделяют следующие:

изменения на рынке труда, т.е. современные работники всё больше ориентируются на компании, которые не только предлагают конкурентоспособную заработную плату, но и заботятся о здоровье, комфорте и профессиональном развитии сотрудников. Такие тенденции усиливаются в связи с ростом гибкости рабочих условий (удалённая работа, гибкий график), глобализацией, где лучшие кадры становятся доступными на международном уровне, важностью корпоративной культуры и репутации работодателя. Компании, инвестирующие в благополучие своих сотрудников, получают конкурентное преимущество, привлекая и удерживая лучшие кадры;

повышение производительности, т.е. сотрудники, которые чувствуют себя удовлетворёнными и поддержанными, работают более эффективно. Их вовлечённость и мотивация растут, что напрямую отражается на росте производительности, качестве продукции или услуг, снижении количества ошибок;

снижение затрат, т.е. игнорирование благополучия сотрудников со стороны компаний может привести к серьёзным финансовым потерям, связанным с высокой текучестью кадров, увеличением количества больничных дней, выгоранием сотрудников, снижением качества клиентского обслуживания.

изменения в ожиданиях нового поколения, т.е. молодое поколение сотрудников предъявляет новые требования к работодателям. Они ценят баланс между работой и личной жизнью, возможности для профессионального и личностного роста, гибкость и комфорт на рабочем месте, ценности компании, связанные с экологией и социальной ответственностью;

влияние на корпоративную репутацию, т.е. сегодня репутация компании как работодателя играет критическую роль. Платформы для отзывов сотрудников и социальные сети дают работникам возможность делиться своим опытом. Компании, которые игнорируют благополучие своих сотрудников, рискуют потерять доверие и испортить свою репутацию, что может негативно сказаться на привлечении талантов и даже клиентов;

инновации и креативность, т.е. здоровая и поддерживающая рабочая среда способствует развитию креативности и инноваций. Сотрудники, которые чувствуют себя комфортно, более склонны генерировать новые идеи, внедрять улучшения и участвовать в командной работе. Это особенно актуально для компаний в высокотехнологичных и творческих отраслях;

адаптация к глобальным вызовам, т.е. глобальные события, такие как пандемия COVID-19, подчеркнули необходимость инвестиций в здоровье сотрудников, включая физическое и психологическое благополучие. Компании, которые оперативно адаптировались, смогли сохранить свою устойчивость и продуктивность в кризисных условиях [4].

Выводы и предложения. Таким образом, современные исследования демонстрируют, что забота о благополучии сотрудников в социально-психологическом аспекте оказывает влияние не только на индивидуальный уровень, но и на макроуровень деятельности организаций. Компании, которые инвестируют в создание социально-психологических условий для благополучия своих сотрудников, приобретают конкурентные преимущества, включая развитие коллективных отношений, повышение уровня мотивированности персонала, сохранение организационной идентичности, формирование позитивного социально-психологического климата, снижение текучести кадров, уменьшение уровня профессионального выгорания и повышение репутации работодателя. Это свидетельствует о том, что благополучие сотрудников играет роль не только в управлении человеческим капиталом, но и в достижении долгосрочных стратегических целей организации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Азарова Н.А. Программы «благополучия» wellbeing как инновационный инструмент управления человеческим капиталом на предприятиях мебельного комплекса РФ. // Организатор производства. - 2022. - Т.30. - №1. - С. 84-95.
2. Алымова О.С. Вовлеченность персонала как фактор успеха компании. // Ученые записки Тамбовского отделения РОСМУ. - 2019. - №15. - С. 91-103.
3. Антонова Н.В. Психологическое благополучие сотрудников в условиях цифровой трансформации организации. // Организационная психология: люди и риски. - 2022. - №5. - С. 82-86.
4. Арнаутов О.В. и др. Корпоративная программа благополучия сотрудников компании. // Государственная служба. - 2023. - Т.25. - №3(143). - С. 67-76.
5. Бабич А.М. и др. Концепция культуры «благополучия» сотрудников и ее реализация в российских организациях. // Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России. - 2023. - Т.12. - №5. - С. 49-53.
6. Громова Н.В. Вовлеченность персонала-основной резерв повышения эффективности деятельности современных компаний. // Вестник Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова. - 2018. - №6(102). - С. 103-115.
7. Захарова Л.Н., Леонова И.С. Субъективное благополучие персонала предприятий с разной вовлеченностью в инновационные процессы: возрастной аспект. // Вестник университета. - 2020. - №2. - С. 186-193.
8. Корякин А.А., Кузнецова Л.М., Усаева С.А. Well-being программа для удаленных сотрудников. // Россия и регионы мира: воплощение идей и экономика возможностей. - 2021. - №8. - С. 66-68.
9. Лук Т.Н., Киселева Е.Н., Жахов Н.В. Благополучие работников строительной отрасли региона, как ведущая HR-тенденция. // Глобальные проблемы модернизации национальной экономики. - 2022. - С. 572-577.
10. Маркеева А.В. Программы эмоционального благополучия сотрудников через призму трансформаций современного капитализма. // Теория и практика общественного развития. - 2023. - №8(184). - С. 44-50.
11. Насирова Д.Х. Руководство и корпоративная ответственность за цифровое благополучие сотрудников. // International Conference on Adaptive Learning Technologies. - 2024. - Т.10. - С. 92-94.
12. Плешкова Н.А., Подзорова Г.А., Першина Е.Г. Вовлеченность персонала как инструмент повышения эффективности его деятельности. // Управление экономическими системами. Электроннный научный журнал. - 2015. - №10(82). - С. 22.
13. Рассказова О.А., Воронова И.В., Притула Ю.И. Вовлеченность персонала и ее значение для сотрудника и организации. // Телескоп: журнал социологических и маркетинговых исследований. - 2023. - №4. - С. 27-33.
14. Сувалов О.С., Сувалова Т.В. Повышение вовлеченности персонала: практический опыт. // Вестник университета. - 2020. - №11. - С. 53-58.
15. Сунгурова Н.Л., Касимов Э.Д. Особенности психологического благополучия и уверенности в себе сотрудников организаций. // Инновации. Наука. Образование. - 2021. - №45. - С. 1750-1754.
16. Удальцова Н.Л. Анализ моделей вовлеченности персонала в бизнес-процессы компании. // Экономика. - 2024. - Т.14. - №2. - С. 299-314.
17. Черсунова Е.В., Борисова Л.М. Развитие креативности персонала в контексте обеспечения благополучия сотрудников компании. // Проблемы социально-экономического развития в новых экономических условиях: взгляд молодых исследователей. - 2017. - С. 381-386.
18. Шумилов Д.В. Субъективное благополучие сотрудников организации в условиях неопределенности. // Современные тенденции в экономике и управлении: новый взгляд. - 2017. - С. 153-163.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 37.091.3:37.018.43

Nilufar SAIDOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD
E-mail: snilufar361@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor U.Mirsanov taqrizi asosida

ОЗМОЖНОСТЬ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлены проблемы подготовки будущих учителей начальных классов и анализы работ ученых по проблемам использованию технологии смешанного обучения в образовательном процессе Также представлена аналитическая информация о возможностях смешанных технологий в подготовке и повышении творческих способностей, развитии познавательного мышления и компетентности будущих учителей начальных классов. При этом в данной статье была проведена экспериментальная работа по определению эффективности подготовки будущих учителей начальных классов с использованием технологии смешанного обучения, а также доказана ее эффективность с использованием критерия студента-Фишера.

Ключевые слова: Смешанное обучение, цифровое обучение, творческие способности, когнитивные, компетентность, эксперимент-тест, Стьюдент-Фишер.

THE POSSIBILITY OF BLENDED EDUCATION TECHNOLOGY IN THE TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article presents the problems of training future primary school teachers and analyzes the works of scientists on the problems of using blended learning technology in the educational process. It also provides analytical information on the possibilities of blended technologies in training and enhancing creative abilities, developing cognitive thinking and competence of future primary school teachers. At the same time, this article conducted experimental work to determine the effectiveness of training future primary school teachers using blended learning technology, and also proved its effectiveness using the Student-Fisher criterion.

Key words: Blended learning, digital learning, creative ability, cognitive, competence, experiment-test, Student-Fisher.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TAYYORLASHDA ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYASINI IMKONIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlash muammolari va ta’lim jarayonida aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashdagi hamda ijodiy qobiliyatini oshirishda, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishda aralash texnologiyasini imkoniyatlariga oid tahlily ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada, aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanib bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashda samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Aralash ta’lim, raqamli ta’lim, ijodiy qobiliyat, kognitiv, kompetentlik, tajriba-sinov, Styudent-Fisher.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamlashtirish tufayli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashni zamonaviy yondashuvlari sifatida aralash ta’lim texnologiyasini keltirish mumkin. Chunki aralash ta’lim texnologiyasi yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarning kasbiy fanlarni mustaqil o‘rganishga, ijodiy qobiliyatini oshirishda va kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashda aralash ta’lim texnologiyasini imkoniyatlarini o‘rganish asosida ta’lim jarayoniga joriy etish lozim. Buning uchun dastlab, sohaga oid olimlarning tadqiqotlarini tahlil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Aralash ta’lim tushunchasi, aralash ta’lim texnologiyasining imkoniyatlariga oid tadqiqotlar I.A. Nagayeva [1], A.V.Loginova [2], M. L.Kondakova [3] kabi olimlarning ishlarida keltirilgan.

Xususan, I.A. Nagayevaning fikriga ko‘ra, aralash ta’lim texnologiyasi – bu qisman elektron va onlayn formatda o‘qitishga mo‘ljallangan texnologiyadir. Bunda talabalar qisman mustaqil ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi [1]. A.V.Loginova [2]ning ta’kidlashicha, aralash ta’lim elektron va an’anaviy ta’limning integratsiyalash asosida mashg‘ulotlarni hamda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyadir. M.L.Kondakovaning ta’bri bilan aytganda, aralash ta’lim texnologiyasining asosiy vazifasi global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan turli axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim platformalardan va ta’limga oid web-saytlardan foydalanib o‘qitishni nazarda tutib, masofaviy ta’lim uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi [3]. Shuningdek, auditoriyada o‘qitish va raqamli muhitda ta’lim olishni o‘zaro uyg‘ulashtiradi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining fanga oid egallagan bilimini mustaqil sinab ko‘rish imkonini beradi.

Ba’zi tadqiqotchilar aralash ta’limni turli masofaviy o‘qitishga bog‘laydilar. Bunda professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasida jonli muloqot majburiy hisoblanadi [4]. Ushbu texnologiyaning ta’lim muhitiga joriy etilishi muloqotning hissiy komponenti bilan birgalikda assotsiativ g‘oyalarni o‘zaro hosil qilishda interaktivlik, moslashuvchanlik kabi raqamli ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, aralash ta’lim texnologiyasi asinxron va sinxron o‘qitishning afzalliklarini birlashtiradi. Shu bilan birga quyidagi imkoniyatlarga ega:

- o‘rganish tendentsiyalari va fikr-mulohazalar. Onlayn va offlayn texnologiyalardan kompleks foydalanish tufayli professor-o‘qituvchilar o‘quv dasturiga yangi ta’lim texnologiyalari va uslublarini joriy etish;

- qabul qilish va shaxsiylashtirish. Ta'lim dasturlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi: u tanish bo‘lgan materialni o‘rganishi shart emas;

- Istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish. Raqamli o‘rganish deyarli barcha joyda mavjud: uyda, oliy ta’lim muassasalarida va hokazo.

Darhaqiqat, ralash ta’lim ta’lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilari uchun o‘quv trayektoriyalarini individuallashtirishga imkon beradi (o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligidan boshlab, bajarilgan vazifalar to‘plami bilan yakunlanadi) hamda ularning o‘quv faoliyatini nazorat va diagnostika qilishni avtomatlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aralash ta’lim bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan o‘qitish shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu shakldagi o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilari ta’lim muhitlari va bulutli xizmatlardan foydalangan holda mustaqil ta’lim oladi, agar tushunmaydigan savollar tug‘ilsa guruh bo‘lib onlayn va offlayn maslahatlashadi hamda professor-o‘qituvchi tomonidan yordam ko‘rsatiladi. Guruhli mashg‘ulotlar davomida aralash ta’limning qo‘llanilishi tufayli har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining o‘quv-ma’lumotlarini o‘zlashtirish borasida o‘zida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi, o‘tilgan o‘quv-ma’lumotlarni takrorlaydi va yangi mavzuni o‘rganish uchun tayyorlanadi. Aralash ta’lim ko‘p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma’lumotlar negizida tashkil etiladi, qo‘shimcha ma’lumotlar esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining ta’lim muhitlar orqali tarqatiladi. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilari ushbu muhitlardan foydalanib mustaqil ta’lim olar ekan, guruhning a’zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Shuningdek, ta’limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta’lim samarali ravishda uyg‘unlashtiriladi.

Aralash ta’lim texnologiyasining asosiy xususiyatlari va texnologiyalari yangi aloqa vositalari, vaqtni tejash, innovatsion diagnostika va nazorat dasturlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun quyidagi modellari mavjud [5]:

1. Face-to-Face Driver (Yuzma yuz) modeli: o‘quv dasturining muhim qismi oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining bilan bevosita hamkorlikda o‘rganiladi; raqamli ta’lim vositalari asosiy dasturga qo‘shimcha sifatida ishlatiladi;

2. Rotatsion model: o‘quv dasturini o‘tish jarayonida materiallari bilan ishlash usullarini almashtirish; o‘qish vaqti individual raqamli ta’lim va raqamli ta’lim uchun masofaviy yordam ko‘rsatadigan mashg‘ulot bilan auditoriyada ta’lim olish o‘rtasida taqsimlanadi:

2.1. Sinf almashinuvi: belgilangan jadval bo‘yicha yoki professor-o‘qituvchining xohishiga ko‘ra o‘quv materialini o‘rganish usullarini almashtirish, raqamli ta’limdan foydalanish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining guruhini yoki yakka tartibda qatnashish;

2.2. Teskari aloqa mashg‘ulotlari (Flipped Classroom): kunduzgi ta’lim faoliyati, shu jumladan loyihalar ustida ishlashning tasdiqlangan jadvalining mavjudligi; o‘rganish ustidan ma’lum bir nazorat bilan raqamli ta’limdan samarali foydalanish; raqamli ta’lim uchun joy tanlash, mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda foydalanish qobiliyati;

2.3. Individual: fanni o‘rganish uchun individual jadvalning mavjudligi, o‘qitishning majburiy onlayn bosqichi.

3. Flex model (Flexible model): raqamli ta’limdan samarali foydalanish; tinglovchilarga onlayn, offlayn va yuzma-yuz yordam ko‘rsatish; individual jadvalning mavjudligi; kichik guruhlarda ishlash; guruh loyihalarini tashkil etish; individual mashg‘ulot;

4. O‘z-o‘zidan aralashgan model: bir yoki bir nechta raqamli o‘quv kurslarini to‘liq onlayn o‘rganish; turli ta’lim muassaslarida bir vaqtning o‘zida o‘qitish;

5. Boyitilgan virtual ta’lim modeli: butun ta’lim muassasasining modeli; - ta’lim muassasasiga har kuni ixtiyoriy ravishda qatnashish; yuzma-yuz va masofaviy ta’lim kombinatsiyasi.

Har bir model aralash ta’lim texnologiyasining uchta komponentidan birining ustunligi bilan tavsiflanadi:

1. Ta’lim ishtirokchilarining bevosita shaxsiy o‘zaro ta’siri jarayoni;

2. Kompyuter texnologiyalari va raqamli ta’lim vositasida interaktiv o‘zaro ta’siri;

3. O‘z-o‘zini tarbiyalash.

Aralash ta’lim texnologiyasining keltirilgan modellari yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashda samarali hisoblanadi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining o‘z faoliyatini mohirona rejalashtirish ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi, ta’limni avtomatlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi va haqiqiy o‘quv materiallaridan foydalanishni ta’minlaydi.

Aralash ta’lim texnologiyasining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining ta’lim va tarbiya jarayoniga tadbiq etish uchun ta’limni avtomatlashtirish, mustaqillik, o‘z ishining natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni oshirish, ta’lim jarayonini tashkil etish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Shuning uchun bilimlarni professor-o‘qituvchidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining o‘tkazish jarayonini tezlashtirishda aralash ta’lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qo‘llanilishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamda ta’lim tizimini tashkil etishni takomillashtirishni, yangi ta’lim standartlariga rioya qilish zarurligini anglatadi. Aralash ta’lim texnologiyasi an’anaviy taqdimot va ma’lumotlarni onlayn ma’ruzalar, forumdagi uchrashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘rganish uchun keng imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashda aralash ta’lim texnologiyasini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilari jalb etilib, ular tajriba (32 nafar) va nazorat (33 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga mashg‘ulotlar aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanib tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba va nazorat guruhiga ajratilgan Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tajriba boshi va oxridagi ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tajriba boshi va oxiridagi dagi ko‘rsatkichlari

O‘zlashtirish darajalari	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
A’lo	4	6	4	4
Yaxshi	8	16	10	11
Qoniqarli	17	9	15	15
Qoniqarsiz	3	1	4	3

Ushbu 1-jadvaldagi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tajriba oxridagi natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini qiyida keltirilgan (2- rasmga qarang):



2-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta

$$\overline{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{4} n_i X_i$$

qiymatlar , tarqoqlik koeffitsiyentlarini

$$D_n = \sum_{i=1}^{4} \frac{n_i (x_i - \overline{X})^2}{n-1}$$

, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlashda esa A % $= \frac{\overline{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\overline{Y}}{3} \cdot 100\%$ formulalaridan fodalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba sinfining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 8,9 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining tayyorlashda o‘qitiladigan kasbiy fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Нагаева, И.А. Смешанное обучение в современном образовательном процессе: необходимость и возможности[Текст] / Нагаева И.А. // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2016. – № 6. – С. 56–67
2. Логинова, А.В. Смешанное обучение: преимущества, ограничения и опасения / А. В. Логинова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 7 (87). — С. 809-811. — URL: https://moluch.ru/archive/87/16877/ (дата обращения: 12.03.2025).
3. Кондакова М.Л. Смешанное обучение: ведущие образовательные технологии современности / М. Л. Кондакова, Е. В. Латыпова // Вестник образования, – М., 2013. – №5. – С. 83-91.
4. Долгова Т.В. Смешанное обучение – инновация XXI века [Электронный ресурс] / Т.В.Долгова // Интерактивное образование: информационно-публицистический образовательный журнал. – 2017. – №5. – С. 2-3. URL: http://interactiv.su/wp-content/uploads/2017/12/IO_5_interactive.pdf (дата обращения: 24.02.2020).
5. Хорн М. Смешанное обучение: использование прорывных инноваций для улучшения школьного образования / М.Хорн, Х.Стейкер. – Калифорния: Jossey-Bass, 2015. – 343 с.
6. «Смешанное обучение: возможности и риски. Организация образовательного процесса по технологии на основе моделей смешанного обучения» / Сост. Аверкова М.А. – Пенза, 2020. – 44 с.
7. Васильева Ю.С. Смешанное обучение: модели и реальные практики / Ю.С.Васильева, Е.В.Родионова, Н.В.Чичерина // Открытое и дистанционное образование. 2019. – № 1 (73). – С. 22-32.
8. Краснова Т.И. Смешанное обучение как новая форма организации языкового образования в неязыковом вузе / Т. И.Краснова, Т.В.Сидоренко // Образовательные технологии и общество. – 2014. – Т.17. – № 2. – С. 403-413.
9. Кравченко Г.В. Использование модели смешанного обучения в системе высшего образования / Г.В.Кравченко // Изв. Алтайского гос. ун-та. – 2014. – Т.1, – № 2(82). – С. 22-25
10. Малинина И.А. Применение технологий смешанного обучения иностранному языку в высшей школе / И.А.Малинина // Современные научные исследования и инновации. 2013. – № 10. – С. 234-238.
11. Матухин Д.Л. Технология организации смешанного обучения иностранному языку в высшем учебном заведении / Матухин Д.Л.// Междунар. журн. Прикладных и фундаментальных исследований. 2015. – № 5-4. – С. 592-596.
12. Полухина О.П. Формирование профессионально-личностной позиции бакалавра-психолога на основе технологии смешанного обучения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Курск 2020. – 178 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:53.35.014.52

Mohira SATTOROVA,
Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti
E-mail: sattorovamohira1022@gmail.com

QarDTU dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

This article examines the pedagogical and psychological aspects of organizing inclusive education in general education schools. The necessity of implementing specialized pedagogical approaches, adapted curricula, and psychological support systems for the successful realization of inclusive education is emphasized. Key factors such as teachers' professional competence, students' individual needs, and the flexibility of the educational environment are also analyzed. The article presents advanced pedagogical practices and recommendations for the effective organization of inclusive education.

Key words: Inclusive education, pedagogical-psychological approach, adapted curriculum, special pedagogy, flexibility of the educational environment, teacher competence, individual approach.

НАУЧНЫЕ И ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах. Подчеркивается необходимость внедрения специальных педагогических подходов, адаптированных учебных программ и психологической поддержки для успешной реализации инклюзивного обучения. Также анализируются ключевые факторы, такие как профессиональная компетентность учителей, индивидуальные потребности учащихся и гибкость образовательной среды. В статье приводятся передовой педагогический опыт и рекомендации по эффективной организации инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, педагогико-психологический подход, адаптированная учебная программа, специальная педагогика, гибкость образовательной среды, компетентность учителя, индивидуальный подход.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ta’lim muassasalarida maxsus pedagogik yondashuvlar, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari joriy etilishi lozimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va ta’lim muhitining moslashuvchanligi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalar va tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, pedagogik-psixologik yondashuv, moslashtirilgan o‘quv dasturi, maxsus pedagogika, ta’lim muhitining moslashuvchanligi, o‘qituvchi kompetensiyasi, individual yondashuv.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi muhim o‘rin tutib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga, jumladan, nogironligi yoki maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarga teng sharoit yaratish tamoyiliga asoslanadi. Bunday ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarning o‘rni katta bo‘lib, ular ta’lim muhitining moslashuvchanligi, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlashni talab etadi. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonuniy va metodologik asoslar ishlab chiqilgan. Biroq, amaliyotda inklyuziv ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish turli pedagogik va psixologik muammolarni hal qilishni talab etadi. Jumladan, umumta’lim maktablarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim jarayonida differensial yondashuvdan foydalanish va pedagoglarning maxsus tayyorgarligini oshirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinib, ta’lim muassasalarida samarali inklyuziv ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur mavzu bo‘yicha ilg‘or tajribalar, ilmiy asoslangan yondashuvlar hamda amaliy metodlar tahlil qilinib, inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Maxsus pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

eshitish kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo‘lib qolgan bolalar);

ko‘rish qobiliyati zaif (ko‘r, zaif ko‘ruvchi bolalar);

aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;

nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

harakat-tayanch a’zolarida kamchiliklari bo‘lgan bolalar;

ruhiy rivojlanishi sust bolalar;

mujassam kompleks nuqsonli ko‘r-kar-soqov bolalar;

rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalar;

autizm sindromiga chalingan bolalar.

Imkoniyati cheklangan bolalar meyorda rivojlangan tengdoshlari orasida inkluziv ta’limda yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta’sir etgan nuqsonlargina uni imkoniyati cheklangan bola deb hisoblashga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog‘i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o‘zlashtiradigan bo‘lsa, u imkoniyati

cheklangan bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma’lum sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta’sir etmasa, bu kishini imkoniyati cheklangan deb hisoblash mumkin emas.

Individual ta’lim rejasi: Har bir o‘quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos keladigan ta’lim rejalari ishlab chiqiladi. Bu, bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirishga va uni muvaffaqiyatli ta’lim olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Reja individual o‘qish tezligi, usullar, qo‘shimcha materiallar va yordamchilarni o‘z ichiga oladi.

Tashkiliy yondashuv: Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun darslarni kichik guruhlarda yoki individual tarzda olib borish mumkin. Bu metod o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini yaxshiroq namoyon etishlariga yordam beradi, chunki ular o‘z qobiliyatlariga mos ravishda ta’lim oladilar.Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’limda vizual va taktil vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarga dars materiallarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, chunki ular ko‘rish yoki tegish orqali bilib olishadi. Boshqa vositalar orqali tushuntirish: O‘quvchilarga rasm, grafiklar, diagrammalar, jadvallar yordamida ma’lumotlarni tushuntirish. Bu o‘quvchilar uchun yaxshiroq tasavvur yaratishga yordam beradi.

Taktil materiallar: Braille yozuvi, taktil kartalar va modellar, o‘quvchilarga aniq tushunchalarni shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Taktil usullar, ayniqsa, ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun muhimdir. Aqliy va jismoniy cheklovlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun ovozli yordamchi vositalardan foydalanish samarali metodlardan biridir. Ovozli metodlar o‘quvchilarning ta’limda faolligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, ular uchun interaktiv va qiziqarli bo‘ladi.

Ovozli kitoblar va audio materiallar: Ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun matnlarni ovozli formatda taqdim etish. Bu yordamchi vosita o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘qish va tinglash imkoniyatini yaratadi. Interaktiv dasturlar: Kompyuterlar yoki mobil ilovalar orqali o‘quvchilarga turli audio-visual materiallarni taqdim etish, ular o‘rganayotgan mavzularni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning emotsional holatini tushunish va ularga psixologik yordam ko‘rsatish muhimdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pincha o‘zlarini izolyatsiya qilingan yoki noqulay his qilishi mumkin, shuning uchun ularning emotsional va psixologik holatini kuzatib borish zarur.

Psixologik yordam: Psixologik maslahatlar va yordam, bolalar o‘z-o‘zini anglash, xavotirni yengish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z fikrlarini erkin ifodalashni o‘rganishlari uchun muhimdir. Psixologlar bilan ishlash bolalarga o‘zining ijtimoiy va emotsional rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

Pozitiv ruhiy holatni yaratish: O‘quvchilarga o‘zlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish va muvaffaqiyatlariga e’tibor qaratish zarur. O‘qituvchilar ijobiy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini tan olish va ularni rag‘batlantirishlari kerak. O‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun jamoaviy ishlash va guruh faoliyatlarini tashkil etish kerak. Bu metod, o‘quvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish, yordam berish, o‘zaro hurmatni o‘rnatish va jamiyatda integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Guruh ishlari: Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni boshqalar bilan birga guruhlarda ishlashga rag‘batlantirish. Bu, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rgatadi. Integratsion loyihalar: O‘quvchilarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish va turli integratsion loyihalarda ishtirok etishini ta’minlash. Bu orqali o‘quvchilar jamiyatda o‘z o‘rinlarini topadilar va boshqalar bilan to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganadilar. Pedagogik-psixologik metodlar faqat o‘quvchilarni baholash tizimi orqali samarali bo‘lishi mumkin. Baholash o‘quvchilarning rivojlanish jarayonini doimiy ravishda kuzatishga yordam beradi va kerakli o‘zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi. Formativ baholash: O‘quvchilarning har bir bosqichdagi o‘zgarishlari va rivojlanishini kuzatib borish va ta’lim jarayonida ular uchun kerakli tuzatishlarni kiritish. Bu, o‘quvchilarga o‘zlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Summativ baholash: O‘quvchilarning umumiy yutuqlarini va erishgan natijalarini baholash, ularning umumiy rivojlanishini o‘lchash. Bu jarayon o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyat-larini va qiyinchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Inklyuziv ta’limda o‘qituvchilarning pedagogik usullari o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lishi zarur. O‘qituvchilar har doim yangi metodlarni sinab ko‘rishlari, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishlari va eng samarali ta’lim usullarini tanlashlari kerak. Yangi texnologiyalardan foydalanish: O‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni va interaktiv vositalarni o‘z ishida qo‘llashlari, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

O‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish: O‘qituvchilar o‘z pedagogik usullarini tahlil qilib, ular ustida ishlashlari, o‘z malakalarini doimiy ravishda oshirishlari kerak.Inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik- psixologik metodlar muhim ahamiyatga ega. Ularning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarning rivojlanishiga, jamiyatga integratsiyasiga va ta’limda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik-psixologik metodlarni qo‘llash orqali inklyuziv ta’limni yanada samarali tashkil etish mumkin.

Xulosa. Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojla- nishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko‘pgina choralar ko‘rilmoqda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O‘zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan imkoniyati cheklangan bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o‘lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida imkoniyati cheklangan bo‘lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning imkoniyati cheklangan bo‘lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning hayot sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.
2. Rasulova Z. X. Inkluziv ta’lim: pedagogik va psixologik jihatlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Mirzaeva G. M. Inkluziv ta’limning nazariy asoslari va pedagogik yondashuvlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
4. Пидкасистый П. И. Педагогика: инклюзивное образование. – Москва: Академия, 2017.
5. Воронкова В. В. Основы инклюзивного образования. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
6. Оқилова С. Инклюзив таълимда педагогик инновациялар. – Тошкент: Илм-фан, 2021.Berdiyeva Gulobod Shonazarovna, Nargiz Irkinovna Djumayeva. "Гуманизация процесса профессионально-педагогической подготовки будущих учителей". Образование и воспитание 3 (2015): 1-2.
7. Исмоилова, Ю. Т . Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки // Образование и воспитание. — 2015. — № 3 (3). — С. 9-11. — URL: https://moluch.ru/th/4/archive/9/141/ (дата обращения: 15.02.2023).
8. Yulduz I, M Umida. Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers- Бюллетень науки и практики, 2021ю Related articles All 2 versions. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.

9. Ismoilova Yulduzkhon Turaevna . MORALITY AS A COMPONENT OF THE IMAGE OF THE MODERN TEACHER .European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page 141 www.idpublications.org.
10. Ismoilova Y. T.. Important Aspects of Forming Critical Thinking in School-Age Children in Digital Education Conditions. Vol. 3 No. 2 (2024): International Journal of Formal Education.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 1/14.3.378

Xurshid SALAMOV,
Renessans ta’lim universiteti tadqiqotchisi

Renessans ta’lim universiteti dotsenti, PhD J.Jo‘raqulov taqrizi asosida

YOSHLAR MA’NAVIY-MAFKURAVIY KAMOLOTIDA BUYUK AJDODLARIMIZ DINIY VA DUNYOVIY QARASHLARINING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada IX-XII va XIV asr oxiri va XV asr O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma‘daniy-ma‘naviy, ma‘rifiy hayotida tub burilishlar, Temuriylar davridagi yuksalgan ilm va fanni yuksalishi, Mirzo Ulug‘bekni fan, madaniyat va ma‘rifat rivojiga qo‘shgan hissasi, Alisher Navoiyning asarlarida odob-axloq, ma‘naviy yetuklik kabi sifatlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, ma‘naviyat, ma‘rifat, renossans, insonparvarlik, tenglik, adolat, ma’rifat.

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ И МИРСКИХ ВЗГЛЯДОВ НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ В ДУХОВНО-МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКОЙ ЗРЕЛОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются коренные изменения в социально-экономической, политической, культурно-духовной, просветителской жизни народов Средней Азии IX-XII и в конце XIV и XV веках, подем передовых знаний и науки в период Тимуридов. В произведениях Алишера Навои анализируются наука, культура Мирзо Улугбека и вклад Алишера Навои в развитие благосостояния, таких качеств, как нравственност и духовная зрелост.

Ключевые слова: Патриотизм, духовност, просвещеэние, ренессанс, гуманност, равенство, справедливост, просвещение.

THE ROLE OF RELIGIOUS AND SECULAR VIEWS OF OUR GREAT ANCESTORS IN THE SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL MATURITY OF YOUTH

Annotation

This article examines the fundamental changes in the socio-economic, political, cultural, spiritual, and educational life of the peoples of Central Asia in the late 9 th and 12th, 14th and 15th centuries, the rise of advanced knowledge and science during the Timurid period. The works of Alisher Navoi analyze science, the culture of Mirzo Ulugbek, and Alisher Navoi‘s contribution to the development of well-being, such qualities as morality and spiritual maturity.

Key words: Patriotism, spirituality, enlightenment, renaissance, humanity, equality, justice, enlightenment.

Kirish. O‘zbekiston o‘zining tarixida buyuk madaniy yuksalishlar uyg‘unligini shakllantirgan, ular vositasida mutloqo yangicha sivilizatsiyalar, yangicha madaniy-ma’naviy qadriyatlar yaratgan o‘lkadir. O‘zbek xalqi o‘zining o‘tmish tarixida bir necha bor Uyg‘onish davrlarini shakllantira olgan hududning qadimiy xalqlaridan biridir. Bunday Uyg‘onish davrlarini yuzaga chiqarishda ajdodlarimizning diniy va dunyoviy qadriyatlari, urf-odatlari, madaniyati va bu o‘lkada ilmu-urfon uchun yaratilgan shart-sharoitlar asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois bu o‘lkadan Abu Nasr Farobiy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Burxoniddin Marg‘iloniy, Al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi Renessansning asosini qo‘yib bergan ulug‘ allomalar yetishib chiqqan.

Islomiy qadriyatlarni, Qur’oni Karim, Muhammad payg‘ambarimizning Hadislarini o‘rganish asnosida ularda, milliy ma’naviyatimiz uchun juda ham muhim bo‘lgan bironta ham masala e’tibordan chetda qolmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ulardagi odob-axloq,, halolik va poklik, iymon-e’tiqod va vijdod, mehr-oqibat, og‘ir sinovlarga bardoshli bo‘lish, bir-birini moddiy-ma’naviy, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, hamdard, hamnafas, hamfikr, yelkadosh bo‘lish, tinchlik osudalikni saqlash, mehnat qilib, birovlarning haqiga xiyonat qilmasdan, poraxo‘rlik qilmasdan halol pokiza yashash haqidagi va boshqa g‘oyalar, ta’limotlar umuminsoniyatga bevosita daxldordir.

Biz o‘z millatimizni, milliy urf-odatlarimiz va ma’naviyatimizni islom dini ta’limotisiz tasavvur eta olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimiz, ongimiz, qalbimiz, jismu jonimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz o‘zligimizni yo‘qotamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkentda ish boshlagan Islom Hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi majlisining ochilish marosimida: Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma’naviy hayotini, dinu diyonatimizni islom dinisiz tasavvur eta olmasligimizni, qolaversa, islom dini tinchlikka, ma’rifatga va ma’naviy boylikka da’vat etadigan din ekanligini ta’kidlab, "Shu ma’noda bizning buyuk ajdodlarimiz - Islom dunyosining mutafakkirlari yutuqlari, ularning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo‘shgan mislsiz hissalarini o‘rganish va ommalashtirish o‘ta muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston islomiy madaniyat noyob merosiga ega va Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Imom al-Moturidiy va boshqa buyuk arboblarning nomlari nafaqat musulmon mamlakatlari va butun dunyoga yaxshi tanish"[1] , degan chuqur ma’noli so‘zlari fikrimizga yorqin misol bo‘ladi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tibor nimalarga qaratilayotgani haqida gapirib, quyidagilarni bayon etdi: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tibor 5 ta ustuvor yo‘nalishga qaratilmoqda. Bular: sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlash. Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir”[2].

Yurtboshimizning ushbu takliflari mohiyatidan anglash mumkinki, o‘zlikni anglash, yoshlar ma’naviy-mafkuraviy kamolotida dunyoviy va diniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi, ilm-ma’rifat, uchinchi Renesansga xos dunyoqarash bilan, say-harakat bilan yashashga har bir yoshni da’vat etadi.

Bizga ma’lumki, IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda vujudga kelgan mustaqil davlatlar xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning o‘sishi nafaqat tabiiy, texnikaviy balki ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Ko‘pgina hukmdorlar o‘z saroylarida faylasuflar,

tarixchilar, shoirlar va yozuvchilarni, musiqashunoslar va munajjimlarni, diniy ulamolar, shayxlar, imomlar va huquqshunoslarni bir so‘z bilan aytganda barcha donishmandlarni to‘plab, ilm ahllariga muruvvat ko‘rsatib homiylik qilganliklari, o‘sha davrdagi ilm-fan va madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyotiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi.

Jamiyat taraqqiyoti o‘rtaga qo‘ygan obyektiv talab va ehtiyojlar asosida hamda yaratib berilgan qulay shart-sharoit va imkoniyatlar tufayli IX-XII asrlarda Turkistonda ilm-fan va madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat gurkirab rivojlangan, Uyg‘onish jarayoni ro‘y bergan.

Ana shu davrlarda Sharq va G‘arbda o‘rta asr matematika ilmi va maktabining asoschilari, “Ikkinchi muallim” yoki “Sharq Aristoteli” unvoniga sazovor bo‘lgan buyuk allomalar, tibbiyot ilmining eng yuqori cho‘qqisi “Shayx ul-Rais” yoki “Olimlar podshohi” , Sharqninggina emas, balki butun insoniyatning ham faxr-iftihori bo‘lgan qomusiy aql egalari, islom dini, madaniyati va fanida, Hadis ilmining buyuk shayxlari behisob darajada ko‘p yetishdilar.

IX-XII asrlarda Sharqda Turonu Turkistonda ilk bor ro‘y bergan Uyg‘onish haqida akademik M.Xayrullayev shunday yozgan: « IX-XII asrlarga kelib… ilmiy madaniy yuksalish Bag‘doddan Movarounnahr, Xuroson yerlariga ko‘chdi, bu davr turli ilm, adabiyot sohasida buyuk siymolarni yetishtirdi. Bu madaniy to‘lqin Movarounnahrni butun islom dunyosida ilmiy madaniy markaz sifatida nom qozonishga olib keldi. Bu davrni Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri-Renesansi deb, atamoq mumkin. Bu davr madaniyat yutuqlari G‘arbiy Yevropa mamlakatlari madaniyati rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. U yerdagi XV-XVI asr renesansi madaniy yuksalishida muhim omillardan biri bo‘ldi»[3].

Dastlabki Uyg‘onish davrida Movarounnahr va Xurosondan, ayniqsa, Xorazm va Buxorodan yetishib chiqqan buyuk olimlar Damashq, Qohira, Bag‘dod, Kufa, Basra singari yirik shaharlarga borib o‘zlarining yorqin va betakror ijodlari, bebaho aql-idrok va tafakkurlari bilan jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shganlar. IX asrda Bag‘dodda tashkil etilgan “Baytul-hikma” (Donishmandlar uyi)da nomlari dunyoga mashhur alloma va mutafakkirlarimiz ustozlik qilganlar. Ular ijodida Sharq va G‘arb madaniyati, ma’rifati yutuqlari, eng ilg‘or g‘oya va ta’limotlar sintezlashgan. Bu davrda yurtimiz jahon sivilizatsiyasining markazlaridan hisoblangan.

IX-XII asrlarda Movarounnahrdan yetishib chiqqan buyuk hadischilar, tariqatchilar, fiqhchilar, diniy va dunyoviy ilm daholari, faylasuflar, tarixchilar, me’morlar, bastakorlar, hattotlar dunyo ilm fani va madaniyati taraqqiyotida peshqadamlik qilganlar.

IX asr hadis ilmi rivojida oltin davr hisoblanadi. Muhaddislar Ichida eng mashhuri, islom olamining iftihori Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) dir. Yaratgan Imom al-Buxoriyga behad keng va ziyrak qalb, kuvhli xotira hamda o‘tkir zehn ato etgan. 600 ming hadisni yod bilish uchun qanday aql va bilim kerakligini ko‘z oldimizga keltirsak hayronu lol bo‘lib qolamiz.

“Al-jomi’ as-Sahih-uzoq yillar davomida olib borilgan mashaqqatli va o‘ta mas’uliyatli mehnatning buyuk samarasi hisoblanadi. Bu haqda Imom al-Buxoriyning o‘zlari: “Men Al-Jome’ as-Sahihni” olti yuz ming hadisdan (sahihlaridan saralab olib) o‘n olti yilda tasnif etdim va uni o‘zim bilan Olloh taolo o‘rtasidagi (ahdu paymonga vafo qilg‘onimning)dalili qildim”[4].

Imom Buxoriy o‘zlarini yuqoridagi asarlarida 600 ming hadisdan faqat 7275 tasigina Payg‘ambarimiz muborak so‘zlari, diniy va dunyoviy ko‘rsatmalari, hikmatlari, axloqiy o‘gitlari ekanligini shak-shubhasiz to‘g‘ri va rost, gumondan holi bo‘lganlarini ajratib olib saqlab qolganlar.

Asarda ifoda etilgan masalalar nafaqat o‘tmish uchun, ayni paytda hozirgi davr va kelajak uchun ham ahamiyatlidir.

“Al-Adab al-mufrat” (Adab durdonalari) Imom al-Buxoriyning axloq va odob masalalariga bag‘shlangan eng nodir asarlaridan hisoblanadi. Asarda “Onani rozi qilish haqida”, “Ota onaga muloyim gapirish haqida”, “Qo‘shnining haqi to‘g‘risida”, “Yetimlarga marhamatli bo‘lish haqida”, “Yaxshi xulqlik bo‘lish haqida”, “Baxillik haqida”, “Molni tejash va ko‘paytirish haqida”, “Takabburlik haqida”, “Hayo, uyatchanlik haqida” deb nomlangan boblaridan ham bilib olish mumkin.

Asarning Ota-onani mukofotlash bobida: “Bola ota-onasiga har qancha yaxshilik qilsa ham, ularning yaxshiligini qaytara olmaydi. Faqat, uni qul holida topsayu, sotib olib, ozod qilsa, bundan mustasno”,-dedilar”[5].

Agar mazkur kitobning barcha hadislarini sinchiklab o‘qib o‘ganilsa bu hadislar insonni, ayniqsa yoshlarni madaniy-ma’naviykamolotga, ma’rifatli bo‘lishga da’vat etilayotgani ravshan bo‘ladi.

XIV asr oxiri va XV asr O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma’daniy-ma’naviy, ma’rifiy hayotida tub burilish, gullab-yashnagan davr, ikkinchi Uyg‘onish davri bo‘lib tarixga muhrlandi[6].

Shavkat Mirziyoyev saylovoldi dasturi yuzasidan ma’ruza qilib samarqandni milliy davlatchiligimizdagi o‘rni haqida to‘xtalib shunday degandi: “ Jahon ilm-fanida “G‘arbda – Rim, Sharqda – Samarqand” degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. Ayniqsa buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi”[7].

Xerman Vamberi Samarqand o‘rta asr dunyosining asl madaniy-ma’naviy va savdo maskanlaridan biriga aylanganligini quyidagicha ifodalagan: «Samarqandning butun Osiyo savdosida mol ombori o‘rnini olganini fahmlash juda oson deb o‘ylaymiz. Bu yerda Hindistondan juda ko‘p attorlik va bo‘yoq tijorat karvonlari kelib turardi. Xitoy bu yerga ipak gazlamalar, chinni kosalar, qadahlar, mushk, qimmatbaho toshlar yuborardi.Mamlakatning shimol tarafidan noyob po‘stinlar kelar edi. Ushbu turli iqlimlarning mollari Samarqand bozorlarida toy-toy bog‘lanib, Osiyoning eng katta shaharlariga va Buyuk Ipak yo‘li orqali G‘arbiy Yevropaga jo‘natilar edi. Nihoyatda qo‘rqinchli zamonlar bo‘lishiga qaramay, Temut hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo juda jonli va xavfsiz edi. Biz qayta-qayta zikr etgan Ispaniya elchilari bunga eng ishonchli shohiddirlar»[8].

Har bir zamon o‘zining ulug‘ siymolarini yaratgan va yaratadi. XIV-XV asrlarda bir qancha buyuk olimlar, nomi dunyoga mashhur ulug‘ shoir va mutafakkirlarni yetishtirdi. Alisher Navoiy ana shunday buyuk zotlardan biri hisoblanadi.

Navoiy insoniyat o‘tmish madaniy-ma’naviy merosiga, diniy-axloqiy, falsafiy ta’limotlariga hech qachon befarq bo‘lmagan. U bashariyat mutafakkirlari tomonidan turli davrlar va tillarda yaratilgan barcha tarixiy, badiiy, falsafiy, diniy, axloqiy mazmundagi kitoblarni o‘rgangan.

Alisher Navoiy asarlari jamiki odamizotga mehnat va halollikdan, do‘stlik va hamkorlikdan, rostgo‘ylik, soflik va samimiylikdan muhim hayotiy saboq bermoqda, Buning ustiga xaromxo‘rlik va adolatsizlikni, o‘zaro nizo va qonli to‘qnashuvlarni, vayronagarchiliklarga sabab bo‘ladigan urushlarni Keskin qoralagan. Ana shu ma’noda olganda Alisher Navoiy ta’limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham egadir.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shuni ayta olamizki, yoshlarda ijtimoiy darajadagi o‘zlikni anglash muhim vazifa bo‘lmog‘i lozim. Milliy ma’naviyatimiz va ma’rifatimiz rivojida islom ta’limoti, islom dinining ilohiy manbalari-Qur’oni Karim va Hadisi Shariflar qanchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi, ushbu manbalar yo‘l-yoriqlari, vazifalarini o‘tganligi haqiqatdir. Alloh taalo Qur’oni Karimni arablarga in’om etgan bo‘lsada, bu muqaddas Ilohiy Kalomning ilmiy-nazariy, amaliy-dunyoviy talqinini, sharhini vatandoshlarimiz bo‘lgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy singari buyuk islomshunoslarga ravo ko‘rdi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Islom dinini muhofaza qilishga chaqirdi. https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-37689456
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/7519
3. Ma’naviyat yulduzlari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999, 387-bet.

4. Imom al-Buxoriy-muhaddislar sultoni. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 1998, 56-57 betlar.
5. Al-adab al-Mufrat.T., “Sharq”, 2008, 72-bet.
6. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2021, 122-bet.
7. O‘zbekiston respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2021-yil 24-sentyabr.
8. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 55 bet.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:372.3/.4(075.8)

Muhriddin TADJIDINOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:muhriddin@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori,p.f.d A.A.Ismanova taqrizi asosida

CONTENT AND MODERN TRENDS OF DIGITALIZATION IN MEDICINE

Annotation
It is difficult to imagine today without information and communication technologies (ICT). After all, these technologies have changed our ability to communicate through various communication systems and our ideas about the methods of obtaining information in a short period of time. Currently, ICT is widely used in all spheres of social life - in public administration, economy, medicine, education, science and culture, everyday life and other areas. From this point of view, it is no exaggeration to say that no country can successfully develop socio-economically without developing ICT. The article discusses these issues.
Key words: Information and communication technologies (ICT), education, student, digitization, medical education, electronic methodological support, information technology, reforms, knowledge, efficiency.

СОДЕРЖАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЦИФРОВИЗАЦИИ В МЕДИЦИНЕ

Аннотация
Трудно представить сегодняшний день без информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Ведь эти технологии за короткий промежуток времени изменили наши возможности общения посредством различных систем связи и наши представления о способах получения информации. В настоящее время ИКТ широко используются во всех сферах жизни общества – в государственном управлении, экономике, медицине, образовании, науке и культуре, быту и других сферах. С этой точки зрения можно без всякого преувеличения сказать, что без развития ИКТ страна не может успешно развиваться с социальной и экономической точки зрения. В статье рассматриваются эти вопросы.
Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), образование, студент, цифровизация, медицинское образование, электронное методическое обеспечение, информационные технологии, реформы, знания, эффективность.

TIBBIYOTDA RAQAMLASHTIRISHNING MAZMUNI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya
Bugungi kunni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)siz tasavvur kilish mushkul. Zero, bu texnologiyalar qiska muddat ichida bizning turli aloka tizimlari orqali muloqot qilish imkoniyatlarimizni va axborot olish usullari to‘g‘risidagi tasavvurlarimizni o‘zgartirib yubordi. Xozirda AKTdan jamiyat turmushining barcha soxalarida - davlat boshqaruvida, iktisodiyot, tibbiyot, ta’lim, fan va madaniyat, maishiy turmush va boshqa soxalarda amaliy jixatdan keng foydalanilmokda. Shu nuktai nazardan, xech qanday mubolag‘asiz aytish mumkinki, biror-bir mamlakat AKTni rivojlantirmay turib, ijtimoiy - iktisodiy jixatdan muvaffakiyatli rivojlana olmaydi. Maqolada ana shu masalalar haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ta’lim, talaba, raqamlashtirish, tibbiy ta]lim, elektron metodik ta’minot, axborot texnologiyasi, islohatlar, bilish, samaradorlik.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risi”dagi Farmoni ning 9-bandida: “Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta’minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida:

-aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi «To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi» umummilliy harakati yo‘lga qo‘yish;

-aholiga smartfon va mobil ilovalar yordamida o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilishni o‘rgatish, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish;

-vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma’lumotnomalarni berish respublikaning boshqa hududlarida — 2024 yil 1 yanvardan boshlab elektron shaklga o‘tkazish;

-aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta’minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida Uzluksiz tibbiy ta’lim tizimini yshlga qo‘yish....” vazifasi belgilab berilgan.

Uzluksiz tibbiy ta’lim (UTT) – bu shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, yangi tibbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda tibbiyotdagi so‘nggi ilmiy yutuqlardan boxabar bo‘lib borish maqsadida tashkil etiladigan uzluksiz o‘quv jarayonidir.Tibbiyot tez o‘zgarib borayotgan sohalardan biri bo‘lib, shifokorlar yangi texnologiyalar, davolash va diagnostika usullari haqida muttasil ravishda ma’lumot olib borishlari kerak. Shu sababli, UTT shifokorlarning kasbiy malakasini uzluksiz ravishda rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimidir.

Uzluksiz tibbiy ta’limning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

-kasbiy malaka va bilimlarni oshirish – yangi tibbiy yutuqlar, davolash va diagnostika usullari, tibbiy standartlar haqida yangilangan ma’lumotlar olish.

-shifokorlarning tibbiy qonunchilik va axborot texnologiyalari bo‘yicha xabardorligini oshirish.

-tibbiy xizmat sifatini yaxshilash – shifokorlar yangi davolash va tashxis qo‘yish usullarini qo‘llab, samarali xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.

-ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlantirish – tibbiyotda yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularni amaliyotga joriy qilish.

-shifokorlarning xalqaro standartlar va klinik protokollar bo‘yicha bilimlarini oshirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida uzluksiz tibbiy ta’limning rivojlanishi talabalar yangi farmakologiya va davolash metodlari bilan tanishadilar, tibbiy diagnostika usullarini takomillashtirish, tibbiy axborot texnologiyalaridan foydalanish, Elektron tibbiy karta (EHR/EMR) tizimlari bilan ishlash, Sun’iy intellekt va telemedisina imkoniyatlaridan foydalanish va raqamli tashxislash usullari (rentgen, UZI, MRI, KT) bilan ishlashni o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Uzluksiz tibbiy ta’limni rivojlantirishda raqamlashtirishning ahamiyati shundan iboratki, xozirgi kunda raqamli ta’lim texnologiyalari UTTda muhim o‘rin tutmoqda. Bu orqali shifokorlar tibbiy kurslarni onlayn tarzda o‘qib, malaka oshirishlari mumkin.Virtual simulyasiya va telemedisina vositalari orqali yangi tashxislash va davolash uslublarini mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Sun’iy intellekt va tibbiy ma’lumotlar tahlilini o‘rganib, zamonaviy tibbiyotga integrasiyalash imkoniga ega bo‘ladilar. Yangi tibbiy bilimlar, tashxislash va davolash usullari bo‘yicha mukammal tayyorgarlik hosil qilishlari mumkin. Tibbiy xizmat sifatini yaxshilash uchun yangi metodlar va texnologiyalar orqali bemorlarga sifatli va samarali yordam berish xizmati yo‘lga qo‘yiladi. Tibbiyotda innovasiyalarni joriy qilish orqali ilg‘or texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga erishiladi. UTT an’anaviy va raqamli ta’lim shakllarini birlashtirib, yangi texnologiyalardan foydalanish orqali tibbiy kasb egalarining malakasini doimiy ravishda oshirishga yordam beradi.Shuning uchun uzluksiz tibbiy ta’lim har bir bo‘lajak shifokorlar uchun majburiy va zarur jarayon hisoblanadi. Buning uchun esa nozirgi kunda tibbiyot sohasida raqamlashtirish jadal rivojlanib borayotgani sababli bo‘lajak shifokorlarning elektron metodik ta’minot yaratish kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki zamonaviy tibbiy ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni, balki raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishni ham talab qiladi. Muammoning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda tibbiyotda raqamlashtirishning ta’limga ta’siri taxlil qiladigan bo‘lsak, talabalar dars jarayonlarida elektron darsliklar va ta’lim platformalaridan foydalanmogdalar. Bo‘lajak shifokorlar uchun an’anaviy o‘quv materiallarining o‘rniga interaktiv platformalar (Coursera, Medscape, UpToDate) keng qo‘llanilmoqda. Tibbiy ta’limga virtual va simulyatsion treninglar kirib kelmoqda. 3D anatomiya dasturlari, VR simulyatorlar jarrohlik amaliyotlarini o‘rgatishda keng qo‘llanilmoqda. Tibbiyotga elektron poliklinikalar kirib kilishi tufayli bo‘lajak shifokorlar elektron hujjatlar bilan ishlashni bilish muxim bolib qolmogda. Shifokorlar bemorlar haqida ma’lumotlarni elektron tibbiy kartalar (EMR, EHR) orqali qayd etishlari kerak. Taxlillar shuni ko‘rsatmogdaki, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida talabalarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasi shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmayapti.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyotda raqamlashtirish – bu sog‘liqni saqlash tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va ma’lumotlarni avtomatlashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshirish, bemorlar haqida to‘liq va aniq ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash hamda tahlil qilish imkonini beradi. Tibbiyotda raqamlashtirish – bu sog‘liqni saqlash tizimining turli bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy qilish orqali tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash hamda bemorlarni samarali boshqarishni yo‘lga qo‘yish jarayonidir. Raqamlashtirish natijasida tibbiyot muassasalari faoliyati optimallashtiriladi, tibbiy ma’lumotlarni saqlash va almashish samaradorligi oshadi hamda davolash jarayoni tezlashadi. Hozirgi kunda tibbiyotda raqamlashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanmoqda.Tibbiyotda raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Elektron sog‘liqni saqlash tizimi (e-Health) – Bemorlarning kasallik tarixi, laboratoriya natijalari va davolash jarayoni haqidagi ma’lumotlarni yagona elektron tizimda saqlash va ulardan real vaqt rejimida foydalanish imkonini beradi. Elektron tibbiy kartalar (ETK). Bemorlar haqidagi barcha ma’lumotlarni raqamli shaklda saqlash va almashish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. An’anaviy qog‘oz hujjatlarning o‘rnini bosib, tibbiy hujjat yuritishni yengillashtirish.

Telemeditsina va masofaviy tibbiy xizmatlar – Internet va raqamli texnologiyalar orqali shifokorlar bemorlarga masofadan turib maslahat berish, tashxis qo‘yish va monitoring olib borish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu ayniqsa chekka hududlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.Telemeditsinada uzoq masofadan turib shifokorlar va bemorlar o‘rtasida videoaloqa orqali maslahat berish mumkin. Tibbiy xizmatlarni qishloq joylarida yashovchilarga yetkazish tushuniladi.

Sun’iy intellekt va tahliliy texnologiyalar – Sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturiy ta’minotlar katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish, tashxis qo‘yish, davolash strategiyasini taklif qilish va hatto jarrohlik amaliyotlarida yordam berish kabi vazifalarni bajarishda qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt (AI) va tahliliy tizimlar orqali diagnostika jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish (masalan, rentgen suratlarini tahlil qilish) mumkin. Katta ma’lumotlar (Big Data) asosida kasalliklarni oldindan aniqlash va prognoz qilishda ishlatiladi.

Elektron retseptlar va dori vositalarini raqamli boshqarish – Bemorlarga dori-darmonlar belgilash jarayoni avtomatlashtirilgan bo‘lib, elektron retseptlar orqali dorixonalar bilan integratsiyalashgan tizimlar ishlab chiqilmoqda. Bu noto‘g‘ri retsept yozish xavfini kamaytiradi va bemorlarning dori vositalarini qabul qilish jarayonini soddalashtiradi.

Nosog‘lom turmush tarzining oldini olish bo‘yicha raqamli dasturlar – Mobil ilovalar va smart qurilmalar orqali yurak urish tezligi, qondagi shakar darajasi, jismoniy faollik kabi ko‘rsatkichlar doimiy nazorat qilinib, bemorlarga profilaktik tavsiyalar taqdim etilmoqda. Mobil ilovalar va sog‘liq monitoring yordamida yurak urishi, qon bosimi va boshqa parametrlarni kuzatib boruvchi qurilmalar (fitnes-trekerlar, aqlli soatlar) ishlatilmoqda. Mobil ilovalar orqali sog‘lom turmush tarzini kuzatish va maslahat olish ishlarini amalga oshirish mumkin.

Tibbiy robototexnika va avtomatlashtirilgan davolash tizimlari – Robotlashtirilgan jarrohlik amaliyotlari, avtomatlashtirilgan protezlar va reabilitatsiya texnologiyalarining rivojlanishi shifokorlarning aniqlik bilan ishlashiga hamda bemorlarning tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Robotlashtirilgan jarrohlik va avtomatlashtirishda talabalar robot yordamida aniq va xavfsiz jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazadilar. Dorilarni taqsimlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hizmatlari osonlik bilan amalga oshiriladi.

Blokcheyn texnologiyalari orqali tibbiy ma’lumotlarni himoya qilish – Bemorlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligini ta’minlash va tibbiy yozuvlarni soxtalashtirishning oldini olish maqsadida blokcheyn texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Tibbiy axborot tizimlari (TAT) orqali barcha tibbiy muassasalar o‘rtasida yagona ma’lumotlar bazasini yaratish va almashish mumkin bo‘ladi. Kasallik tarixi va laboratoriya natijalarini onlayn ravishda ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya’ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so‘ng darsda ko‘rgazmali organayzerlar, ko‘rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-son “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” da soq’liqni saqlash tizimida ko‘rsatilayotgan barcha hizmatlar raqamlashtirishga o‘tish vazifasi belgilab berilgan.

Tibbiyotda raqamlashtirish – sog‘liqni saqlash tizimining kelajagi bo‘lib, u diagnostika, davolash va profilaktikaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jarayon tibbiy xizmatlarning yanada qulay, samarali va innovatsion bo‘lishiga imkon yaratadi. Tibbiyotda raqamlashtirish jarayoni sog‘liqni saqlash tizimini yanada innovatsion, shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu tendensiyalar nafaqat shifokorlarning kasbiy faoliyatini yengillashtiradi, balki bemorlar uchun ham sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, tibbiyotda raqamlashtirish jarayoni hozirgi va kelajak

tibbiyoti uchun strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Tibbiyotda raqamlashtirishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

✓Tibbiy xizmatlarning sifati va tezligi oshadi.

✓Diagnostika va davolashda aniqlik ortadi.

✓ Tibbiy xizmatlarga masofaviy kirish imkoniyati yaratiladi.

✓ Shifokorlarning ish yuklamasi kamayadi va samaradorligi oshadi.

✓Davolash xarajatlari kamayib, sog‘liqni saqlash tizimi samarali ishlaydi.

O‘zbekistonda tibbiyotni raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun quyidagi ma’lumotlarni taxlil qilamiz:

1.Sog‘liqni saqlash sohasining umumiy budjeti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-son qaroriga muvofiq, sog‘liqni saqlash sohasiga Davlat budjeti mablag‘lari ajratilgan.

2.Raqamlashtirish orqali kutilayotgan tejamkorlik koeffisienti. Tibbiyotni raqamlashtirish orqali dori vositalarining noo‘rin sarfi, hujjatlashtirish xarajatlari va ortiqcha diagnostika kamayishi mumkin. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, raqamlashtirish sog‘liqni saqlash sohasida 10-15% tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, tibbiyotni raqamlashtirish orqali sog‘liqni saqlash xarajatlarini 10-15%ga kamaytirish mumkin. Agar O‘zbekistonda ham shunday natijaga erishilsa, bu yiliga 2-3 trillion so‘m tejamkorlikka olib keladi.

3.Elektron tibbiy tizimlarga o‘tish xarajatlari. Bu xarajatlar dasturiy ta’minot, uskunalar va xodimlarni o‘qitishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitida bu xarajatlar taxminan 50-100 million AQSH dollarini tashkil etishi mumkin. Bu xarajatlar mamlakatning infratuzilmasiga, kadrlar tayyorgarligiga va texnologiyalarni joriy etishga bog‘liq. Taxminan, bu xarajatlar umumiy sog‘liqni saqlash budjetiga nisbatan 5-10%ni tashkil etishi mumkin, ya’ni 1-2 trillion so‘m.

4.Kutilayotgan daromad o‘sishi. Raqamlashtirish orqali mehnatga layoqatli aholining kasallik tufayli ishdan qolishining kamayishi natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM)da 0,5-1% o‘sish kuzatilishi mumkin. Tibbiyotni raqamlashtirish orqali kasalliklarni erta aniqlash va davolash samaradorligi oshadi, bu esa mehnatga layoqatli aholining ishdan qolishini kamaytiradi. Natijada, yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘sishiga hissa qo‘shiladi. Agar mehnat unumdorligi 1%ga oshsa, bu YAIMning 0,5-1%ga o‘sishiga olib kelishi mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida, raqamlashtirish orqali sog‘liqni saqlash sohasida 10-15% tejamkorlikka erishilishi mumkin. Agar sog‘liqni saqlash sohasining umumiy budjeti 1 milliard AQSH dollarini tashkil etsa, bu 100-150 million AQSH dollari tejamkorlik demakdir. Elektron tibbiy tizimlarga o‘tish xarajatlari 50-100 million AQSH dollarini tashkil etsa, umumiy iqtisodiy samaradorlik 50-100 million AQSH dollari bo‘ladi. Qo‘shimcha ravishda, YAIMda 0,5-1% o‘sish 300-600 million AQSH dollari qo‘shimcha daromad keltirishi mumkin. Shunday qilib, O‘zbekistonda tibbiyotni raqamlashtirish orqali umumiy iqtisodiy foyda 350-700 million AQSH dollari atrofida bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa, tibbiy ta’limni raqamlashtirish bo‘lajak shifokorlarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirib, diagnostika va davolash jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bo‘lajak shifokorlar elektron metodik ta’minot yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mukhammadjonovich, R. M., Abdulkhamidovna, I. A., Abdumukhtorovich, G. S., Abdusaitovich, T. O., & Sobirovich, K. S. (2023). Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies and modeling of technological processes. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 1458-1463.
2. Ismanova, A. (2024). Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning pedagogik tahlili. News of UzMU journal, 1(1.4), 104-108.
3. Ismanova, A. (2022). Upbringing of highly educated young people is the main basis for preventing religious extremism and terrorism. Экономика и социум, (10-2 (101)), 59-62.
4. Исманова А., Қобулова М.. Тиббиётда ахборот технологиялари фанидан амалий машғулотлар. Ўқув қўлланма. Worldly Knowledge Publishine.2023.ISBN:978-9910-9525-4-8.
5. Ismanova A., SH.Gulamov, M.Qobulova. Revolutionizing Education: The Rise of Online Adaptive Learning Systems. ICSTI-2024.International conference icsti-2024/Scopus, Web of science indexed.
6. Ismanova A., Abduxamidova Zuxraxon Javlonbek qizi. The role of information technology in medicine: transforming healthcare delivery and management. Modern education and development выпуск журнала №-18 часть–2_ январь –2025

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 101.(314)

Azim TURGUNOV,
Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti dekan o‘rinbosari, PhD
E-mail: azimturgunov52@gmail.com

S.f.d, prof. A.Muminov taqrizi asosida

HISTORY OF THE FORMATION OF INFORMATION CULTURE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY

Annotation

This article comprehensively analyzes the history of the formation of information culture and its significance today. In the era of globalization, as the influence of the Internet, social networks and mass media on the global stage expands, the risk of a moral crisis also increases. The article sheds light on the scientific and theoretical basis on what the quantitative growth of the global information flow, as well as its sharp changes in content, can lead to.

Key words: Information culture, culture, mass culture, history of the formation of information culture, youth, media analysis, information flow.

СТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ СЕГОДНЯ

Аннотация

В статье всесторонне анализируется история становления информационной культуры и ее значение в наши дни. В эпоху глобализации, по мере расширения влияния Интернета, социальных сетей и средств массовой информации на мировой арене, возрастает и риск морального кризиса. В статье освещаются научно-теоретические основы того, к чему может привести количественный рост мирового информационного потока, а также его резкие содержательные изменения.

Ключевые слова: Информационная культура, культура, массовая культура, история становления информационной культуры, молодежь, медиаанализ, информационный поток.

AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot madaniyatini shakllantirishi tarixi va bugungi kundagi ahamiyati masalalari keng tahlil qilinib. Globallashuv davrida internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarining umumjahon maydonida ta’siri kengaygani sari, axloqiy inqiroz xavfi ham ortib bormoqda. Global axborot oqimining son jihatdan o‘sishi bilan birga, uning mazmunan ham keskin o‘zgarishi nimalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot madaniyati, madaniyat, ommaviy madaniyat, axborot madaniyatini shakllantirishi tarixi, yoshlar, media-tahlil, axborot oqimi.

Kirish. Jahonda yoshlarning intellektual salohiyati, ma’naviy madaniyati, jismoniy sog‘lomligini oshirish, ularning muayyan hunar yoki kasbni egallashi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Insoniyat axborotlashgan jamiyat yaratish sari uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Bu yo‘lda ko‘plab rivojlanish bosqichlaridan o‘tilgan va “Eng qadimgi davr”, “Qadimgi davr”, O‘rta asrlar”, “Hozirgi zamon” kabi iboralar qo‘llanilsada, hech qachon insoniyatning axborotga nisbatan ehtiyoji kamayib qolmadi. Asrlar o‘tsada, axborot ko‘lami kengayib, uning ahamiyati tobora ortib boraverdi.

Axborot hamisha jamiyat hayotida ham, alohida shaxs hayotida ham muhim o‘rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig‘ish, saqlash va uzatish vositalarining rivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida “Informatsion inqilob” deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan. Birinchi informatsion inqilob yozuvning kashf etilishi bilan bog‘liq. Yozuv insoniyatga bilimlarni to‘plash va uni avlodlarga uzatish imkonini berdi.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda axborot sohasini liberallashtirish, so‘z erkinligini ta’minlash, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar, ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, mamlakatimizda axborot sohasida kechayotgan jarayonlarning tahlili bu sohaga oid asoslarni takomillashtirish izchil va tizimli tarzda amalga oshirilayotganini ko‘rsatmoqda.

Demokratik jamiyat qurish tamoyillari va jahon standartlarga mos keladigan mustahkam huquqiy asos va so‘nggi yillarda mamlakatdagi olib borilayotgan tub islohotlar jarayonida Internet tizimidan keng foydalanish, uni milliy kontent bilan boyitish darajasi keskin oshdi, inernet-nashrlari soni ko‘paydi, nodavlat gazetalar, tele va radiostudiyalar tizimi shakllandi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami kengaydi.

Bunday o‘zgarishlar ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmunini qayta ko‘rib chiqishni, jumladan yosh avlodning raqamli texnologiya sohasidagi bilim doirasini kengaytirish, axborotni qabul qilish va idrok etishda mustaqil fikrlash kabi qator ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2024-yil 27-iyundagi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga tabrigida axborot sohasida bayon etilgan tashabbuslari ushbu sohada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tadrijiy islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi. Bu o‘z navbatida, axborot olishning erkin va teng huquqliligini ta’minlash, jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik muhitini mustahkamlash, odamlarni o‘ylantirayotgan muammolarga tezkor munosabat bildirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish borasidagi muhim qadam bo‘lganligini alohida qayd etish zarur.

Ma’lumki, axborotga bo‘lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan. Shu ma’noda, odamlar tomonidan tarqatilayotgan har bir axborot ular yashab turgan jamiyatning manfaati uchun xizmat qilgan, uning maqsad va intilishlarini ifodalagan.

Axborot to‘plash va tarqatishning dastlabki og‘zaki (voizlar, jarchilar, choparlar va boshqalar) va yozma (papiruslardagi, e’lon taxtalari va hakozolardagi) namunalari nomuntazam bo‘lsada, qadim zamonlardan faol qo‘llanilgan. O‘sha, davrlardayoq to‘laqonli axborot va xabarga talab hamda ehtiyoj turli manbalarda o‘z aksini topgan. Zardushtiylik

tarixining manbalarida aytilishicha, Zardusht xudoning payg‘ami (xabari)ni odamlarga yetkazish orqali bosqinchilik va vayronliklar oldini olish, halol mehnat qilib, tinch-totuv yashash, adolat va haqiqatga sajda qilish kerakligini o‘rgatgan. 30 asr oldin bitilib, bizlarga yetib kelgan “Avesto”dan har qanday xabar, yangilik o‘zining takomilligi, haqqoniyligi, to‘liqligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilik va ezgulikka qarab intilishi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin.

Televideniye paydo bo‘lganda insonlar azaliy orzu umidlari ushalganidek, mutafakkir ajdodlarimiz tavsiflagan oynai jahon mo‘jizasi amalga oshganidek tasavvur qilishdi. Ayni paytda televideniye ommaviy axborot va targ‘ibotning yangi shakli, jamoat fikrini shakllantirish va ma’rifat tarqatishning g‘oyat ta’sirchan va qudratli vositasiga aylandi. Bugun insoniyat olayotgan butun axborotining, yangiliklarning katta salmog‘i televideniye hissasiga to‘g‘ri kelishi ham fikrimizning isbotidir. Bu kashfiyot Toshkentda ixtiro qilingan bo‘lib, ixtirochi B.P.Garbovskiy tomonidan televizion elektron tizim 1928-yilda yaratilgan. Garchi shunday bo‘lsa-da, O‘zbekistonda televizion ko‘rsatuvlar ilk bor 1956-yil noyabrdan boshlangan.

Milliy matbuotimizning mustaqillik davridagi qiyofasi, tizimdagi tarkibiy o‘zgarish va yangilanishlar jarayoni milliy matbuotimiz tarixidagi tub islohotlar davri hisoblanadi.

Jahonda uuz berauotgan ijimoiu-siuoisiu o‘zgarishlar xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning o‘zgarishiga va raqobatning avj olishiga sabab bo‘lmoqda. Bu yesa georolitik kushlar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashishi zamonaviu targ‘ibot tizimlarini georolitik maqsadlar ushun xizmat qiluvshi mexanizmga aulantirdi. Mazkur tizimlarni manfaatdor tomonlar va kushlar uyetarli darajada moliuaviu resurslar, intellektual imkoniuatlar, vositalar bilan har taraflama ta’minlamoqda. Buning natijasida, zamonaviu targ‘ibot tizimlari georolitik kushlarning maqsad va manfaatlariga mos bo‘lgan g‘oua, ta’limot, ma’lumot, axborot, qarashlarni keng tarqatishga muvaffaq bo‘lishauarti. Bundau vaziuatda destruktiv (vauronkor) targ‘ibot tizimlariga qarshi turishga qodir bo‘lgan milliu ma’naviu targ‘ibot mexanizmini takomillashtirish masalalari dolzarb sotsial (ijtimoiu) vazifaga aulanmoqda.

“Targ‘ibot deganda muauuan jamoatshilik fikri va hauotiu rozitsiuani shakllantirish maqsadida ma’lum bir g‘oua, fikr, qadriuat, norma, ma’lumot, fakt uoki argumentning tarqatilishi jarauoni tushuniladi”. Uning asl maqsadi muauuan subuyektning manfaatlariga mos bo‘lgan jamoatshilik fikri va hauotiu rozitsiuani shakllantirish bilan bog‘liq. Dunuo ma’naviu-ma’rifiu targ‘ibot tizimida globallashuv davrining georolitik, geomafkuraviu tahdidlariga qarshi kurash, axborot xurujining oldini olishga qaratilgan masalalar ilmiu jamoatshilikning dolzarb muammosi sifatida ko‘tarilgan. Hozirgi ijtimoiu- siuosiu fanlar tizimida zamonaviu targ‘ibot tizimlarining mazmuni, maqsadi va vazifalari, asosiu funksiualari, uslublari va usullari, omillari va vositalariga bag‘ishlangan, uning ijtimoiu jarauonlarga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan fundamental ilmiu tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Targ‘ibot samarasini oshirishga xizmat qiladigan konsersiualar va texnologiualar uaratilib, targ‘ibot institutlariga taqdim qilinmoqda. Targ‘ibot nazariuasi bilan bog‘liq jiddiu ilmiu izlanishlarning amalga oshirilishi, targ‘ibot tizimining intellektual, uslubiu va amaliu jihatdan takomillashtirilishi shaxs va jamiuat ma’naviu xavfsizligiga taa’lluqli strategik masaladir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Mamlakatimizda keuingi shorak asr davomida insonrarvarlik, ma’rifatrarvarlik, taraqqiurarvarlik g‘oualari targ‘iboti bilan bog‘liq ko‘r asrlik milliu tajribalar tiklandi, milliu ma’naviu targ‘ibot tizimi shakllantirildi. Mamlakat rahbariuati va hukumati rahnamoligida butun jamiuatdagi ma’naviu va intellektual resurslar mazkur targ‘ibot faoliuatini rivojlantirishga safarbar qilinmoqda. Natijada milliu ma’naviu targ‘ibot tizimi asta-sekinlik bilan ortimal ko‘rinishga keldi, institusional jihatdan takomillashdi. Biroq ijtimoiu voqelikdagi o‘zgarishlar ushbu tizimni ham muttasil taraqqiu yettirishni taqazo qilmoqda. Bu borada muhtaram rrezidentimiz “Ma’naviu- ma’rifiu ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur” deb ta’kidlaudilar. Bu vazifani bajarish ushun milliu ma’naviu targ‘ibot tizimini modernizatsiua qilish bugingi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib turibdi.

Tahlil va natijalar. Yosh avlodni mafkuraviu tarbiualash-bu shaxsiuatning asosini uaratish, insonning voqealarga, madaniu va ilmiu merosga, tarixiu uutuqlarga bo‘lgan munosabatini, shaxsning o‘zini, jamiuatdagi o‘rnini anglashini belgilaudigan ye’tiborni shakllantirish imkoniuatidir.

Mamlakatimizda mafkuraviu ishlar quuidagi tamouillarga asoslanishi lozim:

rrofessionalizm va komretensiua-mafkuraviu ish sohasidagi mutaxassislarni tauuorlash, kasbiu tauuorlash va ularni aholi bilan ishlashga jalb qilish. Ular aholining turli toifalarining ijtimoiu-demografik va individual rsixologik xususiuatlarini hisobga olgan holda mafkuraviu ishlarning mohiuati, mazmuni va asosiu uo‘nalishlarini shuqur anglaudilar. Mafkuraviu xodimlarning malakasi ularning usullari, ish usullarini mukammal uyegallashlarini, o‘tish davrida turli shakllardan foudalanishga va mafkuraviu ishlarning mazmunini uangilashga intilishini nazarda tutadi;

-uaxlitlik va izshillik – barsha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, ommaviu axborot vositalarining mafkuraviu ishlariga faol jalb uyetish, turli ijtimoiu institutlar bilan hamkorlikni uo‘lga qo‘uish. Mafkuraviu ishlarning uaxlitligi va izshilligi uning har tomonlama xarakteri, ta’lim-tarbiua, mehnat va dam olish faoliuatida kundalik mavjudligida namouon bo‘ladi•

-mafkuraviu ishlarni muauuan ishlar, hatti-harakatlarga imkon qadar uaqinlashtirish faoliuatiga asoslangan uyehtiuoj. Ushbu faoliuat shakllarining natijalari fuqarolar ushun aniq bo‘lishi kerak, ular ma’lum bir shaxs ushun haqiqiu fouda olishlari kerak. Faol uondashuv aholini mafkuraviu jarauonga jalb qilishni nazarda tutadi. Ushbu tamouil mafkuraviu ishda orrortunizmga, shaxsiu manfaatlarga, so‘zlar va ishlarning farqlanishiga imkon bermaudi. Aniq harakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaudigan iboralar va shiorlarni rad uyetadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa uilib autganda rivojlanishning hozirgi bosqishida O‘zbekiston Resrublikasida mafkuraviu ishlarni takomillashtirish kushli va farovon Uangi O‘zbekistonni qurish ushun juda muhimdir. Samarali mafkuraviu ishlar mamlakat fuqarolari tomonidan resrublika rahbariuati olib borauotgan ijtimoiu-iqtisodiu siuosat maqsadlarini aniq tushunishni shakllantirish, davlat qurilishining zamonaviu bosqishining umumiu va dolzarb vazifalarini tushunish ushun zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 43.
2. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. Лекции по специальной и политической психологии. – СПб.: Питер, 2004. – С. 163.
3. Столбникова Е.А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования(на материале рекламы). Таганрог, 2006. –С. 76-77.
4. Маматова Я., Сулайманова С. Узбекистан по пути развития медиаобразования. Учебное пособие. – Ташкент: «Extremum-press», 2015. – С. 10.
5. Муминов А. Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари, “Turon zamin ziyo” 2013. 128-129-бетлар
6. Ёкубова М. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологиялари масалалари: Фал. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 2006. – 165 б.

7. Fan, ta`lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari», xalqaro konferensiya materiallari «Centarl Asia – 2017» – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – 364 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 37.01

Gulxumor USMANOVA,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi

Turon fanlar akademiyasi akademigi, professor S. Yakubov taqrizi asosida

EDUKOLOGIYA ATAMASINING BUGUNGI TA’LIM SOHASIDAGI MISSIYASI

Annotatsiya

Edukoligiyaning tarkibiy qisimlari: Neyropedagogika yutuqlaridan kvalimetrik usullarda faol foydalanmasdan turib, ijtimoiy soha mutaxassislarining kasbiy ta’lim sifatini boshqarish muammosini hal qilib bo‘lmaydi (ta’lim nevrologiyasi). Ushbu fan pedagogikaning klassik asoslarini birlashtirib (sintezlab), psixologiya, kibernetika va neyrofiziologiya yutuqlaridan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi har bir talaba va professor-o‘qituvchiga shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Neyropedagogikaning muhim amaliy funksiyalaridan biri – har bir talabaga uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim yo‘nalishining shaxsiy traektoriyasini ishlab chiqishdir. Bu jarayonda miyaning yuqori aqliy funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Kalit so‘zlar: Edukologiya, kvalimetriya, paradigma, ko‘p tarmoqli yondashuv, sinergetik, multidisiplinar yondashuv, neyropedagogika, kibernetik, intensiv, integratsiya.

МИССИЯ ТЕРМИНА "ЭДУКОЛОГИЯ" В СОВРЕМЕННОЙ СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Составляющие элементы эдукологии: невозможно решить проблему управления качеством профессионального образования специалистов в социальной сфере без активного использования квалиметрических методов, основанных на достижениях нейропедагогики (нейрообразование). Данная наука синтезирует классические основы педагогики, используя достижения психологии, кибернетики и нейрофизиологии. Её главная цель — разработка эффективных механизмов реализации личностно-ориентированного подхода для каждого студента и преподавателя. Одна из важных практических функций нейропедагогики — разработка индивидуальной образовательной траектории для каждого студента с учётом его личных особенностей. В этом процессе учитываются специфические особенности высших психических функций мозга.

Ключевые слова: Эдукология, квалиметрия, парадигма, многопрофильный подход, синергетика, мультидисциплинарный подход, нейропедагогика, кибернетика, интенсивный, интеграция.

THE MISSION OF THE TERM "EDUCOLOGY" IN TODAY'S EDUCATION SECTOR

Annotation

The components of educology: it is impossible to solve the problem of managing the quality of professional education for social sector specialists without actively using qualimetric methods based on the achievements of neuro-pedagogy (educational neuroscience). This science synthesizes the classical foundations of pedagogy, utilizing advances in psychology, cybernetics, and neurophysiology. Its main goal is to develop effective mechanisms for implementing a personalized approach for each student and professor. One of the key practical functions of neuro-pedagogy is to design an individual educational trajectory for each student, taking into account their unique characteristics. This process considers the specific features of the brain’s higher cognitive functions.

Key words: Educology, qualimetry, paradigm, multidisciplinary approach, synergetics, multi-disciplinary approach, neuro-pedagogy, cybernetics, intensive, integration.

Kirish. XXI asrning boshlarida dunyoda jamiyatning axborot jarayonlari, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-gumanitar bilimlar hajmining jadal o‘sishi, multimodal va telekommunikatsiya aloqalarining intensivligi ortishi bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar yuz bera o‘zgartirish davri bo‘ldi.

Ushbu jarayonda ta’lim tizmiga Edukologiya atamasi ham kirib keldi. Edukologiya tushunchasi 1964-yilda YUNESKOning ta’lim komissiyasi tomonidan kiritilgan bo‘lib, ikki so‘zdan iborat (educo – men o‘qitaman va logos – o‘qitish, fan (lotin)). Kontsepsiyaning asoschilari olimlar Elizabet Shtayner va Oliver Karlos hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda fanlararo ta’lim paradigmasiga katta. Agar o‘quvchi, talaba, malaka oshirish kurslari tinglovchisi va o‘qituvchini yaxlit tarzda ko‘rib chiqsak, turli ilmiy sohalar – psixologiya, pedagogika, antropologiya, madaniyatshunoslik, varagogika – hamda ta’limga oid turli hal qilishda fanlararo samarali chora-tadbirlar taklif qiladi.

Bunday fanlararo ta’lim paradigmasi edukologiya asosida yaratilishi mumkin. Edukologiya - butun ta’lim sohasining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishining qonuniyatlarini tushunishga intiladigan fan [1]. Edukologiya fanlari tizimida fani yosh ilmiy fanlar tizimida. 1951-yilda Ogayo davlat universiteti professori Lori Xarding ushbu atamani birinchi bor qo‘llagan. lekin, oradan 60 yildan ortiq hali vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, edukologiya ham to‘liq shakllangan va umumiy qabul qilingan ilmiy fan sifatida e’tirof etmagan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uch sohaning ilmiy maqomga ega bo‘lishida muhim hissani Elizabet Shtayner qo‘shgan bo‘lib, u 1964-yilda edukologiyani ta’lim jarayonlarining keng qamrovli (sinergetik) nazariyasi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilgan. XX asrning 70-yillarida esa KE Oliver edukologiyani “ta’lim haqidagi integratsiyalashgan ilmiy bilim fanlararo majmuasi” sifatida belgilangan taklif qilgan bo‘lib, bu nazariy va amaliy keng qamrovli edi [3].

A.S.Voroninaning “Umumiy va ijtimoiy pedagogika atamalari lug‘ati”da esa edukologiya ta’lim fanlaridan biri sifatida tasniflanib, u ta’lim sohasining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishining umumiy ishlab chiqarishlarini o‘rganadigan fan sifatida ta’riflangan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning oxirida edukologiya muammolarini o‘rganish asosan olimlarning ishlari asosida olib borildi, miya faoliyatining xususiyatlarini o‘rganish o‘quv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega, Xususan, ta’limning ilmiy maktablari doirasida xotiraning har xil turlarining mexanizmlari faol o‘rganildi. Bunga misol qilib esa R.Atkinsonning “Inson xotirasi va o‘quv jarayoni” (1980), S.Izyumovaning “Mnemonik qobiliyatlarning tabiati va ta’limning differensiatsiyasi” (1995), L.Itelsonning “O‘quv faoliyati, uning tuzilishi va manbalari” (1993) asarlarini qayd etish mumkin.

Turli ilmiy nashrlarda edukologiya murakkab ilmiy soha sifatida qaralib, o‘z ichiga bir-birini to‘ldiruvchi bir necha bog‘liq komponentlarni oladi. Ular orasida neyropedagogika va neyropsixologiya, ta’lim kvalimetriyasi, ta’lim tizimini boshqarish nazariyasi, xususiy metodlar sikli, shuningdek, kibernetik va axborot pedagogikasi kabi yo‘nalishlar mavjud [1; 2; 4; 5; 6].

Tahlil va natijalar. Edukoligiyaning tarkibiy qisimlari: Neyropedagogika yutuqlaridan kvalimetrik usullarda faol foydalanmasdan turib, ijtimoiy soha mutaxassislarining kasbiy ta’lim sifatini boshqarish muammosini hal qilib bo‘lmaydi (ta’lim nevrologiyasi). Ushbu fan pedagogikaning klassik asoslarini birlashtirib (sintezlab), psixologiya, kibernetika va neyrofiziologiya yutuqlaridan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi har bir talaba va professor-o‘qituvchiga shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Neyropedagogikaning muhim amaliy funksiyalaridan biri – har bir talabaga uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim yo‘nalishining shaxsiy traektoriyasini ishlab chiqishdir. Bu jarayonda miyaning yuqori aqliy funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, edukologiyaning tarkibiy qismlari orasida kibernetik va axborot pedagogikasi ham mavjud. G. Bordovskiy va V. Izvozchikovlarning fikriga ko‘ra, hozirgi kunda pedagogika o‘z rivojlanishining kibernetik bosqichiga kirdi. Biroq, ko‘plab universitet o‘qituvchilari hali ham zamonaviy axborot muhitining ta’lim jarayonidagi o‘rnini to‘liq anglab yetmagan va bu borada shaxsiy yondashuvlarini shakllantirmagan. Shu bilan birga, olimlar ta’kidlaganidek, ta’limning ortiqcha kompyuterlashtirilishi haqiqiy ma’naviy madaniyatni tor kasbiy bilimlar bilan almashtirishga olib kelishi mumkin. Bu jarayon inson tafakkuriga ta’sir qilib, ijodkorlik qobiliyatlarining pasayishiga va instrumental (texnik) fikrlashning ustunlik qilishiga sabab bo‘lishi mumkin [6].

Olimlarning ta’rifiga ko‘ra, kibernetik pedagogika edukologiyaning tarmog‘i sifatida tizimli yondashuv va tizimli-funksional tahlil asosida pedagogik tizimlarning samarali ishlashini boshqarish nazariyasini ishlab chiqadigan fan hisoblanadi. Uning rivojlanishi “o‘qituvchi – axborot muhiti (internet, kompyuter) – talaba” ergatik tizimining samarali faoliyatini ta’minlash va ushbu tizimda teskari aloqani shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega [7].

Xulosa va takliflar. Aytishimiz mumkinki, butun umr bo‘yi ta’lim (life-long learning) - bu hayot sifatini yaxshilash uchun hayot davomida uzluksiz rivojlanishni ta’minlash uchun rasmiy va norasmiy ta’limning integratsiyasini anglatib, insoniyat butunlay yangi postindustrial bosqichga – “individuallashgan jamiyat” davriga kirdi, bu esa sivilizatsiyaning ko‘plab tarkibiy qismlarida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu jarayon dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlarida uzluksiz ta’lim milliy tizimlarining ishlash paradigmasini qayta ko‘rib chiqishga, shuningdek, ta’lim sifati mohiyatini tushunishga bo‘lgan yondashuvlarning tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ta’lim tizimi sifatini tahlil qilish va baholash usullariga qo‘yiladigan talablar ham yangilanmoqda.

Edukologiyaning konseptual pozitsiyalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy soha mutaxassislarining uzluksiz kasbiy ta’limini sifatli boshqarish jarayonining mazmuniy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Голубев В.В. Высшее образование и некоторые проблемы современной цивилиза ции // Науковедение. Интернет-журнал. URL: http://naukovedenie.ru/?id=144
2. Исследования СГА в области эдукологии (под рук. М. П. Карпенко). URL: http://www.muh.ru/struct/dko.php
3. Мицкевич Н. Эдукология: инвариантные характеристики. URL: http://adukatar.net/wp-content/uploads/2010/05/Adukatar_17_Page_21-26.pdf
4. Воронин А.С. Словарь терминов по общей и социальной педагогике. URL: http://window.edu.ru/catalog/pdf2txt/673/28673/11886?p_page=13
5. Прокопцев В. И. Эдукология: принципиально новая наука образования. URL: http://refdb.ru/look/2281628-pall.html
6. Бордовский Г., Извозчиков В. Эдукология как наука об образовании. URL: http://refdb.ru/look/1685731.html
7. Никитина Н. И., Романова Е. Ю., Гребенникова В. М. Квалиметрия и эдукология непрерывной профессиональной подготовки специалистов «помогающих» профессий: полидисциплинарный подход. URL: http://LLL21.petrsu.ru

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:372.8

Zamira USMONOVA,
O‘zDJTU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: usmanovazamira1901@gmail.com

DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI O‘RGATISHDA MILLIY-MADANIY KOMPONENTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida milliy-madaniy komponentlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida madaniy kontekstda boyitilgan matnlar va interfaol metodlar qo‘llanilishi talabalarning lug‘aviy hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularning o‘zbek xalqining an’analari va qadriyatlariga oid xabardorlik darajasini ham oshiradi. Shunday qilib, milliy-madaniy yondashuv xorijiy til sifatida o‘zbek tilini o‘qitish samarasini sezilarli ravishda kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: Xorijiy talabalar, o‘zbek tili, milliy-madaniy komponent, lingvokulturologiya, interfaol metod, madaniy kontekst.

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО КОМПОНЕНТА В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКИСТАНСКОМУ ЯЗЫКУ ИНОСТРАНЦЕВ

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение национально-культурных компонентов в процессе обучения узбекскому языку иностранных студентов. Результаты исследования показывают, что использование текстов, обогащённых культурным контекстом, и интерактивных методов обучения не только развивает лексико-речевые компетенции обучающихся, но и повышает их осведомлённость о традициях и ценностях узбекского народа. Таким образом, национально-культурный подход существенно укрепляет эффективность обучения узбекскому языку как иностранному.

Ключевые слова: Иностранные студенты, узбекский язык, национально-культурный компонент, лингвокультурология, интерактивный метод, культурный контекст.

THE IMPORTANCE OF NATIONAL-CULTURAL COMPONENTS IN TEACHING THE UZBEKISTAN LANGUAGE TO FOREIGNERS

Annotation

This article analyzes the role and importance of national-cultural components in teaching Uzbek to foreign learners. The findings indicate that using culturally-enriched texts and interactive teaching methods not only improves students’ lexical and communicative competencies but also enhances their awareness of Uzbek traditions and values. Consequently, a national-cultural approach significantly boosts the effectiveness of teaching Uzbek as a foreign language.

Key words: Foreign learners, Uzbek language, national-cultural component, linguoculturology, interactive method, cultural context.

Kirish. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish bugungi kunda nafaqat lingvistik, balki madaniy-milliy mazmun bilan boyitilishi zarur bo‘lgan muhim ta’lim yo‘nalishlaridan biridir. Globallashtirish jarayonlari turli xalqlar o‘rtasidagi muloqot ko‘lamini kengaytirib, madaniy almashinuvni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda chet elliklar o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini bildirish bilan birga, mazkur til vositasida o‘zbek xalqining mentaliteti, urf-odatlari va qadriyatlari bilan ham yaqindan tanishmoqchi bo‘lishadi. Shunday ekan, xorijiy auditoriyada o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida milliy-madaniy komponentlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat tilni to‘g‘ri va puxta o‘zlashtirish, balki o‘zbek xalqiga xos ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar haqida chuqurroq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, til oddiy kommunikativ vosita bo‘lib qolmasdan, balki muayyan jamiyatning dunyoqarashi, ijtimoiy-normativ qadriyatlari va tarixiy xotirasini ham aks ettiradi. Demak, xorijlik talabalar yoki til o‘rganuvchilar uchun o‘zbek tili darslari mazmundor, madaniy kontekstga boy, didaktik metodikaga asoslangan holda tashkil etilishi kerak. Ushbu maqolada xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda milliy-madaniy komponentlarning ahamiyati, ularning ilmiy-nazariy asosi va amaliy qo‘llanilishining natijalari IMRAD talablari doirasida tahlil qilinadi.

Metod. Ushbu ilmiy maqola doirasida xorijiy talabalar uchun o‘zbek tili darslarini tashkil etish bo‘yicha bir qancha tajribalar o‘rganildi. Avvalo, zamonaviy lingvodidaktik adabiyotlarni, xususan, chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha tan olingan xalqaro nashrlarni taxlil qilish orqali metodik asos shakllantirildi. Shuningdek, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishga ixtisoslashgan o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar va interaktiv platformalar ichki va tashqi jihatdan ko‘rib chiqildi. Keyingi bosqichda, Toshkent shahridagi ayrim universitetlarda tahsil olayotgan xorijiy talabalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnoma ularning o‘zbek tili darslarida milliy-madaniy materiallar (badiiy matnlar, xalq ertaklari, maqollar, milliy taomlar haqida ma’lumotlar, tarixiy va zamonaviy bayramlar aks etgan roliklar va boshqalar) bilan qanday tanishtirilgani, bu materiallar ular uchun naqadar qiziqarli yoki foydali bo‘lganini aniqlashga qaratildi. So‘rovnoma savollari ikkita katta blokdan iborat edi. Birinchi blokda xorijiy talabalar o‘zbek tilini umumiy o‘rganish bo‘yicha qiyinchiliklari, qaysi jihatlar eng murakkab yoki aksincha, eng osonligini ko‘rsatishdi. Ikkinchi blokda esa milliy-madaniy komponentlar bo‘yicha o‘quv jarayonida duch keladigan motivatsiya, didaktik qulayliklar, matnlarni tushunish darajasi kabi masalalar o‘rganildi. Bunga qo‘shimcha ravishda, xorijlik talabalar bilan individual suhbatlar o‘tkazilib, ulardan tilda uchraydigan barqaror iboralar yoki kontekstual ma’noga ega so‘zlarni o‘zlashtirishda milliy-madaniy ma’lumotlarning o‘rni bor-yo‘qligi haqidagi fikrlari so‘raldi. Olingan ma’lumotlar kontent-tahlil va statistik qayta ishlov yordamida saralanib, asosiy xulosalar chiqarildi. Metodologik yondashuvning yana bir qismi sifatida xorijiy talabalarning darslaridagi ishtirokini bevosita kuzatish (participant observation) usuli qo‘llandi. O‘qituvchilarning dars berish jarayonida milliy-madaniy komponentlardan qanday foydalangani, talabalar savollariga qay darajada to‘liq javob berilgani, qaysi materiallar ular uchun maroqli bo‘lgani kuzatildi. Ana shu metodlarning uyg‘unligi xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda milliy-madaniy yondashuvning dolzarbligi va samaradorligini aniqlashga imkon berdi.

Natijalar. O‘tkazilgan so‘rovnoma va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, xorijlik talabalar o‘zbek tili leksik birikmalari va grammatik strukturalarini, ayniqsa, ular alohida milliy-madaniy rangga ega bo‘lsa, o‘rganish jarayonida bir necha muhim afzalliklarga ega ekan. Avvalo, xorijiy talabalar real hayotiy voqealar, turli ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq dialoglar va matnlar orqali tilda uchraydigan madaniy tushunchalar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Masalan, o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik an’analari yoki Navro‘z bayrami bilan bog‘liq urf-odatlar haqida o‘qish ularda faqat lug‘aviy bilim emas, balki madaniy xabardorlikni ham shakllantiradi. Natijada, xorijliklar tilda keng qo‘llaniladigan ba’zi so‘z birikmalarining negizida yotgan qadriyatlarni yaxshiroq anglashadi va ularni kundalik nutqda o‘rinli ishlatishni o‘rganishadi. Tadqiqotda qatnashgan xorijiy talabalarning taxminan 70 foizi o‘zbek tilini milliy-madaniy mavzularda boyitilgan matnlar yordamida o‘rganish qiziqarli bo‘lishini va motivatsiyalarini oshirishini ta’kidlashdi. Qolgan 30 foizga yaqin talabalar, asosan, o‘zbek tilini muloqot uchun zarur deb hisoblab, madaniy tarkib bilan birga, aniq kommunikativ maqsadlarga yo‘naltirilgan mashqlar ham ko‘proq berilishini istashini bildirishdi. Bu borada ham madaniy komponent o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ammo dars jarayoni ko‘proq amaliy nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilishi zarurligi qayd etildi. Shu bilan birga, darslarda o‘zbek xalqining tarixi, an’analari, tarixiy obidalar va adabiy merosiga oid qisqacha ma’lumotlar berilganda, talabalar lug‘aviy mustahkamlash mashqlarini osonroq bajarishgani aniqlandi. Zero, har bir so‘z yoki ibora aniq kontekstga ega bo‘lganda, eslab qolish tezroq va samaraliroq kechgan. Bunday usul interfaol darslarda, masalan, badiiy matnlarni o‘qish yoki videoroliklarni tomosha qilish bilan uyg‘unlashganda yanada yuqori samaradorlik kuzatilgan. Natija sifatida xorijiy talabalar darsdagi matnlarni nafaqat tahlil qilish, balki o‘zbekcha nutqiy muhitda bunday matnlarning qanday qadriyat va hayotiy ma’noga ega ekanini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Tahlil va muhokama. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda milliy-madaniy komponentlarning ahamiyatini tahlil qilishdan avval, lingvokulturologik yondashuvga qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim. Lingvokulturologiya tilda ifodalangan madaniy kodlar, mentalitet, ijtimoiy-meyoriy qadriyatlarning til strukturasidagi aksini o‘rganadi. Bu esa chet tilini o‘rganish jarayonida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqning urf-odatlari, tarixiy an’analari, shakllangan hayot tarzi haqida xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, o‘zbek tilida rang ifodalovchi so‘zlar, qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlar, maqol va matallar, tabrik va marosimlar bilan bog‘liq so‘zlar nafaqat lug‘aviy ma’noni bildiradi, balki ularning tagida muayyan ijtimoiy hamda ma’naviy qadriyatlar yotadi. Shuning uchun xorijlik talabalar, ayniqsa, yil fasllari, bayramlar, taomlar, oilaviy an’analar va shu kabi mavzularga oid matnlar orqali o‘zbeklarning dunyoqarashi va ijtimoiy hayoti bilan tanishadi. Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida milliy-madaniy komponentni kiritish xorijliklarni eng ko‘p qiynaydigan omillardan bo‘lgan “semantik teshiklarni” bartaraf etishga yordam beradi. YA’ni, xorijiy talabalar ma’lum bir so‘z yoki iboraning negizini tushuna olmay qiynalishlari mumkin. Biroq, agar o‘sha so‘z yoki ibora madaniy kontekst, tarixiy voqea yoki hayotiy muhit bilan bog‘lab tushuntirilsa, onlar nutqda foydalanishga yengilroq o‘tishadi. Dars jarayonida madaniy komponentni qo‘llash o‘qituvchidan ham yangi ko‘nikmalarni talab etadi. O‘qituvchi milliy an’analar yoki bayramlar haqida gapirganda, bu ma’lumotlarni lingvistik mashqlar bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Aytaylik, Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan darsda, faqat bayramning tarixi yoki sumalak tayyorlash jarayonini tushuntirish bilan cheklanmasdan, talabalarga shu mavzuga oid tegishli so‘zlar, fe’llar yoki so‘z birikmalarini aktiv ravishda ishlatish imkoniyatini berish kerak. Shunda talabalar o‘zbek tilidagi so‘z va birikmalarni amaliyotda sinab ko‘rishadi, savol-javob va munozaralar orqali ularning nutqiy kompetensiyasi shakllanadi. So‘rovnomalar ham shuni ko‘rsatdiki, talabalarning tilga oid qiziqish va jalb etilish darajasi darslarda beriladigan madaniy tarkibning rang-barangligi bilan bevosita bog‘liq ekan. Shu jihatdan, xorijliklarga o‘zbek tili o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va qo‘llanmalar milliy-madaniy komponentni bosqichma-bosqich va metodik izchillik bilan kiritishni nazarda tutishi zarur. Dastlab, oddiyroq mavzular – salomlashish, tanishish, turli kasblar, oila a’zolari haqida suhbatlashish bilan boshlanib, keyinchalik xalq bayramlari, milliy taomlar, adabiy siymolar va ijtimoiy qadriyatlarga borib ulanadi. Shunda xorijiy til o‘rganuvchi talabaning vokabulyar bazasi oddiy kundalik so‘zlardan tortib, tobora murakkab ijtimoiy-ma’naviy tushunchalarga qadar kengayadi. Bu jarayonda multimediadan foydalanish, masalan, qisqa metrajli filmlar, videoroliklar, audio materiallar, turli interaktiv o‘yinlar va testlarni ham qo‘llash talabalar e’tiborini saqlab turishga hamda mavzuni chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Ta’kidlash joizki, madaniy komponent bilan boyitilgan darslar xorijiy talabalar uchun til o‘rganishni psixologik jihatdan yanada yoqimli va esda qolarli holga keltiradi. Bunday jarayon natijasida talaba nafaqat lug‘aviy va grammatik savodxonlikka, balki o‘zbek jamiyatida qabul qilingan ijtimoiy-meyoriy odoblarga, an’anaviy iboralar va munosabatlar shakllariga ham ega bo‘ladi. Ayni paytda, xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishda madaniy tushunchalarni o‘ta umumlashtirib yuborishdan ham ehtiyot bo‘lish lozim. Chunki har bir madaniy an’ana, qadriyat yoki urf-odatning murakkab ichki mantig‘i bor, shoshma-shosharlik bilan yoki yuzaki tarzda tushuntirilsa, bu talabalarni chalkashtirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun, o‘qituvchi madaniy materialni o‘quvchilarning til tayyorgarligi darajasiga moslab, bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borishi, savollar va misollar yordamida mavzuni keng ochib berishi foydali. Shu ma’noda, madaniy-lingvistik integratsiya – o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning ustuvor prinsipi sifatida qaralishi kerakligi aniqlanadi.

Xulosa. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda milliy-madaniy komponentlar asosiy o‘rin tutishi zarur. Tilda aks etgan milliy mentalitet, urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar xorijiy o‘rganuvchilarga o‘rganish jarayonini chuqurroq idrok etish, nutqiy mazmunni boyitish va real aloqa qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqola doirasida olib borilgan so‘rovnoma va kuzatuvlar xorijiy talabalar milliy-madaniy kontekstda tayyorlangan darslardan ko‘proq motivatsiya olayotganliklarini, til birliklarini eslab qolishlari yengillashayotganini ko‘rsatdi. Lingvokulturologik yondashuvlar shuni isbotlaydiki, chet tilini o‘rgatishda madaniy ma’lumot va tajribani inobatga olish – tilni yodlashni osonlashtiradi, shuningdek, o‘rganuvchini o‘sha xalqning dunyoqarashi bilan ham yaqindan tanishtiradi. Natijada, xorijlik talabalar o‘zbek tili vositasida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy ijtimoiy hayot haqida to‘liqroq, har taraflama tasavvur hosil qilishadi. Shu tariqa, o‘zbek tili xorijiy tillar tizimida o‘rganish uchun qulay va jozibador tilga aylanadi, milliy-madaniy meros esa xalqaro miqyosda kengroq targ‘ib qilinadi. Bu jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi va doimiy takomillashtirib borilishi xorijliklarning lingvistik va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish bilan birga, o‘zbek xalqining boy madaniy merosini yanada chuqurroq e’tirof etilishiga xizmat qiladi. Shu bois, kelajakda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda milliy-madaniy komponentlarni samarali qo‘llash, shu bilan birga, interfaol dars usullari, multimediya texnologiyalari va moslashtirilgan o‘quv adabiyotlarini yaratish orqali xorijiy talabalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Ana shunda o‘zbek tili va madaniyati jahon hamjamiyati e’tiborida yanada keng o‘rin egallaydi va xalqaro akademik muloqotda o‘zbek tilining qiymati tobora ortib boraveradi.

ADABIYOTLAR

1. Курбонов А. А. Чет тили сифатида ўзбек тилини ўқитишда лингвомаданий ёндашув: назария ва амалиёт / А. А. Курбонов. – Т.: Фан, 2021. – 220 б.
2. Шарипова З. А.Чет элликларга ўзбек тилини ўқитиш методикаси: илмий-амалий асослар / З. А. Шарипова. – Т.: Ношир, 2020. – 156 б.
3. UNESCO.Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. – Paris: UNESCO Publishing, 2013. – 43 p.

4. Byram M.Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence / M. Byram. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 136 p.
5. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment). – Strasbourg: Council of Europe, 2001. – 260 p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 54: 371. 3

Charosxon FAYZULLAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: charosxon.fayzullayeva@mail.ru

O‘zRFA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti kat.i.x., k.f.d N.Bozorov taqrizi asosida

ENSURING THE HARMONY OF THEORETICAL KNOWLEDGE, PRACTICAL SKILLS, AND LIFE EXPERIENCE BASED ON A COMPARATIVE APPROACH IN TEACHING CHEMISTRY.

Annotation

One of the main requirements for the education system is to ensure the harmony of theoretical knowledge, practical skills, and life experience. Using didactic materials to compare the structure of substances, the structure of natural materials and objects created by humans, analyzing the similarities between them and their impact on quality indicators based on computer presentations in organizing chemistry lessons contributes to a certain extent to the implementation of these goals. This article presents data on the importance of real-life examples and experiments in teaching chemistry to improve the quality of education in teaching chemistry.
Key words: Chemistry, carbon, life experience, chemical bonding, crystal lattice, diamond, diamond.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГАРМОНИИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ, ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И ЖИЗНЕННОГО ОПЫТА НА ОСНОВЕ СРАВНИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Аннотация

Одним из основных требований, предъявляемых к системе образования, является обеспечение гармоничного сочетания теоретических знаний, практических навыков и жизненного опыта. Использование дидактических материалов для сравнения строения веществ, структуры природных материалов и объектов, созданных человеком, анализа сходств между ними и их влияния на качественные показатели на основе компьютерных презентаций при организации занятий по химии в определенной степени способствует реализации этих целей. В данной статье представлена информация о важности жизненных примеров и экспериментов в преподавании химии для повышения качества образования в преподавании химии.
Ключевые слова. Химия, углерод, жизненный опыт, химическая связь, кристаллическая решётка, алмаз, алмаз.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA QIYOSIY YONDASHUV ASOSIDA NAZARIY BILIM, AMALIY KO‘NIKMA VA HAYOTIY TAJRIBALAR UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH

Annotatsiya

Ta’lim tizimiga asosiy qo‘yilayotgan talablardan biri nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hamda hayotiy tajribalar uyg‘unligini ta’minlashdan iborat. Kimyodan mashg‘ulotlarni tashkil etishda kompyuter prezentatsiyasi asosida modda tuzilishi, tabiiy materiallarning tuzilishi, inson tomonidan barpo etilgan obyektlarning tuzilishlarini qiyoslash, ular orasidagi o‘xshashliklar va ularning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilishga doir didaktik materiallardan foydalanish, ushbu maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum ma’noda yordam beradi. Ushbu maqolada kimyoni o‘qitishda hayotiy misollar va tajribalarning ahamiyati kimyo fanini o‘qitishda ta’lim sifatini yaxshilash uchun ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Kimyo, uglerod, hayotiy tajribalar, kimyoviy bog‘lanish, kristall panjara, olmos, olmos.

Kirish. Kimyo kursida uglerod mavzusini o‘rganish mobaynida ilgari olingan bilimlarga asoslanib (kimyoviy bog‘lanish, kristall panjara), o‘quvchilar olmos va grafitning kristall panjaralari tuzilishidan kelib chiqib, ularning fizik xususiyatlarini oson tushunib olishlari mumkin.

Moddalarning nisbiy qattiqligini ko‘rsatadigan diagrammadan foydalanib (moddalarning fizikaviy xossalari haqidagi ma’lumotlarni yodga olgan holda), quyidagi mantiqiy zanjirni tuzish mumkin. Olmos moddalarning qattiqligi uchun etalon hisoblanadi → shishaning qattiqligi pastroq → shishani kesuvchi asboblar olmos uchlari bilan jihozlangan. Moddalarning qattiqlik darajasini baholash, o‘zaro taqqoslash uchun bir modda yuzasi ikkinchisi bilan qirib ko‘riladi. Qirilib, chizilgan moddaning qattiqligi pastroq hisoblanadi. Moddalarning qattiqlik darajalari turlicha bo‘lishidan hayotiy faoliyatlarda ko‘p foydalanib kelingan. Olmos yuqori qattiqlikka ega, shuning uchun ko‘pgina kesuvchi asbob tig‘lari olmosdan yasaladi (shisha kesish, metall kesish). Chinnini ham shishani ham qattiqlik darajasi temirnikidan yuqori. Shuning uchun temir buyumlar bilan shisha yuzasiga (kafelga ham) chizib, kesib bo‘lmaydi. Aksincha temir pichoq tig‘ini chinni idish (kosa) bilan yedirib, o‘tkirlash mumkin. Qadimdan pichoqlar chinni kosa yoki piyola tubiga ishqalanib o‘tkirlangan. Chinnining qattiqlik darajasi shishanikidan ham yuqori. Shisha ampulani chinni buyum qirralari bilan chizib, kesish mumkin. Temir → shish→chinni→olmos ketma-ketligida moddalarning qattiqlik darajalari ortib boradi.



1-rasm. Minerallarning qattiqlik darajasi (Moos shkalasi bo‘yicha)

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uglerodga xos bo‘lgan adsorbsiya hodisasini tushuntirishda, dorixonalarda keng tarqalgan faollashtirilgan ko‘mirdan foydalanib, o‘quvchilarga uning qo‘llanilishi haqida savol qo‘yiladi. Amaliy hayotiy tajribalariga asoslanib, o‘quvchilar faollashtirilgan ko‘mirning qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar beradi, hodisa haqida xulosalar chiqaradi. Ushbu bilimlarni mustahkamlash va xulosalarni tasdiqlash maqsadida rangli (siyohli) eritmani ikki qisimga bo‘lib, biriga faollashtirilgan ko‘mir solib aralashtirish orqali rangsizlantirish tajribasini namoyish etish mumkin.

Birinchi jahon urushi yillarida zaharli moddalar qo‘llanilishi haqidagi rasmlar, film parchalarini namoyish etilib, o‘qituvchi tomonidan gaz niqobi ixtirosi haqida hikoya qilinadi. O‘quvchilarga ikki misol, faollashtirilgan ko‘mir tabletkalari va gaz niqobi o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash taklif etiladi va ular faollashtirilgan ko‘mirning o‘ziga xos xususiyati, bu boshqa moddalarni yutish qobiliyati ekanligi haqida xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi.

2-rasm. Birinchi jahon urushida foydalanilgan dastlabki gaz niqoblari.

Bunday usul tanish ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan misollar yordamida o‘quvchilarni yangi ma’lumotlar bilan tanishtirishga imkon beradi. Darsning bu qismini evristik suhbat shaklida ham o‘tkazish mumkin. Bunday holda hikoyani birinchi jahon urushi yillarida zaharli moddalar qo‘llanilishidan boshlash, keyin adsorbsiya haqida tushuncha berish, so‘ngra gaz niqobi ixtirosiga, ya’ni Zelenskiy kashfiyotiga olib kelish mantiqiy ketma-ketligidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulot jarayoniga evristik elementlarni kiritish darsda o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, shuningdek, ularda sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Uglerodning allotropik modifikatsiyalari haqida fikr yuritilar ekan, fullerenlar haqidagi ma’lumotlarni ushbu nomning kelib chiqishi haqidagi qiziqarli material bilan to‘ldirish, o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini boshqarishga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Fulleren yopiq ko‘pburchaklarda joylashgan uglerod atomlaridan tashkil topgan uch o‘lchamli molekulyar birikma hisoblanadi. Fullerenlar nomining kelib chiqishi geodezik tuzilmalar muhandisi, besh va olti burchakli gumbazlar me’mori Richard Buckminster Fullerning nomi bilan bog‘liq.

3-rasm. R. Fullerning gumbazli inshootlari.

1985 yilda bir guruh tadqiqotchilar - Robert Curl, Garold Kroto, Richard Smalley, Heath va Obrayen - qattiq namunaning lazerli nurlanishi natijasida ishlab chiqarilgan grafit bug‘larining massa spektrlarini o‘rganib chiqdilar va maksimal cho‘qqilarni topdilar amplitudali, 60 va 70 uglerod atomlaridan tashkil topgan klasterlarga mos keladi. Ular bu cho‘qqilar C60 va C70 molekulalariga mos keladi deb faraz qildi va C60 molekulasi ikosaedr shakliga ega deb faraz qildi. Uglerodning ko‘p qirrali klasterlari fullerenlar deb ataladi va eng keng tarqalgan molekula C60 bakminsterfulleren deb ataladi.

Tahlil va natijalar. Ma’lumotlarni xotirada yaxshi saqlanishi va foydali bo‘lishi uchun unga bog‘liq bo‘lgan o‘xshash ma’lumotlar, tanish vaziyatlar, mavjud tajribalar bilan taqqoslash samarali natija beradi.

	Fulleren C60 Uglerod allotropiyasi molekulasining tuzilishi
	Tabiatda shunday tuzilishli obyektlarning uchrashi. Asalari uyasining tuzilishi

	Ushbu strukturadan insonlarning foydalanilishi. R.Fuller gumbazli inshootlarining tuzilishi.

4-rasm. Fulleren tuzilishini qiyoslash.

Olmos haqida tushunchalar berilganida ham shunga o‘xshash qiyosiy tahlildan foydalanish mumkin.

	Olmos. Uglerod allotropiyasi molekulasining tuzilishi
	Tabiatda shunday tuzilishli obyektlarning uchrashi. Suyakning ichki tuzilishi
	Ushbu strukturadan insonlarning foydalanilishi. Eyfel minorasining tayanch tuzilishi.

5-rasm. Olmos tuzilishini qiyoslash

Uglerodning qo‘llanilishi haqida gapirilganda katta istiqbolga ega uglerodli tolalar haqida ham tushuncha berish maqsadga muvofiq.

	Uglerodli tolaning tuzilishi (grafit tasmalari)
	Tabiatda shunday tuzilishli obyektlarning uchrashi. Silliq muskul tolalarining tuzilishi
	Ushbu strukturadan insonlarning foydalanilishi. O‘tovning tayanch tuzilishi. Zil-zilaga chidamli sinchli uylarning tuzilishi

6-rasm. Uglerodli tola tuzilishini qiyoslash

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, rasmlar asosida berilgan ma’lumotlarni taqqoslash yo‘li bilan, o‘quvchilar o‘xshashlik tomonlarini topadi va nomlanishlarning kelib chiqishi, ushbu geometrik shakllarning o‘ziga xos xususiyatlari, bilim va ko‘nikmalarni hayotiy jarayonlarda qo‘llash imkoniyatlari haqida xulosalar chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Шарапа Е.И. Формирование знаний о научных основах химического производства на обобщающих уроках// Сб. науч. трудов «Реализация политехнического принципа в процессе изучения естественно-математических предметов в средней школе.»/ - Минск МПБССР НИИП, 1983. С.40-54.
2. Щукина Г. И. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении. М., 1984. 176 с.
3. Титова И.М. Обучение химии. Психолого-методический подход. С.-Пб.: КАРО, 2002, 46 с.
4. Степин Б.Д., Аликберова Л.Ю. Занимательные задания и эффектные опыты по химии.-М.: Дрофа, 2006. -430 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:81-13

Kristina FEDOTOVA,
Teacher of the Uzbek State University of World Languages
Email: Kfedotova767@gmail.com

Under review of the associate professor of NamSU D.Sarimsakova

INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE THEORY AND PRACTICE OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY

Annotation

The article describes the issues of formation of intercultural competence in the theory and practice of teaching a students in a foreign language. A foreign language provides the students with rich opportunities to know the values of the spiritual and cultural material of another nation, helps to overcome national limitations, and demonstrates universal priorities. The intercultural competence of a student is considered as a personal-semantic new formation, as an integrative quality, characterized by a set of motives, values, knowledge, skills and ensuring the implementation of cultural, educational and developmental functions.
Key words: Formation, intercultural competence, meaning, personality, cultural materials.

МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ В ТЕОРИИ И ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В НЕЯЗЫКОВОМ ВУЗЕ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования межкультурной компетенции в теории и практике обучения студентов иностранному языку. Иностранный язык предоставляет студентам богатые возможности познания ценностей духовно-культурного материала другого народа, помогает преодолеть национальную ограниченность, демонстрирует общечеловеческие приоритеты. Межкультурная компетентность студента рассматривается как личностно-смысловое новообразование, как интегративное качество, характеризующееся совокупностью мотивов, ценностей, знаний, умений и навыков и обеспечивающее реализацию культурной, образовательной и развивающей функций.
Ключевые слова: Формирование, межкультурная компетентность, смысл, личность, культурный материал.

NONLINGVISTIK UNIVERSITETDA CHET TILINI O‘QITISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI BO‘YICHA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

Annotatsiya

Maqolada talabalarga chet tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyotida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Chet tili o‘quvchilarga boshqa xalqning ma’naviy-madaniy materiali qadriyatlarini bilish uchun boy imkoniyatlar yaratadi, milliy cheklovlarni yengishga yordam beradi, umuminsoniy ustuvorliklarni namoyon etadi. Talabaning madaniyatlararo kompetensiyasi shaxsiy-semantik yangi shakllanish, motivlar, qadriyatlar, bilimlar, ko‘nikmalar majmui bilan tavsiflangan va madaniy, ma’rifiy va rivojlanish funksiyalarini amalga oshirishni ta’minlaydigan integral sifat sifatida qaraladi.
Kalit so‘zlar: Shakllanish, madaniyatlararo kompetensiya, ma’no, shaxs, madaniy materiallar.

Introduction. The intercultural competence of a student is considered as a personal-semantic new formation, as an integrative quality, characterized by a set of motives (the desire to become a professional, a person of culture), values (interpersonal interaction of subjects of different cultures), knowledge (domestic culture and the culture of the country of the studied language), skills (to establish and maintain a dialogue, to experience and understand the situation of intercultural interaction as a humanitarian event) and ensuring the implementation of cultural, educational and developmental functions. The personal meanings of the subject himself have a decisive influence on intercultural competence. Representing the motivating force of any activity, personal meaning largely determines the activity of the individual, his focus on the result.

Literature review. Intercultural competence in the theory and practice of teaching a foreign language in a non-linguistic university can be considered as a psychological and pedagogical phenomenon from the standpoint of socio-cultural (E. M. Vereshchagin, V. G. Kostomarov, L. G. Kuzmina, O. V. Lesher, P. V. Sysoev, V. V. Safonova) and sociogenetic (F. Sh. Teregulov) approaches, which are aimed at educating a person of culture.

In the studies of scientists, the term "intercultural competence" is defined as "knowledge of individual motivations, forms of behavior, non-verbal components, national and cultural traditions, and a system of values" (V. I. Tuzlukova), "successful use of background knowledge about the culturally determined communicative features of a foreign addressee" (O. R. Bondarenko), "the ability to interact with people of another culture based on values, norms, and ideas" (I. L. Pluzhnik), "a set of specific knowledge and skills of linguistic, sociolinguistic, discursive, strategic, sociocultural, and social competence" (G. V. Elizarova), "a set of special knowledge, intercultural skills, and a system of value orientations" (I. V. Perehodko).

At the same time, the condition for achieving a successful result is the degree of formation of the individual's competence in a certain type of activity. This perspective of examining competence in general and intercultural competence in particular allows us to integrate the concepts of “personal meaning” and “intercultural competence”. The meanings of intercultural competence are not given to a person a priori, they cannot be programmed as a given, they become components of intercultural competence only in the process of targeted pedagogical formation of the desired personal quality. The expansion of the field of intercultural competence can be associated with a change in the social environment, an increase in the number of intercultural contacts, and types of cultural activity of the subject. The narrowing of the field, the “extinction” of personal meanings is caused by the absence of real intercultural communication, both personal, contact, and tactless, remote (correspondence, reading, watching plays, films, Internet communication in a foreign language, etc.).

The student as a subject of education, simultaneously acts as a subject of life, and his development is not narrowly intellectual, but personal and meaningful. Let us clarify that this is possible only in an atmosphere of intellectual, moral and aesthetic

experiences, a clash of different opinions, views, positions, scientific approaches, the search for truth, creativity of the teacher and the student. The shift of motive to goal generates meaning in the individual. If the motive is not transformed into a goal, then meanings are not “born” either, if the goal is declared without taking into account the motive and the future fusion of motive and goal, meanings are impossible. International communication is impossible without deep and comprehensive knowledge of the culture of native speakers, their mentality, national character, lifestyle, worldview, customs, traditions, and worldview.

Results and discussion. A person with intercultural competence is able to enter into intercultural communication, which brings peoples and countries together, helps to find common ground and "accept" the specific in national values, which contributes to further dialogue of cultures. A foreign language provides a student with rich opportunities to get to know the values of the spiritual and material culture of another nation, helps to overcome national limitations, and demonstrates universal priorities. Realization of the potential of a foreign language in the formation of intercultural competence helps to establish intercultural ties, expands the capabilities of an individual in the context of the country's integration into the world space within the framework of new social and economic relations. It has been found that the significance of personal meanings in the formation of intercultural competence is not the same. This was reflected in the choice of criteria and level indicators for the formation of intercultural competence of the student:

– motivational and value (the desire to become a person of culture, attitude to a foreign language as a professional and personal value, empathy, tolerance);

– cognitive (knowledge of national culture and the culture of native speakers of the studied language, moral and ethical norms, traditions, customs of a foreign culture);

– behavioral (the ability to act as a mediator between representatives of one’s own and foreign cultures, establish and maintain a dialogue, correlate one’s own and foreign cultures, navigate the phenomena of a different way of life).

A set of pedagogical conditions (development of students’ cognitive motives for the formation of intercultural competence, targeted inclusion of works of national culture and the culture of the country of the studied language in the educational content, the use of heuristic and dialogic teaching methods) can be systematically created in the educational process of a university, ensuring the successful formation of intercultural competence.

The level of development of students’ skills in applying knowledge of a foreign language can be studied in specially created situations. Ask students to imagine a plot related to the culture of the Russian or English people, with regional or social features of the countries, to give a general picture of life and everyday life in both countries. But insufficient practical knowledge of a foreign language, ignorance of the peculiarities of the domestic culture and the culture of the country of the studied language will not allow a positive result to be obtained. This happens due to the fact that a foreign language is not a specialty for students. Some students consider this subject "superfluous". They do not realize the importance of knowledge of a foreign language either for their profession or for the development of their own personality. Increasing the level of formation of a student's intercultural competence can be ensured by observing a set of pedagogical conditions.

The primary condition may be the development of students' cognitive motives for the formation of intercultural competence, which will be implemented taking into account and in the context of students' existing experience of cognitive activity, their outlook, internal motivations and aspirations. In order to develop cognitive motives and awaken interest in the "foreign" world, it is possible to build a system of systematic acquaintance with the phenomena of foreign-language culture, the impetus for which will be watching excerpts from feature films, performances, TV programs on cultural topics, meetings with figures of foreign-language culture, communication with foreign specialists, teachers, and students. In order to forming of intercultural competence to become a goal for the student, it is possible to offer forms and methods of pedagogical activity that will respond to the awakening interest in a “foreign” country, a “different” way of life, a “different” worldview. Direct students’ attention to foreign literature, to the work of writers that contains a philosophical understanding of the world and at the same time reflects the national spirit. It is the cognitive motive that will become the first step in the formation of the student’s intercultural competence. At the same time, interest in the future profession increases, a “vector” appears for the formation of intercultural competence, a desire to form the skills of interaction in communication with others, to realize one’s activity, to assert oneself, to show respect for the opinion of another, empathy for the communicant.

The dialogue begins with the introduction of the student to the world of communication, which relieves psychological tension. With the assistance of the teacher, students try to establish trusting relationships and an atmosphere of goodwill between the participants, showing interest in the upcoming communication.

Conclusion. In conclusion, dialogue communication includes situations designed by the teacher, which help to interest the participants in the dialogue in solving a particular problem. This "generates" questions from students, stimulates independent search for information, initiates ways of discussing it with another student. The role of dialogue is to deny stereotypical, one-sided reasoning.

During the dialogue, its participants clarify doubts, clarify details, express personal judgment. When analyzing the dialogue situation, the value of each opinion is emphasized, alternative solutions to the problem are offered, which holistically reflects the phenomenon under consideration. The relevance of the problem of intercultural competence of students is determined by the evolutionary trends in education as the global educational process and implements in the agreements. A student with intercultural competence, capable of realizing his or her personal potential, becoming familiar with the values of a universal human level, and creating a positive attitude toward another person as the greatest enduring value, is in demand.

REFERENCES

1. Tsvilling M. Ya. Heuristic aspect of translation and development of translation skills // Reading, translation, oral speech: Methodology and linguistics / T. N. Malchevskaya, L. V. Slavorodskaya, V. V. Goydina et al.; ed. E. A. Reiman. L.: Science. Leningrad department, 1977. P. 172-180.
2. Galiaskarova N. G. Functional-communicative approach to the formation of lexical skills in the study of foreign languages // Humanitarian scientific research. 2013. No. 12 [Electronic resource]. URL: http://human.snauka.ru/2013/12/5364.
3. Moiseeva E. V. Methodological support of the English language department and its role in improving the quality of foreign language teaching.// Innovative technologies in education and research work. III scientific and methodological conference/.–Orenburg: Publishing center of OGAU, 2010.-P.24-29.
4. Moiseeva E.V. Pan-European system of higher education and methodological support of the educational process in a non-linguistic university// Teaching foreign languages in a non-linguistic university: transition to a two-tier system of higher professional education: Theses of speeches of participants of the inter-university Round table, February 7, 2014.– Orenburg: Orenburg Institute (branch) of Moscow State Law Academy, 2014.-P.37-42.
5. Kamynina T.P., Moiseeva E.V. Information culture as a basis for professional competence of a future specialist // III International scientific and practical conference. – Ufa: Publishing house of BSPU, 2011, pp. 144-146.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

Matlab XAZRATKULOV,
Renessans ta’lim universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Renessans ta’lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori T.Jo‘rayev taqrizi asosida

MILLIY VA MA’NAVIY QADRIYATLAR YOSHLARDA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy omillari o‘rganiladi. Ta’lim, umumiy ma’naviy-axloqiy muhit, oilaviy tarbiya, ijtimoiy hodisalar va davlat siyosati kabi omillar yoshlarning bag‘rikenglik, mo‘tadillik va turli xillikka nisbatan munosabatlarini shakllantirish borasidagi tahlillar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Bag‘rikenglik, madaniyat, yoshlar, ma’naviy omillar, ta’lim, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muammolar, davlat siyosati.

НАЦИОНАЛНО-ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-политические и духовные факторы формирования и развития культуры толерантности среди молодежи. Анализируются такие факторы, как образование, общая духовно-нравственная среда, семейное воспитание, общественные мероприятия и государственная политика в формировании установок молодежи на толерантност, умеренност и многообразие.
Ключевые слова: Толерантност, культура, молодеж, духовные факторы, образование, семейное воспитание, социалные проблемы, государственная политика.

NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF A CULTURE OF TOLERANCE AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation

This article examines the socio-political and spiritual factors of the formation and development of a culture of tolerance among young people. It analyzes factors such as education, the general spiritual and moral environment, family education, social events and state policy in the formation of youth attitudes towards tolerance, moderation and diversity.
Key words: Tolerance, culture, youth, spiritual factors, education, family education, social problems, state policy.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda turli nizolar kuchayib borayotgan bir sharoitda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Dunyo tajribasidan bizga ma’lumki, davlatning barqarorligi davlatda yashayotgan millatlarning birdamligi, millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan millatlararo bag‘rikenglik madaniyati ko‘pmillatli davlat uchun tinchlik va barqarorlikni ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan. Uning mentaliteti asosini tashkil etadi”[1]. Bugungi kunda yoshlar mamlakatimiz aholisining 60% ni tashkil etmoqda. Bu katta kuch ekanini yaxshi bilamiz. Shuning uchun yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirish va ularni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, “Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz – bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir”[2]. Bugungi kunda jamiyat hayoti va kishilar turmush tarzini yaxshilash uchun zarur iqtisodiy, ma’naviy tushuncha va qadriyatlarni yoshlarga ta’lim jarayonida singdirish mumkin.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu zamonaviy jamiyatda olib boriladigan ijtimoiy va ma’naviy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bag‘rikenglik — bu turli millatlar, dinilar, irq va madaniyatlarga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tinchlik va insonparvarlik hissini uyg‘otishga qaratilgan tushuncha. Bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar, o‘zaro integratsiya, inson huquqlari va adolatlilik prinsiplari markaziy ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning bag‘rikenglik madaniyatiga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda bu omillar o‘zining muhim o‘rnini egallaydi.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu omillar yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida, jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada yoshlar orasida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillariga keng to‘xtalib o‘tamiz.

Demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinishi yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishga katta yordam beradi. Qonunlar, huquqiy tizim va ijtimoiy siyosatlar yoshlarning ijtimoiy hayotga faol qatinashiga, turli millatlar, diniy va madaniy to‘dalarga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Qonunchilik yoshlarga o‘zaro hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Falsafa fanlar doktori N.Nazarovning fikricha “Shaxsning milliy davlatchiligiga bo‘lgan pozitiv munosabati hamda fuqarolik mavqeini idrok etishi ham milliy o‘zlikni anglashning komponentlari hisoblanib, tafakkur rivojiga imkon yaratadi. Tafakkurdagi bunday rivojlanish ko‘p millatli jamiyatda millatlararo munosabatlar takomillashuvini ta’minlaydi. Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o‘zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab, idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo‘shishi lozim”[3].

Ijtimoiy ahvol ham yoshlar uchun muhim omildir. Agar ijtimoiy shart-sharoitlar mukammal bo‘lsa, yoshlar o‘zaro muloqotda va ijtimoiy munosabatlarda bag‘rikenglikni ustuvor tanlashi mumkin. Buning natijasida jamiyatda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Maxsus ijtimoiy dasturlar, yoshlar uchun tashkil etiladigan

treninglar va tadbirlar, ularning shaxsiy taraqqiyoti va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini yaxshilashga ko‘maklashadi.

Globallashuv sharoitidagi madaniyatlarlararo aloqalardagi ko‘nikmalar yoshlarga bag‘rikenglik va inklyuzivlikni targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Yoshlar boshqa millatlar va madaniyatlar bilan ijobiy aloqalarni o‘rnatish va ularni hurmat qilishni o‘rganishlari mumkin.

Media va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun qadriyatlar, axloqiy va ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘liq turli xabarlar tarqaladi. Agar media orqali ijobiy, bag‘rikenglik va hurmatni targ‘ib qiluvchi kontent tarqalsa, bu yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy muammolarning oldini olish va yoshlar o‘rtasidagi bag‘rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bizga ma’lumki, oila yoshlar uchun birinchi o‘quv muassasasi hisoblanadi. Oiladagi tarbiya, qadriyatlar va munosabatlar yoshlar shaxsining shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Agar oilada o‘zaro hurmat, tushunish va bag‘rikenglikka e’tibor berilsa, yoshlar ham shunday munosabatlarni jamiyatga nodavlat. Buning natijasida oiladagi tarbiyani isloh qilish yoshlar o‘rtasida ijobiy axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Jamiyatdagi bag‘rikenglikni saqlashda oilaning ham roli katta. Oila mustahkamligi, xonadondagi to‘g‘ri tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu yoshlar o‘rtasidagi hurmat va qadr-qimmat, turli millatlarning o‘zaro munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish orqali davlatni mustahkamlash, xavfsizlikni muhofaza qilish, ularda jamiyat tinchligi va farovonligini ta’minlash mas’uliyatini kuchaytirish, ayniqsa o‘g‘il-qizlarni milliy qadriyatlar asosida hayotga tayyorlash mumkin.

Mamlakatimizda yoshlarning axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirishda oilaning roliga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, “Mamlakatimizda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o‘zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi…”[4]. Shu nuqtayi nazardan yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish mezon va tamoyillarini aniqlash hamda uni oilaviy qadriyatlarda yuksaltirish tendensiyalarini tadqiq etish hayotiy zaruriyat bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim jarayonida yoshlarga madaniyat, axloq va bag‘rikenglikka asoslangan to‘g‘ri mafkura va qadriyatlar o‘rgatilishi zarur. Maktab va universitetlardagi ma’naviy tarbiya va ta’lim dasturlari yoshlarga bag‘rikenglikni shakllantirishga yordam beradi. Maktablarda yoshlarning o‘zaro munosabatlari va ularning shaxsiy rivojlanishini targ‘ib qilishda maxsus dasturlar va treninglar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va pedagoglar yoshlarga ijtimoiy ko‘nikmalarni, turli millatlar, dinlar va madaniyatlarga bo‘lgan hurmatni o‘rgatishlari kerak.

Yoshlar ma’naviy rivojlanishida diniy va milliy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga, ya’ni odamlar o‘rtasida hurmat, yoshlarga kattalarga ehtirom, axloqiy me’yorlarga amal qilishga alohida ahamiyat berilgan. Din va milliy an’analar ham yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Har bir yosh o‘z xalqi va madaniyatiga bo‘lgan muhabbatini oshirish orqali bag‘rikenglikni taraqqiy ettirishda faol ishtirok etishi mumkin. Tarixdan ma’lumki, diniy bag‘rikenglik tamoyili ustuvor jamiyatda o‘zaro hurmat va samimiyat qaror topadi. Insonlar osoyishta hayot kechiradi. Tinchliksiz taraqqiyot, farovonlik bo‘lmagani kabi, diniy bag‘rikengliksiz barqarorlikkka erishmoq ilojsiz.

1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining Bag‘rikenglik tamoyii to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qabul qilingan. BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 1997-yildan buyon mazkur sana har yili butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida nishonlanadi. Yurtimizda bu an’anaga 2019-yil 15-noyabrda, Prezidentning “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan asos solingan.

Bag‘rikenglik bir-birini anglash, tushunish va qabul qilish demakdir. Yer yuzidagi turfa madaniyatga hurmat bilan yondashishga ham shu ta’rif beriladi. Bilim, samimiyat, vijdon va e’tiqod uyg‘unligi natijasida yuzaga keladigan bu tushuncha faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy, huquqiy ehtiyoj ham sanaladi. Eng asosiysi, bag‘rikenglik tufayli tinchlik ta’minlanadi, turli nizo, urushlar kelib chiqishining oldi olinadi.

Diyorimizda fuqarolar totuvligi, barqarorligi, turli millat vakillari tinchligi va hamjihatligini ta’minlash, milliy madaniy markazlar, do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida ko‘plab samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yil Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do‘stlik jamiyatlari negizida O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan 16 diniy konfessiya, 135 dan ziyod millat va elat vakillari, 153 milliy madaniy markaz, 40 ga yaqin mamlakatlar bilan do‘stlik jamiyatlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi[5].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev millatlararo bag‘rikenglik madaniyati masalasiga asosiy e’tiborini qaratib, shunday deydi: “Biz O‘zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog‘lagan ekanmiz, bu ulug‘ ishni ertaga emas, bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak”[6].

Xususan, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” mavzusida insholar, videorolik va infografikalar tanlovlari, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, turli konfessiya vakillari ishtirokida “O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik madaniyati – boqiy qadriyat” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy seminar va boshqa tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Xulosa. Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan jarayondir. Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ta’lim, oilaviy tarbiya, davlat siyosati va ijtimoiy muhit yoshlar orasida bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning muhim mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda davlat, oila va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarurdir.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar muhim rol o‘ynaydi. YA’ni, davlat siyosati, ta’lim tizimi, oila tarbiyasi, madaniyat va san’at, shuningdek, xalqaro hamkorlik va globallashuv jarayonlari yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglikni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-siyosiy omillar yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Demokratik jamiyat va qonunlar yoshlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga, yoshlar o‘rtasida turli millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatni shakllantirishga asos bo‘ladi. Ijtimoiy ahvol, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va medianing ta’siri yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan qarashlarini shakllantiradi. Mediadagi ijobiy kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o‘rtasida ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston. 2018. – B.295.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston. 1999. – B.9.
3. Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvining falsafiy-funksional tadqiqi. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – B.11.

4. Mirziyoyev Sh.M. “Islom hamjihatligi: O‘zbekiston va Ozarbayjon misolida” mavzuidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. – T.: 2017-yil, 18-oktyabr // Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 2018. –B.455.
5. Ishmuratova S. Xalqaro bag‘rikenglik kuni. https://uza.uz/uz/posts/halqaro-bagrikenglik-kuni_657778
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: 2019. O‘zbekiston. – B.387.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:130.2

Suxrob XIDIROV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi dotsenti, PhD
E-mail: s.khidirov@mail.ru

Falsafa fanlari doktori DSc B.Turdiyev taqrizi asosida

VORISIYLIK: IJTIMOIY XAVFSIZLIKNING TARIXIY SOSIOLOGIK ILDIZI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada jamiyatdagi vorisiylik va uning ijtimoiy tuzilmaga ta’siri, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy meros orqali avloddan-avlodga o‘tishi muhokama qilingan. Shuningdek, vorisiylikning jamiyatdagi barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga, ijtimoiy munosabatlar, bag‘rikenglik, urf-odatlar va qadriyatlarga ta’siri, madaniy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ma’naviy qadriyatlarni, tartibni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Vorisiylikning salbiy natijalari hamda zamonaviy jamiyatga ta’sirini mustahkamlash omillari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Vorisiylik, vorisiylik konsepsiyasi, ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy rol, madaniy meros, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy xavf, mental o‘zgarish, jamoalashuv, ijtimoiy moslashuv, siyosiy vorisiylik, xalq tafakkuri.

SUCCESSION: AS THE HISTORICAL SOCIOLOGICAL ROOT OF SOCIAL SECURITY

Annotation

The article discusses succession in society and its impact on social structure, from generation to generation through economic, cultural and social heritage. Also, the influence of succession on stability and economic progress in society, on social relations, tolerance, traditions and values, the role of maintaining cultural and social stability, in the formation of spiritual values, order is highlighted. The negative results of succession and the factors of strengthening their influence on modern society have been analyzed.

Key words: Succession, succession concept, social structure, social role, cultural heritage, cultural values, social risk, mental change, collectivization, social adaptation, political succession, popular thought.

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ: КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ КОРЕНЬ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация

В статье обсуждается преемственность в обществе и ее влияние на социальную структуру, передаваемая из поколения в поколение через экономическое, культурное и социальное наследие. Также освещается влияние преемственности на стабильность и экономический прогресс в обществе, на общественные отношения, толерантность, традиции и ценности, роль в сохранении культурной и социальной стабильности, формировании духовных ценностей, порядка. Проанализированы негативные последствия преемственности, а также факторы усиления ее влияния на современное общество.

Ключевые слова: Преемственность, концепция преемственности, социальная структура, социальная роль, культурное наследие, культурные ценности, социальный риск, ментальное изменение, коллективизация, социальная адаптация, политическая преемственность, народное мышление.

Kirish. Vorisiylik – xalq ma’naviyatini harakatlantiruvchi kuch, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi ko‘prik, kecha va bugun o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikdir. Vorisiylik tarixiy shakllanish tadrijlari, san’at, madaniyat, til, qadriyatlar, urf-odatlar, turmush tarzidagi o‘ziga xosliklarni saqlash va avlodlarga singdirish masalalarini qamrab oladi. Vorisiylik konsepsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi. U oilaviy an’analardan tortib, ijtimoiy mavqe, madaniy meros va iqtisodiy resurslargacha keng birlashuvni o‘z ichiga oladi.

Bugun internet, televideniye orqali singdirilayotgan mafkuralar vayronkor xususiyatga ega bo‘lib, yoshlarimiz o‘rtasida ma’naviy hayotimizga zid qarash, virtual olamni, g‘ayrioddiy harakatlarni, an’ana va odatlarni o‘zlashtirish, ommaviy madaniyat unsurlarini meyoriy qabul qilishni rivojlantirmoqda. Vorisiylikning umumiy ma’noda madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik turlari mavjud. Mashxur nemis sosiologi Maks Veber ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazarlardan qanday iyerarxiyalanganligini, shunga asosan vorisiylikning ijtimoiy tartibni saqlashdagi rolini tavsiflagan edi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda vorisiylik jarayoni uning tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilmasiga ko‘ra, maxsus ahamiyatga egaligi bilan o‘ziga xosdir. Vorisiylikni madaniy an’analar, ko‘nikmalar va ta’limning uzviy qismi sifatida qabul qilishni eslatib o‘tishimiz ham maqsadga muvofiq. Vorisiylikning mavjudligi jamiyatning barqaror taraqqiyotini, yo‘qligi esa ijtimoiy xavfning asosiy ildizlaridan biri ekanligini belgilaydi. Ushbu fikrlarimiz sosiologiyaning mumtoz olimlaridan biri bo‘lgan, fransuz olimi Emil Dyurkgeymning qarashlari bilan uyg‘un. U “...vorisiylik ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi”deya ta’kidlagan[2].

Vorisiylikning mamlakatimizdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi rolini alohida ta’kidlashimiz ahamiyatga molik. Ayni shu jihatlarga e’tibor qaratar ekan, mashhur olim Per Burdyo vorisiylikni “ma’naviy kapital” va “ijtimoiy kapital” kabi tushunchalar orqali tahlil qilib, vorisiylik (nasldan-naslga o‘tishi) va oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik nihoyatda muhim[3]ligini ta’kidlagan.

Biz oilani, an’anaviy ravishda, jamiyatning asosiy bo‘lagi sifatida talqin qilamiz. Vorisiylik oiladan olingan tarbiya, bilim va ko‘nikmalardan tortib, mol-mulk, hunarmandchilik, zargarlik, kulolchilik, kosiblik kabi minglab hunarlarning avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlab beradigan o‘zga xos bilimlar manbai, ayni damda madaniy qadriyatlarni kelajak avlodlarga o‘tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, oila tuzilmasi barqarorligini ta’minlaydi.

Minglab yillar davomida shakllangan ushbu tabiiy ijtimoiy jarayon, afsuski, XIX asrning o‘rtalaridan boshlangan rus bosqini va XX asrning boshlarida vujudga kelib, asrning oxirigacha davom etgan sovet tuzumining totalitar mafkurasi tufayli jiddiy o‘zgarishlarga uchradi hamda butun elat va millatlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab sohalarda milliy vorisiylik yemirila boshlandi.

Asrlar davomida ishlab kelgan vorisiylikka amal qilish mexanizmi sun’iy parchalanish evaziga quyidagi ijtimoiy xavflarni vujudga keltirdi.

Birinchidan, ta’lim tizimida, tibbiyotda, hunarmandchilikda, savdo-tijoratchilikda, jamiyatning turli sohalarida ustoz-shogirdlik an’analarida shakllangan ijtimoiy

aloqalar susaydi. Masalan, ta’lim tizimida harakatlangan oila, boshlang‘ich maktab, madrasa kabi yaxlit bir tizim doimiy rivojlanib, muntazam aloqaga ega bo‘lgan.

Hunarmandchilikdagi vorisiylik qisman saqlanib qolindi. Maqomi o‘zgarsa-da, kasbga bo‘lgan sadoqat doim saqlab qolindi. Masalan, hazrat Bahovuddin Naqshbandiy, hazrat Sayid Mir Kulol kabi xalqimizning buyuk shaxslar tariqat yo‘lidagi maqomini saqlab qolgan bo‘lsa-da, kasbiy vorisiylikni qat’iyat bilan asrashga jiddiy e’tibor qaratishdi. Chor Rossiyasi bosqinidan so‘ng an’anaviy ta’lim tizimimiz, maktab va madrasamiz, xonaqoh tizimimizni yo‘q qilinib, vorisiylikning eng asosiy negiziga putur yetdi. Son-sanoqsiz hunarmandchilik tizimi yo‘q qilindi. YA’ni, ruslar Turkiston bozorini egallash uchun faqat o‘zining fabrika zavodlaridagina ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish siyosatini olib bordi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xususan, kosib, kulol, zargar kabi o‘nlab hunarmandchilik vakillari o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishdan mahrum bo‘ldilar. Adolatsiz, cheklovlar yuzlab, minglab insonlarning asrlar davomida shakllanib kelgan noyob vorisiylik an’analari yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi. Bu haqda G‘ofur G‘ulomning boshdan-oxirgacha vorsiylikning tanazzuliga bag‘ishlangan “Shum bola” asarida: “O‘sha yillarda Toshkentda shunaqa ham jinni ko‘p ediki, sanab sanog‘iga yetolmaysiz: Malla jinni, Karim jinni, Mayramxon, Xol parang jip-jinni, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Ovoz jinni va boshqalar…” ular orasida jinni bo‘lib qolgan ba’zi bir insonlarning taqdirini alohida yozib o‘tgan. Masalan, “Mayramxon” degan jinnining kasbi chilangar bo‘lib, temir-tersak asboblar zavoddan chiqa boshlagach kasodga uchrab, jinni bo‘lib qolganligini aytib o‘tadi[4]. O‘sha davr ijtimoiy hayotini tavsiflab bergan asarlarni tahlil qilsangiz, ruslarning turli sohalarda minglab mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qisqa muddatda kasodga uchratganligi oqibatida ko‘pchilik kambag‘allikka mahkum etilgani, aqldan ozganligi, eng asosiysi bu sohadagi vorisiylikning davom etishiga nuqta qo‘yilganligini anglash mumkin.

Aytish kerakki, milliy vorisiylikni yo‘q qilish siyosati Ibn Sino zamonalaridan beri rivojlanib, o‘ziga xos, noyob maktab darajasiga chiqqan tibbiyot sohasini ham chetlab o‘tmadi. Tibbiyot sohasi an’analari yo‘q qilindi va instrumental tibbiyotga o‘tildi. Bosqinchilik siyosati vorisiylik an’analarini atayin yo‘q qilish orqali mustaqillikning ildiziga bolta urdi.

Ikkinchi ijtimoiy xavf bu - dinga hujum uyushtirilishidir. Diniy qarashlar ateistik mafkura bilan to‘ldiriildi. Imonni yo‘q qilish siyosati amalda xalqni istagancha parchalash, o‘zligini butkul unutish va manqurtga aylantirishga keng yo‘l ochdi. Imon vorisiylik bo‘lmasa-da, kuch sifatida vorisiylik bilan yonma-yon turadi. Shu bois, dinning taqiqlanishi xalq ichida iymonni susayishiga olib keldi. Odamlar orasida yolg‘on shu darajada avj oldiki, odamlar iloji qolmaganida rost so‘zlasalar, yolg‘onchi sifatini oldilar. Masalan, insonlarning o‘zaro muloqotida “Ilojim yo‘qligidan to‘g‘risini aytim-da,” degan gap juda faollashdi.

Bugun korrupsiyaga qarshi kurash olib borayotgan agentlik sosiologik ma’nodagi aldash, o‘g‘irlik kabi illatlarga qarshi kurashish deganidir.

Uchinchi ijtimoiy xavf bu- mental o‘zgarishdir. Mentalni so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, o‘ylash, fikrlash deganidir. Ilgari insonlar miyasida yomon narsalarni o‘ylashi, hayoliga keltirishini o‘zi qo‘rquv bo‘lgan. Hozirgi kunda esa ko‘pchilik hamma narsani oldin salbiy baholaydi, agar u voqea hodisa yoki biror bir inson haqida salbiy fakt va dalillar topolmasa, undan keyin ijobiy fikrlarni aytishi urfga kirdi. Bizda o‘ylashdan qo‘rqish to‘xtadi. Bu holat xalqning tafakkur tarzi buzilishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy xavfning uchinchi ildizidir. Biz, islom dini tugul, undan oldinroq xalqimiz yashash tarzi va tafakkuriga asosiy ta’sir etuvchi g‘oya bo‘lib kelgan Avestodagi fikrning, so‘zning va amalning ezguligi haqidagi qarashlarni ham unutib yubordik. O‘ylash tarbiyasi butkul buzildi. Hazrat Navoiyning “Oldiga qo‘yganni yemak - hayvonning ishi, og‘ziga kelganni demak - nodonning ishi” deb aytgan misralari ayni jarayonni to‘la-to‘kis ochib beradi.

To‘rtinchi ijtimoiy xavf bu- jamoalashuv sifatining buzilganligi. Jamiyatimizda jamoalashuvning mezonlari buzildi. Masalan, ilgari odamlar pul yoki biror manfaat negizida jipslashmaganlar. Ular halollik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, kasb, ijod, e’tiqod va x.k kabi yo‘nalishlarda o‘zaro jamoalarga birikkanlar. Jamoalashishning manfaat negizida amalga oshirilishi qoralangan. Hamma illatlarning paydo bo‘lishi noto‘g‘ri jamoalashish oqibati ekani xususida juda ko‘plab mutafakkirlar o‘z fikrlarini bildirganlar. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining mashhur “Majolis un-nafois” tazkirasida jamiyatdagi adolatsizliklar, axloqsizlik va ijtimoiy nomutanosibliklar va noto‘g‘ri jamoalar sirasida 17 nafar odamni tanqid qilgan. Har birining qilmishiga ta’rif berib o‘tgan.

Jumladan: “Mavlono Ashraf — darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo‘rk ustiga qurchuq chirmar zrdi. Va el bila dag‘i omizishi oz erdi. Ko‘proq avqot «Xamsa» tatabbu’ig‘a sarf qilur erdi; to ul kitobni tugatur tavfiqi topti”[5]. Demak, to‘rtinchi yirik xavf boshimizdan o‘tkan mustamlaka davridagi jamoalashuv sifatining buzilganligi va uning tiklanmasligi uchun katta zarbalar berilganligi bilan xarakterlanadi.

Vorisiylikni yana bir muhim funksiyalaridan biri uning ijtimoiy moslashuvni ta’minlashdagi rolidir. Ijtimoiy moslashuv jarayon sifatida ma’lum bir vaqt davomida sodir bo‘ladigan dinamik jarayon bo‘lsa, vorisiylik insonlarning yangi muhitga moslashishlarida o‘z xulq-atvorlarini, qadriyatlarini va fikrlash tarzini o‘zgartirishdek katta vazifani bajaradi. Jumladan, inson yangi ish joyiga qabul qilinganida, shu tashkilotning bir necha avlodi tajribalari, jamoa a’zolari tomonidan davom ettirilib kelinayotgan vorisiy urf-odatlar, qadriyat va an’analar, professional qobiliyatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar uning moslashuvi jarayoniga katta hissa qo‘shadi. Vorisiylikning nafaqat kichik guruhlar, tashkilot yoki muassasalar jamalarida, balki butun elat, millat hayotida aks etishini sivilizatsiya, madaniyat, san’at, odob-axloq va hatto boshqaruv jarayonida ham o‘z aksini ko‘rsatishida kuzatishimiz mumkin. Vorisiylikni jarayon sifatida ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan tadqiq qilish mukinmi? Albatta, mumkin. Ko‘plab ijtimoiy jarayonlar kabi vorisiylik ham ma’lum bir jamiyat yoki katta-kichik guruhlarga salbiy jarayon sifatida ta’sir etadi. Ko‘p hollarda bu jarayon madaniyat va hayot tarzi to‘qnashuvlarida sodir bo‘ladi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston sosiologiyasi asoschilaridan biri, mashhur sosiolog olim Mansur Bekmuradov vorisiylikka bo‘lgan o‘z qarashlarini bildirib, uning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, vorisiylik faqat mol-mulkni o‘tkazish emas, balki ijtimoiy ongda, qadriyatlarda va madaniy identifikatsiyada ham ahamiyat kasb etadi. Bekmuradov, shundan kelib chiqib, vorisiylikning ijtimoiy xavf sifatidagi roliga ham e’tibor qaratadi. U, meros olishning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va zamonaviy talablarga moslashuvni to‘sishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, vorisiylikni rivojlanish jarayonlariga moslashtirish, undagi salbiy jihatlarni umummaqbul ijobiylikka yo‘naltirish lozim. Buning uchun oilaviy an’analarni zamonaviy talablarga moslashtirish kerak[6]. Masalan, “Buyuk xitoy devori”ni barpo qilish bilan bog‘liq vorisiylik an’analarini olaylik. Xitoy shimoli-sharqida joylashgan bu devor, 9 ming kilometrga yaqin masofani egallagan. U miloddan avval III asrda Sin imperiyasi hukmdori Sin Shixuandi tashabbusi bilan boshlangan bo‘lib qurilish to milodiy 1644 yilga qadar davom etgani aytiladi. 1800 yil davomida bunyod etilgan ushbu devor 25 avlodni ko‘rgan. Endi biz Xiva xonligida barpo etilgan Ko‘k (Kalta) minor qurilish tarixiga nazar solsak. 1853 yilda Muhammad Aminxon tomonidan boshlangan minora qurilishi 1855 yilda xonning vafoti munosabati bilan to‘xtab qoladi. Keyingi Xiva xonlari turli tarixiy shart-sharoitlar va ijtimoiy vaziyatlar sababli mazkur minora qurilishini oxiriga yetkazish haqida o‘ylamagan. Yana bir muhim jihati minoraning tarixi uni bitkazgan xon nomi bilan emas, qurilishni boshlagan xon nomi bilan atalashi vorisiylik an’anasi ekanligi, qolaversa, xonlarning siyosiy mustaqilliklari va shu bilan bog‘liq huquqlari o‘zgalarga ergashish emas, o‘z pozisiyalarida turishganliklarini aks ettirishi mumkin.

Vorisiylikda ijtimoiy rollar alohida ahamiyatga ega. Vorisiylik ijtimoiy xavfsizlikning psixologik va sosiologik aspektlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Har bir avlod o‘ziga xos tartiblarni va qadriyatlarni yaratadi va bu qadriyatlar keyingi avlodlarga o‘tib, ularning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Vorisiylik orqali bir jamiyatdagi odamlar o‘rtasida

ishonch, hamkorlik va muvozanatni saqlash mumkin bo‘ladi. Bu jarayonlarda ijtimoiy xavfsizlik ta’minotida muhim instrumentlardan biri sifatida vorisiylik musbat rol o‘ynaydi. Vorisiylikning siyosiy merosdorlik jihati ham muhim bo‘lib, u ko‘pincha politologiya, sosiologiya kabi ijtimoiy fanlarda o‘rganiladigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Siyosiy vorisiylikning ijtimoiy xavf jihatiga kelsak, ayniqsa, mansab va hokimiyat oilada o‘tkazilishi, mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri monarxiya yoki dinastik hokimiyatlarni paydo qilishi mumkin bo‘lgan jihatlari o‘rganiladi. Bu jamiyatda o‘z-o‘zidan demokratiyani cheklash va erkinliklarni chegaralash kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida vorisiylikning ijtimoiy xavflari majburiyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ta’limdagi zamonaviy qadriyatlarga katta zarar yetkazadi. Bunda vorisiylik ta’lim va martaba (karera) tanlovida ijtimoiy talablarga moslashishni talab qilishi, shaxsiy qiziqishlar va iqtidorlarni inobatga olmasligi mumkin.

“Avlod – bu aniq tarixiy davrda shakllangan va yosh farqi asosida faoliyat yurgizish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chegaralangan insonlarning obyektiv ravishda takomillashadigan sosial-demografik va madaniy-tarixiy birligi sanaladi”.[7] Kelajakda vorisiylikni ijtimoiy rivojlanish jarayonida faol ishlatiladigan mexanizm sifatida ko‘rish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish, milliy qadriyatlarimizni saqlash bilan birga, jamiyatga yangi g‘oyalarning generatsiyasini kuchaytirish orqali ijodiy fikrlashni yuksaltirishga va innovasion qarashlarni rivojlantirishga yordam beradi. Vorisiylikni to‘g‘ri shakllantirish jamiyatni rivojlantirish jarayonlariga moslashtirish uchun oilaviy an’analarni zamonaviy talablarga moslashtirish kerak. Bundan tashqari, vorisiylik konsepsiyasini Yangi O‘zbekiston jamiyatining har tomonlama rivojlanishi uchun faol tarzda qayta ko‘rib chiqish va ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Vorisiylik Yangi O‘zbekiston jamiyatining muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy struktura, madaniy meros va iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi. Vorisiylikning yo‘qligi ijtimoiy xavfning asosiy ildizlaridan biri hisoblanadi. Bu konsepsiya jamiyatdagi tengsizliklar, an’anaviy qadriyatlar va ijtimoiy moslashuvni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, vorisiylik ijtimoiy xavf sifatida ham baholanishi kerak, chunki u ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirish va innovatsiyalarni rivojlanishini to‘sish xavfini olib kelishi mumkin. Vorisiylikni huquqiy va ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri tushunish, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash yo‘lida unutilgan ijobiy vorisiylik bilan bugungi kun zamon talabalariga moslasha oladigan yangi turdagi vorisiylikni jamiyat qadriyatlari, an’analari bilan hamohanglikda rivojlantirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Вебер Макс. Хозяйства и общества, MWG Band 1/22.
2. Эмиль Дюркгейм. "Осуществление социальной солидарности" (1893). 104 ст.
3. Пьер Бурдьё (Bourdieu P). Ижтимоий макон ва "синфлар" генезиси / Ижтимоий фанлар бўйича тадқиқотлар. 1984. № 52-53. Пп. 3-14.
4. Ғулом Ғ., “Шум бола”, Адабиёт санъат нашриёти, 1983 й. 94 бет.
5. Алишер Навоий, “Мажолис ун-нафоис», 6 бет.
6. Бекмурадов, М. Ворисийлик ва ижтимоий ривожланиш. Ўзбекистон социологияси журнали, 2023 й. 4(1), 50 бет.
7. Глотов М., Поколение как категория социологии, Москва, 2004. 10-42-48 ст.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:004.85

Behzod XOLMURODOV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: behzodxolmurodov16@gmail.com

PhD, dotsent N.Zaripov taqrizi asosida

ASSESSING STUDENTS' ABILITIES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES AND OFFERING SUITABLE PROGRAMS FOR THEM

Annotation

Artificial intelligence (AI) technologies are increasingly being used in education today. With the help of AI, opportunities are being created to automate and optimize the educational process. These technologies allow for accurate assessment of student abilities, offer customized curricula, and increase efficiency in educational institutions. The article examines the relevance of AI technologies in education and methods of their practical application.

Key words: Artificial intelligence, independent learning, learning platforms, chatbots, virtual, automation, adaptive.

ОЦЕНКА СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ПРЕДЛОЖЕНИЕ ПОДХОДЯЩИХ ДЛЯ НИХ ПРОГРАММ

Аннотация

Сегодня технологии искусственного интеллекта (ИИ) все чаще используются в образовании. ИИ создает возможности для автоматизации и оптимизации образовательного процесса. Эти технологии позволяют точно оценивать способности учащихся, предлагать индивидуальные программы обучения и повышать эффективность работы образовательных учреждений. В статье рассматривается актуальность технологий искусственного интеллекта в образовании и их практическое применение.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, самостоятельное обучение, обучающие платформы, чат-боты, виртуальный, автоматизация, адаптивный.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALAR QOBILIYATLARINI BAHOLASH VA ULARGA MOS DASTURLARNI TAKLIF QILISH

Annotatsiya

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari bugungi kunda ta’lim sohasida tobora keng qo‘llanilmoqda. AI yordamida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu texnologiyalar talabalar qobiliyatlarini aniq baholash, ularga moslashtirilgan o‘quv dasturlarini taklif qilish va ta’lim muassasalarida samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Maqolada AI texnologiyalarining ta’lim sohasidagi dolzarbligi va ularni amaliy qo‘llash usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, o‘quv platformalar, chatbotlar, virtual, avtomatlashtirish, adaptiv.

Kirish. So‘nggi yillarda AI texnologiyalari nafaqat sanoat va biznes sohalarida, balki ta’lim tizimida ham muhim o‘rin egallamoqda. Raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim muassasalari an’anaviy o‘qitish metodlarini AI bilan boyitib, o‘quv jarayonini yanada samarali va shaxsiylashtirilgan qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. AI texnologiyalari maktab, kollej va universitetlarda dars berish usullarini o‘zgartirib, o‘qituvchilarga yordam berish, talabalarni real vaqt rejimida baholash va ularning o‘zlashtirish darajasini individual tahlil qilish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida ham “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalar” belgilab berilgan[1]. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tizimlar talabalar uchun mos o‘quv materiallarini tavsiya qilib, ularning bilim darajasiga mos kurslar taklif qilishi mumkin. Masalan, adaptiv o‘quv platformalari (Coursera, EdX, Khan Academy) foydalanuvchilarning bilim darajasini baholab, ularga shaxsiy o‘quv rejalarini taklif qiladi. Bundan tashqari, AI asosida ishlovchi tizimlar darsliklar, testlar va imtihonlarni avtomatik ravishda baholashni amalga oshirib, o‘qituvchilarning yuklamasini 42% kamaytiradi. Shuningdek, akademik monitoring tizimlari o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib, ularning qiyinchiliklarga duch kelgan sohalarini aniqlashga yordam beradi.

An’anaviy baholash usullari ko‘pincha o‘quvchining umumiy natijalariga asoslangan bo‘lsa, AI texnologiyalari har bir talabani individual ravishda baholashga qodir. Masalan, AI asosida ishlab chiqilgan intellektual test tizimlari talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Shuningdek, AI asosida ishlovchi kognitiv baholash tizimlari talabalar diqqat, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini baholab, ularga mos o‘quv resurslarini tavsiya qilishi mumkin. Bundan tashqari, AI texnologiyalari ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, AI asosida ishlaydigan virtual yordamchilar (chatbotlar) talabalar savollariga tezkor javob berib, o‘quv jarayonini soddalashtiradi. AI yordamida ta’lim muassasalarida turli sohalarga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni talabalar ehtiyojlariga mos ravishda moslashtirish mumkin.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Setareh Maghsudi, Andrew Lan[2] va boshqa bir necha olimlar AI texnologiyalarining ta’lim sohasidagi rolini kengaytirish va kelajakdagi imkoniyatlari haqida izlanishlar olib borishmoqda. R. Luckinning Nature Human Behaviour jurnalida chop etilgan maqolasida ta’lim sohasida sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlarini rivojlantirish va qo‘llash[3] masalalari yoritilgan. Sun’iy intellektni ta’lim jarayonlariga tadbiq etish va talabalarni AI asosida mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, mustaqil o‘rganish uchun foydali bo‘lgan bir nechta AI vositalarini keltirib o‘tdi. Masalan “Coursera” va “EdX” kabi sun’iy intellekt tomonidan takomillashtirilgan virtual o‘quv muhitlari keng ko‘lamli o‘quv mazmunini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtiradigan moslashuvchan ta’lim texnologiyalarini taklif etadi[4]. Bundan tashqari Khan Academy – talabalar bilim darajasiga qarab moslashtirilgan darslarni tavsiya qiladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sun’iy intellektning mustaqil ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish maqsadida miqdoriy va sifat tadqiqot yondashuvlarini birlashtirgan aralash usuldan foydalangan. Tadqiqot doirasida

Buxoro davlat pedagogika instituti talabalari orasida turli fanlar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilib, 54 nafar ishtirokchi bilan batafsil suhbat tashkil qilindi. So‘rov o‘quvchilarning mustaqil ta’limdagi sun’iy intellekt vositalariga bo‘lgan munosabati va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lsa, suhbat esa talabalar tajribalari hamda duch kelgan qiyinchiliklar haqida chuqurroq ma’lumot olishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot doirasida, shuningdek, ikki guruh talabalarning akademik natijalari qiyosiy tahlil qilindi: bir guruh an’anaviy o‘quv vositalaridan foydalangan holda, ikkinchi guruh esa bir semestr davomida sun’iy intellekt vositalari yordamida ta’lim olgan.

AI texnologiyalarining ta’limga integratsiyasida qo‘llanilayotgan asosiy usullar quyidagi 1-jadvalda ko‘rib chiqiladi:

1-jadval

	Usullar	Tasnifi	Misollar
1	Adaptiv o‘quv platformalari	Adaptiv o‘quv platformalari AI texnologiyalaridan foydalanib, har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlaydi. Bu tizimlar talabalar bilim darajasini, o‘rganish sur’atini va qiziqishlarini tahlil qilib, ularga mos keladigan dars materiallarini taklif qiladi.	-Khan Academy -DreamBox -Coursera va EdX
2	Avtomatik baholash tizimlari	An’anaviy baholash jarayonlari ko‘pincha vaqt talab etuvchi jarayon bo‘lib, subyektiv baholash ehtimolini oshiradi. AI asosidagi baholash tizimlari bu muammoni hal qilib, testlar va topshiriqlarni avtomatik ravishda tekshiradi va natijalarni aniq hisoblab beradi.	-Turnitin -Grammarly -Edmentum
3	Virtual yordamchilar va chatbotlar	Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan virtual yordamchilar va chatbotlar talabalar bilan muloqot qilib, ularga doimiy ravishda yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Ular o‘qituvchilarning yuklamasini kamaytirib, talabalar savollariga javob beradi va o‘quv jarayonini osonlashtiradi.	-Jill Watson -Duolingo -ChatGPT
4	Ma’lumotlarni tahlil qilish va bashorat qilish	AI texnologiyalari talabalar o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, ularga shaxsiy yondashuvni taklif etish imkonini beradi. Ushbu tizimlar real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash orqali o‘quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlaydi va ularning kelajakdagi natijalarini bashorat qiladi.	-IBM Watson Education -Google AI for Education
5	VR/AR texnologiyalari	Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta’lim jarayonini interaktiv va vizual tarzda tashkil qilish uchun AI bilan birlashtirilmoqda. Bu texnologiyalar talabalarga an’anaviy usullar bilan tushuntirish qiyin bo‘lgan murakkab mavzularni osonroq o‘zlashtirish imkonini beradi.	-Google Expeditions -Microsoft -Labster

Tahlil va natijalar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi bir qator muhim natijalarga olib keldi. Eng avvalo, ta’limni shaxsiylashtirish imkoniyati oshdi. AI har bir talabaning bilim darajasini tahlil qilib, individual o‘quv rejalari yaratish orqali ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qildi[6]. Bu esa talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning samaradorligini oshirdi. Shuningdek, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish natijasida o‘qituvchilar ma’muriy yuklamalardan ozod bo‘lib, talabalar bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. AI asosida test va imtihonlarni avtomatik baholash tizimlarining joriy etilishi o‘qituvchilarga vaqt tejashga, talabalar esa o‘z natijalarini tezkor tahlil qilishga yordam berdi[9].

Adaptiv o‘quv platformalarining rivojlanishi ta’limni yanada moslashuvchan qildi. Talabalar o‘z bilim darajasiga mos materiallarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lib, shaxsiy o‘zlashtirish sur’atida ta’lim olishni davom ettira oldilar. Bu esa ularning ta’lim sifati va natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi. Bundan tashqari, talabalar progressini kuzatish va ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish AI texnologiyalarining eng muhim afzalliklaridan biri bo‘ldi. AI yordamida talabalar zaif tomonlari erta aniqlanib, ularga kerakli resurslar va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari tavsiya qilindi. Bu esa ularning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshirdi.

Eng muhim natijalardan biri esa global ta’lim imkoniyatlarining kengayishi bo‘ldi. Masofaviy ta’lim platformalarining AI bilan integratsiyalashuvi natijasida dunyoning istalgan nuqtasidagi talabalar yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar[10]. Bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda sifatli ta’limga bo‘lgan talabni qondirishda muhim rol o‘ynadi.

So‘rov natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, talabalarning 87 foizi mustaqil ta’lim jarayonida akademik resurslarni boshqarish hamda vaqtni samarali taqsimlashda sun’iy intellekt vositalarini foydali deb topishgan. Ayniqsa, Grammarly, Turnitin va Edmentum kabi dasturlar yozish hamda tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori baholangan. Shu bilan birga, suhbat natijalari ushbu masalaning yanada murakkab jihatlarini ochib berdi. Ko‘pchilik talabalar sun’iy intellekt vositalari orqali taqdim etiladigan shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini qadrlagan bo‘lsa-da, ba’zilar texnologiyaga ortiqcha tayanish va izolyatsiya hissini boshdan kechirganliklarini bildirgan. Bu esa, o‘z navbatida, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga bo‘lishi mumkin bo‘lgan ta’sir haqida xavotir uyg‘otgan. Akademik samaradorlik ma’lumotlari esa an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan, ayniqsa, tadqiqot va yozish komponentlarini o‘z ichiga olgan kurslarda sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan talabalar baholarining o‘rtacha oshganligini tasdiqlagan. An’anaviy va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimida tahsil olgan o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridagi farqlari yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘zlashtirish darajasi an’anaviyda 60-75% ni tashkil qilsa sun’iy intellektga asoslangan ta’limda esa 70-90% ni tashkil qildi.

Xulosa va takliflar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga joriy etilishi o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. AI yordamida talabalar bilim darajasi aniq baholanib, ularga moslashtirilgan ta’lim dasturlari taklif qilinadi. Shuningdek, AI asosidagi virtual yordamchilar, adaptiv platformalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o‘qituvchilarning yuklamasini kamaytiradi va talabalarga yanada samarali ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishda texnik infratuzilma, ma’lumotlar xavfsizligi va o‘qituvchilarning tayyorgarligi kabi muammolar mavjud. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun bir nechta takliflarni ilgari surish mumkin:

-AI asosidagi ta’lim tizimlarini yanada rivojlantirish – ta’lim muassasalarida AI texnologiyalarini keng joriy qilish va ularni o‘quv jarayoniga moslashtirish;

-texnik infratuzilmani mustahkamlash – AI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologik resurslarga investitsiya kiritish;

-ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash – talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun ishonchli xavfsizlik choralarini ishlab chiqish.

-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash – AI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish;

-masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish – AI texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limni global miqyosda rivojlantirish.

AI texnologiyalarini ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish orqali ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi va kelajak avlodga innovatsion ta’lim muhitini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi[13].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
2. Maghsudi, S., Lan, A., Xu, J., & van Der Schaar, M. (2021). Personalized education in the artificial intelligence era: what to expect next. IEEE Signal Processing Magazine, 38(3), 37-50.
3. Luckin, R. (2017). Towards Artificial Intelligence-based Assessment Systems. Nature Human Behaviour.
4. O‘Reilly, T. AI and the Future of Learning: Adaptive Learning Systems. Journal of Educational Technology & Society. 2020 y.

5. Khan Academy. (2023). Adaptive Learning Platforms. https://www.khanacademy.org
6. Xolmurodov, B. (2022). Matematika fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda kahoot platformasidan foydalanish. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).
7. Xolmurodov, B. (2024). Integrated teaching using virtual reality and augmented reality technologies in higher education institutions. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(5), 236-239.
8. Xolmurodov, B. (2024). Informatika va raqamli texnologiyalar fanini o ‘qitishda quizlet va kahoot platformalaridan foydalanish. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
9. Xolmurodov, B. (2022). Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalar fanini o‘qitishning interfaol metodlari:“keys-stadi” metodi. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).
10. Mansurov, T. (2024). Ta’limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayonidagi o‘ziga xos afzalliklari. “Педагогическая акмеология” международный научно-методический журнал, 9(17).
11. T. Z. Mansurov (2024). Informal ta’limning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi roli. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(54), 232-237.
12. Мансуров, Т. (2025). Роль современных образовательных технологий в развитии профессиональных навыков учителей информатики. Interpretation and researches, (2 (48)).
13. Mansurov, T. (2024). Improving science teaching efficiency using the h5p plug. Solution of social problems in management and economy, 3(5), 231-235
14. Mustafoyev, O. T. (2024). Sun’iy intellekt yordamida 8-sinf fizika darsligini tahlili. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(43), 75-77.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 681.42.37:371.3

Shuxrat XOLMURODOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: shxolmurodov@gmail.com
Taxir TURAYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Hakimbek NORQOBILOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

PhD S.Sattorov taqrizi asosida

MAKTABLARDA TA’LIM JARAYONI TASHKIL ETISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktablarda ta’lim jarayoni tashkil etishda sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati, sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida samarali foydalanish usullari sun’iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari haqida o‘z fikrimizni yoritdik.
Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar (neural networks), nachine nearning, nabiiy tilni qayta ishlash (natural language processing, NLP), computer vision, ekspert tizimlar, AI.

THE IMPORTANCE OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN SCHOOLS

Annotation

In this article, we have discussed the importance of using artificial intelligence in organizing the educational process in schools, the methods of effective use of artificial intelligence in the educational process, the advantages and disadvantages of artificial intelligence.
Keywords: Artificial intelligence, neural networks, how to approach, natural language processing (NLP), computer vision, expert, systems, AI.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ШКОЛАХ

Аннотация

В данной статье мы обсудили важность использования искусственного интеллекта в организации образовательного процесса в школах, методы эффективного использования искусственного интеллекта в образовательном процессе, а также наши мысли о преимуществах и недостатках искусственного интеллекта.
Ключевые слова: Искусственный интеллект, нейронные сети, моделирование нейронных сетей, обработка естественного языка (NLP), компьютерное зрение, экспертные системы, ИИ.

Kirish. “Sun’iy intellekt” deganda ko‘pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun’iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o‘rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi. Avvallari “sun’iy intellekt” atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo‘lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish yoki shaxmat o‘ynash vazifalarni bajarish uchun qo‘llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o‘rganishga ham sun’iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko‘rsatish, turli onlayn o‘yinlar va kompyuter texnologiyalarini chuqur o‘rganish kabilar sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To‘g‘ri, sun’iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun’iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o‘quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo‘lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin Sun’iy intellekt (SI) - bu kompyuter tizimlariga inson ongiga xos fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini berishga yo‘naltirilgan texnologiya va ilmiy yo‘nalishdir. Sun’iy intellekt so‘nggi yillarda juda tez rivojlanib, turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlari

1. Mashina o‘rganishi (Machine Learning) – SI tizimlarining tajriba asosida o‘zini takomillashtirish qobiliyati hisoblanadi. Bu sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompyuter tizimlariga tajriba asosida o‘zini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv aniq dasturlashsiz, ya’ni ma’lumotlarga asoslangan holda o‘z algoritmlarini shakllantirisni o‘rgatadi.

2. Neyron tarmoqlar (Neural Networks) – inson miyasining ishlash prinsipiga asoslangan algoritmlar hisoblanadi. Bu sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, inson miyasining ishlash prinsipiga asoslangan algoritmlarni o‘z ichiga oladi. Ular sun’iy neyronlardan tashkil topgan bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, aniqlash va murakkab muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi.

3. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) - matn va nutqni tushunish va qayta ishlash texnologiyasi hisoblanib, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) — bu kompyuterlarning inson tilini tushunishi, qayta ishlashi va yaratishi bilan bog‘liq sun’iy intellekt sohasi. NLP kompyuterlarga insonlar bilan tabiiy tilda muloqot qilish, matnni analiz qilish, tarjima qilish va boshqa ko‘plab vazifalarni bajarishga imkon beradi.

4. Kompyuter ko‘ruvi (Compyuter Vision) - tasvir va videolarni tahlil qilish hamda tushunish qobiliyati. Bu kompyuterlarga tasvirlar va videolarni tahlil qilish, ularning mazmunini tushunish va ulardan ma’lumot chiqarib olish imkonini beruvchi sun’iy intellekt sohasi. CV inson ko‘rish qobiliyatini kompyuterga taqlid qilishga harakat qiladi.

5. Ekspert tizimlar - aniq soha bo‘yicha qaror qabul qilish tizimlari. Bunda inson ekspertlarining qaror qabul qilish qobiliyatlarini taqlid qiluvchi sun’iy intellekt dasturlari. Ular muayyan sohalarda tajribali mutaxassislarning bilimlarini modellashtirish orqali murakkab muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellekt (SI) ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy manbalar, kitoblar va maqolalar tahlili ta’limdagi SI texnologiyalarining imkoniyatlari, cheklovlari va kelajak istiqbollarini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin:

Sun’iy intellektning ta’limdagi roli va imkoniyatlari

Personalizatsiyalangan ta’lim (AI-driven adaptive learning)

Virtual o‘qituvchilar va tutorlar.

Ta’lim jarayonini avtomatlashtirish.

Bu sohada asosan xorijiy olimlar juda ko‘plab tadqiqotlar olib borganlar va bular Edward Feigenbaum-Sun’iy intellekt va ekspert tizimlar asoschilaridan biri. MYCIN (tibbiy diagnostika tizimi) va DENDRAL (kimyoviy tahlil tizimi) loyihalarini boshqargan. Randall Davis - MIT olimi, ekspert tizimlar va bilim muhandisligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. XCON (R1) – kompyuter tizimlarini konfiguratsiya qilish tizimini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Allen Newell va Herbert A. Simon - Kognitiv fan va sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. General Problem Solver (GPS) – dastlabki mantiqiy qaror qabul qilish tizimlaridan birini ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktablarda ta’lim jarayoni tashkil etishda sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati, sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida samarali foydalanish usullari sun’iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari haqida Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalanadi: Ta’limdagi sun’iy intellekt o‘quv mazmunini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirib, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va resurslar cheklangan maktablarga foyda keltirish orqali individual o‘rganishni osonlashtiradi. Ushbu yondashuv talabalarga o‘z sur’atlari bo‘yicha rivojlanishga, o‘z ta’lim uslublariga mos keladigan faoliyat bilan shug‘ullanishga va ta’lim sayohatlarida ko‘proq avtonomiyaga ega bo‘lishga imkon beradi. Topshiriqlarni farqlash va ma’lumotlarga asoslangan, moslashuvchan amaliyotlarni ishlab chiqish uchun sun’iy intellekt yordamchilaridan foydalanish o‘qituvchining ish yukini minimal oshirgan holda umumiy o‘rganish tajribasini yaxshilaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Maktab direktorlari o‘zlarining katta ma’muriy yuklarini kamaytirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan ham foydalanishlari mumkin. AI chatbotlari elektron pochta xabarlarini tayyorlash, jadvallarni tashkil qilish va malaka oshirish sessiyalarini ishlab chiqish kabi ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirishda yordam beradi. AI modellari katta ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish uchun, masalan, ota-onalarning xohishiga ko‘ra yozgi darslarni rejalashtirish kabi qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkin. Bu ma’murlarga ko‘proq strategik tashabbuslarga, odamlarning o‘zaro munosabatiga va munosabatlarni o‘rnatishga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Hozirgi zamon texnologiyalari jadal rivojlanmoqda, va bu jarayonda sun’iy intellekt (SI) yetakchi o‘rin egallamoqda. Sun’iy intellekt dunyoni tubdan o‘zgartirib, turli sohalarda inqilob qilmoqda. Quyida SI ning zamonaviy dunyodagi ta’siri, imkoniyatlari va kelajak istiqbollari haqida so‘z yuritamiz.

Iqtisodiyot va ish o‘rinlari - Sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib, unumdorlikni oshirmoqda. Biroq, ba’zi kasblar yo‘qolishi mumkinligi sababli, yangi texnologiyalarga moslashish zarurati tug‘ilmoqda.

Tibbiyot - SI yordamida kasalliklarni oldindan aniqlash, tahlil qilish va davolash jarayonlari tezlashdi. Masalan, neyron tarmoqlarga asoslangan diagnostika tizimlari an’anaviy usullarga qaraganda aniqroq natijalar berishi mumkin.

Ta’lim - Sun’iy intellekt shaxsiylashtirilgan o‘qitish tizimlarini rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Virtual yordamchilar va interaktiv platformalar o‘quv jarayonini soddalashtirib, har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirilmoqda.

Transport - Avtonom avtomobillar, sun’iy intellekt boshqaruvidagi yo‘l harakati tizimlari va logistika sohasidagi avtomatlashtirish kelajakda transportni yanada xavfsiz va samarali qiladi.

Ijodiy Soha - Sun’iy intellekt musiqa, rasm, yozuv va boshqa ijodiy yo‘nalishlarda ham faol qo‘llanilmoqda. AI yordamida yangi san’at asarlari yaratilmoqda, shuningdek, kontent yaratishda insonlarga yordam bermoqda.

Sun’iy intellektning kelajagi - Kelajakda sun’iy intellekt inson hayotining barcha jabhalariga yanada chuqurroq kirib boradi. Shu bilan birga, uning rivojlanishi axloqiy va huquqiy masalalarni ham keltirib chiqarmoqda. SI dan foydalanishning chegaralari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va inson mehnati bilan uyg‘unlashuvi kabi muammolar hal etilishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchilar generativ AI vositalaridan foydalanishning ba’zi usullari

O‘qituvchilar ta’lim natijalarini yaxshilash uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning turli usullarini topishmoqda. Ikkita e’tiborga molik dastur lug‘at o‘rgatish uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalar yaratish va qiziqarli

Tahlil va natijalar. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim jarayoniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, uni yanada innovatsion va samarali qilishga yordam bermoqda. Sun’iy intellekt (SI) aynan shu sohada keng qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonini moslashuvchan, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilishga xizmat qilmoqda.

SI asosida ishlovchi tizimlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim materiallarini taqdim etishga yordam beradi. Masalan, adaptiv ta’lim platformalari har bir o‘quvchining bilim darajasini baholaydi va unga mos keladigan o‘quv dasturini tavsiya qiladi. Bu esa har bir shaxsning o‘ziga xos o‘rganish uslubini hisobga olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt o‘qituvchilarga ham katta yordam bermoqda. Masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari test va yozma ishlarni tekshirishda inson omilidan foydalanish zaruratini kamaytiradi. Shuningdek, SI o‘quvchilarga maslahat beruvchi virtual yordamchilar sifatida ishlaydi. Chatbot va AI yordamchilar talabalarning savollariga tezkor javob berib, ularga dars tayyorlashda ko‘maklashadi.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimida samaradorlikni oshirsa-da, uning ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, SI insoniy omilni to‘liq o‘rnini bosa olmaydi, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va axloqiy muammolar ham dolzarb masalalar hisoblanadi.

Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitmoqda. U o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ta’lim olish va o‘qitish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishda yordam bermoqda. Kelajakda bu texnologiyaning yanada rivojlanishi ta’lim sifati va qulayligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining roli kundan-kunga ortib bormoqda. Sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va o‘quv jarayonini avtomatlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. SI asosidagi tizimlar yordamida o‘quvchilar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish, bilim darajasini baholash va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkoniyati kengaymoqda.

Birinchidan, sun’iy intellekt har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, SI asosida ishlab chiqilgan adaptiv ta’lim platformalari o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, uning ehtiyojlariga mos keluvchi topshiriqlar va o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Ikkinchidan, SI yordamida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati mavjud. Masalan, avtomatik baholash tizimlari yordamida testlarni tekshirish, insholarni tahlil qilish va natijalarni tezkor yetkazib berish mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning yuklamasini kamaytirib, ularning e’tiborini ko‘proq o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratish imkonini beradi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirish va samarali o‘tkazishda yordam beradi. Virtual yordamchilar, chat-botlar va SI asosida ishlovchi maslahat tizimlari o‘quvchilarning savollariga javob berish, qo‘shimcha

tushuntirishlar berish va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlar olib kelmoqda. U ta’lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qiladi. Kelajakda SI texnologiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ta’lim sifati yanada oshishi va har bir o‘quvchiga individual yondashuvni yanada takomillashtirish imkoniyati kengayishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Jiyanov O.P., Toshniyozov F.O‘., Turabayev A.T. "Ta’lim jarayonida intellektual tizimlarni qo‘llash va ulardan foydalanish." Лучшие интеллектуальные исследования, 2023.
2. Dehqonova Zilolahon. "Ta’lim jarayonida sun’iy intellektning roli va istiqbollari." ZDIT, 2024.
3. Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o‘g‘li, Dilmurodov Zuxriddin Do‘stmurod o‘g‘li. "Ta’lim tizimida sun’iy intelektdan foydalanish." Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 2024.
4. Tillaboyev Komiljon Tolqinovich. "Ta’lim jarayonida sun’iy intelekt texnologiyalarini qo‘llash." Zenodo, 2024.
5. Abdullayev Axrorbek Anvarjon o’g‘li, Fozilov Shavkatjon Ibrohimjon o‘g‘li, Ishmetov Bahrom Yangibayevich. "Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt va neyron to‘rli texnologiyalar." Zenodo, 2024.
6. Mengturayev Farxod Ziyatovich, Xaydarov Sherali Islom o‘g‘li. "Ta’limda sun’iy intellektning o‘rni." Journal of New Century Innovations, 2023.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:372.8

Фарида ХОСИЛОВА,
PhD, старший преподаватель межфакультетской кафедры русского языка НУУз
E-mail: farida_salimova@list.ru

На основе рецензии профессора, DSc. Зокировой

OLIY TA’LIMDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINING SHAKLLARI VA USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-izlanish faoliyatining ahamiyati, shakl va usullari tahlil qilinadi. Empirik, nazariy hamda aralash (mixed) metodlardan foydalanishning roli, ularning talabalarda mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rag‘batlantiruvchi muhit yaratish orqali tadqiqot sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy-izlanish faoliyati, empirik, nazariy, aralash metodlar, oliy ta’lim, talabalar tadqiqotchiligi, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассмотрены значение, формы и методы научно-исследовательской деятельности в высшей школе. Освещается роль эмпирических, теоретических и смешанных (mixed) подходов в развитии у студентов навыков самостоятельного мышления и исследовательской работы. Также предлагаются рекомендации по повышению качества исследований за счет использования современных технологий, расширения международного сотрудничества и создания стимулирующей среды.

Ключевые слова: Научно-исследовательская деятельность, эмпирические, теоретические, смешанные методы, высшее образование, студенческие исследования, современные технологии, международное сотрудничество.

FORMS AND METHODS OF RESEARCH ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION

Annotation

This article examines the significance, forms, and methods of research activities in higher education. It highlights the role of empirical, theoretical, and mixed approaches in developing students’ critical thinking and research skills. The paper also provides recommendations for improving research quality through the use of modern technologies, the expansion of international collaboration, and the creation of an encouraging academic environment.

Key words: Scientific research activities, Empirical, theoretical, mixed methods, Higher education, Student research, Modern technologies, International cooperation.

Введение. В контексте современного общества высшее образование играет решающую роль в подготовке высококвалифицированных специалистов, способных не только усваивать теоретические знания, но и вести самостоятельную исследовательскую деятельность. Научные исследования в университете формируют у студентов критическое мышление, творческий подход и навыки решения сложных профессиональных задач. Благодаря исследовательской работе студенты учатся устанавливать причинно-следственные связи, выявлять актуальные проблемы и предлагать конкретные пути их решения. Кроме того, научная деятельность в вузе способствует развитию новых педагогических технологий и внедрению инновационных методик в учебный процесс, что, в свою очередь, повышает качество образования.

Исследовательская деятельность студентов и преподавателей в высшем учебном заведении тесно связана с междисциплинарным подходом и постоянным обновлением знаний. С одной стороны, вуз является местом, где формируются фундаментальные представления о научных методах и принципах, с другой – пространством для апробации новых идей и разработки практико-ориентированных проектов. В контексте глобализации и быстрого научно-технологического прогресса возрастает потребность в профессионалах, которые умеют эффективно проводить исследования, использовать современные методики анализа данных, а также внедрять инновации в свою профессиональную сферу. Исходя из этого, совершенствование форм и методов исследовательской деятельности в вузах становится приоритетной задачей образовательной политики.

Данная статья ставит перед собой цель рассмотреть основные пути повышения эффективности научно-исследовательской работы в высших учебных заведениях, проанализировать существующие методики и предложить комплекс рекомендаций по их совершенствованию.

Методы. Для успешного формирования исследовательских компетенций в вузе используются разнообразные методы и подходы, которые можно условно разделить на три большие группы. Первая группа включает в себя эмпирические методы, предполагающие получение первичных данных путем наблюдения, эксперимента, опросов и интервью. В естественно-научных и инженерных областях студенты часто проводят лабораторные опыты, анализируют результаты экспериментов, изучают техническую документацию. В социальных и гуманитарных дисциплинах широко применяются социологические опросы, фокус-группы, анализ документов и интервью, позволяющие исследовать актуальные общественные процессы и собирать конкретные фактические сведения.

Вторая группа охватывает теоретико-методологические методы, которые позволяют систематизировать, сопоставлять и критически переосмысливать уже имеющиеся научные данные. Здесь ключевую роль играет анализ научной литературы и официальных источников, составление подробных обзоров предыдущих исследований, выявление существующих концепций и подходов. Для этого студенты и преподаватели изучают научные статьи, монографии, статистические отчеты, диссертации и другие материалы, формируя целостное представление о состоянии изучаемого вопроса. Кроме того, в процессе теоретического анализа возможна постановка новых гипотез и научных вопросов, которые

далее проверяются эмпирическим путем или обогащаются с помощью аналитических инструментов.

Третья группа методов представляет собой смешанные (mixed methods) или комплексные подходы, сочетающие в себе элементы эмпирического изучения и теоретического анализа. Исследователь в таком случае не ограничивается лишь сбором и обработкой данных, но и рассматривает их в широком научном контексте, сопоставляя разные методики и точки зрения. Это может включать в себя проведение эксперимента и параллельный анализ теоретических источников, с последующей проверкой сформулированных гипотез на выборке респондентов. При таком подходе появляются дополнительные возможности для междисциплинарного взаимодействия, когда методы и инструменты из одной области науки успешно применяются в другой.

Важной составляющей исследовательской деятельности в вузе является правильная организация и координация. Руководство учебного заведения должно обеспечивать доступ к современной научной инфраструктуре, включая компьютерные классы, лаборатории, специализированные библиотеки, базы данных, а также способствовать сотрудничеству с внешними научными организациями и бизнес-сектором.

Результаты. Анализ эффективности форм и методов научно-исследовательской деятельности в высшем образовании показывает, что комплексный подход к выбору и комбинированию различных методик дает наиболее высокие результаты. Студенты, активно вовлеченные в исследовательский процесс, демонстрируют развитие самостоятельности и критического мышления. Их способность видеть проблему под разными углами и находить оригинальные решения усиливается благодаря систематическому участию в проектах, конференциях и научных дискуссиях.

Кроме того, регулярная исследовательская работа формирует у студентов устойчивую мотивацию к учебе и развитию. Когда они понимают, что полученные знания можно применить для реального решения теоретической или практической задачи, повышается их интерес к дисциплине, а результаты учебы выходят за рамки простого усвоения материала. В конечном счете, это отражается на конкурентоспособности выпускников, которые умеют использовать современные научные методы в профессиональной деятельности.

Данные, полученные в ходе университетских исследований, вносят вклад не только в науку, но и в практическую сферу. Например, результаты экспериментов, проведенных в инженерных и технических специальностях, могут напрямую применяться при разработке инновационной продукции и технологий. Исследования в области экономики, социологии, педагогики и психологии способствуют более глубокой оценке социальных процессов и позволяют формулировать рекомендации для органов управления и общественных организаций.

Эффективность исследовательской деятельности в вузе также отражается на научном потенциале преподавателей и всех участников академического сообщества. Коллективный характер научных проектов способствует обмену идеями, повышению квалификации и постоянному профессиональному росту. Преподаватели, вовлеченные в научно-исследовательскую деятельность, остаются в курсе последних тенденций в своей дисциплине, интегрируют новые знания в учебный процесс, обеспечивая его актуальность и инновационность.

Обсуждение. При всей важности исследовательской деятельности в высшем образовании остается ряд проблем, требующих дальнейшего решения и совершенствования организационных механизмов. Во-первых, крайне важно обеспечить надлежащую координацию между исследовательской и учебной работой: иногда студентам не хватает времени или ресурсов, чтобы глубоко погрузиться в научный проект. Для преодоления этого барьера вузы могут пересмотреть учебные планы, предусмотрев отдельные промежутки времени для ведения исследований и написания научных статей или отчетов.

Во-вторых, заметной преградой на пути развития научной деятельности могут стать ограниченные финансовые ресурсы, отсутствие современного оборудования и достаточного количества лабораторий. Решением здесь может служить активизация работы по получению грантов, а также сотрудничество с промышленными и научными центрами. Частно-государственные партнерства, создание совместных лабораторий и научных центров, участие в программах международного обмена и партнерства – все это помогает расширять возможности для исследований.

В-третьих, необходимо совершенствовать систему мотивации и стимулирования как для студентов, так и для преподавателей. Публикации в научных журналах, участие в международных конференциях, получение патентов и грантов должны поощряться на уровне университета. Для студентов это могут быть дополнительные баллы в рейтинговой системе, стипендии, а для преподавателей – повышение квалификационной категории, премии и возможность карьерного роста.

Существенную роль в развитии исследовательской культуры играет использование современных информационно-коммуникационных технологий. Онлайн-платформы, базы данных, электронные библиотеки и специальное программное обеспечение для статистической обработки и моделирования предоставляют широкие возможности для оперативного обмена информацией и международной коммуникации. Студенты могут участвовать в вебинарах, удаленных лабораторных работах, а также иметь доступ к данным ведущих научных центров мира. Подобное «цифровое пространство» не только расширяет границы исследований, но и делает их более гибкими, мультидисциплинарными и применимыми в разных профессиональных сферах.

Еще одна важная задача – развитие критического мышления и культуры научной дискуссии. Исследовательская деятельность предполагает умение формулировать аргументы, анализировать данные и принимать взвешенные решения. Создание культуры научного дебата в университете способствует тому, что студенты и преподаватели учатся отстаивать свою точку зрения и одновременно уважать альтернативные позиции. Публичные защиты проектов, участие в круглых столах и семинарах помогают формировать у будущих исследователей уверенность, культуру полемики и профессиональную эрудицию.

Укрепление международного сотрудничества – важное направление повышения качества научных исследований в вузах. Обмен опытом и совместные исследования с зарубежными партнерами позволяют перенимать передовой опыт, актуализировать методологические подходы и формировать глобальное научное сообщество. Университеты могут организовывать программы двойных дипломов, научные стажировки, а также проводить совместные конференции и семинары для расширения научных контактов.

Развитие исследовательских навыков и у студентов, и у преподавателей – это непрерывный процесс, требующий систематического подхода. Университеты должны формировать внутреннюю политику, нацеленную на поддержку научно-исследовательской деятельности, и создавать необходимую инфраструктуру, которая будет способствовать углублению научного поиска. Образовательные программы следует конструировать так, чтобы они содержали в себе логическую связку между теоретическими знаниями и практическими исследованиями, стимулируя тем самым студентов к самостоятельной работе и инновационным разработкам.

Заключение. Формирование и развитие исследовательской деятельности в высшем образовании являются фундаментальной основой для подготовки специалистов нового поколения. Разнообразие методов – от эмпирических исследований до комплексных mixed methods –

обеспечивает широкие возможности для реализации научного и творческого потенциала студентов и преподавателей. Грамотное сочетание теоретической подготовки и практической работы, включающей эксперименты, сбор данных, анализ литературы и обсуждение результатов, позволяет не только глубже понять изучаемый предмет, но и способствует появлению новых междисциплинарных проектов.

Результаты исследований, проводимых в университетах, имеют непосредственное влияние на развитие науки, экономики, социальной сферы и технологий. Преодоление существующих ограничений и вызовов, связанных с материально-технической базой, финансированием и мотивацией, возможно благодаря комплексным мерам, включающим грамотную организацию, эффективное руководство, внедрение информационно-коммуникационных инструментов и расширение международного сотрудничества.

Перспективы дальнейшего совершенствования форм и методов исследовательской деятельности в высшей школе связаны с более глубокой интеграцией науки и образования, усилением проектной направленности учебных программ, а также постоянным обновлением методологического и технологического инструментария. В конечном итоге, качественно организованная исследовательская деятельность в вузе формирует поколение специалистов, способных эффективно справляться с актуальными задачами современного общества и вносить вклад в прогресс науки и практики.

ЛИТЕРАТУРА

1. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. – Buckingham: Society for Research into Higher Education & Open University Press, 2011. – 336 p.
2. Creswell J.W.Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 4th ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2014. – 304 p.
3. UNESCO.The Sustainable Development Goals: Education 2030. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
4. Petrina S.Advanced Teaching Methods for the Technology Classroom. – Hershey, PA: IGI Global, 2016.
5. Webster N.Designing effective research in higher education // Journal of Higher Education Research. – 2019. – Vol. 5, № 2. – P. 67–80.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:39:323.1(575.1)

Samad XUDAYNAZAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail:khudaynazarovsamad69@mail.ru,
Nargiza JAMALOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi

Dotsent, PhD J.Shodiyev taqrizi asosida

ETNOMADANIY QADRIYATLAR – O‘ZLIKNI ANGLASH OMILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, etnomadaniyatning mohiyati, o‘zlikni anglashdagi o‘rni, etnomadaniy qadriyatlarni yosh avlod kamolotidagi bugungi o‘rni va roliga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Etnomadaniyat, ob’ekt, kategoriya, qonuniyat, struktura, funksional xususiyat, xalq me’morchiligi, a’nana, udum, urf-odat, rasm-rusum, marosim.

ETHNOCULTURAL VALUES – A FACTOR OF IDENTITY

Annotation

This article analyzes the essence of ethnoculture, its role in self-awareness, and the significance and impact of ethnocultural values on the development of the younger generation.

Key words: Ethnoculture, object, category, regularity, structure, functional characteristics, folk architecture, tradition, custom, ritual, ceremony.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ – ФАКТОР ВОСПРИЯТИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется сущность этнокультуры, ее роль в самосознании, а также современное место и роль этнокультурных ценностей в развитии подрастающего поколения.

Ключевые слова: Этнокультура, объект, категория, закономерность, структура, функциональный признак, народная архитектура, традиция, обычай, обряд, ритуал.

Kirish. Turli madaniyatlararo muloqot maydonlari yanada kengayib, tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv, integratsiyalashuv, to‘la axborotlashuv zamonida o‘zligini anglagan, ertasini o‘ylagan, uyg‘oq har bir xalq, millat, jamiyat, shaxs o‘z madaniy an’analarini shu bilan birga umumbashariy madaniy qadriyatlarni ko‘z gavharidek asrab-avaylab uni yangi ma’no-mazmun bilan boyitib, kelajak avlodlarga yetkazishdek mas’uliyatni bajarishga hamisha qodir bo‘ladi. Aksincha, o‘z madaniy qadriyatlariga nisbatan beparvolik, loqaydlik boshqa bir madaniyatni iste’molchisiga aylantirib qo‘yadi.

Barchamizga ayonki, Mustaqillik sharofati bilan ko‘p ming yillik tarixga ega etnomadaniy qadriyatlarimiz tiklanib, turmush tarzimizdan munosib o‘rin egalladi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonda Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari va ko‘rsatmalari asosida ko‘p ming yillik tarixiga ega xalqimiz madaniyati negizlariga yanada ko‘proq e’tibor qaratilmoqda va uning nafaqat milliy, mintaqaviy balki jahon sivilizatsiyasi tizimida munosib o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. “Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[1].

Tarixan milliy va umumbashariy xususiyatlarning o‘zida mujassamlashtirgan etnomadaniy qadriyatlardan jamiyatimiz ravnaqi hamda ertangi hayotimiz davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni har jihatdan sog‘lom va ma’naviy-ma’rifiy yetuk insonlar qilib tarbiyalashdek ezgulikka xizmat qiladi.

Ma’lumki, Davlatimiz tomonidan inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, xalqimizning ko‘p ming yillik moddiy va ma’naviy merosiga, uning qadimiy va hamisha navqiron an’analarini rivojlantirishga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilib kelinmoqda. Jumladan, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oya asosida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan miqiyosi ulkan ezgu maqsadlar, amaliy ishlar, vazifalar, tub islohotlar, yangilanishlar shuningdek, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi doirasidagi ishlar, Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish borasidagi ezgu amaliy ishlar, xususan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ezgu maqsadlar xususan 75-maqsadda: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, 76-maqsadda: Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish.., 77-maqsadda: O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish, 78-maqsadda: Milliy kino san’atini rivojlantirish kabilar va boshqalar “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasini ruyobga chiqarmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5040-son 26.03.2021 qarori[2], Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 02.02.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-112-son qarori[3], Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2017 yil 8 iyuldagi, O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017 yil 17 dekabrdagi, “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.11.2018 y. PQ-3991-son Qarori, “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.11.2018 y. PQ-3990-son Qarori[4], “Lazgi” xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2020 yildagi PQ-4843-son Qarori[5], “Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2021 y. PQ-5098-son Qarori, “II Xalqaro baxshichilik san’ati festivaliga tayyorgarlik ko‘rish va baxshichilik san’atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2021 y. PQ-5070-son Qarori hamda “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida O‘zR VM 27.06.2018 y. 486-son qarori[6] va boshqalar yuqoridagi fikrimizga dalillardandir.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarni tub negizlarini o‘zida mujassamlashtirgan etnomadaniy qadriyatlarni tiklash, saqlash, yangi an’analar bilan boyitib borish bir tomondan, ma’rifatli jamiyat g‘oyasini yuzaga chiqishida, boshqa tomondan, globallashuv davrini sinovlariga bardosh berishda ham yanada muhim ma’no va ahamiyatga egadir.

Etnomadaniy qadriyatlarni jamiyatga, taraqqiyotiga, inson va millat kamolotiga xizmat qilishga to‘la yo‘naltirish, uni fan sifatida o‘rganish mustaqillik bois yuzaga chiqdi va “Etnomadaniyat” mustaqil fan sifatda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidan mustahkam joy olib bormoqda. Albatta, bu jamiyatda va olamda kechayotgan voqeliklar bilan sababiy bog‘lanishlarga ham ega bo‘lgani holda, bir tomondan, ozod va erkin jamiyatda kechayotgan tub madaniy - ma’rifiy o‘zgarishlar, islohatlar, o‘zlikni anglash va yanada mukammal taraqqiyot ehtiyojlariga aloqador bo‘lsa, boshqa tomondan, global maydonlarda kechayotgan ayrim ambitsiyalar, turli madaniy eskalatsiyalar, konfliktlar, bosimlar, ekspansiyalar, ma’naviy-axloqiy hurujlar, g‘oyaviy-mafkuraviy tajavuzlar, ta’sir orbitasiga tortishlar, “ommaviy madaniyat” va estetik sayozlik kabilar ham buni yuzaga kelishiga, fan sifatida o‘rganishga sabablardan, deb o‘ylamiz.

Xullas, “Etnomadaniyat” jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlari olamida yangi yo‘nalish bo‘lib, alaqachon bu fan sohasi bo‘yicha ilmiy izlashilar olib borilmoqda, ushbu fan mavzulariga oid maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratilmoqda.

Etnomadaniyat fani – o‘z o‘quvchisini necha ming yillar davomida xalq yaratgan (bu o‘rinda xalqimiz) moddiy va ma’naviy boyliklari, qadriyatlari mohiyati, qudrati, imkoniyati va ahamiyatini bilishiga, ularga inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazardan yondoshishga, ilmiy tadqiq qilishga, yangi an’analar bilan boyitishga, saqlashga, kelajak yetkazishga, o‘zligini anglashga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, avlodlarni o‘z madaniy an’analariga sadoqat ruhida tarbiyalashga hamda jahon sivilzatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishda bag‘oyat muhim ahamiyati kasb etadi.

Xalq moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rgandigan fan sohasi “Etnomadaniyat” haqida gap borar ekan, avval, “etnomadaniyat” tushunchasiga izoh berib o‘tish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Bu tushuncha borasidagi soha olimlari qarashlari va manbalar tahlilida umumiylik, bir xillik ko‘zga tashlanadi. Ulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, “etnomadaniyat” tushunchasi “etnos” va “madaniyat” so‘zlarining uyg‘unligidan tashkil topgan bo‘lib, “etnos” qadimgi yunon tilida xalq, urug‘, to‘da, kishilar birligi, qabila, o‘zga qabila, nasl ma’nolarida ishlatilgan. Madaniyat esa, arabcha “madina” va “iyat” so‘z yasovchi qo‘shimchasining birikishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, aynan “shaharga oid”, ilm-fan, ma’rifat, tarbiya maskani degan ma’noni anglatadi[7]. Muxtasar qilib aytganmizda, etnomadaniyat - biror xalqning madaniy olamining tub tarixiy negizlari, genezisi, moddiy va ma’naviy qadriyatlari, madaniy turmush tarzi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, an’ana-yu tutumlari, bayram-u marosimlari, e’tiqodi, tili, madaniy-ma’rifiy kashfiyotchiligi, kelajak ideallari, ijtimoiy-madaniy munosabatlari, o‘zga xos identligi, nodir va betakror fenomenal xususiyatlari va boshqalarni ham o‘rganadi.

Umuman olganda, Etnomadaniyatning tadqiqot obyekti doirasiga - xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e’tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq urf - odatlari, rasm-rusum, marosimlari, xalq ijodi, xalq o‘yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me’morchiligi, xalq amaliy san’ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati va boshqalar kiradi[8].

Etnomadaniyatning predmeti doirasiga - etnosning tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiat va jamiyat bilan birgalikda yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar dunyosi kiradi. Umumlashtirib aytganda: Etnomadaniyat fanning predmeti doirasiga – xalq tomonidan ko‘p ming yillar davomida yaratilgan va amal qilingan moddiy va ma’naviy qadriyatlar dunyosi, uning millat, jamiyat, shaxs kamolotidagi hamda umumdunyo madaniyati tizimidagi o‘rni, taraqqiyot tizimidagi roli, o‘ziga xosligi, evalyusion asoslari, mintaqaviy va jahon madaniyati bilan o‘zaro aloqadorligi, ularning bir-birlariga ta’siri, bog‘liqligi, yangi an’analar bilan boyib borishi, zamonaviy hayotdagi o‘rni va ahamiyati kabilar ham kiradi.

Boshqa fan sohalari singari etnomadaniyat fani ham o‘zining tadqiqot obyektiga, predmetiga, maqsad va vazifalariga, tadqiqot usullariga, mustaqil kategoriya va tushunchalariga, rivojlanish qonuniyatlariga, tarkibiy strukturasiga, funksional xususiyatlariga ega.

Etnomadaniyat - xalq, millat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklari, qadriyatlari, tajribalarining o‘zak qismi, yadrosidir. Milliy madaniyat mudom ushbu o‘zakka, yadroga qurilgan, ular orqali milliy xususiyat, shakl va mazmun kasb etgan. O‘zbek xalqining tarixiy-madaniy paradigmasiga (misol, namuna) aylangan etnomadaniyat bir tomondan, uzoq rivojlanish jarayonida to‘plangan, muqim, barqaror, ba’zan konservativ tajribalarni, qarashlar va artefaklarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, uning janr, tur va shakllarida innovatsiyaga, transformatsiyaga moyillik dialektik tarzda bir-birini to‘ldirib, milliy madaniyatni shakllantirgan. Etnomadaniyat va milliy madaniyat o‘rtasida yuzaga keladigan ushbu dialektik aloqalarni, alogenetik va ideologik hodisalarni tadqiq etish muhim nazariy-falsafiy ahamiyatga egadir[9].

Etnomadaniyat yoshlarga xalqimizning urf-odat, an’ana va qadriyatlari kabilardan bilim berib qolmasdan, balki ularda etnomadaniy qadriyatlarga hurmat, sadoqat, vatanparvarlik, insonparvarlik, madaniy yaratuvchilik, ziyoliylik kabi fazilatlarini ham shakllantiradi. Umuman ularni komil inson bo‘lib voyaga yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, etnomadaniyat kishida o‘zlikni anglashga, tarixiy xotirani tiklashda, boshqa etnoslar madaniyatiga hurmat kabilarni ham shakllantiradi.

Etnomadaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik, an’anaviylik va zamonaviylik, barqarorlik va o‘zgaruvchanlikni ham o‘zida namoyon qiladi[10].

Etnomadaniyat - etnos yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni shunchaki tahlil qilmasdan, balki uning rivojlanishi, saqlash, kelajakka yetkazish kabi murakkab funksiyani ham bajaradi.

Xulosa. Etnomadaniyat o‘z o‘quvchisiga etnos madaniyati tarixi, evolyusiyasi xaqida bilimlarni beradi hamda o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid muhim ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Shuningdek, xalq etnopedagogikasi, etnopsixologiyasi, entoestetikasi, etnoekologiyasi, ma’naviy axloqiy meyorlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, an’anaviy oila, turmush marosimlari, bayramlari, e’tiqodi, diniy tasavvurlar va qarashlari, yaratgan moddiy va ma’naviy ne’matlari, tarixiy xotira va toponimlari, falsafasi, donishmandligi, og‘zaki va yozma ijodiyoti, amaliy san’ati, me’morchiligi, dam olish madaniyati, pazandaligi, tabobati, sport o‘yinlari, milliy liboslar, turmush madaniyati va boshqalarga oid bilimlarni beradi va shu orqali o‘zlikni anglashga ham xizmat qiladi.

Har bir etnos o‘zining mustaqil, betakror, behad noyob madaniy qadriyatlariga ega va uning ijodkoridir. Mudomki, madaniyat hech qachon ellarni zidlashtirmaydi balki birlashtirganidek, etnomadaniyat bu maydonda turfalikni ta’minlash orqali umumdunyo madaniy ravnaqiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида 26.03.2021 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. https://president.uz/uz/lists/view/4309
3. https://lex.uz/docs/5849580

4. https://president.uz/uz
5. https://lex.uz.
6. https://nrm.uz.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Э Ҳарфи «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. –Тошкент: -Б. 247. www.ziyouz.com кутубхонаси., Очилдиев А. Маданият фалсафаси http://www. faylasuf.uz/., Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Т.: “Фан”, 2013. -Б. 6-7., Гулметов Э. Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик.-Т.: ФТДҚ, ДИТАФ, 2000. –Б.8;
8. Қорабоев У. Маданият масалалари. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедиясияси”, Давлат илмий нашриёти, 2009. -Б.41
9. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Т.: “Фан”, 2013. -Б.3.
10. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. Фалс.фан.док... дис. авторефер. –Т.: ЎзМУ, 2016. –Б. 29.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 101.1

Muminjon XUJAYEV,
Alfraganus universiteti Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari, Falsafa fanlari doktori, dotsent
Adhamjon MIRZACHAYEV,
Alfraganus universiteti Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi, O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: a.mirzachayev@afu.uz

ISFT instituti dotsenti, f.f.n. D.Bozarov taqrizi asosida

HOZIRGI DAVRDA IMOMI A’ZAMNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Zamonaviy globallashuv jarayonida insoniyat sivilizatsiyasining axloqiy asoslari sinovdan o‘tayotmoqda. Shaxs va jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy-ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi, ta’lim va tarbiyaning etuk metodlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada tarixiy diniy-pedagogik merosga tayanish va buyuk allomalar, xususan, Imom A’zam Abu Hanifaning axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini hozirgi pedagogik va falsafiy nuqtai nazardan qayta tahlil etish dolzarb vazifalardan biri ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Islom, mazhab, e’tiqod, shahar, aholi.

НАЧНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ВЗГЛЯДОВ ИМАМА АЗАМА НА ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ

Аннотация

В условиях современного глобализационного процесса моральные основы цивилизации человечества проходят проверку. Стабильное развитие личности и общества, сохранение национально-духовных ценностей, зрелые методы обучения и воспитания становятся все более важными. С этой точки зрения в данной статье анализируется актуальность обращения к историческому религиозно-педагогическому наследию и переосмысление морально-воспитательных взглядов великих ученых, в частности, Имама Азама Абу Ханифы, с точки зрения современной педагогики и философии.

Ключевые слова: Ислам, мазхаб, вера, город, население.

THE IMPORTANCE OF IMAM AL-A'ZAM'S VIEWS ON SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION IN THE MODERN AGE

Annotation

In the process of modern globalization, the moral foundations of human civilization are undergoing a test. The stable development of individuals and society, the preservation of national and spiritual values, and the mature methods of education and upbringing are becoming increasingly important. From this perspective, this article analyzes the relevance of relying on historical religious-pedagogical heritage and re-evaluating the moral and educational views of great scholars, particularly Imam Azam Abu Hanifa, from the perspective of modern pedagogy and philosophy.

Keys words: Islam, madhhab, belief, city, population.

Kirish. Abu Hanifaning ma’naviy-axloqiy ta’limoti nafaqat islom huquqi (fiqh) doirasida, balki insoniylik tamoyillarini rivojlantirish, ijtimoiy muvozanatni ta’minlash hamda jamiyatning ma’naviy uyg‘unligiga erishish yo‘lida ham asosiy konseptlardan biri hisoblanadi. Uning mantiqiy tafakkurga asoslangan ilmiy yondashuvi, axloqiy tamoyillarga sodiqligi va mustaqil ijtihod qilishga rag‘batlantiruvchi metodologiyasi zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Imomi A’zamning ta’lim-tarbiya uslubi va talabalar bilan munosabatini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish yurtimiz ulamolari va mudarrislari uchun boshlang‘ich-u oliy barcha ta’lim muassasalarida katta ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Bunday o‘qitish va o‘quvchilar bilan muomala qilish usuli mudarris-tarbiyachi bo‘lishning ajoyib namunasidir. Ustozlarimizda shunday uslub va uslub bo‘lsa, maktab-u madrasa va oliy o‘quv yurtlarida ta’limni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysak, yoshlarimiz hanafiy mazhabini to‘g‘ri bilib, to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlay oladilar. Imom Abu Hanifa (r.a.) eng avvalo, shogirdlari bilan birga yolg‘iz farzandi Hammodni ham yaxshi ko‘rar, ularga boladek ta’lim berar edilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Imomi A’zam o‘z uslubi va ta’lim uslubini islom dinining muhtaram payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)dan o‘rgangan, insoniyatning bu peshvosi va ustozi o‘z do‘stlari va atrofidagilar bilan shunday munosabat va muomalada bo‘lganki, shogirdlari va suhbatdoshlari uni o‘zlaridan ham ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘rar edilar. Hayotida ham, ta’limotida ham payg‘ambarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini o‘ziga asosiy o‘rnak qilgan Imom Abu Hanifa (r.h.) shogirdlari u zotni jonlaridek yaxshi ko‘rardilar, hatto olim bo‘lib, ega bo‘lishlari mumkin edi. Alloma o‘z mazhabi, lekin hurmati uchun ularning ustozlari o‘z dini mazhabi, uslubi va yondashuvidan chetga chiqmadi, balki o‘z dinini kamolotini, uslubi va uslubini rivojlantirdi.

Aytish joizki, Imomi A’zam (r.h.)ning barcha shogirdlari avlodlaridek bo‘lib, ularning har biri islom shariati ilmida yuksak mavqega yetib, o‘zlarida qimmatli asarlar qoldirganlar. Imomi A’zamning shogirdlar tarbiyalashdagi ta’lim uslublarini to‘g‘ri tushunish va uning ta’limotlarini malakali va samarali o‘rgatish uchun Imom Abu Hanifa fikrlarini u zotning shogirdlari fikrlari bilan qiyoslab o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Taqqoslash badiiy asarni o‘rganish metodi sifatida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini kengaytiradi. Tekuchev A.V.ning so‘zlariga ko‘ra, taqqoslash «ta’lim va intellektual amaliyot usullaridan biri hisoblanadi va haqiqat va haqiqatni tushunishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi»[1].

Manbalarda Abu Hanifa shogirdlari soni haqida ma’lumotlar berilgan va bu masala tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan. Shu jumladan Solihiy o‘z kitobining beshinchi bobida Imom Abu Hanifa (r.h.)dan ta’lim olgan va ilmlaridan bahramand bo‘lgan turli mamlakatlardan kelgan olimlarni tilga oladi)[2]. Tarixiy va diniy manbalar Imomi A’zam (r.h.)ning vasiyatlarini, ilm o‘rganish yo‘lini, fatvo va shariat hukmlariga oid amallarini shogirdlariga yetkazgan. Islom shariati talablariga javob beradi. Agar amaldor o‘zida xalq ko‘rmagan aybni ko‘rsa, gunohga bulg‘anmaslik uchun o‘z mansabidan chetga chiqishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Imomning ilmga bo‘lgan sevgisi Abu Hanifa (r.h.) shogirdlarga saboq berardi, shogirdini bir umr ustozi qilib qo‘ydi va o‘sha shogird hech qachon suhbatini tark etgisi kelmasdi. Mudarris bu usulni to‘g‘ri o‘zlashtirishi, atrofiga o‘quvchilarni to‘plashi, ularning bilim va bilimini ayamasligi kerak. Imom Abu Yusuf (r.h.) ustozi Imom Abu Hanifa (r.h.) ni juda yaxshi ko‘rar, umri davomida Imom Abu Hanifa (r.h.) davridanoq tanigan va unga shogird bo‘lgan. Imom Abu Yusuf (r.h.) uchun bu hech narsaga arzimaydi, ya’ni ustozining darsiga borishni hamma narsadan ustun deb bilardi. Hanafiy fiqhi kitoblarida imom Abu Yusuf (r.h.)ning ustozi Imom Abu Hanifa (r.h.) bilan ba’zi masalalarda ixtiloflar borligi juda seziladi. Bu masala yuzasidan uning o‘zi shunday deydi: “Men domlaning fikriga qo‘shilmagan bu so‘z domlaning o‘z so‘zidir. Buni avval ham aytgan edi va ular va’dalariga vafo qilishdi, men ham shunday va’da oldim» [3]. Demak, bu o‘rinda Abu Hanifaning bu yo‘nalishini demokatik yoki bag‘rikenglilikk uslubi desa desa bo‘ladi.

Imom Abu Yusuf Imom Abu Hanifa (r.h.)ning suyukli shogirdlaridan edi. Abu Yusuf (r.h.) juda kambag‘al oilada o‘sgan. Bolaligidan o‘qishga, yozishga qiziqar, onasi bunga rozi bo‘lmagan, farzandining hunar o‘rganishini, mehnat qilishini, rohat-farog‘at hayot kechirishi uchun boylik orttirishini istardi. Imom Abu Yusuf hazratlarining o‘zlari aytadilar: “Otam vafot etganida men bola edim. Mustaqil bo‘lganimizda onam meni o‘z ishiga g‘assarga (kirxonaga) olib bordi. Men u yerdan qochib, Imom Abu Hanifaning so‘zlaridan bahramand bo‘lish uchun darslarida qatnashdim. Onam ortimdan olib, saroyga olib ketardi. Men esa yana qochib, darsga qatnashardim. Onam ko‘rganidek, har doim saroy oldidan Men qochib ketaman va imomning darsiga boraman, u imomning oldiga kelib: “Bu farzandni buzdingiz, bu bola yetim va fazilatsiz, men unga nafaqani kasbimdan to‘layman, pul topib, o‘zini rizqiga yetkazishini xohlayman». Imom Abu Hanifa (r.h.): «Ey ona! Bu bola bu yerda pista yog‘i qo‘shib foluda (halvo) yeyishni o‘rganyapti». Imom Abu Yusuf (r.h.) aytadilar: Keyin onam u yerdan chiqib, Imom Abu Hanifa (r.h.)ga: “Sen johil keksa odamsan, aqlingni yo‘qotding», dedilar. Imom Abu Yusuf (r.h.) aytadilar: “Men Imom Abu Hanifaning darsiga qatnashmaslikni eng yaxshisi deb bildim, shunda Alloh taolo meni uning ilmidan bahramand qildi va meni qozilik darajasiga ko‘tardi». U aytadi: “Bir kuni Horun ar-Rashid bilan sayohat qilayotgan edim, Horun ar-Rashid ovqat olib kelib: “Ey Yoqub, bulardan yegin, bizga har kuni bunday ovqat olib kelishmaydi», dedi. Men: “Bular nima?» dedim. U: «Fuluda pista yog‘i bilan aralashtiriladi», dedi. O‘shanda kulib qo‘ydim. Ul zot: «Kulishingizning sababi nima?» dedilar. Men hech narsa demadim. Horun ar-Rashid voqeani aytib berishimni talab qildi. Horun ar-Rashid juda hayron bo‘lib: “Alloh Abu Hanifani rahmatiga olsin, u boshning ko‘zi ko‘ra olmaydigan narsalarni ilm orqali ko‘rdi»[4], dedi. Furot aytadi: Imom Abu Hanifaning qirq shogirdlari uning mazhabining kitoblarini o‘qish uchun yig‘ilganlar. Ularning rahbarlari Imom Abu Yusuf, Zufar, Huzayl, Dovud Toyi, Asad ibn Amr, Yusuf ibn Xolid Simtiy, Yahyo ibn Zakariya ibn Abu Zayda edilar. O‘ttiz yil davomida masalalarni yozish Zakariyo ibn Abu Zaydaga topshirilgan [5].

Imomi A’zam maktabini buyuk akademiya yoki universitetga qiyoslash mumkin. Imomi A’zamning universitet yoki ilm akademiyasining metodologiyasi va uslubi shundan iboratki, u zotning mazhabiga oid masalalar uning shogirdlari o‘rtasida muhokama qilinar va bu masala ular o‘rtasida bir oy yoki undan ko‘proq vaqt davomida muhokama qilinardi. Imom Abu Hanifa (r.h.) shogirdlarining bu boradagi javob va fikrlarini tinglab, nihoyat, ular o‘rtasida o‘z fikrlarini bildirishdi. Imom Abu Yusuf bu masalani mazhab usulida yozib qoldirganlar. Aniq aytishimiz mumkinki, Imomi A’zam mazhabi ulamolar va shogirdlarining hamkorligi va maslahati bilan barpo etilgan va bu mazhab faqat Imom Abu Hanifaning fikr va qarashlari emas. Agar shunday bo‘lsa, mana shu mazhabga amal qilish yaxshiroqdir va uning masalalarining to‘g‘riligi haqiqatga yaqinroqdir[6].

Saymariy o‘z kitobida Abu Ishoq ibn Ibrohim ibn Ahmad Iroqiydan rivoyat qiladi: “Imom Abu Hanifaning shogirdlari ustozlari bilan masalalarni muhokama qilishga chuqur kirishar va bu masala ko‘p bahs-munozaralardan so‘ng o‘z yechimini topardi. Imom Abu Hanifa bu masalaning yechimini Afiya ibn Yazidga taklif qiling, toki u o‘z fikrini bildirsin, der edilar. Agar o‘sha majlisda bo‘lmasa, Imom Abu Hanifa kelishini kutib turing, der edilar. Agar Afiya u zotning huzurlaridan keyin bu muammoning yechimini qabul qilsa, Imom Abu Hanifa (r.h.) bu masalani mazhab mazhabiga kiritishga ruxsat bergan bo‘lar edi. Va agar rozi bo‘lmagan bo‘lsa bermagan, Imomi A’zam o‘sha masalani kiritishni buyurmagan»[7].

Tahlil va natijalar. Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Hajar Asqaloniy “Tahzib ut-tahzib» kitobida shunday deydi: “Afiya ibn Yazid Imom Abu Hanifa (r.h.)ning sadoqatli shogirdlaridan bo‘lib, u zotning sahobalaridan biri Abu Laylodir. Hishom ibn Urva va o‘z davrining boshqa olimlari. Hadis shunday rivoyat qilgan. Horun ar-Rashid xalifaligi davrida hukumat askarlari orasida qozilik qilgan. Bir kuni Ofiya Rashidning oldiga keldi. Rashid aksirdi, yig‘ilganlar Rashidning aksirishiga bir ovozdan javob berishdi, faqat ofiya indamay qoldi. Rashid, nega aksirishimga javob bermading? Ofiya javob berdi: Chunki, sen aksirganingda Allohga hamd aytmagansan. Rashid uning rostgo‘yligi va tezkor javobidan mamnun bo‘lib: Siz juda sezgirsiz, bu lavozimga albatta munosibroqsiz[8].

Xulosa va takliflar. Imom Abu Hanifa (r.h.) tadbirkor bo‘lib, hayoti va farzandlari uchun qattiq mehnat qilgan. Bu savollarga har kuni “Qur’on» va sunnatdan javob topishi zarur edi. Uning hayotining boshqa masala va muammolari bilan birga musulmon jamoati, olimlar va talabalar uchun xuddi o‘zi tarbiya qilganidek, Butun islom olami musulmonlari ham uning mazhabidan ham, o‘zi va shogirdlarining ilmidan ham foydalanib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Тақиюддин ибни Абдулқодири Тамими дори Ғаззи Мисрии Ҳанафи. Ат-табақот-ус-сания фи тарожум-ил-ҳанафия. \Тақиюддин ибни Абдулқодир. Димишк: Дор-ур-Рафои, 2014. 61 б.
2. Абулфазл Жалолиддин Абдурраҳмон ибни Абу Бакр Суюти. Уқуд ул-жуммон.\ Абдурраҳмон ибни Абу Бакр Суюти. Қоҳира:Мактабат ул-асрия, 2000. - 460 б.
3. Аҳмад ибни Исмоил ибни Муҳаммади Таймур. Назрат-утторихияти фи ҳудус ал-мазоҳиб ал-фиқҳия ал-арбаъати.\ Аҳмад ибни Исмоил.-Байрут: Дор-ул-Қодири, 1996. -97 б.
4. Абу Закариё Яҳё ибни Иброҳими Азади Салмоси.\ Манозили аиммат ал-арбаъа. Яҳё ибни Иброҳим. Мактабатал-Малик Фаҳд. 44 б.
5. Муҳммад Зоҳид Кавсари. Ҳусну тақози фи сирати Абу Юсуф ал-қозии. Муҳммад Зоҳид Кавсари.\ Мактаба ул-Азҳарияҳ. 1999. 117б.; Абу Муҳаммад Ҳусайн ибни Масъуди Бағави. Маолим ут-Танзил. Абу Муҳаммад Ҳусайн. Дор ут-Тайиба. 1417 ҳижри. 1997 милоди. 453 б.
6. Ал-муваффақ ибни Аҳмад Ал-макки маъа Муҳаммад ибни Муҳаммад ибни Шаҳоби кардари. Маноқиби Абу Ҳанифа лилкардари. Муҳаммад ибни Шаҳоби кардари.\ Ҳайдаробод.1321ҳижри. 300 б.; Дидгоҳҳои тарбиятии Имоми Аъзам ва мушкилоти омўзишу парвариш. -Душанбе, 2009, -116 б.
7. Абулфазл Аҳмад ибни Али ибни Муҳаммад ибни Аҳмад ибни Ҳажари Асқалони. Таҳзиб ут-таҳзиб.\ Аҳмад ибни Али. Ҳайдаробод: Доират-ул-маъорифи Низомияи Ҳинд, 1326 ҳижри. -543 б.; Закариё ибни Муҳаммад ибни Маҳмуди Қазвини. Осор-ул- Билод ва ахбор ал-Ибод. \Закариё ибни Муҳаммад.Ҳайдаробод: Доират-ул-маорифи Усмония, 1312 ҳижри.- 435 б.
8. Абулфазл Аҳмад ибни Али ибни Муҳаммад ибни Аҳмад ибни Ҳажари Асқалони. Таҳзиб ут-таҳзиб.\ Аҳмад ибни Али. Ҳайдаробод: Доират ул-маъорифи Низомияи Ҳинд, 1326 ҳижри. -543 б.; Имом Аҳмад ибни Ҳанбал Абу Абдуллоҳи Шайбони. Муснади ал-Имом Аҳмад ибни Ҳанбал. \Имом Аҳмад.- Қоҳира: Муассисаи Қуртуба, 1980. -543 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:53.35.014.62

Abbos XUJAMOV,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarDTU dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR CREATING A CONCEPTUAL METHODOLOGICAL SYSTEM IN TEACHING TECHNICAL MECHANICS

Annotation

This article analyzes the scientific foundations for creating a conceptual methodological system in teaching technical mechanics. It examines methodological approaches to integrating modern pedagogical technologies into the technical education system, shaping engineering knowledge, and developing students' practical competencies. The study also highlights the specific characteristics of technical mechanics, innovative teaching approaches, and methods to enhance the effectiveness of the educational process. The research findings provide methodological recommendations aimed at improving the quality of technical education.

Key words: Technical mechanics, methodological system, engineering education, pedagogical technologies, practical competence, innovative approach, technical disciplines, quality of education.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ СОЗИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКОЙ МЕХАНИКИ

Аннотация

В ной статье анализируются научные основы созия концептуальной методической системы в преподавании технической механики. Рассматриваются методологические подходы к внедрению современных педагогических технологий в систему технического образования, формированию инженерных знаний и развитию практической компетентности студентов. Также освещаются специфические особенности дисциплины технической механики, инновационные подходы к её преподаванию и методы повышения эффективности образовательного процесса. Результаты исследования предлагают методические рекомендации, направленные на улучшение качества преподавания технических дисциплин.

Ключевые слова: Техническая механика, методическая система, инженерное образование, педагогические технологии, практическая компетентность, инновационный подход, технические дисциплины.

TEXNIK MEXANIKA FANINI O‘QITISHDA KONSEPTUAL METODIK TIZIMNI YARATISHNING ILMIY ASOSLARI

Annotation

Ushbu maqolada texnik mexanika fanini o‘qitishda konseptual metodik tizimni yaratishning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Texnik ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, muhandislik bilimlarini shakllantirish va talabalar amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, texnik mexanika fanining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qitishning innovatsion yondashuvlari va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalari texnik fanlarni o‘qitishning sifatini oshirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: Texnik mexanika, metodik tizim, muhandislik ta’limi, pedagogik texnologiyalar, amaliy kompetentlik, innovatsion yondashuv, texnik fanlar, ta’lim sifati.

Kirish. Texnik mexanika muhandislik ta’limining asosiy fanlaridan biri bo‘lib, talabalarning texnik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muhandislik muammolarini tahlil qilish va hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarni ham talab qiladi, bu esa uni samarali o‘qitish uchun maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda texnik ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Ammo texnik mexanika fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar va yangi innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirish masalasi hanuz dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ushbu maqolada texnik mexanika fanini o‘qitishning konseptual metodik tizimini yaratishning ilmiy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda texnik fanlarni o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, talabalar muhandislik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali metodik yondashuvlar taklif etiladi. Maqolada ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun innovatsion usullar hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni texnik mexanika faniga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Texnik mexanika fanini o‘qitish bo‘yicha mavjud ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu fan bo‘yicha ta’lim jarayonini takomillashtirishga doir turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Quyida muhim adabiyotlar guruhi va ularning mazmuniy tahlili keltiriladi:

1. Texnik mexanika fanini o‘qitishning umumiy nazariy asoslari. Ko‘plab tadqiqotchilar texnik fanlarni o‘qitish jarayonida fundamental va amaliy bilimlarning uyg‘unlashuvi zarurligini ta’kidlaydilar. Masalan, M.I. Skobelkin va V.V. Gorelov kabi mualliflar texnik fanlarning o‘quv jarayonidagi o‘rnini aniqlab, ularning nazariy va eksperimental o‘qitish tamoyillarini ko‘rsatganlar.

2. Texnik fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlarning roli. J. Bransford va A. Brown tomonidan ilgari surilgan faol ta’lim metodlari talabalar mustaqil bilim olishini rag‘batlantirish, ularning muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, A.V. Barannikov texnik fanlarni o‘qitishda loyihaviy va muammoli ta’lim metodlarining samaradorligi haqida tadqiqot olib borgan.

3. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni. G. Siemens va M. Downes tomonidan taklif qilingan raqamli ta’lim yondashuvi zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi. K. Schwab o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasida raqamli texnologiyalar texnik fanlarni o‘qitishda qanday muhim rol o‘ynashini yoritgan.

4. Kompetensiyaviy yondashuv va uning texnik fanlardagi ahamiyati. Hozirgi zamonaviy ta’lim konsepsiyasida kompetensiyaviy yondashuv asosiy tamoyillardan biri sifatida

qaraladi. A.V. Xutorskoy va E.F. Zeyer o‘z ilmiy ishlanmalarida talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatganlar.

5. Eksperimental tadqiqotlar va texnik fanlarni o‘qitishda amaliyotning roli. Ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan, D.A. Schön va J. Dewey, texnik bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatishning samaradorligini ta’kidlaganlar. Bu yondashuvga muvofiq, talabalar nazariy bilimlarini laboratoriya mashg‘ulotlari va eksperimentlar orqali mustahkamlashlari kerak.

Ta’limning metodik tizimi texnik mexanik fanidan ta’lim maqsadlarini ro‘yobga chiqaruvchi yondashuvlar majmui asosida quriladi. Yondashuv – murakkab va ko‘p jihatli tushuncha. Tor ma’noda yondashuv – bu yo‘llar, usullar majmuidir. Keng ma’noda yondashuv – bu ta’lim strategiyasi kabi keng hajmli tushunchani o‘z ichiga oladigan kategoriya. Falsafiy ma’noda yondashuv – bu har qanday jarayonning paradigmal, sintogmatik va pragmatik komponentlaridir [2].

Pedagogikada yondashuv – bu bilim olish amaliy va kasbiy faoliyatning alohida shakli, pedagogik fenomenni muayyan yo‘nalishidagi ko‘rinishi, o‘rganilayotgan jarayonni tadqiq qilish strategiyasi, pedagogning yondashuvini belgilovchi asosiy qadriyatli-semantik yig‘indidir [3].

Ushbu tadqiqotda texnik mexanika fanini o‘qitishda konseptual metodik tizimni yaratish jarayonining ilmiy asoslari o‘rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuvlarga tayanadi:

Nazariy-metodologik yondashuv – texnik mexanika fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodlarini tahlil qilish orqali metodik tizimni shakllantirish.

Eksperimental-tadqiqot yondashuvi – o‘qitish jarayonida ilgari surilgan konseptual metodik tizimni sinovdan o‘tkazish, natijalarini tahlil qilish va samaradorligini aniqlash.

Kompleks yondashuv – texnik fanlarni o‘qitishda integrativ va muammoli ta’lim usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yondashuvi – zamonaviy raqamli vositalar va dasturiy ta’minotdan foydalanish orqali texnik mexanika fanini samarali o‘qitish metodikasini ishlab chiqish.

Kompetensiyaviy yondashuv – talabalar kasbiy tayyorgarligini oshirish va muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni yaratish.

Yondashuv metodik tizimning asosiy kategoriyasi sifatida ushbu strategiyani amalga oshiradigan metodlar tanlovini belgilaydi. U o‘qitiladigan fan mohiyati nuqtai nazar shakllanadi, aniq bilimlar sohasida tadqiqotning eng umumiy metodologik asosi sifatida maydonga chiqadi. Demak, aytishimiz mumkinki, u yoki bu yondashuvni ro‘yobga chiqaruvchi ta’lim metodlari ta’lim jarayonining taktik modeli hisoblanadi [5].

Bu boradagi bizning ilmiy tadqiqot ishimiz mazmuniga to‘g‘ri keladigan ta’riflarni I.A.Zimnyayaning tadqiqot ishlarida ham uchratish mumkin. U ushbu tushunchaga bir nechta ta’rifni beradi: ta’limga yondashuv ko‘p ma’noga tarkibga ega; a)dunyoqarashli, unda ta’lim subyektlarining ijtimoiy ong tashuvchilari sifatidagi ijtimoiy qarashlari refreksiyalanadi; b)ta’lim jarayonining global va tizimli tashkillashtirilishi va o‘z–o‘zi tashkillashtirilishi, ya’ni sinergetik komponentlarini, eng avvalo, pedagogik o‘zaro aloqa subyektlarining (professor–o‘qituvchilar va talaba) o‘zini qamrab oladi. Yondashuv kategoriya sifatida “ta’lim strategiyasi” tushunchasiga qaraganda kengroq tushunchadir – u ta’lim metodlari, shakllari, usullari va vositalarini belgilagan holda ta’lim strategiyasining o‘zini ham o‘z ichiga oladi[5].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi ilmiy manbalarni tahlil qilgan holda unga tayanib biz, YE.V.SHerstova va A.B.Xutorskiyning zamonaviy pedagogik yondashuv mohiyatiga nisbatan aytilgan fikrlarni inobatga olamiz, ularda quyidagilar qayd etiladi: “Jamiyatning rivojlanish sur’ati bo‘lajak muhandisning ta’lim jarayonidagi ijodiy sa’y–harakatlariga, u ega bo‘lgan imkoniyatlariga va qobiliyatlarga bog‘liq bo‘lib, globallashuv bo‘lajak muhandisning faolligini rag‘batlantiradi, uni kasbiy faoliyatga tayyorlash zaruratiga ishora qiladi, texnik mexanik fanidan ta’limi oldiga yangi maqsadlar va vazifalarni qo‘yadi” [7]. Ta’kidlash mumkinki, yondashuv metodik tizim hosil qiluvchi asosiy kategoriya bo‘lib, u texnik mexanik fanidan ta’lim tizimi komponentlarining tanlanishini belgilaydi. Zero, jamiyat yuqori malakali, keng dunyoqarashli, tashabbuskor, doimiy o‘z–o‘zini kasbiy rivojlantirishga va o‘zining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga qodir bo‘lgan mutaxassislarga muhtoj. Insoniyat hozirgi zamonda ulkan bilimlar hajmini to‘plagan bo‘lib, uni tizimga solish va umumlashtirish oliy ta’lim tizimida alohida o‘rin egallovchi ta’limga tizimli yondashuvning vazifasidir [8].

Xulosa va takliflar. Texnik mexanika fanini o‘qitishning samaradorligini oshirishda nazariy bilimlar va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlar bilan birga innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish talabalar bilimini chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, integrativ yondashuv va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi texnik fanlarni o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Texnik fanlarni o‘qitishda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish, jumladan, raqamli laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari va virtual reallik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning texnik bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish, nazariy bilimlarni real sanoat jarayonlari bilan bog‘lash va eksperimental tadqiqotlarga kengroq e’tibor qaratish talab etiladi. Texnik ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning doimiy ravishda malaka oshirishi ham muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi Farmoni “ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi “2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son .
2. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta’limda axborot texnologiyalari. Darslik. T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019 y
3. Baydenko V.I. «Bolonskiy protsess: rezultati obucheniya i kompetentnostniy podxod. - M.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov. 2009. – S. 482-492.
4. Bespalko V.P. Bumajnaya versiya elektronnogo uchebnika. Shkolniye texnologii. -M.: «Narodnoye obrazovaniye», 2007. -№ 2. - C.54-55.
5. Prigojin I. Vvedeniye v termodinamiku neobratimix protsessov. — Ijevsk: NITS «Regulyatornaya i xaoticheskaya dinamika», 2001. — s. 160.
6. Nikolis G., Prigojin I. Samoorganizatsiya v neravnovesnix sistemax. — M:Mir, 1979. — s. 512.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55.
8. Ismoilov D.M. http://www.idpublications.org/wpcontent/uploads/2020/06/Full-Paper.METHODS-OF-SCIENTIFIC Knowledge-and-research-in-the content of secondary education.pdf.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:1 (098):027

Yulduz XUSANBAYEVA,
Farmatsevtika talim va tadqiqot instituti katta o‘qituvchisi
Go‘zal XOSHIMOVA,
Farmatsevtika talim va tadqiqot instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: husanbayevayulduz@gmail.com

Tarix fanlari bo‘yisha falsafa doktori N. Juraboyev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Annotation

This article analyzes the spiritual heritage left by many representatives of the Jadid movement, which emerged and developed in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries. The spiritual heritage of the Jadids is still relevant today and plays an important role in the education of the younger generation.

Key words: Jadidism, scientific and spiritual heritage, enlightenment, textbook, Mahmudkhodja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, New Uzbekistan.

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНОГО И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируется духовное наследие, оставленное многими представителями джадидского движения, возникшего и развивавшегося в Туркестанском крае в конце XIX — начале XX вв. Духовное наследие джадидов актуально и сегодня и играет важную роль в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Джадидизм, научное и духовное наследие, просветительство, учебник, Махмудходжа Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, Новый Узбекистан.

JADIDLAR ILMIY-MA’NAVIY MEROSINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelib, rivojlangan jadidchilik harakatining juda ko‘plab namoyandalari tomonidan qoldirilgan ma’naviy meros tahlil qilingan. Jadidlarning ma’naviy merosi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchili, ilmiy-ma’naviy meros, ma’rifat, darslik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Yangi O‘zbekiston.

Kirish. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash, uni chuqur o‘rganish va shu asosida ajdodlarimiz meroslariga sodiq, barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Aynan mustaqillik tufayli bizning ma’naviy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan merosimiz o‘zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, o‘zgartirilmasdan, ya’ni zo‘raki qoliplarga joylashtirilmasdan tiklana boshlandi. “Tarix xotirasi, xalqining, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”. Buyuk ajdodlarimizning merosi tarixiy xotiramizni jonlantirib, axloqiy tarbiyada ma’naviyatimiz va madaniyatimizda ibrat manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi islohotchilik harakati murakkab, ko‘p qirrali rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotiga erishish va islohotlar bo‘yicha to‘plangan tajribalariga tayanib bu amaliyotni o‘lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Bu jarayon osonlik bilan kechmadi, binobarin ijtimoiy taraqqiyotga erishish ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g‘oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi. Mustabid davrida ham jadid namoyondalari xalqni taraqqiyotga undadi. Maktablar, kutubxonalar barpo qilishdi, teatr san’at turini rivojlantirishdi, o‘zbek roman navislarini yetishtirib chikardi. O‘z navbatida M.Behbudiy xalqning ma’naviy va madaniy saviyasini ko‘tarmoq uchun, millatimizni boshqa millatlardan orqada qolmasligi uchun har bir kishi Yevropa davlatlariga borib ma’lum bir tilni o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi. “Arabiyni bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketadi. Turkiy va forsiyning kerakligiga so‘z yo‘qdir. Yana bir til borki butun olam bir-biri bilan shu tilda so‘zlashadur. Ul Fransa xati ila tilidur. Bizga lozimki o‘z nafimiz uchun ruscha bilaylik. Xukumat maktablarida o‘qiylik, davlat mansablariga kiraylik. Musulmon bo‘lib turib taraqqiy qilaylik.” Behbudiy va boshqa shu kabi jadidlar faoliyati va ularning asarlari xalq orasida keng tarqaldi, gazeta va jurnallar paydo bo‘ldi, kitob va darsliklarni chop qilish keng tus oldi, milliy o‘tmish, ma’naviy meros va boshqa xalqlar madaniyati, talim-tarbiya usullarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Shubhasiz, bularning hammasi insonlarda milliy intellektual tafakkurning shakllanishi, siyosiy va ma’naviy uyg‘onish, mustaqil taraqqiyotga intilishga olib keldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jadidchilik faqat ma’rifatparvarlik yoki maorifni isloh qilishdangina iborat emas, balki u o‘zida jamiyat va ijtimoiy turmushning hamma jabhalarini qamrab olgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy harakat bo‘lganligini nazarda tutish o‘rinli bo‘lardi. Ayni shu masalada, buyuk vatandoshimiz A.Fitrat va M.Behbudiy fikrlariga e’tibor bering: “Yurtim, Turonim! Sendan ayrilmoq – mening o‘limim. Sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdir... Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman. Ey turklikning muqaddas o‘chog‘i! O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga”; “Biz o‘z qismatimizni bilamiz... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...”. Turkiston jadidlarining yetakchisi, mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy jaholatni keltirib chiqaradigan illatlarni

tahlil qilar ekan, - “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” - degan xulosaga keladi.

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi islohotchilik harakati murakkab, ko‘p qirrali rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotiga erishish va islohotlar bo‘yicha to‘plangan tajribalariga tayanib bu amaliyotni o‘lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Bu jarayon osonlik bilan kechmadi, binobarin ijtimoiy taraqqiyotga erishish ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g‘oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi.

Bugungi kunda yurtimiz keng qamrovli, turli xil o‘zgarishlarga boy, tarixiy va yaratuvchanlik davrini boshidan kechirmoqda. Mazkur davr iqtisodiy munosabatlar tizimiga, keng jabhali iqtisodiyotga asoslangan, mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish davri deb haqqoniy baholanmoqda. Bozor munosabatlarini takomillashtirish zaruriyati tamomila yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni g‘oyat dolzarb vazifaga aylantirib qo‘ydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerakligi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”, degan edi davlatimiz rahbari. Yangi tarzdagi iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda o‘zbek xalqiga o‘rganish uchun arzigulik ilmiy asoslar mavjud. Jumladan, jadidlarning ilmiy-ma’naviy merosidan milliy istiqlolni mustahkamlash, iqtisodiyotimizni ravnaq toptirish, xalqimizning yangi jamiyat qurish yo‘lidagi vazifalarni amalga oshirishda dasturulamal sifatida foydalanish mumkin.

Muhtaram yurtboshimiz bugungi kunda davlatimiz oldida turgan asosiy vazifa Uchinchi Renessans - Yangi O‘zbekistonni birgalikda barpo qilish, yangi O‘zbekiston yoshlari dunyo hamjamiyati bilan bemalol raqobatlasha oladigan bo‘lishi kerakligini bob-bot ta’kidlab keladilar. Shuningdek, jadidlar ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish bugungi kun yosh avlodni vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, hozirda butun dunyoda turli xil, siyosiy, diniy-radikal ta’sirlarning yoshlar ongiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri toboro ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi tobora mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrda – milliy istiqlol uchun kurashgan, qatag‘on yillarida nohaq qurbon bo‘lgan ziyolilarning boy ilmiy-ijtimoiy merosini chuqur o‘rganish, jumladan, jadid mutafakkirlarning davlat-huquqiy qarashlarini tadqiq etish, bu boradagi qimmatli g‘oyalarini xalqimizga yetkazish nihoyatda dolzarb deb o‘ylaymiz. Jadidlar harakatiga har qaysi davrda turlicha munosabat bildirilgan. Professor A.Azizxo‘jayev mash’um mustabid tuzumning illatlarini o‘zining “Davlatchilik va ma’naviyat” nomli asarida shunday haqqoniy ifodalagandi: “Ba’zi hamyurtlarimiz buyuk o‘g‘lonlarimiz Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarni qoralash natijasida ko‘plab yuqori mansablarga erishdilar. Ular millatparvar, milliy iftixorga ega bo‘lgan kishilarning nomlarini qanchalik ko‘p sotsalar, ularni sobiy tuzum shunchalik yuqori lavozimga ko‘tarar edi. Qizig‘i shundaki, keyinroq ularning o‘zlari ham o‘zlaridan ustaroq sotqinlar tomonidan chaquvga olinib, yo‘q qilib yuborildi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Huquqshunos olim Z.Islomov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “davlat va huquq muttasil rivoj topib boradi. Jamiyat taraqqiyotining har bir muhim bosqichi ular rivojining yangi pog‘onasidir”. Shu ma’noda, jadidlarning davlat-huquqiy g‘oyalarini umumlashtirish, bitta tizimga keltirish, o‘rganish, ularning bu boradagi qarashlarini tahlil va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qatag‘on davrining nohaq qurbonlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa jadid ziyolilarimizning falsafiy-huquqiy ta’limotlarini o‘rganish va tadqiq qilish – davr talabi. Zero, ularning bu boradagi qimmatli meroslarini o‘rganish, tadqiqu targ‘ib qilish, rivojlantirish, yoshlar ongiga singdirish katta ilmiy-nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Respublikamizda bugun yoshlar ta’lim va tarbiyasi davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Sababki, O‘zbekiston Respublikasi aholisining oltmish foizidan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol – jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, nafaqat ko‘plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo‘lgan kasb-hunarlarni egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekanligi tabiiydir. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz–mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir.

Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma’naviy axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakat, xalq farovonligi haqida qayg‘uradi. Umuman olganda, O‘zbekistonda jamiyatni tubdan yangi demokratik asoslarda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma’naviyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yurtimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish bilan bog‘liq holda aytgan quyidagi gaplari fikrimiz dalilidir: “Ta’limning maqsadi voyaga yetmaganlarni mahalla-ko‘yning ko‘z oldida saqlash, yurish-turishi, kiyinishi, o‘zini tutishini nazorat qilish yoki yoshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish, erta tug‘ruq, turli oqimlarga qo‘shilib qolish kabi vajlar bilan ularni “doimiy infantil yosh bola” statusida saqlab qolish emas. Ta’lim tizimining maqsadi sipo, oq ko‘ylak, qora shim kiygan olomonni yetishtirish ham emas.

Ta’lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o‘zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta’minlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o‘rganishni o‘rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo‘lishini tarix ming bir marta isbotlab bergan... Shunday ekan hozir bizga ta’limning yangi islohoti kerak.

Tahlil va natijalar. Yurtboshimiz rahbarligida “Yoshlarga oid davlat siyosati” ning qabul qilinganligi, unda asosiy masalardan biri sifatida yoshlarning ta’lim olishiga alohida o‘rin ajratilganligi, yoshlar ma’naviy olamini boyitish maqsadida “Kitobxonlik madaniyatini oshirish” to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi hamda qaror ijrosi sifatida respublika miqyosida kitobxonlar bellashuvining o‘tkazilishi, g‘oliblarga qimmatbaho sovg‘alarming taqdim etilishi ham fikrimizni dalillaydi. Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxassislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo‘lgan ijodiy fikrlovchi, ma’naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Zero, ma’naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo‘shilmaydi, aniqrog‘i, jaholat ta’siriga berilmaydi.

Ma’rifat inson ma’naviyatining cho‘qqisi bo‘lsa, jaholat uning aksi inson zotining zavoli, kushandasidir. “Men o‘zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman», degan edi XX asrda yashab o‘tgan ulug‘lardan biri. Kitob – insoniyat

ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e’tiborga loyiq belgisi, insoniyat yaratmishlari ichra takrorlanmas mo‘jizadir. Kitoblar qatida kechmish zamonlarning aql-idroki yashaydi, xoki tuproqlari tush misol qachonlardir to‘zg‘ib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan turfa narsa-buyumlarning, tafakkurda qayta-qayta o‘ylab ko‘rilgan fikrlarning va u erishgan jamiki yuksakliklarning, hattoki, insoniyat olamining ma’naviy yetukligi-yu tanazzuli ham, tabiat bergan ne’matlardan bahramandligi-yu isrofgarchiligi ham – barcha-barchasi xuddi sehrli sandiqday kitoblar sahifasida saqlanib qolgan. Tarix zarvaraqlariga yuz tutsak, odamzod tomonidan yaratilgan misli ko‘rilmagan ixtirolar bisyorligiga; ulug‘ yaratmish o‘zining yaratish, yashnatish, bunyod etish va, asosiysi, yuksak tafakkur imkoniyatlarini faqat va faqat insongagina tuhfa etganligiga amin bo‘lamiz. Qalamning yaratilishi, kosmik kemalarning yasalishi va osmon toqiga qadam qo‘yilishi (Inson qadam qo‘ydi samo toqiga (G‘.G‘ulom), hisoblash texnikalari, kompyuter texnologiyalari, atom energiyasi (Atomni bunyod etib hayron o‘zing, hayron o‘zing (E.Vohidov), eh he, bur ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. To‘g‘ri, mazkur mo‘jizalarning birortasini inkor etib bo‘lmaydi, aksincha, bularning hamma-hammasi inson oliy tafakkurining mahsuli ekanligiga hayrat ko‘zlari bilan qayta-qayta nazar tashlaymiz va tan beramiz. Ammo inson qo‘li, tafakkuri, aql-u zakovati bilan bunyod etilgan jamiki ixtirolar, kashfiyotlar ichida ehg yuksagi, oily maqomga ega bo‘lgani, insoniyat hayotida yo‘lchi yulduz, so‘nmas mayoq, yaxshi-yomon kunlarida hamdam bo‘ladigani, mo‘jizalar mo‘jizasi kitobdir. Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, uzoq o‘tmishdan tortib hozirgi kungacha o‘tgan o‘zbek xalqining haqiqiy mardlik, qahramonlik namunalarini ko‘rsatganlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu mardlik, bu qahramonliklar, donish-u donishmandliklar zamirida ona-xalqimizning asrlar davomida ma’rifatga intilishi va buning natijasida yuksak milliy ma’naviyat sohibiga aylanganligi yaqqol namoyon bo‘laveradi. Yuqorida zikr qilingan barcha fikr va mulohazalardan shularni xulosa qilishimiz mumkinki, ma’naviy-axloqiy negizlar mustaqil O‘zbekistonimizni rivojlantirishda asosiy omillardandir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Turkistondagi ma’rifatparvarlik harakati hisoblangan jadidchilik XX asr boshlarida siyosiy oqim sifatida paydo bo‘ldi va o‘z zimmasiga yuklangan tarixiy vazifani ado etdi: erk, istiqlol uchun kurashdi, mustabidlikni qoloq feodal tartiblarni qoraladi, xalqni tinch va farovon hayot sari yetaklashga harakat qildi. Jadidchilikning mohiyati siyosiy iqtisodiy, madaniy hayotda – jamiyatning barcha sohalarida islohotlar o‘tkazib, zamonaviy, taraqqiy topgan turmush darajasiga erishish edi. Ular o‘zlari tashkil etgan matbuotida, adabiyotida, san’atida g‘oyalarini xalq orasiga yoyishga urindilar.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2020-yil 29 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2022-yil 20 dekabr.
3. Abdurauf F. Tanlangan asarlar. V jild. – T.: “Ma’naviyat”, 2010. – B. 36.
4. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2010. – B. 84.
5. Behbudiy M. Tarix va jug‘rofiya. // Oyina. 1914. 27-son. –502-505-b.
6. Behbudiy M. Ikki emas, to‘rt til lozim. Tanlangan asarlar. - T.: Ma’naviyat, 2006. – B.153.
7. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2007. – B. 36.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 165.0

Aqida XAYDAROVA,
O‘zMU doktoranti, PhD
E-mail: aqi_93@bk.ru

TXKMRM " professori, f.f.d. M.Nuritdinov taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF EVOLUTIONARY EPISTEMOLOGY AS A CONCEPT AND PROCESS

Annotation

This article explains that evolutionary epistemology is a field of science that studies the emergence, development, and validity of knowledge through evolutionary processes. It attempts to explain how this field emerged at the intersection of philosophy, cognitive science, and evolutionary biology, and how knowledge is formed through processes of natural selection and adaptation.

Key words: Evolution, epistemology, cognitive knowledge, scientific intellectual processes, theory.

ЗНАЧЕНИЕ ЭВОЛЮЦИОННОЙ ЭПИСТЕМОЛОГИИ КАК КОНЦЕПЦИИ И ПРОЦЕССА

Аннотация

В статье объясняется, что эволюционная эпистемология — это область науки, которая изучает возникновение, развитие и обоснованность знаний посредством эволюционных процессов. Она пытается объяснить, как эта область возникла на стыке философии, когнитивной науки и эволюционной биологии, и как знания формируются посредством процессов естественного отбора и адаптации.

Ключевые слова: Эволюция, эпистемология, когнитивное знание, научно-интеллектуальные процессы, теория.

EVOLYUTSION EPISTEMOLOGIYANING TUSHUNCHA VA JARAYON SIFATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada evolyutsion epistemologiya – bu bilimning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning haqqoniyligi evolyutsiya jarayonlari orqali qanday shakllanishini o‘rganuvchi fan sohasi ekanligi, mazkur yo‘nalish falsafa, kognitiv fanlar va evolyutsion biologiya kesishmasida vujudga kelganligi va bilimning tabiiy tanlanish va adaptatsiya jarayonlari orqali shakllanishini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Evolyutsiya, epistemologiya, kognitiv bilim, ilmiy-intellektual jarayonlar, nazariya.

Kirish. Evolyutsion epistemologiya XIX - XX asrlardagi ilmiy-intellektual jarayonlar natijasida shakllangan. Uning ilmiy asoslari Charlz Darvinning tabiiy tanlanish nazariyasiga borib taqaladi. Bu nazariyaga ko‘ra, organizmlar o‘z muhitiga moslashgan holda evolyutsiyalanadi. Xuddi shu kabi, inson ongi va bilimi ham tashqi muhitdan kelayotgan axborotga moslashuv orqali shakllanadi. Ushbu yondashuv inson ongi, bilish qobiliyati va ilm-fan rivojlanishini Evolyutsion tamoyillar asosida tushuntirishga harakat qiladi. Evolyutsion epistemologiya g‘oyalari bir necha tarixiy bosqichda rivojlangan bo‘lib, uning ilmiy va falsafiy asoslari asrlar davomida shakllangan. Bugungi kunda Evolyutsion epistemologiya ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

1.Individual kognitiv evolyutsiya – inson ongining biologik rivojlanishi va bilimlarni qabul qilish qobiliyati. Evolyutsion epistemologiyaning individual kognitiv evolyutsiya yo‘nalishi insonning bilish qobiliyati va tafakkuri qanday shakllangani, rivojlangani hamda shaxsiy tajriba va adaptatsiya orqali qanday o‘zgarayotganini o‘rganadi (1(. Bu yo‘nalish quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi: Shaxsiy tajriba va bilim shakllanishi. Inson ongi va bilim orttirishi individual ravishda qanday rivojlanadi? Har bir shaxs tajriba va mulohazalar orqali qanday yangi bilim va strategiyalarni qo‘llaydi? Kognitiv mexanizmlar va adaptatsiya. Kasbiy malaka, tajriba va bilim turlari qanday evolyutsiyalashadi? Aqliy qobiliyatlar yangi sharoitlarga qanday moslashadi? Xatolar, tanlov va bilimning filtratsiyasi. Qanday axborot yoki bilim shaxs tomonidan saqlanib, qaysi biri yo‘qotiladi? Nega ba’zi fikrlash usullari muvaffaqiyatli bo‘lib, boshqalari esa rivojlanmay qoladi? Tanqidiy tafakkur va bilimning yangilanishi. Inson o‘z bilimlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish orqali qanday yaxshilaydi? Bilish jarayonida noto‘g‘ri tasavvurlar qanday tuzatiladi? Bu yo‘nalish evolyutsiya nazariyasi va kognitiv fanlar kesishgan joyda joylashgan bo‘lib, shaxsning bilim orttirish jarayoni eng yaxshi strategiyalarni saqlash va yomonlarini yo‘qotish mexanizmi sifatida tushuntiriladi.

2. G‘oyalar va nazariyalarning evolyutsiyasi – bilimlar, nazariyalar va ilmiy yondashuvlarning tarixiy davrlar mobaynida qanday o‘zgarishi va tanlanishi. Evolyutsion epistemologiyaning g‘oyalar va nazariyalarning evolyutsiyasi yo‘nalishi bilim, fikrlar va ilmiy nazariyalarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi va rivojlanishini o‘rganadi. Bu yo‘nalishda g‘oyalar biologik evolyutsiyaga o‘xshash jarayonlar orqali shakllanadi, ya’ni tabiiy tanlanish, muttatsiya va adaptatsiya prinsiplari qo‘llaniladi. Bu yo‘nalish quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi:

G‘oyalarning tanlanishi va muvaffaqiyati. Qaysi g‘oyalar muvaffaqiyatli rivojlanib, keng tarqaladi? Qaysi nazariyalar yo‘qoladi yoki rad etiladi?;

G‘oyalar muttatsiyasi va o‘zgarishi. Yangi g‘oyalar qanday paydo bo‘ladi? Ilmiy nazariyalar va bilimlar qanday o‘zgarib, yaxshilanadi?;

Intellektual muhit va g‘oyalar raqobati. Tarixiy davrlarda qanday g‘oyalar ustunlik qilib, qaysilari inqirozga uchragan? Ilmiy inqiloblar qanday sodir bo‘ladi va ular qanday evolyutsiya jarayonini aks ettiradi?;

G‘oyalar va madaniyat evolyutsiyasi. Madaniy kontekst g‘oyalarning tarqalishi va o‘zgarishiga qanday ta’sir qiladi? G‘oyalar va bilim madaniy muhitda qanday saqlanadi yoki yo‘qoladi?.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bu yo‘nalish Karl Popperning "bilimning taxminlar va rad etish orqali rivojlanishi" g‘oyasi (2(va Donald Kempbellning "variatsiya va tanlanish" nazariyasiga (3(asoslanadi. Bu esa ilm-fan va bilim tizimi hech qachon to‘liq to‘xtab qolmasdan, doimiy evolyutsiya jarayonida bo‘lishini anglatadi.

Shu bilan birga Evolyutsion epistemologiya jarayon sifatida baholanib, bilim shakllanishining Evolyutsion jarayoni bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

Variativlik – yangi g‘oyalar va nazariyalar paydo bo‘ladi.

Seleksiya (tanlash) – eng muvaffaqiyatli va muhitga mos keladigan bilimlar saqlanib qoladi.

Meros qoldirish – yangilangan bilimlar va nazariyalar keyingi avlodlarga uzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu jarayon, xususan, ilm-fan sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilmiy nazariyalar doimiy

ravishda o‘zgarib, yangi dalillar va usullar bilan boyib boradi. Masalan, Nyuton mexanikasi Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi bilan to‘ldirilganidek, eng mos va samarali g‘oyalar tanlab olinadi. Evolyutsion epistemologiyaning ahamiyati shundaki, u nafaqat falsafiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. U bilimning qanday rivojlanishini tushunishga yordam beradi va quyidagi sohalarda muhim rol o‘ynaydi:

Ilm-fan metodologiyasi – ilm-fandagi nazariya va gipotezalarni baholash va tanlab olish jarayoni. Evolyutsion epistemologiyaning ilm-fan metodologiyasidagi ahamiyati yuqori. Evolyutsion epistemologiya ilm-fan metodologiyasiga muhim hissa qo‘shadi, chunki u bilim rivojlanishini evolyutsiya jarayoniga o‘xshatib tushuntiradi. Bu yondashuv ilmiy nazariyalar va bilimlar qanday tanlanishi, o‘zgarishi va takomillashishini tushunishga yordam beradi.

Evolyutsion epistemologiyaga ko‘ra, ilm-fandagi nazariyalar tabiatdagi tirik organizmlar singari tanlanishga uchraydi. YA’ni, muayyan vaqtda eng yaxshi tushuntirish berishga qodir nazariyalar saqlanib qoladi, kamchiliklar yoki ziddiyatlar aniqlangan nazariyalar rad etiladi yoki qayta shakllanadi, Yangi nazariyalar eskilardan evolyutsiya yo‘li bilan rivojlanadi. Popperning falsafasiga ko‘ra, ilmiy metodning asosiy qismi falsifikatsiya (rad etish) jarayonidir. Evolyutsion epistemologiya ham shunga asoslanib, ilm-fandagi xato qilish muammo emas, balki rivojlanish uchun zarur mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Yangi taxminlar va nazariyalar sinovdan o‘tadi. Noto‘g‘ri nazariyalar yo‘qoladi, muvaffaqiyatlilari esa rivojlanadi.

Tomas Kunning "ilmiy inqiloblar tuzilishi" nazariyasiga (4(ko‘ra, ilm-fandagi katta o‘zgarishlar Evolyutsion jarayonga o‘xshash: mavjud paradigmalar ma’lum vaqt davomida ustuvor bo‘ladi, yangi faktlar va g‘oyalar eski nazariyalarga mos kelmaganda, ilmiy inqilob yuz beradi, yangi paradigma eskisini almashtiradi va yana rivojlanish davom etadi.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga Evolyutsion epistemologiya ilm-fan statik emas, balki doimo o‘zgaradigan va takomillashib boradigan jarayon ekanini ko‘rsatadi. Har qanday ilmiy nazariya doimiy haqiqat emas, balki vaqtinchalik "eng yaxshi tushuntirish" deb qaraladi. Ilm doim yangi ma’lumotlarga ko‘ra o‘zgarib, moslashib boradi.

Evolyutsion epistemologiya ilm-fan metodologiyasiga quyidagi muhim jihatlarni qo‘shadi:

Ilmiy bilimlar tabiiy tanlanishga o‘xshab rivojlanadi.

Xato va falsifikatsiya bilimni yaxshilash mexanizmi hisoblanadi.

Ilmiy nazariyalar doimo o‘zgarib, yaxshilanib boradi.

Ilm-fan dinamik jarayon bo‘lib, eng kuchli va ishonchli nazariyalargina saqlanib qoladi.

Bu yondashuv ilmiy tafakkurning doimo faol bo‘lishini, tanqidiy yondashuv muhimligini va ilmning Evolyutsion rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

Kognitiv fanlar – inson ongi va bilish qobiliyatining Evolyutsion rivojlanishini o‘rganish. Evolyutsion epistemologiya insonning bilim orttirish jarayonini Evolyutsion tamoyillar asosida tushuntiradi. Kognitiv fanlar esa bilish, tafakkur, xotira, hissiy qabul qilish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o‘rganadi. Ushbu sohalarda Evolyutsion epistemologiya bir nechta muhim jihatlarni ochib beradi:

Kognitiv qobiliyatlarning Evolyutsion rivojlanishi Evolyutsion epistemologiyaga ko‘ra, inson ongi va aqliy qobiliyatlari tabiiy tanlanish jarayonida shakllangan:

Inson tafakkuri eng samarali bilim orttirish strategiyalarini saqlab qolgan.

Aqliy jarayonlar eng yaxshi moslashgan kognitiv mexanizmlarni tanlab, rivojlanib borgan.

Eski tajribalardan saboq olish, muammolarni tahlil qilish va kelajakni bashorat qilish kabi qobiliyatlar inson hayotida muhim rol o‘ynagan.

Ta’lim va pedagogika – bilimlarni insonga samarali uzatish usullarini takomillashtirish. Evolyutsion epistemologiyaning ta’lim va pedagogikadagi ahamiyati kuchli. Evolyutsion epistemologiya ta’lim va pedagogika sohasida bilim orttirish jarayonini inson ongi evolyutsiyasiga asoslanib tushuntiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, ta’lim inson tafakkurining rivojlanishi va bilish qobiliyatlarining eng samarali shakllanishiga yordam berishi kerak. Mazkur jarayon bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan:

1. Bilim orttirish jarayonining Evolyutsion tamoyillari. Evolyutsion epistemologiya ta’lim jarayonini tabiiy tanlanishga o‘xshatadi.

2. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish. Karl Popper va Evolyutsion epistemologiya tarafdorlariga ko‘ra, bilim doimo sinov va xato qilish orqali takomillashadi. Bu yondashuv ta’limda konstruktivistik metodlar va interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llashni rag‘batlantiradi.

3. Moslashuvchan ta’lim strategiyalari. Inson bilish qobiliyati muhitga moslashish natijasida rivojlangan.

4. Xato qilish – o‘rganish jarayonining muhim qismi. Evolyutsion epistemologiyaga ko‘ra, xato qilish tabiiy tanlanish jarayonida muhim rol o‘ynagan.

5. Ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shish.

Evolyutsion epistemologiya ta’lim va pedagogikada:

Bilim evolyutsiyasi va tadrijiy rivojlanishni tushunishga yordam beradi.

Tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Xato qilishni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida ko‘radi.

Fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish uchun zarur metodologiyani taklif qiladi.

Bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi va aqliy rivojlanishni eng samarali shaklda qo‘llab-quvvatlaydi.

Axborot va texnologiyalar – sun’iy intellekt va bilimga asoslangan tizimlarni rivojlantirishdagi ahamiyati. Evolyutsion epistemologiyaning axborot va texnologiyalardagi ahamiyati ulkan. Evolyutsion epistemologiya axborot va texnologiya sohasida ma’lumotlarning qanday shakllanishi, tarqalishi va takomillashib borishini tushunishga yordam beradi. Axborot tizimlari, sun’iy intellekt va internet muhitida bilim va ma’lumotlar Evolyutsion jarayonlarga o‘xshab rivojlanadi.

Evolyutsion epistemologiyaga ko‘ra, bilim va axborot tabiiy tanlanish mexanizmiga o‘xshash jarayon orqali eng ishonchli va samarali ko‘rinishda saqlanib qoladi. Bunda:

Eng ko‘p ishlatilgan, foydali va haqiqatga yaqin ma’lumotlar keng tarqaladi.

Kam qo‘llaniladigan, noto‘g‘ri yoki ahamiyatsiz axborot esa yo‘qoladi yoki cheklanadi.

Feyk axborot va manipulyatsiya mexanizmlarini aniqlash uchun tanqidiy tahlil qilish kerak.

Evolyutsion epistemologiya sun’iy intellekt (AI) va mashinani o‘rgatish (Machine Learning) sohalarida ham qo‘llanadi:

Mashinalar ham ma’lumotlarni sinash, xatolarni aniqlash va yaxshilash orqali rivojlanadi.

Mashina o‘rganish algoritmlari ma’lumotlar orasida eng samarali modellarni tanlab olish jarayonini amalga oshiradi.

Genetik algoritmlar va Evolyutsion hisoblash (Evolutionary Computation) metodlari AI’da murakkab muammolarni yechish uchun qo‘llanadi.

Internet muhitida axborotlar evolyutsiya tamoyillari asosida o‘zgarib boradi. Virusli kontent (Viral Content) – ma’lumotlarning eng samarali tarqalish mexanizmlaridan biri. Axborot algoritmlari (Google, YouTube, Facebook algoritmlari) axborot tanlanishi va filtrlanishi jarayonini avtomatlashtiradi. Bu esa internetda ma’lumotlarning qanday tanlanishi va tarqalishi jarayonini tushunish uchun muhim.

Texnologiyalar ham Evolyutsion jarayon asosida rivojlanadi:

Eski texnologiyalar asta-sekin yangi innovatsiyalar bilan almashadi.

Barqaror va samarali modellar o‘zgarib borgan talablarga moslashadi.

Axborot tizimlari inson bilish jarayoniga mos ravishda rivojlanib, intellektual funksiyalarni avtomatlashtirishga intiladi.

Evolyutsion epistemologiya axborot va texnologiya sohasida axborotlarni saralash va tanlab olish jarayonini tushunishga yordam beradi, sun’iy intellekt va mashinani o‘rgatish algoritmlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega,

internet va axborot tizimlarida qanday ma’lumotlar saqlanib qolishi va qaysilar yo‘qolishini tushuntirishga yordam beradi, kiberxavfsizlik va axborot himoyasidagi Evolyutsion jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi. Bu yondashuv axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt tizimlarini rivojlantirishda samarali strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Evolyutsion epistemologiya – bilimning shakllanishi, tarqalishi va o‘zgarishi jarayonlarini evolyutsiya prinsiplari asosida tushuntiruvchi yondashuv bo‘lib, u falsafa, kognitiv fanlar va Evolyutsion biologiyani bog‘lovchi muhim sohadir. U bilimlarning ikki asosiy yo‘nalishda – shaxsiy kognitiv rivojlanish va g‘oyalar evolyutsiyasi orqali shakllanishini o‘rganadi. Bilim eng samarali strategiyalar saqlanib qoladigan va noto‘g‘ri tasavvurlar yo‘qotiladigan tanlanish jarayonidan o‘tadi. Ilmiy metodologiyada Evolyutsion epistemologiya tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va xato qilishni o‘rganishning tabiiy qismi sifatida qabul qilish orqali ilm-fan rivojiga hissa qo‘shadi. Kognitiv fanlar esa inson ongi va bilish qobiliyatining Evolyutsion rivojlanishini tushunishga yordam beradi, bu esa ta’lim va pedagogikada samarali metodlar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Ta’lim sohasida Evolyutsion epistemologiya tanqidiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil o‘rganish va yangi bilimlarni sinovdan o‘tkazish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Axborot va texnologiyalar sohasida esa sun’iy intellekt, internet axborot muhiti va kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlarda bilimning qanday shakllanishi va evolyutsiya qilinishi haqida muhim tushunchalar beradi.

Umuman olganda, Evolyutsion epistemologiya faqat nazariy yondashuv bo‘lib qolmay, balki ilm-fan, ta’lim, texnologiya va jamiyat rivojiga amaliy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. U inson bilish qobiliyati va bilim tizimlarining doimiy evolyutsiyasiga yordam beradi va zamonaviy fan-ta’lim hamda texnologiya taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Lorenz, K. (1977). Behind the Mirror: A Search for a Natural History of Human Knowledge. Methuen.
2. Popper, K. (1972). Objective Knowledge: An Evolutionary Approach. Oxford University Press.
3. Campbell, D. T. (1974). Evolutionary Epistemology. In Schilpp, P. A. (Ed.), The Philosophy of Karl Popper (pp. 413-463). Open Court.
4. Kuhn, T. S. (1962). The Structure of Scientific Revolutions. University of Chicago Press.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 327(540) +(543):71

Omonboy KHAYTIMMATOV,
Teacher at Uzbekistan State University of World Languages
E-mail: xaytimmatovo@gmail.com

Reviewed by N.Q. Jurayev, Doctor of Political Sciences, Professor, and Advisor to the Rector of the ISFT Institute

XITOYNING O‘ZBEKISTAN VA MARKAZIY OSIYODAGI O‘SIB BORAYOTGAN TA’SIRI: STRATEGIK VA IQTISODIY TAHLIL

Annotatsiya

Xitoyning "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi (BRI) Markaziy Osiyoning iqtisodiy va geopolitik manzarasiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi, O‘zbekiston esa asosiy hamkor sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqola Xitoyning O‘zbekistondagi o‘sib borayotgan ta’sirini iqtisodiy hamkorlik, infratuzilma rivojlanishi va mintaqaviy integratsiya orqali tahlil qiladi. Savdo ma’lumotlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) va asosiy infratuzilma loyihalari bo‘yicha sifatli tahlil yordamida tadqiqot BRI O‘zbekistonning iqtisodiy ustuvorliklarini va tashqi siyosatini qanday o‘zgartirganini o‘rganadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkori bo‘lib, energiya, transport va ishlab chiqarish sohalarida katta investitsiyalar kiritgan. Bundan tashqari, BRI mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlagan, bu O‘zbekistonning Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi aloqalarini yaxshilagan.

Kalit so‘zlar: Xitoy, O‘zbekiston, "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi (BRI), Markaziy Osiyo, iqtisodiy hamkorlik, savdo, infratuzilma rivojlanishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI), Mintaqaviy integratsiya, Geosiyosat.

РАСТУЩЕЕ ВЛИЯНИЕ КИТАЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СТРАТЕГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Инициатива "Один пояс, один путь" Китая (BRI) оказала трансформационное воздействие на экономический и геополитический ландшафт Центральной Азии, при этом Узбекистан стал ключевым партнером. Эта статья исследует растущее влияние Китая в Узбекистане через экономическое сотрудничество, развитие инфраструктуры и региональную интеграцию. Используя качественный анализ данных о торговле, прямых иностранных инвестициях (FDI) и крупных инфраструктурных проектах, исследование анализирует, как BRI изменил экономические приоритеты Узбекистана и его внешнюю политику. Результаты показывают, что Китай стал одним из крупнейших торговых партнеров Узбекистана, с крупными инвестициями в энергетический, транспортный и производственный сектора. Кроме того, BRI содействует региональной экономической интеграции, улучшая связь Узбекистана в Центральной Азии и за ее пределами.

Ключевые слова: Китай, Узбекистан, Инициатива "Один пояс, один путь" (BRI), Центральная Азия, Экономическое сотрудничество, Торговля, Развитие инфраструктуры, Прямые иностранные инвестиции (FDI), Региональная интеграция, Геополитика.

CHINA’S GROWING INFLUENCE IN UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA: A STRATEGIC AND ECONOMIC ANALYSIS

Annotation

China’s Belt and Road Initiative (BRI) has had a transformative impact on the economic and geopolitical landscape of Central Asia, with Uzbekistan emerging as a key partner. This article explores the growing influence of China in Uzbekistan through economic cooperation, infrastructure development, and regional integration. Using a qualitative analysis of trade data, foreign direct investment (FDI), and major infrastructure projects, the study examines how the BRI has reshaped Uzbekistan’s economic priorities and its foreign policy. The findings indicate that China has become one of Uzbekistan’s largest trading partners, with significant investments in energy, transport, and manufacturing sectors. Furthermore, the BRI has facilitated regional economic integration, enhancing Uzbekistan’s connectivity within Central Asia and beyond.

Key words: China, Uzbekistan, Belt and Road Initiative (BRI), Central Asia, Economic Cooperation, Trade, Infrastructure Development, Foreign Direct Investment (FDI), Regional Integration, Geopolitics.

Introduction. The rise of China as a global economic and political power has reshaped international relations, particularly in Central Asia. As part of its Belt and Road Initiative (BRI), China has significantly expanded its engagement with Uzbekistan and other countries in the region, fostering economic cooperation, trade, and infrastructure development. This article examines China’s growing influence in Uzbekistan, exploring the strategic and economic dimensions of this relationship and its implications for regional integration in Central Asia. The Belt and Road Initiative, a vast transnational infrastructure and economic development project launched by China in 2013, has provided a framework for expanding China’s footprint in Central Asia, a region historically influenced by Russia and more recently by Western interests[1]. While Uzbekistan has long maintained strong economic ties with Russia and has sought to balance competing geopolitical influences, it has increasingly turned toward China for economic growth, infrastructure development, and trade opportunities. The study explores how China’s investments and initiatives have reshaped Uzbekistan’s foreign policy and its role within regional economic integration efforts.

Literature review. China's influence in Central Asia, including Uzbekistan, has been rapidly expanding in economic, strategic, and cultural dimensions. S. Frederick Starr and Marlene Laruelle have analyzed China's geopolitical interests, while Baxtiyor Ergashev and Xasan Abidov have studied China's investments and infrastructure projects in Uzbekistan. Dilshod Mamatqulov and Rustam Botirov have researched China's soft power strategy and media influence, whereas Farkhod Tolipov has assessed the impact of cooperation with China on national sovereignty. Additionally, Sebastien Peyrouse and Alexander Cooley have examined the competition between China and Russia in Central Asia. These studies provide a multifaceted analysis of China-Central Asia relations.

Research Methodology. This research employs a qualitative approach to analyze the growing relationship between China and Uzbekistan. The study involves a review of existing

literature, including government reports, academic articles, and data from trade and economic cooperation between the two countries. In addition, primary sources such as official documents related to China’s Belt and Road Initiative, interviews with key policymakers, and reports from international organizations (such as the United Nations and the World Bank) are analyzed to understand the political, economic, and strategic implications of the China-Uzbekistan partnership.

The research also examines statistical data on trade volumes, foreign direct investment (FDI), and infrastructure projects funded by China in Uzbekistan. A comparative analysis is performed to highlight the difference in Uzbekistan's economic performance before and after the rise of the BRI and China’s increased involvement in the region. In addition to this, a SWOT analysis is conducted to assess the strategic and economic implications of China’s growing influence in Uzbekistan and Central Asia.

Analysis and Results. China has become one of Uzbekistan's largest trading partners, with trade between the two countries growing significantly since the BRI’s inception. In 2024, trade between China and Uzbekistan surpassed nearly $6 billion, with major exports from Uzbekistan including cotton, gold, and natural gas, while China exports machinery, electronics, and consumer goods[2]. The development of trade corridors under the BRI has led to a surge in cross-border trade, strengthening Uzbekistan’s economic integration into China’s regional supply chain.

One of the most significant outcomes of China’s involvement in Uzbekistan has been the development of critical infrastructure projects. These include the construction of roads, railways, and power plants, many of which are funded by Chinese loans and investments. The construction of the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway, for example, is set to improve regional connectivity and trade flows. This will cut the distance between East Asia, Central Asia, and Southern Europe by 900 km, reducing delivery times to 10 days, according to Kyrgyz Deputy Minister Bekzhan Rysmendeev. Speaking at COP29, he highlighted the project's significance as a southern branch of the Middle Corridor, enhancing connectivity to Southeast Asia, Western Asia, and the Middle East[3]. Additionally, the development of energy projects, such as natural gas pipeline construction and hydroelectric projects, is helping to modernize Uzbekistan’s energy sector.

China’s investments in Uzbekistan have been substantial, with FDI flowing into sectors such as mining, manufacturing, energy, and telecommunications. Chinese companies have increasingly become involved in Uzbekistan’s industrial sector, helping to modernize production processes and improve the country’s competitiveness. As evidence, Deputy General Director of Qomolangma Energy International Group Central Asia, Li Feng focused on the company’s energy projects. “Our Tashkent office oversees projects worth over $7bn, focusing on critical areas such as power lines, renewable energy, and infrastructure,” Li said. He emphasized the company’s commitment to sustainable development, adding, “We believe that energy infrastructure is key to Uzbekistan’s future growth, and we are here to ensure a reliable energy network across Central Asia[4]”. The Chinese government has also supported Uzbekistan’s efforts to attract more foreign investment through financial aid and concessional loans under the BRI framework.

China’s growing economic influence in Uzbekistan has translated into deeper political and diplomatic relations. Uzbekistan has welcomed China's active role in regional affairs, particularly in the context of the Shanghai Cooperation Organization (SCO), where both countries are key members, while former Uzbek Deputy Prime Minister Saidmukhtar Saidkasimov highlighted China's crucial role as a founding member of the SCO, emphasizing its significant contributions to the organization's formation, development, and the expansion of economic and trade cooperation among member states[5]. Uzbekistan has aligned itself with China on various regional security and economic issues, strengthening its position as a central player in Central Asia’s broader regional integration efforts.

Discussion. Uzbekistan’s deepening relationship with China under the Belt and Road Initiative marks a significant shift in the region’s geopolitical dynamics. Historically, Central Asia has been under Russia’s sphere of influence, with strong political, economic, and cultural ties between Uzbekistan and Moscow. However, China’s growing economic presence in Uzbekistan challenges this traditional balance of power. Uzbekistan’s foreign policy has evolved in response to China’s economic opportunities, which offer the promise of modernizing infrastructure, diversifying trade partners, and securing financing for long-term development projects.

China’s investments in Uzbekistan have bolstered economic growth, but they have also raised concerns about dependency on China. Critics argue that heavy reliance on Chinese loans for infrastructure development could lead to debt traps, as seen in other BRI partner countries. Using a SWOT analysis, the study identifies strengths, weaknesses, opportunities, and threats associated with this growing relationship.

SWOT ANALYSIS:

Strengths	Weaknesses
China is one of Uzbekistan's largest trading partners, with significant growth in bilateral trade.	Heavy reliance on Chinese capital and loans may lead to economic vulnerability.
Key projects like railways, roads, and energy pipelines have enhanced regional connectivity.	The risk of over-reliance on Chinese financing, leading to potential debt traps.
Increased Chinese investment in energy, manufacturing, and infrastructure modernizes Uzbekistan’s economy.	While capital flows in, Uzbekistan may not gain full technological know-how from Chinese investments.
Strengthened Uzbekistan's diplomatic and strategic role in Central Asia, especially within the Shanghai Cooperation Organization.	Increased alignment with China may strain relations with other regional powers like Russia or the West.
Opportunities	Threats
BRI offers opportunities for regional economic cooperation and improved trade routes between Central Asia, China, and beyond.	Rising influence of China may lead to tensions with Russia or the West, affecting Uzbekistan's foreign relations.
Investments in sectors such as renewable energy, high-tech industries, and manufacturing offer long-term development opportunities.	Infrastructure projects could lead to environmental degradation or social inequality if not carefully managed.
Improved infrastructure may increase Chinese tourism to Uzbekistan and boost cultural exchange.	Growing debt to China may lead to political leverage, reducing Uzbekistan’s autonomy in foreign policy.
Collaboration on high-tech projects could foster technological innovation and modernization within Uzbekistan.	Economic downturns or fluctuations in global trade could affect the sustainability of China-Uzbekistan economic ties.

However, Uzbekistan has taken steps to manage this risk by diversifying its sources of finance and ensuring that projects funded by China align with the country's long-term economic priorities. Furthermore, it has strengthened ties with the European Union, which provided an $83.6 million loan for photovoltaic projects. Additionally, Uzbekistan is pursuing WTO accession and green energy initiatives to reduce overreliance on Chinese funding. However, delays in significant China-backed projects, such as the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway, highlight the challenges of aligning infrastructure development with long-term national priorities[6].

Uzbekistan’s role in the BRI has helped position it as a key player in Central Asia’s economic integration. By improving regional infrastructure connectivity, China’s projects in Uzbekistan are contributing to the broader goal of regional economic cooperation, particularly with neighboring Kyrgyzstan, Kazakhstan, and Tajikistan. The development of transport corridors and energy pipelines helps facilitate trade between Central Asia, China, and the broader Eurasian market.

However, Uzbekistan must balance its growing ties with China against the interests of other regional powers, including Russia and the United States. As Uzbekistan navigates this complex geopolitical landscape, its strategic alignment with China

offers both opportunities and challenges, particularly in managing external pressures from rival powers.

Looking forward, the China-Uzbekistan partnership is likely to continue expanding, with further investments in technology, energy, and agriculture. In 2024, the two nations elevated their relationship to an all-weather comprehensive strategic partnership, underscoring their commitment to deepening cooperation across various sectors[7]. In December Uzbekistan's Minister of Foreign Affairs, Bakhtiyor Saidov, held a meeting with China's Minister of Foreign Affairs, Wang Yi. The minister announced this on his official page as follows: “As part of implementing the agreements reached between the leaders of Uzbekistan and China, today, together with my colleague, we signed an agreement allowing our citizens to travel visa-free for 30 days. This is another step towards fostering stronger exchanges, enhancing trade, and promoting international friendship”[8]. This agreement aims to strengthen cooperation between the two countries. However, Uzbekistan must also work to diversify its sources of economic support and engage in multilateral regional initiatives to avoid over-dependence on any one country. Future research could explore the long-term economic impacts of China’s investments on Uzbekistan’s domestic industries and its evolving foreign policy.

Conclusion. China’s growing influence in Uzbekistan and Central Asia is reshaping the region’s economic and geopolitical landscape. Through initiatives like the Belt and Road Initiative, China has become a key partner in Uzbekistan’s efforts to modernize its infrastructure, diversify its economy, and enhance regional integration. While the economic benefits are evident, challenges remain, particularly in managing the risks associated with China’s financial influence. As Uzbekistan continues to navigate its role in this shifting geopolitical environment, it will need to balance its strategic interests with the opportunities and challenges presented by China’s rise.

REFERENCES

1. Vakulchuk, R., & Overland, I. (2019). China’s Belt and Road Initiative through the lens of Central Asia. In The Belt and Road Initiative and Global Governance (pp. 125–126). Routledge. URL: https://doi.org/10.4324/9780429467172-5
2. "Uzbekistan-China Trade Turnover Climbs to Almost $6B, Up 31% Since 2022," Daryo, July 22, 2024.
3. Trend News Agency. (2024, November 20). China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway to speed up transportation between Central Asia and Europe - official. Trend.az. URL: https://en.trend.az/business/3973179.html
4. Daryo News. (2024, November 5). China-Uzbekistan relations: Record trade, key projects, and tourism expansion shape strategic partnership. URL: https://daryo.uz/en/2024/11/05/china-uzbekistan-relations-record-trade-key-projects-and-tourism-expansion-shape-strategic-partnership
5. "SCO becoming more attractive to other countries for non-bloc status principle, mutual benefit: former Uzbek deputy PM," Global Times, September 14, 2022. URL: https://www.globaltimes.cn/page/202209/1275922.shtml.
6. "China's Debt-Trap Diplomacy in Central Asia," The Central Asia-Caucasus Analyst, October 23, 2024. URL: https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13823-chinas-debt-trap-diplomacy-in-central-asia.html.
7. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. (2024, May 30). China-Uzbekistan all-weather comprehensive strategic partnership. mfa.gov.cn.
8. "O‘zbekiston—Xitoy o‘rtasida 30 kunlik vizasiz rejim joriy qilindi." December 1, 2024. URL: https://daryo.uz.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:18:321

Dildora SHUKUROVA,
Samaqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Dildor1979@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TASNIFI VA VOSITALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamlashtirish tushunchasini ma’nosi yoritilgan. Zamonaviy axborot jarayonlarining asosiy xarakteristikasi kundalik hayotning asosiga aylanadigan vizual amaliyotdir. Bugungi kunda odamlar, ayniqsa maktab o‘quvchilari tobora ko‘proq ma’lumotni "ekran" orqali olishi va idrok etishi bilan ajralib turadi. Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo‘lgan amaliyotni o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta’lim sohasi tadqiq etilgan.
Kalit so‘zlar: Virtuallik, bilish, raqamlashtirish, ta’lim, kompyuter, virtual reallik, potensiallik, maktab, virtual obraz, axborot.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ИНСТРУМЕНТЫ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье объясняется значение понятия цифровизация. Основной характеристикой современных информационных процессов является визуальная практика, которая становится основой повседневной жизни. Сегодня люди, даже школьники, отличаются тем, что получают и воспринимают все больше информации через «экран». Область образования исследуется путем изучения, систематизации и обобщения существующей практики получения научно обоснованных выводов по внедрению цифровых технологий в образование.
Ключевые слова: Виртуальность, знания, цифровизация, образование, компьютер, виртуальная реальность, потенциал, школа, виртуальный образ, информация.

CLASSIFICATION AND TOOLS OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article explains the meaning of the concept of digitalization. The main characteristic of modern information processes is visual practice, which becomes the basis of everyday life. Today, people, even schoolchildren, are distinguished by the fact that they receive and perceive more and more information through the “screen”. The field of education is explored by studying, systematizing and generalizing the existing practice of obtaining scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in education.
Key words: Virtuality, knowledge, digitalization, education, computer, virtual reality, potential, school, virtual image, information.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo‘llanilmoqda. Iqtisodiyot, bank, xizmat sektori, shuningdek, ta’lim jarayonini ham tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan, yosh bolalardan tortib nafaqaxo‘rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin, degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi natijasida bank sektorida, robotlar va ishchilar o‘rtasidagi raqobat masalasi ham ko‘tarilmoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta’lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan va uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

Raqamlashtirish ijtimoiy jarayonlarga kiritilmoqda, odamlarning muvaffaqiyatli hayoti tobora ko‘proq unga bog‘liq, bundan tashqari, davlat tashkilotlari va tuzilmalari ishiga raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish kuzatilmoqda[1].

Faoliyatning barcha sohalariga kompyuter texnologiyalarining global joriy etilishi, yangi kommunikatsiyalar va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitini shakllantirish nafaqat an’anaviy ta’lim tizimini o‘zgartirishning boshlanishi, balki axborot jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘ldi. Zamonaviy sharoitda maktablarda o‘quv jarayonlarini optimallashtirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda o‘qituvchilar butun dunyo miqyosida uzining xamkasblari, do‘stlari bilan muloqot qilishlari mumkin. Tabiiyki, bu toifa kishilar odatda oflayn platformasini, konferensiyalar va uchrashuvlarni tark etishgan buladi, ammo, onlayn suhbatlarga seminar va videokonferensiyalarga qo‘shilishdan juda xursand bo‘ladilar. Ta’limdagi raqamli texnologiyalar-bu raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etish usuli bo‘lib xisoblanadi.

Ushbu usul hayotga joriy qilinganda nafaqat ta’lim tizimi, balki ta’lim va tarbiyaning mazmuni va maqsadi ham o‘zgaradi. Ta’limning eskisidan farq qiladigan zamonaviy formulasi bu ta’limni raqamlashtirish, ya’ni bu elektron tizimga o‘tish jarayonidir.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi” [2].

Davlat va jamiyat boshqaruvida, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta’lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot,

ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishida axborot texnologiyalari, xususan, raqamli iqtisodiyotni yuksaltirishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli shakllanishi mumkin bo‘lgan yagona axborot – iqtisodiy makonining o‘sishiga va mehnat unumdorligini oshirishga; innovasion ish o‘rinlari va raqamli aktivlarning yaratilishiga; fuqarolar huquqlarining yanada yaxshilanishiga; jahon bozoriga chiqish yo‘llarining ochilishiga; korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish va boshqalarga yordam beradi. 1995 yilda N.Negroponte tomonidan iqtisodiy jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan (raqamli) foydalanish va ularni boshqarishga nisbatan kiritilgan "Raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasi qabul qilingan. N. Negropontening fikricha, axborot hajmi bilan almashtiriladigan mahsulotning jismoniy og‘irligining yo‘qligi, elektron tovarlarni ishlab chiqarish uchun resurslar sarfining kamayishi, mahsulot egallagan maydonning ancha kichikligi, shuningdek, Internet orqali tovarlarning deyarli bir zumda harakatlanishi iqtisodiyotni raqamlashtirishni talab etadi.Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uning ekologik xavfli ta’siri kuchayadi, jumladan, texnologik xorijiy yetkazib beruvchilarga qaramlikning o‘sishi natijasida, umuman mamlakat darajasida ham, ayrim sanoat va korxonalar darajasida ham texnologik va iqtisodiy xavfsizlikning zaiflashuvi yuzaga keladi.

Davlat ularga maqsadli yordam ko‘rsatishi mumkin: birinchidan, bank kreditlari, shu jumladan, eksport kreditlari bo‘yicha kafolatlar berish, patentlash xarajatlarining bir qismini qoplash, maqsadli investisiya fondlarini shakllantirish, davlat xaridlari mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlash va hokazo. Ikkinchidan, kichik va o‘rta biznesni raqamli texnologiyalar, platformalar yaratish va raqamli xizmatlar ko‘rsatishda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash. Bunga, masalan, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi tegishli kompaniyalarga (masalan, sug‘urta to‘lovlari yoki soliq to‘lovlari bo‘yicha) ma’lum imtiyozlar berish, bunday kompaniyalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni yaratish, ularga buyurtmalar berish orqali erishish mumkin. Uchinchidan, iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari uchun raqamli platformalarning shakllanishi va miqyosi kabilar kiradi[3].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “COVID-2019” pandemiyasi barcha sohalar singari ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi, jumladan, bog‘cha, maktab va oliy ta’lim muassasalarining barchasi ommaviy ravishda muddatidan oldin ta’tilga chiqishdi. Yuneskoning ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 1,7 milliard o‘quvchilar darslar to‘xtatilgani sabab an’anaviy o‘qishdan mahrum bo‘lishdi. Yuzdan ortiq mamlakatlarda universitetlarning yopilishi dunyo talabalarining 90 foizini uyda o‘tirishga majbur qildi. 3- martga kelib Yunesko 13 ta mamlakatda ta’lim muassasalarining vaqtincha yopilishi oqibatida 290,5 million o‘quvchi va talaba o‘qishdan uzilib qolganini ma’lum qildi va ularni zudlik bilan masofaviy ta’limga o‘tishga chaqirdi.Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “COVID-2019” pandemiyasi barcha sohalar singari ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi, jumladan bog‘cha, maktab va oliy ta’lim muassasalarining barchasi ommaviy ravishda muddatidan oldin ta’tilga chiqishdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun pandemiya sabab ta’lim muassasalarini yopgan mamlakatlarning 60 foizigina to‘liq raqamli ta’limga o‘tgan. Ba’zi xalqaro ekspertlar onlayn ta’limga to‘liq o‘tib bo‘lmasligi, bu jarayonga muammoli vaziyatdan chiqish yo‘li sifatida qarash lozimligini, aks holda ta’lim sifati tushib ketishini ta’kidlasa, ba’zilar zamonaviy ta’lim uchun yangi davr boshlanganini e’tirof etmoqda. Ayrim davlatlar ziyolilari esa masofaviy ta’limga qamrab olishda ta’minot masalasini ilgari surmoqda. Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o‘nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti yetarli. Qolgan davlatlarda bu ko‘rsatkich ancha past. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida ham bu ko‘rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi. Bu esa mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta’lim sifati pasyishiga sabab bo‘ladi [4].

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir [5]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya’ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e’tiborga olib, raqamli rivojlanish bo‘yicha barcha soha rahbarlarining o‘rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda[6]. Izlanishimiz shuni taqozo etadiki, virtuallik g‘oyasi evolyutsiyasi (tadriji, rivojlanish) bayon etilgan adabiyotlar oz emas, ammo ularda nima uchundir E.Bexerning virtualistik konsepsiyasiga o‘rin ajratilmagan. N.A.Nosov individdagi virtual realliklar majmuasini ifodalaydigan virtual inson tushunchasini ishlab chiqqa[7]. Vaholanki, ma’lum bo‘lishicha, shunga yaqin gipotezani garchand psixovitalizm ta’limoti formatida bo‘lsa ham, E.Bexer yaratgan.

Ta’limni raqamlashtirish: tasniflari, xususiyatlari. Kelgusida mumkin bulgan barcha turdagi o‘zgarishlar haqida batafsil gapirish qiyin, ammo endi u aniq o‘zgaradi deb bemalol aytishimiz mumkin. Bugun ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari loyiha tamoyillari va usullarini tushunish va aniqlashga yondashuvlar aniqlandi, shuningdek ularni qo‘llash tajribasi tahlil qilindi. Materiallar, rejalar, sinflar, jurnallar va kundaliklarni o‘rganish - bularning barchasi onlayn versiyaga o‘tkazilmoqda. Ba’zi o‘quvchilar, ayniqsa nogiron yoki vaqtincha salomatligi yomonlashgan talabalar uydan chiqmasdan darslarni onlayn o‘tkazish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Shuningdek, hozirgi vaqtda o‘quvchilar dars uchun batafsil ma’lumot topa oladigan elektron resurslar mavjud.

Ta’lmda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchidan, albatta mamlakatimizda internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish.

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediyali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video- konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron

resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqyelik, kengaytirilgan voqyelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. [8]. Alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog‘liq, ya’ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o‘qish bilan yakunlashgacha. Biz ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta’lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o‘yin bilan klassik ta’limni birlashtirishga tengdir. Natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar-bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Raqamlashtirishning asosiy afzalligi mustaqillikka tayyorgarlikdir, chunki kelajakdagi tizim mustaqil ishni o‘z zimmasiga oladi. O‘qituvchilarning bevosita raxbarligisiz yoki haddan tashqari g‘amxo‘rligisiz talabalar yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Raqamli ta’limga o‘tish kelajakka, Internet texnologiyalarini yaratishga katta qadamdir. Zamonaviy ilm-fan yuqori tezlikda rivojlanmoqda va har kuni yangi tuzilma paydo bo‘ladi. Ta’limni raqamlashtirish talabalarga kelajakda axborot dunyosini yaxshiroq boshqarishga yordam beradi. Viki lug‘at "raqamlashtirish" tushunchasining mazmunini "raqamli qurilmalar yordamida aloqa, yozib olish va ma’lumotlarni uzatishning raqamli usuli" sifatida ochib beradi." [9].

Vikilug‘at bu vikimedia jamg‘armasining loyihalaridan biri va u erkin yangilanadigan ko‘p funksional ko‘p tilli lug‘at va tezaurusga(zamonaviy tilshunoslikda tezaurus semantik munosabatlarni-sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, giperonimlar va boshqalarni belgilaydigan lug‘atlarning maxsus turidir) leksik birliklar orasida. asoslanadi. Ushbu lug‘atda so‘zlarning grammatik tavsiflari, talqinlari va tarjimalari mavjud. Bundan tashqari, so‘zlarning etimologiyasi, fonetik xususiyatlari va semantik munosabatlari haqida ma’lumotlar xam bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, Vikilug‘at grammatik, tushuntirish, etimologik va ko‘p tilli lug‘atlarni, shuningdek, bitta mahsulotda tezaurusni birlashtirishga urinishdir. Vikilug‘at ma’lumotlari matn va nutqni mashinada qayta ishlash bilan bog‘liq vazifalarni yechadi. Raqamli ta’limning bir nechta turlari tasniflanadi:

* matnli ma’lumotlar (elektron darsliklar, qullanmalar); * vizual ma’lumotlar (illyustrasiyalar, video materiallar); * audio axborot (dars matni, ma’ruzalar, audiokitoblar) * interaktiv modellar (virtual laboratoriyalar, interaktivlik); * audio va video ma’lumotlar (onlayn dars matnlari, ma’ruzalar, master-klass materiallarini yozib olish).

Onlayn ta’limning kamchiliklari ro‘yxatiga quyidagilar kirishi mumkin:

1. salbiy natijalar xavfi paydo bo‘ladi. Bunday yangiliklar ijobiy bo‘ladimi yoki yo‘qligini aniq aytish mumkin emas. Ushbu tizim birinchi marta ishlatiladi, shu uchun siz uni shunga o‘xshash narsa bilan taqqoslashingiz qiyin;

2. ijodkorlikning yetishmasligi. Olimlar rangli tasvirlarni o‘quvchilar tomonidan yaxshiroq eslab qolishlari uchun yordam berishini isbotlaganlar, ya’ni u ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, axborot texnologiyalari o‘quvchilarni o‘zlarini namoyon qilish imkoniyatini istisno qiladi. Bu esa o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lishi mumkin;

3. aqliy faoliyatning pasayishi. Birorta o‘quvchining biror narsa haqida o‘ylashi yoki fikrlashining hojati yo‘q, ya’ni o‘quvchi o‘z ustida ishlashni to‘xtatdi. Kerakli ma’lumotlarni topishda internetga kirish kifoya bo‘lib qoladi;

4. masalaning ijtimoiy tomoni ham bor. Kompyuter ma’lumotlari insonning ijtimoiylashuv muloqot darajasini pasaytiradi. Odatda, o‘quvchi maktabga birinchi marta kelganida, u yerdan o‘ziga do‘st-o‘rtoq topishi yoki u bilan uchrashish ehtimoli kichik. Maktabga ana’naviy usulda kelish bilan o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki o‘ziga do‘stlar topadi, jamiyat bilan muloqot qilishni o‘rganadi;

5. jismoniy rivojlanish bilan bog‘liq muammolar. Avval o‘quvchi ko‘zi bilan ko‘rish va nozik xolatlarni his qilish mahorati o‘zgaradi. Uning ekranga uzoq vaqt qarab o‘tirishi ko‘zning charchashiga olib keladi.

6. o‘qituvchilarning vazifasi. Raqamli texnologiyalardan so‘ng o‘qituvchi tushunchasi haqiqatdan ham o‘zgaradi. Robotlar va virtual tizimlar bilan o‘qituvchilar almashtiriladi. Natijada odamlar ishlab turgan ishlarini yo‘qotadilar.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan innovasion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an’anaviy uslubda o‘qishni xoxlamaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas. Shunday qilib, axborot texnologiyalaridan foydalanish kelajakda o‘rta maktab ta’limi o‘quvchilarining martaba va ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi uchun yangi istiqbollarni ochadi va axborot texnologiyalari yordamida badiiy ta’limni modernizasiya qilish maqsadlardan birini amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim va tarbiyaning ushbu usulda shakllanishi o‘qituvchi va o‘quvchilarni yuqori darajada rivojlangan axborot muhitida yashash uchun yangi imkoniyat va sharoitlar tug‘diradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 6 noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqi.-Toshkent “O’zbekiston ovozi” gazetasi. № 223 (479), 2021 yil 7 noyabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.
3. Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. https://journal.tsue.uz/ index.php/archive/article/view/2702.
4. Norboeva N Erkinovna, Khashimova D Pakhritdinovna. The role of the digital economy in the development of information and communication technologies // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25-31.

5. Abdullayev, M. (2020). Analysis of application of information systems at industrial enterprises. https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2270.
6. Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра, 2009. – С.70
7. Helm Michel. The MeTaphisics of virtual reality // Virtual reality, practice and promise Westport and London. 1991.-P. 27-33:
8. Hammet F. Virtual reality and the exploration of superspeciall. Carmel Indiana Sams PublishingN.Y. 1993

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:__ 159.99_____

Ilminur SHUKUROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: psychologist.ilminur@gmail.com

ADU dotsenti, PhD A.Odiljonova taqrizi asosida

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MULTIGENERATIONAL FAMILIES: ANALYSIS OF MODERN FOREIGN RESEARCH

Annotation

This article analyzes the socio-psychological aspects of multi-generational families based on foreign research, studying their specific aspects in the family structure, intergenerational relations and upbringing process. In particular, special attention is paid to the issues of the emotional support system in the family, psychological connection between generations and the transmission of family values. The article discusses how multi-generational families adapt to modern society, factors ensuring family cohesion and mechanisms of social interaction based on foreign research.

Key words: Multigenerational family, personal development, psychological connection, family cohesion, family values, social and emotional development, intergenerational connection, family relationships.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МНОГОПОКОЛЕННЫХ СЕМЕЙ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В статье анализируются социально-психологические аспекты многопоколенных семей на основе зарубежных исследований, рассматриваются их специфические аспекты в структуре семьи, межпоколенных отношениях и процессе воспитания. В частности, особое внимание уделяется вопросам системы эмоциональной поддержки в семье, психологической связи поколений, трансмиссии семейных ценностей. В статье на основе зарубежных исследований рассматриваются вопросы адаптации многопоколенных семей к современному обществу, факторы, обеспечивающие сплоченность семьи, и механизмы социального взаимодействия.

Ключевые слова: Многопоколенная семья, личностное развитие, психологическая связь, сплоченность семьи, семейные ценности, социальное и эмоциональное развитие, межпоколенческие связи, семейные отношения.

KO‘P AVLODLI OILALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI: ZAMONAVIY XORIJIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari xorijiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinib, ularning oilaviy tuzilishi, avlodlararo munosabatlar va tarbiya jarayonidagi o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi. Xususan, oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimi, avlodlar o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik va oilaviy qadriyatlarning uzatilishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada ko‘p avlodli oilalarning zamonaviy jamiyat sharoitida qanday moslashayotgani, oilaviy birdamlikni ta’minlash omillari hamda ijtimoiy o‘zaro ta’sir mexanizmlari xorijiy tadqiqotlar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ko‘p avlodli oila, shaxsiy rivojlanish, psixologik bog‘liqlik, oilaviy birdamlik, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy va emotsional rivojlanish, avlodlararo bog‘liqlik, oilaviy munosabatlar.

Kirish. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va oilaviy munosabatlarning rivojlanishi uzoq yillar davomida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Ushbu oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari turli ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, xorijiy olimlarning yondashuvlari ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. NAFI tahliliy markazi tomonidan 2023-yil o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, deyarli 43% yosh rossiyaliklar ota-onalari yoki boshqa keksa qarindoshlari bilan yashaydi[10]. Tadqiqotlarda ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy moslashuvi, oilaviy birdamlik, avlodlararo bog‘liqlik va psixologik barqarorlik masalalari alohida e’tibor markazida turadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p avlodli oilalar shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ta’sir va madaniy merosning uzatilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jumladan, psixologik tadqiqotlarda bunday oilalarning bolalar tarbiyasiga, ijtimoiy moslashuviga va hissiy barqarorligiga ta’siri ilmiy asosda izohlangan. Shu bilan birga, oiladagi rollarning taqsimlanishi, tarbiya uslublari va avlodlararo muloqot sifati oilaviy muhitning psixologik barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi keng tahlil qilingan.

Ushbu maqolada xorijiy olimlarning ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga oid yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar asosida bunday oilalarning funksional jihatlari, oilaviy qadriyatlarning uzatilishi va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi ilmiy asosda sharhlanadi. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishdagi muhim ilmiy ishlarga tayangan holda ko‘p avlodli oilalarning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini chuqurroq o‘rganish va bu boradagi tadqiqotlar xulosalarini umumlashtirishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko‘p avlodli oilalar tizimini o‘rganishda Urie Bronfenbrenner insonning rivojlanish jarayoni mustaqil jarayon bo‘lmay, balki unga atrof-muhit omillari va shaxslarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishi holatlarni o‘rgangan[1]. Uning nazariyasiga ko‘ra, bolalar atrof-muhit bilan faol o‘zaro ta’sirda bo‘lishlari, shuningdek, barqaror va emotsional jihatdan bog‘langan shaxslar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishlari muhim hisoblanadi.

Yana bir psixolog olimlar Dekovic, M., va Janssens, J. M tomonidan olib borilgan tadqiqotda ota-onalarning tarbiya uslubining bolalarning ijtimoiy xulq-atvori va tengdoshlari orasidagi mavqei bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan o‘rganilgan[2].

Laurence Steinberg o‘z tadqiqotlarida ota-onalar va o‘smirlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifati bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi haqida fikr yuritadi[3]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy jamiyatlarda bolalarning o‘ziga ishonchi, muvaffaqiyatga intilishi,

ijtimoiy moslashuvi va o‘zini tuta bilish qobiliyati ota-onaning farzand tarbiyasidagi yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Jon Carlson, Len Sperry, Judith A. Lewislar o‘z tadqiqotlarida, oilaviy tizimni o‘rganishda zamonaviy tadqiqotlar oilaning ichki tuzilishiga qo‘shimcha ravishda, uning kengroq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlarini ham inobatga olish lozimligini ta’kidlaydi[4].

Stephanie H. Shin tadqiqotida AQSH shaharlarida ko‘p avlodli oilalarning yashash sharoitlari va ular duch kelayotgan muammolarni o‘rganadi[4]. Uning tahlillariga ko‘ra, urbanizatsiya jarayoni bunday oilalarga bir qator ijobiy va salbiy ta’sirlar ko‘rsatgani aytiladi[6].

Edgar Liu va Hazel Easthope tomonidan ko‘p avlodli oilalar o‘zining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida xizmat qilishini, ayniqsa bolalar tarbiyasida katta avlodning ishtiroki yuqori ekanligini qayd etib o‘tishgan[5]. Ular moddiy va ma’naviy jihatdan o‘zaro yordam berish mavjudligini ham ko‘rsatib o‘tishgan. Biroq tadqiqotda bunday yashash shaklining ba’zi cheklovlari va qiyinchiliklari ham mavjud ekanligi qayd etilgan.

Samantha Marsh, Rosie Dobson, Ralph Maddisonlar oilada muntazamlikning yo‘qligi, haddan tashqari shovqin va beqarorlik bola va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishining sustlashishiga hamda ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvlariga ta’sir qilishi mumkin ekanligi haqida tadqiqotlar davomida ta’kidlaganlar[7].

Ko‘p avlodli oilalarda tarbiyalangan bolalar odatda turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilish tajribasiga ega bo‘lishadi, bu esa ularning ijtimoiy intellektini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda Shukurova tadqiqotlarida o‘smirlik davrida ijtimoiy intellektning shakllanishi oilaviy muhit va avlodlararo munosabatlar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi[9].

Ko‘p avlodli oilalar tizimida bobo va buvilar tarbiyaviy hamda hissiy qo‘llab-quvvatlovchi shaxslar sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu oilalarda bolalar tarbiyasi nafaqat ota-onalar, balki boshqa katta avlod vakillari tomonidan ham amalga oshiriladi. Christine A. Fruhauf va boshqalarning tadqiqotlari bobo va buvilar farzand tarbiyasidagi faol ishtirokining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan[8]. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bobo va buvilar bolalar uchun mustahkam hissiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi va oilaviy birdamlikning saqlanishiga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarini nazariy tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy tadqiqotlar asosida ko‘p avlodli oilalar tizimining nazariy asoslarini tahlil qilish, avlodlararo munosabatlarning shaxs rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish va turli yondashuvlarni umumlashtirish hisoblanadi. Mazkur tadqiqot empirik ma’lumotlarga emas, balki mavjud ilmiy nazariyalarning tahliliga asoslangan bo‘lib, bunda nazariy tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil usuli ko‘p avlodli oilalar fenomenini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va turli tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida Urie Bronfenbrenner, Deković va Janssens, Laurence Steinberg, Jon Carlson va boshq., Stephanie H. Shin, Edgar Liu va Hazel Easthope, Christine A. Fruhauf va boshq. kabi olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari ko‘p avlodli oilalarning shaxs rivojlanishiga ta’siri, tarbiya uslublari, ijtimoiy moslashuv va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari kabi jihatlarini yoritib beradi.

Kontent-tahlil usuli orqali mavzuga oid ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, dalillar va natijalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali avlodlararo munosabatlar, oilaviy tarbiya uslublari, bobo va buvilar ishtirokining bolalar psixologik rivojlanishiga ta’siri kabi jihatlar ajratib olindi.

Bundan tashqari, Christine A. Fruhauf va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan GRANDcares modeli tahlil qilinib, bobo va buvilarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan intervensiya dasturlari tadqiqot natijalari bilan bog‘landi[8].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p avlodli oilalar tizimi bolalar va o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishida muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida ushbu oilalarning farzand tarbiyasiga ta’siri, avlodlararo munosabatlari sifati va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari chuqur o‘rganildi.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, oilaviy muhit bolaning psixologik rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Bronfenbrenner tomonidan ilgari surilgan ekologik nazariya asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, bola rivojlanishi nafaqat oilaning ichki omillari, balki atrof-muhit va ijtimoiy munosabatlarning ta’siri bilan ham belgilanadi[1]. Tadqiqot natijalari oiladagi avlodlararo munosabatlar, ota-ona va bobo-buvilar ishtirokida olib boriladigan tarbiya jarayoni bolalar uchun hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy mustaqillik shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Dekovic va Janssens tomonidan olib borilgan tadqiqot ham ushbu xulosani qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi yondashuvi bolaning ijtimoiy moslashuvi va o‘z tengdoshlari orasidagi mavqeiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[2]. Bu esa, ko‘p avlodli oilalarda bolalar turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari natijasida ijtimoiy tajriba orttirishini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tarbiya uslublari bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga turlicha ta’sir qiladi. Laurence Steinberg tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar va o‘smirlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifati bolaning ijtimoiy xulq-atvori va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi[3]. Bundan kelib chiqib, oilada demokratik tarbiya usuli qo‘llanilganida bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo‘lishi aniqlangan. Ko‘p avlodli oilalarda esa tarbiya jarayoni faqat ota-onalar emas, balki bobo-buvilar tomonidan ham amalga oshirilishi natijasida turli tarbiya uslublari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin. Jon Carlson, Len Sperry va Judith A. Lewis o‘z tadqiqotlarida oilaviy tizimni o‘rganishda oilaning ichki tuzilishiga qo‘shimcha ravishda uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlari ham hisobga olinishi kerakligini ta’kidlaydi[4]. Bu esa oilaviy munosabatlarning murakkabligini tushunishga yordam beradi.

Ko‘p avlodli oilalar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida xizmat qiladi. Edgar Liu va Hazel Easthope tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bunday oilalar bolalar tarbiyasida bobo va buvilar ishtirokini oshirish bilan birga, oilaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi[5]. Bobo va buvilar oiladagi moddiy va ma’naviy resurslarni taqsimlash orqali farzandlarining tarbiyasiga bevosita ta’sir o‘tkazadi.

Biroq, ushbu jarayon ba’zi cheklov va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Stephanie H.Shin tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya jarayoni ko‘p avlodli oilalar tuzilishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi[6]. Shaharlashuv bunday oilalar uchun moddiy resurslar va imkoniyatlar yaratishi mumkin, biroq bu ayni paytda avlodlararo masofalanish va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining zaiflashishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, xorijiy tadqiqotlarning nazariy tahlili shuni tasdiqlaydiki, oilaning ushbu shakli inson psixologiyasi va ijtimoiy hayotining muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Ko‘p avlodli oilalar inson jamiyatidagi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, ularning ichki tuzilishi, tarbiya uslublari va avlodlararo munosabatlari shaxs rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlil qilish va ularning jamiyat hamda individ rivojlanishidagi o‘rnini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy muhit bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bronfenbrenner nazariyasiga ko‘ra, shaxs rivojlanishi mustaqil kechmay, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir[1]. Xorijiy tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, ko‘p avlodli oilalarda o‘sayotgan bolalar hissiy barqarorlik,

ijtimoiy moslashuvchanlik va shaxsiy mustaqillik kabi xususiyatlarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Ota-onalar va bobo-buvilarning tarbiya uslublari farzandlarning xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Dekovic va Janssens tadqiqotlariga ko‘ra, tarbiya uslublari bolalarning tengdoshlari orasidagi mavqei va ijtimoiy faolligiga ta’sir qilishi mumkin[2]. Steinberg esa ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatining bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va muvaffaqiyat motivatsiyasiga ta’sirini o‘rgangan[3]. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, oiladagi barqaror va hissiy bog‘langan munosabatlar bolalarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir qiladi va ularning jamiyatga moslashish jarayonini yengillashtiradi.

Ko‘p avlodli oilalar nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Bunday oilalar moddiy va ma’naviy resurslarni avlodlar o‘rtasida taqsimlash orqali oilaviy birdamlikni saqlash va jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, urbanizatsiya va zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlar natijasida oilaviy tizimlarning shakllanishi va funksionalligi ham o‘zgarib bormoqda. Stephanie H. Shin tadqiqotiga ko‘ra, shaharlashuv jarayoni ko‘p avlodli oilalarga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatib, avlodlararo masofalanish va oilaviy an’analar transformatsiyasiga olib kelishi mumkin[6].

Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida bobo va buvilarning tarbiya jarayonidagi roli alohida e’tiborga molik ekanligi aniqlangan. Fruhauf va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan GRANDcares modeli bobo va buvilarning tarbiyaviy ishtirokini ilmiy asosda qo‘llab-quvvatlovchi intervensiya dasturi sifatida tavsiflangan[8]. Ushbu model asosida oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, bobo va buvilarning farzand tarbiyasidagi ishtirokini oshirish hamda jamiyatda ularning rolini yanada mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Ushbu xulosalar asosida, ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik determinantlarini yanada chuqurroq o‘rganish, ularning ijtimoiy barqarorlikdagi o‘rnini mustahkamlash va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi tadqiqotlar zarurligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Urie Bronfenbrenner. “The Ecology of Human Development” /Harvard university press/ 1979. Page-60.
2. Dekovic, M., va Janssens, J. M “Parents' Child-Rearing Style and Child's Sociometric Status” /Developmental Psychology, 28. 1992 year. Page-10-11.
3. Laurence Steinberg. “We Know Some Things: Parent–Adolescent Relationships in Retrospect and Prospect” / Journal of research on adolescence, 11(1), 1–19. 2001 year.
4. Jon Carlson, Len Sperry, Judith A. Lewis “Family therapy techniques”. Published in 2005. Great Britain by Routledge.
5. Edgar Liu and Hazel Easthope. Multi-generation households in Australian cities. AHURI Final Report No. 181. Melbourne: Australian Housing and Urban Research Institute. February 2012.
6. Shin, S. H. Planning for a Multi-generational Future: Policies, Regulations, and Designs for Multi-generational Housing in the United States. Massachusetts Institute of Technology. May 24, 2012
7. Samantha Marsh, Rosie Dobson, Ralph Maddison. “The Relationship Between Household Chaos and Child, Parent, and Family” BMC Public Health. 2020. Page-27.
8. Fruhauf, C. A., Yancura, L. A., Riggs, N. R., Fox, A., Mendoza, A. N., & Ooki, N. (2020). The importance of family-focused and strengths-based approaches to interventions for grandfamilies. Journal of Family Theory & Review, 12(4), 478–491.
9. Shukurova, I. (2024). Psychological development of social intelligence in adolescence. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(1), 65-69.
10. https://www.cian.ru/novosti-analitiki-vyjasnili-skolko-molodyh-ljudej-zhivut-otdelno-ot-roditelej-333360/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 004.78

Ulug‘bek SHUKURULLAYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: twittershum@mail.ru

O‘zMU professori, s.f.d. K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida

SIYOSIY - PR VA SIYOSIY MANIPULYATSIYANING JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHGA TA’SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif siyosiy PRning ommaviy kommunikatsiya (lotincha-communication-ma’lumot, uzatish) asosida ommaviy ongga ta’sir etishning funksiyalari, PR, ya’ni jamoatchilik bilan aloqa siyosiy jarayonlarda, ommaviy ong faoliyatida strategik o‘rin tutishi haqida ilmiy-nazariy yondashuvlarini aks ettiradi. Buning ma’nosi, siyosiy PR ommaviy ongni boshqaradi va uni yo‘nalishini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy PR, siyosiy manipulyatsiya, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy vaziyat, ommaviy kommunikatsiya, axborotlashgan jamiyat, demokratik jamiyat, siyosiy texnologiya, siyosiy transformatsiya, siyosiy tizim.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПИАРА И ПОЛИТИЧЕСКИХ МАНИПУЛЯЦИЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье автор отражает научно-теоретические подходы к функциям политического PR по воздействию на общественное сознание на основе массовой коммуникации (лат. communication - информация, передача), а также стратегическую роль PR, то есть связей с общественностью, в политических процессах и деятельности общественного сознания. Это означает, что политический пиар управляет общественным сознанием и задает его направление.

Ключевые слова: Политический пиар, политическое манипулирование, политическое сознание, политическая культура, политическая ситуация, массовая коммуникация, Интернет, информационное общество, демократическое общество, политические технологии, политическая трансформация, политическая система.

THE IMPACT OF POLITICAL PR AND POLITICAL MANIPULATION ON ENSURING STABILITY IN SOCIETY

Annotation

In this article, the author reflects the scientific and theoretical approaches to the functions of political PR to influence public consciousness based on mass communication (Latin - communication - information, transmission), and the strategic role of PR, that is, public relations, in political processes and the activities of public consciousness. This means that political PR controls public consciousness and sets its direction.

Key words: Political PR, political manipulation, political consciousness, political culture, political situation, mass communication, internet, information society, democratic society, political technology, political transformation, political system.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan ommaviy kommunikatsiya matbuot, ayniqsa, radioning keng tarqalishi oqibatida paydo bo‘ldi. Bugun televidenie, internet va boshqa axborot vositalarining keng tarqalishi va rivojlanishi oqibatida siyosiy mavqe hamda o‘zining maqomiga ega bo‘lib bordi. Hattoki, “to‘rtinchi hokimiyat” va “elektron hukumat” degan iboralarning jamiyat siyosiy hayotida tobora mustahkamlanib borayotganligi, ommaviy axborot oqimini boshqarishga ehtiyojning ortayotganligini ko‘rsatmoqda. Demak, strategik jihatdan olib qaralganda siyosiy – PR aynan shu jarayonlarni siyosiy maqsadlarda boshqarish, ta’sir etish va ma’lum maqsadga yo‘naltirish, muayyan natijalarni qo‘lga kiritish uchun xizmat qiladi. O‘zbekistonda siyosiy PR hodisasining keng ommalashuvida 1996 yil alohida o‘rin tutadi. Sababi aynan shu yilning may oyida O‘zbekiston jahonning eng yirik kompyuter aloqa tizimi “internet” bilan rasmiy aloqa o‘rnatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu masala yuzasidan olimlar tomonidan qator izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda PR texnologiyalar, targ‘ibot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va siyosiy texnologiyalar kabi masalalar bo‘yicha tadqiqotlar qilingan.

Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida siyosiy – PR qator muammolar, birinchi navbatda, inson ruhiyatida o‘tmish qoldirgan “chandiq”lardan xalos bo‘lishi, siyosatga, davlatga ishonch hissini shakllantirish bilan bog‘liq.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yildan boshlangan xalq bilan muloqot qilish siyosati, aynan siyosiy PRni shakllantirish, insonga davlat begona emas, uning tayanchi, hayoti, huquq va erkinliklarining ishonchli kafolati ekanligini nafaqat uqtirish, balki bunga ishontirish, amalda qaror toptirish siyosati hisoblanadi.

Siyosiy – PR texnologiyalarining bugungi o‘zbek mentaliteti, aniqrog‘i uning siyosiy mentalitetini shakllantirilishida “spin-texnologiya”, “spin-master”, “spin-doktor” va hokazo uslublardan foydalana olish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda PR texnologiyani siyosiy menejment va siyosiy marketing hodisalarini hisobga olgan holda qo‘llash samarali bo‘ladi.

“Spin” tushunchasiga kelsak, u axborotni iste’molchiga ijobiy shaklda yetkazib beruvchi kommentator faoliyati tushuniladi. Spin hodisasini “axborot nazorati” tushunchasisiz tasavvur qilish qiyin. Bunda fan metodologiyasida tarixiylik va mantiqiylik, hozirgi zamon va kelajak dialektikasi, sabab-oqibat, mohiyat-hodisa prinsiplari talablari borki, ularsiz ko‘rinishidan oddiy, biroq fundamental va strategik muammoga javob topish qiyin.

Shu o‘rinda nemis olimi F.Nitsshening qadimgi yunon fani va madaniyati hamda olamni bilish darajasiga bergan bahosini eslash mumkin, ya’ni “greklar chuqurlikdan sirtqi edilar”. Bu bilan F.Nitsshe yunonlarni ko‘proq illyuza, afsona va mazmunga emas, shakl hamda belgiga moyilligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Har qanday tashqi hodisa ichki, hali idrok qilinmagan mohiyat bilan uzviy bog‘liqligiga sha’ma qiladi. Sirtdan qaraganda Nitsshening ushbu paradigmasi yuqorida ifodalangan muammo va savolga aloqasizdek ko‘rinadi. Aslida esa axborot jamiyati va globallashuv sharoitida milliy o‘zlik hamda milliy mustaqillikni muammoga ilmiy yondashuvsiz ta’minlash mushkul. Gap shundaki, yuqorida ta’kidlanganidek, global axborot bosimi va reklama hodisasi o‘zining manipulyativ

jihatlari bilan nafaqat inson ongiga, balki bugungi kunda inson ong osti qatlamiga ham qaratilgani bilan xavflidir.

Shu qatorda, O‘zbekistonda XX asrning 90 yillaridan e’tiboran turli sohalarda tub o‘zgarishlar, ilmiy tilda ifodalaganda “modernizatsiya”, “liberilizatsiya” va “demokratizatsiya” jarayonlari kuzatiladi.

Totalitar, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan jamiyatdan yangi demokratik jamiyatga o‘tish bir zumlik yoki bir necha yillik hodisa emasligi ayon. Ijtimoiy ongda, demak, induvidual ong darajasida ham eski siyosat va mafkura, eski boshqaruv usuli ta’sirlari uzoq saqlanib qoldi. O‘tmish qadriyatlarini turli chaqiriqlar, shiorlar va buyruqlar bilan isloh qilish mushkul ish ekanligi, hali eski siyosiy madaniyat va siyosiy psixologiya uzoq muddat jamiyatda saqlanib qolishi, buning uchun ta’lim va tarbiya sohalarini yangilash zarurligi ma’lum. Demak, eski siyosiy ong va siyosiy madaniyat o‘rtasida muhim hodisa – siyosiy jarayon mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Biz taklif etmoqchi bo‘lgan siyosiy PR texnologiyalari siyosiy jarayonni nafaqat qayd qilish, balki uni muayyan maqsad tomon boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Boshqacha qilib aytganda, taniqli siyosiy texnologlardan biri K.Fenner ta’biricha, bunday yondashuv fuqarolarning asosiy qadriyatlari, bilimlari va emotsional aloqalari, shuning bilan birga ularni hokimiyat hamda siyosiy tizimga munosabatlarini aniqlashga ko‘maklashadi. Buning boisi, siyosiy PR texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya jarayonlari ayri holda mavjud emasligi, birinchisi ikkinchisini siyosiy madaniyat unsurlari orqali harakatga keltirishi va muayyan maqsadlar tomon yo‘naltira olishidadir. Metodologik jihatdan yondashilganda PR siyosiy texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalari munosabatlari o‘zaro dialektik jarayonni tashkil etadi. Bu degani, PR siyosiy texnologiyalarini nafaqat ijobiy, balki siyosiy vektorda ham ommaviy kommunikatsiya jarayonlariga ta’sir qila olishi demakdir. Yaqin Sharq, xususan, Ukrainada ijtimoiy beqarorlik va fuqarolar urushlarning sodir bo‘lishi, “arab bahori”, “maydan”, “rangli inqilob” degan siyosiy texnologiyalarni ommaviy kommunikatsiya jarayonlariga malakali ravishda qo‘llash orqali mumkin bo‘lganligiga bugun hech kimda shubha yo‘q.

Ushbu jihatni taniqli siyosatshunos N.Jo‘rayev to‘g‘ri ilg‘aydi va “Harakatlar strategiyasi”da mazkur jihat bejiz nazarda tutilmaganligini ta’kidlaydi. Jumladan, u quyidagi talablarni strategik hamda metodologik ahamiyatini alohida to‘xtaladi:

Birinchidan, demokratik davlat boshqaruvi mezonlarini belgilovchi tamoyillarni hayotga joriy etib borish talab etiladi. Boshqaruvda inson huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi, oshkoralik, qonun oldida barchaning tengligini ta’minlash.

Ikkinchidan, davlat boshqaruv apparatining huquqiy bazasini yaratish, uni zamonaviy davlatchilik talablari asosida takomillashtirish.

Uchinchidan, ijro hokimiyati tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash, uning vazifalarini aniq belgilash.

To‘rtinchidan, davlat boshqaruv organlari faoliyatini ochiqligini ta’minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari, ya’ni nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash kabi masalalarga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy va qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, ob’ektivlik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan. Ushbu tadqiqotni olib borishda xolislik va solishtirma tamoyillariga asoslanilib, ijtimoiy fikr natijalarida yuzaga kelgan ma’lumotlarni ilmiy tahlil orqali qiyosiy metodlarga asoslanib bayon qilindi.

Tahlil va natijalar. Bugun internet shu qadar rivojlandiki, mamlakatimiz aholisi kundalik dolzarb axborotlardan xabardor bo‘lishi ommalashdi, internetsiz hayotni tasavvur etish qiyin bo‘lib qoldi. Bunday sharoitda davlat axborot monopoliyasiga tabiiy ravishda barham berildi. Senzura yoki “norasmiy” senzura degan institutlarga o‘rin qolmadi. Buning ham ijobiy va ham salbiy jihatlari bor.

Ijobiy jihati - insonni xolis, obyektiv axborot iste’moli uchun sharoit va imkoniyatga ega bo‘lishi bo‘lsa, salbiy jihati esa milliy mustaqilligimiz, xalqimiz mentaliteti, milliy o‘zligiga xavf keltirib chiqaruvchi begona ma’lumotlar ekspansiyasidir.

Bunday vaziyat va tendensiya siyosiy PRga ehtiyojni oshiradi – siyosiy menejmensiz xalqimiz ko‘zlagan maqsadlarga erishishda turli chalg‘ituvchi to‘siqlar, sun’iy g‘ovlar yuzaga kelishi ehtimoli kuchayadi. Natijada, “Harakatlar strategiyasi” va umuman, davlat siyosatidagi ustuvor vazifa - ijtimoiy barqarorlik, millatlar va dinlararo hamjihatligini mustahkamlash masalasiga turli xavflar tug‘ilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi nafaqat obyektiv, xolis ma’lumotlarni ommaga yetkazish, balki milliy rivojlanish manfaatlari va milliy mustaqillikdan uzoqlashmaslikdir. Bu - siyosiy masala.

O‘zbekiston axborotlashgan jamiyatga aylanmoqda. Bunda davlat axborot siyosatini yo‘lga qo‘yish, buzg‘unchi axborotlardan aholimiz, ayniqsa yosh avlodni - mamlakat kelajagini himoya qilish, millat madaniy, ma’naviy vorisligini ta’minlash - milliy mustaqilligimizning oliy maqsadiga aylanadi. Siyosiy PR, ya’ni aholi bilan davlat axborot aloqasini zamon talabi darajasiga ko‘tarish hayotiy masalaga aylanadi.

Insoniyat XXI asrga kelib axborotlashgan jamiyat bosqichiga o‘tdi. Buni xalqaro tashkilotlar ham e’tirof etmoqda. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 26 mayda “17 may – xalqaro axborotlashgan jamiyat kuni” deb e’lon qilindi. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarining kompyuterlashuvi va informatizatsiyalashuvi bugungi kunda “axborot inqilobi” haqida gapirishga ham o‘rin bermoqda. Axborotlashgan jamiyat o‘z funksiyalarini qator omillar ta’sirida amalga oshiradi. Ular ichida eng asosiysi va yetakchisi iqtisodiy omildir.

Iqtisodiy omil hal qiluvchi kuch bo‘lib, u iqtisodiyotning tovar, xizmat ko‘rsatish, qo‘shimcha qiymat yaratilishi va aholini ish bilan bandligini belgilovchi asosiy resursi (manba)dir. PR texnologiya pirovard maqsadda ham iqtisodiy omilga borib taqaladi. Navbatdagisi ijtimoiy omil bo‘lib, u PR texnologiya ta’siri natijasida inson “axborot ongi”ni, uning sifat darajasini, hayot sifatini belgilash ko‘rsatkichidir.

Ushbu ko‘rsatkich, ijtimoiy ong rivojlanishining nafaqat indeksi va indikatori, balki uni faollashuvi uchun “katalizator” vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, siyosiy-PR shaxslararo munosabatlarni nazorat qila olishligi bilan ahamiyatlidir. Siyosiy - PR, ayniqsa, saylov kampaniyalarida elektorat ongini zabt etishda qo‘l keladi.

PR texnologiyalar jamiyat hayotini boshqarish, nazorat qilish va muayyan maqsadlar tomon yo‘naltirishning zamonaviy usuli va vositasiga aylandi. Siyosiy boshqaruv bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Biroq, butun jamiyatni boshqarish uchun ommaviy axborot vositalari siyosiylashuvi kerak bo‘ladi. Bu esa amalga oshmaydigan ishdir. Chunki, siyosat bilan jamiyatning faqat muayyan qatlamlarigina shug‘ullanadi. Amerikaliklar ushbu jihatni allaqachon anglab yetdilar va “ijtimoiy jurnalistika”ni rivojlantirish payiga tushdilar.

Ma’lumki, fuqarolarni ko‘proq tirikchilik masalalari va ko‘ngilochar ma’lumotlar qiziqtiradi. Bu – demokratiya ma’lum darajada qaror topgan AQShda kuzatilsa, O‘zbekistonda aholining siyosiy faolligi mustaqillikka erishgan bo‘lsak-da benihoyat past darajada. Bu achchiq haqiqat, insonning siyosatdan bezganligi, siyosat kishilarni laqillatish vositasi, real voqe’likni, haqiqatni aks ettira olmasligi, siyosiy partiyalar nomigagina, sun’iy institut ekanligini allaqachon anglab yetganlari bilan bog‘liq.

Agar aholi o‘rtasida ushbu masala bo‘yicha sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazilsa, masala ravshan bo‘ladi. Buning yana bir sababi, sobiq tuzum davrida insonning siyosatdan begonalashuvi, siyosatning (demak, davlatning) faqat jazolovchi, repressiya instituti ekanligini o‘z tanida his etganligi, bu haqda tarixiy xotira (qatag‘on yillari, “paxta ishi” va h.k.) saqlanib qolganligidir.

Demokratik tizim esa yalpi, total emas, balki alohida, vaziyat taqozo etuvchi nazorat sxemasiga asoslanadi. Bu tizimda axborot nazorati uchun muhim tayanch “nuqta” mavjud emas, bunday nuqta doimo o‘zgarib turadi. Totalitar axborot nazorati esa negativ tabiatda bo‘lib, u taqiq va ta’qib prinsipiga asoslanadi. Shu bois iste’molchi real ma’lumot olishga qiziqadi. Buning ham ijobiy va ham salbiy jihatlari mavjud. Salbiy jihati - tasdiqlanmagan, mish-mish, tendensiya oz, subyektiv axborotlar ta’siriga tushib qoladi. Buni O‘zbekistonda mustaqillik yillarida faoliyat ko‘rsatayotgan ikki nashr – “Xalq so‘zi” va “Darakchi” gazetalari misolida kuzatish mumkin. “Xalq so‘zi”da odatda, rasmiy, siyosiy va huquqiy asosida tayyorlangan axborot mahsuloti iste’molchiga uzatiladi. “Darakchi”da esa tezkor, hali

sovumagan, sabab-oqibat dialetikasi talablaridan uzoq, gohida emotsional axborot uzatishga moyillik seziladi. Buni falsafiy-metodologik tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson tabiatan shov-shuvga sabab bo‘luvchi, ko‘proq negativ tabiatdagi (tabiiy ofat, jinoyatchilik, noqonuniy xatti-harakat va hokazo) ma’lumotlarga qiziqar ekan. “Darakchi” va shunga o‘xshash “sariq”, “xiyobon” nashrlar shu bois ommaviylashadi, ularga talab ortadi. Bu – paradoksil hodisadir. Insonda ijtimoiy og‘ish va salbiy hodisalarga qiziqish hissi negadir kuchli ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shunisi e’tiborliki, bunday ma’lumotlar ta’sirida insonda negativ immunitet shakllanadi, ayniqsa yosh avlodda, uning ongida berahmlik, yengiltaklik, shavqatsizlik, behayolik kabi hislatlar qaror topadi. Jamiyatda kuzatilayotgan noxush hodisalar, an’anaviy ma’naviy qadriyatlardan og‘ishlar salbiy ma’lumotlar ta’sirida shakllanadi.

Bundan umrini tugatgan, hayot talabidan orqada qolgan sobiq senzura institutini yana tiklash kerak, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bugungi axborot globallashuvi, axborot jamiyati sharoitida senzura yoki axborotni biron bir siyosiy institut “qosh-qovog‘i”ga qarab, uni “qayta ishlab” (sovutib) uzatish mumkin emas, iste’molchi “qaynoq” axborotni ma’qul ko‘radi. Shu bois nashriy axborot internetdan orqada qolmoqda. Axborot “tekislanib” nashrdan chiqquncha uning “qaynoq” variantini qaynoq kofe kabi iste’molchi allaqachon hazm qilib bo‘ladi. Tezkorlik - bugungi axborot bozorining muhim jihatidir. Bu muayyan darajada talab hamdir.

Virtual obrazlar bilan bola ongigagina emas, uning ong osti olamiga ham ta’sir etadi, anglanmagan obrazlar natijada kodlashadi. Shu bois PR texnologiyalarning nafaqat ijobiy, balki salbiy tabiati ham mavjud. Maktab yoshidagi yoki talaba yoshidagi yoshlarga turli kompyuter o‘yinlari orqali ta’sir ko‘rsatib, ularni hatto suiqasd holatiga ham keltirish mumkin. Masalan, bir necha yil oldin “ko‘k kit” kompyuter o‘yini qanchadan-qancha yoshlarning o‘limiga sabab bo‘ldi. Mazkur holat muayyan psixologik texnologiyaga asoslangan bo‘lib, u qiziqarli, bolalar qiziquvchanligini hisobga olgan holda uni asta-sekin falokat yoqasiga olib boradi va so‘nggi nuqta – inson o‘z joniga qasd qiladi.

PR texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalarining muhim funksiyalaridan biri - jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishidir. Ushbu masala yuzasidan siyosatshunoslik fanida qator yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida hamfikrlik yoki umumiy tushuncha mavjud emas. Shunisi ma’lumki, PR texnologiyalar ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat siyosiy jarayoniga ta’sir qiladi. Bu ta’sir individ, shaxs darajasida ham, jamiyat darajasida ham kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Bunday strategik vazifalar mohiyatan siyosiy vazifalardir, ular amaliy ishlanmalarsiz faqat vazifa, shior bo‘lib qolishligi aniq. O‘tmishda ham talay ulug‘vor chaqiriqlar, shiorlar va da’vatlar bo‘lgan. Biroq, ushbu shiorlar real, amaliy ilmiy asoslar yaratilmaganligi sababli quruq gap bo‘lib qolgan. Bugungi vaziyat, hayot talabi boshqacha - real, konkret, xalq, aholi ijtimoiy psixologiyasini, mentalitetini va ayniqsa uning konkret talab va zhtiyojlarini sotsiologik jihatdan o‘rganmasdan turib siyosiy qarorlar qabul qilish mantiqqa va umuman real voqe’likka ziddir.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” va “Ijtimoiy hamkorlik to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi aynan shu reallikni aks ettiradi – so‘zda emas, amalda yaratuvchi kuch, ijodkor omil shakllanadi. Bu - bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan zamonda yashovchi, uni axborot tanlashi va iste’moliga hech qanday to‘siq, g‘ov mumkin bo‘lmagan, erkin axborot olish huquqiga ega fuqarodir. Bunday sharoitda PR siyosiy texnologiyalarining kommunikatsion jarayonlarida o‘rni, roli va mavqei tobora ortib borishi kuzatiladi. Yuqoridagi tahlildan PR siyosiy texnologiyalarining asosiy funksiyalari haqida xulosa shakllanadi. Bu funksiyalar quyidagicha: gnoseologik, tarbiyaviy, aksiologik, nazorat qiluvchi, manipulyativ va yo‘naltiruvchi funksiyalardir.

Jamiyat konkret ijtimoiy tuzilma va organizm bo‘lib, uning asosini muayyan siyosiy tizim tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar siyosiy tizim elementlari orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi. Bizningcha, siyosiy tizim elementlari va tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) Davlat organlari, uning qonunchilik va ijro hokimiyatlari.

2) Qurolli kuchlar.

3) Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda sud, prokuratura va ichki ishlar organlari.

4) Davlat sud arbitraji.

5) Siyosiy partiyalar.

6) Siyosiy harakatlar.

7) Jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, ijodiy uyushmalar va hokazo).

Jamoat tashkilotlari, turli ijtimoiy harakatlar, masalan, volontyorlik (ko‘ngillilik), ayniqsa, din garchi siyosiy tizimga bevosita ta’sir ko‘rsata olmasada, ularning faoliyati siyosiy xarakterga ega. Masalan, sekulyar siyosat mavjud bo‘lmasa, din siyosatlashadi, davlat va din bir-birlarining ishiga aralashadi, ijtimoiy dilemmaga yo‘l ochiladi. Siyosiy PR texnologiyalari bularning barchasiga barham beradi, davlatning, xalqning tanlagan strategik yo‘lidan bardavomligini va samaradorligini belgilovchi ishonchli omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun “kim axborotga egalik qilsa, dunyoga egalik qiladi”, degan ibora qanchalik emotsional bo‘lsa, shunchalik ratsional hamdir degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, parlament tomonidan bunday holatlarga barham berishga qaratilgan qonun bejiz qabul qilinmadi, u yoshlar, aholining barcha qatlami hayotiga qaratilgan turli jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Анализ состояния - перспектив развития Интернет в РУз. Информационно-аналитический отчёт / Узбекское агенство связи и информатизации программе развития ООН в РУз. - Ташкент: ПРООН, 2009. - С. 10.
2. Иванкова К.А. Англо-русский и русско-английский словарь по рекламе и PR. - СПб.: Питер, 2004. - С. 140.
3. Ницше Ф. Сочинения. Т.1. - М.: Мысль, 1990. - С. 496.
4. Феннер К. Политическая культура / Политология. Краткое тематический словарь. - М.: РАУ, 1992. - С. 70.
5. Jo‘rayev N. Tamaddunga da’vat. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - B. 51.
6. Саидходжаев С., Кучкаров А. Роль информационно-коммуникативных технологии в развитии общества // Халқаро муносабатлар - Международные отношения. - 2006. - №1. - С. 65-69.
7. Conte Ch. Angels in the Newsroom // Governing, - 1996. - №11. - R. 20.
8. Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2017. - B. 96.
9. Jumayev R., Yovqochev Sh.. Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. - T.: TDShI, 2018. - B. 232.
10. Малкин Е., Сучков Е. Политические технологии: - Москва: Издательство Лабиринт, 2021. - С. 656
11. Евдокимов В.А. Масс-медиа как сфера применения политических технологий. Учебное пособие. - Москва: Издательство - НИЦ ИНФРА, 2024. – С. 230.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UUK:343.5:342.7

Gulchexra SHUKURULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:gulinmsm@gmail.com

O‘zMU professori, f.f.n L.Muxammadjonova taqrizi asosida

RETRIBUTIVIZM VA JAZO AXLOQIY NAZARIYA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada retributivizm va jazoning axloqiy nazariya asoslari tadqiq qilinadi. Retributivizm, odatda, jazo ishlatishda inson huquqlari va axloqiy prinsiplarga tayangan holda, aybdorlar jazoga loyiq bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi. Mazkur nazariyaning asosiy vazifasi - jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan adolatli jazo berishdir. Bu jazo aybdorning qilgan jinoyatiga mos kelishi va u bilan muvozanatda bo‘lishi lozim.

Maqolada jazo adolatini ta’minlashdagi rol va jinoyatni jazolash orqali huquqni muhofaza qilish va ijtimoiy tartibni saqlash uchun zarur bo‘lgan axloqiy me’yorlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Retributivizm, jazo, jinoyat, adolat, axloqiy nazariya.

РЕТРИБУТИВИЗМ И НАКАЗАНИЕ КАК МОРАЛЬНАЯ ТЕОРИЯ

Аннотация

В статье исследуются основы этической теории ретрибутивизма и наказания. Ретрибутивизм, как правило, подчеркивает, что виновные должны быть наказаны, опираясь на права человека и этические принципы при применении наказания. Основная задача этой теории - назначение справедливого наказания лицу, совершившему преступление. Это наказание должно соответствовать преступлению виновного и быть соразмерным ему.

В статье рассматривается роль наказания в обеспечении справедливости и приводятся моральные нормы, необходимые для защиты правопорядка и поддержания общественного порядка посредством наказания за преступления.

Ключевые слова: Ретрибутивизм, наказание, преступление, справедливость, этическая теория.

RETRIBUTIVISM AND PUNISHMENT AS A MORAL THEORY

Annotation

This article examines the moral foundations of retributivism and the theory of punishment. Retributivism generally emphasizes that offenders deserve punishment, based on human rights and ethical principles in the application of punishment. The main objective of this theory is to administer just punishment to the person who committed the crime. This punishment should be proportionate to the crime committed by the guilty party and be in balance with it.

The article presents the role of punishment in ensuring justice and the moral standards necessary for law enforcement and maintaining social order through criminal punishment.

Key words: Retributivism, punishment, crime, justice, moral theory.

Kirish. Mamlakatimiz huquqiy tizimi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, milliy-diniy urf-odatlar, shariat va roman-german huquqiy oilasiga mansub normalarini qamrab oladi. So‘ngi yillarda xalqaro huquqiy normal, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini milliy qonunchilikda aks ettirish borasida bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi hamda qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Ma’lumki, har qanday davlat va jamiyatning huquqiy xarakterini asosan jazo tizimi belgilaydi. Umuman olganda, bu mavjud davlat-huquqiy tizimning insonparvarlik va demokratiklik darajasi haqida bilish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, jazo va uni ijro etish tamoyillariga taalluqli siyosiy va huquqiy nazariyalarni o‘rganish davlat va jamiyat huquqiy rivojlanishining holati va asosiy vektorini aniqlash imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, jazoni ijtimoiy hayotning tabiiy qismi sifatida ko‘rish kerak. Biroq, bunday harakatlarning zarurligi ba’zi asoslarni talab qiladi. Siyosiy va huquqiy tafakkurda bir qancha nazariyalar paydo bo‘ldi, ularda ijtimoiy institut sifatida jazoning tamoyillari va asoslari faol muhokama qilinadi. Shunday nazariyalardan biri retributivizm tushunchasidir. Bu tushuncha doimo jazo tushunchasi bilan bog‘liq holda keladi.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, jinoyat orqali jamiyatga jismoniy, axloqiy yoki huquqiy zarar keltirgani sababli, jinoyatchi adolatli jazo bilan jazolanishi ya’ni, jazo biroq manfaatlar yoki maqsadlarning natijasi sifatida emas, balki, adolatliligi va o‘rnidan kelib chiqishi zarur. Shu tufayli retributivizmni axloqiy va huquqiy nazariya deyishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sud-huquq tizimida retributivizm hamda jazo masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu nazariyalar bir qancha faylasuflari asarlarida ham keltirilgan. Xususan, nemis falsafasi vakillari Immanuel Kant (1724-1804) va Gegel (1770-1831) ijodi bilan bog‘liqdir. I.Kantning “Metaphysics of Morals” asari retributivizmni haqidagi asosiy falsafiy manbalaridan biridir. Kant adolatni axloqiy jihatdan ta’riflar ekan, jinoiy adolatni ham ma’lum bir axloqiy o‘ziga xoslik bilan bog‘laydi. U jinoyatni sodir etgan shaxsning javobgarligini muhim deb bilgan va “har bir inson o‘z harakatlari uchun mas’ul” degan tamoyilni ilgari surgan. Bu nazariya I.Kantning asarlarida to‘liq rivojlangan bo‘lib, uni retributivizm nazariyasining asosiy nazariyotchilaridan biri deb baholash mumkin.

Ingliz faylasufi Jon Lokk ham o‘z qarashlarida jamiyatda huquqiy adolatni tashkil etishda retributivizmning roli haqida fikr yuritadi. Jon Lokk “Second Treatise of Government” asarida jinoiy jazolarni shaxsning huquq va erkinliklariga tahdid sifatida ko‘radi va jazolashning adolatli asoslarini ishlab chiqadi.

Amerikalik professor Walter Berns o‘zining “For Capital Punishment” asarida, o‘lim jazosi va retributivizmni jamiyatdagi adolat va axloqiy tamoyillar bilan bog‘laydi. Yana bir amerikalik professor Mark D. White ham “The Ethics of Punishment” asarida jazoning axloqiy jihatlarini, jumladan retributivizmning tamoyillarini o‘rganadi. Asarda jazolarni belgilashda adolat va axloqiy masalalarga qanday yondashish kerakligi haqida so‘z boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda retributivizm, ayniqsa uning axloqiy jihatlari, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan falsafiy nuqtai nazarlardan o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar

retributivizmining nazariy asoslarini tahlil qilmoqda, bu tahlillar esa jazo va adolat tushunchalarining falsafiy fundamentlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar va usullarni qo‘llash mumkin, chunki retributivizmning ta’siri va mohiyati faqat bitta yondashuv orqali o‘rganib bo‘lmaydi. Metodlar orasida analitik, empirik, huquqiy va axloqiy yondashuvlar mavjud bo‘ladi.

1. Nazariy-analitik metod: Bu metod tadqiqotning asosiy usuli bo‘lib, retributivizm nazariyasining asoslarini, uning tarixiy va nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Nazariy-analitik metod yordamida jazo va adolatga oid falsafiy va axloqiy tushunchalar tahlil qilinadi. Bu metod orqali retributivizmning zamonaviy jazo tizimlarida qanday aks etayotganini, uning ijtimoiy va axloqiy izohlarini ishlab chiqish mumkin.

2. Yuridik-huquqiy metod: Retributivizmning amaliy qo‘llanilishini o‘rganish uchun yuridik metoddan foydalaniladi. Bu metod yordamida retributivizmning huquqiy tizimdagi yeri va uning jazo amaliyotlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish mumkin. Jazo tizimida retributivistik yondashuvning qanday qo‘llanilishi, uning samaradorligi va muammolarini o‘rganish maqsadida huquqiy hujjatlar, qonunlar, sud qarorlari va yuridik manbalar tahlil qilinadi.

3. Empirik metod: Empirik metod orqali jazo tizimidagi retributivistik yondoshuvning amaliy ta’sirini o‘rganish mumkin. Bu metodda so‘rovnomalar, intervyular, statistik tahlillar va boshqa empirik tadqiqotlar ishlatiladi. Jazo olgan shaxslar, sudya va advokatlar bilan o‘rganishlar olib boriladi, shuningdek, jamiyatning jazo tizimidagi retributivizmga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun so‘rovlar o‘tkaziladi.

4. Tahliliy usul (case-study): Tahliliy usul yordamida aniq huquqiy holatlar, sud qarorlari yoki jazo olayotgan shaxslarning amaliy tajribalari tahlil qilinadi. Keng tarqalgan yoki mashhur jazo tizimlaridagi retributivistik yondashuvlarni o‘rganish, real hayotdagi holatlar va sudlar qarorlariga oid tahlillar olib boriladi. Ushbu metod orqali retributivizmning jazo tizimidagi samara va zaif tomonlari yanada yaqqol ko‘rinish oladi.

5. Axloqiy tahlil metodlari: Axloqiy tahlil metodlari retributivizmning axloqiy asoslarini chuqur o‘rganish uchun ishlatiladi. Bu metod orqali retributivizmning adolatli va axloqiy jihatlari, uning etik dilemmalari, adolat va jazo o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilinadi. Retributivizmning etik muammolari va uning ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini o‘rganish uchun axloqiy nazariyalar, falsafiy va diniy yondashuvlar bilan solishtiriladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil va natijalar shuni ko‘rsatadiki, retributivizm axloqiy nazariya bo‘lib, jinoyatni sodir etgan shaxsni unga mos keladigan jazo bilan jazolash zarurligini ta’kidlaydi. Bu nazariya asosan qonun ustuvorligi, adolat va inson huquqlarini himoya qilish prinsiplariga tayangan holda ishlaydi. Retributivizm va jazo axloqiy nazariyasi, jinoyatchiga jazo berishning adolatliligi va uning o‘ziga xos axloqiy asoslariga yo‘nalgan nazariyadir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, jazo jinoyatning o‘ziga mos bo‘lishi kerak, va jazo jinoyatning zarurati emas, balki uning o‘zini tan olish va adolatni ta’minlash uchun zarurdir.

Bugungi kunda, jinoyat va jazoni shakllanish nuqtai nazaridan jazoni insonparvarlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash tobora keskinlashib bormoqda. Ko‘p yillardan buyon tadqiqotchilar bu borada ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jinoyat va unga beriladigan jazo qadimdan shakllanib kelgan tizim hisoblanadi. Qadimgi Mesopotomiya hukmdori Hammurapi tarixda Xammurapi qonunlari (akkad tilida: Inu Anum sirum), qonunchilik kodeksini ishlab chiqqan hukmdor sanaladi. Qonunlar to‘plamining asosiy qismida mamlakatdagi jinoiy ishlarga oid, huquqqa, sud ishlarini yuritishga, xususiy mulk huquqining buzilishiga (o‘g‘irlik va talash) va jangchilar huquqiga oid bandlar birma-bir ko‘rsatib o‘tilgan. Hammurapi qonunlarida tarixda ayovsizligi bilan nom qozongan bo‘lsada, ba’zi holatlarda, jinoyatga yarasha jazo berilishini ko‘rishimiz ham mumkin. Masalan, jabrlanuvchining ko‘zlariga zarar yetkazilsa jazo sifatida jinoyatchining ko‘ziga ham zarar yetkazilgan.

XIII asrda yashagan italyan gumanisti Leanardo Bruni Aretino fikricha, jinoyat va jazo o‘rtasidagi munosabat adolat orqali ko‘rsatilishi shart. Shunga o‘xshash fikrni boshqa italyan Uyg‘onish davri gumanisti Podjo Brachcholini “adolat burchi quyidagilardan iborat: har bir kishiga qilmishiga yarasha ya’ni mukofot yoki jazo olmoqni” aytib o‘tgan.

Retributivizm va jazoning asosiy tarafdori I.Kant ham bu borada fikrlar bildirib o‘tadi. Nemis faylasufi Immanuel Kant jazolashning absolyut nazariyasi deb ataladigan nazariyani yanada rivojlantiradi. Jinoiy jazo - bu jinoyat uchun adolatli jazo, davlatning jinoyatchiga uning sodir qilgan yomon ishi uchun muayyan azob-uqubat yetkazishidir. Kant jinoyat bilan jazo o‘rtasidagi tenglik g‘oyasini himoya qiladi. Kantning fikricha, jinoyatchi javobgar bo‘lishi va uning jinoyati uchun adolatli jazo olishi kerak, chunki u «inson shaxsiyatiga» va uning qadr-qimmatiga xilof bo‘ldi. Kant jinoyatchining xatosi uchun mos jazo berishni juda muhim deb hisoblagan.

Retributivizm, aksariyat hollarda, utilitarizm bilan solishtiriladi. Agar utilitarizmning maqsadi-jinoyatchini jamiyatga qaytarish yoki jinoyatlarni kamaytirish uchun samarali vosita sifatida foydalanish bo‘lsa (ya’ni, u jinoyatlarning qayta sodir etilishini oldini olish yoki jinoyatchini reabilitatsiya qilish maqsadida o‘tkaziladi, shuningdek, aybni jazolashdan ko‘ra, uning oldini olishga urg‘u beradi.), retributivizmda esa jazo o‘zi uchun, adolat uchun kerak bo‘ladi. Bu nazariyaga ko‘ra, jinoyatchi o‘z jinoyati uchun javobgar bo‘lishi kerak va jinoyatlar uchun jazo jamiyatning foydasi uchun emas, balki jinoyatning adolatli natijasini ta’minlaydi.

Axloqiy nuqtayi nazardan, retributivizm eng asosiy jihatda inson huquqlari va adolat konsepsiyalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Jazo, uning ijtimoiy maqsadi va aniq natijalarga erishishga yo‘naltirilganidan ko‘ra, jinoyatchiga adolatni tiklash va ularning xatosini bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, retributivizmning markazida «adolat» va «haqqoniylik» tushunchalari joy oladi, chunki har bir jinoyat jinoyatchiga nisbatan aniq bir jazo bilan yanada to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Retributivizm nazariyasi jazo tizimining axloqiy poydevori sifatida muhim o‘rin tutadi, chunki u adolatli jazo berishni, ya’ni har bir insonning amallari uchun adolatga mos muomala qilishni talab qiladi. Uning asosiy g‘oyasi shundaki, jinoyatchi o‘z amallariga mos ravishda jazo olishi kerak. Bu nazariya ijtimoiy tartibni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Retributivizmning 4 ta asosiy tamoyili mavjud bo‘lib, bular:

1) Adolat va javobgarlik: retributivizmning asosiy maqsadi - jinoyatni sodir etgan shaxsning adolatli ravishda jazolanishini ta’minlash. Bu jazo, jinoyatning o‘ziga mos bo‘lishi va uning natijasiga muvofiq bo‘lishi kerak.

2) Jazoning o‘zi uchun: retributivizm bo‘yicha jazo jinoyatchiga qarshi juda aniq, aniq va mos keluvchi bo‘lishi kerak, chunki jazo xuddi jinoyatning o‘ziga mos bo‘lishi kerak. YA’ni, bu nazariyaning nazarda tutishiga ko‘ra, jazo jinoyatning qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

3) Shaxsning huquqi va qadr-qimmati: Retributivizm jinoyatchi shaxsning qadr-qimmatini inobatga oladi va u bunday jazoga aniq va rag‘batlantirilgan mantiq bilan topiladi. Bu nazariyada jazo jinoyatchini, uning jinoyatlari uchun mas’ul hisoblashga yo‘naltirilgan.

4) Jazo va adolatning ta’riflariga muvofiq: Jazo, jinoyatning olib borgan mantiqiy natijalariga javob berishi kerak. Shuning uchun, bu nazariyaning asosiy fikrlaridan biri shuki, jinoyatchi jazoga o‘tadi va bu jazo faqat shunchaki ozor berish uchun emas, balki odil va yagona natijaga olib keladi.

Retributivizm “jazo biror maqsadga erishish uchun xizmat qilmaydi” degan tamoyilga asoslanadi, ya’ni jazo olishning o‘zi adolatli va o‘zaro munosabatlar uchun zarur bo‘lgan jihat sifatida qabul qilinadi. Shunday bo‘lsa ham, retributivizm nazariyasida ham muammolar mavjud. Uning asosiy muammolari ba’zida jinoyatchining individual holati, ijtimoiy sharoitlari va psixologik sabablari yetarli darajada hisobga olinmaydi, va shuningdek, jazo ko‘rinishida qatag‘onchilikka olib kelishi mumkin. Bu nazariyaning axloqiy muammolaridan biri shundaki, jinoyatchining yoki jinoyatining obyektiv xususiyatlarini to‘liq hisobga olish lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, retributivizm axloqiy nazariya sifatida jinoyatchiga adolatli jazo berishni, uning jinoyatiga to‘g‘ri mos keladigan javobni ta’minlashni maqsad qiladi. Jazo jinoyatning samarasi yoki manfaatga qaratilgan foydasi uchun emas, balki jinoyatning adolatli javobini ta’minlash uchun zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, retributivizm jinoyatchiga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni belgilovchi va jinoyatning yomonligini tan oluvchi falsafiy va huquqiy nazariyadir.

Shunday bo‘lsada ushbu nazariyada ijtimoiy va psixologik omillar yetarli darajada e’tiborga olinmaydi, va shuningdek, ijtimoiy barqarorlik va reabilitatsiyaga qiziqish ko‘rsatish zarur. Bundan kelib chiqib, amaliy hayotda retributivizmning haqiqiy amalga oshirilishi uchun, ijtimoiy reabilitatsiya va tarbiyalashni birgalikda rivojlantirish muhim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. G‘oyibov N.Y. Huquq falsafasi: Ma’ruzalar kursi. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
2. Mary Gregor. Metaphysics of Morals (Kant, I. 1797).1991
3. White, M. D. The Ethics of Punishment. Stanford Encyclopedia of Philosophy. 2009.
4. Moore, M. Placing Blame: A Theory of the Criminal Law. Oxford University Press. 1997.
5. Л.Симонцева - аннотация. В статье анализируются основные философские и этические учения о сущности наказания как способа разрешения уголовно-правового конфликта. 2019.
6. Артеменков Михаил Николаевич, Потапенкова Татьяна Игоревна. Критика положений теории “ретрибутивизма” в работах современных исследователей. Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. 2012. Выпуск 12-3
7. Куликов Михаил Вячеславович. “Ретрибутивизм и консеквенциализм в теориях правового наказания” Вестник Кузбасского института, по. 4 (7), 2011.
8. Qosimov, I. Retributivizm va jazo tizimining huquqiy yondoshuvlari. Tashkent Law Review, 2019.
9. Tursunov, J. Jazo tizimi: Retributivizm va adolatning ijtimoiy asosi. Tashkent Journal of Social Sciences, 2019.
10. Ismoilov, M. Jazo tizimida retributivizm va uning amaliyotdagi o'rni. Tashkent University Press, 2021.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 004.8: 338.48 (575.1)

Yoqub ERGASHOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, DSc
E-mail: y.ergashov@nuu.uz
Shavqiddin ADASHBOYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti bo‘lim boshlig‘i, PhD
Dilshod TURSIMATOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
Bobur UMURZAKOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
Nurbek ISKANDAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

TATU dotsenti, Sh.Pazilova taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TURISTIK MARSHURTLARNI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda turistik marshrutlarni raqamlashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali sayyohlar uchun qulayliklar yaratish masalalari yoritilgan. Tadqiqot raqamli texnologiyalarning turizm infratuzilmasiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, natijalar sohadagi raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishi ALM-202403110256 – “Jizzax viloyati Zomin tumani innovatsion turistik marshurtlarini raqamlashtirish amaliyoti” nomli loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, turizm, turistik marshrutlar, mobil ilovalar, AR/VR, IoT, Big Data, sun’iy intellekt, raqamlashtirish.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

На русском языке: В данной статье анализируются перспективы цифровизации туристических маршрутов в Узбекистане. Рассматривается значение внедрения цифровых технологий в сфере туризма, а также создание удобств для туристов с помощью мобильных приложений и цифровых платформ. Исследование направлено на выявление влияния цифровых технологий на туристическую инфраструктуру, а его результаты способствуют совершенствованию процессов цифровизации в данной области.

Данное исследование проведено в рамках проекта АЛМ-202403110256 – «Практика цифровизации инновационных туристических маршрутов Зоминского района Джизакской области».

Ключевые слова: Цифровые технологии, туризм, туристические маршруты, мобильные приложения, AR/VR, IoT, Big Data, искусственный интеллект, цифровизация.

IN ENGLISH: PROSPECTS FOR THE DIGITALIZATION OF TOURIST ROUTES IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the prospects for digitalization of tourist routes in Uzbekistan. It examines the importance of implementing digital technologies in the tourism sector and creating convenience for tourists through mobile applications and digital platforms. The research aims to determine the impact of digital technologies on tourism infrastructure, and its results contribute to improving digitalization processes in this field.

This research was conducted within the framework of the project ALM-202403110256 – «The Practice of Digitalization of Innovative Tourist Routes in the Zomin District of the Jizzakh Region.»

Key words: In English: digital technologies, tourism, tourist routes, mobile applications, AR/VR, IoT, Big Data, artificial intelligence, digitalization.

Kirish. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda hududlarning turistik salohiyatini takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi PF-61-65-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi 254-son “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 7 dekabrdagi 820-son “Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun qulaylik yaratish, turistik xizmatlarning raqamli boshqaruv tizimini shakllantirish hamda turizm iqtisodiyotining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus O‘zbekistonning global turistik bozorda raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion sayyohlik tizimini shakllantirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi [1].

Raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga sezilarli ta’sir o‘tkazib, kundalik faoliyatni yanada qulay va samarali qilayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda turizm sohasi ham raqamli vositalar yordamida jadal rivojlanib, sayyohlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar turizm sohasida tobora muhim o‘rin egallab, sayohat jarayonini yanada yorqin, qulay va samarali qilishda asosiy vositalardan

biriga aylanmoqda. Ular nafaqat sayyohlar uchun qulaylik yaratish, balki turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va turistik xizmatlar sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy va tahliliy usullardan keng foydalanildi. Jumladan, kontent-tahlil usuli qo‘llanilib, bu usul raqamlashtirish va turizm sohasidagi zamonaviy raqamli texnologiyalarning nazariy asoslaridan tortib, turistik marshrutlarni shakllantirishga mo‘ljallangan raqamli platformalar va maxsus dasturlargacha bo‘lgan katta hajmdagi ma’lumotlarni tizimli ravishda o‘rganish imkonini berdi.

Bundan tashqari, turistik marshrutlarini ishlab chiqish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘ziga xos jihatlarini yanada aniqroq tushunish, ularning samaradorligini baholash hamda vizualizatsiya qilish uchun grafik interpretatsiya usuli qo‘llanildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish, turistik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi. Natijada, turizmda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi bo‘yicha mavjud tendensiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar aniq belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo miqyosida turizmning rivojlanishida raqamli texnologiyalar muhim omil bo‘lib, sayyohlarning xizmatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fino, Eulalia & Martin-Gutierrez o‘z tadqiqotlarida sayyohlik yo‘nalishlarini yanada jozibador qilish maqsadida Web 2.0, QR-kodlar va kengaytirilgan reallik (Augmented Reality) texnologiyalarini birlashtirgan interaktiv sayyohlik qo‘llanmasi taqdim etilgan [2]. Neuhofer, B., Buhalis, D., & Ladkin, A. o‘z tadqiqotlarida virtual va kengaytirilgan reallikning turistik marshrutlar uchun foydalanilishi haqida keng tadqiqot o‘tkazilgan [3]. Buhalis & Amaranggana tadqiqotida “Smart Tourism” konsepsiyasi ilgari surilib, IoT (Internet of Things), Big Data va AI (Artificial Intelligence) texnologiyalarining sayyohlik sohasiga ta’siri tahlil qilingan [4]. Gretzel, Sigala, Xiang & Koo esa raqamli ekotizimlarning turistik tajribaga ta’sirini o‘rganib, mobil ilovalar, GPS xizmatlari va raqamli xaritalarning roli muhim ekanligini ko‘rsatgan [5]. Xiang, Z., & Fesenmaier, D. R. tadqiqotida turistik ma’lumotlarni raqamlashtirishda GIS va Big Data texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi [6]. VR texnologiyalarining sayohatchilarga ta’siri va ularning marshrut tanlashga ta’siri Tussyadiah, I. P., Wang, D., Jung, T. H., & Tom Dieck lar tomonidan o‘rganilgan [7]. Car, Tomislav & Pilepić Stifanich, Ljubica & Šimunić, Mislav tadqiqotlarida turizm va mehmondo‘stlik sohasida internet buyumlar (IoT) texnologiyalarining imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilingan [8]. Anita, Tiurida & Wijaya, Lianna & Sarastiani, Athea & Kusumo, Elang & Santi tomonidan muzeylarda virtual turlarning qabul qilinishi va ularning Smart turizm tajribasi ta’siri o‘rganilgan [9]. G.Gulyamova (2022) tadqiqotida O‘zbekistonda turizmning barcha turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligini ta’kidlab, sohani rivojlantirishda xorijiy tajribani o‘rganish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan [10]. N.A.Anvarov (2024) o‘z tadqiqotida turistlar bilan o‘zaro aloqa sifatini yaxshilash va sayyohlik marshrutlarini boshqarish uchun onlayn-bronlash va mobil ilovalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalarini muhokama qiladi, bu esa Samarqandda barqaror agroturizm rivojiga hissa qo‘shadi [11].

Turistik marshrutlarni raqamlashtirish global tendensiya bo‘lib, u aqlli turizm (Smart Tourism), interaktiv raqamli xaritalar (GIS, Google Maps, OpenStreetMap), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), buyumlar interneti (IoT) va sun’iy intellekt (AI) kabi texnologiyalarga asoslangan. Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning turizmga ta’siri, marshrutlarni tuzishning innovatsion usullari va zamonaviy trendlar haqida keng yoritilgan. Taqdim etilgan manbalarni tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistik marshrutlarni raqamlashtirishni tahlil qilishga oid jihatlar to‘liq o‘rganilmagan va yetarlicha yoritilmagan. Bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va turli sohalarning, jumladan xizmatlar sektorining to‘liq raqamlashtirish jarayoniga o‘tishi sharoitida, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish, integratsiyalash va keng miqyosda qo‘llash masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy raqamli yechimlar nafaqat asosiy biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, balki ularning uzluksiz ishlashini ta’minlash orqali bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, turizm sohasida innovatsion texnologiyalar raqobatbardoshlikni oshirish va sayyohlarni jalb qilishning muhim omiliga aylanmoqda.

Turizm eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) faol foydalanib, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va shaxsiylashtirilgan turistik takliflarni yaratishga yo‘naltirilgan. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, hanuzgacha turistik marshrutlarini yaratish bo‘yicha yagona metodologik yondashuv ishlab chiqilmagan. Bu esa innovatsion texnologiyalar asosida yuqori jozibadorlikka ega bo‘lgan va turistlarni jalb qilish qobiliyatiga ega marshrutlarni yaratishda muayyan to‘siqlarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, bunday marshrutlarning uzoq muddatli istiqbolini ta’minlash va turistik infratuzilmani yanada rivojlantirish uchun standartlashtirilgan axborot-kommunikatsiya yechimlari zarur.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turizm sohasini ham o‘zgartirayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlar, madaniy meros obyektlari, ko‘ngilochar joylarni qamrab olgan turistik marshrutlarni raqamlashtirish bugungi kunda sayyohlarga qulaylik yaratish va sohani rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun qator raqamli texnologiyalardan foydalaniladi (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohasida raqamli texnologiyalar

Turistik marshrutlarni raqamlashtirish zamonaviy texnologiyalarning keng qo‘llanilishini talab etadi. Mazkur texnologiyalar turistik tajribani yaxshilab, sayyohlarga maksimal qulaylik yaratishga yordam beradi. Ushbu raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali shahar sayyohlik infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi. Quyida turistik marshrutlarni ishlab chiqish uchun ishlatiladigan ixtisoslashtirilgan dasturlarning kengaytirilgan qiyosiy tahlilini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

Ixtisoslashtirilgan dasturlar qiyosiy tahlili

Texnologiya	Foydalanuvchilar uchun afzalliklar	Ommaviy dasturlar va xizmatlar	Qo‘llash sohalari
Geolokatsiya va GPS	Yo‘nalishni aniq belgilash, qiziqarli joylar (POI) haqida ma’lumot, navigator	Google Maps, Apple Maps, Waze	Marshrut yaratish, navigatsiya
Kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR)	Tarixiy binolarning virtual ko‘rinishini taqdim etish, sayyohlar uchun interaktiv tajriba	Google ARCore, Apple ARKit, Oculus VR, 360° Tours	Muzeylar, tarixiy yodgorliklar, VR turlar
QR-kodlar va mobil ilovalar	QR-kod orqali oson va tezkor ma’lumot, audiogidlar, interaktiv xaritalar	Google Lens, QRbot, izi.TRAVEL	Turistik obyektlar, interaktiv yo‘riqnomalar
Interaktiv veb-platformalar va IoT	IoT orqali real vaqt rejimida ma’lumot olish, xavfsizlikni ta’minlash	Smart tourism platforms, ThingSpeak, AWS IoT	Aqlli shaharlar, sayyohlik monitoringi
Blokcheyn va raqamli to‘lov tizimlari	Xavfsiz tranzaksiyalar, shaffof bron qilish jarayoni, kripto-to‘lovlar	Ethereum, Binance Pay, Travala.com	Mehmonxonalar, transport, ekskursiyalar
Sun’iy intellekt (AI) va chat-botlar	Avtomatik yo‘nalish tavsiyalari, interaktiv gaplashish imkoniyati, real vaqtda tarjima	ChatGPT, Google Bard, Telegram Bot API	Sayyohlik axborot markazlari, onlayn xizmatlar
Big Data va ma’lumotlarni tahlil qilish	Turistik oqimlarni bashorat qilish, mavsumiy talabni aniqlash, dinamik narx belgilash	Google Analytics, Tableau, IBM Watson	Turistik rejalashtirish, biznes strategiyalari
Dasturiy ta’minot va mobil integratsiya	Barcha xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish, oflayn rejimida ishlash	TripIt, Rome2Rio, Visit A City	Sayohat rejalashtirish, onlayn gidlar

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida bir necha mobil ilovalar ishlab chiqilgan. Quyida ularning ayrimlari haqida ma’lumot va tahlil keltirib o‘tamiz:

1. Gross Mobile. «Gross Insurance» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan «Gross Mobile» ilovasi sayyohlarga 24 soat davomida qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish imkonini beradi. Ilovaning SOS tugmasi orqali sayyohlar tezkor va malakali yordam olishlari mumkin. Shuningdek, ilova yaqin atrofdagi klinika va dorixonalarni topish, shifokor bilan uchrashuvni belgilash hamda yo‘l-transport hodisalarida favqulodda vaziyat xodimlariga murojaat qilish kabi funksiyalarni ham o‘z ichiga oladi [12].

2. Toshkent shahri bozorlari. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tadqiqotchisi Shahodat Oxunjonova tomonidan yaratilgan «Toshkent shahri bozorlari» mobil ilovasi orqali foydalanuvchilar poytaxtdagi turli bozorlarni osonlikcha topishlari mumkin. Ilova dehqon bozorlari, buyum savdo komplekslari va qurilish materiallari bozorlari haqida ma’lumot beradi. Foydalanuvchilar o‘zlariga yaqin bozorlarni topib, yo‘nalishni belgilashlari va bozorlarga baho berishlari mumkin [13].

3. Tourist Map. 2025 yilda O‘zbekistonda «Tourist Map» interaktiv portali va mobil ilovasi sinov tariqasida ishga tushirildi. Bu ilova orqali sayyohlar aeroportlar, vokzallar, tarixiy va madaniy joylarga yetib borish yo‘nalishlari haqida ma’lumot olishlari mumkin. Shuningdek, sayyohlar o‘z sayohat rejalarini tuzib, QR-kod orqali mobil qurilmalariga saqlab olish imkoniyatiga ega.

4. UzVisit. «ProLab Android» o‘zbek-hind axborot texnologiyalari markazi dasturchilari tomonidan yaratilgan «UzVisit» ilovasi foydalanuvchilarga Toshkentning diqqatga sazovor joylarini panorama shaklida ko‘rish imkonini beradi. Ilova orqali me’moriy yodgorliklar, restoranlar, mehmonxonalar va savdo markazlari haqida ma’lumot olish mumkin. Shuningdek, har bir obyektning xarita orqali joylashuvi ham ko‘rsatiladi.

Ushbu mobil ilovalar O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini takomillashtirish va sayyohlarga qulaylik yaratishga qaratilgan bo‘lib, «Gross Mobile» ilovasi sayyohlarning xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi, «Toshkent shahri bozorlari» esa mahalliy bozorlarni topishni osonlashtiradi. «Tourist Map» va «UzVisit» ilovalari esa sayyohlarga shaharning diqqatga sazovor joylari haqida to‘liq ma’lumot beradi. Biroq, ushbu ilovalarning muntazam yangilanishi va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda takomillashtirib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Global ilovalar dunyo bo‘yicha keng funksionallik va ma’lumotlarni taklif etadi, ammo mahalliy ehtiyojlarga moslashmagan bo‘lishi mumkin. Mahalliy ilovalar esa mahalliy bozorga moslashgan bo‘lib, aniq ma’lumotlar va qulay narxlarni taklif etadi, ammo funksionalligi cheklangan. Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz va qo‘shni respublikalardagi turistik mobil ilovalari qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Mobil ilovalar qiyosiy tahlili

Ilovalar						
Gross Mobile (UZ)	Toshkent shahri bozorlari (UZ)	Tourist Map (UZ)	UzVisit (UZ)	2GIS (Qozog‘iston, Rossiya, O‘zbekiston)	Yandex Maps (Rossiya, Qozog‘iston)	Kyrgyz Travel Guide (Qirg‘iziston)
Funksiyalari						
Tez yordam, xavfsizlik xizmatlari, klinika va dorixonalar ma’lumoti	Toshkentdagi bozorlar haqida ma’lumot	Turistik xarita, marshrut rejalashtirish	Turistik yo‘nalishlar, 3D panorama	Xarita, tashkilotlar ma’lumoti, oflayn kartalar	Xarita, yo‘nalishlar, transport ma’lumotlari	Qirg‘izistondagi sayyohlik joylari va gidlar
Onlayn bron qilish						
Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Gid va ekskursiya bron qilish mumkin
Oflayn rejimi						
Yo‘q	Yo‘q	Bor	Cheklangan	Bor	Bor	Bor
Xavfsizlik funksiyalari						
SOS, klinika va dorixonalar ma’lumoti	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q
Foydalanuvchi reytinglari						
Cheklangan	Cheklangan	Cheklangan	Cheklangan	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
Joylashuv aniqligi						
Aniq (tibbiyot obyektlari uchun)	Toshkentdagi bozorlarga moslashgan	Aniq (turistik joylar uchun)	Lokal ma’lumotlar aniq	Juda aniq	Juda aniq	Juda aniq
Til qo‘llab-quvvatlashi						
O‘zbek, rus	O‘zbek, rus	O‘zbek, rus, ingliz	O‘zbek, rus, ingliz	Ruscha, qozoqcha, o‘zbekcha	Ruscha, qozoqcha, o‘zbekcha	Ruscha, qirg‘izcha, ingliz
Yangilanishlar						
Kamdan-kam	Kamdan-kam	Kamdan-kam	Kamdan-kam	Har oy yangilanadi	Har oy yangilanadi	Har oy yangilanadi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Gross Mobile xavfsizlik va tibbiy yordam xizmatlariga mo‘ljallangan yagona ilova. U xavfsizlik funksiyalari bilan ajralib turadi, ammo turistik ma’lumotlar kam; Toshkent shahri bozorlari faqat Toshkentdagi bozorlar haqida ma’lumot berishga mo‘ljallangan, uning qo‘llanish doirasi cheklangan; Tourist Map va UzVisit turistlar uchun qulay, ammo ular hali ham cheklangan funksional va foydalanuvchi bazasiga ega; 2GIS va Yandex Maps Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekistonda keng qo‘llaniladigan xarita va tashkilot ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan ilova bo‘lib, ular turistlar uchun juda foydali; Kyrgyz Travel Guide Qirg‘izistonda sayohat qiluvchilar uchun gid va ekskursiya bron qilish imkoniyatlarini taklif qiladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistondagi ilovalarni rivojlantirish uchun turistik marshrutlarni aniqlash, onlayn bron qilish, oflayn rejim va bir necha tilli qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini qo‘shish maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasidan kelib chiqib, turistik xizmatlar integratsiyasi (gidlar, mehmonxonalar, transport) joriy etilsa, mahalliy ilovalarning jozibadorligi ortadi. Shuningdek, 2GIS va Yandex Maps kabi ilova modellaridan foydalanib, xaritalarda turistik obyektlar, mehmonxonalar va restoranlar hamda tibbiy xizmat ko‘rsatish obyektlari haqida kengroq ma’lumot berish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-dekabrdagi “Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 820-son Qarori // QMMB: 09/24/820/1013-son, 10.12.2024-y.
2. Fino, Eulalia & Martin-Gutierrez, Jorge & Meneses Fernández, María & Davara, Enrique. (2013). Interactive Tourist Guide: Connecting Web 2.0, Augmented Reality and QR Codes. Procedia Computer Science. 25. 338–344. 10.1016/j.procs.2013.11.040.
3. Neuhofer, B., Buhalis, D., & Ladkin, A. (2014). A Typology of Technology-Enhanced Tourism Experiences. International Journal of Tourism Research, 16, 340-350.
4. Buhalis, Dimitrios & Amaranggana, Aditya. (2015). Smart Tourism Destinations Enhancing Tourism Experience Through Personalisation of Services. Information and communication technologies in tourism 2015. 10.1007/978-3-319-14343-9_28.
5. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart Tourism: Foundations and Developments. Electronic Markets, 25, 179-188. https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8).
6. Xiang, Z., Fesenmaier, D.R. (2017). Big Data Analytics, Tourism Design and Smart Tourism. In: Xiang, Z., Fesenmaier, D. (eds) Analytics in Smart Tourism Design. Tourism on the Verge. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-44263-1_17.
7. Tussyadiah, I.P., Wang, D., Jung, T.H., & Dieck, M.C. (2018). Virtual reality, presence, and attitude change: Empirical evidence from tourism. Tourism Management.
8. Car, Tomislav & Pilepić Stifanich, Ljubica & Šimunić, Mislav. (2019). Internet of things (iot) in tourism and hospitality: opportunities and challenges. 163-175. 10.20867/tosee.05.42.
9. Anita, Tiurida & Wijaya, Lianna & Sarastiani, Athea & Kusumo, Elang & Santi,. (2021). Smart Tourism Experiences: Virtual Tour on Museum. 10.46254/AN11.20210813.
10. Gulyamova, G. Turizmni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati / G. Gulyamova // Society and Innovations. – 2022. – Vol. 3, No. 3. – P. 24-32. – DOI 10.47689/2181-1415-vol3-iss3-pp24-32. – EDN AUPBQC.
11. Анваров, Н. А. (2024). Цифровизация как драйвер роста агротуризма в самарканде: стратегии и перспективы. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 12, 58–64. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.990.
12. https://yuz.uz
13. https://uzbekistan.travel

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UO‘K: 32.01.303.377

Farida ESHNAZAROVA,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, PhD
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, DSc F.Narzikulova taqrizi asosida

SPORT SOHASIDA AMALIY TADQIQOTLARNI O‘RGANISHNING AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sport sohasida amaliy tadqiqotlarni o‘rganishning pedagogik jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, sportchining musobaqaga umumiy psixologik tayyorgarligi, musobaqaga ishtirok etish imkoniyatlari, musobaqa jarayoniga tayyorlashning e’tiborli jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sport, sportchi, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, natija, motivatsiya.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРИКЛАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ СПОРТА

Аннотация

В статье описываются педагогические условия изучения прикладных исследований в области спорта. Также освещены общая психологическая подготовка спортсмена к соревнованиям, возможности участия в соревнованиях, важные аспекты подготовки к соревновательному процессу.

Ключевые слова: Спорт, спортсмен, соревнование, психологическая подготовка, специальная подготовка, результат, мотивация.

PRACTICAL ASPECTS OF STUDYING APPLIED RESEARCH IN THE FIELD OF SPORTS

Annotation

This article describes the pedagogical conditions for studying applied research in the field of sports.Also, the athlete's general psychological preparation for the competition, opportunities to participate in the competition, important aspects of preparation for the competition process are highlighted.

Key words: Sport, athlete, competition, psychological preparation, special preparation, result, motivation.

Kirish.O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini joriy qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasiga zarur sharoitlar yaratish hamda xalqaro sport maydonlarida mamlakatimiz sportchilarining munosib ishtiroklarini ta’minlashning zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. Mustaqillik, erkin fikr yuritish, adolat va teng huquqlik yurtdoshlarimizga yangi baxt-saodat keltirdi.Bunda jismoniy madaniyat va sport harakati ham o‘zining haqli ravishdagi milliy maqomiga erishdi. Respublikaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy salohiyatida jismoniy madaniyat va sport ham o‘z o‘mi hamda mavqeiga ega bo‘ldi[1].

Mazkur jarayonda sportchilarning mahoratini shakllantirish, musobaqalarda qatnashish imkoniyatini vujudga keltirish va kengaytirish, musobaqalarga ruhan tayyorlash uslublarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga e’tibor berilmoqda.Shuningdek, sportchilarni musobaqa jarayonida yuzaga keladigan emotsional holatini nazorat qilish hamda ular ruhiyatidaida ro‘y berayotgan psixologik o‘zgarishlarni baholashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Psixologiko‘zgarishlar sportchi chidamkorligining oshishi yoki pasayishiga, ruhiy holatdan barqarorlik yoki zo‘riqishiga, ish qobiliyatining oshishi yoki pasayishiga olib keladi bu esa sportchilarning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu munosobat bilan sportchilarning yuqori marralarni zabt etishi uchun ulardagi o‘zgarishlarni nazorat qilib borish muhim dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida shuningdek yurtimizda ham sportchilarni jismoniy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arzikulov, K.G.Atabekova, X.SH.Barotov, A.S.Begmatov, Z.E.Gaziyeva, A.M.Nazarov, E.N.Nazarov, D.SH.Nasirov, J.A.Pulatov, F.T.Egamberdiyev, A.U.Xaitov, A.A.Sobirov va boshqalar tomonidan sport faoliyati va sportchi shaxsiga oid masalalar o‘rganilgan bo‘lib, bu tadqiqotlarda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash haqida, sportchilarning kasbiy rivojlanishi, sportchilarni sport faoliyatiga tayyorlash, sportchilarni saralash va tanlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sport sohasidaamaliy tadqiqotlar va holat o‘rganishlar murakkab, ammo muhim metodologik yondashuvlar orqali amalgaoshiriladi. Ushbu tadqiqotlar sportchilarning o‘ziga xos sharoitlari, jismoniy va psixologik ko‘rsatkichlari, hamda musobaqalardagi natijalarni o‘rganishga qaratilgan. Sport tadqiqotlari odatda sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini yaxshilash, ularning psixologik barqarorligini oshirish yoki yangi mashg‘ulot metodlarini sinovdan o‘tkazishga qaratiladi. Amaliy tadqiqotlar eksperimental va kuzatish usullariga tayanadi, bunda natijalarni sinchiklab kuzatish, ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish jarayoni muhim o‘rin tutadi.

Amaliy tadqiqotlar sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini yaxshilash yoki mashg‘ulot jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladigan metodologiyalarga asoslanadi. Bu jarayon ikki asosiy bosqichni o‘z ichigaoladi: eksperimental yondashuv va qiyosiy tahlil. Eksperimental yondashuvda tadqiqotchilar sportchilarni maxsus dastur asosida tayyorlab, ularning jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarini kuzatishadi. Masalan, aerob mashg‘ulotlari sportchilarning yurak-tomir tizimiga ta’sirini o‘rganish uchun maxsus dastur tuziladi, keyin bu dastur bir guruh sportchilarga qo‘llanilib, ularning natijalari kuzatib boriladi. Boshqa guruhga esaodatiy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bunday tajribalar yordamida ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi.

Kuzatish va tahlil usuli esa tadqiqotchi tomonidan sportchilarni tabiiy mashg‘ulot jarayonida yoki musobaqalarda kuzatishni o‘z ichigaoladi. Bu yondashuv sportchilarning haqiqiy sharoitlarda qanday natijalarga erishayotganini ko‘rish uchun qo‘llaniladi. Tadqiqotchi sportchilarning mashg‘ulotlari yoki musobaqalaridagi harakatlarini kuzatib, ularning muvaffaqiyat-lariga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlaydi. Masalan, psixologik tayyorgarlikning jismoniy natijalarga ta’siri o‘rganilishi mumkin.

Holatni o‘rganish usuli amaliy tadqiqotlar jarayonida sportchilar yoki sport jamoalari bilan alohida ishlashni talab qiladi. Bu usul sportchining yoki jamoaning individual natijalarini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning yutuqlari va qiyinchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Holat o‘rganishlar sportchilar yoki jamoalar bilan yaqindan ishlash orqali amalgaoshiriladi. Misol uchun, professional futbol jamoasining o‘yin strategiyasi qanday rivojlanayotganini va bu strategiyao‘yin natijalariga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini o‘rganish uchun holat o‘rganish metodidan foydalanish mumkin. Holat o‘rganish natijalari sportchilargao‘z yutuqlarini yaxshilash yoki qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Sport tadqiqotlari sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va ularning psixologik barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy tadqiqotlar va holat o‘rganishlar natijalari asosida sportchilar uchun moslashuvchan mashg‘ulot metodlari ishlab chiqilishi mumkin. Bu yondashuv sportchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan, shaxsiylashtirilgan dasturlar yaratishga imkon beradi.

Emotsional boshqaruv texnikalari sportchilar uchun nafaqat ularning jismoniy salohiyatini maksimal darajada ko‘rsatishda, balki ruhiy va psixologik holatlarini muvozanatlashda ham juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnikalar, asosan, sportchilarning emotsional zo‘riqish darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, ular stressni nazorat qilish, diqqatni jamlash, ruhiy barqarorlikni saqlash va ijobiy hissiy holatni mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqotlar emotsional boshqaruv texnikalarining samaradorligini ko‘plab tajribalar va ilmiy kuzatishlar orqali tasdiqlaydi.

Birinchi navbatda, sport psixologiyasi sohasidaolib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, stress va xavotir darajasini pasaytirishga qaratilgan texnikalar, masalan, chuqur nafas olish, vizualizatsiya va muskul relaksatsiyasi, sportchilarning umumiy samaradorligini oshiradi. Sportchilarning emotsional javoblari ko‘pincha ular duch kelgan o‘yin yoki musobaqaoldidagi stress va zo‘riqish darajasiga bog‘liq. Psixolog olim Richard Lazarusning fikricha, "individualning stressni qanday qabul qilishi va unga qanday javob berishi ularning moslashuv qobiliyatiga vaoxir-oqibatda muvaffaqiyat darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadi". Ushbu yondashuv orqali sportchilarning emotsional boshqaruvi texnikalarining samaradorligi ko‘pincha shaxsning ichki resurslariga bog‘liqligi tasdiqlanadi.

Shuningdek, tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, ijobiy vizualizatsiya va maqsadli o‘ylash kabi kognitiv strategiyalar sportchilarning ruhiy holatini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu texnikalar orqali sportchilar kelajakdagi vaziyatlarni oldindan tasavvur qilib, ijobiy natijalarni ko‘zda tutgan holda, ruhiy tayyorgarliklarini oshiradi. Tadqiqotlar ijobiy vizualizatsiyaning miyaning hissiy markazlari bilan bog‘liq neyron faoliyatni faollashtirishi va stress javoblarini boshqarishda yordam berishini aniqlagan. Shu sababli, vizualizatsiya usuli nafaqat sportchilarni ruhiy jihatdan mustahkamlashga, balki ularga ko‘proq ishonch va motivatsiya berishga ham yordam beradi.

Emotsional boshqaruv texnikalarining samaradorligi turli sport turlari bo‘yicha ham kuzatilgan. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi sportchilar nafaqat o‘z jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, balki ruhiy jihatdan barqarorlikni saqlashda ham emotsional boshqaruv texnikalaridan keng foydalanadi. Basketbol, futbol, tennis kabi sport turlarida stress va zo‘riqishni kamaytirish, diqqatni jamlash vao‘z-o‘zini motivatsiya qilish orqali muvaffaqiyatga erishishning katta qismi emotsional boshqaruv texnikalari bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, emotsional boshqaruv texnikalari sportchilar orasida ijtimoiy va jamoaviy hamkorlikning mustahkamlanishiga ham yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘z emotsiyalarini nazorat qiladigan sportchilar jamoaviy vaziyatlarda yanada samaraliroq hamkorlik qiladilar va bu ulargag‘alaba qozonish imkoniyatlarini oshiradi. Jamoaviy sport turlari uchun stressni boshqarish texnikalari o‘yin davomida ziddiyatlarni bartaraf qilish va jamoa ichidagi muvozanatni saqlash uchun juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun, sportchilarning emotsional boshqaruvi jamoaviy muvaffaqiyatning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy tadqiqotlar va o‘rganishlar sport sohasida muhim yangiliklar kiritishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar sportchilarning o‘z faoliyatidagi muayyan muammolarni chuqurroq tushunish, ularni hal qilish va sport jarayonlarini takomillashtirish uchun zarur vositalarni yaratishga yordam beradi. Amaliy tadqiqotlar ko‘pinchaaniq sportchi yoki jamoa bilan bevosita ishlashni o‘z ichigaoladi va natijada olingan ma’lumotlar sport psixologiyasi va fiziologiyasi sohalarida innovatsion usullarni joriy etishga yordam beradi.

Amaliy tadqiqotlar va o‘rganishlari orqali stressni boshqarish va psixologik tayyorgarlik texnikalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Masalan, sportchilarning ruhiy tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklar va ularga qanday javob berilishi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlar sportchilarga stress va xavotirni kamaytirish, diqqatni jamlash, ruhiy holatni barqarorlashtirish uchun yangi usullarni kiritishga imkon beradi.

Ikkinchidan, amaliy tadqiqotlar orqali musobaqaoldidagi va musobaqa paytidagi psixologik va fiziologik javoblarni chuqur tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu turdagi tadqiqotlar sportchilarning mushak kuchlanishi, yurak urish tezligi, nafas olish ritmi va boshqa fiziologik ko‘rsatkichlarini kuzatish orqali ularning jismoniy va ruhiy holatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi. Holat o‘rganishlari natijasida stress holatlarini oldindan bashorat qilish va sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, amaliy tadqiqotlar va holat o‘rganishlari jamoaviy sport turlarida jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash va sportchilar o‘rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash usullarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shadi. Bu boradaamalgaoshirilgan tadqiqotlar sportchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilash orqali jamoaviy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishni o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy o‘yinlarda ishonch vao‘zaro qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi sportchilarning psixologik barqarorligi va jamoaviy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy tadqiqotlar, shuningdek, sportchilarning shaxsiy rivojlanishi va ular duch keladigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini ham o‘rganadi. Tadqiqotlar davomidao‘ziga bo‘lgan ishonch, motivatsiya va ruhiy bardoshlilikni oshirishga qaratilgan yangi usullar ishlab chiqiladi. Ushbu usullar sportchilarning o‘zlari bilan ishlash qobiliyatini kuchaytiradi va ular stress holatlari va muvaffaqiyatsizliklarni engib o‘tishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.Yana bir muhim jihat, amaliy tadqiqotlar sport sohasida yangi texnologiyalar va uskunalarning samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali sportchilarning jismoniy va ruhiy faoliyatini yaxshilash uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar, masalan, fitnes-monitorlar, biosensorlar va virtual reallik trening usullari sinovdan o‘tkaziladi. Natijada, ushbu yangiliklar sportchilarning mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish va ularning natijalarini oshirishga hissa qo‘shadi.Umuman olganda, amaliy tadqiqotlar va holat o‘rganishlar sport sohasida katta yangiliklarni kiritib, sportchilarning jismoniy va psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar sportchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochib berishlari uchun zarur bo‘lgan vositalarni yaratishda muhim o‘rin tutadi va sport jarayonlarini takomillashtirishda kattaahamiyatga ega[3].

Xulosa. Sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqgan holatda, sportchilarni musobaqa jarayoniga tayyorlashga kata e’tibor berish zarur. Sportchilarga musobaqadagi raqibi va bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqidagi yetarlicha ma’lumotlarni oldindan berish, sport mashg‘ulotlari va musobaqalar haqida olingan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o‘zgarishlarning alohida sportchilar yoki jamoaga g‘alaba keltirish imkoniyatlarini to‘liq o‘rganib boorish muhim shartlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. - T.: Fan va texnologiya, 2008, 388-bet.
2. Hayitov O.E.Po‘latov J.A. Sport faoliyati psixologiyasi. O‘quv-uslubiy majmua.- T.: -2021. 156 bet.
3. Y.M.Masharipov, F.J.Eshnazarova. Sport psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. (to‘ldirilgan ikkinchi nashr)- Samarqand:2020.-105 b.
4. Eshnazarova F. J. Musobaqa jarayonida sportchilarning emotsional holati namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2025. 1-son, 218-b.
5. https://www.sports.ru/

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UO‘K: 156.423.24

Tulanboy YUSUPOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: Yusupovto’lanboy26@mail.ru

PhD B.Parmonov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN TEAM RELATIONS (ON THE EXAMPLE OF FOOTBALL TEAMS)

Annotation

This article analyzes the psychological aspects of emotional intelligence in team relations, in particular, on the example of football teams. The study examines how the level of emotional intelligence of football players affects their team performance, communication skills and stress management skills. It also discusses the role of emotional intelligence in the development of emotional bonds between coaches and players, cooperation within the team and leadership qualities. The results of the study are aimed at providing practical recommendations for creating an effective psychological environment in football teams and increasing the motivation of athletes.

Key words: Emotional intelligence, team relations, football team, psychological aspects, communication, stress management, leadership, sports psychology.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОМАНДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНД)

Аннотация

В статье анализируются психологические аспекты эмоционального интеллекта в командных отношениях, в частности, на примере футбольных команд. В исследовании изучалось, как уровень эмоционального интеллекта футболистов влияет на их командную игру, коммуникативные навыки и способность справляться со стрессом. В статье также обсуждается роль эмоционального интеллекта в развитии эмоциональных связей между тренерами и игроками, командной работе и лидерских качествах. Результаты исследования направлены на предоставление практических рекомендаций по созданию эффективной психологической среды в футбольных командах и повышению мотивации спортсменов.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, командные отношения, футбольная команда, психологические аспекты, коммуникация, управление стрессом, лидерство, спортивная психология.

JAMOAVIY MUNOSABATLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING PSIXOLOGIK JIHATLARI (FUTBOL JAMOALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoaviy munosabatlarda emosional intellektning psixologik jihatlari, xususan, futbol jamoalarining misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda futbolchilarning emosional intellekt darajasi ularning jamoaviy o‘yin samaradorligiga, kommunikativ ko‘nikmalariga va stressni boshqarish qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Shuningdek, murabbiy va futbolchilar o‘rtasidagi hissiy aloqalar, jamoa ichidagi hamkorlik va liderlik sifatlarining rivojlanishida emosional intellektning roli muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari futbol jamoalarida samarali psixologik muhitni shakllantirish va sportchilar motivatsiyasini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: Emosional intellekt, jamoaviy munosabatlar, futbol jamoasi, psixologik jihatlar, kommunikatsiya, stress boshqarish, liderlik, sport psixologiyasi.

Kirish. Jahon sportida futbolchilarning va ularning jamoasinining turli psixologik vaziyatlarni yengish bo‘yicha va xissiy-emotsional holatlarini, ularni salbiy oqibatlarini yengishda psixologik tayyorgarlik, turli stresslar, frustratsiyalar, nevrotik holatlar va tushkunliklarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar ma’lum darajada olib borilmoqda. Bu borada emotsional intellektning ta’sirlari, futbolchilarning ruhiy rivojlanishining eng muhim bosqich ekanligi, mazkur psixologik jarayon futbolchilarning jamoaviy shakillanishida, psixologik tayyorgarligida o‘zgacha yondashuvni tanlash nuqtai nazaridan ahamiyati beqiyos ekanligi, futbolchilarning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘z o‘zini faollashtirish, musobaqalarga refleksiv munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish muhimligi bois futbolchilarda emotsional intellektni jamoaviv munosabatlarga ta’sirining ijtimoiy-psixologik omillarini bilan bog‘liqligini o‘rganish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sport sohalariga alohida etibor bilan yondashilmoqda. Bu borada prizidentimiz yurtimiz sportchilariga katta etibor qaratib, ularni yutuqlarini o‘z nutqlarida etirof etib, 2021-yil 13-avgust kuni Tokioda bo‘lib o‘tgan XXII yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan O‘zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday dedi: "Hammamizga ayonki, xalqaro olimpiya o‘yinlarida yer yuzining eng zo‘r, manaman degan sport ustalari ishtirok etadi. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, sherga qarshi sherdek kurashish, jang qilish kerak. Sizlar dunyo tan olgan sportchilar bilan mardona olishib, ularning o‘zini ham, ular erishgan natijalarni ham ortda qoldirib, 3 ta Olimpiya rekordini yangilab, jahon sportida ham yorqin sahifa ochdi ngiz." Deya takidlab masullarga sport sohasini rivojlantirish va rag‘batlantrish uchun alohida topshiriqlar beradi[1].

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ham sportning futbol turi rivojlantirish borasida, uning jahon miqiyosida ko‘rsatishga astoydil mehnat qilinmoqda, bu borada o‘zbek psixolog olimlarining o‘rini beqiyos. O‘zbek olimlarimizdan G‘.B.Shoumarov, B.M.Karimova, B.R.Qodirov, N.S.Safayev, Z.Nishonova, Sh.R.Baratov, R.S.Samarov, Z.G. Gapparov va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida sportchilardagi turli xissiy-emotsional kechinmalarni o‘rganish borasida muayyan darajada ishlar olib borishgan. G‘.B.Shoumarov, B.M.Karimova, B.R.Qodirov, N.S.Safayev, Z.Nishonova va boshqalar yosh davriga xos intellektual va emotsional xususiyatlarning u yoki bu qirralarini muayyan darajada tadqiq etishda intellektning turli psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratganlar. MDH davlatlari olimlaridan A.V.Alikseyev, V.F.Sopov, L.S.Vigotskiy, D.A.Leontev, A.V.Petroviskiy, A.M.Stolyarenko, M.SH.Magamed-Eminov, V.I.Medvedev va boshqa olimlar sport

psixologiyasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida emotsional intellektni jamoaga ta’sirlarini malum darajada yoritib o‘tganlar. Y.M.Semyonova, I.N.Andreeva, D.V.Ushakova, E.A.Sergienko, I.S.Stepanov, D.V.Lyusin[2] tadqiqotlarida emotsional intellektning turli yosh davrlariga xos nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xorij olimlaridan Dj.Mayer, P.Salovey va D.Karuzolar emotsional intellekt tushunchasini fanga ilk bor ilmiy asosda kiritganlar. D.Goleman emotsional intellektni bosh miya yarim sharlari va mental soha bilan uzviy bog‘liqligini tadqiq etgan. E.Boadzis, K.V.Petrides va boshqa olimlar emotsional intellektni turli qarashlar doirasida o‘rganish bilan shug‘ullanishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi kompleks nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Ular: maqsadli kuzatuv, suhbat, qayd qiluvchi eksperiment, «Ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko‘rinishlari anketasi» (Tomas-Kilmanning metodi asosida), «Emotsional intellektni baholash» testi (N.Xoll metodi asosida), G.Tojiboyeva va T.Yusupovlar tomonidan tuzilgan «Emotsional intellekt» so‘rovnomasi, « Intellekt tiplari anketasi » metodikasi (G.Gartner metodi asosida), G. Y. Ayzenkning shaxs individualligini aniqlashga qaratilgan EPQ so‘rovnomasi, hamda matematik statistik metodlari («SPSS-14» dasturi talablari bo‘yicha).

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jaroyonini tashkil etishda tanlangan metodikalar statistik jihatdan to‘g‘ri o‘tkazilganligini tekshirish maqsadida tavsiflovchi mezon orqali respondentlardagi javoblar tahlili quyidagi jadvalda keltirildi.

2.1-jadval

Tomas-Kilmanning ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko‘rinishlari anketasi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko`rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O`rtacha qiymat	Standart og`ish	Assimetriya	Eksess
Raqobat	443	1,00	13,00	7,1038	2,15320	-,298	-,001
Hamkorlik	443	2,00	11,00	6,1061	1,59752	-,074	-,288
Murasosoz	443	,00	11,00	5,3070	1,65882	,185	,306
Qochuvchi	443	1,00	10,00	5,3386	1,90926	,173	-,360
Moslashuvchan	443	1,00	11,00	6,0609	1,82327	-,109	-,312

Raqobat strategiyasining o‘rtacha qiymati 7.10 bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘rtacha darajadan biroz yuqori ekanligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning ko‘pchiligi o‘z manfaatlarini himoya qilishga moyil, kuchli pozitsiyaga ega bo‘lishga intiladi va qarama-qarshilik holatlarida murosasizroq harakat qiladi. Standart og‘ish (SD=2.15) unchalik katta emas, ya’ni respondentlar o‘rtasida bu strategiyadan foydalanish ko‘proq o‘xshashlik kasb etadi. Assimetriyaning (-0.298) manfiy qiymati shuni bildiradiki, respondentlarning raqobatga moyilligi biroz yuqoriroq bo‘lgan tomoniga siljigan, ya’ni aksariyat ishtirokchilar bu strategiyadan o‘rtacha darajada yoki ko‘proq foydalanadi. Hamkorlik (M=6.10, SD=1.59) Hamkorlik strategiyasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat 6.10 bo‘lib, bu o‘rtacha darajada ekanligini anglatadi. Respondentlarning aksariyati mojaro vaziyatlarida hamkorlik qilishga moyil bo‘lsa ham, bu dominant strategiya emas. Assimetriyaning (-0.074) qiymati nolga yaqin, bu esa ma’lumotlar nisbatan simmetrik taqsimlanganini bildiradi. Eksess (-0.288) esa taqsimotning bir tekis tarqalganini ko‘rsatadi, ya’ni hamkorlikdan foydalanish bo‘yicha respondentlar o‘rtasida katta tafovutlar kuzatilmagan. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, respondentlar jamoaviy muhitda ishlashga moyil, ammo ular uchun hamkorlik asosiy strategiya emas, balki muayyan holatlarda qo‘llaniladi. Murosasozlik (M=5.30, SD=1.65) Murosasozlik (kompromiss) strategiyasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 5.30 bo‘lib, bu mo‘tadil darajada ekanligini bildiradi. Minimal qiymat 0.00, ya’ni ayrim respondentlar umuman bu strategiyani ishlatmasligi mumkin. Assimetriyaning musbat qiymati (0.185) shuni anglatadiki, respondentlarning aksariyati bu strategiyadan past yoki o‘rtacha darajada foydalanadi, ammo yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan respondentlar ham bor. Eksess (0.306) esa ma’lumotlarning biroz tig‘iz joylashganligini bildiradi. Bu natijalar shuni anglatadiki, respondentlarning bir qismi kelishuvga moyil bo‘lsa ham, ularning aksariyati mojaroning boshqa usullari (masalan, raqobat yoki qochish) bilan harakat qilishni afzal biladi. Qochish (M=5.33, SD=1.91) o‘rtacha qiymat 5.33 bo‘lib, bu ham mo‘tadil darajada ekanligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning ayrim qismi mojarolardan qochishga harakat qilsa ham, bu barcha uchun asosiy strategiya emas. Assimetriyaning musbat bo‘lishi (0.173) respondentlarning aksariyati qochish strategiyasidan unchalik ko‘p foydalanmasligini bildiradi. Eksess (-0.360) ma’lumotlarning nisbatan tekis tarqalganligini ko‘rsatadi. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi talabalar mojaro vaziyatlaridan qochishga moyil bo‘lsa-da, umumiy holatda bu strategiya dominant emas. Moslashuvchanlik (M=6.06, SD=1.82) Moslashuvchanlik strategiyasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat 6.06 bo‘lib, bu ham mo‘tadil darajada ekanligini bildiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, respondentlar mojarolarga moslashish va o‘z pozitsiyalarini yumshatishga moyildirlar. Assimetriyaning (-0.109) nolga yaqin bo‘lishi shuni anglatadiki, respondentlarning moslashuvchanlik darajasi nisbatan teng taqsimlangan. Eksess (-0.312) esa moslashuvchanlik bo‘yicha ko‘rsatkichlarning bir tekis taqsimlanganini bildiradi. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning aksariyati turli vaziyatlarga moslashishga intiladi, lekin bu strategiya ham yuqori ustunlikka ega emas. Eng yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichlar raqobat (7.10) va hamkorlik (6.10) strategiyalariga tegishli bo‘lib, bu shuni anglatadiki, respondentlar mojarolarga faol yondashadi va o‘z fikrlarini himoya qilishga moyil. Qochish (5.33) va murosasozlik (5.30) strategiyalari esa nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega, bu esa respondentlarning mojaroning bunday turlaridan kamroq foydalanishlarini bildiradi. Moslashuvchanlik (6.06) esa mo‘tadil darajada bo‘lib, respondentlarning aksariyati turli sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

2.2-jadval

Intellekt tiplari (G. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan) anketasi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko`rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O`rtacha qiymat	Standart og`ish	Assimetriya	Eksess
Lingvistik	443	,00	4,00	2,2980	1,06217	-,173	-,588
Matematik mantiqiy	442	,00	12,00	2,0747	1,13543	1,534	2,007
Vizual_fazoviy	443	,00	4,00	2,4063	1,05383	-,241	-,604
Musiqiy	443	,00	4,00	1,7314	1,02352	,201	-,592
Shaxslararo	443	,00	12,00	2,9052	1,11957	,615	1,101
Shaxsning ichki olamiga yo`nalgan	443	,00	4,00	2,6637	1,08973	-,461	-,594
Kinestetik	443	,00	4,00	2,7111	1,03230	-,415	-,620

Lingvistik intellekt so‘z boyligi, nutqni tushunish, ifodalash va til bilan ishlash qobiliyatini ifodalaydi. O‘rtacha ko‘rsatkich 2.30 bo‘lib, bu respondentlarning lingvistik qobiliyatlari o‘rtacha darajada ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.173) salbiy bo‘lgani uchun respondentlarning natijalari o‘rtacha qiymatdan biroz yuqoriroq tomon siljigan. Bu esa lingvistik jihatdan kuchliroq bo‘lgan respondentlar nisbatan ko‘proq ekanligini bildiradi. Eksess (-0.588) taqsimotning nisbatan tekis tarqalganligini ko‘rsatadi. Matematik-mantiqiy intellekt mantiqiy tafakkur, analitik qobiliyat va sonlar bilan ishlash qobiliyatini

anglatadi. O‘rtacha qiymat 2.07 bo‘lib, bu qobiliyatning respondentlarda nisbatan pastroq ekanligini bildiradi. Assimetriyaning yuqori musbat qiymati (1.534) shuni anglatadiki, respondentlarning ko‘pchiligi past ball olgan, lekin ayrimlari yuqori ballga ega. Eksessning yuqori bo‘lishi (2.007) natijalarning tig‘iz joylashganini, ya’ni aksariyat respondentlarning ko‘rsatkichlari o‘rtacha darajadan ancha past ekanligini ko‘rsatadi. Vizual-fazoviy intellekt intellekt shakl va tasvirlarni tushunish, makon va fazodagi obyektlarni idrok etish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 2.41 bo‘lib, bu qobiliyat o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatadi. Assimetriya (-0.241) shuni anglatadiki, respondentlarning natijalari nisbatan teng taqsimlangan, lekin salbiy qiymat biroz yuqoriroq natijalarga moyilligini bildiradi. Eksess (-0.604) esa natijalarning nisbatan bir tekis tarqalganligini ko‘rsatadi. Musiqiy intellekt ritm, melodiya, tovushlarni idrok qilish va musiqiy eshitish qobiliyatini ifodalaydi. O‘rtacha ko‘rsatkich 1.73 bo‘lib, respondentlarning aksariyatida bu qobiliyat pastroq ekanligini bildiradi. Assimetriya (0.201) natijalarning biroz past tomon siljiganligini bildiradi. Bu esa aksariyat respondentlarning musiqiy intellekti pastroq ekanligini ko‘rsatadi. Shaxslararo intellekt boshqalar bilan muloqot qilish, insonlarning kayfiyati va his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 2.90 bo‘lib, bu respondentlarning ijtimoiy qobiliyatlari nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Assimetriya (0.615) musbat bo‘lgani uchun respondentlarning natijalari pastroq tomon siljigan. Biroq ayrim respondentlarning ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lishi mumkin. Bu natija respondentlarning aksariyati boshqalar bilan yaxshi munosabat qura olishini, ammo ularning bir qismi bu borada qiyinchiliklarga duch kelishini ko‘rsatadi. Shaxsning ichki olamiga yo‘naltirilgan intellekt turi o‘zini tushunish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. O‘rtacha qiymat 2.66 bo‘lib, bu qobiliyat respondentlar orasida nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.461) salbiy bo‘lgani uchun respondentlarning natijalari yuqoriroq tomon siljigan. Bu esa respondentlarning aksariyati o‘z ichki dunyosini tushunishga moyilligini bildiradi. Kinestetik intellekt harakat va jismoniy qobiliyatni anglatadi. O‘rtacha ko‘rsatkich 2.71 bo‘lib, respondentlarning aksariyati yaxshi jismoniy koordinatsiyaga ega ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.415) salbiy bo‘lib, respondentlarning natijalari yuqoriroq tomon siljigan. Eng yuqori intellekt turlari: Shaxslararo (2.90), Kinestetik (2.71), Ichki olamiga yo‘naltirilgan (2.66). Eng past intellekt turlari: Musiqiy (1.73), Matematik-mantiqiy (2.07). Bu natijalar respondentlarning ijtimoiy va jismoniy intellekti rivojlangan, lekin musiqiy va matematik-mantiqiy tafakkur nisbatan pastroq ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

N.Xollning emotsional intellektni baholash testi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko`rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O`rtacha qiymat	Standart og`ish	Assimetriya	Eksess
Emotsional bilimdonlik	443	-18,00	24,00	7,3296	5,68078	-,753	1,514
O`z emotsiyalarini boshqarish	443	-13,00	18,00	6,8149	5,93838	-,679	,408
O`z o`zini rag`batlantiruvchi	443	-18,00	19,00	9,1625	5,30224	-,971	2,325
Empatiya	443	-15,00	20,00	7,9165	5,83404	-,834	1,219
O`zga insonlar kechinmalarini tushunuvchi	443	-18,00	18,00	7,9977	5,58460	-,543	,727

Emotsional bilimdonlik o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni ifoda eta olish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 7.33 bo‘lib, respondentlarning aksariyatida bu qobiliyat o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatadi. Assimetriya (-0.753) salbiy bo‘lgani uchun respondentlarning natijalari yuqoriroq qiymatlarga moyilligini bildiradi, ya’ni ko‘pchilik emotsional bilimdonlik jihatdan yetarli darajaga ega. Eksess (1.514) yuqori bo‘lib, natijalar taqsimoti tig‘iz joylashgan. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning aksariyati o‘rtacha darajadan keskin farq qilmaydi. O‘z emotsiyalarini boshqarish hissiyotlarni nazorat qilish, stress va tashqi ta’sirlarga moslashish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 6.81 respondentlarning aksariyati bu borada o‘rtacha darajada ekanligini anglatadi. Assimetriya (-0.679) salbiy bo‘lib, natijalar yuqoriroq tomon siljigan, ya’ni respondentlarning ko‘pchiligi o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladi. Eksess (0.408) natijalar taqsimotining biroz o‘rtaga jamlanganligini bildiradi. Ushbu natija respondentlarning stressga bardoshliligi va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati yetarli ekanligini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini rag‘batlantirish shaxsning ichki motivatsiyasi, maqsadlarga erishish istagi va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 9.16 respondentlarning bu qobiliyati yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Assimetriya (-0.971) natijalarning yuqori tomon siljiganligini bildiradi, ya’ni aksariyat respondentlarda o‘z-o‘zini rag‘batlantirish darajasi yuqori. Eksess (2.325) natijalar taqsimotining markazga juda tig‘iz joylashganligini anglatadi, ya’ni ko‘pchilik respondentlar bir xil natijaga ega. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, respondentlar ichki motivatsiyaga moyil, maqsadlarga erishish istagi kuchli va o‘zlarini rag‘batlantira oladilar. Empatiya boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdardlik ko‘rsatish qobiliyatini bildiradi. O‘rtacha qiymat 7.92 bo‘lib, respondentlarning empatiya darajasi o‘rtacha va undan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Assimetriya (-0.834) shuni anglatadiki, respondentlarning ko‘pchiligi empatik qobiliyatga moyil. Eksess (1.219) natijalar markazga nisbatan tig‘iz joylashganligini bildiradi. Bu natijalar respondentlarning boshqalarning his-tuyg‘ulariga sezgirligi va ularni tushuna olish qobiliyatining yetarli ekanligini ko‘rsatadi. O‘zga insonlar kechinmalarini tushunish boshqalarning emotsional holatini tushunish, muloqot jarayonida ularning kayfiyatini his qilish qobiliyatini aks ettiradi. O‘rtacha qiymat 7.99 bo‘lib, respondentlarning aksariyati bu borada yetarli darajada rivojlanganligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot futbolchilarning emotsional intellekti va uning jamoaviy munosabatlarga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotning metodologik asoslari, empirik tekshiruv natijalari va ularning tahlili keng o‘rganildi. Tadqiqotni samarali tashkil etish uchun psixologik diagnostika, ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalar, eksperimental tekshiruvlar va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bunday yondashuv futbolchilarning emotsional intellekt darajasini aniqlash, ularning jamoaviy muhitdagi xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqot davomida futbolchilarning emotsional intellekti ularning jamoaviy munosabatlariga ta’sir qiluvchi muhim omil ekani aniqlandi. Yuqori emotsional intellektga ega sportchilar jamoa ichida samarali muloqot olib borish, muammolarni konstruktiv hal qilish va stress holatlariga moslashish qobiliyatiga ega ekanligi kuzatildi. Bunday futbolchilarning jamoaviy birdamlik hissi yuqori bo‘lib, ular yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etishlari, o‘zaro ishonch va hamkorlik muhiti yaratishlari mumkinligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. https://xabar.uz /uz/sport/shavkat-mirziyoyev- sherga-qarshi-sherdek-kurashish- jang-qilish utm_ source.
2. Люсин, Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте / Д.В. Люсин // Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования; под ред. Д.В.Люсина, Д.В.Ушакова. – М.: Ин-т психологии РАН, 2004. – С. 29–3
3. Самаров Р.С. Девиантное поведение: характеристика форм и мотивов. – Ташкент.: ВШСАП. 2004. - 30 с.
4. Сакович Н.А. Арт-терапия бо`йича қўлланма. -СПб, 2005 - 42с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK:159.9(575.1)

Yodgoroy YUSUPOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: yusupova@mail.ru

ADU dotsenti, PhD. O.Dj.Qodirova taqrizi asosida

METHODS OF STUDYING CHILDREN'S AGGRESSION AND RAPE

Annotation

This article considers various methodological approaches to studying aggression and rape among children. The study uses experimental, observational, psychological testing and statistical analysis methods. The causes of aggression in children, factors that cause a tendency to rape and measures to prevent them are analyzed in detail. The influence of the family environment, social factors and psychological conditions on the behavior of the child is also highlighted. This study is aimed at providing practical recommendations for specialists, educators and psychologists working with children.

Key words: Child aggression, rape, psychological analysis, social factors, family environment, upbringing, observation, experimental research.

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕТСКОЙ АГРЕССИИ И ИЗНАСИЛОВАНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются различные методические подходы к изучению явлений агрессии и изнасилования среди детей. В исследовании используются методы эксперимента, наблюдения, психологического тестирования и статистического анализа. Подробно анализируются причины агрессии у детей, факторы, способствующие склонности к изнасилованию, и меры по их предупреждению. Также подчеркивается влияние семейной обстановки, социальных факторов и психологических условий на поведение ребенка. Целью данного исследования является предоставление практических рекомендаций для специалистов, педагогов и психологов, работающих с детьми.

Ключевые слова: Детская агрессия, изнасилование, психологический анализ, социальные факторы, семейная среда, воспитание, наблюдение, экспериментальное исследование.

BOLALAR AGRESSIYASI VA ZO‘RLASH HODISLARINI O‘RGANISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar orasidagi agressiya va zo‘rlash hodisalarini o‘rganishning turli metodologik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda eksperimental, kuzatuv, psixologik test va statistik tahlil usullari qo‘llaniladi. Bolalardagi agressiyaning sabablari, zo‘rlashga moyillikni keltirib chiqaruvchi omillar va ularni oldini olish choralari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy muhit, ijtimoiy omillar va psixologik holatlarning bola xulq-atvoriga ta’siri yoritiladi. Ushbu tadqiqot bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar, pedagoglar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar agressiyasi, zo‘rlash, psixologik tahlil, ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, tarbiya, kuzatuv, eksperimental tadqiqot.

Kirish. Bolalar orasida agressiya va zo‘rlash holatlari tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Ushbu hodisalar maktablarda, oila muhitida va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p uchraydi. Bolalar tajovuzkorlik va bosim ko‘rsatish orqali o‘zini ifoda etishga harakat qiladi yoki stress va psixologik muammolar natijasida bunday xatti-harakatlarga moyil bo‘lishadi. Shu sababli, agressiya va zo‘rlashni chuqur o‘rganish va uni oldini olish usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Xozirgi davrda bolalar orasida agressiv xatti-harakatlar va zo‘rlash hodisalari jamiyatning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu hodisalar nafaqat shaxsiy rivojlanish jarayoniga, balki maktab muhitiga, ijtimoiy munosabatlarga va kelajak avlodning psixologik barqarorligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar tomonidan namoyon qilinayotgan agressivlik turli shakllarda – jismoniy zo‘ravonlik, og‘zaki tahdid, kiberzo‘rlash yoki psixologik bosim tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu esa nafaqat individual muammolar, balki ijtimoiy ziddiyatlarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Agressiya va zo‘rlashning kelib chiqish sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ularni aniqlashda biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni e’tiborga olish zarur[2].

Biologik omillar orasida markaziy asab tizimining xususiyatlari, gormonlar ta’siri va genetika muhim rol o‘ynasa, psixologik omillar bolaning shaxsiyati, stressga chidamliligi, emotsional boshqaruv qobiliyati bilan bog‘liq. Ijtimoiy jihatdan esa oilaviy tarbiya, atrof-muhitning ta’siri, media vositalari va ta’lim tizimi bolaning xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlik yoki beqarorlik, mehr yetishmovchiligi va noto‘g‘ri tarbiya shakllari bolalarda agressiya darajasini oshirishi mumkin[4]. Bolalar orasida zo‘rlash holatlarining oshishi zamonaviy jamiyatning murakkab muammolaridan biri sifatida ko‘riladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida kiberzo‘rlash (cyberbullying) hodisalari keskin ko‘paymoqda. An’anaviy zo‘rlash shakllaridan farqli o‘laroq, kiberzo‘rlash anonimlik, keng auditoriyaga ta’sir qilish va uzoq muddatli psixologik zarar yetkazish imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu esa bolalarda stress, depressiya va o‘z joniga qasd qilish xavfini oshirishi mumkin.

Mazkur tadqiqot bolalar agressiyasi va zo‘rlash hodisalarini tahlil qilishda samarali usullardan – kuzatuv, psixologik testlar, statistik tahlil va eksperimental metodlardan foydalanadi. Tadqiqot natijalari bu muammolarni aniqlash, tushunish va samarali yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shu bilan birga, bolalar tarbiyasida oilaviy muhit va ijtimoiy muhitning ta’siri ham chuqur tahlil qilinadi[1].

Agressiv xulq-atvor va tajovuzkorlikni shaxsiy xususiyat sifatida eksperimental tadqiqotlarning qiyinchiliklari aniq, chunki ko‘pgina empirik ma’lumotlar tadqiqotchilar tomonidan laboratoriyada (nazorat qilinadigan sharoitda) yoki axloq tuzatish muassasalarida, maktablarda va bolalar bog‘chalarida (obyektiv kuzatish usulidan foydalangan holda) to‘planadi. Har holda, ochiq jismoniy tajovuz miqdori eksperimentator oldida turgan axloqiy muammolar yoki tadqiqot olib borilayotgan muassasalar xodimlarining aralashuvi bilan jiddiy ravishda kamayadi[5]. Natijada, ma’lumotlarning aksariyati tajovuzkor xatti-harakatlarning nisbatan engil shakllariga taalluqlidir va tadqiqotchilar tajovuzning yanada og‘ir shakllarini (masalan,

qotillik) tushuntirish uchun ularni ekstrapolyatsiya qilishga majbur bo‘lishadi. Ammo, barcha qiyinchiliklarga qaramay, olimlar tajovuz hodisasini o‘rganish uchun tobora ko‘proq adekvat usullarni ishlab chiqmoqdalar.

Agressiya va tajovuzkor xatti-harakatlarni o‘rganishda turli xil yondashuvlar va usullar qo‘llaniladi. Tadqiqotni o‘tkazish usullaridan biri eksperimentdir.

Eksperimental yondashuv tadqiqotchiga mustaqil o‘zgaruvchilarni nazorat qilish va shu bilan sabab va natija haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Eksperimental tadqiqotlar turli xil mustaqil o‘zgaruvchilarni (masalan, umidsizlikning kuchi) va ularning bog‘liq o‘zgaruvchilarga ta’sirini (masalan, tajovuzkor javobning intensivligi) o‘rganadi va shuning uchun bu tadqiqotlar eksperimental usul mezonlarini qondiradi[5]. Misol uchun, oddiy yo‘l harakati sharoitida haydovchilarning agressiv reaksiyalari o‘rganildi, avtomashina signalining kechikishi va davomiyligi nuqtai nazaridan aniqlandi, bu esa oldingi avtomobilning yashil chiroqqa kechikishi tufayli yuzaga kelgan umidsizlikka javob edi. Xuddi shunday, navbatda turgan odamlar boshqa birovning chiziqdan o‘tishga urinishidan hafsalasi pir bo‘lgan va ularning tajovuzkor reaksiyalari safning oldingi qismiga yaqinligi bilan tekshirilgan.

Xulq-atvorni tabiiy ko‘rinishlarida tahlil qilish qobiliyati nuqtai nazaridan ushbu yondashuvning afzalliklariga qaramay, ijtimoiy maqbullik nuqtai nazaridan xolis, bu sohada tadqiqotchining nazorati ostida bo‘lmagan ko‘plab qo‘shimcha o‘zgaruvchilar ham bo‘lishi mumkin. Misol uchun, siz avtobus kutayotgan odamlarning tajovuzkor reaksiyalarini o‘rganish uchun "navbat o‘tish" usulidan foydalandingiz deylik. Agar biron bir urinishingizda kutilgan avtobus 15 daqiqaga kechiksa, muammoga duch kelasiz, bu esa qo‘shimcha kuchli umidsizlik manbasini yaratadi[6].

Laboratoriya tajribalari. Tashqi sharoitlar ustidan nazoratning yo‘qligi, shuningdek, kuzatilayotgan subyektlarning eksperimental ta’sirga moyilligi laboratoriya tajribalari shaklida tajovuzkor xatti-harakatlarning amaliy tadqiqotlarining aksariyat qismini o‘tkazish uchun eng muhim sabab bo‘ldi. Bunda tadqiqotchining o‘zi uchta asosiy mezonga javob beradigan vaziyatlarni yaratadi: a) subyektlarga eksperimental ta’sir ko‘rsatiladi, uning maqsadi ularning tajovuzkor reaksiyalariga ta’sir qilishdir; b) ular har xil turdagi eksperimental sharoitlarda tasodifiy joylashtirilishi mumkin; c) har qanday buzuvchi ta’sirlarni nazorat qilish mumkin[6]. Agressiv xulq-atvorning asosiy tuzilishining haqiqiy o‘lchovlari bo‘lgan va shu bilan birga o‘lchanadigan shaxsga zarar keltirmaydigan tajovuzkorlikning xatti-harakatlarini tanlash muhim qarordir.

Adabiyotlar tahlili. Agressiya va zo‘rlash hodisalarini o‘rganish psixologiya, sotsiologiya, kriminologiya va nevrologiya kabi turli fanlar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu mavzuda qator ilmiy adabiyotlar mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali turli usullarning ahamiyatini tushunish mumkin.

Agressiyaning sabablari, turlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tushuntirish uchun turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Zigmund Freyd (1920) – Psixoanalitik nazariyada agressiya insonning tug‘ma instinktlari bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Freudga ko‘ra, insonda hayot instinkti (Eros) va o‘lim instinkti (Thanatos) mavjud bo‘lib, agressiya ikkinchisiga bog‘liq. Konrad Lorenz (1966) - "On Aggression – Lorenz agressiyani biologik jihatdan tushuntiradi va uning evolyutsion ahamiyatini ta’kidlaydi. Dollard va boshqalar (1939) - Frustratsiya-agressiya nazariyasi, ushbu nazariyada frustratsiya (maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlar) agressiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Albert Bandura (1977) - Ijtimoiy ta’lim nazariyasi – Bandura Bobo qo‘g‘irchoq eksperimenti orqali agressiyaning o‘rganilgan xulq-atvor ekanligini ko‘rsatdi. Bolalar agressiv modelni kuzatganda, o‘zlari ham shunday xatti-harakatlarni namoyon qilishlari mumkin.

Agressiyani o‘rganishda, eksperimental, kuzatuv, test va intervyu usullari qo‘llaniladi. Har bir metodologiyaning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Berkowitz & Lepage (1967) - Qurol mavjudligi va agressiya Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba ishtirokchilari oldida qurol bo‘lishi agressiyani kuchaytiradi.

Zimbardo (1971) - Stenford qamoqxona eksperimenti Eksperiment zo‘rlik va agressiv xatti-harakatlar ijtimoiy rollarga bog‘liqligini isbotladi. Eronen, Angermeyer & Schulze (1998) - Agressiya va psixiatrik kasalliklar. Ushbu tadqiqot agressiyaning shizofreniya va boshqa ruhiy kasalliklar bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Huesmann & Eron (1986) - OAV va agressiya Televizor va video o‘yinlar zo‘ravonligi bolalar va o‘smirlarda agressiv xulq-atvorni kuchaytirishi mumkinligini aniqladi.

Bu shkalada agressiyaning turli shakllari (jismoniy, og‘zaki, g‘azab va dushmanlik) o‘lchanadi. Anderson & Bushman (2002) - Umumiy agressiya modeli (GAM) Agressiyaning shakllanishida individual va atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’siri o‘rganiladi. Zo‘rlik va zo‘ravonlik hodisalarini o‘rganish bo‘yicha ham ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Brownmiller (1975) - Against Our Will Zo‘rlik ijtimoiy va gender muammolari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini tushuntiradi. Lisak & Miller (2002) - Zo‘rlash sodir etuvchi shaxslar profilini tahlil qilish, Zo‘ravonlikka moyillik shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Felson & Cundiff (2012) - Zo‘ravon jinoyatlar tahlili. Jinoyatlarning motivlari va dinamikasini statistik ma’lumotlar asosida tahlil qiladi. Eksperimental tadqiqotlar sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganishga yordam beradi. Kuzatuv va kontent-tahlil usullari ijtimoiy omillarning rolini ochib beradi. Psixologik test va so‘rovnomalar shaxsiy moyillik va xulq-atvor o‘zgaruvchilarini aniqlashda qo‘llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Agressivlikni baxolash uchun turli usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning quyidagi turlari ma’liudir. Inshoni baholash usuli - Bu usul birinchi navbatda oldingi umidsizlik yoki tirnash xususiyati bo‘lgan tajovuzkor xatti-harakatlarni o‘rganish uchun ishlatiladi. Uni birinchi marta L. Berkovitz (1962) ishlatgan. Tajribada ishtirokchilardan ma’lum bir masalani yechish uchun yozma topshiriqni bajarish so‘raladi va shundan so‘ng yechimni boshqa ishtirokchi, ya’ni aslida tadqiqotchining yordamchisi bo‘lgan ishtirokchi baholashi aytiladi. Shuningdek, ularga reyting reyting ishtirokchisi tomonidan etkazilgan elektr toki urishi soni bo‘yicha ifodalanishi, bitta zarba mumkin bo‘lgan eng yaxshi bahoni va o‘n zarbasi eng yomon bahoni bildirishi haqida ma’lum qilinadi. Taklif etilayotgan yechimning haqiqiy sifati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ishtirokchilar eksperimental yoki nazorat guruhiga tayinlanganligiga qarab, bir yoki etti elektr impulslariga ta’sir qiladi. Tajribaning ikkinchi, asosiy bosqichida ishtirokchilar rollarni o‘zgartiradilar va birinchisi ikkinchisining yechimini baholash imkoniyatini oladi. Bu holatda qo‘llaniladigan elektr toki urishi soni bog‘liq o‘zgaruvchidir va agressiv reaksiyaning kuchini ko‘rsatadi. Odatda, tajribaning birinchi bosqichida ishtirokchining salbiy bahosi uchun mas’ul deb hisoblangan shaxsga ko‘proq impulslar beriladi. Tashqi stimul rolini tahlil qilish qobiliyatiga qo‘shimcha ravishda, ushbu eksperimental dizayn tadqiqotchilarga stimul-agressiya munosabatlarini mo‘tadillashtiradigan qo‘shimcha o‘zgaruvchilarni o‘rganish imkonini beradi. D.Makgregor, M.Liberman, S.Solomon, J.Grinberglar agressiyani amaliy o‘rganishga yangi usulni kiritdilar. Ushbu tadqiqotchilarning tajribalarida odamlarning tajovuzkor istaklari achchiq ovqatni yoqtirmaydigan boshqa odamga bergan issiq sous miqdori asosida o‘lchandi. Sos miqdorini mezon sifatida ishlatish tadqiqotchiga tajovuzkor xatti-harakatlarning oson o‘lchanadigan ko‘rsatkichini beradi. Bundan tashqari, u axloqiy jihatdan maqbuldir, chunki u vaqtinchalik noqulaylikdan tashqari hech qanday zararli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Tahlil va natijalar. 45 nafar bolaning agressiyasi va zo‘rlash hodisalarini o‘rganish bo‘yicha taxminiy jadval berilgan. Jadvalda asosiy o‘zgaruvchilar: yosh, jins, oilaviy muhit, psixologik omillar va tahlil natijalari

O‘rtacha yosh: 11.2

Jins bo‘yicha taqsimot: 60% o‘gil bola, 40% qiz

Oilaviy muhit tahlili:

30% to‘liq oila

40% ajrashgan ota-ona

30% beqaror yoki zo‘ravonlik bo‘lgan muhit

Agressiya va oilaviy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik (korrelyatsiya): $r \approx 0.65$ (o‘rta-yuqori darajada bog‘liq)

Zo‘rlash hodisalari va psixologik omillar orasidagi bog‘liqlik:

Stress va depressiya yuqori bo‘lsa, zo‘rlashga moyillik 70% hollarda yuqori.

O‘ziga ishonch past bo‘lsa, zo‘rlashga moyillik 55% hollarda uchraydi.

Agressiyaning asosiy sabablari: beqaror oilaviy muhit, zo‘ravonlik, stress va depressiya. Zo‘rlashga moyillik ko‘proq yuqori stress va beqaror muhitda kuzatilgan. Oldini olish yo‘llari:

Oilaviy sharoitni yaxshilash

Bolalar bilan psixologik ishlash

Maktablarda agressiya va zo‘rlashga qarshi dasturlarni joriy etish

45 nafar bolaning agressiya va zo‘rlash hodisalari bo‘yicha empirik tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu hodisalar asosan psixologik va ijtimoiy omillarga bog‘liq.

Agressiyaning asosiy sabablari:

Oilaviy muhit: Zo‘ravonlik, beqaror yoki ajrashgan oilalarda ulg‘aygan bolalar orasida agressiya darajasi yuqori.

Psixologik faktorlar: Stress, depressiya va o‘ziga ishonchsizlik agressiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Tarbiyaning roli: Jazoga asoslangan tarbiya va mehr yetishmovchiligi bolalarda impulsiv va tajovuzkor xatti-harakatlarni kuchaytiradi.

Zo‘rlashga moyillikning asosiy omillari:

Yuqori stress va depressiya bilan bog‘liq.

O‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashish muammolari bu holatni kuchaytiradi.

Oilaviy muhitdagi beqarorlik yoki zo‘ravonlikni kuzatgan bolalar ko‘proq zo‘rlashga moyil bo‘lishadi.

Agressiya va zo‘rlashni oldini olish yo‘llari:

Oilaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish – ota-onalarga psixologik treninglar o‘tkazish.

Maktablarda psixologik xizmatlarni kengaytirish – bolalarning ruhiy holatini nazorat qilish va ularga yordam berish.

Ijtimoiy va huquqiy dasturlarni kuchaytirish – agressiv va zo‘ravon xatti-harakatlarning oldini olish uchun jazo va profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bolalar orasida agressiya va zo‘rlash hodisalari ko‘pincha beqaror oilaviy muhit va psixologik muammolar bilan bog‘liq. Bu muammolarni hal qilish uchun oilaviy muhitni yaxshilash, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish va tarbiya usullarini yaxshilash muhimdir.

Xulosa va takliflar. Bolalar orasida agressiya va zo‘rlash hodisalarining o‘sib borishi jiddiy psixologik, pedagogik va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqot davomida bolalar xatti-harakatlarining sabablari, ularning rivojlanish omillari va oldini olish usullari chuqur o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, agressiya va zo‘rlash hodisalari turli biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tizimli ravishda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bolalar orasidagi tajovuzkor xatti-harakatlarning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi aniqlangan:

Biologik omillar: Genetik moyillik, markaziy asab tizimining faoliyati va neyrotransmitterlar (dopamin, serotonin) darajasining o‘zgarishi bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin.

Psixologik omillar: Stress, depressiya, past o‘ziga ishonch, emotsional boshqaruvning sustligi va shaxsiy inqirozlar bolalarda agressiyani kuchaytiradi.

Ijtimoiy omillar:Oiladagi tarbiya usullari, ota-onalar o‘rtasidagi nizolar, maktab muhitidagi bosim va do‘stlar orasidagi ijtimoiy rollar agressiyaning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Media va texnologik omillar: Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, video o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent bolalar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularda tajovuzkorlikni rag‘batlantirishi mumkin.

Bolalar orasidagi agressiya va zo‘rlash hodisalarining keng tarqalishi bugungi jamiyat uchun jiddiy muammo bo‘lib, bu muammolarni kompleks yondashuv orqali hal qilish talab etiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun bu muammolarga faqat jazolash yo‘li bilan emas, balki ta’lim, tarbiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitni yaxshilash orqali yondashish kerak.

Kelajakda bolalar orasidagi zo‘ravonlikni kamaytirish uchun oilalar, maktablar va jamiyatning barcha qatlamlari o‘zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Rivojlangan psixologik dasturlar, ta’lim tizimiga integratsiyalashgan profilaktik chora-tadbirlar va ijtimoiy muhitni yaxshilash orqali bolalar xavfsiz va sog‘lom muhitda ulg‘ayishlari ta’minlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Daniel F. Connor.Aggressive Behavior in Children and Adolescents: Research and Treatment"2002-yil, 382-bet/
2. Debra J. Pepler va Kenneth H. Rubin. "The Development and Treatment of Childhood Aggression" 1991-yil, 441-bet.
3. Peter K. Smith, Debra Pepler va Ken Rigby."Bullying in Schools: How Successful Can Interventions Be?" 2004-yil, 356-bet.
4. Tina Malti. "Handbook of Child and Adolescent Aggression"2018-yil, 544-bet.
5. Юлия Гиппенрейтер Детская агрессия: причины и профилактика" 2010-yil.
6. Андрей Роговин "Психология агрессии" 2006-yil

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1]
ISSN 2181-7324

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz

UDK: 376.1:371.66:542(575.1)

Madina YAKUBOVA,
Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti
E-mail: madina.faxriddinqizi@gmail.com

TDPU p.f.d. DSc, professor v.b. I. Shernazarov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR USING THE INTEGRATION OF EXACT AND NATURAL SCIENCES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE TEACHING OF CHEMISTRY

Annotation

The scientific article presents a methodology for using the integration of exact and natural sciences to develop students' professional competence through chemistry teaching.The teaching of chemistry involves the integration of multiple disciplines, including social sciences, humanities, and exact sciences. The article outlines the purpose, objectives, and scientific novelty of the research, along with an analysis of existing literature and conclusions.

Key words: Integration, professional competence, reflexivity and creativity, diagnostic and analytical, functional and structural, morphological, genetic, innovative technologies, complex, innovative, integration, situational, individual approaches, motivational, cognitive, activity, reflexivity, dynamic system.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ ТОЧНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Аннотация

В научной статье представлены концепции методики использования интеграции точных и естественных наук в формировании профессиональной компетентности учащихся посредством преподавания химии. В преподавании химии представлены данные по интеграции нескольких дисциплин, социальных, гуманитарных и точных наук. При этом в статье приводятся цель, задача, научная новизна научно-исследовательской работы, степень изученности проблемы и анализ ряда научно-исследовательских работ, а также выводы.

Ключевые слова: Интеграция, профессиональная компетентность, рефлексивность и креативность, морфологические, генетические, инновационные технологии, комплексные, инновационные, интеграционные, ситуационные, индивидуальные подходы, мотивационные, познавательные, деятельностный, рефлексивность, динамическая система.

KIMYONI O‘QITISHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ANIQ VA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Ilmiy maqolada kimyo fanini o‘qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasi bo‘yicha tushunchalar keltirilgan. Kimyo fanini o‘qitishda bir qancha fanlar, ijtimoiy, gumanitar va aniq fanlar integratsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga maqolada ilmiy tadqiqot ishining maqsadi, vazifasi, ilmiy yangiligi, muammoni o‘rganilganlik darajasi va bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarining tahlililari hamda xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, kasbiy kompetensiya, refleksivlik va kreativlik, diagnostik-tahliliy, funksional-strukturaviy, morfologik, genetik, innovatsion texnologiyalar, kompleks, innovasion, integrasion, vaziyatli, individual yondashuvlar, motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksivlik, dinamik tizim.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida pedagog kadrlarning ijodkorlik va kasbiy-kreativlik sifatlarini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablarning ortib borishi ta’lim sifatini oshirishda innovatsion faoliyatni keng ko‘lamda tashkil etishga e’tiborni kuchaytirdi. Avstraliyaning pedagogik ilmiy izlanishlar Konsorsiumi (AGER), AQShning pedagogik tadqiqotlar testlarini o‘tkazish xizmati (YETS) va Yaponiyaning ta’lim sohasidagi Milliy tadqiqotlar instituti (NER) kabi yetakchi ilmiy markazlari tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini baholash, innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy usullarni joriy qilish, fanlar integratsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning faol texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or universitetlarda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonlarini samarali tashkil etishning yangi usullarini tashkil etish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Bu esa oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga bo‘lgan e’tiqodini rivojlantirishda fanlar integratsiyasini qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Dunyodagi yetakchi davlatlarning pedagogik tajribalariga asosan fanlar integratsiyasi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishni keng tatbiq etish hamda ta’limning sifat darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik yo‘nalishdagi fanlar integratsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro standartlar darajasidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali pedagogik kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi. 2015 yil may oyida Koreyaning Incheon shahrida jahonning 160 dan ortiq davlatidan 1600 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan. Butunjahon forumida jahon miqyosida, ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasi, ya’ni «Ta’lim 2030» – Incheon Deklaratsiyasi qabul qilindi va “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta’lim tizimida pedagogik yo‘nalishdagi fanlar uzviyligini ta’minlash, ta’lim mazmunini integratsiyalash, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori, 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli farmoni, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarori, 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda kimyo fanini o‘qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanish, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar M.M. Aripov, A.A. Abduqodirov, A.X. Abdullaev, N.V. Apatova, U.SH. Begimqulov, M.Lutfullaev, J.O.Tolipova kimyo fanida axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etib o‘qitishda E.U. Eshchanov, F.A. Alimova, L.T.Zaylobov, N.A.Anvarova, I.E. SHernazarovlar, kimyo fanini tabiiy fanlar integratsiyasida o‘qitish metodikasi bo‘yicha N.O. Temirov, G‘.A. Razzokov, M.A. Kuchkarovlar tomonidan o‘tkazilgan.

MDH olimlari kimyo fanini o‘qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanish bo‘yicha bir qancha olimlar M.A. Shatalov, N.YE. Kuznesova, A.A. Yataykina, A. Katolikov, F.A. SHeranova tomonidan amalga oshirilgan. E.N. Zyuzyuk va D.L. Ivanovlarning ilmiy maqolalarida ilm-fandagi integratsiya va farqlash va ularning amaliy ahamiyati tushuntirib berilgan, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va ularni ilmiy yechimlari bo‘yicha N.M. Slautina, A.A. Irincheyev, YE.A. Sadovskaya, T.P. Lapeko, S.I. Gilmanshina, YE.B. Borunovalarning ilmiy tadqiqotlarini keltirib o‘tish mumkin. T.A. Borovskiy, M.V. Lapenok, A.Rodionov, YE.Y. Zashivalova, A.A.Siromyatnikov, A.A.Yataykina va J.R. Savery, Shatalov Maksim Anatolevich, T.A. Borovskiy, Jurin Aleksey Anatoliyovich, Okolnikov Fyodor Borisovichlar tomonidan, fanlararo aloqalar sohasidagi tadqiqotlar va o‘quv maktabida tabiiy fanlar siklining o‘quv fanlarini birlashtirish (V.N. Maksimova, I.D. Zverev, V.N. Fedorova, A. B. Usova va boshqalar) ishlari amalga oshirilgan.

Xorijiy davlatlarda kimyo fanini o‘qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanish bo‘yicha Loredana MARCU, Roland Barthel, Roman Seidl, Veronica Strang,.Vincentas Lamanauskas, Devid Budz Pedersenlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni keltirishimiz mumkin.

Kimyo va matematika fanlari o‘rtasidagi integratsiya juda qadimdan boshlangan bo‘lib, ikkala fanning o‘zaro bog‘liqligi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan: Dmitriy Mendeleyev, Svante Arrenius, Linus Pauling, Irving Langmuir, John Pople, Alan Turing, Ilya Prigogine, Robert Boyle, Amedeo Avogadro, Gilbert N. Lewis, Martin Karplus, Walter Kohn, John Pople, Arieh Warshel, Jean-Marie Lehn, Ada Yonath, Michael Levitt, David Baker, K. Barry Sharpless, Frances Arnold, Eric Betzig, Michelle Francllar o‘z ilmiy tadqiqotlari davomida kimyoviy bog‘lanishlarni matematik jihatdan tushuntirishga hissa qo‘shishdi. Kimyoning “aniq fanlar” bilan integratsiyasi (masalan, matematika, fizika, informatika va muhandislik) Aln Aspuru-Guzik (Toronto universiteti/Garvard), David Baker (Vashington universiteti), Heather Kulik (MIT) ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Kvant kimyosi va fizika fanlar integratsiyasi Emili Karter (Princeton Universiteti), Garnet Chan (Kaltech), Mishel Parrinello (ETH Zrich), tadqiqotlarida statistik mexanika va molekulyar dinamikani birlashtish integratsiyasidan foydalanilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti ish rejasining ITD-1: “Jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixini hamda ta’limning uzviylik- uzluksizligini, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish” (2016-2019 y.y.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kimyo o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini konseptual tahlil qilish va metodik ta’minotini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyasidan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi modelini tayyorlash va o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqish;

talabalarning kasbiy kompetentlikni rivojlantirish darajasi sifat ko‘rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlash hamda olingan pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash.

Tadqiqotning predmetini talabalarning kasbiy kompetentligi aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirishning mazmuni, komponentli tuzilmasi, funksiyalari, tashkiliy-pedagogik sharoitlari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, so‘rovnoma, nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, umumlashtirish), va matematik statistik tahlil (ma’lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni monitoring qilish) hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning o‘zini o‘zi boshqarish, refleksivlik va kreativlik kabi pedagogik shart-sharoitlari shaxsiy va kasbiy sifatlarga qo‘yiladigan pedagogik va kompetensiyaviy talablarni integratsiyalash izchilligi va uzviyligiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarni aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim tizimida tahlilni amalga oshirish samaradorligi diagnostik-tahliliy, funksional-strukturaviy, morfologik, genetik, o‘xshashlik darajalariga ko‘ra samaradorlik jihatdan taqqoslovchi metodlarni aniqlash hamda pedagogik jarayonlarda qo‘llashning dastlabki va yakuniy bosqichlari bilan integrativlik darajalarini tizimli tahlil qilish tipologiyasiga ustuvorlik berish, talabalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish orqali pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyasidan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi modeli kompleks, innovasion, integrasion, vaziyatli, individual yondashuvlarning pedagogik jarayonni tashkil etishga proporsional bog‘liqligini ta’minlash hamda funksional tuzilishni aniqlash, umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir etishini hisobga olish va o‘quv hamda pedagogik amaliyot bosqichlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan o‘qitish shakllari orqali talabalarda kasbga e’tiqodni rivojlantirishning o‘quv-metodik ta’minoti ishlab chiqilgan;

talabalarning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksivlik kabi kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlashtirilgan hamda “dinamik tizim”ning texnologik ta’minotini intensivlashtirishga doir konseptual, innovatsion, tadqiqiy fikrlashga maqbul sharoit yaratish hamda yaratilgan didaktik materiallaridan pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kimyoni o‘qitishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modeli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik metodikalari hamda trening texnologiyalari dasturlari ishlab chiqilgan;

oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Kimyoda fanlararo integratsiya” nomli darslik xorijiy olimlar bilan yaratilgan va amalda foydalanilmoqda;

“kompetensiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik”, “ijodiy kompetentlik” kabi tushunchalar mualliflik nuqtai nazaridan pedagogik jihatdan takomillashtirilgan;

kimyoni o‘qitishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish hamda muammoli yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi tayyorlanib, ko‘rsatma va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqot ishida qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar, metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslangani, xulosa, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modellari, mezonlari va ko‘rsatkichlari yoritilganligi, kimyo o‘qitishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasini rivojlantirish modeli ilmiy asoslanganligi va ishda ilgari surilgan g‘oyalar, o‘qitish usullari hamda vositalarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogik Oliy ta’lim muasasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining yaratilganligi, samarador usullar maxsus tanlab olinganligi, ta’lim muassasalarida darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tayyorlashda, meyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotni kuchaytirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kimyoni o‘qitishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi:

talabalarni aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning o‘zini o‘zi boshqarish, refleksivlik va kreativlik kabi pedagogik shart-sharoitlari shaxsiy va kasbiy sifatlarga qo‘yiladigan pedagogik va kompetensiyaviy talablarni integratsiyalash orqali aniqlashtirilgan va 70110801-Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo)ning talabalari uchun tavsiya etilgan “Kimyoda fanlararo integratsiya” darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024 yil 30-noyabrdagi 4/3.1-sonli qaroriga asosan 2024-581U-516 - son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy kompetensiyasini aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirilgan;

talabalarni aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim tizimida talabalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish orqali pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyasidan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi modeli ishlab chiqilgan va o‘quv hamda pedagogik amaliyot bosqichlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan o‘qitish shakllari orqali talabalarda kasbga e’tiqodni rivojlantirishning o‘quv-metodik ta’minoti ishlab chiqilgan;

talabalarning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksivlik kabi kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlashtirilgan hamda olingan pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlangan.

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarga barcha fanlarni o‘qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanish metodikasini o‘rgatish ularning kelajakda o‘z faoliyatlarida bu kabi fanlar integratsiyalaridan foydalanib umumta’lim maktablariga dars o‘tishlari va o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ortishi, mavzuga oid manbalarni har tamonlama to‘g‘ri tahlil qila olish kompetensiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-son qarori. https://lex.uz/docs/3765586
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4312785
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son qarori. https://lex.uz/docs/4749364
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://lex.uz/docs/5841063